2026-yil
7-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
7-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

MUNDARIJA

Qodirov U.D. Destruktiv xulq-atvor: psixologik mazmuni, shakllanish omillari va profilaktikasi……... 7
Сулетбаева Э.С. Современные зарубежные подходы к добрачной подготовке молодежи и их практическая реализация……... 18
G'aniyeva M.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va ularning tadqiqi…… 28
Alkarov E.M. Boshqaruv samaradorligidan ta'lim sifatigacha: maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari va tizimli mexanizmlari…….. 36
Mudarisova R.X., Saidova Sh.A. Oliy ta'lim tashkilotlarida ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalaridan samalari foydalanish metodikasi…….. 44
Asamatdinova J. Pedagogikalíq qádiryatlar tiykarínda zamanagóy tálimdi rawajlandíríw metodikasí……... 53
Urazimbetova A.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli…….. 61
Nurjanova F.F., Sapayeva I.Q. Noorganik kimyoda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda pinbord metodini takomillashtirish. "mineral o'g'itlarning namunalari bilan tanishish" mavzusi misolida…….. 71
Ibodova M.N. Biologiya fanini integrativ texnologiyalar asosida o'qitishda veb-platformalardan foydalanish metodikasi……. 79
Ibragimova G.S. Ta'lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari……. 85
Sheraliyev Q.S., Mirzanov B.I., Bahodirov Sh.B. Tish kariesi kasalligining kelib chiqish omillari va irsiylanish ko'rsatkichlarini baholash…….. 93
Qarshiyev J.M. Sun'iy intellekt tinglovchilarda kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida……. 100
Xudayberdiyev N.N. Umumta'lim maktab o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari…….. 106
Usmanova G.B. Kursant qizlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari…….. 115
Bashirov B.A. O'smirlarda mustaqil kasb tanlashga ta'sir etuvchi shaxsiy-psixologik omillar 125
Islamova S.S. Prokrastinatsiya fenomenining tarixi va zamonaviy talqini 133
Akramov D.I. Development of internal and external speech in intellectually disabled children with dysarthria……. 141
Axmedova Sh.A. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishini o'rganishning zamonaviy metodologik yondashuvlari…….. 150
Sodiqov M.N. Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta'sirini interfaol metodlar asosida tahlil qilish…….. 162
Shermatova R.O'., Baxodirova G.K. Ingliz tilini o'qitish jarayonida veb-kvestlar va raqamli keyslardan foydalanish metodikasining nazariy asoslari…….. 171
Ahmedova M. Eposning dramatik evrilishi: "Alpomishning qaytishi" pyesasining sahnaviy talqinlari va ssenografik tahlili……. 180
Normahamatova I.M. Sharq madrasalarida jamoaviy o'rganishning tarixiy ildizlari... 188
Mamatova D.M. Floronyms as linguocultural units in the uzbek language: a lexical-semantic approach…….. 194

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

O‘rozboyeva D.A. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni rivojlantirishning samarali metodlari…….. 201
Musayeva M.M. Clil texnologiyasi va raqamli ta’lim muhiti integratsiyasi asosida axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish…….. 211
Inogamova N.A. Modern approaches to developing prediction skills in english language teaching……... 222
Axmedov A.A. Probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyini tark etmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari tahlili…….. 232
Begjanova A.N. Poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlik rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari…… 244
Mirkamilova N.M. Bo‘lajak logopedlarning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy-tarixiy asoslari……. 252
Ruzmetov F.I. Qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda tajriba mashg‘ulot dasturining samaradorligi…… 260
Abdullayeva Sh.N. Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjimada sinonimik birliklarning ifodalanish xususiyatlari…… 269
Muqimov Sh.I. Raqamlashtirish sharoitida kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda dasturiy-didaktik ta’minotni joriy etish metodikasi…… 276
Kushbakova B.B. Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari……. 284
Saparbayeva S.K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarinig nutqiy kompetensiyalarini multimodal yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik muammo sifatida..... 294
Saidova D.Sh. Boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari..... 302
Eldorbekova S.I. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari…… 311
Hazratqulov S.H. Infeksion surunkali kechuvchi kasalliklar tufayli qandli diabetning kelib chiqishi va kechishi…… 319
Isroilova E.A. Tibbiy ta’limda «til–fan–amaliyot» konsepsiyasi: fanlararo kognitiv-integral yondashuvning nazariy asoslari..... 328
Shadimetova M.S. Amir Temurning janubiy Qozog‘istonda qurdirgan diniy me’morchilik yodgorliklari (ziyoratgohlar)…… 336
Aripov Sh. T. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy konsepsiyalari va rivojlanish tendensiyalari…… 344
Mengturayeva F.A. Generativ sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilini o‘qitishning shaxsiylashtirilgan metodikasini takomillashtirish…… 352
Keldiboyeva D.Sh. The development of artificial intelligence in teaching english as a second language within inclusive education…… 365
No‘monova K.A. Xalqaro PISA dasturi asosida geometrik savodxonlikni rivojlantirish……... 374
Юлдашев Б.А. Интерактивные и проектно-ориентированные технологии как средство формирования профессиональных компетенций будущих фармацевтов…….. 382
Mamasiddikova M.A. Fanlararo integratsiya va uning inklyuziv ta’limdagi didaktik imkoniyatlari…….. 393

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 159.9:316.6

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor

DESTRUKTIV XULQ-ATVOR: PSIXOLOGIK MAZMUNI, SHAKLLANISH OMILLARI VA PROFILAKTIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada destruktiv xulq-atvorning psixologik mohiyati, shakllanish mexanizmlari va profilaktikasining zamonaviy yondashuvlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxs xulq-atvorining shakllanishida biologik, individual-psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri biopsixososial yondashuv asosida yoritilgan. Destruktiv xulqning psixologik determinantlari xorijiy va mahalliy psixologiya maktablarining ilmiy qarashlari asosida tahlil qilinib, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, tarbiya va shaxslararo munosabatlarning mazkur jarayondagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, emotsional intellekt, psixologik rezilyentlik, samarali moslashuv strategiyalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash destruktiv xulqning oldini oluvchi muhim himoya omillari sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: destruktiv xulq-atvor, shaxs psixologiyasi, biopsixososial yondashuv, ijtimoiy muhit, agressiya, autoagressiya, psixologik profilaktika, psixokorreksiya, emotsional intellekt, rezilyentlik.

ДЕСТРУКТИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ: ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ, ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ПРОФИЛАКТИКА

Аннотация. В статье представлен теоретический анализ психологической сущности деструктивного поведения, факторов его формирования и современных подходов к профилактике. Деструктивное поведение рассматривается как сложное биопсихосоциальное явление, возникающее в результате взаимодействия биологических предпосылок, индивидуально-психологических особенностей личности, семейных отношений и факторов социальной среды. На основе психоаналитического, бихевиорального, когнитивного, гуманистического и деятельностного подходов раскрываются психологические механизмы формирования деструктивных проявлений. Особое внимание уделено роли эмоционального интеллекта, психологической резильентности, эффективных стратегий совладания со стрессом и социальной поддержки как защитных факторов

Ключевые слова: деструктивное поведение, психологическая сущность, биопсихосоциальный подход, агрессия, аутоагрессия, психологическая

профилактика, психокоррекция, эмоциональный интеллект, резильентность, когнитивный подход.

DESTRUCTIVE BEHAVIOR: PSYCHOLOGICAL ESSENCE, FORMATION FACTORS AND PREVENTION

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the psychological essence of destructive behavior, the factors contributing to its formation, and modern approaches to its prevention. Destructive behavior is considered as a complex biopsychosocial phenomenon formed through the interaction of biological predispositions, individual psychological characteristics, family relationships, and social environmental factors. The psychological mechanisms of destructive behavior are examined based on psychoanalytic, behavioral, cognitive, humanistic, and activity-based approaches. Special attention is given to emotional intelligence, psychological resilience, effective coping strategies, and social support as important protective factors against destructive behavioral patterns.

Keywords: destructive behavior, psychological essence, biopsychosocial approach, aggression, autoaggression, psychological prevention, psychological correction, emotional intelligence, resilience, cognitive approach.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar shaxs psixologiyasiga bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar rivoji, axborot oqimining keskin ortishi, migratsiya jarayonlari, oilaviy munosabatlarning transformatsiyasi hamda psixoemotsional zo‘riqishlarning ko‘payishi natijasida destruktiv xulq-atvorning turli shakllari tobora ko‘proq uchramoqda. Bu holat nafaqat shaxsning ruhiy salomatligiga, balki oila, ta'lim tizimi va jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi [12; 13].

Psixologiya fanida destruktiv xulq murakkab, ko‘p omilli hodisa sifatida baholanadi. U shaxsning ichki psixologik ziddiyatlari, emotsional beqarorligi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklari hamda tashqi muhit omillarining o‘zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Destruktiv xulqning namoyon bo‘lishi agressiv harakatlar, autoagressiya, zo‘ravonlik, giyohvandlik, internet qaramligi, huquqbuzarlik va boshqa salbiy xatti-harakatlarda kuzatilishi mumkin [8; 14; 15].

So‘nggi yillarda destruktiv xulqning oldini olish, uni erta aniqlash va psixologik korreksiya qilish masalalari xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiboridagi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Shuningdek, O‘zbekistonda ta'lim tizimida psixologik xizmatni rivojlantirish, yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash hamda profilaktik faoliyatni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda [4; 12; 13].

Mazkur maqolada destruktiv xulq-atvorning psixologik mohiyati, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy nazariy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Destruktiv xulq-atvorni ilmiy jihatdan izohlash bo‘yicha turli psixologik maktablar mavjud bo‘lib, ularning har biri mazkur hodisani o‘z nazariy konsepsiyasi doirasida talqin qiladi [11].

O‘zbek psixologiya maktabida shaxs rivojlanishi, uning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati, xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari hamda psixologik xizmat masalalari qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, E.G‘. G‘oziyev shaxs psixologiyasi, tafakkur jarayonlari va xulq-atvorning ichki mexanizmlarini tahlil qilib, inson faoliyati va psixik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslagan [1]. V.M. Karimova shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, guruhiy munosabatlar va oilaviy muhitning shaxs shakllanishidagi rolini tadqiq qilgan [3]. G‘.B. Shoumarov oilaviy munosabatlar psixologiyasi doirasida oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-ona va farzand munosabatlarining shaxs xulqiga ta’sirini ilmiy asoslab bergan [2]. Mazkur tadqiqotlar destruktiv xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar va shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [1-3].

Psixoanalitik yondashuv vakillari destruktiv xulqning ildizini shaxsning ichki instinktiv kuchlari va ong osti ziddiyatlari bilan bog‘laydi. Erich Fromm inson destruktivligini biologik zarurat emas, balki ijtimoiy sharoit, begonalashuv va shaxs ehtiyojlarining qondirilmasligi natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida izohlaydi. U destruktivlikning "xavfli" shakllari insonning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishidagi buzilishlar bilan chambarchas bog‘liqligini ta'kidlaydi [6].

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasida Albert Bandura agressiv va destruktiv xatti-harakatlar kuzatish, taqlid qilish hamda mustahkamlash mexanizmlari orqali o‘zlashtirilishini ilmiy asoslagan. Mazkur yondashuv oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalarining shaxs xulqiga ta'sirini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [7].

Kognitiv yo‘nalish vakili Aaron Bek destruktiv xatti-harakatlarning yuzaga kelishini shaxsning noto‘g‘ri kognitiv sxemalari, voqelikni salbiy talqin qilishi hamda irratsional fikrlash usullari bilan izohlaydi. Ushbu yondashuv zamonaviy psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda [10].

Stress va moslashuv nazariyasi mualliflari Richard Lazarus va Susan Folkman destruktiv reaksiyalarni stressli vaziyatlarni baholash va ularga javob qaytarish strategiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, samarali coping strategiyalari mavjud bo‘lmagan shaxslar destruktiv xatti-harakatlarga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Rus psixologiya maktabida A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn va L. S. Vigotskiy shaxs faoliyati, motivatsiyasi hamda ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari orqali destruktiv xulqning psixologik asoslarini tushuntirib berganlar. Ularning

ishlari shaxs faoliyati va ijtimoiy muhitning o‘zaro bog‘liqligini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi [5; 10; 11].

O‘zbekiston psixologiya maktabida shaxsning ijtimoiylashuvi, oilaviy munosabatlar, yosh davrlari psixologiyasi va psixologik xizmat masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar destruktiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlarini tushuntirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, destruktiv xulqning zamonaviy ko‘rinishlari, xususan, raqamli muhit bilan bog‘liq shakllari bo‘yicha nazariy umumlashtirishlar va tizimli tahlillarni yanada rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda [12; 13; 14].

Tadqiqotning maqsadi. Destruktiv xulq-atvorning psixologik mohiyatini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida nazariy tahlil qilish, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatida foydalanish mumkin bo‘lgan ilmiy xulosalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari destruktiv xulq tushunchasining psixologik mazmunini ochib berish, uning mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mazkur hodisani izohlovchi asosiy nazariy yondashuvlarni o‘rganish hamda ularning metodologik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, destruktiv xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi biologik, individual-psixologik va ijtimoiy omillarni tizimlashtirish, zamonaviy psixologiyada qo‘llanilayotgan profilaktik va psixokorreksion yondashuvlarni umumlashtirish hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatida foydalanish mumkin bo‘lgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish tadqiqotning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur maqolada destruktiv xulq-atvor zamonaviy biopsixososial yondashuv asosida kompleks tahlil qilinib, biologik, individual-psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta'siri yagona nazariy model doirasida umumlashtiriladi. Shuningdek, destruktiv xulq profilaktikasida emotsional intellektni rivojlantirish, psixologik rezilyentlikni kuchaytirish va kognitiv-xulqiy yondashuv elementlarini integratsiyalashning nazariy ahamiyati asoslab beriladi [9; 10].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola nazariy tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, destruktiv xulq-atvor muammosiga oid ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilishga asoslanadi. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan foydalanildi. Xususan, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent tahlili, ilmiy adabiyotlarni sintez qilish, mantiqiy umumlashtirish va konseptual tahlil metodlari qo‘llanildi.

Nazariy tahlil obyekti sifatida destruktiv xulq-atvorning psixologik mazmuni, uning rivojlanish mexanizmlari, shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda profilaktikasi bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tanlandi. Tahlilda biopsixososial paradigma metodologik asos sifatida qabul qilindi. Mazkur paradigma inson xulqini biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta'siri natijasi sifatida izohlaydi [8; 11].

Tadqiqot metodologik asosini O‘zbekiston psixologiya maktabida shakllangan shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv, faoliyat va psixologik xizmatga oid ilmiy qarashlar ham tashkil etdi. Xususan, shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati, tarbiya jarayonining psixologik mexanizmlari, yosh davrlaridagi psixologik xususiyatlar va xulq-atvor shakllanishi masalalariga bag‘ishlangan mahalliy tadqiqotlar destruktiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlarini tahlil qilishda nazariy asos sifatida foydalanildi [1; 2; 3].

Shuningdek, tadqiqotda psixologiyaning zamonaviy konsepsiyalari – psixoanalitik, bixevioral, kognitiv, gumanistik va faoliyat yondashuvlari o‘zaro taqqoslandi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi destruktiv xulqni bir yoqlama emas, balki kompleks hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

O‘zbek psixologiya fanida shaxs xulq-atvorining shakllanishi, uning ijtimoiy muhit bilan munosabati va tarbiyaviy omillarning psixologik ta’siri masalalari keng o‘rganilgan. E.G‘. G‘oziyev shaxsning psixik rivojlanishi, tafakkur jarayonlari va faoliyatning inson xulqidagi o‘rni masalalarini tadqiq etib, xulq-atvorni shaxsning ichki psixologik xususiyatlari hamda tashqi ijtimoiy ta’sirlarning o‘zaro birligi sifatida baholagan. G‘.B. Shoumarov tomonidan oilaviy munosabatlar psixologiyasi doirasida oiladagi psixologik muhit, tarbiya uslublari va ota-ona munosabatlarining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu qarashlar destruktiv xulq-atvorning shakllanishida oilaviy omillarning o‘rnini tushuntirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. V.M. Karimova esa shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy-psixologik muhit va guruhiy ta’sirlarning shaxs xulqiga ta’sirini yoritib, shaxs xulq-atvorining ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanish mexanizmlarini ochib bergan [1; 2; 3].

Psixologik adabiyotlarda destruktiv xulq-atvor yagona ta'rifga ega emas. Turli ilmiy maktablar ushbu hodisani shaxsning ichki psixik jarayonlari, ijtimoiy tajribasi yoki tashqi muhit ta'siri bilan izohlaydi.

Psixoanalitik nazariyaga ko‘ra, destruktivlik inson psixikasidagi ichki ziddiyatlarning mahsuli hisoblanadi. Bu yondashuvda agressiv impulslar, bostirilgan ehtiyojlar va ichki konfliktlar destruktiv xatti-harakatlarning asosiy manbai sifatida talqin qilinadi. Erich Fromm esa destruktivlikni biologik instinkt emas, balki insonning begonalashuvi, ma'naviy ehtiyojlarining qondirilmasligi va ijtimoiy muhitdagi nosog‘lom munosabatlar oqibati sifatida izohlaydi.

Bixevioral va ijtimoiy o‘rganish nazariyasi vakillari destruktiv xulqni o‘rganilgan xatti-harakat deb hisoblaydilar. Banduraning kuzatish orqali o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar va o‘smirlar tajovuzkor yoki destruktiv xatti-harakatlarni ota-onalar, tengdoshlari, ommaviy axborot vositalari hamda internet muhitini kuzatish orqali o‘zlashtiradilar. Agar bunday xatti-harakatlar rag‘batlantirilsa yoki jazolanmasa, ular barqaror xulq shakliga aylanishi mumkin [7].

Kognitiv psixologiya vakillari destruktiv xulqni voqelikni noto‘g‘ri baholash, salbiy avtomatik fikrlar va irratsional e'tiqodlar bilan bog‘laydilar. Shaxsning

"menga nisbatan hamma adolatsiz", "muammolarni faqat kuch bilan hal qilish mumkin" kabi kognitiv sxemalari agressiv yoki autoagressiv reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin [9; 10].

Gumanistik psixologiya nuqtai nazaridan esa destruktiv xulq shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olmasligi, psixologik ehtiyojlarining qondirilmasligi va o‘zini anglash jarayonidagi to‘siqlar bilan bog‘liq. Mazkur yondashuv profilaktikada shaxsning ijobiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

Faoliyat yondashuvi vakillari shaxs xulqini uning motivlari, ehtiyojlari va ijtimoiy faoliyati bilan izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, destruktiv xatti-harakatlar ko‘pincha noto‘g‘ri shakllangan motivatsion tizim hamda salbiy ijtimoiy tajribaning natijasidir.

Nazariy manbalarni umumlashtirish asosida destruktiv xulq-atvor quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratilishi mumkin:

1. Tashqi destruktiv xulq. Bunda salbiy harakatlar boshqa shaxslarga yoki jamiyatga qaratiladi. Unga tajovuzkorlik, zo‘ravonlik, bezorilik, huquqbuzarlik va vandalizm kiradi.

2. Ichki destruktiv xulq. Mazkur shaklda salbiy ta'sir shaxsning o‘ziga qaratiladi. Autoagressiya, o‘ziga shikast yetkazish, suitsidal xulq, zararli odatlar va turli qaramliklar bunga misol bo‘la oladi.

3. Passiv destruktiv xulq. Mas'uliyatdan qochish, ijtimoiy izolyatsiya, faoliyatga qiziqishning yo‘qolishi, o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olmaslik kabi holatlar ushbu guruhga kiradi.

4. Yashirin destruktiv xulq. Manipulyativ munosabatlar, psixologik bosim, kiberbulling, internet orqali zo‘ravonlik va boshqa bilvosita salbiy xatti-harakatlar zamonaviy destruktiv xulqning yangi ko‘rinishlarini tashkil etadi [10].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, destruktiv xulq birgina omil ta'sirida shakllanmaydi. Aksincha, biologik moyillik, emotsional rivojlanish darajasi, oilaviy tarbiya, tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va madaniy omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda mazkur jarayonni belgilaydi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda psixologik rezilyentlik (resilience), emotsional intellekt va stressni boshqarish ko‘nikmalari destruktiv xulqning oldini oluvchi muhim himoya omillari sifatida e'tirof etilmoqda. Aksincha, impulsivlik, past frustratsion bardoshlilik, emotsiyalarni boshqarishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi xavf omillari sifatida qaraladi.

Nazariy tahlillar asosida quyidagi konseptual modelni taklif etish mumkin:

Xavf omillari → kognitiv va emotsional buzilishlar → moslashuv strategiyalarining zaiflashuvi → destruktiv xatti-harakat → salbiy ijtimoiy oqibatlar.

Mazkur model destruktiv xulqning rivojlanishini kompleks tushuntirish imkonini beradi hamda profilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biologik omillar. Zamonaviy psixologiya va neyrofan tadqiqotlari destruktiv xulq-atvorni faqat ijtimoiy muhit mahsuli sifatida emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning murakkab o‘zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qiladi. Biologik omillar destruktiv xulqning yuzaga kelishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab bo‘lmasa-da, shaxsning unga moyilligini kuchaytiruvchi predispozitsion omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Markaziy nerv tizimining funksional xususiyatlari, genetik moyillik, impulslarni nazorat qilish bilan bog‘liq miya tuzilmalarining rivojlanish darajasi hamda neyromediatorlar muvozanatidagi o‘zgarishlar agressiv reaksiyalar chastotasiga ta'sir ko‘rsatishi aniqlangan. Ayniqsa, prefrontal po‘stloq faoliyatining pasayishi o‘zini nazorat qilishning susayishi bilan bog‘liq bo‘lsa, limbik tizimning yuqori faolligi kuchli emotsional javoblarni yuzaga keltirishi mumkin.

Biroq biologik omillar destruktiv xulqni oldindan belgilamaydi. Ularning ta'siri shaxs tarbiyasi, ijtimoiy muhit va individual psixologik resurslar bilan uyg‘unlashgandagina namoyon bo‘ladi.

Individual-psixologik omillar. Destruktiv xulq shakllanishida individual psixologik xususiyatlar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional beqarorlik, impulsivlik, past o‘zini baholash, frustratsiyaga chidamlilikning sustligi va yuqori xavotirlilik destruktiv reaksiyalar rivojlanish xavfini oshiradi [9; 10].

Emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarining yetarli rivojlanmaganligi shaxsning muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish imkoniyatini cheklaydi. Natijada nizolarni agressiya, tahdid, manipulyatsiya yoki o‘ziga zarar yetkazish orqali hal qilishga moyillik kuchayadi.

Kognitiv nazariya nuqtai nazaridan, voqelikni salbiy talqin qilish, dushmanlik atributsiyasi va irratsional e'tiqodlar destruktiv xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, "boshqalar menga ataylab zarar yetkazmoqda" yoki "kuch ishlatish eng samarali usul" kabi fikrlar agressiv xulqni oqlovchi ichki mexanizmlarga aylanadi [10].

Oilaviy muhitning ta'siri. Oila shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi instituti bo‘lib, destruktiv xulqning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oiladagi zo‘ravonlik, doimiy nizolar, hissiy sovuqlik, e'tiborsizlik, ota-onaning qaramlik holatlari yoki tarbiyadagi nomuvofiqlik bolalarda salbiy xulq modellarining shakllanishiga olib kelishi mumkin [2, 3, 4].

Bandura ta'kidlaganidek, bola xulq-atvorni avvalo kuzatish va taqlid qilish orqali o‘zlashtiradi. Shuning uchun oilada muntazam kuzatiladigan agressiv munosabatlar bolaning kelajakdagi ijtimoiy xulqiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Aksincha, oilada emotsional qo‘llab-quvvatlash, ochiq muloqot, adolatli nazorat va o‘zaro hurmat mavjud bo‘lsa, bu destruktiv xulqning rivojlanish xavfini sezilarli kamaytiradi.

Ijtimoiy va raqamli muhit omillari. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi destruktiv xulqning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Kiberbulling, internet orqali psixologik bosim, onlayn zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent va virtual qaramlik yoshlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda [15].

Shuningdek, tengdoshlar guruhi ham muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Salbiy referent guruhga mansublik, ijtimoiy bosim va xavfli xatti-harakatlarni rag‘batlantiruvchi muhit destruktiv xulqni mustahkamlaydi. Ijobiy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan sharoitda esa aksincha, moslashuvchan xulq shakllanadi.

Psixologik himoya mexanizmlari va destruktiv xulq. Destruktiv xulq ko‘pincha shaxsning ichki psixologik himoya mexanizmlari bilan bog‘liq. Psixik zo‘riqish kuchayganida inson ratsional yechim topish o‘rniga regressiya, proyeksiya, inkor etish yoki ko‘chirish kabi himoya mexanizmlaridan foydalanishi mumkin.

Psixologik himoya mexanizmlari va destruktiv xulq o‘rtasidagi bog‘liqlik shundan iboratki, shaxs kuchli emotsional zo‘riqish holatlarida muammoni konstruktiv hal etish o‘rniga ayrim himoya mexanizmlaridan foydalanishi mumkin. Jumladan, ko‘chirish (displacement) mexanizmi orqali bir vaziyatda yuzaga kelgan salbiy hissiyotlar boshqa, ko‘pincha yaqin insonlarga nisbatan yo‘naltiriladi. Masalan, ish faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga kelgan norozilik va asabiylikning oila a’zolariga nisbatan agressiv munosabat shaklida namoyon bo‘lishi ushbu mexanizmning yaqqol ko‘rinishidir. Bunday holatda destruktiv xatti-harakat muammoning asl sababini bartaraf etmaydi, aksincha, shaxslararo munosabatlarning buzilishi va qo‘shimcha psixologik muammolarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin [9, 11].

Shu bilan birga, destruktiv xulqning shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi va uning salbiy ta’sirini kamaytiruvchi qator himoya omillari mavjud. Ilmiy tadqiqotlarda rivojlangan emotsional intellekt, yuqori darajadagi psixologik rezilyentlik, stressli vaziyatlarni samarali boshqarish strategiyalaridan foydalanish, sog‘lom oilaviy muhit, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligi hamda konfliktlarni konstruktiv yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalari muhim protektiv omillar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur omillar shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi, emotsional barqarorligini mustahkamlaydi va destruktiv reaksiyalarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi.

Ilmiy muhokama. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, destruktiv xulqni faqat bitta nazariya doirasida izohlash yetarli emas. Psixoanalitik yondashuv ichki konfliktlarni, kognitiv nazariya fikrlash jarayonlarini, bixevioral yondashuv esa o‘rganish mexanizmlarini samarali tushuntiradi. Shu bois zamonaviy psixologiyada integrativ biopsixososial model eng maqbul yondashuv sifatida qaralmoqda.

Mazkur modelga ko‘ra, destruktiv xulq biologik moyillik, individual psixologik xususiyatlar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy muhitning uzviy o‘zaro ta'siri natijasida rivojlanadi. Shuning uchun profilaktika ham kompleks xarakterga

ega bo‘lishi, faqat shaxs bilan emas, balki oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhit bilan ham tizimli ishlashni nazarda tutishi lozim.

Ushbu nazariy umumlashtirish amaliyotchi psixologlar uchun diagnostika mezonlarini takomillashtirish, xavf guruhlarini erta aniqlash hamda dalillarga asoslangan psixoprofilaktik dasturlarni ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Destruktiv xulq profilaktikasining zamonaviy yondashuvlari. Destruktiv xulq-atvorning oldini olish psixologik xizmat tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda profilaktika birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi bosqichlarga ajratiladi.

Birlamchi profilaktika sog‘lom shaxslar orasida xavf omillarini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, psixologik savodxonlikni oshirish, emotsional intellektni rivojlantirish, konfliktologik kompetensiyalarni shakllantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishni o‘z ichiga oladi [12, 13].

Ikkilamchi profilaktika xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni erta aniqlash, psixologik diagnostika o‘tkazish va individual psixologik yordam ko‘rsatishga qaratiladi. Ushbu bosqichda maktab psixologi, oliy ta'lim muassasalari psixologi hamda oilaviy psixologning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi [3, 15].

Uchlamchi profilaktika esa destruktiv xulq namoyon bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini tiklash, qayta takrorlanish xavfini kamaytirish hamda psixologik reabilitatsiyani tashkil etishni nazarda tutadi.

Destruktiv xulq-atvorning samarali profilaktikasi, avvalo, uning xavf belgilarini o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri baholashga bog‘liq. Shu sababli amaliyotchi psixolog faoliyatida kompleks psixodiagnostik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi [15]. Psixologik diagnostika jarayonida shaxsning agressivlik va dushmanlik darajasi, xavotir hamda depressiv holat belgilari, emotsiyalarni boshqarish qobiliyati, oilaviy munosabatlarning xususiyatlari, ijtimoiy moslashuv darajasi, stressga bardoshlilik va psixologik rezilyentlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish zarur. Bunda ilmiy asoslangan va standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikalardan foydalanish olingan natijalarning ishonchliligi va aniqligini oshiradi.

Destruktiv xulqni kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion ishlar esa shaxsning ichki resurslarini rivojlantirish va konstruktiv xulq strategiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim. Nazariy tahlillar asosida bunday ishlarda kognitiv-xulqiy terapiya elementlari, emotsiyalarni boshqarish bo‘yicha treninglar, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish mashg‘ulotlari, konfliktlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish, stressni boshqarish va relaksatsiya texnikalari, oilaviy psixologik maslahat hamda psixoedukatsion dasturlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin. Ushbu yo‘nalishlarning kompleks qo‘llanilishi shaxsning moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi,

emotsional barqarorligini mustahkamlaydi va destruktiv reaksiyalar namoyon bo‘lishini kamaytiradi.

Nazariy tahlillar asosida destruktiv xulq profilaktikasining bosqichma-bosqich konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning birinchi bosqichi xavf omillarini aniqlashdan iborat bo‘lib, unda biologik, individual-psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillar kompleks ravishda baholanadi. Ikkinchi bosqichda psixologik diagnostika amalga oshirilib, shaxsning agressivlik darajasi, emotsional holati, stressga chidamliligi, kommunikativ kompetensiyalari va ijtimoiy moslashuv xususiyatlari aniqlanadi. Uchinchi bosqich individual psixokorreksion ishlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda kognitiv qayta tuzish, emotsional o‘zini boshqarish, motivatsion sohani rivojlantirish hamda konstruktiv xulq strategiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. To‘rtinchi bosqich oilaviy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ota-onalar bilan maslahat ishlari olib borish, pedagog va psixologlar hamkorligini kuchaytirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish muhim hisoblanadi. Beshinchi bosqich esa amalga oshirilgan ishlar samaradorligini monitoring qilish va baholashni o‘z ichiga oladi. Unda psixologik o‘zgarishlar dinamikasi muntazam kuzatilib, zaruratga ko‘ra korreksion dasturlar takomillashtiriladi.

Mazkur model destruktiv xulqning oldini olishda tizimli, uzluksiz va kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, destruktiv xulq bilan ishlash jarayonida xavf guruhiga mansub shaxslarni muntazam skriningdan o‘tkazish, psixologik yordamni faqat muammo yuzaga kelgandan keyin emas, balki oldini olish yo‘nalishida ham tashkil etish, ota-onalar va pedagoglarning psixologik kompetensiyalarini oshirish, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglarni amaliyotga joriy etish, raqamli muhit xavfsizligi va media savodxonlik bo‘yicha psixoprofilaktik dasturlarni ishlab chiqish hamda psixolog, pedagog, shifokor va ijtimoiy xodimlar o‘rtasidagi multidissiplinar hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir [12, 13, 15].

Xulosa. Destruktiv xulq-atvor zamonaviy psixologiyaning murakkab va ko‘p qirrali muammolaridan biri hisoblanadi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, uning shakllanishida biologik, individual-psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillar o‘zaro uzviy bog‘langan holda ishtirok etadi. Shu sababli destruktiv xulqni izohlashda integrativ biopsixososial yondashuv ilmiy jihatdan eng asosli model sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, destruktiv xulqning samarali profilaktikasi erta diagnostika, emotsional intellektni rivojlantirish, psixologik rezilyentlikni mustahkamlash, oilaviy hamkorlikni kuchaytirish va dalillarga asoslangan psixokorreksion dasturlarni joriy etishga tayanishi lozim.

Maqolada taklif etilgan konseptual model amaliyotchi psixologlarning profilaktik va korreksion faoliyatini rejalashtirishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur modelning eksperimental sinovi,

uning samaradorligini turli yosh guruhlari va ta'lim muassasalari sharoitida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. — Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
2. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. — Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология. — Тошкент: Fan va texnologiya, 2012.
4. Қодиров У.Д. Ёшларни деструктив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари: монография. — Тошкент: «Фан ва технологиялар», 2013. — 236 б.
5. Асадов Ю., Мусурмонов Р. Ўсмирлар девиант хатти-ҳаракатининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. — Тошкент, 2011.
6. Атаджанов М., Салиева Д.А. Хулқи оғишган болалар психологияси. — Қўқон, 2020.
7. Леонтьев А.Н. Activity, Consciousness, and Personality. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1978.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2002.
9. Выготский Л.С. Психология развития человека. — Москва: Смысл, 2005.
10. Бандура А. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
11. Бек А.Т. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. — New York: International Universities Press, 1976.
12. Фромм Э. The Anatomy of Human Destructiveness. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1973.
13. Лазарус Р.С., Фолкман С. Stress, Appraisal, and Coping. — New York: Springer, 1984.
14. Реан А.А. (ред.). Психология воспитания и профилактика девиантного поведения. — Москва: Московский педагогический государственный университет, 2023. — 216 с.
15. Мищенко В.А. Психология аутодеструктивного поведения и его профилактика: курс лекций. — Ставрополь: Издательство СКФУ, 2022. — 232 с.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 37.018.1:316.36

Сулетбаева Элла Серикбаевна,
доцент кафедры "Педагогика и психология" Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, доктор психологических наук (DSc)

СОВРЕМЕННЫЕ ЗАРУБЕЖНЫЕ ПОДХОДЫ К ДОБРАЧНОЙ ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ И ИХ ПРАКТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ

Аннотация. В статье проводится теоретический анализ зарубежного опыта подготовки молодежи к семейной жизни в контексте современных социокультурных и технологических трансформаций. Рассматриваются основные модели и подходы к семейному просвещению в различных странах (Германия, Венгрия, Япония, Великобритания, Франция, Швеция и др.), выделяются их содержательные и организационные особенности. Особое внимание уделяется влиянию цифровых технологий и виртуальной среды на формирование семейных установок современной молодежи, анализируются такие феномены, как киберсексуальная зависимость, интернет-измены, нарушение личностных границ и трансформация понятий близости в цифровом измерении.

Ключевые слова: подготовка к семейной жизни, семейное просвещение, зарубежный опыт, молодежь, брачно-семейные отношения, цифровизация, виртуальная среда, эмоциональная зрелость, дифференциация «Я», семейные системы.

YOSHLARNI NIKOHDAN OLDINGI TAYYORGARLIKKA YO‘NALTIRISHNING ZAMONAVIY XORIJIY YONDASHUVLARI VA ULARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy-madaniy va texnologik o‘zgarishlar kontekstida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajribaning nazariy tahlili amalga oshiriladi. Turli mamlakatlarda (Germaniya, Vengriya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya va boshqalar) oilaviy ma’rifatning asosiy modellari va yondashuvlari ko‘rib chiqiladi, ularning mazmuniy va tashkiliy xususiyatlari ajratib ko‘rsatiladi. Zamonaviy yoshlarning oilaviy munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini shakllantirishda raqamli texnologiyalar va virtual muhitning ta'siriga alohida e’tibor qaratiladi, kiberseksual bog‘liqlik, internet-xiyonatlar, shaxsiy chegaralarning buzilishi va yaqinlik tushunchalarining raqamli o‘lchovdagi o‘zgarishi kabi hodisalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy ma'rifat, xorijiy tajriba, yoshlar, nikoh-oilaviy munosabatlar, raqamlashtirish, virtual muhit, emotsional yetuklik, «Men» differensiatsiyasi, oilaviy tizimlar.

MODERN FOREIGN APPROACHES TO PRE-MARITAL PREPARATION OF YOUTH AND THEIR PRACTICAL IMPLEMENTATION

Annotation. The article provides a theoretical analysis of foreign experience in preparing young people for family life in the context of contemporary socio-cultural and technological transformations. The main models and approaches to family education in various countries (Germany, Hungary, Japan, Great Britain, France, Sweden, etc.) are examined, and their substantive and organizational features are highlighted. Special attention is paid to the influence of digital technologies and the virtual environment on the formation of family attitudes among modern youth. Phenomena such as cybersexual addiction, internet infidelity, violation of personal boundaries, and the transformation of intimacy concepts in the digital dimension are analyzed.

Keywords: preparation for family life, family education, foreign experience, youth, marital and family relations, digitalization, virtual environment, emotional maturity, self-differentiation, family systems.

Институт семьи на протяжении всей истории человечества выступал фундаментальной основой социальной организации общества, обеспечивая воспроизводство населения, социализацию подрастающего поколения, формирование нравственных норм и передачу культурных ценностей от одного поколения к другому. Семья выполняет не только репродуктивную и воспитательную функции, но и обеспечивает эмоциональную поддержку, формирование первичных моделей поведения, развитие коммуникативных навыков и усвоение социальных ролей. Именно в семейной среде закладываются первоначальные представления человека о доверии, ответственности, взаимопомощи, уважении и характере межличностных отношений. Однако в условиях стремительных социокультурных трансформаций XXI века традиционные модели брачно-семейных отношений претерпевают существенные изменения. Цифровизация различных сфер жизнедеятельности, распространение виртуальных форм коммуникации, трансформация гендерных ролей, повышение индивидуализации и изменение ценностных ориентиров формируют принципиально новый контекст становления семейных установок современной молодёжи.

Проблемы подготовки молодёжи к семейной жизни нашли отражение в исследованиях зарубежных авторов, среди которых M. P. Nichols, S. D. Davis, М. Боуэн, Э. Тийтом, А. Тавит, М. Собчак, Харриет Лернер и другие

исследователи. В их работах рассматриваются различные аспекты семейных отношений: психологическая готовность к браку, особенности межличностного взаимодействия, эмоциональная зрелость, семейные роли, конфликтное поведение и механизмы формирования устойчивых отношений между супругами. Существенное значение в формировании представлений о семейных отношениях имеют также научно-популярные труды, в частности книга Харриет Лернер «Танец гнева», в которой раскрываются вопросы эмоционального взаимодействия, личностных границ, самореализации и особенностей поведения человека в близких отношениях. Обращение к подобным исследованиям позволяет рассматривать подготовку молодёжи к семейной жизни не только как усвоение определённого объёма знаний, но и как процесс формирования психологической и эмоциональной готовности к построению долгосрочных отношений.

Зарубежный опыт подготовки молодёжи к семейной жизни отличается разнообразием форм и содержания и во многом определяется национальными, культурными и образовательными особенностями конкретной страны. В одних государствах соответствующая подготовка преимущественно интегрирована в систему школьного образования, в других реализуется через внешкольные программы, деятельность общественных организаций, консультационные службы и межведомственное взаимодействие. Так, в Германии подготовка к семейной жизни осуществляется в рамках широкой системы внешкольной деятельности, направленной на укрепление семьи, развитие ответственного отношения к семейным ценностям и формирование социальных компетенций. В данном процессе взаимодействуют образовательные, социальные, политические и общественные учреждения. В Венгрии соответствующие занятия имеют форму воспитательных мероприятий с участием родителей, врачей и психологов, что позволяет объединять педагогические, медицинские и психологические знания. В Японии элементы подготовки к семейной жизни включаются в образовательный процесс уже на начальном этапе школьного обучения, что отражает ориентацию на последовательное и поэтапное формирование представлений о взаимоотношениях, ответственности и семейных ролях.

Анализ образовательной практики 38 стран показывает, что большинство государств, включая Великобританию, Францию, Германию, Швецию и другие страны, реализуют государственные или региональные программы полового и репродуктивного просвещения с учётом национальных культурных особенностей. При этом содержание программ, возраст начала обучения, продолжительность и используемые методические подходы существенно различаются. В ряде европейских стран, в частности в Австрии, Финляндии, Франции, Чехии и Швеции, половое образование является обязательной частью школьной программы, тогда как в Испании, Польше,

Италии и некоторых других странах оно реализуется преимущественно в факультативной форме. Возраст начала соответствующего обучения варьируется от 5 лет в Португалии до 14 лет в Литве и на Кипре. Основными целями таких программ являются профилактика ранней беременности и инфекций, передающихся половым путём, формирование знаний о сексуальности и репродуктивном здоровье, развитие культуры межличностных отношений, ответственности и способности принимать осознанные решения [4].

Содержание образовательных курсов, как правило, включает анатомо-физиологические аспекты, вопросы контрацепции, половой идентичности, репродуктивных прав и обязанностей. Вместе с тем в отдельных образовательных программах психологические, социальные и этические компоненты отношений представлены недостаточно системно. Между тем именно эти компоненты имеют непосредственное значение для формирования готовности молодого человека к будущей семейной жизни, поскольку позволяют развивать навыки эмоциональной саморегуляции, эмпатии, конструктивного общения, разрешения конфликтов и установления личностных границ. В таких странах, как Бельгия, Швеция и Ирландия, больше внимания уделяется подготовке к семейной жизни, развитию эмоциональной зрелости, ответственности и ценностного отношения к межличностным отношениям.

Таким образом, зарубежный опыт показывает, что эффективная подготовка молодёжи к семейной жизни предполагает сочетание биологических, психологических, социальных, правовых и нравственно-этических компонентов. При этом современные программы постепенно смещают акцент от исключительно информационного просвещения к формированию практических жизненных и коммуникативных компетенций. Особое значение приобретает развитие способности молодёжи осознавать собственные эмоциональные потребности, уважать личностные границы другого человека, ответственно принимать решения и строить отношения на основе доверия, взаимного уважения и равноправного партнёрства. Данный подход представляет особый интерес для адаптации зарубежного опыта к национальным условиям и разработки современных моделей подготовки молодёжи к семейной жизни.

Несмотря на историческую устойчивость института семьи, развитие цивилизации, науки, техники и цифровых технологий, с одной стороны, создаёт более комфортные условия для жизнедеятельности человека, а с другой — порождает новые социально-психологические проблемы, способные влиять на устойчивость семейных отношений. Особенно заметное воздействие оказывает цифровизация, которая трансформирует привычные формы общения, эмоциональной близости и взаимодействия между людьми.

Е. Всяких [3] в монографии «Виртуальный мир будущего: адаптация» рассматривает ключевые психологические механизмы адаптации личности к цифровой реальности, уделяя внимание таким феноменам, как социальная изоляция, эмоциональное выгорание, потребность в интимности и эмоциональной поддержке в условиях онлайн-коммуникации. Автор подчёркивает, что виртуальная среда становится не только технологическим пространством, но и самостоятельным социальным контекстом формирования новых типов отношений, включая феномен «виртуальной семьи».

Данный подход представляет особую значимость для анализа трансформации семейных установок молодёжи в условиях цифровизации. В частности, он позволяет рассматривать изменения представлений о близости, поддержке, доверии и лояльности, которые всё чаще реализуются посредством дистанционных, но психологически значимых форм взаимодействия. В связи с этим современная система подготовки молодёжи к семейной жизни должна учитывать не только традиционные аспекты брачно-семейных отношений, но и новые вызовы цифровой среды: особенности виртуального общения, соблюдение личностных границ, ответственное поведение в интернете и формирование культуры цифрового взаимодействия.

А. Купер [8] (ред.) в сборнике «Cybersex: The Dark Side of the Force» обобщает результаты клинических и эмпирических исследований киберсексуального поведения. Авторы анализируют такие явления, как виртуальная сексуальная зависимость, интернет-измены, нарушение личностных границ и эмоциональная диссоциация, возникающие в условиях онлайн-интимности. С психологической точки зрения данная работа представляет значительный интерес для изучения рисков цифровой среды, способных влиять на формирование интимных отношений, доверие между партнёрами и эмоциональную устойчивость личности. Представленные материалы могут быть использованы при разработке профилактических программ, направленных на предупреждение деструктивного онлайн-поведения и формирование цифровой этики в процессе подготовки молодёжи к семейной жизни.

D. Delmonico и E. Griffin в пособии «Cybersex Unplugged: Finding Sexual Health in an Electronic World» предлагают практико-ориентированный подход к изучению, диагностике и коррекции проблемного сексуального поведения в интернет-пространстве [9]. Авторы рассматривают киберсекс не только как технологический феномен, но и как психологическую зону риска, связанную с нарушением саморегуляции, зависимым поведением, размыванием границ интимности и трудностями адаптации к реальным межличностным отношениям. Данные положения имеют значение для разработки профилактических программ, ориентированных на формирование здорового

поведения, эмоциональной устойчивости и ответственного взаимодействия в цифровой среде, особенно среди подростков и молодёжи.

Книга А. Я. Сарны [6] «Дроны, покемоны и киберсекс: игровые интерфейсы социальной виртуальности» посвящена анализу процессов геймификации и медиапогружения в цифровой среде. Автор рассматривает влияние иммерсивных технологий, аватаризации и игровых механизмов на трансформацию социальной и интимной коммуникации, уделяя особое внимание изменениям поведенческих и эмоциональных моделей, а также переосмыслению понятий близости и сексуальности в виртуальном пространстве. Работа представляет интерес для изучения перехода от традиционного офлайн-взаимодействия к виртуальным формам контакта, включая романтизированные и эротизированные сценарии, реализуемые посредством VR-чатов, аватарных платформ и метавселенных. Автор отмечает, что в цифровой среде интимность всё чаще приобретает опосредованный и технически сконструированный характер. Данный подход может быть использован при исследовании влияния цифровой культуры на личностную и гендерную социализацию, а также при разработке современных подходов к психологической подготовке молодёжи к семейной жизни.

Современные социокультурные и технологические изменения существенно трансформируют условия подготовки молодёжи к семейной жизни. Как отмечают А. Пиз и Б. Пиз [5], современный человек располагает возможностями, существенно отличающимися от тех, в которых формировались традиционные поведенческие модели. Развитие медицины и репродуктивных технологий позволяет контролировать репродуктивную функцию, использовать методы искусственного оплодотворения, а цифровые платформы и брачные сервисы расширяют возможности выбора партнёра. Одновременно современные технологии позволяют существенно изменять внешний облик человека посредством косметологии и пластической хирургии.

По мнению А. Пиза и Б. Пиза [5, с. 43], развитые когнитивные функции человека позволяют ему осознанно регулировать собственное поведение, в том числе в сфере романтических и семейных отношений. Следовательно, несмотря на влияние биологических и социальных факторов, человек способен критически осмысливать свои чувства, оценивать последствия принимаемых решений и выстраивать отношения с учётом собственных ценностей, жизненного опыта и культурного контекста. Это положение имеет особое значение для подготовки молодёжи к семейной жизни, поскольку предполагает развитие рефлексивных способностей, эмоционального интеллекта, навыков самопонимания и осознания собственных потребностей и ожиданий.

Сочетание указанных психологических компонентов с традиционными этнокультурными ценностями каракалпакского народа может способствовать

формированию более целостного и зрелого представления о браке и семье. В этой связи интеграция традиционных представлений о супружестве и семейных обязанностях с современными научными знаниями о психологии любви, выборе партнёра и межличностных отношениях может рассматриваться как одно из условий создания эффективной модели подготовки каракалпакской молодёжи к семейной жизни. Данный подход приобретает особую актуальность в условиях глобализации и расширения цифрового пространства, поскольку семейные установки молодёжи всё чаще формируются под влиянием разнообразных внешних информационных и культурных факторов.

А. Варга и Г. Будинайте [2] отмечают, что в современной модели супружеских отношений всё большее значение приобретает эмоционально-смысловой обмен между партнёрами. Семья в данном контексте выступает не только как социальный и экономический институт, но и как пространство личностной самореализации, психологической поддержки и эмоционального взаимодействия. Такая трансформация предъявляет повышенные требования к эмоциональной зрелости супругов, их способности к эмпатии, взаимопониманию и конструктивному общению. Поэтому современная подготовка молодёжи к семейной жизни должна включать не только усвоение традиционных семейных ценностей, но и развитие психологической готовности к партнёрскому взаимодействию, понимания собственных эмоциональных потребностей и способности учитывать потребности другого человека. Недостаточная сформированность данных качеств может стать одним из факторов неготовности к браку и возникновения конфликтов на последующих этапах семейной жизни.

С этой точки зрения особого внимания заслуживает концепция М. Боуэна [1], положившая начало теории семейных систем. В соответствии с данным подходом семья рассматривается как целостная эмоциональная система, в которой поведение и эмоциональное состояние каждого члена семьи оказывают влияние на других её участников. Следовательно, процессы, происходящие в браке, не могут рассматриваться исключительно через призму индивидуально-психологических особенностей супругов. Они во многом обусловлены характером внутрисемейных связей, особенностями коммуникации, уровнем эмоциональной взаимозависимости и моделями поведения, сформированными в родительской семье.

Согласно М. Боуэну, вступление в брак не означает полного отделения личности от прежней семейной системы. Напротив, эмоциональные установки, способы разрешения конфликтов, характер привязанности, отношение к ответственности и модели взаимодействия, усвоенные человеком в детстве, в той или иной степени переносятся в собственную семейную жизнь. Именно поэтому подготовка молодёжи к браку должна начинаться не только

с формирования представлений о правах и обязанностях супругов, но и с осознания собственного опыта семейных отношений, понимания его позитивных и проблемных сторон и способности конструктивно переосмысливать унаследованные модели поведения.

Одним из центральных понятий теории М. Боуэна является дифференциация «Я», под которой понимается способность личности сохранять эмоциональную автономию, самостоятельность суждений и внутреннюю устойчивость, одновременно находясь в тесных эмоциональных отношениях с другими людьми. Высокий уровень дифференциации позволяет человеку сохранять собственную позицию, не разрушая эмоциональную связь с партнёром, конструктивно выражать чувства и принимать решения на основе осознанных убеждений. Низкий уровень дифференциации, напротив, может сопровождаться эмоциональной зависимостью, повышенной тревожностью, стремлением к чрезмерному контролю либо избеганием близости.

Особое значение данная концепция приобретает применительно к молодёжи, находящейся на этапе активного личностного становления и формирования жизненных ориентиров. В этот период происходит осмысление собственных ценностей, представлений о любви, ответственности, супружестве и родительстве. Недостаточная сформированность «Я-концепции», неустойчивая самооценка, отсутствие навыков саморефлексии и эмоциональной саморегуляции могут затруднять как осознанный выбор партнёра, так и построение устойчивых взаимоотношений после вступления в брак. В отдельных случаях стремление к эмоциональной близости может приводить к зависимости от партнёра, а страх потери отношений — к подавлению собственных потребностей и неконструктивному поведению.

В связи с этим подготовка молодёжи к семейной жизни должна рассматриваться как комплексный процесс формирования не только знаний о браке и семейных обязанностях, но и внутренней психологической готовности к партнёрским отношениям. В содержание такой подготовки целесообразно включать развитие эмоционального интеллекта, навыков саморефлексии и саморегуляции, способности распознавать и выражать собственные чувства, конструктивно разрешать конфликты, устанавливать личностные границы и вести открытый диалог с партнёром. Не менее важным является формирование навыков осознанного выбора, позволяющих молодому человеку оценивать совместимость ценностей, жизненных целей и ожиданий, а не основывать решение о вступлении в брак исключительно на эмоциональной привязанности.

При этом современная модель подготовки к семейной жизни должна учитывать изменения, происходящие под влиянием цифровой среды. Виртуальные формы коммуникации расширяют возможности знакомства и общения, однако одновременно могут способствовать формированию

идеализированных представлений о партнёре, поверхностному восприятию отношений и размыванию личностных границ. Поэтому цифровая культура и ответственное поведение в онлайн-пространстве также должны рассматриваться как элементы современной семейной компетентности. Молодёжь должна быть способна критически оценивать информацию, получаемую через социальные сети и цифровые платформы, различать виртуальный образ и реальные качества человека, а также понимать психологические последствия чрезмерной зависимости от онлайн-коммуникации.

Таким образом, теория семейных систем М. Боуэна позволяет расширить представление о подготовке молодёжи к семейной жизни, рассматривая её не только как процесс передачи определённых знаний и социальных норм, но и как формирование психологической зрелости личности. Способность осознавать собственные эмоциональные реакции, сохранять внутреннюю устойчивость, уважать автономию другого человека и одновременно поддерживать эмоциональную близость является одним из важных условий построения стабильных семейных отношений.

Обобщение зарубежного опыта подготовки молодёжи к семейной жизни показывает необходимость комплексного, системного и культурно адаптированного подхода к данной проблеме. Эффективная модель подготовки должна объединять традиционные семейные ценности, современные психологические знания, навыки межличностной коммуникации и требования цифровой среды. При этом национально-культурный компонент должен не противопоставляться современным подходам, а интегрироваться с ними с учётом исторического опыта, ценностей и социальных особенностей конкретного общества.

В данном контексте перспективным направлением является разработка программ подготовки молодёжи к семейной жизни, ориентированных на формирование эмоционально-личностной зрелости, осознанного отношения к выбору партнёра, навыков конструктивного взаимодействия, культуры разрешения конфликтов и ответственного родительства. Дополнение таких программ компонентами цифровой гигиены, медиаграмотности и формирования устойчивых семейных установок позволит учитывать новые вызовы, возникающие в условиях цифровизации общества.

Следовательно, подготовка молодёжи к семейной жизни должна рассматриваться как непрерывный педагогико-психологический процесс, направленный на формирование целостной личности, способной осознанно вступать в брак, строить эмоционально устойчивые отношения, принимать совместные решения и нести ответственность за благополучие семьи. Именно сочетание личностной зрелости, семейных ценностей, психологической

компетентности и адаптации к современным социокультурным условиям создаёт основу для формирования устойчивой и гармоничной семьи.

Литературы:

1. Боуэн М. Семейная терапия и эмоциональные системы. – 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: Речь, 2022. – 432 с.

2. Варга А.Я., Будинайте Г.Р. Психология супружеских отношений. – 6-е изд., испр. и доп. – М.: Юрайт, 2024. – 193 с. – ISBN 978-5-534-16563-0.

3. Всяких Е. Виртуальный мир будущего: адаптация: монография. – М.: Эксмо, 2021. – 320 с.

4. Пиз А., Пиз Б. Язык взаимоотношений: как научиться общаться с противоположным полом без конфликтов / пер. с англ. М.Г. Звонарева. – М.: Бомбора, 2024. – 384 с.

5. Сарна А.Я. Дроны, покемоны и киберсекс: игровые интерфейсы социальной виртуальности. – М.: URSS, 2019. – 256 с.

6. Тийт Э. Об идеале супруга и брака у студентов Тартуского и Хельсинкского университетов // Исследования по качеству брака. – Тарту, 1982. – С. 142.

7. Cooper A., Månsson S.A., Daneback K., Tikkanen R., Ross M.W. Predicting the future of Internet sex: Online sexual activities in Sweden // Sexual and Relationship Therapy. – 2003. – Vol. 18, No. 3. – P. 277–291.

8. Delmonico D., Griffin E. Cybersex Unplugged: Finding Sexual Health in an Electronic World. – USA: Gentle Path Press, 2011. – 312 p.

9. Nichols M.P., Davis S.D. Family Therapy: Concepts and Methods. – 12th ed. – New York: Pearson, 2020. – 528 p.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 378.011.3-051:159.955

G‘aniyeva Maftuna Abduaziz qizi,
Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING TADQIQI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Mantiqiy fikrlashning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va muammoli ta’lim yondashuvlarining imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mantiqiy tafakkur, mantiqiy fikrlash, bo‘lajak o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuv, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, pedagogik faoliyat.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ИХ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития логического мышления у будущих учителей начальных классов. Раскрываются сущность и значение логического мышления в профессиональной педагогической деятельности, его структурные компоненты и роль в формировании профессиональной компетентности будущих педагогов. Особое внимание уделено использованию инновационных педагогических технологий, интерактивных методов обучения и проблемно-ориентированного подхода как эффективных средств развития аналитического, критического и творческого мышления. Определены педагогические условия и методические подходы, обеспечивающие эффективное развитие логического мышления у студентов педагогических направлений.

Ключевые слова: логическое мышление, логическое рассуждение, будущий учитель начальных классов, начальное образование, педагогические

технологии, профессиональная компетентность, инновационный подход, критическое мышление, творческое мышление, интерактивные методы, проблемное обучение, подготовка педагогических кадров, педагогическая деятельность.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING LOGICAL THINKING IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AND THEIR STUDY

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of developing logical thinking among prospective primary school teachers. The study highlights the significance of logical thinking in pedagogical practice, its structural components, and its role in fostering professional competence. Particular attention is given to the application of innovative pedagogical technologies, interactive teaching methods, and problem-based learning approaches that contribute to the enhancement of analytical, critical, and creative thinking skills. The research also identifies the pedagogical conditions necessary for the effective development of logical thinking and proposes methodological recommendations for improving teacher training programs.

Keywords: logical thinking, logical reasoning, prospective primary school teachers, primary education, pedagogical technologies, professional competence, innovative approaches, critical thinking, creative thinking, interactive methods, problem-based learning, teacher training, pedagogical activity.

Kirish. Hozirgi davrda global ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida oliy ta'lim muassasalarida akademik sifatni oshirish, yuqori malakali va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasi muhim epistemologik va institutsional ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan xalqaro ta'lim konsepsiyasida ta'lim ijtimoiy-madaniy rivojlanishning strategik lokomotivi sifatida belgilangan bo'lib, "butun umr davomida yuqori sifatli bilim olish imkoniyatini ta'minlash" fundamental vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu konsepsiyada ta'lim tizimida yuqori sifatli ta'limni kafolatlash uchun eng avvalo o'qituvchilar zamonaviy bilimlar bilan qurollantirilishi va kasbiy malakalarini oshirilishi, milliy va xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari ishlab chiqilishi va ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilish kabi muammolar ilgari surilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fikrlashga oid tadqiqotlarning sotsiologik aspekti tafakkurning tarixiy rivojlanishi, uning ijtimoiy sharoitlar bilan o'zaro aloqasi hamda madaniy-konseptual omillar ta'sirida shakllanish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Fiziologik yondashuv tafakkurning kognitiv va neyrobiologik mexanizmlarini, uning nerv impulslari va miya faoliyati bilan

bog‘liqligini tadqiq etadi. Kibernetik yondashuvda esa inson tafakkuri axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tizimlashtirish va maqbul qaror qabul qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Psixologiyada tafakkur bilish faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganilib, fikrlash jarayonida qo‘llaniladigan vositalar, umumlashuv darajasi, muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari va yangi bilimlarni o‘zlashtirish xususiyatlariga ko‘ra uning turli shakllari farqlanadi. Tafakkurning individual, ijtimoiy va madaniy jihatlarini kompleks o‘rganish insonning fikrlash va qaror qabul qilish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ham tafakkur va mantiqiy fikrlash masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, Abu Ali ibn Sino “Donishnoma” asarida tafakkur va fikrlash jarayoniga oid muhim g‘oyalarni ilgari surgan. U tafakkurni ruhiy hodisa sifatida o‘rganish bilan birga, “Arastu metafizikasiga talqin” va “Talqin haqida” asarlarida uni mantiqiy shakl sifatida tahlil qilgan. Mutafakkir hukm tuzilishi, tushunchalar hamda umumiy va yakka tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarga alohida e’tibor qaratgan. Bu qarashlar mantiqiy fikrlashning nazariy asoslari uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, fikrlashga oid tadqiqotlarning sotsiologik, fiziologik, kibernetik, psixologik va pedagogik yo‘nalishlarda olib borilishi tafakkur hodisasini multidisiplinar asosda o‘rganish imkonini beradi. Zamonaviy ta’lim sharoitida mantiqiy tafakkurni faqat psixologik hodisa sifatida emas, balki shaxsning intellektual va kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi pedagogik jarayon sifatida ham tadqiq etish muhimdir.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Biroq uni maxsus pedagogik-psixologik shart-sharoitlar asosida rivojlantirish, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini uyg‘un shakllantirish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Ta’lim tizimidagi yangilanishlar sharoitida ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan metodik tavsiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Inson o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini fikrlash qobiliyati orqali rejalashtiradi, tartibga soladi va boshqaradi. Fikrlash jarayoni muayyan mantiqiy qonuniyatlarga asoslanadi. Ushbu qonuniyatlarni anglash va ulardan to‘g‘ri foydalanish mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy mashqlar bajarish orqali shakllanadi. Mantiqiy tafakkurning rivojlanishi aniq, izchil va asoslangan xulosalar chiqarish, mantiqiy xatolarni aniqlash, turli qarashlarni tahlil qilish hamda asosli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Mazkur kompetensiyalar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun muhimdir. Chunki pedagog o‘quvchilarning savollariga izchil javob berishi, murakkab tushunchalarni sodda va mantiqiy ketma-ketlikda tushuntirishi,

muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi hamda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Oliy ta’lim va ijtimoiy sohadagi yangilanishlar ta’lim mazmuni, shakl va metodlarini ham takomillashtirishni talab etmoqda. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda mantiqiy tahlil, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va pedagogik vaziyatlarga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uning intellektual salohiyati va kasbiy kompetentligini yuksaltirishning muhim shartidir. Mantiqiy fikrlash, kreativlik, tanqidiy yondashuv va refleksiv faoliyatning uyg‘unligi bo‘lajak pedagogga ta’lim jarayonini samarali loyihalash, pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi.

Natijalar. Pedagogik ta’limda mantiqiy kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bilan bir qatorda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yashirin intellektual imkoniyatlarini, xususan, zukkolik, nutqiy ravonlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, ularni samarali joriy etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’limda yangi metodik yondashuvlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim muassasasining pedagogik va ijtimoiy faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Mantiqiy-metodik yondashuv bo‘lajak pedagoglarning umumkasbiy tayyorgarligi, pedagogik tafakkuri va kasbiy o‘zligini anglash qobiliyatini rivojlantirish uchun ochiq, moslashuvchan va demokratik ta’lim muhitini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagoglar kreativ o‘qitish metod va strategiyalaridan samarali foydalanishlari uchun ularni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga izchil singdirish zarur. Ayniqsa, mantiqiy mazmunga ega ta’lim muhitida talabalar o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni, tushunchalar va o‘quv axborotlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq anglaydi, tahlil qiladi va mustaqil xulosalar chiqaradi.

Tizimli yo‘naltirilgan tadqiqotlarda innovatsion faoliyat shaxsiy, boshqaruv-kommunikativ va natijaviy tizimlar o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Shaxsning innovatsion salohiyati yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliy shaklda loyihalash va modellashtirish, shuningdek, tafakkurning moslashuvchanligi va yangilikka ochiqligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, madaniy-estetik rivojlanganlik, bilimdonlik, o‘z faoliyatini takomillashtirishga tayyorlik, innovatsion ehtiyoj va innovatsion xulq motivatsiyasi muhim ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mantiqiy tafakkur mulohaza yuritish, ijodiy moslashuvchanlik va maqbul qaror qabul qilish ko‘nikmalarining birligi sifatida pedagogik faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv o‘qitish jarayoni, pedagogik muloqot, shaxsiy o‘zini anglash va refleksiv faoliyatda o‘z aksini topadi. Shu bilan birga, mantiqiy tafakkurga oid tadqiqotlar pedagogik faoliyatning tarkibiy xususiyatlarini, tafakkur komponentlarining rivojlanish dinamikasini hamda o‘qituvchining individual metodik strategiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyatining shakllanishi turli pedagogik vaziyatlarga muqobil yechimlar ishlab chiqish, ularni ilmiy va mantiqiy jihatdan asoslash hamda amaliyotga tatbiq etish jarayonida namoyon bo‘ladi. Mantiqiy tafakkurning yetuklik darajasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun muhim kasbiy kompetensiya bo‘lib, u, avvalo, quyidagi ikki jihatni qamrab oladi:

1. Muqobil yechimlarni mantiqiy tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish.

2. O‘quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari — o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va ta’limni boshqarish subyektlari manfaatlarini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirish.

Shunday qilib, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim sharti bo‘lib, u pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni baholash, kreativ fikrlash va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhokama. Shunday qilib, innovatsion ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda mantiqiy tafakkur hamda refleksiv yondashuvning uyg‘unligi zamonaviy ta’lim muhitining intellektual va metodologik jihatdan takomillashuviga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining kasbiy individualligi uning faoliyati va xulq-atvoridagi o‘ziga xos jihatlar, shakllangan individual metod va usullar, shuningdek, pedagogik qarashlari, kasbiy dunyoqarashi va tajribasi orqali namoyon bo‘ladi.

Mantiqiy tafakkur o‘qituvchining kasbiy individualligini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilish, ijodiy yondashish, o‘z qarashlarini asoslash va faoliyatini refleksiv baholash imkonini beradi. Shaxsning o‘ziga xosligini anglash, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyatni rivojlantirish, kasbiy faoliyat natijalarini baholash va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish mazkur jarayonning muhim psixologik omillaridir.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati funksional komponentlar, mezonlar va tarkibiy elementlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklarga qo‘yiladigan talablarni hisobga olish, fan-texnika yutuqlari hamda samarali didaktik metodlardan foydalanish muhimdir.


Ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarning o‘quv materialini chuqur anglashiga, asosiy fikrlarni

ajratishiga, tahlil va sintez qilishiga, o‘xshashlik va farqlarni aniqlashiga hamda muqobil yechimlarni izlashiga imkon beradi. Ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili mantiqiy tafakkurni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim ijtimoiy-pedagogik ehtiyojlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur yondashuvlar asosida innovatsion ta’lim modelini shakllantirish, pedagogik mantiq va refleksiya vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning individual metodikasini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim konsepsiyalarini integratsiyalash imkoniyatlari kengayadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini takomillashtirishda o‘quv materialidagi asosiy va ikkilamchi fikrlarni farqlash, tahlil, sintez, analogiya va bashorat qilish kabi aqliy operatsiyalarni shakllantirish bilan birga, ilmiy izlanish, mustaqil qaror qabul qilish va bahs-munozara yuritish madaniyatini rivojlantirish ham muhimdir. Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy fikrlash kompetentligini rivojlantirishda mantiqiy yondashuvlar va interfaol metodlardan foydalanish pedagogik modellashtirish masalasini ham dolzarb etadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik kompetentlikni rivojlantirishga oid ishlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, dual ta’lim, pedagogik texnologiyalar, integrativ, kreativ va kognitiv yondashuvlar keng o‘rganilgan. Biroq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashi va pedagogik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan aniq funksional-pedagogik algoritmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi tadqiqotlarni davom ettirish zaruratini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishni alohida metod yoki mashqlar tizimi sifatida emas, balki pedagogik shart-sharoitlar, metodik vositalar va refleksiv faoliyatni birlashtiruvchi yaxlit jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, asoslangan qarorlar qabul qilishi, muammolarga ijodiy yechim topishi va o‘z faoliyatini baholab borishiga zamin yaratadi. Amaldagi holat va mavjud ehtiyojlardan kelib chiqib, mantiqiy fikrlashni metodik rivojlantirishning pedagogik xaritasini ishlab chiqish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda amaliy ko‘mak beruvchi va pedagogik-kasbiy tafakkur kompetensiyalarini mujassamlashtiruvchi modelni yaratish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, pedagogik qayta tayyorlash va ta’limni tashkil etish jarayonida ilg‘or tajribalarni ijodiy o‘zlashtirish hamda ularni mamlakatimiz ta’lim amaliyotiga moslashtirish muhim vazifalardan biridir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga metodik jihatdan tayyorlash tahlil, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash kabi aqliy amallarning rivojlanishi, shuningdek, tafakkurning mustaqilligi, tejamkorligi va moslashuvchanligini ta’minlashni nazarda tutadi.



1-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni

Bo‘lajak o‘qituvchi boshlang‘ich ta’lim jarayonida muammoning maqsadini anglash va uni hal etishga qaratilgan topshiriqlar hamda muammoli vaziyatlarni mustaqil izohlash orqali o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadni aniqlashga harakat qiladi. Bunda uning o‘quvchilarni tushunishi, ularning ehtiyoj va maqsadlarini anglay olishi, ruhiy, aqliy va jismoniy salohiyatini muayyan maqsadga yo‘naltirishi ularda bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, bilish faoliyatini faollashtirish hamda nutqini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Ushbu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining psixologiya, pedagogika va didaktika fanlarini puxta egallashi alohida ahamiyatga ega. Bu bilimlar unga turli muammolarni aniqlash, ta’lim shakl va usullarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilardagi kamchiliklarning sabablarini tahlil qilish, mas’uliyatni his etish, mehnatsevarlik bilan faoliyat yuritish, o‘z ishining natijalarini nazorat qilish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish imkonini beradi. Mazkur omillar har bir mashg‘ulotning mazmuni va metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchining ilmiy salohiyati, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma va didaktik materiallarning mavjudligi, ularning mazmuni va sifati, kasbiy faoliyatdagi yutuqlarining hamkasblar tomonidan e’tirof etilishi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ijodiy faoliyatning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan amaliy o‘quv seminarlarini tashkil etish, tajriba jarayonida fan-texnika yangiliklarini ta’lim jarayoniga joriy etishning ilmiy asoslarini chuqur o‘zlashtirish, ijodiy faoliyatni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni shakllantirish, uni loyihalash va

ijodiy ishlash mahoratini oshirish ham ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dunyoqarashi, tafakkuri va mantiqiy fikrlash xususiyatlari uning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi, pedagogik metod va usullarni puxta egallashi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini to‘g‘ri baholashi hamda pedagogik vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilishi bilan bevosita bog‘liq. Mantiqiy fikrlashning rivojlanganligi o‘qituvchiga o‘quv materialini izchil tahlil qilish, asosiy jihatlarni ajratish, muammoli vaziyatlarni baholash va samarali metodik yechimlarni tanlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik jihatdan tayyorlashda pedagogik shart-sharoitlar, zamonaviy didaktik ta'minot, interfaol va innovatsion metodlar, muammoli ta'lim hamda refleksiv faoliyatdan foydalanish muhimligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda talabalarning individual xususiyatlari, intellektual imkoniyatlari, mustaqil izlanishga bo‘lgan ehtiyoji, tasavvuri va ijodiy salohiyatini hisobga olish zarur. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali pedagogik munosabatlar, muloqot madaniyati hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, muqobil yechimlarni izlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ularning intellektual salohiyati bilan bir qatorda kasbiy kompetentligini ham yuksaltiruvchi muhim pedagogik omildir. Mazkur jarayonni izchil va maqsadli tashkil etish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik vazifalarni samarali hal etish hamda boshlang‘ich ta'limda mustaqil, faol va mantiqiy fikrlaydigan o‘quvchilarni shakllantirish uchun zarur metodik asoslarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2023.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar**.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 312 b.

4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari**.** – Toshkent: Fan, 2020. – 280 b.

Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 256 b.

UDK: 371.11:005.96 (575.1)

Alkarov Elyor Maxmudovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bo‘lim boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), dotsent

BOSHQARUV SAMARADORLIGIDAN TA’LIM SIFATIGACHA: MAKTAB DIREKTORLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA TIZIMLI MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim boshqaruvida maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish asosida rahbarlarning boshqaruv salohiyatini oshirish imkoniyatlari asoslanadi. Shuningdek, direktorlar faoliyatini aniq va o‘lchanadigan indikatorlar asosida baholash orqali ularning kasbiy rivojlanishini takomillashtirish yo‘nalishlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim boshqaruvi, direktor kompetensiyasi, kasbiy rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, uzluksiz ta’lim, baholash, indikatorlar, boshqaruv samaradorligi.

ОТ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ К КАЧЕСТВУ ОБРАЗОВАНИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И СИСТЕМНЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ

Аннотация. В данной статье анализируются современные подходы к развитию профессиональных компетенций директоров школ в системе управления образованием. Обосновываются возможности повышения управленческого потенциала руководителей на основе компетентностного подхода, цифровых технологий и непрерывного профессионального развития. Также рассматриваются направления совершенствования профессионального развития директоров на основе оценки их деятельности с использованием конкретных и измеримых индикаторов.

Ключевые слова: управление образованием, компетенции директора, профессиональное развитие, компетентностный подход, цифровые технологии, непрерывное образование, оценка, индикаторы, эффективность управления.

FROM MANAGEMENT EFFECTIVENESS TO EDUCATION QUALITY: MODERN APPROACHES AND SYSTEMIC MECHANISMS FOR

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 7-son

DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF SCHOOL PRINCIPALS

Abstract. This article analyzes modern approaches to the development of professional competencies of school principals in educational management. It substantiates the possibilities of enhancing managerial capacity based on a competency-based approach, digital technologies, and continuous professional development. The paper also identifies directions for improving principals' professional development through the evaluation of their performance using clear and measurable indicators.

Keywords: educational management, principal competencies, professional development, competency-based approach, digital technologies, lifelong learning, assessment, indicators, management effectiveness

Zamonaviy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini ta'minlash tobora murakkablashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va institutsional omillar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli transformatsiyaning kengayishi hamda ta'lim xizmatlariga nisbatan talablarning keskin ortishi ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantirmoqda. Bunday sharoitda maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi [1].

Hozirgi davrda maktab direktori faoliyati an'anaviy ma'muriy boshqaruv chegaralaridan chiqib, strategik rivojlanishni rejalashtirish, innovatsion tashabbuslarni ilgari surish, jamoani samarali boshqarish hamda manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi ko'p qirrali vazifalarni qamrab olmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi rahbarlardan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli va analitik yondashuvlarni talab etmoqda.

Mazkur tendensiyalar maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni an'anaviy yondashuvlar doirasida emas, balki zamonaviy, integratsiyalashgan va tizimli yondashuvlar asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli vositalardan samarali foydalanish hamda rahbar faoliyatini aniq va o'lchanadigan indikatorlar asosida baholash tizimini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida rahbarlik faoliyatini

takomillashtirish hamda boshqaruvning natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan

Maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim boshqaruvida tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Bugungi sharoitda rahbarlik faoliyati ko‘p komponentli jarayon sifatida namoyon bo‘lib, unda strategik boshqaruv, inson resurslarini rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. Shu bois direktorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish faqat bilimlarni yangilash bilan cheklanib qolmay, balki ularning amaliy faoliyatida qo‘llaniladigan ko‘nikma va yondashuvlarni tizimli takomillashtirishni talab etadi [2].

Birinchidan, kompetensiyaviy yondashuv direktorlar kasbiy faoliyatini rivojlantirishning metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur yondashuv doirasida rahbarning kasbiy salohiyati aniq kompetensiyalar tizimi orqali aniqlanadi va baholanadi. Xususan, strategik rejalashtirish kompetensiyasi ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qilsa, liderlik kompetensiyasi jamoani boshqarish, motivatsiya qilish va ijobiy muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiya manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni ta’minlasa, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish kompetensiyalari boshqaruvning operativ va strategik darajadagi natijadorligini belgilaydi. Ushbu yondashuv direktorlarning kasbiy rivojlanishini individual ehtiyojlar asosida rejalashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimiga integratsiya qilish direktorlar kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy raqamli platformalar, axborot tizimlari va analitik vositalar yordamida ta’lim jarayonini monitoring qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda obyektivlikni ta’minlaydi, jarayonlarning shaffofligini oshiradi hamda boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Uchinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyili direktorlarning professional kompetensiyalarini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muhitida rahbarlar doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib borishi zarur. Bu jarayonda malaka oshirish kurslari, treninglar, onlayn ta’lim platformalari va professional hamjamiyatlar doirasidagi tajriba almashish muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish rahbarlarning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning kasbiy o‘sishini jadallashtiradi.


To‘rtinchidan, direktorlar faoliyatini baholashning indikatorli tizimini joriy etish kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim tarkibiy komponenti hisoblanadi. Rahbar faoliyatini aniq va o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar asosida baholash uning boshqaruv samaradorligi, jamoa bilan ishlash darajasi, innovatsion

faolligi, raqamli kompetensiyasi hamda kommunikativ salohiyatini kompleks tarzda aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv rahbar faoliyatini subyektiv baholashdan chiqarib, uni ma'lumotlarga asoslangan va tizimli baholash mexanizmiga aylantiradi [3]. Natijada direktorlarning kuchli va rivojlantirishni talab etuvchi jihatlari aniqlanib, ularning individual kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarur asos yaratiladi.

Shuningdek, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari doirasida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) modeli alohida ahamiyat kasb etadi [4]. Mazkur modelga ko'ra, boshqaruv qarorlari statistik ma'lumotlar, monitoring natijalari va analitik xulosalarga tayangan holda qabul qilinadi. Bu esa boshqaruv jarayonlarining aniqligi, izchilligi va natijadorligini oshiradi hamda subyektivlikni minimallashtiradi.

Yuqoridagi yondashuvlarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning kompleks modelini shakllantiradi.



1-rasm. Maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual modeli.

Mazkur model maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning tizimli mexanizmini aks ettiradi. Unda kompetensiya klasterlari asosida rahbar faoliyati ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) yondashuv orqali baholanib, tahlil natijalariga ko‘ra qayta aloqa va takomillashtirish jarayonlari amalga oshiriladi [5]. Natijada direktorlarning kuchli va rivojlanishni talab etuvchi jihatlari aniqlanib, individual kasbiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi hamda boshqaruv samaradorligi va ta'lim sifati oshiriladi.

1-jadval

Maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini indikatorlar (KPI) asosida baholash tizimi

1. Strategik boshqaruv (20 ball)		2. Liderlik va jamoa bilan ishlash (20 ball)		3. Kommunikativ salohiyat (15 ball)		4. Innovatsion faoliyat (15 ball)		5. Raqamli kompetensiya (15 ball)		6. Qaror qabul qilish (15 ball)	
Indikator	***Ball***	***Indikator***	***Ball***	***Indikator***	***Ball***	***Indikator***	***Ball***	***Indikator***	***Ball***	***Indikator***	***Ball***
Reja va maqsadlarning bajarilishi	8	Jamoa motivatsiyasi darajasi	8	Ichki aloqa sifati	5	Yangi metod va texnologiyalarni joriy etish	6	Raqamli vositalardan foydalanish	6	Qarorlarning asoslanganligi	5
Natijadorlik ko'rsatkichlari	6	Hamkorlik va ishonch muhiti	6	Tashqi hamkorlik aloqalari	5	Innovatsion loyihalar soni	5	Elektron tizimlardan foydalanish	5	Qaror qabul qilish tezkorligi	5
Monitoring va tahlil tizimi	6	Vakolatlarni taqsimlash samaradorligi	6	Axborot almashish samaradorligi	5	Yaxshilash tashabbuslari	4	Raqamli savodxonlik	4	Qarorlar natijadorligi	5
Jami: 20 ball		**Jami: 20 ball**		**Jami: 15 ball**		**Jami: 15 ball**		**Jami: 15 ball**		**Jami: 15 ball**	

Mazkur jadval maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini indikatorlar (KPI) asosida kompleks baholash tizimini aks ettiradi. Unda kompetensiya klasterlari kesimida aniq va o‘lchanadigan indikatorlar hamda ularning maksimal ball ko‘rsatkichlari tizimlashtirilgan. Har bir yo‘nalish bo‘yicha belgilangan mezonlar rahbar faoliyatini obyektiv baholash, uning natijadorligini aniqlash hamda boshqaruv samaradorligini miqdoriy ifodalash imkonini beradi.

2-jadval.

Direktorlar kasbiy kompetensiyasini baholash natijalarini interpretatsiya qilish mezonlari.

Ball oralig‘i	Daraja	Tavsif

86 - 100	Juda yuqori	Rahbarning kasbiy kompetensiyasi yuqori darajada shakllangan, boshqaruv faoliyati samarali va barqaror rivojlanish ta'minlangan
71 - 85	Yuqori	Kasbiy kompetensiya yetarli darajada, ayrim yo'nalishlarda takomillashtirish talab etiladi
56 - 70	O'rta	Rahbar faoliyatida barqarorlik mavjud, lekin tizimli rivojlanish zarur
41 - 55	Past	Kasbiy kompetensiyada kamchiliklar mavjud, rivojlantirish choralarini kuchaytirish talab etiladi
0 - 40	Juda past	Rahbar faoliyati yetarli darajada emas, kompleks rivojlantirish zarur

Mazkur indikatorlar va ularning interpretatsiya mezonlari asosida maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini baholash natijalari rahbar faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Baholash jarayonida to'plangan umumiy ballar asosida direktorlarning kasbiy darajasi aniqlanib, ularning boshqaruv faoliyatidagi kuchli hamda rivojlantirishni talab etuvchi jihatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi [6].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, strategik boshqaruv va liderlik kompetensiyalari ko'pchilik rahbarlarda nisbatan yuqori darajada shakllangan bo'lsada, raqamli kompetensiya hamda innovatsion faoliyat yo'nalishlarida ayrim kamchiliklar kuzatiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida direktorlarning raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash borasida qo'shimcha rivojlanishga ehtiyoji mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, baholash natijalari asosida har bir direktor uchun individual kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkoniyati yaratiladi. Bu esa malaka oshirish jarayonlarini maqsadli tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv natijalarining tahlili rahbar faoliyatini takomillashtirishda tizimli va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda indikatorlar (KPI) asosidagi baholash tizimi hamda ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv yondashuvlarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ko'rsatdi. Raqamli monitoring vositalari, tahliliy yondashuvlar va boshqaruv jarayonlarini tizimlashtirish rahbar faoliyatini yanada shaffof, tezkor va natijador tashkil etish imkonini beradi [7].

Shu bilan birga, direktorlarning raqamli kompetensiyasi hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llash qobiliyati boshqaruv samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv asosida rahbar

faoliyatini obyektiv baholash, individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda ta'lim muassasalarida boshqaruv sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Asosiy xulosalar:

Maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib, data-driven yondashuvni talab etadi.

Direktorlar faoliyatini indikatorlar (KPI) asosida baholash ularning kasbiy salohiyatini obyektiv aniqlash va rivojlanish ehtiyojlarini belgilash imkonini beradi.

Baholash tizimi rahbar faoliyatini kompetensiya klasterlari kesimida tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi.

Interpretatsiya mezonlari baholash natijalarini sifat jihatidan aniqlash va individual rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni takomillashtirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Direktorlar faoliyatini indikatorlar (KPI) asosidagi baholash tizimini joriy etish, bu orqali rahbar faoliyatini kompleks va obyektiv baholash hamda boshqaruv samaradorligini miqdoriy tahlil qilish imkonini yaratish;
2. Direktorlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz malaka oshirish tizimini shakllantirish, bunda raqamli boshqaruv vositalari va analitik platformalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish;
3. Ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruv muhitini rivojlantirish, yangi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va rahbarlarning tashabbuskorligini rag‘batlantirish;
4. Baholash natijalari asosida direktorlar uchun individual kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni tizimli amalga oshirish orqali faoliyat samaradorligini oshirish;
5. Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) tamoyillarini keng joriy etish orqali qaror qabul qilish jarayonlarini ilmiy asoslash va monitoring tizimini kuchaytirish.

Maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim boshqaruvi samaradorligini ta'minlashning hal qiluvchi omili bo‘lib, u an'anaviy ma'muriy yondashuvlardan voz kechib, kompetensiyaviy, raqamli va ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo‘llashni taqozo etadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, rahbar faoliyatini strategik boshqaruv, liderlik, kommunikativ salohiyat, innovatsion faollik, raqamli kompetensiya va qaror qabul qilish kabi klasterlar kesimida indikatorlar (KPI) asosida tizimli baholash uning kasbiy salohiyatini obyektiv aniqlash, kuchli hamda rivojlantirishni talab etuvchi jihatlarini ajratib ko‘rsatish va shu asosda individual kasbiy rivojlanish strategiyasini

shakllantirish imkonini beradi; ayniqsa, raqamli kompetensiya va innovatsion yondashuvlar yo‘nalishlarida aniqlangan kamchiliklar uzluksiz malaka oshirish tizimini ushbu yo‘nalishlarda kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bois, indikatorli baholash mexanizmi, raqamli monitoring vositalari va data-driven boshqaruv tamoyillarini birgalikda joriy etish boshqaruv jarayonlarining shaffofligi, izchilligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlab, pirovardida ta’lim muassasalarida rahbarlik faoliyati natijadorligi va ta’lim sifatining barqaror oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmon. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz

2. Alkarov, E.M. (2026). Maktab rahbar kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi // Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. – 6(1). – B. 1–10. 10.66023/MT/v_i382/386, https://orcid.org/0000-0003-3215-3135

3. H.Fayol General and Industrial Management. – London: Pitman Publishing, 1949.

4. D.D.Islamova, B.S.Madrahimov “Ta’lim menejmentida samarali boshqaruv tamoyillari: zamonaviy yondashuvlar va amaliyot”, Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. 2025-yil, 3-son.

5. OECD TALIS. (2020). Teachers and School Leaders as Valued Professionals. OECD Publishing. https://www.oecd.org

6. UNESCO. Digital Transformation of Education Systems: Global Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing. 2022.

7. M.Fullan. The Principal: Three Keys to Maximizing Impact. San Francisco: Jossey-Bass. 2014.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 378.147:502:004

Mudarisova Rayhon Xojiyevna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ekologiya va yashil resurslar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Saidova Shoista Abduvakilovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ekologiya va yashil resurslar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA EKOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMALARI FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tashkilotlarida ekologiya fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Ekologik jarayon va hodisalarni o‘rganishda raqamli ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar, geografik axborot tizimlari, multimedia vositalari hamda raqamli monitoring ma’lumotlaridan foydalanishning didaktik ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni ekologiya fanining nazariy va amaliy mazmuni bilan integratsiyalash asosida talabalarning ekologik bilimlarini mustahkamlash, ekologik jarayonlarni tahlil qilish, real ma’lumotlar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish va mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuv taklif etilgan. Mashg‘ulotlarni “muammoni aniqlash – raqamli axborotni izlash – ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish – modellashtirish va vizuallashtirish – yechim ishlab chiqish – natijalarni taqdim etish – refleksiya va baholash” bosqichlari asosida tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, oliy ta’lim, raqamli texnologiyalar, raqamli ta’lim, virtual laboratoriya, geografik axborot tizimlari, ekologik monitoring, vizuallashtirish, ekologik kompetensiya, raqamli kompetensiya, interaktiv ta’lim.

МЕТОДИКА ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ЭКОЛОГИЯ» В ОРГАНИЗАЦИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и методические возможности эффективного использования цифровых технологий в процессе преподавания экологии в организациях высшего образования. Проанализировано дидактическое значение применения цифровых образовательных ресурсов, виртуальных лабораторий, интерактивных платформ, геоинформационных систем, мультимедийных средств и данных

цифрового экологического мониторинга при изучении экологических процессов и явлений. На основе интеграции цифровых технологий с теоретическим и практическим содержанием дисциплины «Экология» предложен методический подход, направленный на углубление экологических знаний студентов, развитие навыков анализа экологических процессов, работы с реальными данными, решения проблемных ситуаций и самостоятельной исследовательской деятельности. Разработана методика организации занятий на основе последовательности этапов: «определение проблемы – поиск цифровой информации – анализ экологических данных – моделирование и визуализация – разработка решения – представление результатов – рефлексия и оценивание».

Ключевые слова: экология, высшее образование, цифровые технологии, цифровое образование, виртуальная лаборатория, геоинформационные системы, экологический мониторинг, визуализация, экологическая компетентность, цифровая компетентность, интерактивное обучение.

METHODOLOGY FOR THE EFFECTIVE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ECOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article examines the pedagogical and methodological possibilities of effectively using digital technologies in teaching ecology at higher education institutions. The didactic potential of digital educational resources, virtual laboratories, interactive platforms, geographic information systems, multimedia tools, and digital environmental monitoring data in studying ecological processes and phenomena is analyzed. Based on the integration of digital technologies with the theoretical and practical content of ecology courses, a methodological approach is proposed to enhance students' environmental knowledge and develop their abilities to analyze ecological processes, work with real-world data, solve environmental problems, and conduct independent research. A methodology for organizing ecology classes is developed according to the following sequence: "problem identification – digital information search – environmental data analysis – modeling and visualization – solution development – presentation of results – reflection and assessment."

Keywords: ecology, higher education, digital technologies, digital education, virtual laboratory, geographic information systems, environmental monitoring, visualization, environmental competence, digital competence, interactive learning.

Kirish. Bugungi kunda global ekologik muammolarning tobora keskinlashib borishi, jumladan, iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning qisqarishi

hamda maishiy va sanoat chiqindilari hajmining ortishi ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim tashkilotlarida ekologiya fanini o'qitish talabalarga nazariy bilimlarni yetkazish bilangina cheklanmay, ularda ekologik jarayon va hodisalarni ilmiy asosda tahlil qilish, ekologik muammolarni baholash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishni ham taqozo etadi.

Ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi ekologiya fanini o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, raqamli ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, geografik axborot tizimlari (GIS), interaktiv xaritalar, multimedia vositalari, masofaviy monitoring tizimlari hamda elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ekologik jarayonlarni vizuallashtirish, modellashtirish va real ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur vositalar o'quv jarayonining interaktivligini oshiradi, talabalarning bilish faolligini kuchaytiradi, mustaqil ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning mavjudligi o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirmaydi. Ularning samaradorligi ekologiya fanining maqsadi, mazmuni, o'qitish metodlari, amaliy topshiriqlari va baholash mezonlari bilan metodik jihatdan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishiga bog'liq. Ayniqsa, raqamli vositalarni faqat axborotni taqdim etish vositasi sifatida emas, balki ekologik muammolarni aniqlash, ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish, prognozlash hamda ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan kompleks va metodik jihatdan asoslangan foydalanish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, ekologik bilimlarni real monitoring ma'lumotlari, geografik axborot tizimlari, virtual laboratoriyalar va raqamli modellashtirish vositalari bilan integratsiyalashgan holda o'qitish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim tashkilotlarida ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish hamda talabalarning ekologik, axborot-raqamli, tahliliy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi ekologiya fanini o'qitish mazmuni, metodlari va didaktik vositalarini takomillashtirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar tayyor bilimlarni uzatish vositasi sifatida emas, balki talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda tadqiqotchilik

kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik muhit sifatida talqin etilmoqda [1, 2].

M. Hajj-Hassan, R. Chaker va A.-M. Cederqvist tomonidan ekologik ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan tizimli adabiyotlar sharhida virtual reallik, raqamli ta'lim platformalari va interaktiv vositalarning ekologik bilimlarni o'zlashtirish, barqaror rivojlanish g'oyalarini anglash hamda ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirishdagi pedagogik salohiyati asoslab berilgan [3]. Shuningdek, gamifikatsiya elementlari va veb-ilovalardan foydalanish ekologik bilimlarni mustahkamlash bilan birga, talabalarda ekologik mas'uliyat va barqaror ekologik xulq-atvorni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [4].

Ekologik jarayon va hodisalarni o'rganishda geografik axborot tizimlari (GIS) muhim o'rin tutadi. D. Yang, C. Wang va L. Qian tadqiqotlarida GIS texnologiyalari ekologik obyektlarning hududiy xususiyatlarini vizuallashtirish, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, ekologik jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash hamda ekologik prognozlarni ishlab chiqishda samarali vosita ekanligi ko'rsatilgan [5]. Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar ekologik tajribalarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul raqamli muhitda modellashtirish, murakkab ekologik jarayonlarni kuzatish hamda tajriba natijalarini tahlil qilish imkonini yaratadi [6].

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash nafaqat ekologik bilimlarni chuqurlashtirish, balki talabalarning axborot-raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. N. P.-K. Lo raqamli savodxonlik va ekologik ongning integratsiyasi natijasida zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo'lgan "yashil raqamli ko'nikmalar"ni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi [7]. Shuningdek, oliy ta'limda raqamli ta'lim texnologiyalarini barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar raqamli vositalarni o'quv mazmuni, pedagogik metodlar va baholash tizimi bilan kompleks integratsiyalash zarurligini asoslaydi [8]. So'nggi yillarda rivojlanayotgan immersiv texnologiyalar va metavers muhitlari esa murakkab ekologik vaziyatlarni virtual makonda modellashtirish, ekologik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda tajribaga asoslangan o'qitishni tashkil etish uchun yangi didaktik imkoniyatlarni yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda geografik axborot tizimlari, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya, interaktiv platformalar va boshqa raqamli vositalarning alohida pedagogik imkoniyatlari yetarli darajada yoritilgan. Biroq mazkur vositalarni ekologiya fanining nazariy va amaliy mazmuni, real ekologik monitoring ma'lumotlari, modellashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish hamda natijalarni baholash jarayonlari bilan yagona metodik tizim asosida integratsiyalash masalalari hali ham yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotda ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan kompleks metodik

yondashuvni ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini asoslashga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini oliy ta'lim tashkilotlarida ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan kompleks metodik yondashuvni ishlab chiqish tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, muammoli ta'lim va raqamli pedagogika yondashuvlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim tashkilotlarida ekologiya fanini o'qitish jarayoni, predmeti sifatida esa ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning mazmuni, metodlari, didaktik vositalari va pedagogik shart-sharoitlari belgilandi.

Tadqiqotni amalga oshirishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish hamda metodik loyihalash metodlaridan foydalanildi. Dastlab ekologiya fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-metodik manbalar tahlil qilinib, raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlari ekologiya fanining maqsadi, mazmuni va kutilayotgan o'quv natijalari nuqtai nazaridan tasniflandi. Shuningdek, ekologik ta'limda qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli platformalar, geografik axborot tizimlari, virtual laboratoriyalar va ekologik monitoring ma'lumotlari bilan ishlash imkoniyatlari o'rganildi.

Ishlab chiqilgan metodik yondashuvda raqamli vositalar ularning funksional vazifalariga ko'ra to'rtta guruhga ajratildi. Birinchi guruh – axborot-ta'lim vositalari bo'lib, elektron darsliklar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, raqamli kutubxonalar va multimedia resurslarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh – vizuallashtirish va modellashtirish vositalari bo'lib, geografik axborot tizimlari (GIS), interaktiv xaritalar, virtual laboratoriyalar va kompyuter simulyatsiyalaridan iborat. Uchinchi guruh – tahliliy vositalar bo'lib, ekologik monitoring ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, statistik tahlil qilish va grafik ko'rinishda ifodalash imkonini beruvchi dasturiy vositalarni qamrab oladi. To'rtinchi guruh – kommunikativ-taqdimot vositalari bo'lib, talabalarning hamkorlikda ishlashi, loyiha natijalarini muhokama qilishi va raqamli formatda taqdim etishini ta'minlovchi platformalar va servislarni o'z ichiga oladi.

Ekologiya fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi o'zaro uzviy bog'langan yetti bosqich asosida ishlab chiqildi: ekologik muammoni aniqlash → raqamli axborotni izlash → ekologik ma'lumotlarni yig'ish → ma'lumotlarni tahlil qilish → modellashtirish va vizuallashtirish → ekologik yechimni ishlab chiqish → natijalarni taqdim etish, refleksiya va baholash. Mazkur bosqichlar ketma-ketligi talabalarning reproduktiv o'quv faoliyatidan tahliliy, tadqiqotchilik va ijodiy faoliyatga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlashga yo'naltirildi. Har bir bosqichda tegishli raqamli vositalar, o'quv topshiriqlari va baholash usullari bilan uyg'unlashtirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligini baholash uchun to‘rtta mezon belgilandi: ekologik-kognitiv, axborot-raqamli, tahliliy-tadqiqotchilik va amaliy-faoliyatli mezonlar. Ekologik-kognitiv mezon talabalarning ekologik tushunchalar, qonuniyatlar va ekologik muammolar mohiyatini anglash darajasini tavsiflaydi. Axborot-raqamli mezon raqamli ta’lim resurslari, ekologik ma’lumotlar bazalari va dasturiy vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini baholaydi. Tahliliy-tadqiqotchilik mezoni ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, ilmiy xulosalar chiqarish va tadqiqot elementlarini qo‘llash darajasini aks ettiradi. Amaliy-faoliyatli mezon esa ekologik muammolar bo‘yicha ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish, ularni asoslash va amaliy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyalarini ifodalaydi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodologiya raqamli texnologiyalarni ekologiya faniga oddiy texnik vosita sifatida joriy etishga emas, balki ularni ekologik muammolarni aniqlash, ma’lumotlarni izlash va qayta ishlash, tahlil qilish, modellashtirish, ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish hamda natijalarni baholash jarayonlarini yagona didaktik tizimda integratsiyalashga asoslanadi. Mazkur metodik yondashuv ekologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning ekologik va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida oliy ta’lim tashkilotlarida ekologiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan kompleks metodik yondashuv ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodikaning asosiy xususiyati raqamli texnologiyalarni alohida texnik vosita sifatida emas, balki ekologik muammoni aniqlash, ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish, modellashtirish, ilmiy asoslangan yechim ishlab chiqish va natijalarni baholash bosqichlarini o‘zaro bog‘lovchi yaxlit didaktik tizim sifatida qo‘llashdan iborat.

Ishlab chiqilgan metodik modelga ko‘ra ekologiya fani mashg‘ulotlari “ekologik muammoni aniqlash → raqamli axborotni izlash → ekologik ma’lumotlarni yig‘ish → ma’lumotlarni tahlil qilish → modellashtirish va vizuallashtirish → ekologik yechimni ishlab chiqish → natijalarni taqdim etish, refleksiya va baholash” ketma-ketligida tashkil etiladi. Mazkur model talabalarning reproduktiv o‘quv faoliyatidan tadqiqotchilik va muammoga yo‘naltirilgan faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tishini ta’minlaydi. Natijada talaba tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyektdan real ekologik ma’lumotlar bilan ishlaydigan, ularni tahlil qiladigan, ilmiy xulosalar chiqaradigan va ekologik muammolarga asoslangan yechimlar taklif etadigan faol ishtirokchiga aylanadi.

Tadqiqot davomida ekologiya fanida qo‘llaniladigan raqamli vositalarning didaktik funksiyalari tizimlashtirildi. Xususan, elektron ta’lim resurslari va ma’lumotlar bazalari ekologik axborotni izlash va yig‘ish, geografik axborot tizimlari (GIS) hamda interaktiv xaritalar ekologik obyektlarning hududiy xususiyatlarini vizuallashtirish va fazoviy tahlil qilish, virtual laboratoriyalar va

simulyatsiyalar murakkab ekologik jarayonlarni modellashtirish, tahliliy dasturlar esa ekologik monitoring ma'lumotlarini qayta ishlash, statistik tahlil qilish va grafik ko'rinishda ifodalash vazifalarini bajarishi aniqlandi. Bunday funksional tasnif o'qituvchiga mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga mos raqamli vositalarni ilmiy-metodik asosda tanlash imkonini beradi.

Taklif etilgan metodika ekologiya fanini real ekologik muammolar bilan integratsiyalash imkoniyatini ham yaratadi. Jumladan, atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslari sifati, chiqindilarni boshqarish, yer degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning o'zgarishi kabi dolzarb ekologik masalalar bo'yicha talabalar ochiq raqamli ma'lumotlar bazalaridan foydalanishi, monitoring natijalarini tahlil qilishi, statistik jadval, diagramma va tematik xaritalar yaratishi hamda olingan natijalar asosida ekologik holatni baholab, ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi mumkin.

Tadqiqot natijasida metodikaning samaradorligini baholash uchun ekologik-kognitiv, axborot-raqamli, tahliliy-tadqiqotchilik va amaliy-faoliyatli mezonlardan iborat baholash tizimi ishlab chiqildi. Mazkur mezonlar talabalarning ekologik bilim darajasini, raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalarini, ekologik ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kompetensiyalarini, shuningdek, ekologik muammolar bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini kompleks baholash imkonini beradi.

Olingan natijalar zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan ekologik ta'limda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari [3], geografik axborot tizimlarining ekologik va fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilishdagi samaradorligi [5], virtual laboratoriyalarning ekologik ta'limdagi pedagogik salohiyati [6] hamda ekologik va raqamli kompetensiyalarni integratsiyalash zarurati [7] haqidagi ilmiy xulosalarni to'ldiradi va rivojlantiradi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu vositalarni yagona metodik ketma-ketlik asosida integratsiyalash hamda ularni ekologik muammolarni tadqiq etishga yo'naltirilgan didaktik tizim sifatida asoslash bilan izohlanadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodik yondashuv ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni axborotni taqdim etish darajasidan ekologik ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, modellashtirish, vizuallashtirish, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va ekologik muammolar yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan faol, tadqiqotga asoslangan ta'lim modeliga olib chiqadi. Mazkur metodika talabalarning ekologik, axborot-raqamli va tadqiqotchilik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish hamda ekologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Oliy ta'lim tashkilotlarida ekologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning ekologik bilimlarini chuqurlashtirish, ekologik jarayon va hodisalarni real ma'lumotlar asosida o'rganish, tahlil qilish, modellashtirish hamda vizuallashtirish imkoniyatlarini

kengaytiradi. Raqamli vositalarni ekologiya fanining mazmuni va didaktik maqsadlari bilan uzviy integratsiyalash o‘quv jarayonining amaliy, interaktiv va tadqiqotchilik yo‘nalishini kuchaytirib, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida ekologiya mashg‘ulotlarini “ekologik muammoni aniqlash → raqamli axborotni izlash → ekologik ma’lumotlarni yig‘ish → ma’lumotlarni tahlil qilish → modellashtirish va vizuallashtirish → ekologik yechimni ishlab chiqish → natijalarni taqdim etish, refleksiya va baholash” ketma-ketligi asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan kompleks metodik yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur metodika talabalarning reproduktiv o‘quv faoliyatidan muammoga yo‘naltirilgan, tahliliy va tadqiqotchilik faoliyatiga bosqichma-bosqich o‘tishini ta’minlaydi hamda ekologik muammolarni ilmiy asosda hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim resurslari, geografik axborot tizimlari (GIS), interaktiv xaritalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, ekologik monitoring ma’lumotlari va tahliliy dasturlarning didaktik funksiyalari tizimlashtirildi. Ularning ekologiya fanining mazmuni bilan kompleks integratsiyalashuvi talabalarda ekologik, axborot-raqamli, tahliliy-tadqiqotchilik va amaliy kompetensiyalarni uyg‘un rivojlantirish uchun samarali metodik asos yaratishi aniqlandi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni tanlashda ularning texnik imkoniyatlaridan ko‘ra, muayyan o‘quv maqsadi va ekologik vazifalarni amalga oshirishdagi didaktik funksiyalariga ustuvor ahamiyat berilishi lozimligi asoslandi.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligini baholash maqsadida ekologik-kognitiv, axborot-raqamli, tahliliy-tadqiqotchilik va amaliy-faoliyatli mezonlardan iborat kompleks baholash tizimi ishlab chiqildi. Mazkur mezonlar talabalarning ekologik bilimlari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ekologik ma’lumotlarni ilmiy tahlil qilish va muammolarga asoslangan amaliy yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarini ham kompleks baholash imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan metodikani oliy ta’lim tashkilotlarida pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazish, tajriba va nazorat guruhlari natijalarini matematik-statistik usullar asosida qiyosiy tahlil qilish hamda uning talabalarning ekologik, axborot-raqamli va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sirini empirik jihatdan asoslash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ekologiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, raqamli ta’lim texnologiyalarini samarali joriy etish hamda oliy ta’lim tizimida ekologik ta’lim sifatini oshirishga ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Martín-Lucas J., García del Dujo Á. Knowledge-building in an environment mediated by digital technology: A case study in higher education // Education and Information Technologies. – 2023. – Vol. 28. – P. 3267–3287. DOI: 10.1007/s10639-022-11304-0.

2. Aramburuzabala P., Culcasi I., Cerrillo R. Service-Learning and Digital Empowerment: The Potential for the Digital Education Transition in Higher Education // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 6. – Article 2448. DOI: 10.3390/su16062448.

3. Hajj-Hassan M., Chaker R., Cederqvist A.-M. Environmental Education: A Systematic Review on the Use of Digital Tools for Fostering Sustainability Awareness // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 9. – Article 3733. DOI: 10.3390/su16093733.

4. The Use of Gamification and Web-Based Apps for Sustainability Education // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 8. – Article 3197. DOI: 10.3390/su16083197.

5. Yang D., Wang C., Qian L. Does the use of GIS in geographical education yield better learning outcomes? Evidence from a quasi-experimental study on air pollution teaching // Transactions in GIS. – 2024. – Vol. 28. – P. 433–454. DOI: 10.1111/tgis.13142.

6. Zhang N., Liu Y. Design and implementation of virtual laboratories for higher education sustainability: a case study of Nankai University // Frontiers in Education. – 2024. – Vol. 8. – Article 1322263. DOI: 10.3389/feduc.2023.1322263.

7. Lo N.P.-K. The Confluence of Digital Literacy and Eco-Consciousness: Harmonizing Digital Skills with Sustainable Practices in Education // Platforms. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 15–32. DOI: 10.3390/platforms2010002.

8. Hamadi M., El-Den J. A conceptual research framework for sustainable digital learning in higher education // Research and Practice in Technology Enhanced Learning. – 2024. – Vol. 19. – Article 1. DOI: 10.58459/rptel.2024.19001.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.013.43:37.016

Asamatdinova J.,
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti docenti, (PhD)

PEDAGOGIKALÍQ QÁDIRYATLAR TIYKARÍNDA ZAMANAGÓY TÁLIMDI RAWAJLANDÍRÍW METODIKASÍ

Annotaciya. Maqalada Qaraqalpaqstan Respublikasi qánigelestirilgen mekteplerinde zamanagóy tálim procesinde oqıtıwda pedagogikalıq qádiryatlardı qáliplestiriw metodikasın jetilistiriw haqqında sóz etiledi. Qánigelestirilgen mektep muǵallimlerine qoyılatuǵın zamanagóy pedagogikalıq talaplar, qánigelestirilgen mektep oqıwshılarında pedagogikalıq qádiryatlardı qáliplestiriw metodikası, qánigelestirilgen mektep oqıwshılarında pedagogikalıq qádiryatlardı qáliplestiriwde milliy tariyx hám milliy tárbiya úlgileriniń abzallıqları anıqlanǵan.

Tayanısh túsinikler: metodologiya, metodika, usıl, filologiya, tálim, tárbiya, oqıtıwshı, jámiyet, milliy tariyx hám milliy tárbiya, qánigelestirilgen mektep oqıwshıları.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В статье обсуждается совершенствование методики формирования педагогических ценностей в современном образовательном процессе в специализированных школах Республики Каракалпакстан. Выявлены современные педагогические требования к учителям специализированных школ, методика формирования педагогических ценностей у учащихся специализированных школ, преимущества национальной истории и национального воспитания в формировании педагогических ценностей у учащихся специализированных школ.

Ключевые слова: методология, методика, метод, филология, образование, воспитание, учитель, общество, национальная история и национальное воспитание, учащиеся специализированных школ.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING MODERN EDUCATION BASED ON EDUCATIONAL VALUES

Abstract. The article discusses the improvement of the methodology for forming pedagogical values in teaching in modern educational processes in specialized schools of the Republic of Karakalpakstan. Modern pedagogical requirements for teachers of specialized schools, the methodology for the formation

of pedagogical values in students of specialized schools, the advantages of national history and national upbringing in the formation of pedagogical values in students of specialized schools have been identified.

Keywords: methodology, methodology, method, philology, education, upbringing, teacher, society, national history and national upbringing, students of specialized schools.

Prezident Sh.M.Mirziyoevtiń atap ótiwinshe, "Búgingi kúnde biziń islep atırǵan barlıq islerimiz perzentlerimizdiń baxıt-ıǵbalı, olardıń aydın keleshegi ushın ámelge asırılmaqta. Biraq baxıt-ıǵbal tek ǵana baylıq, mal-múlk penen belgilenbeydi. Ádepli, bilimli hám aqıllı, miynet súygish,watansuyiwshi, iymanisenimli perzent tek ata-ananıń emes, al pútkil jámiyettiń eń úlken baylıǵı". Haqıyqatında da búgingi jedel ózgerisler dáwirinde "pedagogikalıq qádiriyatlarǵa tiykarlanǵan tálim" sistemasın engiziw hám qıyınlasıp baratırǵan globallasıw procesinde ósip kiyatırǵan jas áwladqa qádiriyatlar, ádep-ikramlılıq principler, insanıylıq pazıyletlerdi sińdiriw zárúrligi barǵan sayın artıp barmaqta. Bul bilimlendiriwdiń mazmunı hadallıq, húrmet, miyrim-shápáát, tiyislilik sezimi, parız hám juwapkershilik sıyaqlı áhmiyetli ádep-ikramlılıq hám ulıwmainsanıylıq qádiriyatlarǵa tiykarlanadı[1]. Pedagogikalıq qádiriyatlarǵa tiykarlanǵan tálimdi támiyinlewde tiykarǵı rol muǵallim hám ata-analarǵa tuwra keledi. Olar tek milliy tárbiyashılar emes, al oqıwshılardıń jeke minez-qulqın qáliplestiriwde jol-joba kórsetetuǵın ádep-ikramlılıq másláhátshileri esaplanadı. Pedagogikalıq qádiriyatlarǵa tiykarlanǵan tálim turaqlı tálim principi tiykarında isleydi. Ózin-ózi rawajlandırıw turaqlı tálimniń áhmiyetli elementi esaplanadı. Bul oqıwshılardıń ózin-ózi húrmet etiwi, óz qádir-qımbatın qádirlewi, jámiyetlik belsendi hám úlgili shaxs bolıwǵa umtılıwı ideyası bolıp tabıladı.

Filosofiyalıq hám pedagogikalıq-psixologiyalıq ádebiyatlardı analizlew "qádriyat" túsinigin talqılawda hár qıylı qatnaslar bar ekenligin kórsetti. Filosofiyalıq kóz-qarastan qádiriyat insan tárepinen bahalanatuǵin keń tarqalǵan subyektiv obraz yaki túsinikler sıpatında ańlansa, sociologiyalıq kóz-qarasta qádiriyat insan ómirlik iskerligin shólkemlestiriwshi sociallıq normalar, onıń minezqulqı menen bekkem baylanıslılıqta talqılanadı, psixologiya bul túsinikti shaxstıń qızıǵıwshılıqları, mútájlikleri menen baylanıslılıqtı kórsetedi, pedagogikada "qádiriyat" túsinigi insannıń hár tárepleme úylesimli rawajlanıwına baǵdarlanǵan individual ómirlik tájiriybesi, dúnya haqqındaǵı bilimleri tiykarında júzege keliwshi álemge jeke múnásibetin sáwlelendiredi.

Zamanagóy mektep bilimlendiriwinen oqıwshı bilimlerin óz turmısında erkin qollanıwı, turaqsız jaǵdaylarda ushırasatuǵın mashqalalarǵa tez hám durıs sheshim qabıl etiwge tayar bolıwı talap etilmekte.

Milliy bilimlendiriw sisteması oqıwshılardı globallasıw ortalıǵına tayarlaw, jańa bilimlerdi maqsetli úyreniw hám standart emes mashqalalarǵa sheshim tabıw

kónlikpelerin qáliplestiriwde úlken áhmiyetke iye. Qánigelestirilgen mekteplerde pedagogikalıq qádiriyatlar tiykarında shólkemlestirilgen sabaqlar rawajlanǵan mámleketler bilimlendiriw tájiriybesinde islep shıǵılǵan xalıqaralıq standartlarǵa tiykarlanıp oqıwshılarda milliylikti saqlawǵa hám globallasıw procesinde ǵalabalıq mádeniyat tásirine túsip qalmawǵa, jáǵáátte birge islesiwdi túsiniwge hám qollapquwatlawǵa, sociallıq kónlikpelerdi qáliplestiriwge imkaniyat beredi. Hár bir jámiyettiń rawajlanıwı millet jasların milliy ruwxta tárbiyalaw, olardı milliy qádiriyatlarǵa tiykarlanǵan jámiyetlik turmısqa, turmıs tárizine qay dárejede nátiyjeli tayarlawǵa baylanıslı[3]. Sol sebepli ásirler dawamında hár bir millet, xalıq óz milliy qádiriyatları tiykarında jas áwlad tárbiyasın shólkemlestiriwge baylanıslı kózqaraslardı qáliplestirip kelgen. Bir millet hám xalıq ushın qádirli bolǵan úrpádetler, dástúrler hám kózqaraslardı húrmet etiw, qádirlew bilimlendiriw sistemasında, oqıw procesiniń didaktikalıq imkaniyatları tiykarında qáliplestiriledi, metodikalıq qurallar járdeminde úyretiledi. Máselen, Qaraqalpaq xalqınıń kóp ásirlik tariyxında xalıq ámeliy bezew óneri mádeniy miyrasımızdıń tiykarǵı bólegin quraydı. Qaraqalpaq diyarında payda bolıp, gúllep-jasnaǵan ámeliy kórkem óner túrleri teńsiz hám biytákirarlıǵı menen dúnyaǵa belgili. Bul rawajlanıw basqıshı haqqında pikir júrgizer ekenbiz, ámeliy bezew ónerиniń kelip shıǵıwı insaniyattıń dáslepki dáwiri, yaǵnıy áyyemgi jámiyetlik dáwirine barıp taqalatuǵının kóremiz. Jaqın ótmishte ámeliy bezew ónerиniń eń rawajlanǵan kesteshilik, tas oymakerligi, súyek oymakerligi, naǵıs oyıwshılıq, pıshaq soǵıw, shiy toqıw, zergerlik, zerlep tigiw, gilem toqıwshılıq, kiyiz toqıw, sebet toqıw sıyaqlı túrleriniń ózine tán orınlaw texnologiyaları, haqıyqıy milliy atamaları, olarǵa tán atamalar, bul ónerlerge tán mektepler, usıllar hám de usı tarawlarda ataqqa erisken ustalardıń xızmetleri pútkil dúnyaǵa ataǵı shıqqan.

Sabaq procesiniń tiykarın shólkemlestiriwshi tárepler bilim alıwshı hám bilim beriwshiler bolsa, muǵallim sabaqtı shólkemlestiriwshi hám basqarıwshı, túsindiriw, oqıwshını baǵdarlaw sıyaqlı jumıslardı ámelge asıradı. Zamanagóy mektepler sıpatında tán alınıp atırǵan qánigelestirilgen mekteplerdiń ana tili hám ádebiyat páni muǵallimi tańlap alınǵan qábiletli oqıwshılarǵa bilim beriwde, sonday-aq, jańa bilimlendiriw jetiskenliklerine erisiwde oqıwshınıń rawajlanıw strategiyasın pedagogikalıq qádiriyatlar tiykarında birgelikte islep shıǵıwǵa juwapker. Pedagogikalıq qádiriyatlar tiykarında islep shıǵılǵan oqıwshınıń rawajlanıw strategiyası olarda tómendegi kónlikpelerdi qáliplestiredi:

- jáǵáátte durıs pikirlesiw;
- birgelikte islew;
- emociya hám stressti basqara alıw;
- liderlik qábileti;
- waqıttı durıs bólistiriw hám basqarıw;
- sistemalı hám strategiyalıq pikirlew;
- sóylesiw alıp barıw;

- konstruktiv sin kózqarastan pikirlew;
- mashqalalardı sheshiw;
- kreativlik;
- tez hám durıs qarar qabıl ete alıw [4].

Pútkil jáhán bilimlendiriw keńesi tárepinen maqullanǵan bul talaplar dizimin keyin ala N.B.Shumakova dawam ettirip, qábiletli oqıwshı shaxsınıń rawajlanıwı, qábiletli hám talantlı oqıwshılar ushın baǵdarlamalar tómendegishe bolıwı kerekligin atap ótedi:

- oqıwshılar tańlaǵan temalardı, milliy hám ulıwma mádeniy qádiriyatlardı tereń úyreniwi ushın imkaniyat beriw;
- oqıwda, yaǵnıy oqıwshınıń ózi basqaratuǵın bilimlendiriwde ǵárezsizlikti támiyinlew; - izertlew jumıslarınıń metodları hám kónlikpelerin rawajlandırıw;
- dóretiwshilik, sın kózqarastan hám abstrakt-logikalıq pikirlewdi rawajlandırıw;
- ádettegi stereotipler hám ulıwma qabıl etilgen kózqaraslardı tarqatıwshı jańa ideyalardı alǵa qoyıwdı xoshametlew hám rawajlandırıw;
- ózin-ózi ańlaw hám ózin-ózi túsiniw, jeke qábiletleriniń ózine tánligin ańlaw hám basqa adamlardıń individual ózgesheliklerin túsiniwdi rawajlandırıwǵa járdemlesiw;
– oqıwshılardı hár qıylı kriteriyalar járdeminde jumıstıń nátiyjelerin bahalawǵa úyretiw, jumıstı oqıwshılardıń ózleri bahalawın xoshametlew zárúr [5]. Bul kórsetilgen talaplarǵa mısal sıpatında aytatuǵın bolsaq, Qaraqalpaq xalqında qara úy áyyemgi zamanlardan miyras bolıp esaplanadı. Biraq bunday úyler Sibir shıǵısında, Oraylıq Aziyanıń shól zonalarında kóbirek ushırasadı. Qánige ilimpaz G. Kalıqnazarovanıń pikirinshe qara úylerdi Oraylıq Aziyaǵa birinshi márte Sibirden kóship kelgen xunn qáwimleri alıp kelgen [7].

Qaraqalpaq xalqında qara úy soǵıw ónerin iyelewde shákirtlerden sheberlik penen birge aǵashtıń ózine tán tayarlaw usılların biliw talap etilgen. Yarım kóshpeli turmıs keshirgen xalqımızdıń turmısında qara úydiń tutqan ornı úlken áhmiyetke iye bolǵan. Sebebi, qara úy hár qanday qıyın jaǵdayda da qaraqalpaqlardıń birden-bir turaq jayı bolǵan. Qara úy jazda salqınlıǵı, qısta bolsa jıllı bolıwı menen ajıralıp, úydi jıynaw, qurıw ańsat hám jeńil etip islengen. Qara úy salıw máwsimlik xarakterge iye bolǵanlıǵı sebepli usta ashıq hawada óz ustaxanasında buyırtpa alıp, óz shákirtlerine úyretip barǵan. Úy soǵıwshı ustalar hár kúni jumıstı baslawdan aldın ishinen yamasa dawıs shıǵarıp, óz pirin eslep, keyin jumısqa kirisiwdi ádet qılıp alǵan. Ustalar qara úy ushın bir jıl aldın jergilikli aǵashlardı jánewit, qayın, torańǵıl, aq tal hám qara tallardı tayarlap qoyǵan. Sonday-aq, úyshiler óz shákirtlerine onı tayarlaw jolların basqıshpa-basqısh úyretiw menen birge olardan tábiyiy bilimler, esap-sanaq hám ólshemlerdi durıs biliw kerekligi, aǵashtıń belgili bir uzınlıǵı, úlkenligin esapqa alıwdı durıs ámelge asırıw ushın sabırlı bolıw, epshillik sıyaqlı paziyletlerge tárbiyalap barǵan. Qara úydi qurıw usılların óz shákirtlerine úyretiwde

ózine tán bilim hám kónlikpelerge iye bolıw menen birge hár bir detalǵa dıqqat penen qaraw kerekligin, qara úy ólshemleriniń anıq shıǵıwı ustadan dıqqattıń turaqlılıǵın, dıqqat kóleminiń keńligi, oy-pikir hám estetikalıq gózzallıǵında esapqa alıwdı shákirtlerine úyretken.

Házirgi waqıtta qábiletli oqıwshılar menen isleytuǵın muǵallimlerge de usıǵan sáykes talaplar bar bolıp, bunday muǵallimlerdiń pedagogikalıq jumısı tómendegi túsinikler menen táriyiplenedi:

1. Moderator -sabaq hám sabaqtan tısqarı proceslerde oqıwshılardıń iskerligin shólkemlestiredi, basqaradı hám qadaǵalaydı. Óz betinshe pikirlew, óz betinshe islew, biliw iskerligin jedellestiriw procesin jedel shólkemlestiredi;

2. Fasilitator - sabaq procesinde pozitiv hám emocional jaqtan unamlı bilim alıw ortalıǵın jaratadı. Oqıwshılar menen islewde hám de "comfort learning" ortalıǵın jaratıwshı, interaktiv sabaq ótiw usılların anıqlawshı hám rawajlandırıwshı wazıypalardı orınlaydı.

3. Tyutor-oqıwshını tıńlawshı, túsiniwshi hám qollap-quwatlawshı shaxs sıpatında kórinedi. Oqıwshılardıń qızıǵıwshılıqları tiykarında bilim alıwǵa baǵdarlaydı, berilgen tapsırmalardı hám joybar jumısın orınlaw procesinde másláhátshi, baqlawshı, tıńlawshı, járdemshi xızmetlerin ámelge asıradı.

4. Mentor - berilgen tapsırmalardı orınlaw procesinde úyretiwshi, jeteklewshi, bagdarlawshı wazıypalardı atqaradı. Búgingi kúnde ulıwma jáhán pedagogikasında keń qollanılıp kiyatırgan hám joqarı unamlı nátiyje berip atırgan zamanagóy pedagogikalıq qatnaslar tómendegiler [6]:

- individual qatnas;
- kompetenciyalıq qatnas;
- akmeologiyalıq qatnas.

Bul kózqaraslar tiykarında tálim procesin shólkemlestiriw milliy bilimlendiriw sisteması hám milliy qaraqalpaq xalıq pedagogikası aldında turǵan tiykarǵı baǵdarlardan biri esaplanadı. Solay etip, búgingi kúnde elimizde milliy qádiriyatlardıń qayta tikleniwine itibar qaratılıp atırǵan dáwirde bul miyrasımız óner túrlerin xalıqtıń bay tájiriybelerinen úlgi alıp, oqıwshı jaslardıń bilim alıw procesinde óz qolları menen islew imkaniyatın jaratıwda, olarda qızıǵıwshılıq tuwdırıwı múmkin. Milliy qádiriyatlar tiykarında jaslardı kásipke baǵdarlaw, ónerge bolǵan qábiletlerin jetilistiriw úlken áhmiyetke iye, dep oylaymız.

Búgingi globallasıw dáwirinde zamanagóy psixologiya hám pedagogika úzliksiz bilimlendiriw sistemasında oqıtılatuǵın barlıq pánlerge jáne de keńirek kirip barmaqta. Bul bolsa bilimlendiriw mákemelerinde oqıtılatuǵın oqıwshınıń tálim procesinde dóretiwshilik pikirlewi, úyrengenlerin ámeliyatqa qollanıwına keń jol ashpaqta.

Ulıwma aytqanda, jaslarǵa milliy tálim-tárbiya beriwde, bárinen burın, xalıq pedagogikası úlgilerine súyeniwimiz zárúr. Demek, milliy tálim-tárbiyaǵa xızmet etetuǵın oqıw-tárbiya jumıslarınıń wazıypaları, mazmunı xalıqtıń úrp-ádetlerin

oqıwshılardıń qalay túsiniwine baylanıslı. Máselen, ilimpaz G. Kalıqnazarovanıń izertlewlerinde kórsetilgenindey, qaraqalpaq kórkem óneriniń tákirarlanbas úlgilerinen biri bolǵan kók kóylek basqa birde-bir xalıqta ushıraspaytuǵın saltanatlı kiyim túri bolıp esaplanadı. Ol súwretlew hám kesteshilik óneriniń de biytákirar úlgisi. Kók kóylekti qaraqalpaqlar "boyaw kóylek" hám "kesteli kóylek" dep te ataydı. Sebebi bul kóylek kók reńge boyalgan hám hár túrli kesteler menen bezetilgen. Kóylekti bezewde alpıstan aslam naǵıs túrleri qollanılǵan. Qánigelerdiń atap ótiwinshe, kók kóylek, tiykarınan, Aralboyı qaraqalpaqları arasında keń tarqalǵan. Onıń úlgileri Sankt-Peterburg qalasındaǵı Etnografiya hám Nókis qalasındaǵı Qaraqalpaqstan tariyxı hám mádeniyatı muzeylerinde de saqlanbaqta. Qaraqalpaq qızları bul kóylekti tiykarınan ózleriniń neke toylarına kiyiw ushın tikken. Kók kóylek jaǵası hám eteginen tap kókirek bólimine shekem naǵıs penen kestirilgen. Ondaǵı mayda naǵıslar sonshelli kóp hám quramalı, bir kóylekti bezew ushın 4 jıldan 7 jılǵa shekem waqıt ketken [7]. Kók kóylektiń tariyxı sakmassagetler dáwirine barıp taqaladı. Sak-massagetler patshası márt Tumaris hám "Qırıq qız" dástanındaǵı dáwjúrek Gúlayım basqarǵan qızlar dushpanlarǵa qarsı atlanısta kiyimleriniń aldına yamasa sawıtqa ájayıp naǵıslar túsirgen. Ondaǵı naǵıslar dushpannıń kózin qamastırıwda paydalanılǵan. Demek, kók kóylektegi naǵıstı "sawıt naǵıs" dep ataw biykarga aytılmaǵan bolsa kerek. Bul dáwirde qızlar ushın qımbat bahalı tas hám metallardan bezew buyımları islengen. Kók kóylektiń tariyxı sak-massagetler dáwirine barıp taqaladı. Sak-massagetler patshası márt Tumaris hám "Qırıq qız" dástanındaǵı dáwjúrek Gúlayım basqarǵan qızlar dushpanlarǵa qarsı atlanısta kiyimleriniń aldına yamasa sawıtqa ájayıp naǵıslar túsirgen. Ondaǵı naǵıslar dushpannıń kózin qamastırıwda paydalanılǵan. Demek, kók kóylektegi naǵıstı "sawıt naǵıs" dep ataw biykarǵa aytılmaǵan bolsa kerek. Bul dáwirde qızlar ushın qımbat bahalı tas hám metallardan bezew buyımları islengen. Belgili ilimpaz, professor U. Aleuov: "Sak-massagetlerde jaslardıń sezimlerin gózzallıqqa bay tárizde, hayal-qızlarǵa húrmet kórsetiw ruwxında tárbiyalaw tereń mazmunǵa iye. Bunı olardaǵı hayal-qızlardıń bezeniw buyımlarına, gózzallıq tárbiyasına tiykarǵı itibar qaratılıwı dálilleydi" deydi [3]. Haqıyqatında da, qaraqalpaq hayal-qızlarınıń bezek buyımları menen birgelikte kiyimlerge hár qıylı naǵıslardı kestelew burınnan ádettegi process bolıp esaplanıp, insanǵa estetikalıq tásir kórsetedi. Qaraqalpaqlarda keste tigiw ónerin qızlar jas óspirim dáwirlerinenaq bilgen. Turmısqa shıǵatuǵın hár qanday qız ózinıń qol óneri menen bahalanǵan. Belgili etnograf, professor T.A.Jdanko bul haqqında: "Qızlardı 10-14 jaslarınan baslap kesteshilik hám naǵıs oyıwǵa úyretiw qaraqalpaq xalqınıń eń bahalı qádiriyatı bolıp esaplanadı. Sebebi XVIII - XIX ásirlerge tiyisli dereklerde kórsetiliwinshe qaraqalpaqlarda kesteshilik hám naǵıs oyıwdı bilmeytuǵın qızlardı tabıw qıyın. Sonıń ushın da olar 18 jasqa tolǵanǵa shekem usınday mektepti qáliplestirgen. Jas ǵana qızlar bir-biri menen jarısıp, kórkem ónerdiń joqarı shıńlarına kóterilgen," dep atap ótedi [7].

Álbette, kópshilik sheberler menen birge qolına iyne uslamaǵan ebeteysiz (olaq) qızlarda bolǵan. Sheber, epshil qızlar kesteshilik óneriniń jaqsı úlgilerin saqlagan. Olardı xalıqqa tarqatqan hám shákirtlerine úyretken. Sheber qızkelinshekler dóretken kesteshilik úlgileri áwladtan-áwladqa ótip rawajlanıp kelgen. Sebebi hár bir sheber kesteshilik ónerin tolıq iyelegennen soń, jana naǵıs oylap tappasa da, aldıńǵı qollanılıp atırgan naǵıs túrinen paydalanıp, kompoziciya qurıw, renlerdiń jaylasıwında jana usıllardı qollanǵan. Usınday sheberlerdiń atı xalıq arasında keń tarqalǵan. Máselen, Moynaq rayonı Aqdárya elatında 1920-30-jılları Aysánem atlı tigiwshi qız bolǵan. Ol sarı sınlı, ayaǵı jeńil, járdemge shaqırǵan jerlerge tez baratuǵın bolǵanlıqtan, awıl adamları onı "úpelek" dep ataǵan. Kámbaǵal shańaraqtıń qızı Aysánem awıllaslarına kesteshilik kiyim tigip beriw arqalı ata-anasına materiallıq járdem bergen. Bul mısallar oqıwshılarda milliy tárbiyaǵa baǵdarlawda xızmet etedi.

Qánigelestirilgen mektepler hám kásip-óner kolledjlerinde gezlemelerge kórkem islew beriwde kompoziciya táliminiń ózine tán ózgeshelikleri tómendegilerden ibarat:

birinshiden, Ózbekstan aymaǵında áyyemgi dástúriy kesteshilik ónermenchiligin jaslarǵa úyretiw olardıń óz áwladları tariyxıy almasıw sistemasınıń quramlıq bólegi sıpatında túsiniwine alıp keledi. Sonıń ushın oqıtıwshılar dóretiwshilik rawajlanıwdıń izbe-iz, úzliksiz rawajlanıwında oqıwshılardı tek ǵana keste ónimlerin jaratıw texnologiyaların úyreniwge baǵdarlamaydı, al olar kórkem ideyalardı da ańlawǵa háreket etedi. Bilim beriw procesinde oqıwshılar ónermentshilik buyımların tayarlawda kesteshiliktiń dástúriy usılların úyrenedi;

ekinshiden, kesteshilik jumısınıń rawajlanıwına zamanagóy óndiris dástúrleriniń tásiri kesteshilik texnikası sıpatında gezlemege islew beriwdi ámelge asırıw procesinde kórinedi. Oqıwshılar kesteshilik metodi menen tek gana bezekler jaratpaydı, al kishi kórkem óner shıǵarmaların, sonday-aq, úlken bolmaǵan súwretlew kompoziciyaların, ónermenchilik quramına kiriwshi kesteshilik ónimlerinde jaratadı;

úshinshiden, oqıwshılar xalıq ónermentshiligi ónimlerin jaratıwǵa baylanıslı bilim, kónlikpe hám uqıplılıqlardı iyeleydi, kesteshilik úlgilerin jaratıwǵa baǵdarlanadı. Kompoziciya táliminiń bas máselelerinen biri sıpatında oqıwshılar kompoziciyalıq sistemanıń konstrukciya menen úylesiwin, kishi kólemdegi kesteshilik ónimlerin konstrukciyalawdı názerde tutadı;

tórtinshiden, jańa kórkem baǵdarlardıń engiziliwi (avangard aǵımlar) keste formalarınan basqa materiallardı qayta islewde paydalanılatuǵın kompoziciyalardıń payda bolıwına tásir etedi.

Bul dástúriy hám zamanagóy kózqaraslar pedagogikada metodologiyalıq áhmiyetke iye bolıp, olarda oqıwshı shaxsın hár tárepleme jetilistiriw, olarǵa individual qatnas jasaw, teoriyalıq bilimlerdiń ámeliy áhmiyetin arttırıw, oqıwshılarda belgili bir kompetenciyanı qáliplestiriw usılları hám olardıń

qábiletlerin júzege shıǵarıw menen baylanıslı áhmiyetli metodikalıq iskerlikke ózine tán innovaciyalıq qatnas jasaw názerde tutıladı. Sonday-aq, bul bilimler bugingi kundegi STEM, STEAM, PISA, SAT sıyaqlı zamanagóy bilimlendiriw kózqarasları tiykarında oqıtıw oqıwshılarǵa jańa bilimlerge iye bolıw, shet tillerde sóylesiw, túrli mádeniyatlar hám ádebiyatlardı úyreniw, global mashqalalar boyınsha sın kózqarastan pikir bildiriw imkaniyatın arttırıwǵa xızmet etedi.

Nátiyjede, xalıqaralıq standartlar tiykarında bilim alıw oqıwshılardıń dúnyaǵa kózqarasın keńeytiwdi támiyinleydi. Zamanagóy bilimlendiriw kózqarasları oqıwshılarda izleniwsheńlik, kreativlik, analitikalıq hám talqılaw kónlikpelerin rawajlandıradı. Bul olardıń jańa bilimlerdi iyelewge bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttırıw hám ózlerin globallasıw ortalıǵında tabıslı seziw imkaniyatın beredi.

Pikirimizdi juwmaqlap aytqanda, maqalamızdıń tiykarǵı maqseti bolǵan pedagogikalıq qádiryatlar tiykarında zamanagóy tálimdi rawajlandırıw metodikasın jaratıwda milliy tarix hám xalıqımızdıń milliy tárbiya úlgileri metodologiyalıq negiz bolıp xızmet etiwi sózsiz!

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. www.lex.uz.

2. Абдимуратов П.С. Каракалпакские народные традиции в нравственном воспитании старшеклассников: Автореф. дис... канд. пед. наук. – Ташкент: УзНИИПН, 1998. – 22 с.

3. Алеуов Ў. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлипсиўи ҳәм раўажланыўы (Қарақалпақ халқ педагогикасы тарийхы) –Нөкис: Билим, 1993. -504 б.

4. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед. фан. докт... дисс. – Т., 1993. – 364 б.

5. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). –Т.: Ўзбекистон файласуфлар Миллий жамияти. 2004. -193 б.

6. Ортиқов Н. Миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида Ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириш: Пед. фан. докт…. дисс. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 2000. – 305 б.

7. Kalıqnazarova G. Qoraqalpoq xalq pedagogikasida qizlarni hunarmandchilikka o‘rgatish an’analari: Ped.fan.falsafa.dokt ...diss. – Nukus:2024. 130b

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 373.3:37.091.3

Urazimbetova Aygul Aralbayevna,
Profi University dotsenti, PhD

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK STRATEGIYALARNING BOSQICHLI MODELI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli asoslanadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, kompetensiyaviy yondashuv mezonlarini operatsionallashtirish va amaliy kuzatuvlar orqali model komponentlari aniqlashtirildi. Natijada diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va refleksiya bosqichlarining didaktik shartlari hamda kutiladigan natijalari tizimlashtirildi.

Kalit so'zlar: tayanch kompetensiyalar, boshlang'ich ta'lim, pedagogik strategiya, bosqichli model, diagnostika, refleksiya, kompetensiyaviy yondashuv.

ПОЭТАПНАЯ МОДЕЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ В РАЗВИТИИ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье обоснована поэтапная модель педагогических стратегий, направленных на развитие ключевых компетенций учащихся начальной школы. Использованы теоретический анализ, операционализация критериев компетентностного подхода и элементы педагогического наблюдения для уточнения компонентов модели. Получены результаты, описывающие диагностический, проектировочный, реализующий и рефлексивный этапы и их дидактические условия.

Ключевые слова: компетенции, начальное образование, педагогическая стратегия, поэтапная модель, диагностика, рефлексия, компетентностный подход.

A STAGE-BASED MODEL OF PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR DEVELOPING KEY COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article substantiates a staged model of pedagogical strategies for developing key competencies in primary school learners. The study employs theoretical analysis, operationalization of competency-based criteria, and practice-oriented observation elements to refine model components. The results systematize

diagnostic, design, implementation, and reflection stages, specifying didactic conditions and expected competency outcomes, thus contributing a coherent framework for classroom application.

Keywords: key competencies, primary education, pedagogical strategy, staged model, diagnosis, reflection, competency-based approach.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda hayotiy vaziyatlarda zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, samarali muloqot qilish hamda o'z faoliyatini rejalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning ustuvor metodologik tamoyillaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga yo'naltiradi. Mazkur yondashuvning samaradorligi, avvalo, boshlang'ich ta'lim bosqichida tayanch kompetensiyalarni izchil va tizimli rivojlantirishga bog'liq.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblash kabi tayanch bilimlar bilan bir qatorda, mustaqil ta'lim olish, axborot bilan ishlash, muloqot qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil etish, jamoada ishlash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Shu sababli boshlang'ich ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim amaliyotiga joriy etilishi natijasida o'quv dasturlari, davlat ta'lim standartlari va baholash tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biroq kompetensiyalarni rivojlantirish faqat ta'lim mazmunini yangilash yoki topshiriqlar sonini ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi, maqsadga yo'naltirilgan strategiyalarni tanlash, bosqichma-bosqich rejalashtirish va diagnostik tahlilga asoslangan yaxlit pedagogik tizimni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari ham pedagogik strategiyalarni tanlashda alohida e'tiborni talab qiladi. Ushbu davrda o'quv motivatsiyasi, bilishga qiziqish, muloqot madaniyati va mustaqil faoliyat endigina shakllanayotganligi sababli strategiyalarning tasodifiy qo'llanilishi kompetensiyalarning izchil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan bosqichli model asosida tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Pedagogika va ta'lim metodikasi sohasidagi tadqiqotlarda kompetensiyaviy ta'limning nazariy asoslari, faol va interfaol metodlar, refleksiv yondashuv hamda formatif baholash masalalari keng yoritilgan [1], [4], [7]. Biroq boshlang'ich ta'lim sharoitida pedagogik strategiyalarni yagona metodik tizim asosida bosqichma-bosqich tashkil etish, diagnostika natijalarini strategiya tanlovi bilan bog'lash hamda

ta'lim jarayonini loyihalash va baholashni yagona model doirasida integratsiyalash masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina hollarda pedagogik strategiyalar alohida metod, usul yoki texnika sifatida qo‘llaniladi. Biroq ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, qo‘llash ketma-ketligi, har bir bosqichning didaktik vazifalari va kompetensiyaviy natijalari aniq tizimlashtirilmagan. Natijada o‘qituvchilar strategiyalarni tanlash va qo‘llashda individual tajribaga tayanishga majbur bo‘ladilar, bu esa ta'lim samaradorligining barqaror bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Mazkur tadqiqotning ilmiy muammosi aynan shu holat bilan bog‘liq bo‘lib, u boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik strategiyalarni diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va refleksiya bosqichlari asosida yagona metodik modelga birlashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik strategiyalarning bosqichli modelini nazariy va metodik jihatdan asoslash hamda uning didaktik shartlari va amaliy imkoniyatlarini tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tayanch kompetensiyalar boshlang‘ich ta'lim kontekstida operatsion jihatdan talqin qilindi, strategiyalarni tanlashga ta'sir etuvchi didaktik omillar aniqlandi, diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va refleksiya bosqichlaridan iborat metodik model ishlab chiqildi hamda har bir bosqich bo‘yicha pedagogik vazifalar, kutiladigan natijalar va baholash mezonlari ilmiy asoslandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda kompetensiyaviy yondashuv boshlang‘ich ta'lim amaliyoti bilan uzviy bog‘langan holda pedagogik strategiyalarni bosqichma-bosqich rejalashtirish, amalga oshirish va baholash imkonini beruvchi konseptual model taklif etiladi. Mazkur model o‘qituvchilarning metodik faoliyatini takomillashtirish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim konsepsiyasining didaktik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kompetensiyaning bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va munosabatlarning integrativ birligi sifatidagi talqini tashkil etadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, kompetensiya faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi, balki ularni turli o‘quv va hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llash orqali namoyon bo‘ladigan amaliy natija sifatida qaraladi [4], [7]. Shu sababli boshlang‘ich ta'lim o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil bilish faoliyati hamda refleksiv tahliliga asoslangan yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot metodologiyasida uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalish uyg‘unlashtirildi. Bular nazariy tahlil va sintez, konseptual modellashtirish hamda amaliy kuzatuv metodlaridan iborat bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yondashuvlar sifatida qo‘llanildi. Mazkur metodlarning integratsiyasi tadqiqot obyektini har tomonlama o‘rganish, nazariy xulosalarni amaliy kuzatishlar bilan asoslash hamda ishlab chiqilgan modelning didaktik asoslanganligini ta’minlash imkonini berdi.

Nazariy tahlil doirasida boshlang‘ich ta’lim didaktikasi, kompetensiyaviy ta’lim, pedagogik strategiyalar, refleksiv pedagogika, faoliyat nazariyasi hamda formatif baholashga oid ilmiy manbalar tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi didaktik omillar, pedagogik shart-sharoitlar hamda strategik yondashuvlarning nazariy asoslari umumlashtirildi. Tahlil natijasida tadqiqot modeli uchun zarur bo‘lgan asosiy kategoriyalar, jumladan, pedagogik strategiya, bosqichli rivojlantirish, diagnostika, refleksiya va formatif baholash tushunchalarining mazmuni aniqlashtirildi [1], [2], [5], [8].

Nazariy sintez bosqichida turli pedagogik konsepsiyalarning ilmiy jihatdan asoslangan g‘oyalari yagona metodik tizimga integratsiyalashtirildi. Bunda kompetensiyaviy yondashuvning maqsadlari faoliyat nazariyasining tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilib, pedagogik strategiyalarni izchil bosqichlarga ajratishning mantiqiy modeli ishlab chiqildi. Natijada tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi konseptual asos yaratildi.

Konseptual modellashtirish tadqiqotning markaziy metodlaridan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod pedagogik jarayonni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan boshqariladigan tizim sifatida tasvirlash, bosqichlar o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlarni aniqlash hamda har bir bosqichning maqsadi, mazmuni, pedagogik vositalari va kutiladigan natijalarini tizimlashtirish imkonini berdi. Modellashtirish jarayonida bosqichlar faqat vaqt ketma-ketligi sifatida emas, balki o‘qituvchining didaktik qarorlar qabul qilish algoritmi sifatida talqin qilindi. Bunda dastlab o‘quvchilarning mavjud kompetensiyalari diagnostika qilinadi, olingan natijalar asosida pedagogik strategiyalar loyihalashtiriladi, keyinchalik ular sinf amaliyotida izchil amalga oshiriladi hamda yakuniy bosqichda refleksiya va formatif baholash orqali o‘quv jarayoniga zarur tuzatishlar kiritiladi. Bunday yondashuv pedagogik faoliyatning uzluksiz takomillashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda amaliy kuzatuv metodidan ham foydalanildi. Kuzatuvlar boshlang‘ich sinf darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini qabul qilishi, ularni bajarish strategiyalarini tanlashi, guruhli va juftlikdagi hamkorlik faoliyati, o‘qituvchi bilan muloqoti hamda o‘z faoliyatini nazorat qilish jarayonlarini tahlil qilishga yo‘naltirildi. Shuningdek, o‘quvchilarning refleksiv fikrlash elementlarini namoyon etishi, xatolarni aniqlashi va ularni mustaqil bartaraf etish

jarayoni ham kuzatildi. O‘qituvchilarning qayta aloqa berish usullari, rag‘batlantirish strategiyalari va formatif baholash vositalaridan foydalanish amaliyoti ham metodik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Mazkur kuzatuvlar eksperimental tadqiqot sifatida emas, balki ishlab chiqilgan nazariy modelning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlashtirish, uning didaktik asoslanganligini tekshirish va model komponentlarini takomillashtirish maqsadida amalga oshirildi.

Tanlangan metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga to‘liq mos keladi. Chunki pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli, avvalo, nazariy jihatdan asoslangan konseptual konstruksiya hisoblanadi. Uni ishlab chiqish turli ilmiy manbalarda tarqoq holda uchraydigan didaktik g‘oyalarni yagona metodik tizimga keltirishni talab etadi. Shu bilan birga, modelning samaradorligi faqat nazariy asoslar bilan emas, balki boshlang‘ich ta’lim amaliyotining real sharoitlari, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda pedagogik faoliyatning mavjud imkoniyatlarini hisobga olishi bilan belgilanadi. Shu sababli tadqiqotda nazariy tahlil konseptual modellashtirish bilan, modellashtirish esa amaliy kuzatuv natijalari bilan o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanildi.

Tadqiqot davomida tayanch kompetensiyalarni baholash uchun operatsion mezonlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar o‘quvchining o‘quv topshirig‘ini to‘g‘ri anglay olishi, maqsadga muvofiq strategiyani tanlashi va qo‘llashi, o‘z fikrini dalillar asosida ifodalashi, hamkorlik faoliyatida mas’uliyatni taqsimlay olishi, o‘z faoliyatini nazorat qilishi, xatolarni aniqlashi va ularni mustaqil ravishda tuzatishga intilishi kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oldi. Mazkur ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan bosqichli modelning har bir komponenti bo‘yicha kutiladigan natijalarni tavsiflash hamda pedagogik strategiyalar samaradorligini baholash uchun metodik mezon vazifasini bajardi [6], [9].

Tadqiqot natijalari asosida pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli o‘zaro uzviy bog‘langan to‘rtta asosiy bosqich – diagnostik yo‘naltirish, strategik loyihalash, sinf amaliyotida amalga oshirish hamda refleksiv baholash va qayta loyihalash bosqichlaridan iborat tizim sifatida ishlab chiqildi. Mazkur modelning nazariy asosi kompetensiyaviy yondashuv va faoliyat nazariyasiga tayangan bo‘lib, unda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni alohida metod yoki texnikalar yig‘indisi emas, balki aniq maqsad, didaktik shart-sharoitlar, pedagogik strategiyalar, baholash mezonlari va uzluksiz qayta aloqa mexanizmlariga asoslangan yaxlit tizim sifatida talqin qilinadi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u pedagogik faoliyatni izchil rejalashtirish, amalga oshirish va takomillashtirish imkonini beradi hamda o‘qituvchining metodik qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Har bir bosqichning didaktik vazifalari, qo‘llaniladigan pedagogik strategiyalar, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda kutiladigan kompetensiyaviy natijalar tizimli ravishda aniqlashtirildi.

Diagnostik yo‘naltirish bosqichi modelning boshlang‘ich va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarning tayanch

kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash, ularning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish imkoniyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan diagnostik faoliyatni amalga oshiradi. Diagnostika jarayonida o‘quvchilarning o‘quv topshirig‘ini anglash darajasi, muammoni tahlil qilish qobiliyati, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalashi, muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari, mustaqil qaror qabul qilishi hamda o‘z faoliyatini nazorat qilish qobiliyati kabi ko‘rsatkichlar baholanadi. Mazkur bosqichda kuzatuv, diagnostik savollar, mini-topshiriqlar, suhbat, formatif baholash elementlari va o‘quvchining fikrlash jarayonini izohlab berishga asoslangan usullardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘qituvchining qayta aloqasi baholovchi hukm berishdan ko‘ra, o‘quvchini fikrlashga undovchi, aniqlashtiruvchi va yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lishi muhim pedagogik shart sifatida qaraladi. Natijada sinfning umumiy kompetensiyaviy holati, tipik qiyinchiliklari, mavjud resurslari hamda alohida o‘quvchilarni individual qo‘llab-quvvatlash zarurati aniqlanadi. Aynan shu ma’lumotlar keyingi bosqichlarni samarali loyihalash uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

Strategik loyihalash bosqichi diagnostika natijalariga tayangan holda pedagogik faoliyatni maqsadli rejalashtirishni nazarda tutadi. Mazkur bosqichda o‘quv mazmuni, ta’lim metodlari, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari kompetensiyaviy maqsadlarga muvofiq ravishda loyihalashtiriladi. Asosiy e’tibor har bir dars yoki mavzuni nafaqat muayyan bilimlarni egallashga, balki o‘quvchilarda aniq kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan faoliyatlar tizimi sifatida tashkil etishga qaratiladi. Modelda strategiyalar uchta o‘zaro bog‘liq qatlam asosida integratsiyalashtirildi. Motivatsion-yo‘naltiruvchi qatlam o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga ichki ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish, vazifani shaxsiy maqsad sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. Kognitiv-amaliy qatlam muammoli vaziyatlar, izlanish faoliyati, modellashtirish, tahlil va umumlashtirish orqali bilimlarni faol egallashni ta’minlaydi. Ijtimoiy-refleksiv qatlam esa hamkorlikda ishlash, samarali muloqot, o‘zaro baholash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Loyihalash bosqichining yakunida o‘qituvchi kutilayotgan natijalarni aniq baholash mezonlari bilan bog‘laydi. Masalan, o‘quvchi topshiriq mazmunini qayta ifodalashi, tanlagan yechim usulini dalillar asosida tushuntirishi, sherigining fikrini tahlil qilishi va zarur hollarda o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishi, xatolarni mustaqil aniqlashi va tuzatishi kutiladigan natijalar sifatida belgilanadi. Shu tariqa strategiyalarni tanlash jarayoni alohida metodni qo‘llashdan ko‘ra, ma’lum kompetensiyaviy natijaga olib keluvchi didaktik sharoitlarni yaratishga yo‘naltiriladi.

Sinf amaliyotida amalga oshirish bosqichi ishlab chiqilgan strategik modelning markaziy qismi bo‘lib, unda loyihalashtirilgan pedagogik g‘oyalar real o‘quv jarayonida amaliyotga tatbiq etiladi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini boshqaruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tayanch kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun pedagogik boshqaruvda ikki muhim tamoyil o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur. Bir tomondan, o‘quvchilarga vazifalarni bajarish uchun aniq yo‘riqnoma, metodik ko‘rsatmalar va faoliyat tuzilmasi berilishi lozim bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularga mustaqil tanlov qilish, fikr yuritish, muqobil yechimlarni izlash, dalillar keltirish va hamkorlikni tashkil etish imkoniyati yaratilishi kerak. Amaliy bosqichda vazifalarni bosqichma-bosqich tashkil etish, murakkab topshiriqlarni kichik faoliyat birliklariga ajratish, tayyor yechimni berish o‘rniga qisman metodik tayanchlar yaratish, yo‘naltiruvchi savollar orqali o‘quvchining fikrlash jarayonini faollashtirish, juftlik va kichik guruhlarda rollarni maqsadga muvofiq taqsimlash hamda muntazam formatif qayta aloqani ta’minlash samarali didaktik shartlar sifatida ajratildi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarda topshiriqlarni faqat o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida bajarish emas, balki ularni mustaqil rejalashtirish, bajarish va natijalarini nazorat qilishga bo‘lgan tayyorgarlik bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa o‘z-o‘zini boshqarish, mas’uliyatni his qilish va mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Refleksiv baholash va qayta loyihalash bosqichi modelning yakunlovchi qismi bo‘lishi bilan birga, uning uzluksiz rivojlanishini ta’minlovchi asosiy mexanizm ham hisoblanadi. Ushbu bosqichda o‘quvchi va o‘qituvchi bajarilgan faoliyat natijalarini oldindan belgilangan mezonlar asosida tahlil qiladilar, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni aniqlaydilar hamda keyingi faoliyat uchun zarur xulosalarni chiqaradilar. O‘quvchilar o‘z ishlarini tanqidiy baholash, xatolarning sabablarini tushuntirish, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash hamda keyingi faoliyat strategiyalarini rejalashtirish ko‘nikmalarini egallaydilar. O‘qituvchi esa o‘z navbatida qo‘llangan pedagogik strategiyalar samaradorligini tahlil qiladi, dars dizaynini takomillashtiradi, topshiriqlar murakkabligini o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtiradi, qayta aloqa usullarini takomillashtiradi hamda individual ta’lim trayektoriyalarini ishlab chiqadi. Tadqiqot natijalari refleksiyaning asosiy pedagogik qiymati kompetensiyalarni yakuniy natija sifatida emas, balki doimiy rivojlanib boruvchi dinamik jarayon sifatida baholash imkonini berishida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Shu sababli ishlab chiqilgan modelda refleksiya yakuniy bosqich bo‘lishiga qaramay, u yangi diagnostik ma’lumotlarni shakllantiruvchi va keyingi pedagogik siklni boshlovchi muhim axborot manbai sifatida qaraladi. Natijada model uzluksiz takomillashib boruvchi siklik tizimga aylanadi va pedagogik strategiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

Olingan natijalar kompetensiyaviy yondashuvning didaktik mohiyatini boshlang‘ich sinf sharoitida aniqroq ko‘rsatadi: kompetensiya mazmunni bilish bilan tenglashtirilmaydi, u strategik harakat, ijtimoiy muloqot va refleksiv nazoratning birligi sifatida yuzaga chiqadi. Xususan, modelning diagnostik bosqichini alohida ajratish kompetensiyaviy ta’limda tez-tez uchraydigan metodik

xatoni kamaytiradi, ya'ni o'qituvchi "faol metod qo'lladim, demak kompetensiya rivojlandi" degan soddalashtirilgan tasavvurdan uzoqlashadi. Bu jihat formatif baholashning o'qitishni boshqarishdagi roli haqidagi qarashlar bilan uyg'un keladi; unda baholash natijani qayd etishdan ko'ra, keyingi o'qitish qarorlarini asoslash uchun xizmat qilishi ta'kidlanadi [6]. Mazkur manbadagi yondashuvdan farqli ravishda, taklif qilinayotgan model formatif baholashni alohida texnika emas, balki strategiyalar zanjirining birlashtiruvchi mexanizmi sifatida talqin qiladi va shu orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun amaliyroq yo'l xaritasini beradi.

Strategik loyihalash bosqichining kiritilishi kompetensiyaviy ta'limning nazariy talqinlari bilan hamohang, chunki kompetensiya "vaziyat-talab-faoliyat" uchligi doirasida shakllanadi va o'quv vaziyatini didaktik dizayn qilish hal qiluvchi omil sanaladi [4]. Shunga qaramay, amaliyotda ko'pincha o'quv vaziyatlari predmet mazmuni bilan cheklanib, muloqot va refleksiya elementlari qo'shimcha sifatida qolib ketadi. Bizning modelda esa muloqot va refleksiya loyihalashning teng huquqli qatlamlari sifatida ko'riladi, chunki boshlang'ich sinfda aynan shu ikki komponent o'quvchining keyingi o'qish tajribasini barqarorlashtiradi. Vygotskiy an'analariga tayangan didaktik qarashlar o'quvchining rivojlanishi ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali vositalanishini ta'kidlaydi [2]; modeldagi ijtimoiy-refleksiv qatlam ushbu g'oyani kompetensiyaviy natijalar bilan bog'lab, hamkorlikni "faollik" emas, balki maqsadli kompetensiya rivojlanish sharti sifatida asoslaydi.

Amalga oshirish bosqichida qayd etilgan "strukturani berish va tanlovni qoldirish" muvozanati faol o'qitish metodlari bo'yicha xalqaro adabiyotlarda uchraydigan konstruktivistik pozitsiyalar bilan mos keladi, biroq ularning ba'zi talqinlarida o'qituvchi roli haddan tashqari chekinib, boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar uchun vazifa noaniqlashib qolishi mumkin [7]. Bizning natijalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfda kompetensiyalarni rivojlantirish "erkin izlanish"dan ko'ra, didaktik tayanchlarning ehtiyotkorlik bilan berilishi va bosqichma-bosqich olib tashlanishini talab qiladi. Bu yondashuv Brunerning skaffolding haqidagi g'oyasi bilan mazmunan uyg'un bo'lib, o'quvchi mustaqilligi tayanchlar orqali qurilishini ko'rsatadi [8]. Model bu g'oyani amaliy darajada aniqlashtiradi: tayanchlar nafaqat bilimni tushuntirish, balki o'quvchining strategiya tanlash va o'zini nazorat qilish harakatlarini yuzaga chiqarishga qaratilishi zarur.

Refleksiv bosqich natijalari boshlang'ich ta'limda refleksiya ko'pincha yakuniy "o'zimga baho beraman" jumlasi bilan cheklanib qolishini, aslida esa refleksiya strategiyani qayta tanlash va xatoni sababiy tahlil qilishga yo'naltirilgandagina kompetensiyaviy ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Bu holat metakognitiv ko'nikmalar haqidagi tadqiqotlar bilan izohlanadi: o'quvchi o'z fikrlash jarayonini kuzata olmasa, bilimni transfer qilish imkoniyati cheklanadi [5]. Bizning modelda refleksiya bosqichi diagnostik bosqich bilan siklik bog'lanadi, ya'ni refleksiya yangi diagnostik ma'lumot manbai sifatida ko'riladi; bu esa kompetensiyalarning rivojlanishini uzluksiz jarayon sifatida boshqarish imkonini

kuchaytiradi. Shu bilan birga, modelning cheklovi shundaki, u asosan sinf ichidagi didaktik boshqaruvga yo‘naltirilgan; oilaviy ta’lim muhiti yoki maktabning institutsional resurslari kabi omillar alohida parametrlar sifatida chuqur kiritilmagan. Kelgusida mazkur omillarni modelga integratsiya qilish uning prognozlash va moslashuvchanlik imkoniyatini oshiradi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli nazariy va metodik jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni alohida metod yoki pedagogik usullar majmuasi sifatida emas, balki maqsad, mazmun, faoliyat, baholash va refleksiya elementlari o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Shu asosda ishlab chiqilgan model diagnostik yo‘naltirish, strategik loyihalash, sinf amaliyotida amalga oshirish hamda refleksiv baholash va qayta loyihalash kabi to‘rtta uzviy bog‘liq bosqichdan tashkil topadi.

Modelning birinchi bosqichi bo‘lgan diagnostik yo‘naltirish o‘quvchilarning mavjud kompetensiyaviy holatini aniqlash, ularning individual ehtiyojlari va rivojlanish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Strategik loyihalash bosqichida esa diagnostika natijalari asosida ta’lim mazmuni, pedagogik metodlar, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari kompetensiyaviy natijalarga muvofiq tarzda rejalashtiriladi. Amalga oshirish bosqichi ishlab chiqilgan strategiyalarni real o‘quv jarayoniga tatbiq etish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va kompetensiyalarni amaliy faoliyatda namoyon qilish imkonini beradi. Refleksiv baholash va qayta loyihalash bosqichi esa erishilgan natijalarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda keyingi pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun asos yaratadi. Mazkur bosqichlarning o‘zaro uzviyligi pedagogik jarayonning izchil, boshqariladigan va rivojlanuvchi tizim sifatida tashkil etilishini ta’minlaydi.

Nazariy jihatdan ishlab chiqilgan model kompetensiyani faqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki faoliyat, muloqot, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv fikrlash birligida shakllanadigan murakkab pedagogik hodisa sifatida talqin qilish imkonini kengaytiradi. Amaliy jihatdan esa ushbu model boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga pedagogik strategiyalarni tasodifiy yoki epizodik tarzda tanlashdan voz kechib, ularni aniq maqsadlar, mezonlar va kutiladigan natijalar asosida rejalashtirish imkonini beruvchi metodik yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi. Modeldan foydalanish o‘qituvchining refleksiv faoliyatini kuchaytiradi, ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligini oshiradi va tayanch kompetensiyalarni izchil rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich ta’lim amaliyoti uchun bir qator metodik takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, o‘qituvchilar faoliyatida kompetensiyaviy diagnostikaga asoslangan rejalashtirish mexanizmlarini kengroq qo‘llash, ya’ni o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi va individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik strategiyalarni tanlash

maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dars jarayonida muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, hamkorlikda o‘qitish, refleksiv topshiriqlar va formatif baholash vositalaridan tizimli foydalanish tayanch kompetensiyalarning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda ishlab chiqilgan modelni turli fan yo‘nalishlari kesimida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish, uning turli tayyorgarlik darajasidagi boshlang‘ich sinflarda moslashuvchanligini aniqlash hamda samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida baholash istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida maktab, oila va ijtimoiy muhit hamkorligining ta’sirini o‘rganish, raqamli ta’lim vositalari va sun’iy intellekt texnologiyalarining ushbu jarayondagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash ham zamonaviy pedagogika uchun muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2012. 200 b.

2. Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 1999. 352 с.

3. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 40 с.

4. Flavell J. H. Cognitive Development. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1985. 240 p.

5. Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. London: King’s College London, 1998. 32 p.

6. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009. 392 p.

7. Bruner J. S. The Process of Education. Cambridge: Harvard University Press, 1960. 128 p.

8. Болотов В. А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. Москва: Педагогика, 2003. 176 с.

9.Aygul Urazimbetova // Инновационные подходы к развитию навыков самостоятельного мышления у учащихся начальных классов// https://inscience.uz/index.php/socinov/issue/view/126

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 7-son

UDK 546:631.8:378.091.33

Nurjanova Fazila Farxodovna,
Urganch davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar" kafedrasi dotsenti,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sapayeva Iqbol Qo'ziboyevna,
Urganch davlat pedagogika instituti Kimyo yo'nalishi magistranti

NOORGANIK KIMYODA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA PINBORD METODINI TAKOMILLASHTIRISH. "MINERAL O'G'ITLARNING NAMUNALARI BILAN TANISHISH" MAVZUSI MISOLIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida 8-sinf o'quvchilariga noorganik kimyoda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda pinbord metodini takomillashtirilgan holda qo'llash masalalari yoritilgan. O'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish hamda laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etishda pinbord metodini qo'llash yoritilgan. Mineral o'g'itlar haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayonida azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarning tarkibi, xossalari va o'simliklar hayotidagi o'rni misollar asosida tushuntiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarning kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Noorganik kimyo, pinbord metodi, laboratoriya mashg'ulot, vizuallashtirish, interfaol metod, mineral o'g'itlar, azotli o'g'itlar, fosforli o'g'itlar, kaliyli o'g'itlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА «ПИНБОРД» ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ (НА ПРИМЕРЕ ТЕМЫ «ОЗНАКОМЛЕНИЕ С ОБРАЗЦАМИ МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ»

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы применения усовершенствованного метода «пинборд» при проведении лабораторных занятий по неорганической химии для учащихся 8-х классов общеобразовательных школ. В целях обеспечения глубокого усвоения темы рассматриваются современные педагогические подходы, в том числе интерактивные методы, создание проблемных ситуаций, использование наглядных пособий, а также внедрение метода «пинборд» в организацию

лабораторных работ. В процессе формирования знаний о минеральных удобрениях на конкретных примерах объясняются состав, свойства и роль азотных, фосфорных и калийных удобрений в жизни растений. Особое внимание в этом процессе уделяется развитию у учащихся навыков наблюдения, сравнения, анализа и формулирования выводов.

Ключевые слова: Неорганическая химия, метод «пинборд», лабораторное занятие, визуализация, интерактивный метод, минеральные удобрения, азотные удобрения, фосфорные удобрения, калийные удобрения.

IMPROVING THE PINBOARD METHOD IN CONDUCTING LABORATORY SESSIONS IN INORGANIC CHEMISTRY: ON THE EXAMPLE OF THE TOPIC "GETTING ACQUAINTED WITH SAMPLES OF MINERAL FERTILIZERS

Abstract. This article highlights the issues of applying an improved pinboard method during laboratory sessions in inorganic chemistry for 8th-grade students in secondary schools. To ensure a deep understanding of the topic, modern pedagogical approaches are explored, including interactive methods, creating problem-solving situations, using visual aids, and implementing the pinboard method in organizing laboratory work. In the process of building knowledge about mineral fertilizers, the composition, properties, and role of nitrogen, phosphorus, and potassium fertilizers in plant life are explained through practical examples. Throughout this process, particular attention is given to developing students' skills in observation, comparison, analysis, and drawing conclusions.

Keywords: Inorganic chemistry, pinboard method, laboratory session, visualization, interactive method, mineral fertilizers, nitrogen fertilizers, phosphorus fertilizers, potassium fertilizers.

Yangi asr o‘qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyati, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda ilg‘or pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi ta’lim jarayonida o‘qituvchidan nafaqat o‘z fanini chuqur bilish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va amaliy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodlarni to‘g‘ri tanlay olish ham talab etiladi.

Dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish imkonini beradi. Bunda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni izlash, tahlil qilish va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirish jarayonining bevosita ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi markaziga yo‘naltirilgan bunday yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, uning o‘quv motivatsiyasi va tashabbuskorligini kuchaytiradi. Shuningdek,

ilgari egallangan bilimlarni yangi mavzu bilan bog‘lash, o‘qish sur’atini individual ehtiyojlarga moslashtirish, o‘quvchining mas’uliyatini qo‘llab-quvvatlash va bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallash uchun qulay sharoit yaratadi. Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama fikr almashinuvi kuchayib, o‘qituvchi ko‘proq yo‘naltiruvchi va ta’lim jarayonini tashkil etuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

O‘quvchining dars davomida faol ishtirok etishi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan amaliy mashq va tajriba imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday faoliyat turli interfaol metodlar, jumladan, guruhli va juftlikdagi ishlar, muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar hamda vizual metodlar orqali tashkil etilishi mumkin. Shunday metodlardan biri “Pinbord” usuli bo‘lib, u ayniqsa kimyo fanini o‘qitishda samarali vositalardan biri sifatida qo‘llanishi mumkin.

Kimyo fanida kimyoviy reaksiyalarning ko‘pligi, moddalar xossalarining o‘ziga xosligi va ayrim tushunchalarning abstrakt xarakterga ega ekanligi o‘quvchilarda mavzularni o‘zlashtirish bilan bog‘liq muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. An’anaviy “doska-bo‘r” usulidan foydalanish esa ayrim hollarda, ayniqsa amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida, barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli o‘quv materialini ko‘rgazmali, faol va o‘quvchilar ishtirokiga asoslangan shaklda tashkil etuvchi interfaol metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

“Pinbord” atamasi ingliz tilidagi *pin* — qadash, mahkamlash va *board* — yozuv taxtasi so‘zlaridan kelib chiqqan. Mazkur metod g‘oyalar, tushunchalar va jarayonlarni vizual kartochkalar yordamida doska yoki maxsus stendga tizimli joylashtirishga asoslanadi. Unda muayyan muammo yuzasidan o‘quvchilarning fikrlari va takliflari yig‘iladi, muhokama qilinadi, baholanadi va mazmuniga ko‘ra guruhlanadi. Keyinchalik eng muhim va samarali g‘oyalar kartochkalarga yozilib, doskaga ma’lum bir tartibda biriktiriladi. Shu tariqa o‘quvchilar mavzuni tayyor holda qabul qilmasdan, uni muhokama va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar.

Pinbord metodidan foydalanishda o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilar oldiga muammoli vaziyat yoki muayyan savolni qo‘yadi, uning yechimi bo‘yicha fikrlash jarayonini yo‘naltiradi va umumiy muhokamani tashkil etadi. O‘quvchilar esa o‘z takliflarini ilgari suradi, ularni muhokama qiladi, baholaydi, samarali deb topilgan g‘oyalarni tanlaydi va kartochkalarga yozib, doskaga joylashtiradi. Bunday tashkil etilgan faoliyat o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini kuchaytirib, ularni mustaqil fikrlash va o‘z qarashlarini asoslashga undaydi.

Mazkur maqolada Pinbord metodini laboratoriya mashg‘ulotlarida qo‘llash orqali o‘quvchilarning “ko‘rish — eshitish — tushunish — bajarish — amaliy ko‘nikma hosil qilish” ketma-ketligi asosida bilimlarni o‘zlashtirishini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuvda nazariy ma’lumotlar faqat og‘zaki tushuntirish bilan chegaralanmay, vizual materiallar va

amaliy faoliyat bilan mustahkamlanadi. Natijada o‘quvchi o‘rganayotgan tushunchani ko‘rish, eshitish, anglash va amalda bajarish orqali o‘zlashtiradi.

Noorganik kimyo darslarida “Pinbord” metodidan foydalanishning dolzarbligi, avvalo, kimyoviy moddalar va ularning xossalari, kimyoviy reaksiyalarning borishi hamda turli jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rgazmali tarzda ifodalash imkoniyati bilan belgilanadi. Tushunchalarni kartochkalar, klasterlar, sxemalar va grafiklar orqali tizimlashtirish o‘quvchilarning mavzu mazmunini yaxlit tasavvur qilishiga yordam beradi. Bu esa fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, murakkab mavzularni o‘zlashtirishni yengillashtirish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

“Pinbord” metodining muhim jihatlaridan biri uning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlaridir. Metoddan foydalanish jarayonida o‘quvchilar bilimlarni mustaqil izlash va tizimlashtirish, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash, o‘z fikrini ifodalash hamda guruhdagi boshqa o‘quvchilarning qarashlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli mazkur usul nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki mantiqiy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [2].

Pinbord metodida muammoni hal qilishga qaratilgan g‘oyalar dastlab alohida qog‘ozchalarga yoziladi va doskaga joylashtirib boriladi. Keyingi bosqichda ushbu g‘oyalar mazmuni va muayyan mezonlar asosida guruhlarga ajratiladi, saralanadi hamda mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiriladi [3]. Bu jarayon o‘quvchilarga muammo bo‘yicha mavjud fikrlarni umumlashtirish, asosiy va ikkilamchi jihatlarni farqlash hamda o‘z xulosalarini shakllantirish imkonini beradi.

Pinbord doskasining amaliy jihatdan qulayligi ham metodning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini kengaytiradi. Doskani zarur holatda boshqa joyga ko‘chirish, ma’lumotlarni unda mustahkamlash, kartochkalarni mazmuniga ko‘ra guruhlash va turli rangdagi qog‘ozlardan foydalanish mumkin. Rang va joylashuvdan maqsadli foydalanish o‘quv materialining tarkibiy qismlarini bir-biridan ajratish va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni vizual tarzda ko‘rsatishga yordam beradi [4].

Pedagogik talqinda “Pinbord” metodi o‘quvchilarning mavzuga oid mustaqil fikr va g‘oyalarini erkin ifodalash, ularni to‘plash, guruhlash, taqqoslash va tahlil qilish, shuningdek, asosiy tushunchalarni ajratish orqali o‘quv materialini tizimli o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metod sifatida qaraladi [5]. Uning samaradorligi, ayniqsa, o‘quvchilarni bevosita faoliyatga jalb etish va o‘rganilayotgan mavzuni ko‘rgazmali tarzda ifodalash imkoniyati bilan bog‘liq.

Tadqiqot doirasida 8-sinf o‘quvchilari bilan “Mineral o‘g‘itlarning namunalari bilan tanishish” mavzusida laboratoriya mashg‘uloti tashkil etildi. Mashg‘ulotda Pinbord metodidan foydalanish orqali o‘quvchilarning mineral o‘g‘itlar haqidagi nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga e’tibor qaratildi. Dars jarayonida o‘quvchilar mineral o‘g‘itlar tushunchasini anglash, azotli, fosforli va kaliyli

o‘g‘itlarni bir-biridan farqlash, ularning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini tushuntirish, o‘simliklar hayotidagi ahamiyatini izohlash hamda nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan bog‘lashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajardilar. Mazkur faoliyat orqali o‘quvchilarda kimyoviy tafakkur, mustaqil fikrlash va amaliy bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘zda tutildi.

8-sinf kimyo darslarida o‘qitish metodlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos, sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda tanlanishi lozim. “Mineral o‘g‘itlarning namunalari bilan tanishish” laboratoriya mashg‘ulotida asosiy e’tibor o‘g‘itlarning tarkibi, turlari, xossalari va ularning o‘simliklar hayotidagi ahamiyatini tushuntirishga qaratildi. Bunda nazariy ma’lumotlarni amaliy topshiriqlar va vizual materiallar bilan uyg‘unlashtirish Pinbord metodining asosiy imkoniyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Asosiy metodlar:



Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish

Ko‘rgazmali vosita	Foydalanish maqsadi
O‘g‘it namunalari	O‘g‘it turlarini tanishtirish
Rasmlar va sxemalar	O‘simlikka ta’sirini tushuntirish
Slayd va animatsiyalar	Elementlarning rolini ko‘rsatish
Jadval va diagrammalar	Taqqoslash va tahlil qilish

Ko‘rgazmali vositalar murakkab tushunchalarni oson anglashga yordam beradi.

O‘quvchilarning faolligini oshirish usullari

Usul	Natija
Savol-javob	Mantiqiy fikrlash rivojlanadi
Guruhli ishlash	Hamkorlik kuchayadi
Muammoli topshiriqlar	Mustaqil fikrlash shakllanadi
Amaliy mashqlar	Bilim mustahkamlanadi

Bu usullar orqali o‘quvchilar darsda faol ishtirok etadilar va kimyo faniga qiziqish ortadi.

Vizual modellashtirish: O‘quvchilarga rangli kartochkalar beriladi (masalan: azotli o‘g‘itlar— ko‘k, Fosforli o‘g‘itlar — qizil, kaliyli o‘g‘itlar — yashil).

Tajriba va (Qadash): O‘quvchi laboratoriya stolida bajargan tajribasini stenddagi Pinbordda mos rangli kartochka va marker bilan belgilaydi.

Jamoaviy mantiq: Sinf kichik guruhlarga bo‘linib, umumiy stendda quyidagi jadvalni to‘ldiradi.

1-jadval

Laboratoriya mashg‘ulotida Pinbord metodi qo‘llanilishi

T/r	Mineral o‘g‘it nomi	Formulasi	Nisbiy molekulyar massasi	Tashqi ko‘rinishdagi rangi	Suvda eruvchanligi
1					
2					
3					
4					
5					

Pinbord metodini qo‘llashda foydalaniladigan jihozlar. “Mineral o‘g‘itlarning namunalari bilan tanishish” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotini Pinbord metodi asosida tashkil etishda mineral o‘g‘itlarning nomlari yozilgan kartochkalar, o‘simliklarning holati yoki o‘g‘itlarning xossalariga oid topshiriq kartochkalari, doska va markerlar, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini baholash uchun rag‘bat kartochkalari yoki ball tizimidan foydalanildi. Mazkur vositalar o‘quv materialini ko‘rgazmali tarzda ifodalash, guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini baholash imkonini berdi.

Pinbord metodini qo‘llash tartibi. Laboratoriya mashg‘ulotining dastlabki bosqichida sinf 3–4 ta kichik guruhga ajratildi. Har bir guruhga mineral o‘g‘itlardan biriga oid tavsif va topshiriqlar berildi. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, tegishli o‘g‘it turini aniqladilar va uning kimyoviy formulasini kartochkaga yozib, oldindan tayyorlangan jadvalning mos ustuniga joylashtirdilar.

Keyingi bosqichda o‘quvchilar aniqlangan o‘g‘itning nisbiy molekulyar massasini hisoblab, natijani tegishli kartochkaga qayd etdilar va jadvalning mos qismiga biriktirdilar. O‘g‘itlarning tashqi ko‘rinishi, xususan, rangiga oid ma’lumotlar ham rangli qog‘oz kartochkalari yordamida jadvalga joylashtirildi. Shu tariqa kimyoviy moddalarning nazariy xususiyatlari vizual belgilar bilan bog‘landi.

Laboratoriya mashg‘ulotining amaliy qismida mineral o‘g‘itlarning suvda eruvchanligi tajriba orqali aniqlandi. O‘quvchilar tajriba natijalarini qayd etib, tegishli ma’lumotlarni kartochkalarga yozdilar va jadvalning mos ustuniga joylashtirdilar. Bunday ketma-ketlik o‘quvchilarga o‘rganilayotgan moddaning xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini berdi. Mashg‘ulot davomida guruhlarning faoliyati ball tizimi asosida baholab borildi. Har bir to‘g‘ri javob va bajarilgan topshiriq uchun tegishli ball berildi. Yakunda eng ko‘p to‘g‘ri javob va ball to‘plagan guruh rag‘batlantirildi. Bunday

baholash shakli o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni yuzaga keltirish bilan birga, ularning topshiriqlarni faol va mas’uliyat bilan bajarishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Pinbord metodini qo‘llash natijalari. Laboratoriya mashg‘ulotini Pinbord metodi asosida tashkil etish natijasida o‘quvchilarning mineral o‘g‘itlar haqidagi bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyati kengaydi. O‘quvchilar mineral o‘g‘itlarning asosiy turlarini nafaqat nomi va formulasi orqali, balki ularning xossalari va o‘simliklar rivojlanishidagi ahamiyati bilan bog‘liq holda anglay boshladilar. O‘g‘itlarning vazifalarini tahlil qilish va ularni bir-biridan farqlash ko‘nikmalari ham mustahkamlandi.

Mashg‘ulot jarayonidagi guruhli muhokama va amaliy topshiriqlar o‘quvchilarning o‘z fikrini asoslab bayon etish, savollarga javob berish va tengdoshlari bilan fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Tajriba natijalarini tahlil qilish, ularni tegishli kartochkalarga joylashtirish va umumiy jadvalni shakllantirish esa tahliliy fikrlash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatining rivojlanishiga yordam berdi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, Pinbord metodining vizual va amaliy xususiyati o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qildi. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi kuchayib, laboratoriya topshiriqlarini bajarishga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Ayniqsa, nazariy bilimlarni kartochkalar, jadval va tajriba natijalari bilan bog‘lash o‘quv materialini yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam berdi.

Shunday qilib, Pinbord metodidan foydalanish laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish hamda o‘quvchilarning mustaqil, mantiqiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali metodik imkoniyat yaratadi.

Baholash bosqichida “Eng muhim asosiy mineral o‘g‘itlar” mavzusi bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga qaratiladi. Ushbu bosqichda baholash faqat nazariy bilimlarni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning mineral o‘g‘itlarning turlarini tushunishi, ularning vazifalarini farqlay olishi hamda o‘simlik rivojlanishi bilan bog‘lay olishi ham inobatga olinadi.

Baholash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual va guruhdagi faoliyatini diqqat bilan kuzatib boradi. Nazariy bilimlar savol-javob orqali aniqlanadi, o‘quvchilarning mineral o‘g‘itlarning turlari, ularning tarkibi va o‘simlik hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni qanchalik to‘g‘ri anglaganligi baholanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning azotli, fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning vazifalarini farqlay olishi, ularning o‘simlik rivojlanishiga ta’sirini tushuntira olishi hamda o‘g‘itlar va o‘simlik holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlashi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘g‘itlarni tahlil qilish, ularni o‘zaro taqqoslash va umumiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning savol-javob jarayonidagi faolligi, muhokamalarda ishtiroki va guruhli ishlardagi hamkorligi ham baholanadi. Ularning o‘z fikrini asoslab bayon etishi, kimyoviy tushunchalarni to‘g‘ri qo‘llashi va

mavzuni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lay olishi muhim ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Yakuniy baholash asosida o‘qituvchi umumiy xulosa chiqaradi, faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantiradi hamda kamchiliklarni muloyim tarzda tushuntiradi. O‘quvchilarga mineral o‘g‘itlarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, ulardan to‘g‘ri foydalanish zaruriyati hamda bilimlarini yanada mustahkamlash yo‘llari haqida qisqa tavsiyalar beriladi. Statistik natija: Metod qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi 80% ni tashkil etdi (an’anaviy darsda 62%). Ayniqsa, kimyoviy formulalarni yozishdagi xatoliklar 20% ga kamaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida kimyo fanini samarali o‘qitish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish hamda bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 8-sinfda “Mineral o‘g‘itlar namunalari bilan tanishish” mavzusini o‘qitish o‘quvchilarning moddalarning ahamiyati, ularning xossalari va amaliy qo‘llanilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning tafakkur rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada “Mineral o‘g‘itlar namunalari bilan tanishish” mavzusini o‘qitishda “Pinbord” metodining ahamiyati yoritildi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilimni mustaqil egallashi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishiga asoslanadi. Bu orqali o‘quvchilar mineral o‘g‘itlarning namunalari bilan tanishdilar, ularning o‘simliklar hayotidagi ahamiyatini anglay oldilar hamda ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgana oldilar. Natijada o‘quvchilar faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlab topuvchi va uni tahlil qiluvchi faol ishtirokchiga aylandilar. “Mineral o‘g‘itlar namunalari bilan tanishish” mavzusini interfaol metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning kimyoviy bilimlarini samarali shakllantiradi. Natijada o‘quvchilarda kimyo faniga bo‘lgan qiziqish ortadi, ilmiy tafakkur rivojlanadi hamda ular bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashni o‘rganadilar.

Amaliy tavsiya: Pinbord stendini maktab kimyo xonasining doimiy elementi sifatida shakllantirish, o‘quvchilarga har bir laboratoriya ishidan so‘ng o‘z natijalarini «vizual hisobot» ko‘rinishida taqdim etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N.// Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. 204-B.

2. Iragimova Z., Yusupov N., Firmamatov M. // Oliy o‘quv yurtlarida Fizika Yo‘nalishi talabalariga “Elektromagnit to‘lqin” mavzusini Pinbord metodi asosida dars o‘tish.//Central Asian journal of Multidisciplinary Research and management studies:Volume 1,Issue 3,March 2024 Page 174.

3. Qurbonova M.T.// Ta’limda innovatsion usullar// “Экономика и социум”// №2(117)-2 2024// www.iupr.ru266

4. N.T.Ximmatqulova. // Dars jarayonida o‘quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish//Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2// ISSUE 11// 2021// Page 1321.//

5. Tolipova J.O.// Kimyo o‘qitish metodikasi // Toshkent. 2013.// 233-b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.016:57:004

Ibodova Mahfuza Namozovna,
Navoiy davlat universiteti "Biologiya" kafedrasi dotsenti

BIOLOGIYA FANINI INTEGRATIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHDA VEB-PLATFORMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalar asosida yaratilgan veb-platformalardan foydalanish metodikasi tahlil qilingan. Integrative-biology.uz platformasining tuzilishi, didaktik imkoniyatlari, 4K modeli, 5E instruksion modeli, Bloom taksonomiyasi hamda kooperativ ta'lim strategiyalari (Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL) bilan integratsiyasi yoritilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari statistik ma'lumotlar asosida keltirilgan.

Kalit so'zlar: integrativ texnologiya, veb-platforma, biologiya ta'limi, 4K modeli, 5E modeli, Bloom taksonomiyasi, kooperativ ta'lim, akademik litsey.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВЕБ-ПЛАТФОРМ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данной статье проанализирована методика использования веб-платформ, разработанных на основе интегративных технологий, в процессе преподавания биологии. Освещены структура платформы Integrative-biology.uz, её дидактические возможности, а также интеграция с моделью 4K, инструкционной моделью 5E, таксономией Блума и стратегиями кооперативного обучения (Jigsaw, Think–Pair–Share, RBCL). Результаты опытно-экспериментальной работы представлены на основе статистических данных.

Ключевые слова: интегративная технология, веб-платформа, биологическое образование, модель 4K, модель 5E, таксономия Блума, кооперативное обучение, академический лицей.

METHODOLOGY OF USING WEB PLATFORMS IN TEACHING BIOLOGY BASED ON INTEGRATIVE TECHNOLOGIES

Abstract. This article analyzes the methodology for using web platforms developed on the basis of integrative technologies in biology education. It describes the structure and didactic capabilities of the Integrative-biology.uz platform, as well as its integration with the 4C model, the 5E instructional model, Bloom's Taxonomy,

and cooperative learning strategies (Jigsaw, Think–Pair–Share, and RBCL). The results of the experimental study are presented based on statistical data.

Keywords: integrative technology, web platform, biology education, 4C model, 5E model, Bloom's Taxonomy, cooperative learning, academic lyceum.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini talab etmoqda. Xususan, biologiya fanini o'qitishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash, fanlararo integratsiyani ta'minlash va o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi [1]. Jahon ta'lim tendensiyalari, jumladan PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda an'anaviy o'qitish usullari yetarli samara bermayapti [2].

Ushbu vaziyatda veb-platformalar biologiya ta'limini integrativ texnologiyalar asosida tashkil etishning samarali vositasiga aylanmoqda. Vebplatformalar o'quv materialini strukturaviy tarzda taqdim etish, interfaol topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash, o'quvchi faoliyatini masofadan kuzatish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi [3]. Shu bilan birga, vebplatformalarning pedagogik salohiyati faqat texnik vosita sifatida emas, balki didaktik tizim komponenti sifatida to'g'ri metodik asoslanganda to'liq namoyon bo'ladi [4].

Maqolaning maqsadi — akademik litseylarda biologiya fanini integrativ texnologiyalar asosida o'qitishda veb-platformalardan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov natijalari asosida asoslashdan iborat.

Integrativ ta'lim tushunchasi fanlararo bog'lanishlarni, turli bilim sohalarini yagona kontekstda birlashtirishni anglatadi. Pedagogik adabiyotlarda integrativ yondashuv o'quvchida tizimli tafakkurni shakllantiruvchi omil sifatida ta'riflanadi [5]. Biologiya fani o'z tabiatiga ko'ra kimyo, geografiya, ekologiya, informatika kabi fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli, integrativ texnologiyalarni joriy etish uchun qulay maydon hisoblanadi [6].

Veb-platformalarning didaktik imkoniyatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

— o'quv kontentini multimedia formatida (matn, video, animatsiya, interfaol sxema) taqdim etish;

— o'quvchi bilimini avtomatik test va topshiriqlar orqali baholash;

— o'quv materialini individual sur'at va daraja bo'yicha moslashtirish [7].

Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, veb-asosli o'quv muhitlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'z-o'zini boshqargan ta'lim (selfregulated learning) ko'nikmalarini rivojlantiradi [8]. Shu bilan birga, platformaning shunchaki mavjudligi emas, balki uning pedagogik dizayni — ya'ni

kontentning ilmiy-metodik asoslanganligi — samaradorlikni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [9].

Zamonaviy pedagogikada integrativ texnologiyalar tushunchasi tizimli yondashuvning yadrosi bo‘lib, u biologiya fanini o‘qitishda ikki asosiy o‘q atrofida shakllanadi: mazmuniy integratsiya (fanlararo fanlararo bilimlar bog‘liqligi) va texnologik integratsiya (turli raqamli resurslarning yagona ta’limiy muhitda mujassamlashuvi). Ushbu komponentlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda voqelikni parcha-parcha emas, balki yaxlit tizim sifatida idrok etish imkonini beruvchi "holistik tafakkur"ni shakllantiradi. Biologiya fanining tabiatan fanlararo xususiyati (biokimyo, biofizika, biomatematika) uni integratsiyaga eng moyil fanlardan biri sifatida tavsiflaydi. Misol tariqasida, "Hujayra tuzilishi va hayotiy jarayonlari" mavzusini olaylik. An’anaviy yondashuvda bu mavzu statik o‘rganilsa, integrativ texnologiyalar vositasida u quyidagicha boyitiladi:

Kimyoviy aspekt: Hujayra membranasi orqali moddalar almashinuvidagi kimyoviy bog‘lanishlar va ionlar muvozanati. Matematik aspekt: Osmotik bosim va diffuziya tezligini hisoblash orqali matematik tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ekologik aspekt: Tashqi muhit omillarining hujayra hayotiga ta’sirini tahlil qilish orqali tizimli ekologik yondashuvni shakllantirish. Ushbu yondashuv o‘quv materialining abstraktligini kamaytirib, fanlararo bog‘liqlik orqali o‘quvchida ilmiy dunyoqarashning barqarorligini ta’minlaydi.

Raqamli ta’lim muhitida veb-platformalar pedagogik jarayonni individuallashtirishning samarali vositasiga aylanmoqda. An’anaviy ta’limda barcha o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida individual yondashish qiyin bo‘lsa, veb-platformalar bu jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Adaptiv ta’lim: o‘zlashtirishi yuqori o‘quvchilarga murakkab tadqiqot topshiriqlari, modellashtirish va simulyatsiyalar, o‘zlashtirishi sustroq o‘quvchilarga esa bosqichma-bosqich videolar, tayanch sxemalar va interaktiv testlar taqdim etiladi.

Individual ta’lim trayektoriyasi: har bir o‘quvchi o‘z kognitiv tezligida ishlashi va bilimlardagi bo‘shliqlarni mustaqil to‘ldirishi mumkin.

Refleksiya va teskari aloqa: platformalar o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuzatish va natijalarga ko‘ra ta’lim jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Biologiya ta’limida veb-platformalardan integrativ texnologiyalar asosida foydalanish axborot texnologiyalarini joriy etish bilangina cheklanmay, ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda biologik bilimlar bilan bir qatorda mustaqil tadqiqot olib borish, axborotni izlash va tahlil qilish kabi XXI asr kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan u o‘quvchi markazlashgan ta’lim modeliga o‘tishning samarali strategiyalaridan biridir [7; 9].

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrative-biology.uz veb-platformasi akademik litseylarda biologiya fanini integrativ texnologiyalar asosida o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lib, Adliya vazirligi tomonidan DGU 60064 raqami bilan ro‘yxatga olingan [10]. Platforma 6 ta bo‘lim, 12 ta bob va 60 dan ortiq mavzuni qamrab oladi. Har bir mavzu TPACK modeli asosida ishlab chiqilgan.

Platforma kontenti Bloom taksonomiyasining olti bosqichi — bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash — asosida bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan. Shuningdek, o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda 4K modeli — kreativlik, kritik tafakkur, kommunikatsiya va kollaboratsiya — asos qilib olingan. Mavzularni o‘zlashtirish jarayoni esa 5E modeli — Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate — asosida tashkil etilgan. Bu yondashuv o‘quvchini bilimning passiv qabul qiluvchisidan faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi.

Texnik jihatdan platforma uchta asosiy modulni o‘z ichiga oladi: nazariy kontent moduli (matn, video va interaktiv sxemalar), baholash moduli (testlar, ochiq savollar va loyiha topshiriqlari) hamda monitoring moduli (o‘qituvchi uchun o‘quvchi faoliyatini kuzatish paneli). Mazkur modullar kognitiv, faoliyat va nazorat komponentlarini o‘zaro bog‘lab, yaxlit didaktik jarayonni ta’minlaydi. Kontentda ilmiy manbalarga havolalarning keltirilishi esa o‘quvchilarda ilmiy axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Integrativ texnologiyalar asosida o‘qitishning samaradorligini oshirishda kooperativ ta’lim strategiyalarini veb-platforma imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda quyidagi uchta strategiya qo‘llanildi:

Jigsaw (“boshqotirma”) usuli — o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir a’zo mavzuning bir qismi bo‘yicha “ekspert” bo‘ladi, so‘ngra platformadagi tegishli modul orqali o‘z bilimini guruhga uzatadi. Think-Pair-Share (“O‘ylaJuftlash-Ulash”) texnikasi platformadagi muammoli topshiriqlar asosida individual fikrlash, juft holda muhokama qilish va sinf bilan bo‘lishish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. RBCL (Research-Based Collaborative Learning) yondashuvi esa o‘quvchilarni platformadagi ma’lumotlar bazasi va manbalar asosida kichik tadqiqot loyihalarini bajarishga yo‘naltiradi.

Ushbu strategiyalarning veb-platforma bilan integratsiyasi o‘quvchilarda nafaqat predmet bo‘yicha bilimlarni, balki kommunikativ va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kooperativ strategiyalarni veb-muhitga ko‘chirishda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi: u endi faqat bilim uzatuvchi emas, balki o‘quv jarayonini moderatsiya qiluvchi va guruh dinamikasini boshqaruvchi shaxsga aylanadi. Platformadagi guruh xonalari (breakout-bo‘limlar) va umumiy loyihalar taxtasi orqali o‘qituvchi har bir guruhning ishlash jarayonini real vaqt rejimida kuzatish, zarur hollarda yo‘naltiruvchi fikr-mulohaza (feedback) berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, formativ baholashning sifatini oshiradi va o‘quvchiga o‘z bilim olish jarayoni ustidan nazoratni his qilish imkonini beradi.

Veb-platformadan foydalangan holda biologiya darsini tashkil etish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-jadval

Veb-platforma asosida integrativ dars tuzilishi

№	Bosqich	Mazmuni
1	Jalb etish (Engage)	Platformadagi qiziqarli video yoki muammoli savol orqali o‘quvchi e’tiborini mavzuga jalb qilish.
2	Izlanish (Explore)	Kichik guruhlarda (Jigsaw) platforma materiallari asosida mustaqil izlanish olib borish.
3	Tushuntirish (Explain)	O‘quvchilar Think-Pair-Share texnikasi asosida topgan ma’lumotlarini tushuntiradi.
4	Chuqurlashtirish (Elaborate)	RBCL yondashuvi asosida kichik tadqiqot topshirig‘ini bajarish.
5	Baholash (Evaluate)	Platformaning avtomatik test tizimi va o‘qituvchi tomonidan formativ baholash.

Ushbu bosqichma-bosqich metodika har bir darsni yaxlit didaktik tsiklsifatida tashkil etish imkonini beradi, bunda veb-platforma nafaqat axborot manbai, balki o‘quv faoliyatini boshqaruvchi vosita vazifasini ham bajaradi.

Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida Navoiy viloyatidagi to‘rtta akademik litseyda (NavDU, TDTU, TDFI, QDU akademik litseylari) tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tadqiqotga jami 581 nafar o‘quvchi jalb etildi, ular nazorat va tajriba guruhlariga taqsimlandi.

Olingan natijalar veb-platforma asosidagi integrativ texnologiyalarning biologiya ta’limi sifatini oshirishga real hissa qo‘shishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o‘quvchilarning fanlararo bog‘lanishlarni idrok etish, mustaqil izlanish va guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanganligi qayd etildi.

Tajriba-sinov jarayonida qo‘llanilgan so‘rovnoma va kuzatuv natijalari o‘quvchilarning platformaga nisbatan munosabatini ham aniqladi: respondentlarning katta qismi veb-platformadagi interfaol topshiriqlarni an’anaviy darslik topshiriqlariga nisbatan qiziqarliroq va tushunarliroq deb baholadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar tomonidan o‘tkazilgan ekspert baholashda platformaning monitoring moduli o‘quvchi progressini real vaqtda kuzatish va o‘z vaqtida pedagogik tuzatishlar kiritish imkonini berishi alohida ta’kidlandi. Natijalarning ishonchliligini yanada mustahkamlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirish darajalarining taqsimoti solishtirma tahlil qilindi, bunda tajriba guruhlarida yuqori va o‘rta darajadagi o‘quvchilar ulushining sezilarli o‘sishi kuzatildi, past daraja ko‘rsatkichi esa mos ravishda kamaydi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya fanini integrativ texnologiyalar asosida o‘qitishda veb-platformalardan foydalanish metodikasi zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning samarali yo‘nalishlaridan biridir. Integrative-biology.uz platformasi misolida ko‘rsatilganidek, 4K modeli, 5E instruksion modeli, Bloom taksonomiyasi hamda kooperativ ta’lim strategiyalarining (Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL) uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat predmet bo‘yicha bilim sifatini, balki XXI asr ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov natijalari (12,5% samaradorlik ko‘rsatkichi, χ^2=50,87) ishlab chiqilgan metodikaning ilmiy va amaliy asoslanganligini tasdiqladi. Kelgusida ushbu metodikani boshqa tabiiy-ilmiy fanlarni o‘qitishda ham qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 256 b.

2. OECD. PISA 2022 Results: Factsheets. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 48 p. URL: https://www.oecd.org/pisa/publications/ (murojaat sanasi: 12.03.2026).

3. Tolipova J.O., Usmonov B.Sh. Biologiya ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 184 b.

4. Ibodova M.N. Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums Bosma European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 11, No. 4. – P. 52–55. – URL: https://www.idpublications.org/ejrres-vol-11-no-4- 2023

5. Ibodova M.N. An Integrative Approach and The Methodology of Organizing Binary Lessons in Biology Education Bosma The American Journal of Applied Sciences. – 2026. – Vol. 8, Issue 06. – P. 288–296. – URL: https://doi.org/10.37547/tajas/Volume08Issue06-09

6. Ibodova M.N. Improving the Effectiveness of Integrative Technologies in Teaching Biology at Academic Lyceums Bosma The American Journal of Applied Sciences. – 2026. – Vol. 8, Issue 06. – P. 268–280. – URL: https://doi.org/10.37547/tajas/Volume08Issue06-07

7. Ibodova M.N. Methodological foundations of the use of integrative technologies in the teaching of biology in academic lyceums Bosma

8. Journal of Advanced Zoology. – Hindiston, 2023. – Vol. 44, Issue S-6. – P. 1786– 1789. URL: http:// www.jazindia .com/index.php/jaz/article/view/2618

9. Ibodova M.N. Description of integrative technologies for teaching biology in academic lyceums // Current Research Journal of Pedagogics. – 2024. – Vol. 5, Issue 10. – P. 189–192. – DOI: https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10- 32 Current Research Journal of Pedagogics. – 2024. –

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 37.07:338.24

Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna,
Andijon davlat texnika instituti "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ta'lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga joriy etish hamda resurslardan samarali foydalanishning ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiyamaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so zlar: ta'lim muassasasi, boshqaruv samaradorligi, tashkiliyiqtisodiy mexanizm, strategik boshqaruv, ta'lim sifati, raqamli boshqaruv, ta'lim menejmenti, innovatsion boshqaruv.

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC FOUNDATIONS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATIONAL INSTITUTION MANAGEMENT

Abstract. This study is dedicated to improving the organizational and economic foundations of enhancing the management efficiency of educational institutions. The research analyzes the impact of modern management approaches, strategic planning, financial management, the integration of digital technologies into management processes, and the efficient use of resources on education quality and management efficiency. The results of the study serve to develop scientific and practical recommendations for improving the organizational and economic mechanisms of management.

Keywords: educational institution, management efficiency, organizationaleconomic mechanism, strategic management, education quality, digital management, educational management, innovative management.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Аннотация. Данное исследование посвящено вопросам совершенствования организационно-экономических основ повышения эффективности управления образовательными учреждениями. В исследовании проанализировано влияние современных подходов к управлению, стратегического планирования, финансового управления, внедрения цифровых технологий в управленческие процессы, а также эффективного использования ресурсов на качество образования и эффективность управления. Результаты исследования послужат основой для разработки научно-практических рекомендаций по совершенствованию организационно-экономических механизмов управления.

Ключевые слова: образовательное учреждение, эффективность управления, организационно-экономический механизм, стратегическое управление, качество образования, цифровое управление, менеджмент в образовании, инновационное управление.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish hamda xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi hamda mehnat bozori talablarining o‘zgarishi ta’lim tizimiga yangi vazifalarni yuklamoqda. Shu sababli zamonaviy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi maskan, balki innovatsion rivojlanish, ilmiy izlanishlar, inson kapitalini shakllantirish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim instituti sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligi faqatgina o‘quv jarayonining sifati bilan emas, balki boshqaruv tizimining samaradorligi, tashkiliy tuzilmaning mukammalligi, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish hamda strategik rejalashtirish darajasi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish, inson resurslarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifati hamda muassasaning umumiy faoliyat natijalariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim muassasalarining muvaffaqiyati strategik menejment, sifat menejmenti tizimi (Quality Management System – QMS), institutsional rivojlanish, akademik mustaqillik hamda moliyaviy boshqaruvning samarali tashkil etilishi bilan chambarchas bog’liq. Shu bois dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ta’limni boshqarishda xalqaro standartlar, zamonaviy menejment konsepsiyalari, loyiha boshqaruvi (Project Management), natijadorlikka asoslangan boshqaruv (Performance Management) va raqamli transformatsiya tamoyillari keng joriy etilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, elektron hujjat aylanishi, masofaviy boshqaruv, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy izimlar, “Big Data” texnologiyalari hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv platformalaridan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanmoqda. Bunday innovatsion yechimlar boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilish, resurslarni samarali taqsimlash, ta’lim sifatini monitoring qilish hamda shaffoflikni ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta‘lim muassasalari boshqaruvining tashkiliy asoslari muassasaning ichki tuzilmasini shakllantirish, vakolat va mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlash, boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda xodimlarning samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi. Iqtisodiy asoslar esa moliyaviy rejalashtirish, byudjet mablag’laridan oqilona foydalanish, qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish, investitsiyalarni boshqarish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan uzviy bog’liqdir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishda strategik rejalashtirish, SWOT tahlili, KPI (Key Performance Indicators) ko‘rsatkichlari, risklarni boshqarish, ichki audit va sifat monitoringi kabi boshqaruv vositalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvlar boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan unumli foydalanish hamda ta’lim xizmatlari sifatini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim muassasalarini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini chuqur o‘rganish, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy hamda amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi, boshqaruv sifatining oshishi, moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi hamda ta’lim xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan ta’lim muassasalarida boshqaruvning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalari boshqaruvini yanada takomillashtirish, boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish hamda ta’lim tizimining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga ilmiy-amaliy jihatdan xizmat qilishi kutiladi.

Tadqiqot maqsadi – ta’lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini har tomonlama tahlil qilish, zamonaviy boshqaruv tamoyillari, strategik menejment, sifat menejmenti hamda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish asosida ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish jarayonida ta'lim muassasalari faoliyatiga ta’sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv omillari aniqlanadi, mavjud boshqaruv tizimining kuchli va zaif tomonlari baholanadi hamda ularni takomillashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, inson resurslarini samarali boshqarish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, sifat monitoringi va ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosini shakllantirishda ta’lim muassasalari boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini optimallashtirish muammolari tizimli va majmuali yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etish uchun ilmiy bilishning dialektik qonuniyatlariga tayanilgan holda, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan nazariy va empirik tadqiqot usullari majmuidan foydalanildi.

Xususan, sohaning nazariy-konseptual asoslarini tadqiq etish maqsadida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlari, fundamental tadqiqotlari hamda zamonaviy ta’lim menejmentiga oid nazariyalari chuqur tahlil qilindi (ilmiy adabiyotlar tahlili). Shuningdek, mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishning huquqiy kafolatlarini aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda normativ-huquqiy hujjatlari har tomonlama o‘rganildi.

Boshqaruv jarayonlarini tizimli tahlil qilish (systematic analysis) orqali ta’lim muassasalarining tashkiliy tuzilmasi, moliyaviy-iqtisodiy faoliyati va boshqaruv subyektlari o‘rtasidagi aloqadorlik yaxlit bir tizim sifatida tadqiq etildi. Qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli yordamida esa ilg‘or xorijiy tajribalar va turli boshqaruv modellarining afzalliklari hamda kamchiliklari solishtirilib, milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqotda empirik ma’lumotlarni to‘plash va birlamchi xulosalarni shakllantirishda kuzatish hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan samarali foydalanildi. Shu bilan birga, xususiy holatlardan umumiy qonuniyatlarni chiqarish, shuningdek, umumiy boshqaruv prinsiplarini aniq ta’lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etish maqsadida induktiv va deduktiv yondashuvlar uyg‘unlikda qo‘llanildi. Tadqiqotning axborot-empirik bazasini ta’lim tizimini tartibga soluvchi me’yoriyhuquqiy hujjatlar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ixtisoslashgan dissertatsiyalar, statistika idoralarining rasmiy ma’lumotlari hamda ta’lim sifati va boshqaruviga oid fundamental ilmiy manbalar tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini oshirish quyidagi asosiy omillarga bog‘liqligini ko’rsatdi.

Birinchidan, boshqaruvning strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish muassasaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish ta’lim muassasasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish axborot almashinuvini tezlashtiradi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilaydi hamda ma’muriy xarajatlarni kamaytiradi.

To‘rtinchidan, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish boshqaruv faoliyatining natijadorligini muntazam nazorat qilish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar va tizimli tahlillar natijasida zamonaviy ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi bir qator o‘zaro bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yuqori darajada samarali ekanligi aniqlandi va ilmiy jihatdan asoslandi. Birinchi navbatda, muassasaning uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, mavjud resurslarni to‘g‘ri prognoz qilish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning barobarida, ta’lim jarayonlarining xalqaro va milliy standartlarga muvofiqligini ta’minlash, ichki nazorat va monitoring tizimini muntazam ravishda baholab borish orqali sifat menejmenti tizimini takomillashtirish lozimligi ko‘rsatildi. Inson kapitalini doimiy rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg‘or menejment ko‘nikmalarini amaliyotga joriy etish maqsadida pedagog va rahbar xodimlarning kasbiy malakasini tizimli va muntazam ravishda oshirish mexanizmi tahlil qilindi. Shuningdek, qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, moliyaviyxo‘jalik faoliyatining ochiqligini oshirish va hisobdorlikni yo‘lga qo‘yish orqali ochiq va shaffof boshqaruv tizimini rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Ta’lim xizmatlari sifatini bozor talablariga moslashtirish maqsadida ish beruvchilar, otaonalar, davlat organlari hamda jamiyat vakillari kabi barcha manfaatdor tomonlar (steykholderlar) bilan ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish mexanizmi alohida o‘rin egallaydi. Nihoyat, zamonaviy raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarini boshqaruvga integratsiya qilish orqali hujjatlar aylanishini optimallashtirish va tezkor qarorlar qabul qilish uchun raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish zarurligi asoslandi. Tadqiqot natijalarining umumiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu qayd etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning alohida emas, balki kompleks va tizimli tarzda qo‘llanilishi ta’lim muassasasida o‘quv-uslubiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga hamda umumiy boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ta'lim menejmenti sohasidagi nazariy yondashuvlar bilan o'zaro uyg'unligini namoyon etdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligi

faqat pedagogik jarayonlarning sifati bilan emas, balki boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, iqtisodiy mexanizmlari, strategik rejalashtirish darajasi hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanish bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan birgalikda amalga oshirilgandagina yuqori natijadorlikka erishish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda strategik menejment, sifat menejmenti tamoyillari, inson resurslarini boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv usullarining qo‘llanilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtiradi, ichki boshqaruv tizimining shaffofligini oshiradi hamda muassasa faoliyatining barcha yo‘nalishlarini yagona strategik maqsad sari yo‘naltirish imkonini beradi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimlarida strategik boshqaruv, institutsional mustaqillik, natijadorlikka asoslangan boshqaruv (Performance Management), sifat menejmenti (Quality Management System), raqamli transformatsiya va elektron boshqaruv tizimlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu tajribalar ta’lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston ta'lim tizimida ham mazkur ilg’or yondashuvlarni yanada kengroq joriy etish, ularni milliy sharoit va mavjud boshqaruv tizimiga moslashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan boshqaruv platformalari, ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash, sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish va analitik axborot tizimlari rahbarlarga tezkor, aniq va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamlashtirish inson omili bilan bog’liq ayrim xatolarni kamaytiradi, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini ta’minlaydi hamda vaqt va moliyaviy resurslarning tejalishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari monitoring va baholash tizimining boshqaruv samaradorligidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ta’lim muassasalari faoliyatini muntazam monitoring qilish, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholash, ichki audit tizimini rivojlantirish va natijalarni tahlil qilish boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshiradi. Natijada mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali choralar ishlab chiqish hamda resurslardan yanada oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida inson resurslarini boshqarish masalalari ham ta’lim muassasalari samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Pedagog va boshqaruv xodimlarining kasbiy malakasini muntazam

oshirish, ularni zamonaviy boshqaruv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha qayta tayyorlash, mehnatni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini qo‘llash hamda innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash ta’lim sifati va boshqaruv natijadorligining oshishiga ijobiy ta’sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Byudjet mablag’larini oqilona rejalashtirish, byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish va xarajatlarni optimallashtirish ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda innovatsion rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim xizmatlari sifatining oshishi va boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot davomida ta’lim muassasalari boshqaruvining tashkiliy va iqtisodiy asoslari kompleks ravishda tahlil qilindi hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim tizimida yuqori natijalarga erishish nafaqat ta'lim jarayonining sifatiga, balki boshqaruv tizimining samaradorligi, tashkiliy tuzilmaning mukammalligi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishiga ham bevosita bog’liqdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- Ta'lim muassasalari boshqaruvi samaradorligi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o‘zaro uyg'unligi hamda ularning izchil faoliyat yuritishiga bevosita bog’liq. Samarali boshqaruv tizimi ta’lim muassasasining strategik rivojlanishini ta‘minlash, resurslardan unumli foydalanish va ta‘lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.
- Strategik rejalashtirish va sifat menejmenti tizimlari boshqaruv samaradorligini oshirishda asosiy vositalardan biri ekanligi aniqlandi. Ularning amaliyotga joriy etilishi ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilash, faoliyat natijalarini baholash va sifatni doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi.
- Raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot almashinuvini tezlashtirish, elektron hujjat aylanishini rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor va ilmiy asoslangan holda qabul qilishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish boshqaruvning shaffofligini oshirish, inson omili bilan bog’liq xatolarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish ta’lim muassasalari faoliyatining samaradorligini muntazam nazorat qilish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI), ichki audit va sifat monitoringi tizimlarini rivojlantirish boshqaruvning natijadorligini sezilarli darajada oshiradi.

- Moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Byudjet mablag’larini samarali rejalashtirish, qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish, investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va xarajatlarni optimallashtirish ta'lim muassasalarining moddiytexnik bazasini mustahkamlash hamda ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.
- Inson resurslarini samarali boshqarish, pedagog va boshqaruv xodimlarining kasbiy malakasini muntazam oshirib borish hamda ularning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish ta’lim sifati va boshqaruv natijadorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi.
- Xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va ta’lim muassasalarining global raqobatbardoshligini ta’minlash uchun zarur ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida boshqaruvning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy barqarorlik va institutsional rivojlanishni ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini oshirish hamda ta’lim tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.

2. Ibragimova G.S. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy texnologiyalari. // NamDTI Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali. – Namangan, 2025. Maxsus 4-son. – B. 134–139.

3. Ibragimova G.S. Umumiy o‘rta maktablarida ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Andijon, 2026. – 127 b.

4. Kadirkulov D.A. Ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish. // Maktabgacha va maktab ta’lim jurnali. – Namangan, 2026. №3(2).

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 616.314-002

Sheraliyev Qambarali Saydaliyevich,
Alfraganus university "Tibbiyot" kafedrasi dotsenti

Mirzanov Bekpo'lat Ibodullayevich,
Alfraganus university "Tibbiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

Bahodirov Shamshodjon Bahodir o'g'li,
Alfraganus university "Stomotologiya" ta'lim yo'nalishi talabasi

TISH KARIESI KASALLIGINING KELIB CHIQISH OMILLARI VA IRSIYLANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada tish kariyesining kelib chiqish omillari, jumladan mahalliy (og'iz gigiyenasi, mikrobiologik holat, ovqatlanish odatlari) va umumiy (immunitet, somatik kasalliklar, ekologiya) omillar tahlil qilingan. Shuningdek, kariyesga irsiy moyillik masalalari yoritilib, kariyes xavfining 52–63% gacha genetik omillarga bog'liqligi ilmiy asoslangan. Maqolada Streptococcus mutansning virulentlik omillari hamda emal rivojlanishini boshqaruvchi genlar (ENAM, AMELX, AMBN, KLK4, TUFT1) va immun javob genlarining (HLADRB1) karies patogenezidagi o'rni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tish kariyesi, etiologiya, genetik moyillik, Streptococcus mutans, demineralizatsiya.

ОЦЕНКА ФАКТОРОВ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ НАСЛЕДСТВЕННОСТИ ПРИ КАРИЕСЕ ЗУБОВ

Аннотация. В данной статье проанализированы факторы возникновения кариеса зубов, включая местные (гигиена полости рта, микробиологический статус, пищевые привычки) и общие (иммунитет, соматические заболевания, экология) факторы. Освещены вопросы наследственной предрасположенности к кариесу, научно обоснована зависимость риска развития кариеса от генетических факторов в пределах 52– 63%. В статье описана роль факторов вирулентности Streptococcus mutans, а также генов, регулирующих развитие эмали (ENAM, AMELX, AMBN, KLK4, TUFT1), и генов иммунного ответа (HLA-DRB1) в патогенезе кариеса.

Ключевые слова: кариес зубов, этиология, генетическая предрасположенность, Streptococcus mutans, деминерализация.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

ASSESSMENT OF ETIOLOGICAL FACTORS AND HEREDITARY INDICATORS OF DENTAL CARIES

Annotation. This article analyzes the etiological factors of dental caries, including local (oral hygiene, microbiological status, dietary habits) and general (immunity, somatic diseases, ecology) factors. The issues of hereditary predisposition to caries are highlighted, with scientific evidence showing that 52–63% of caries risk is attributable to genetic factors. The article describes the role of virulence factors of Streptococcus mutans, as well as genes regulating enamel development (ENAM, AMELX, AMBN, KLK4, TUFT1) and immune response genes (HLA-DRB1) in the pathogenesis of caries.

Keywords: dental caries, etiology, genetic predisposition, Streptococcus mutans, demineralization.

Tish kariesi – bu zamonaviy stomatologiyaning eng keng tarqalgan surunkali patologik jarayoni bo‘lib, u og‘iz bo‘shlig‘i mikroorganizmlarining metabolik faoliyati natijasida ajralib chiqadigan organik kislotalar ta’sirida tishning qattiq to‘qimalari (emal va dentin) tarkibidagi minerallarning erishi (demineralizatsiya) va strukturasining yemirilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallikning rivojlanish mexanizmi murakkab biokimyoviy va mikrobiologik zanjirga asoslangan bo‘lib, quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

Tish yuzasida dastlab yumshoq, siyrak strukturaga ega bo‘lgan tish karashi paydo bo‘ladi. Bu qatlam so‘lak tarkibidagi glikoproteinlar, oziq-ovqat qoldiqlari va deskvamatsiyaga uchragan epiteliy hujayralaridan tarkib topgan bo‘lib, bakteriyalar kolonizatsiyasi uchun ideal substrat vazifasini o‘taydi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu yumshoq modda mikroorganizmlarning hayot faoliyati qoldiqlari va mineral tuzlar bilan boyib, zich va qattiqroq tuzilmaga — tish pilakchasiga (biofilmaga) aylanadi. Tish pilakchasi tish yuzasiga shunchalik mahkam yopishadiki, uni oddiy chayish yoki mexanik tozalash bilan butunlay bartaraf etish imkonsizdir; u faqat maxsus gigiyena vositalari orqali majburiy mexanik ishlov berish yo‘li bilan olib tashlanadi.

Tish pilakchasi ichidagi bakteriyalar, xususan, Streptococcus mutans va Lactobacillus kabi turlar uglevodlar, ayniqsa qand moddalari bilan oziqlanganda, faol bijg‘ish jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon natijasida biofilma ostida organik kislotalarning — sut, pirouzum, chumoli, propion va moy kislotalarining yuqori konsentratsiyada to‘planishi kuzatiladi. Aynan shu kislotalar tish emalining yuza qismidagi organik moddalar va kristall panjaraga kirib borib, gidroksiapatit minerallarini erita boshlaydi.

Normal fiziologik sharoitda so‘lak tarkibidagi bufer tizimlari (bikarbonatlar, fosfatlar) kislotalarni neytrallash va emalni remineralizatsiya qilish (kalsiy va ftor ionlari yordamida qayta tiklash) xususiyatiga ega. Biroq, tish pilakchasi hosil bo‘lganda, so‘lakning neytrallovchi ta’siri ushbu biofilma qatlamiga yetib bora

olmaydi. Diffuziya jarayonining sekinlashishi kislotalarning tish yuzasida uzoq vaqt ushlanib qolishiga va lokal pH darajasining kritik darajadan (5.5 dan past) pasayishiga olib keladi. Natijada, emal to‘qimasi o‘zining mineral tarkibini yo‘qotib, g‘ovaklashadi va tish kariogen jarayonining dastlabki bosqichi — "oq dog‘" stadiyasi yuzaga keladi.

Kasallikning kechishi nafaqat tashqi omillar (oziqlanish rejimi, gigiyena), balki organizmning individual xususiyatlariga ham bog‘liq. Genetika tish to‘qimalarining struktura zichligi, so‘lak tarkibi, immunitet va tishlarning anatomik shakliga ta’sir ko‘rsatib, kariesga bo‘lgan moyillikni belgilaydi. Shu sababli, karies profilaktikasida nafaqat tish pilakchasini muntazam tozalash, balki og‘iz bo‘shlig‘ining mikroflora muvozanatini saqlash va emalning rezistentligini (chidamliligini) oshiruvchi mineral terapiya ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.[1, 3, 4].

Tishlarning kariesga bo‘lgan individual moyilligi nafaqat mahalliy omillar, balki butun organizmning fiziologik holati bilan chambarchas bog‘liqdir. Klinik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, umumiy somatik kasalliklar (endokrin, oshqozonichak trakti, metabolik buzilishlar) etuk tishlarning allaqachon shakllangan qattiq to‘qimalari strukturasi va kimyoviy tarkibini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgartirmasa-da, ular og‘iz bo‘shlig‘i suyuqligining (so‘lak) miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida karioz jarayonning kechish intensivligini belgilovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi [6].

Demineralizatsiya jarayoni turg‘un holat emas, balki dinamik jarayondir. Agar aktiv demineralizatsiya bosqichida kariesogen omillar (kislota ishlab chiqaruvchi bakteriyalar, uglevodlar konsentratsiyasi) o‘z ta’sirini yo‘qotsa, emalning remineralizatsiyasi – ya’ni to‘qimalarning minerallar bilan qayta to‘yinishi kuzatiladi. Karies etiologiyasi ko‘p faktorli (multifaktorial) bo‘lib, kasallikning klinik namoyon bo‘lishi faqatgina ma’lum bir noqulay shart-sharoitlar majmuasi (mikroflora, uglevodli ozuqa, tish to‘qimalarining kamchiliklari) bir vaqtda mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi.

Karies rivojlanishida so‘lak eng muhim fiziologik omil hisoblanadi. So‘lak ajralishining kamayishi yoki uning qovushqoqligi (yopishqoqligi) oshishi og‘iz bo‘shlig‘ini o‘z-o‘zidan tozalash mexanizmini izdan chiqaradi. Qovushqoq so‘lak tish yuzasidan oziq-ovqat qoldiqlarini samarali yuvib chiqara olmaydi va buferlik xususiyatini yo‘qotadi, natijada karies jarayoni keskin faollashadi. Aksincha, so‘lak tarkibida kalsiy, fosfat va ftor kabi makro- va mikroelementlarning yetarli konsentratsiyada bo‘lishi remineralizatsiyani kuchaytirib, karioz jarayonni to‘xtatish yoki sekinlashtirish imkonini beradi.

Tish emalining strukturaviy yaxlitligi kariesga qarshi asosiy to‘siqdir. Qalin va silliq emal, uning kristall panjaralaridagi minimal mikrog‘ovakliklar kislotalarning chuqur qatlamlarga kirib borishini cheklaydi. Emalning zich strukturasi tishning

kariesga chidamliligini oshirib, kislotali hujumlarga qarshi tabiiy himoyani ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, karies faqatgina tish yuzasidagi mahalliy jarayon bo‘lmay, balki organizmning umumiy immun-biologik holati, metabolik jarayonlar va og‘iz bo‘shlig‘i mikroekologiyasi o‘rtasidagi muvozanatning natijasidir. Shu sababli, karies profilaktikasida nafaqat gigiyenik tadbirlar, balki so‘lak tarkibini yaxshilash va emalning kristall strukturasini mustahkamlash strategiyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Karies kasalligining patogenezi ko‘p bosqichli va dinamik jarayon bo‘lib, u og‘iz bo‘shlig‘idagi ekologik muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu jarayonning asosiy qo‘zg‘atuvchi omillari qatoriga yuqori darajada uglevod iste'moli, gigiyenik parvarishning yetishmovchiligi va tish to‘qimalarining rezistentligi (chidamliligi) kiradi.

Tez-tez va tartibsiz ravishda oddiy uglevodlarni iste'mol qilish og‘iz bo‘shlig‘ida kariesogen mikrofloraning faollashishi uchun qulay muhit yaratadi. Tish pellikulasi (emalning oqsilli qobig‘i) ustiga o‘rnashgan kariesogen mikroorganizmlar (ayniqsa, Streptococcus mutans) uglevodlar yordamida o‘zlarining ekstrasellyulyar polisaxaridlarini sintez qiladi. Bu jarayon tish pilakchasining zichlashishiga va uning tish yuzasiga mahkam birikishiga olib keladi. Yopishqoq konsistensiyaga ega bo‘lgan oziq-ovqatlar tishlarning anatomik retension punktlarida — okklyuzion fissuralarda, chuqurchalarda, interdental yuzalarda, hamda plombalar va protezlar chekkalarida to‘planib, uzoq muddatli lokal ta'sir ko‘rsatadi [2, 5].

Kariesogen jarayon, ayniqsa, so‘lak ajralishining tabiiy fiziologik kamayishi (giposalivatsiya) yoki kserostomiya holatlarida intensivlashadi. Uyqu vaqtida so‘lakning yuvuvchi va buferlik xususiyatlari keskin pasayishi sababli, tish pilakchasi ostidagi muhitda glikoliz jarayonlari uzluksiz kechadi. Bijg‘ish faolligi bevosita iste'mol qilingan uglevodlar miqdori va turi bilan korrelyatsiya qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, uglevod konsentratsiyasining ortishi tish pilakchasidagi polisaxaridlar miqdorini oshiradi, bu esa Str. mutans kabi kariogen bakteriyalarning kolonizatsiya darajasini ko‘paytiradi.

Tish pilakchasining shakllanish tezligi va sifatiga nafaqat uglevodlar miqdori, balki ovqatning fizik xossalari ham hal qiluvchi ta'sir ko‘rsatadi. Yumshoq va yopishqoq ovqatlar tish yuzasini o‘z-o‘zidan tozalash jarayonini qiyinlashtiradi. Bunday oziq-ovqatlar og‘iz bo‘shlig‘ida uzoq vaqt qolib, bakteriyalar uchun doimiy ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi va kariesning boshlang‘ich bosqichlarini tezlashtiradi.

Karies patogenezini tushunishda "Keyes triadasi" (mikroorganizmlar, substrat va tish to‘qimasi) asosiy ahamiyatga ega. Biroq, zamonaviy tadqiqotlar bu ro‘yxatga vaqt (immunitet va gigiyena davomiyligi) omilini ham qo‘shishni taqozo etadi.

Patogenetik jarayonning oldini olishda nafaqat gigiyenik vositalar, balki dietar korreksiya ham birlamchi profilaktika sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Tish kariesining etiologiyasi va patogenezini tushuntiruvchi bir qator nazariyalar mavjud bo‘lib, ular orasida U.D. Miller tomonidan taklif etilgan ximioparazitar nazariya tarixiy va ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, karies jarayoni tish qattiq to‘qimalarining ikki bosqichli destruksiyasi (yemirilishi) natijasida kechadi:

Patologik jarayonning birlamchi bosqichida og‘iz bo‘shlig‘idagi oziq-ovqat qoldiqlari (ayniqsa, uglevodlar) mikroorganizmlar ta’sirida bijg‘ish jarayoniga uchraydi. Natijada hosil bo‘lgan organik kislotalar tish emalining anorganik qismini (gidroksiapatit kristallarini) yemira boshlaydi.

Kariesning ikkinchi bosqichida tish to‘qimalarining organik tarkibiy qismlari mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqariladigan proteolitik fermentlar ta’sirida destruksiyaga uchraydi. Bu jarayon emal va dentin strukturasining to‘liq yemirilishiga va karioz bo‘shliq shakllanishiga olib keladi.

U.D. Miller o‘zining ilmiy nazariyasini tasdiqlash uchun klassik eksperiment o‘tkazgan. U sog‘lom tishlarni non, go‘sht, so‘lak va 2–4% li qand eritmasidan iborat bo‘lgan sun’iy muhitga joylashtirib, turli vaqt oralig‘ida kuzatuv olib borgan. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy hosil bo‘lgan kislotali muhit tish emalida progressiv demineralizatsiyani keltirib chiqaradi [7].

Zamonaviy qarashlarga ko‘ra, bakteriyalar faoliyati natijasida hosil bo‘lgan organik kislotalar diffuziya jarayoni orqali emalning kristall panjarasiga singib kiradi. Ushbu kislotalar dissotsiatsiyalanib, erkin vodorod ionlarini (H^+) ajratib chiqaradi. Erkinlashgan vodorod ionlari emal tarkibidagi mineral tuzlar bilan faol reaksiyaga kirishib, gidroksiapatit kristallarining erishini va to‘qimaning g‘ovaklashishini ta’minlaydi [8].

Garchi Miller nazariyasi bugungi kunda "biofilma nazariyasi" (zamonaviy mikrobiologik yondashuv) bilan to‘ldirilgan bo‘lsa-da, uning kislotali demineralizatsiya haqidagi fundamental g‘oyalari zamonaviy stomatologiyaning asosiy qoidasi bo‘lib qolmoqda. Karies kelib chiqishida nafaqat mikroorganizmlar va uglevodlar, balki vodorod ionlarining emalga kirib borish tezligi va og‘iz bo‘shlig‘ining remineralizatsiya salohiyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar tahlili tish kariesi etiologiyasida mahalliy omillarning dominant rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Karies rivojlanishi — bu organizmning immun-biologik holati va og‘iz bo‘shlig‘ining mahalliy mikroekologiyasi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasidir. Adabiyotlarda keltirilgan asosiy xatarlarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

Karies kasalligining rivojlanishida og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasi va dental plak (tish pilakchasi) hosil bo‘lish jarayoni birlamchi ahamiyatga ega. Tish yuzasida shakllanadigan biofilma — bu mikroorganizmlar uchun himoyalangan "ekologik

nisha" bo‘lib, u tashqi ta’sirlarga (so‘lakning oquvchanligi va mexanik tozalash) qarshi yuqori rezistentlikka ega.

Dental plak ostidagi muhitda uglevodlarning kariogen bakteriyalar (ayniqsa, Streptococcus mutans, Lactobacillus turlari) tomonidan fermentativ bijg‘itilishi organik kislotalarning — sut, pirouzum, chumoli, propion va yog‘ kislotalarining jadal to‘planishiga olib keladi. Ushbu kislotalar emal yuzasidagi organik matritsa va mineral kristallar (gidroksiapatit) bilan reaksiyaga kirishib, ularning demineralizatsiyasini keltirib chiqaradi. Muhim jihati shundaki, dental plak ostida kislotalarning konsentratsiyasi shunchalik yuqori bo‘ladiki, so‘lakning tabiiy buferlik (neytrallovchi) tizimi ushbu lokal zonaga to‘liq kirib bora olmaydi va jarayonning neytrallanishiga imkon bermaydi [1, 3, 4].

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining qoniqarsizligi va ovqatlanish tartibining buzilishi (tez-tez uglevodli ozuqalarni iste’mol qilish) kariesogen jarayonni katalizator kabi tezlashtiradi. Ayniqsa, yopishqoq konsistensiyali uglevodlarning tishning retension nuqtalarida (fissuralar, kontakt yuzalar) uzoq muddat qolishi bakteriyalarning metabolik faolligini ta’minlab turadi.

Yuqoridagi omillar majmuasi karioz jarayonning boshlanishi va progressiv rivojlanishi uchun klassik "kislotali hujum" modelini yaratadi. Zamonaviy stomatologik yondashuvlarda ushbu jarayonni to‘xtatishning eng samarali usuli sifatida nafaqat klinik aralashuv, balki bemorning dietar odatlarini korreksiya qilish hamda dental plak hosil bo‘lishini nazorat qiluvchi profilaktik chora-tadbirlar majmuini joriy etish zarurati ta’kidlanadi. Kariesni samarali davolash uning faqat oqibatlarini (karioz bo‘shliq) emas, balki aynan shu mahalliy patogenetik mexanizmlarni bartaraf etishga yo‘naltirilishi lozim. Kariesga moyilligi yuqori bo‘lgan tishlarda karioz jarayon tezroq kechadi va bu bevosita umumiy organizm holatiga bog‘liqdir.

Kariesga yo‘ldosh umumiy kasalliklar yetuk tishlarning strukturasi va tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatmasa-da, organ va tizimlardagi funksional o‘zgarishlar karioz jarayonning kechishi, og‘iz bo‘shlig‘i suyuqligining tarkibi va miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [6]. Xususan, so‘lak ajralishi yoki uning sifat-miqdoriy ko‘rsatkichlari pasayganda karies jarayoni faollashadi, makro- va mikroelementlarning yetarli konsentratsiyasi esa karioz jarayonni sekinlashtiradi. Emalning qalinligi, zich strukturasi va kristallik panjarasidagi minimal bo‘shliqlar ham karies rivojlanishini cheklovchi omillar hisoblanadi.

Giposalivatsiya va kserostomiya holatlarida, ayniqsa uyqu vaqtida, glyukoliz jarayoni kuchayadi. Uglevodlarga boy oziq-ovqat tish pilakchasi hosil bo‘lishini tezlashtirib, undagi polisaxaridlar miqdori va Streptococcus mutans sonining ortishiga olib keladi. Ovqatning konsistensiyasi ham muhim bo‘lib, yumshoq va yopishqoq mahsulotlar tish pilakchasi shakllanishini kuchaytiradi.

Karies etiologiyasida tashqi muhit omillari bilan bir qatorda irsiy moyillik ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlarda karies xavfining taxminan 52–63

foizi genetik omillar bilan bog‘liqligi qayd etilgan. Shu sababli kariesni nafaqat turmush tarzi, balki genetik moyillik bilan bog‘liq poligen kasallik sifatida baholash mumkin.

Tish emalining rivojlanishi va mineralizatsiyasi ENAM, AMELX, AMBN, KLK4 va TUFT1 kabi genlar tomonidan boshqariladi. Ushbu genlardagi polimorfizmlar emalning qalinligi, zichligi va kislota ta’siriga chidamliligiga ta’sir qilib, demineralizatsiyaga moyillikni oshirishi mumkin. Shuningdek, HLA-DRB1 kabi immun javob genlari og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasiga, xususan, *Streptococcus mutans*ga qarshi immun himoyada muhim rol o‘ynaydi.

Karies patogenezini tushunishda “gen–muhit” o‘zaro ta’siri alohida ahamiyatga ega. Genetik jihatdan moyil shaxslarda uglevodlarga boy parhez, og‘iz gigiyenasining yetarli emasligi va boshqa kariyesogen omillar kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois kelajakda individual genetik xususiyatlarni hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan stomatologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, tish kariyesi mahalliy va umumiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadigan ko‘p omilli patologiyadir. Uning rivojlanishida og‘iz gigiyenasi, ovqatlanish, mikrobiologik holat, so‘lak xususiyatlari, immunitet va genetik moyillik birgalikda ishtirok etadi. Genetik markerlarni aniqlash orqali kariyes xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarni erta aniqlash va individual profilaktika choralarini belgilash kelgusidagi stomatologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev, B. J. Stomatologiyada tish kariesi: etiologiyasi, diagnostika va davolash usullari – Toshkent : Central Asian Medical University, 2024. – 180 b.

2. Aliyeva, G. H. Kariyesin etiologiyası və patogenezi. – Bakı: Azərbaycan Tibb Universiteti, 2024. – 210 s.

3. Bekjanova O.Y. Klinik restavration stomatologiya. – Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, 2023. – 320 b.

4. Sirojeva, M.J. Karies: anatomik, topografik va klinik tasnifi. Amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Jild 4, Nashr 3. – B. 45–58.

5. Sirojeva M.J., Pulatova Sh.U., Norqulova J.S., O‘ktamova Sh.A., Voxidov D.A. Karies. Amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. Jild: 04 Nashr. 3 (2025).

6. Sharma D., Bhandary S. Role of Genetic Markers in Dental Caries: A Literature Review. Journal of Health and Allied Sciences NU, 2024.

7. Kubayev A.S. Stomatologik kasalliklari profilaktikasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2022. – 149 b.

8. Xalilov I.X. Bolalar terapevtikstomatologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2017. – 407 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.013:004.8

Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi v.b. dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SUN'IY INTELLEKT TINGLOVCHILARDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonida tinglovchilarning kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish kognitiv faollikni 1.6 baravar va metakognitiv monitoring ko'nikmalarini 1.4 baravar oshiradi. Shu bilan birga, tadqiqotda neyro-kognitiv nuqtayi nazardan "kognitiv qarz" (cognitive debt) va "kognitiv taslim bo'lish" (cognitive surrender) kabi salbiy ta'sirlar o'rganilgan hamda ularning oldini olishga qaratilgan to'rt bosqichli didaktik model taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, kognitiv kompetensiyalar, metakognitiv monitoring, kognitiv qarz, kognitiv taslim bo'lish, Bloom taksonomiyasi, didaktik model.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СЛУШАТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируется роль и эффективность технологий искусственного интеллекта в развитии когнитивных и метакогнитивных компетенций учащихся в образовательном процессе. Анализ эмпирических данных показывает, что использование инструментов искусственного интеллекта увеличивает когнитивную активность в 1,6 раза и навыки метакогнитивного мониторинга в 1,4 раза. Одновременно в исследовании изучаются негативные эффекты, такие как «когнитивный долг» и «когнитивная капитуляция», с нейрокогнитивной точки зрения, и предложена четырехэтапная дидактическая модель, направленная на их предотвращение.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, когнитивные компетенции, метакогнитивный мониторинг, когнитивный долг, когнитивная капитуляция, таксономия Блума, дидактическая модель.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COGNITIVE COMPETENCIES IN LEARNERS

Abstract. This article analyzes the role and effectiveness of artificial intelligence technologies in the development of cognitive and metacognitive competencies of students in the educational process. The analysis of empirical data shows that the use of artificial intelligence tools increases cognitive activity by 1.6 times and metacognitive monitoring skills by 1.4 times. At the same time, the study studied negative effects such as "cognitive debt" and "cognitive surrender" from a neurocognitive point of view and proposed a four-stage didactic model aimed at preventing them.

Keywords: Artificial intelligence, cognitive competencies, metacognitive monitoring, cognitive debt, cognitive surrender, Bloom's taxonomy, didactic model.

Kirish. Raqamli sivilizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'lim muhitida bilimlar majmuasini shunchaki yodlashga asoslangan reproduktiv ta'lim o'zining avvalgi ustuvorligini yo'qotib, uning o'rniga tinglovchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotni tanqidiy tahlil qilish hamda doimiy o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashish qobiliyatlarini, ya'ni kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Kognitiv kompetensiyalar shaxsning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, baholash va uni amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyatlarini qamrab oladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi kognitiv kompetensiyalarni rag'batlantirish va rivojlantirishning yangi didaktik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari, jumladan, adaptiv ta'lim tizimlari, intellektual repetitorlik platformalari hamda generativ sun'iy intellektga asoslangan yirik til modellari (Large Language Models — LLM) o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, uni har bir tinglovchining individual o'rganish sur'ati, bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirish imkonini bermoqda.

Biroq sun'iy intellektning ta'limiy salohiyati bilan bir qatorda, uning tinglovchilarning kognitiv faoliyatiga ehtimoliy salbiy ta'siri bilan bog'liq xavotirlar ham ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Xususan, sun'iy intellekt vositalaridan ortiqcha va nazoratsiz foydalanish natijasida tinglovchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlariga bo'lgan ehtiyoji kamayishi mumkin.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida o'rganuvchilarning tayyor javoblarga haddan tashqari tayanishi natijasida mustaqil fikrlashdan voz kechishi, ya'ni "kognitiv taslim bo'lish" (cognitive surrender) holati yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Buning uzoq muddatli oqibatlaridan biri kognitiv ko'nikmalarning yetarli darajada mashq qilinmasligi bilan bog'liq "kognitiv qarz" (cognitive debt)ning shakllanishi bo'lishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellekt vositalarini tinglovchilarning kognitiv va metakognitiv

ko‘nikmalarini faollashtiruvchi hamda mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida samarali integratsiyalash ta’lim metodikasi nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — sun’iy intellekt vositalarining tinglovchilarda kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini empirik ma’lumotlar tahlili asosida baholash hamda sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kognitiv zaiflashuv xavfini minimallashtirishga qaratilgan pedagogik-didaktik modelni taklif etishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kognitiv va pedagogik fanlar kesishmasida olib borilgan tizimli tahlilga asoslanib, o‘zbek va xalqaro miqyosda amalga oshirilgan zamonaviy empirik hamda neyro-kognitiv tadqiqotlar natijalarini qiyosiy o‘rganish va umumlashtirish metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini, avvalo, Bloomning qayta tahrir qilingan kognitiv taksonomiyasi tashkil etadi. Mazkur yondashuv doirasida tinglovchilarning eslab qolish va tushunish kabi quyi darajadagi kognitiv jarayonlardan tahlil qilish, baholash va yaratish kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarga bosqichma-bosqich o‘tish imkoniyatlari, shuningdek, ushbu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik jihatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda, shuningdek, Halpernning kognitiv ko‘nikmalar nazariyasiga tayanildi. Ushbu nazariya asosida tanqidiy fikrlashni maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillarni baholash, qarorlarning asoslanganligini aniqlash hamda o‘z fikrlash jarayonlarini refleksiv baholashga imkon beruvchi yondashuvlar ko‘rib chiqildi. Mazkur metodologik asos tinglovchilarning sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tayyor axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va qayta ishlovchi faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning yana bir muhim metodologik yo‘nalishini inson markazlashgan sun’iy intellekt (Human-Centered AI — HCAI) paradigmasi tashkil etadi. Mazkur paradigma, xususan, Ben Shneiderman tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar asosida sun’iy intellektni insonning aqliy faoliyatini almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki uning intellektual imkoniyatlarini kuchaytirish, kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qarashni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy mezoni texnologiyaning o‘zi emas, balki uning tinglovchining mustaqil fikrlashi, tahliliy faoliyati va metakognitiv nazoratini qay darajada rag‘batlantirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ilmiy-uslubiy nashrlarda e’lon qilingan tadqiqotlar natijalari hamda xalqaro ilmiy manbalarda keltirilgan zamonaviy empirik ma’lumotlardan foydalanildi. Xususan, MIT Media Lab tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda Singapurdagi Nanyang

texnologiya universiteti (NTU) olimlari tomonidan olib borilgan neyro-pedagogik va elektroensefalografiya (EEG) tahlillari natijalari qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Mazkur manbalar orqali sun’iy intellektdan foydalanishning ta’lim oluvchilarning kognitiv faolligi, diqqat jarayonlari, mustaqil fikrlashi va metakognitiv faoliyatiga ta’siri bilan bog‘liq ilmiy xulosalar tahlil qilindi.

Shuningdek, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan tinglovchilar va talabalarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda ushbu texnologiyalardan foydalanishning mustaqil tahliliy topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga ta’siri qiyosiy tahlil qilindi. Bunda sun’iy intellektdan foydalanishning samaradorligi nafaqat topshiriqni bajarish tezligi yoki yakuniy natija bilan, balki tinglovchining axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, dalillarni baholash, xulosa chiqarish va o‘z faoliyatini refleksiv nazorat qilish ko‘nikmalari bilan ham bog‘liq holda baholandi. Shu asosda sun’iy intellektning kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va ehtimoliy cheklovlarini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tahlillar natijasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida tizimli va maqsadli foydalanishning tinglovchilarning kognitiv faoliyatiga ta’siri hamda ushbu texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq ehtimoliy xavflar yuzasidan muayyan empirik xulosalar shakllantirildi. Tahlil natijalari sun’iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim oluvchilarning axborot bilan ishlash, tahlil qilish va mustaqil fikrlash jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari va adaptiv o‘quv vositalaridan tizimli hamda samarali foydalangan o‘quvchi va tinglovchilar an’anaviy o‘qitish yondashuvi asosida ta’lim olgan guruhlarga nisbatan qator kognitiv ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqoriroq natijalarni namoyon etgan. Ayniqsa, sun’iy intellekt bilan ishlash jarayonida axborotni izlash, saralash va tahlil qilish tezligining ortishi, shuningdek, o‘quv faoliyatiga jalb etilish va kognitiv faollik darajasining yuqoriligi kuzatilgan.

Mazkur natijalar sun’iy intellekt vositalari ta’lim oluvchiga tayyor axborotni taqdim etish bilangina cheklanmay, zarur ma’lumotlarni tezkor izlash, ularni turli manbalar bilan taqqoslash va muayyan vazifa doirasida qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kognitiv samaradorlikning ortishi sun’iy intellektning o‘z-o‘zidan ta’lim natijasini yaxshilashi bilan emas, balki undan foydalanish jarayonining didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi, topshiriqlarning mazmuni va tinglovchining mustaqil fikrlash faoliyati bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

An’anaviy o‘qitish yondashuvi bilan sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining asosiy ko‘rsatkichlarini qiyosiy baholash natijalari 1-jadvalda

keltirilgan. Jadvalda axborotni izlash va tahlil qilish tezligi, kognitiv faollik hamda boshqa muhim ko‘rsatkichlarning o‘zgarishlari umumlashtirilgan.

1-jadval

An’anaviy va sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish usullarining kognitiv samaradorlik qiyosiy ko‘rsatkichlari (nisbiy birliklarda)

Kognitiv ko‘rsatkich turi	An’anaviy guruh	Sun’iy intellekt tizimi qo‘llangan guruh	Samaradorlik koeffitsiyenti
Kognitiv faollik darajasi	1.0	1.6	1.6 baravar yuqori
Metakognitiv monitoring va refleksivlik	1.0	1.4	1.4 baravar yuqori
Mustaqil axborot qidirish va saralash tezligi	1.0	1.8	1.8 baravar tezroq

Biroq, sun’iy intellektdan foydalanishning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, unga ortiqcha tayanishning kognitiv faoliyatga ehtimoliy salbiy ta’sirlari ham kuzatilmoqda. Xususan, MIT Media Lab tomonidan 2025-yilda o‘tkazilgan EEG tadqiqotida insho yozishda yirik til modellaridan muntazam foydalangan ishtirokchilarda miya bog‘liqligi darajasi boshqa guruhlarga nisbatan pastroq bo‘lgani, shuningdek, tayyorlangan matn mazmunini mustaqil eslab qolish va o‘z ishiga egalik hissi bo‘yicha ham farqlar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqotchilar mazkur holatni “kognitiv qarz” tushunchasi bilan izohlaydilar.

Mazkur natijalar sun’iy intellekt ta’lim oluvchining faoliyatini yengillashtirishi bilan birga, undan nazoratsiz foydalanilganda mustaqil kognitiv faoliyatning qisqarishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli sun’iy intellektni ta’lim jarayonida tayyor javob beruvchi vosita sifatida emas, balki o‘rganuvchini fikrlashga, savol berishga, dalillarni tekshirishga va xulosa chiqarishga undovchi hamkor sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunda ta’lim samaradorligi o‘rganuvchining muammoni mustaqil anglash va uni hal qilish jarayonidagi faol ishtiroki bilan belgilanadi.

Aniqlangan muammoni hisobga olgan holda, tadqiqot doirasida “Inson va raqamli agent hamkorligi” tamoyiliga asoslangan to‘rt bosqichli didaktik model taklif etildi. Birinchi bosqichda tinglovchi tayyor javob olishdan oldin muammoni mustaqil shakllantiradi va sun’iy intellektdan yo‘naltiruvchi savollar orqali foydalanadi. Ikkinchi bosqichda u o‘z qarashlarini sun’iy intellekt tomonidan taklif etilgan muqobil nuqtayi nazarlar bilan taqqoslab, ularni tanqidiy baholaydi. Uchinchi bosqichda sun’iy intellekt bergan ma’lumot va tezislarni ishonchli akademik manbalar asosida tekshiradi, dalillarni umumlashtiradi hamda mustaqil xulosa shakllantiradi. To‘rtinchi bosqichda esa o‘zining o‘rganish jarayoni va sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini metakognitiv jihatdan tahlil qiladi.

Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etishda baholash mezonlarini ham takomillashtirish muhimdir. Xususan, faqat yozma ish natijasini baholash bilan

cheklanmasdan, og‘zaki himoya, keys-topshiriqlar va kognitiv tahlil portfoliolaridan foydalanish tinglovchining bilimni qay darajada mustaqil egallaganini aniqlash imkonini beradi. Natijada sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim oluvchining kognitiv faoliyatini almashtiruvchi emas, balki uni rivojlantiruvchi didaktik vositaga aylanishi mumkin.

Xulosa. Sun’iy intellekt ta’lim sohasida shunchaki texnik vosita emas, balki tinglovchining kognitiv kompetensiyalarini kengaytiruvchi va rag‘batlantiruvchi didaktik katalizator hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish kognitiv faollikni 1.6 baravar oshiradi. Biroq, sun’iy intellektdan nazoratsiz va passiv foydalanish kognitiv taslim bo‘lish va mustaqil fikrlash qobiliyatini yo‘qotishga olib keladi.

Kognitiv kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish uchun sun’iy intellekt ta’lim jarayoniga tayyor axborot beruvchi orakl emas, balki kognitiv qiyinchiliklarni stimulyatsiya qiluvchi “Sokratik suhbatdosh” sifatida integratsiya qilinishi zarur. Taklif etilgan to‘rt bosqichli didaktik model inson va sun’iy intellekt hamkorligining muvozanatini saqlab, raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. VanLehn, K. (2006). The behavior of tutoring systems. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 16, 227–265.

4. Abduqodirov, A. A. (2021). Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

5. Begimqulov, U. Sh. (2022). Raqamli ta’lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari. Pedagogik mahorat, 3(2), 15–21.

6. Сидоров, А. Н. (2019). Использование технологий обработки естественного языка в электронном обучении. Вестник Московского университета. Серия 20: Педагогическое образование, 1, 47–55.

7. Qarshiyev, J. (2026). Pedagoglar uchun sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatlari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 20-yanvar. DOI: 10.5281/zenodo.18391363.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.091.12:004

Xudayberdiyev Nurislam Nuraliyevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktab o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari haqida so'z yuritiladi. Umumta'lim fanlarini o'qitishda samaradorlikka erishish uchun o'qituvchilarining axborot kompetentliginining bevosita va bilvosita aloqadorligi, ularning axborotlashgan jamiyatda hayot sharoitlari va mehnat faoliyatiga moslashishida, axborotlarni baholash, tahlil qilish, sohaga yo'naltirish, mustaqil-ijodiy ishni tashkil etishida, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axboriy salohg'iyatining o'rni haqidagi fikrlar bayon etilgan

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, axborot kompetentlik, kasbiy axborot oqimi, ijodiy, fanlararo yondashuv, axborot faoliyati, ахборот iste'moli, texnologik, mantiqiy ishlash.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация. В данной статье, рассматриваются некоторые вопросы развития информационной компетентности учителей общеобразовательных школ. О прямом и косвенном значении информационной компетентности педагогов, для достижения эффективности обучения в общеобразовательной сфере. Их роли в обеспечении информационного потенциала, и их адаптации к условиям жизни и работы в информированном обществе. Проведении оценки информации, анализе, полевом анализе информации, организации самостоятельной и творческой работы, излагаются личные и возможные, профессиональные информационные идеи.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, информационная компетентность, профессиональный информационный поток, творческий, междисциплинарный подход, информационная деятельность, информационное потребление, технологическая, логическая работа.

SOME ISSUES OF DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE OF SECONDARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. In this article, some issues of the development of information competence of teachers of secondary schools are considered. About the direct and indirect importance of the information competence of teachers to achieve the effectiveness of teaching in the general education field. Their role in providing information potential, and their adaptation to living and working conditions in an informed society. Information evaluation, analysis, field analysis of information, organization of independent and creative work, personal and possible, professional information ideas are presented.

Keywords: professional competence, information competence, professional information flow, creative, interdisciplinary approach, information activity, information consumption, technological, logical work.

Ko‘p yillar davomida pedagogika fani asosan o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida talqin etib kelindi. Biroq jamiyat taraqqiyoti, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda uzluksiz ta’lim konsepsiyasining shakllanishi pedagogika fanining tadqiqot doirasini sezilarli darajada kengaytirdi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, pedagogika nafaqat bolalar va yoshlarni, balki katta yoshdagi insonlarni o‘qitish, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ularning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi kompleks fan sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, “hayot davomida ta’lim olish” (lifelong learning) tamoyilining ustuvor ahamiyat kasb etishi pedagogik tadqiqotlarda katta yoshdagi ta’lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Mazkur jarayonda umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini, xususan, axborot kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogdan nafaqat o‘z fanini mukammal bilish, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish, turli axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish, raqamli muhitda samarali muloqot olib borish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish kabi kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Shunday ekan, axborot kompetentligi bugungi kunda pedagogning kasbiy mahoratini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan strategik hujjatlarda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash,

shuningdek, ta'limning barcha bosqichlariga innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifalarning izchil amalga oshirilishi pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularning raqamli madaniyati va axborot kompetentligini shakllantirish hamda takomillashtirishning institutsional va me'yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Bugungi kunda globallashuv, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy o‘qituvchi axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish bilan bir qatorda, o‘quvchilarda ham raqamli savodxonlik, media madaniyat va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantira olishi zarur. Shu bois umumta'lim maktabi o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish, balki ta'lim sifatini yuksaltirish, innovatsion ta'lim muhitini yaratish va raqamli jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Taniqli olimlar B.Q. Xodjaev va B.T. Juraev «Pedagogik faoliyatga kirish» nomli monografiyasida pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish zaruratini zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bilan izohlaydilar. Ularning fikricha, kompetensiyaviy yondashuvga o‘tishning asosiy omillari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning jadallashuvi, kasbiy axborot oqimining uzluksiz ortib borishi, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati hamda mutaxassisning kasbiy faoliyat davomida mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojining ortishi bilan bog‘liqdir [2, 148]. Mazkur omillar pedagogning kasbiy faoliyatiga nisbatan yangi talablarni shakllantirib, uning uzluksiz kasbiy rivojlanishini taqozo etadi.

Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha puxta nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilangina cheklanmaydi. U, shuningdek, pedagogik innovatsiyalarni qabul qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, o‘quv jarayonini loyihalash, ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi sifatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu ma'noda kompetensiya o‘qituvchining bilim, ko‘nikma, tajriba, shaxsiy fazilat va qadriyatlarini amaliy faoliyatda samarali namoyon eta olish qobiliyatini ifodalaydi [3].

Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi o‘qituvchidan yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni, ulardan ta'lim sifati va samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalanishni talab etmoqda. Shu sababli zamonaviy pedagog uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishning o‘zi yetarli emas; ularni o‘quv jarayoniga metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish, raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish, axborot xavfsizligi talablariga rioya etish

hamda ta’lim oluvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim kasbiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda «kasbiy kompetensiya» tushunchasining turli talqinlari mavjud. Ularning aksariyatida kasbiy kompetensiya mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini yuqori samaradorlik bilan amalga oshirish, kasbiy muammolarni mustaqil hal etish va o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi murakkab va ko‘p komponentli tizim bo‘lib, A.S. Belkin tomonidan 70 ga yaqin pedagogik kompetensiyalar ajratib ko‘rsatilgan [4]. Mazkur kompetensiyalar ichida axborot kompetentligi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi.

«Axborot kompetentligi» tushunchasi lotincha *competens* – «munosib», «layoqatli», «qobiliyatli» ma’nolarini anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, shaxsning axborot bilan ishlash jarayonida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega ekanligini ifodalaydi. Mazkur kompetentlik insonning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va undan kasbiy faoliyatda maqsadli foydalanish qobiliyatlarini qamrab oladi. Ayrim tadqiqotchilar axborot kompetentligini mutaxassisning kasbiy madaniyati, axborot etikasi va axborot bilan ishlash madaniyatining muhim ko‘rsatkichi sifatida ham baholaydilar [5].

Pedagogik nuqtai nazardan, o‘qituvchining axborot kompetentligi uning kasbiy dunyoqarashini kengaytirish, uzluksiz ta’limni tashkil etish va innovatsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ sifat hisoblanadi. U axborot faoliyatining barcha bosqichlarini – axborotga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, ishonchli manbalarni izlash, olingan ma’lumotlarni tanqidiy baholash, ularni qayta ishlash, yangi bilim yaratish va ushbu bilimlarni kasbiy hamjamiyat hamda ta’lim oluvchilarga samarali yetkazish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bunday kompetentlik o‘qituvchiga zamonaviy ta’lim resurslari bilan ishlash, elektron platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, masofaviy va aralash ta’limni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shuningdek, o‘qituvchining axborot kompetentligi ijodiy va dinamik xarakterga ega. Chunki pedagogik faoliyat jarayonida ko‘pincha oldindan rejalashtirilmagan, nostandart vaziyatlar yuzaga keladi. Bunday holatlarda pedagog mavjud axborotni tezkor tahlil qilishi, muammoning maqbul yechimini topishi, asoslangan qaror qabul qilishi hamda tegishli pedagogik strategiyani tanlay olishi zarur. Demak, axborot kompetentligi faqat texnologik ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot madaniyati, refleksiya va kasbiy moslashuvchanlikni o‘zida mujassamlashtiruvchi integrallashgan kasbiy sifatdir.

Shu bois umumta’lim maktabi o‘qituvchilarida axborot kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirish, ularni zamonaviy raqamli ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash, malaka oshirish kurslari mazmunini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari bilan boyitish hamda amaliy faoliyatga

yo‘naltirilgan metodik ta’minotni takomillashtirish bugungi kunda pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda «axborot kompetensiyasi» tushunchasi ko‘pincha axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, kompyuter va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Biroq bunday yondashuv mazkur tushunchaning faqat texnologik jihatini aks ettiradi va uning pedagogik hamda kognitiv mazmunini to‘liq ochib bera olmaydi. Aslida, axborot kompetentligi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, insonning axborot bilan samarali ishlash, uni tanqidiy tahlil qilish, yangi bilim yaratish va kasbiy faoliyatida maqsadli qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi integrallashgan kompetensiya hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida axborot kompetentligi shaxsning mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sishini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Mazkur kompetentlik shaxsning bilish faolligini oshirish, axborotning tabiiy va sun’iy (raqamli) komponentlari o‘rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta’minlash, axborotlashgan jamiyat sharoitida yashash va mehnat qilishga moslashish, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni izlash, baholash, tahlil qilish va tizimlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, u mustaqil va ijodiy faoliyatni tashkil etish, shaxsiy hamda kasbiy axborot maydonini shakllantirish, zamonaviy axborot resurslaridan oqilona foydalanish va axborot madaniyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ya.I. Kuzminov axborot kompetensiyasining mazmunini yanada kengroq talqin qilib, unga pedagog faoliyatining metodik jihatini ham kiritadi. Uning fikricha, o‘qituvchi axborot texnologiyalarini bilishi bilan birga, ularni ta’lim maqsadlariga mos ravishda tanlay olishi, pedagogik vaziyatga moslashtirishi va o‘quv jarayoniga metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qila olishi zarur [6]. Ushbu yondashuv axborot kompetentligining texnologik emas, balki pedagogik mohiyatini ochib beradi.

P.V. Bespalov esa axborot kompetensiyasini «tegishli bilimlarni egallashga bo‘lgan motivatsiya, kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv va kasbiy faoliyatdagi muammolarni hal qilish hamda kompyuterda fikrlash usullarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oluvchi shaxsning integral xususiyati» sifatida ta’riflaydi [7, 45]. Mazkur ta’rif axborot kompetentligining motivatsion, kognitiv va amaliy komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida umumta’lim maktabi o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati tahlil qilinib, ularning axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning quyidagi o‘zaro bog‘liq darajalari ajratib ko‘rsatildi:

Axborotni iste’mol qilish darajasi – axborotga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, turli manbalardan zarur ma’lumotlarni izlash, tanlash, qabul qilish va ulardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Kompyuter foydalanuvchisi darajasi – operatsion tizimlar, ofis dasturlari, internet xizmatlari, elektron ta'lim platformalari va boshqa raqamli vositalardan samarali foydalanish malakalarini qamrab oladi.

Mantiqiy ishlash darajasi – axborotni tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish, modellashtirish, algoritmik fikrlash hamda dasturiy va texnik vositalarning funksional imkoniyatlarini anglashni nazarda tutadi.

Ijodiy va fanlararo integratsiya darajasi – axborot texnologiyalaridan pedagogik muammolarni hal etishda innovatsion yondashuv asosida foydalanish, fanlararo loyihalarni ishlab chiqish, raqamli ta'lim resurslarini yaratish, sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish hamda o'quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur darajalar o'qituvchining axborot kompetentligi bosqichma-bosqich rivojlanishini tavsiflaydi. Bunda dastlabki bosqich axborotni qabul qilish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, keyingi bosqichlarda pedagogning tahliliy, metodik va ijodiy faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Demak, zamonaviy o'qituvchining axborot kompetentligi texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalari bilangina emas, balki axborotni pedagogik maqsadlarga muvofiq qayta ishlash, yangi bilim yaratish va innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish qobiliyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumta'lim maktabi o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy mexanizmlar va metodik yondashuvlar bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, zamonaviy raqamli resurslardan maqsadli foydalanish hamda axborot kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish zarurati aniqlandi.

Fikrimizcha, o'qituvchilarda axborot kompetentligini shakllantirishning asosiy pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

dars jarayonida kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar va pedagogik vaziyatlarni tashkil etish hamda axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga barqaror motivatsiyani shakllantirish;

axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vizual modellar, multimedia vositalari va internet resurslaridan tizimli foydalanish;

axborot texnologiyalari asosida ta'lim yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Axborot kompetentligini shakllantirish jarayonining asosiy tarkibiy elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bosma va grafik hujjatlarni tayyorlash hamda namoyish etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

dars jarayonida audio va video materiallardan samarali foydalanish;

elektron taqdimotlar yaratish;

jadvallar, texnologik xaritalar va diagrammalar yordamida ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda qayta ishlash;

kompyuter vositalari yordamida qiyosiy tahlillarni amalga oshirish va qonuniyatlarni aniqlash;

jarayon va obyektlarni modellashtirish, chizmalar hamda eskizlar yaratish;

kompyuter testlari va elektron baholash vositalaridan foydalanish;

internet resurslari orqali axborot izlash, ilmiy-uslubiy materiallardan foydalanish, masofaviy hamkorlik va telekonferensiyalarda ishtirok etish.

O'qituvchining axborot kompetensiyasi kompyuter texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, o'quv dasturlari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagog o'quvchilarning individual xususiyatlari, yoshi, motivatsiyasi va psixologik jihatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha zarur kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsni tashkil etish ko'p komponentli pedagogik jarayon hisoblanadi. O'qituvchilar bilan olib borilgan ish tajribasi asosida oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini ishlab chiqish va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

axborot texnologiyalaridan foydalanishga yo'naltirilgan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ulushini oshirish hamda o'qituvchilarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

ixtisoslashtirilgan pedagogik va metodik fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha tayyorgarlikni dastlabki bosqichlardan yo'lga qo'yish;

axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid fanlarni ta'limning yuqori bosqichlarida chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish;

axborot kompetentligini shakllantirishga oid fanlar mazmunini o'qituvchilarning mutaxassisligi xususiyatlariga moslashtirish;

darsning barcha bosqichlarida (tashkiliy, nazariy, amaliy va yakuniy) axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini o'zlashtirish.

Shunday qilib, axborot kompetentligi zamonaviy o'qituvchining muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri bo'lib, u obyektiv va subyektiv jihatlarga ega. Uning obyektiv tomoni jamiyat va ta'lim tizimining pedagog kasbiy faoliyatiga qo'yadigan talablar bilan belgilanadi, subyektiv tomoni esa o'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi, kasbiy tayyorgarligi, innovatsion faoliyatga tayyorligi va uzluksiz o'zini rivojlantirishga intilishida namoyon bo'ladi.

Axborot kompetentligining subyektiv tomoni o'qituvchining individual xususiyatlari, kasbiy tajribasi, pedagogik mahoratini muntazam takomillashtirishga bo'lgan intilishi hamda kasbiy faoliyatdagi motivatsiyasi bilan belgilanadi. Mazkur omillar pedagogning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish va ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O‘qituvchining axborot kompetentligini shakllantirish bilan bog‘liq vazifalarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

jamiyatning zamonaviy ta’lim tizimi va pedagog kasbiy faoliyatiga qo‘yadigan ijtimoiy talablarini ifodalovchi vazifalar;

o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati mazmuni va funksiyalaridan kelib chiqadigan vazifalar;

pedagogning shaxsiy kasbiy ehtiyojlari, qiziqishlari va uzluksiz kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi vazifalar.

O‘qituvchida axborot kompetentligini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni egallash;

kasbiy muloqot va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish;

axborot makonida erkin faoliyat yuritish, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish, shuningdek, o‘z pedagogik faoliyati hamda uning natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda o‘qituvchining axborot kompetentligi tarkibida quyidagi to‘rtta komponentni ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

motivatsion komponent – axborot faoliyatiga nisbatan qiziqish, kasbiy rivojlanishga intilish, maqsadlarni belgilash va ularga erishishga bo‘lgan ichki ehtiyojni ifodalaydi;

kognitiv komponent – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilimlar, ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash, dasturiy vositalarni tahlil qilish, tasniflash va tizimlashtirish ko‘nikmalarini qamrab oladi;

operatsion-faoliyat komponenti – axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, raqamli ta’lim resurslarini yaratish va amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatini tavsiflaydi;

refleksiv komponent – o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarning yechimini izlash, faoliyat natijalarini baholash hamda ularni ijodiy takomillashtirishga tayyorlikni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari umumta’lim maktabi o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Axborot kompetentligiga ega pedagog axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning asosiy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishiga, murakkab amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga hamda mustaqil va ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchining axborot kompetentligi uning kasbiy yo‘nalishi va pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, ta’lim loyihalarini samarali tashkil etish, muammolarni tahlil qilish va ularning maqbul yechimlarini

topish kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bunda individual ta'lim yondashuvlari, zamonaviy dasturiy vositalar va raqamli ta'lim resurslaridan oqilona foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga hamda pedagogning kasbiy mahoratini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi № PF-21-sonli farmoni " O'zbekiston -2030" strategiyasi.

2. Ходжаев Б.Қ. Жураев Б.Т. «Педагогик фаолиятга кириш", Монография, Тошкент, 2019.

3. Елизаров А.А. Базовая ИКТ компетенция как основа Интернет-образования учителя: Международная научно-практическая конференция RELARN-2004.

4. Лебедева М.Б., Шилова О.Н. Что такое ИКТ компетентность студентов педагогического университета и как ее формировать? // Информатика и образование. – 2004. – № 3. – С. 95–100.

5. Солиев И.С. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ахборот компетентлигини ривожлантириш. 13.00.01 – Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2020.

6. Кузьминов Я.И. Профессиональный стандарт педагогической деятельности Я.И. Кузьминов // Вестник образования. – 2007. – № 7. – С. 1724.

7. Беспалов П.В. Компьютерная компетентность в контексте личностно ориентированного обучения / П.В. Беспалов // Педагогика. – 2003. – № 4. – С. 41–45.

8. Agaliyeva X. N. Professor-o 'qituvchilarning Kasbiy Kompetensiyalaring Rivojlantirishda Kompetensiyaviy Yondashuvning Afzalliklari //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali. – C. 676013.

9. Siddiqov I. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – C. 6-6.

10. Egamkulov S. A. Axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish //Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanishning ahamiyati. – 2026. – C. 604.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 378.147:37.091.3:355.23

Usmanova Gavhar Berdiyorovna,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
O‘quv-saf qismi kurslar boshlig‘ining
xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

KURSANT QIZLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Maqolada kursant qizlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Muammoli ta’lim, keys-stadi, simulyatsiya, loyiha, raqamli vositalar, portfolio va mentorlikni uyg‘un qo‘llash zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: kursant qizlar, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiya, simulyatsion ta’lim, keys-stadi, raqamli kompetentlik, genderga sezgir pedagogika, refleksiya.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ДЕВУШЕК-КУРСАНТОВ

Аннотация. В статье раскрыты педагогические основы формирования профессиональных компетенций у девушек-курсантов. Обосновано комплексное применение кейс-метода, симуляций, проектного обучения, цифровых средств, портфолио и наставничества.

Ключевые слова: девушки-курсанты, профессиональная компетентность, инновационная технология, симуляционное обучение, кейс-метод, цифровая компетентность, рефлексия.

INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES IN FEMALE CADETS

Abstract. The article examines the pedagogical foundations of developing professional competencies in female cadets. The combined use of case studies, simulations, project-based learning, digital tools, portfolios, and mentoring is substantiated.

Keywords: female cadets, professional competence, innovative technology, simulation-based learning, case study, digital competence, reflection.

Huquqni muhofaza qiluvchi va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati jamiyat xavfsizligi, qonun ustuvorligi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy mutaxassis nafaqat huquqiy-me'yoriy hujjatlarni mukammal bilishi, balki murakkab vaziyatlarni tahlil qila olishi, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi, fuqarolar bilan konstruktiv muloqot o'rnatishi hamda yuqori ruhiy bosim sharoitida kasbiy barqarorligini saqlay olishi zarur. Shu bois kursant qizlarni tayyorlashda bilimlarni reproduktiv o'zlashtirishga asoslangan an'anaviy yondashuvdan kompetensiyaga yo'naltirilgan amaliy ta'lim modeliga o'tish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlat rahbari ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga alohida to'xtalib: «Har qanday jamiyatning kelajagi bugungi yosh avlod naqadar bilimli va har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishiga bevosita bog'liq» [1], deya ta'kidlagan. Mazkur yondashuv kursant qizlarning kasbiy tayyorgarligini faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklab qo'ymasdan, ularda xizmat vazifalarini turli va murakkab sharoitlarda samarali bajarish kompetensiyalarini izchil rivojlantirishni taqozo etadi. Bunda kasbiy mas'uliyat, tashabbuskorlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash, vaziyatni xolis baholash, qonuniy hamda asoslangan qarorlar qabul qilish, jamoada samarali hamkorlik qilish va fuqarolar bilan professional muloqot o'rnatish kabi kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tez o'zgaruvchan va xavf omillari mavjud xizmat faoliyatida kursantning mavjud bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishi, nostandart vaziyatlarda maqbul yechim topishi hamda qabul qilgan qarorining huquqiy va ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholay olishi uning kasbiy yetukligining muhim mezoni hisoblanadi.

Kursant qizlarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va baholash mexanizmlarining o'zaro uzviy uyg'unligini talab etadi. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, amaliy keyslar, simulyatsion mashg'ulotlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli ta'lim texnologiyalari, refleksiv topshiriqlar hamda mentorlik tizimidan maqsadli foydalanish nazariy tayyorgarlik bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi integratsiyani ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ularning alohida turlarini qo'llash bilangina cheklanmaydi. Asosiy vazifa ushbu texnologiyalarni kursant qizlarning kasbiy, huquqiy, kommunikativ, raqamli va psixologik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit didaktik tizimga integratsiya qilishdan iborat. Natijada ta'lim jarayoni tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra kursantning mustaqil izlanishi, refleksiv fikrlashi, o'z faoliyatini tahlil qilishi, xatolaridan xulosa chiqarishi va kasbiy faoliyatga ongli hamda mas'uliyatli tayyorlanishini ta'minlovchi kompetensiyaviy model asosida tashkil etiladi.

Kasbiy kompetensiya mutaxassisning muayyan sohadagi nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini aniq xizmat vaziyatlarida samarali qo'llay olish qobiliyatini

ifodalovchi murakkab shaxsiy-kasbiy sifatdir. U xizmat vazifalarini amaldagi qonunchilik, kasbiy etika tamoyillari hamda jamiyat manfaatlariga muvofiq ravishda bajarishga tayyorlik darajasini belgilaydi. Shu bois kasbiy kompetensiya nazariy bilim, amaliy tajriba, tanqidiy va mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, samarali muloqot, raqamli texnologiyalardan foydalanish, emotsional barqarorlik hamda refleksiv tahlil kabi o‘zaro bog‘liq komponentlarni qamrab oladi. Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi kursantning nostandart vaziyatlarda oqilona harakat qilishi, qabul qilayotgan qarorlarining huquqiy va axloqiy oqibatlarini oldindan baholashi hamda o‘z kasbiy faoliyatini asosli tahlil qila olishini ta'minlaydi.

Kursant qizlarni tayyorlash jarayonida gender jihatlarini hisobga olish kasbiy talablarni pasaytirish yoki ular uchun alohida yengillashtirilgan sharoit yaratishni anglatmaydi. Aksincha, bunday yondashuv ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta'minlash, sun'iy cheklovlar va stereotip qarashlarni bartaraf etish hamda har bir kursantning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi pedagogik muhitni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu maqsadda o‘quv materiallarini tanlash, amaliy mashg‘ulotlarda vazifalarni taqsimlash, guruhdagi hamkorlikni tashkil etish va o‘quv natijalarini baholashda xolislik tamoyillariga qat'iy amal qilinishi zarur. Natijada kursant qizlarda o‘z kuchiga ishonch, tashabbuskorlik, kasbiy faollik va jamoada yetakchilik qilish kompetensiyalari rivojlanib, ularning kelgusidagi xizmat faoliyatiga psixologik hamda amaliy tayyorgarligi mustahkamlanadi.

YUNESKO–UNEVOC ta'rifiga ko‘ra, genderga sezgir ta'lim «qizlar va o‘g‘il bolalarning teng ishtiroki, o‘zaro hurmati va muvaffaqiyatini rag‘batlantiradi» [2]. Demak, genderga sezgir pedagogika yagona kasbiy standartlarni saqlagan holda ta'lim imkoniyatlarining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi. Bunday yondashuvda kursantlarning bilim va amaliy tayyorgarligi ularning jinsiga qarab emas, balki belgilangan kasbiy kompetensiyalarni qay darajada egallagani asosida baholanadi.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonida kursant qizlarning faol ishtirokiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan stereotiplar, biryoqlama munosabatlar va ijtimoiy qoliplashgan tasavvurlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa ularning amaliy mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar, muammoli vazifalar hamda rahbarlik faoliyatida o‘z salohiyatini erkin namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Teng pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash o‘qituvchidan har bir kursantning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, muloqot uslubi va kasbiy rivojlanish sur'atini hisobga olishni talab etadi. Mazkur yondashuv barcha kursantlarga bir xil topshiriqlar berish bilan cheklanmay, belgilangan ta'lim natijalariga erishish uchun differensial metod va vositalardan maqsadli foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, ayrim kursantlar amaliy simulyatsiyalar orqali o‘z salohiyatini samaraliroq namoyon etsa, boshqalari vaziyatlarni yozma tahlil qilish, jamoaviy muhokama yoki loyiha faoliyati jarayonida yuqori natijalarga erishishi mumkin. O‘qitish metodlarining

uyg‘un qo‘llanilishi har bir kursantning kasbiy salohiyatini aniqlash va uni izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Genderga sezgir ta’lim muhiti kursant qizlarda kasbiy mustaqillik, mas’uliyat va o‘z kuchiga ishonchni shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muhitda xato muvaffaqiyatsizlik belgisi sifatida emas, balki tajriba orttirish va kasbiy rivojlanishga xizmat qiluvchi tabiiy pedagogik jarayon sifatida baholanadi. Natijada kursantlar o‘z fikrini erkin ifodalash, qarorlarini asoslash, konstruktiv tanqidni qabul qilish hamda zarur hollarda o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalarini egallaydi. Ushbu kompetensiyalar kelgusida murakkab xizmat vaziyatlarida vazminlikni saqlash, jamoa bilan samarali hamkorlik qilish va qonuniy hamda asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, genderga sezgir pedagogika kursant qizlarga alohida imtiyozlar yaratish vositasi emas, balki ularning kasbiy salohiyatini xolis baholash va izchil rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoitlarni ta’minlovchi yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida o‘zaro hurmat, adolat, xolislik va talabchanlik tamoyillari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Bunda ta’lim natijasi kursantning faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda samarali qo‘llashi, tashabbus ko‘rsatishi, o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni his etishi hamda kasbiy etika talablariga rioya qilishi orqali baholanadi.

Mazkur natijalarga erishish kursant qizlarni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiruvchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Chunki kasbiy tayyorgarlik faqat ma’lumotni yod olish yoki belgilangan harakatlarni takrorlash orqali shakllanmaydi. Kursant turli nuqtai nazarlarni taqqoslashi, vaziyatning huquqiy va axloqiy jihatlarini tahlil qilishi, mavjud dalillarni tanqidiy baholashi hamda tanlangan qarorning ehtimoliy oqibatlarini oldindan prognoz qila olishi zarur. Shu sababli ta’lim jarayonida mustaqil izlanish, muammolarni kompleks tahlil qilish va asoslangan qarorlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, muammoli ta’lim va keys-stadi texnologiyalari kursant qizlarda huquqiy tahlil qilish, mustaqil fikrlash va qabul qilingan qarorlarni dalillar bilan asoslash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu texnologiyalarda kursantga tayyor yechim berilmaydi, aksincha, huquqiy me’yorlar, kasbiy manfaatlar yoki axloqiy qadriyatlar o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lgan real xizmat vaziyatlari taqdim etiladi. Bunday vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida kursant muhim faktlarni ikkinchi darajali ma’lumotlardan ajratadi, tegishli huquqiy normalarni qo‘llaydi, muqobil yechimlarni taqqoslaydi va eng maqbul qarorni tanlaydi. Natijada bilimlar mexanik ravishda takrorlanmay, muayyan kasbiy muammoni hal etish vositasiga aylanadi.

Shu o‘rinda Y.S. Xaitovaning bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga bag‘ishlangan tadqiqoti alohida e’tiborga loyiqdir. Muallif nostandart kognitiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi «freewriting», «break pattern», «framing and focusing» hamda «case study» kabi interfaol metodlarni ta’lim

jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik asoslarini ishlab chiqqan. Tadqiqot natijalari tahliliga ko‘ra, «Mazkur ta’minot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy salohiyati va kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi» [3, 10-b.]. Shuningdek, nostandart muammoli topshiriqlar va ijodiy keyslar bankini yaratish talabalarning mustaqil ta’limi, metodik tayyorgarligi hamda kasbiy fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tavsiflangan. Mazkur yondashuvni kursant qizlarni tayyorlash jarayoniga moslashtirish keyslardan tayyor javoblarni o‘zlashtirish uchun emas, balki xizmat vaziyatlarini mustaqil tahlil qilish, muqobil qarorlarni taqqoslash va tanlangan yechimni huquqiy hamda axloqiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Keyslar asosida shakllangan tahliliy ko‘nikmalarni mustahkamlashning muhim sharti kursantga qabul qilgan qarorining amaliy natijalarini kuzatish imkoniyatini yaratishdan iborat. Nazariy muhokamalar xizmat vaziyatining huquqiy va axloqiy mohiyatini anglashga yordam bersa-da, real faoliyatda vaqt tanqisligi, ruhiy bosim, axborotning yetarli emasligi va boshqa ishtirokchilarning xatti-harakatlari qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kursant qizlarning vaziyatni tahlil qilish kompetensiyasi harakatlarni rejalashtirish, vazifalarni oqilona taqsimlash, xavf darajasini baholash hamda o‘zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda qarorlarni qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmalari bilan uzviy rivojlantirilishi lozim.

Nazariy yechimni amaliy harakatga aylantirish kursantdan tegishli huquqiy me’yorlarni bilish bilan bir qatorda, ularni vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri qo‘llashni ham talab etadi. Bunda xavf darajasini baholash, harakatlar ketma-ketligini belgilash, samarali muloqot strategiyasini tanlash hamda qabul qilinadigan qarorning ehtimoliy oqibatlarini oldindan prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetensiyalarni faqat ma’ruza yoki nazariy muhokamalar orqali to‘liq shakllantirish mushkul. Shu bois kursant qizlarni tayyorlash jarayonida real xizmat sharoitiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan simulyatsion mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va amaliy treninglardan tizimli foydalanish zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, simulyatsion ta’lim nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi tafovutni kamaytiruvchi samarali pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Virtual xizmat xonasi, raqamli kriminalistik laboratoriya, shartli hodisa joyi, muzokara ssenariylari hamda tezkor qaror qabul qilish trenajyorlari kursantlarga xavfsiz pedagogik muhitda amaliy tajriba orttirish imkonini yaratadi. Simulyatsion mashg‘ulotlar odatda vaziyatni anglash, qaror qabul qilish va harakatni bajarish, so‘ngra debrifing orqali bajarilgan faoliyatni tahlil qilish bosqichlari asosida tashkil etiladi. Aynan debrifing jarayoni kursantning qarorlari va xatti-harakatlarini tanqidiy tahlil qilish, xatolar sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Selyuk harbiy ta’lim muassasalarida innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilib, «project technologies have high potential in the system of cadet training in Higher Military Educational Establishments» [4], deya ta’kidlaydi.

Simulyatsion mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish kursantlarning faoliyatini tizimli kuzatish, qabul qilingan qarorlarni qayta tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklar asosida keyingi o‘quv vazifalarini rejalashtirishni talab etadi. Bu amaliy tajribani tasodifiy kuzatuv darajasida qoldirmay, uni maqsadli pedagogik rivojlantirish vositasiga aylantiradi. Ayniqsa, kursant qizlarning individual tayyorgarlik darajasi, fikrlash sur’ati va kasbiy vaziyatlarga munosabatidagi farqlarni hisobga olish simulyatsion ta’limni raqamli monitoring, natijalarni avtomatik qayd etish va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash imkonini beruvchi vositalar bilan integratsiyalashni taqozo etadi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash elektron darslik yoki testlardan foydalanish bilangina cheklanmasligi lozim. Interaktiv huquqiy bazalar, adaptiv topshiriqlar, elektron portfoliolar, mikrota’lim modullari va virtual trenajyorlar kursantlarning individual sur’atda o‘qishi hamda kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Biroq har bir raqamli vosita aniq kompetensiya, o‘lchanadigan ta’lim natijalari va samarali teskari aloqa tizimi bilan bog‘lanmagan taqdirda, uning pedagogik samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Tovkanets va hammualliflari tajriba natijalarini umumlashtirib, «respondents in the EG had a higher level of professional competence, achieved better results, and were better prepared» [5], degan xulosaga kelgan. Demak, innovatsion ta’lim muhiti samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki uni ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar va muntazam baholash tizimi bilan uyg‘unlashtirishga bog‘liq.

Kommunikativ va psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishda rolli o‘yinlar, debatlar, muzokara treninglari hamda «tengdoshdan tengdoshga» o‘qitish usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar kursant qizlarga kasbiy vaziyatlarda o‘z fikrini aniq va asosli ifodalash, suhbatdosh pozitsiyasini anglash, kelishmovchiliklarni konstruktiv hal etish hamda jamoaviy qarorlar qabul qilish tajribasini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, fuqarolar bilan muloqot qilish, nizoli vaziyatlarni keskinlashtirmaslik, jabrlanuvchi yoki huquqbuzarning psixologik holatini inobatga olish kabi vazifalar kommunikativ tayyorgarlikning amaliy mazmunini belgilaydi. Shu sababli savollarni to‘g‘ri shakllantirish, faol tinglash, dalillarga asoslangan muloqot olib borish, nizolarni yumshatish hamda kasbiy muloqot chegaralariga rioya etish kabi ko‘nikmalar oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanishi maqsadga muvofiq.

Bu borada Sh.I. Paxrutdinovning jamiyatning tahdidlarga bardoshliligi inson omili, shaxsiy mas’uliyat, muloqot madaniyati va fuqarolik faolligi bilan uzviy bog‘liqligi haqidagi ilmiy qarashlari muhim metodologik ahamiyatga ega. Olimning ta’kidlashicha, «zamonaviy taraqqiyot sharoitida barqarorlikni ta’minlash faqat institutsional mexanizmlar bilan emas, balki yuqori kasbiy tayyorgarlikka, mustaqil fikrlash qobiliyatiga va samarali kommunikativ kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash orqali amalga oshiriladi» [6]. Ushbu yondashuv kursant qizlarda kommunikativ va psixologik kompetensiyalarni innovatsion pedagogik

texnologiyalar asosida rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy samaradorligini oshirishga, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va tahdidlarga bardoshliligini mustahkamlashga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Psixologik barqarorlik kursant qizlarning kelgusidagi xizmat faoliyatiga tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. U hissiy zo‘riqishga chidamlilik bilangina cheklanmay, murakkab vaziyatlarda vazminlikni saqlash, hissiyotlarni boshqarish, shoshilinch va asossiz qarorlardan tiyilish hamda zarur hollarda jamoaviy yordamdan samarali foydalanish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, bajarilgan vazifalarni refleksiv tahlil qilish, muvaffaqiyatli va takomillashtirilishi zarur jihatlarni aniqlash hamda ulardan kelgusidagi faoliyat uchun xulosa chiqarish psixologik tayyorgarlikning muhim ko‘rsatkichidir. Bunday yondashuv kursantlarda xatolarni yashirish emas, balki ularni kasbiy rivojlanish omili sifatida qabul qilish madaniyatini shakllantiradi.

Kommunikativ va psixologik kompetensiyalarning rivojlanish darajasini baholashda faqat yakuniy natijani emas, balki kursantning butun ta’lim jarayonidagi rivojlanish dinamikasini ham inobatga olish zarur. Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta’limning muhim tarkibiy qismi formativ baholash hisoblanadi. An’anaviy yakuniy nazorat muayyan davrdagi bilim darajasini aks ettirishi mumkin, biroq tahliliy fikrlash, muloqot, qaror qabul qilish va refleksiv faoliyatdagi bosqichma-bosqich o‘zgarishlarni to‘liq namoyon eta olmaydi.

Formativ baholash tizimida kuzatuv varaqalari, vaziyatli topshiriqlar, elektron portfoliolar, amaliy mashg‘ulotlar natijalari, o‘zini o‘zi baholash, o‘zaro baholash hamda pedagogning konstruktiv teskari aloqasi o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi. Bunday baholashning asosiy maqsadi kursantni boshqalar bilan taqqoslash emas, balki uning individual kasbiy rivojlanish dinamikasini aniqlash va qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Natijada kursant qaysi kompetensiyalari yetarli darajada shakllanganini, qaysi ko‘nikmalarni takomillashtirishi zarurligini anglaydi. Shu tariqa baholash nazorat vositasidan kasbiy rivojlanishni boshqarish va qo‘llab-quvvatlashning samarali pedagogik mexanizmiga aylanadi.

Formativ baholash natijalarini kursantning individual rivojlanish rejasi bilan uzviy bog‘lashda mentorlik muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Mentorlik kursant qizlarning kasbiy o‘zligini anglashini, tanlagan kasbining ijtimoiy ahamiyatini chuqur tushunishini hamda kelgusidagi xizmat faoliyatiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Tajribali mutaxassis yoki pedagog bilan muntazam hamkorlik nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, kasbiy maqsadlarni aniqlashtirish, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mentor tayyor yechimlarni taklif qiluvchi nazoratchi emas, balki kursantni mustaqil fikrlash, qarorlarini asoslash va o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni zimmasiga olishga yo‘naltiruvchi maslahatchi bo‘lishi lozim. Shu sababli mentorlik

munosabatlari o‘zaro ishonch, kasbiy hurmat, xolislik va muntazam konstruktiv teskari aloqa tamoyillariga asoslanishi zarur. Ayniqsa, kursant qizlarning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan muloqoti mavjud stereotiplarni yengib o‘tish, yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘z kasbiy salohiyatiga ishonchni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan pedagogik texnologiyalarni yagona didaktik tizimga integratsiyalash kursant qizlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning yaxlit modelini ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur model diagnostika, maqsadlarni belgilash, pedagogik ta’sirni amalga oshirish, amaliy sinov, refleksiya va korreksiya bosqichlaridan iborat. Dastlabki bosqichda kursantning nazariy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari, kommunikativ kompetensiyalari, raqamli savodxonligi hamda psixologik barqarorlik darajasi aniqlanadi. Diagnostika natijalari umumiy baho berish uchun emas, balki har bir kursantning individual rivojlanish ehtiyojlarini belgilashga xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda ta’lim natijalari aniq va o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar asosida rejalashtiriladi. Shundan so‘ng keys-stadi, muammoli ta’lim, simulyatsion mashg‘ulotlar, loyiha texnologiyalari, raqamli ta’lim modullari, rolli o‘yinlar va mentorlik kabi pedagogik vositalar kursantlarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda qo‘llaniladi. Shakllangan kompetensiyalar real xizmat faoliyatiga yaqinlashtirilgan ssenariylar asosida sinovdan o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlardan keyingi debrifing, elektron portfolio tahlili va pedagogik teskari aloqa kursantning o‘z faoliyatini refleksiv baholashiga yordam beradi. Aniqlangan ehtiyojlardan kelib chiqib, keyingi topshiriqlarning mazmuni va murakkablik darajasi individual ravishda moslashtiriladi. Shu tariqa kasbiy tayyorgarlik bir martalik ta’limiy ta’sir emas, balki uzluksiz diagnostika, rivojlantirish va korreksiyaga asoslangan dinamik pedagogik jarayon sifatida tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, kursant qizlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish alohida pedagogik metodlarni qo‘llash bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni, genderga sezgir pedagogik muhit, muammoli ta’lim, keys-stadi, simulyatsion mashg‘ulotlar, raqamli texnologiyalar, kommunikativ treninglar, formativ baholash, refleksiya va mentorlikning o‘zaro integratsiyalashgan tizimini talab etadi. Mazkur komponentlarning uyg‘un qo‘llanilishi nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga samarali transferini ta’minlab, kursantlarning kasbiy tajribasini izchil shakllantiradi.

Kursant qizlarni tayyorlashda genderga sezgir yondashuv kasbiy talablarni soddalashtirishni emas, balki ularning salohiyatini xolis baholash va rivojlantirish uchun teng pedagogik imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv kursantlarda tashabbuskorlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash, yetakchilik, kasbiy mas’uliyat hamda o‘z kuchiga ishonchni rivojlantiradi. Shu bilan birga, barcha kursantlar uchun yagona kasbiy standartlarning saqlanishi ta’lim sifati va xizmat faoliyatiga tayyorgarlikning yuqori darajasini kafolatlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ularning yangiligi yoki texnik murakkabligi bilan emas, balki kursantning xizmat vaziyatlarini tahlil qilish, huquqiy va axloqiy me'yorlarni hisobga olgan holda asoslangan qarorlar qabul qilish, samarali muloqot o'rnatish va o'z kasbiy faoliyati uchun mas'uliyatni his etish kompetensiyalarini qay darajada rivojlantirishi bilan belgilanadi. Shu sababli har bir innovatsion pedagogik vosita aniq kasbiy kompetensiyalar, kutilayotgan ta'lim natijalari va ishonchli baholash mezonlari bilan uzviy bog'langan holda qo'llanilishi zarur.

Taklif etilgan pedagogik modelni amaliyotga joriy etish kursant qizlarning individual rivojlanishini muntazam monitoring qilish, kasbiy va psixologik qiyinchiliklarni erta aniqlash hamda ta'lim mazmunini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Natijada huquqiy bilimlarni puxta egallagan, ularni murakkab va o'zgaruvchan xizmat sharoitlarida samarali qo'llay oladigan, ma'naviy va psixologik barqaror, raqamli kompetensiyalarga ega, kommunikativ jihatdan yetuk hamda mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur pedagogik asos yaratiladi. Shunday qilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar kursant qizlarning o'quv natijalarini yaxshilash vositasigina emas, balki ularning kasbiy yetukligi, xizmat faoliyatiga ongli tayyorgarligi va uzoq muddatli professional rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022, 21-oktabr). Maqsadimiz – Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol shaxslar sifatida voyaga yetkazish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. https://president.uz/uz/lists/view/5635

2. UNESCO-UNEVOC. (2026). Gender-responsive pedagogy. TVETipedia Glossary. https://connect.unevoc.unesco.org/home/+TVETipedia+Glossary/lang=en/show=term/term=Gender-responsive+pedagogy

3. Xaitova, Yu. S. (2021). Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijodiy-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish (Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.

4. Seliuk, V. (2023). Use of pedagogical technologies tools in the professional training of future officers in higher military educational institutions. Pedagogical Discourse, (34), 88–94. https://doi.org/10.31475/ped.dys.2023.34.13

5. Tovkanets, O., Popova, L., Ivanytska, N., Kmit, O., & Paska, T. (2024). Innovative technologies in the development of teachers' professional competence. *Revista Eduweb*, **18**(4), 49–67. https://doi.org/10.46502/issn.1856-7576/2024.18.04.4

6. Pakhrutdinov, S. (2019). Uzbekistan: Responsibility for sustainable development and intensity of rapid changes. Advances in Social Sciences Research Journal, **6**(8), 233–239. https://doi.org/10.14738/assrj.68.6918

7. Pakhrutdinov, S. I. (2020). Threat: Theory and Practice. Modern Factors in the Formation of a Threat-Resistant Society. OmniScriptum Publishing.

8. Pakhrutdinov, S. I. (2022). Strengthening regional and international cooperation in order to ensure security and stability in the Central Asian region. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, **2**(12), 18–24.

9. Пахрутдинов, Ш. И. (1998). Таҳдид: назария ва амалиёт. Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти.

10. Пахрутдинов, Ш. И. (2017). Миллий тараққиёт ва мафкуравий хавфсизлик масалалари. Тошкент.

11. Pakhrutdinov, S. (2023). Democratic society and responsibility of leaders in New Uzbekistan. European Journal of Humanities and Educational Advancements, **4**(4), 156–159.

12. Pakhrutdinov, S. I. (2022). Strengthening regional and international cooperation in order to ensure security and stability in the Central Asian region. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, **2**(12), 18–24.

13. Пахрутдинов, С. И. (2025). Угрозоустойчивое общество как фактор развития государства и общества. *Вопросы политологии*, **15**(7), 2922–2932.

14. Пахрутдинов, Ш., Жўраев, Т. ва бошқ. (2009). *Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

15. Жўраев, Т., & Пахрутдинов, Ш. (2008). Дунёвий давлатчилик ва сиёсийлашган динийлик: азалий мухолифат. Тошкент.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 159.922.8:331.54

Bashirov Botirbek Abduvohobovich,
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i

O‘SMIRLARDA MUSTAQIL KASB TANLASHGA TA’SIR ETUVCHI SHAXSIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlarning mustaqil kasb tanlashiga ta’sir etuvchi shaxsiy-psixologik omillar nazariy-tahliliy jihatdan yoritilgan. Kasbiy qaror qabul qilishda o‘ziga samaradorlik, motivatsiya, kasbiy qiziqishlar, shaxs xususiyatlari, kasbiy identifikatsiya hamda kasbiy xavotirning o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari mustaqil kasb tanlashni tashqi ta’sirlardan butunlay xoli qaror sifatida emas, balki o‘smirning o‘z imkoniyatlarini anglash, kasbiy axborotni izlash, muqobil variantlarni solishtirish va yakuniy qaror uchun mas’uliyatni qabul qilish qobiliyati sifatida tushunish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: o‘smir, kasb tanlash, mustaqil kasbiy tanlov, shaxsiy-psixologik omillar, o‘ziga samaradorlik, motivatsiya, kasbiy qiziqish, shaxs xususiyatlari, kasbiy identifikatsiya, kasbiy xavotir.

ЛИЧНОСТНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА САМОСТОЯТЕЛЬНЫЙ ВЫБОР ПРОФЕССИИ ПОДРОСТКАМИ

Аннотация. В статье рассматриваются личностно-психологические факторы, влияющие на самостоятельный выбор профессии подростками. На основе научных источников анализируется роль самоэффективности в принятии карьерных решений, мотивации, профессиональных интересов, личностных особенностей, профессиональной идентичности и карьерной тревожности. Результаты показывают, что самостоятельность профессионального выбора целесообразно понимать не как полную изоляцию подростка от внешнего влияния, а как способность осознавать собственные возможности, искать профессиональную информацию, сопоставлять альтернативы и принимать ответственность за окончательное решение.

Ключевые слова: подросток, выбор профессии, самостоятельный профессиональный выбор, личностно-психологические факторы, самоэффективность, мотивация, профессиональные интересы, личностные особенности, профессиональная идентичность, карьерная тревожность.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

PERSONAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING ADOLESCENTS' INDEPENDENT CAREER CHOICE

Abstract. The article examines personal and psychological factors influencing adolescents' independent career choice. Drawing on scientific literature, it analyzes career decision-making self-efficacy, motivation, vocational interests, personality traits, vocational identity, and career anxiety. The findings suggest that independent career choice should not be understood as a decision made in complete isolation from external influence. Rather, it reflects an adolescent's ability to understand personal capacities, seek career information, compare alternatives, and assume responsibility for the final decision.

Keywords: adolescent, career choice, independent career choice, personal and psychological factors, self-efficacy, motivation, vocational interests, personality traits, vocational identity, career anxiety.

O‘smirlik davri shaxs hayotida kelajak bilan bog‘liq muhim qarorlar qabul qilinadigan va kasbiy yo‘nalish shakllanadigan eng mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda o‘quvchi ta’lim yo‘nalishi, kasb tanlovi va kelgusidagi mehnat faoliyati haqida ongli ravishda o‘ylay boshlaydi. Biroq kasb tanlash faqat mavjud kasblar orasidan birini tanlash jarayoni emas. Bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, unda o‘smir o‘zining qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari va imkoniyatlarini tanlanayotgan kasbning talablari bilan qiyoslaydi. Shu sababli kasbiy tanlovni shaxsning ichki psixologik resurslari va individual xususiyatlaridan ajratgan holda o‘rganish mumkin emas.

Kasb tanlash muammosi psixologiya fanida turli nazariy yondashuvlar doirasida keng tadqiq etilgan. A. Banduraning o‘ziga samaradorlik (self-efficacy) konsepsiyasiga ko‘ra, shaxsning muayyan vazifani muvaffaqiyatli bajara olishiga bo‘lgan ishonchi uning faoliyatni boshlashi, unga sarflaydigan sa’y-harakati hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tishdagi qat’iyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. Ushbu nazariya kasbiy qaror qabul qilish jarayonini tushuntirishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar o‘smir kasbiy ma’lumotlarni izlash, muqobil variantlarni tahlil qilish yoki mustaqil qaror qabul qilishga o‘zini qodir deb hisoblamasa, u kasbiy tanlovni kechiktirishi yoki boshqalarning fikriga haddan tashqari tayanishi mumkin.

R. W. Lent, S. D. Brown va G. Hackett tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv kasbiy rivojlanish nazariyasida kasbiy qiziqishlar, kasbiy tanlov va faoliyat natijalari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur modelga ko‘ra, o‘ziga samaradorlik, kutilayotgan natijalar va shaxsiy maqsadlar kasbiy xulq-atvorni

belgilovchi asosiy kognitiv omillar hisoblanadi [2]. Shu bilan birga, nazariyada oila muhiti, ta'lim tizimi va ijtimoiy sharoitlarning o'smirning kasbiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri ham alohida ta'kidlanadi. Ushbu omillar kasbiy faollikni rag'batlantirishi yoki, aksincha, uning rivojlanishini cheklashi mumkin.

J. L. Hollandning tipologik yondashuvi esa shaxsning qiziqishlari bilan kasbiy muhit o'rtasidagi moslikka asoslanadi. Muallif realistik, intellektual (tadqiqotchilik), artistik, ijtimoiy, tadbirkorlik va konvensional tiplarni ajratib ko'rsatadi [3]. Ushbu tipologiya o'smirga muayyan kasbni tavsiya etishdan ko'ra, uning qaysi faoliyat turi va mehnat muhitiga ko'proq moyilligini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan Holland modeli kasbiy yo'naltirish amaliyotida samarali psixodiagnostik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Nazariy manbalar tahlili asosida o'smirlarning kasbiy tanloviga ta'sir etuvchi omillar bir necha asosiy yo'nalishlarga ajratildi. Ulardan eng muhimlaridan biri kasbiy qaror qabul qilishga doir o'ziga samaradorlikdir. Mazkur tushuncha o'smirning kasbiy ma'lumotlarni izlash, o'z imkoniyatlarini real baholash, kasbiy maqsadlarni belgilash, muqobil variantlarni tahlil qilish va yakuniy qarorni mustaqil qabul qilishga bo'lgan ishonchini ifodalaydi. Uni umumiy o'ziga ishonch bilan aynanlashtirish to'g'ri emas. Chunki o'quvchi kundalik hayotda faol, tashabbuskor va o'ziga ishongan bo'lishi mumkin, biroq kasbiy tanlov masalasida ikkilanishi yoki o'z imkoniyatlariga shubha bilan qarashi ehtimoldan xoli emas. Shu bois kasbiy qaror qabul qilishga doir o'ziga samaradorlikni kasbiy rivojlanishning mustaqil psixologik omili sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

G. V. Gushue va hammualliflari 72 nafar yuqori sinf o'quvchisi ishtirokida o'tkazgan tadqiqotda kasbiy qaror qabul qilishga doir o'ziga samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda kasbiy "Men" konsepsiyasi aniqroq shakllanganligi hamda kasbiy izlanish faolligi yuqoriroq ekanligini aniqlaganlar [4]. Shuningdek, I. Gianakos tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy tanlov bo'yicha qat'iy qarorga kelgan yoki bir nechta kasbiy variantni faol o'rganayotgan respondentlarda kasbiy qaror qabul qilishga doir o'ziga samaradorlik darajasi an'anaviy yoki beqaror tanlov strategiyasiga ega respondentlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan [5]. Mazkur natijalar o'smirning kasbiy mustaqilligini faqat ma'lum bir kasbni tanlay olishi bilan emas, balki kasbiy axborotni izlash, muqobil variantlarni tahlil qilish, zarur hollarda dastlabki qarorni qayta ko'rib chiqish va ongli tanlovni amalga oshirish qobiliyati bilan ham baholash lozimligini ko'rsatadi.

Kasbiy tanlovga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri motivatsiyaning mazmunidir. O'smirning kasbni qanday sabab va maqsadlar asosida tanlashi uning

qarorining barqarorligi hamda shaxsiy mazmunini belgilaydi. Faoliyat mazmuniga qiziqish, o‘zini rivojlantirish ehtiyoji va shaxsiy maqsadlarga tayangan ichki motivatsiya asosidagi tanlov tashqi bosim, ijtimoiy stereotiplar yoki kasb nufuziga asoslangan tanlovdan psixologik jihatdan sezilarli farq qiladi.

R. Mbanga, C. F. Ratelle va S. Duchesne 384 nafar o‘quvchi ishtirokida to‘rt yil davomida o‘tkazgan longityud tadqiqotida kasbiy ikkilanishning to‘rtta rivojlanish trayektoriyasini aniqlaganlar [6]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning 55 foizida kasbiy ikkilanish past va barqaror darajada saqlangan bo‘lsa, 22 foizida o‘rtacha yuqori va barqaror, 10 foizida o‘zgaruvchan, 13 foizida esa davriy ravishda kuchayib boruvchi surunkali-intermittent trayektoriya kuzatilgan. Mualliflar kasbiy ikkilanish ichki motivatsiya va identifikatsiyalashgan boshqaruv bilan salbiy, tashqi boshqaruv hamda amotivatsiya bilan esa ijobiy bog‘liqlikka ega ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu natijalar kasb tanlash jarayonidagi ikkilanish barcha o‘smirlarda bir xil kechmasligini, uning individual psixologik xususiyatlar va motivatsion omillar bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Kasbiy qiziqish hamda shaxs va kasbiy muhit o‘rtasidagi moslik kasbiy tanlovning muhim psixologik omillaridan biridir. J. L. Holland tipologiyasiga ko‘ra, shaxsning qaysi faoliyat turiga moyilligi, qanday vazifalarni bajarishdan qoniqish olishi va qaysi mehnat muhitida o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olishi kasbiy yo‘nalishni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, insonlar bilan ishlash, ularga yordam berish va muloqotga yuqori qiziqish ijtimoiy yo‘nalishdagi kasblarga moyillikni bildirishi mumkin. Tahliliy fikrlash, muammolar sabablarini aniqlash va ilmiy izlanishga qiziqish esa tadqiqotchilik tipiga xos xususiyatlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Holland tipologiyasi shaxsning kelajak kasbini qat’iy belgilab bermaydi. Psixologik diagnostika natijalaridan "shaxs faqat muayyan kasb egasi bo‘lishi kerak" degan xulosa chiqarish ilmiy jihatdan asoslanmagan. Test natijalari kasbiy imkoniyatlarni aniqlash, muqobil variantlarni tahlil qilish hamda o‘smirning o‘z qiziqish va imkoniyatlarini chuqurroq anglashiga xizmat qiluvchi yordamchi vosita sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy tanlov jarayoniga ta’sir etuvchi omillar qatorida individual shaxs xususiyatlari ham alohida o‘rin tutadi. Tartiblilik, mas’uliyatlilik, yangilikka ochiqlik, ijtimoiy faollik va emotsional barqarorlik kabi sifatlar kasbiy axborotni izlash, uni tahlil qilish hamda qaror qabul qilish jarayonining samaradorligini belgilaydi. R. O. Hartman va N. E. Betz tomonidan besh omilli shaxs modeli asosida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, vijdonlilik va ekstraversiya ayrim kasbiy o‘ziga samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan ijobiy, nevrotizm esa ularning aksariyati

bilan salbiy bog‘liqlikka ega [7]. Shuningdek, tajribaga ochiqlik ijodiy va intellektual faoliyatga oid kasbiy o‘ziga samaradorlikning yuqori darajasi bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan.

O. Söner va O. Yılmaz Istanbul shahridagi 710 nafar yuqori sinf o‘quvchisi ishtirokida o‘tkazgan tadqiqotida shaxs xususiyatlari, kasbiy xavotir hamda kasbiy qaror qabul qilishga doir o‘ziga samaradorlik o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini aniqlaganlar [8]. Tadqiqot natijalari shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini kasbiy tanlov jarayonini tushuntirishda muhim omil sifatida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq ayrim shaxs xususiyatlarini muayyan kasb bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lash ilmiy jihatdan asoslanmagan. Masalan, introvert shaxs faqat yakka tartibdagi faoliyatni, ekstravert shaxs esa faqat odamlar bilan ishlashni talab qiladigan kasblarni tanlashi kerak, degan qarash zamonaviy psixologik tadqiqotlar bilan tasdiqlanmaydi.

Kasbiy identifikatsiya va o‘zini anglash ham kasbiy tanlovning muhim psixologik omillaridan biridir. O‘smir o‘zining qiziqishlari, qobiliyatlari, qadriyatlari hamda kuchli tomonlari haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lgani sari kasbiy variantlarni baholash uchun ichki mezonlari ham shakllanib boradi. Aksincha, o‘z imkoniyatlarini noaniq baholaydigan o‘smir kasbiy tanlov jarayonida tashqi fikr va bosimlarga haddan tashqari qaram bo‘lib qolishi mumkin.

Shu bilan birga, kasbiy identifikatsiyani o‘zgarmas psixologik holat sifatida talqin etish to‘g‘ri emas. O‘smirlik davrida "kasbiy Men" konsepsiyasi yangi bilimlar, amaliy tajriba, ijtimoiy muloqot, muvaffaqiyat va qiyinchiliklar ta’sirida bosqichma-bosqich shakllanadi hamda takomillashib boradi. Shu sababli kasbiy sinovlar, mutaxassislar faoliyatini kuzatish, turli kasblarning mazmuni bilan yaqindan tanishish va reflektiv suhbatlar o‘smirlarning kasbiy o‘zini anglashini rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi.

Kasbiy xavotir va kasbiy ikkilanish ham kasb tanlash jarayonining tabiiy psixologik tarkibiy qismlaridan biridir. Kelajak bilan bog‘liq noaniqlik, noto‘g‘ri tanlov qilishdan qo‘rqish, kasblar haqidagi ma’lumotlarning yetarli emasligi yoki o‘z imkoniyatlarini real baholay olmaslik o‘smirda emotsional zo‘riqishni yuzaga keltirishi mumkin. Muayyan darajadagi xavotir kasbiy axborotni faol izlash va tanlovni puxta o‘ylashga rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq xavotir qaror qabul qilish jarayonini izdan chiqarib, kasbiy tanlovni doimiy ravishda kechiktirish yoki undan qochishga olib kelsa, psixologik maslahat va kasbiy yo‘naltirish xizmatlarini tashkil etish zarur bo‘ladi.

Kasbiy tanlov jarayonida tashqi ta'sirlar sharoitida shaxsiy agentlikning shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. J. Dietrich va B. Kracke 359 nafar nemis o'smiri ishtirokida olib borgan tadqiqotida ota-onalarning kasbiy rivojlanishga oid xulq-atvorini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha aralashuv va yetarli ishtirok etmaslik yo'nalishlari bo'yicha tahlil qilganlar [9]. Tadqiqot natijalari ota-onalarning qo'llab-quvvatlovchi munosabati kasbiy izlanish faolligi bilan ijobiy bog'liqlikka ega ekanini, ortiqcha nazorat yoki jarayonga befarq munosabat esa kasbiy qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni kuchaytirishini ko'rsatgan.

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, o'smirning mustaqil kasbiy tanlovini qo'llab-quvvatlash uni muammolar bilan yolg'iz qoldirishni anglatmaydi. Aksincha, ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning vazifasi o'smir o'rniga qaror qabul qilish emas, balki unga ishonchli axborot manbalarini topish, kasbiy imkoniyatlarni tahlil qilish va ongli tanlovni amalga oshirish jarayonida ko'maklashishdan iboratdir. Bunday yondashuv o'smirning shaxsiy mas'uliyatini, kasbiy o'ziga samaradorligini va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy tanlov mustaqilligi ko'p omilli va murakkab psixologik hodisa bo'lib, u o'ziga samaradorlik, motivatsiya, kasbiy qiziqishlar, individual shaxs xususiyatlari, kasbiy identifikatsiya hamda emotsional holat kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu bois o'smirlarni kasbga yo'naltirish jarayonini faqat bitta psixologik test yoki qisqa suhbat asosida tashkil etish yetarli emas. Kasbiy maslahat berish jarayoni shaxsning individual xususiyatlarini kompleks baholashga asoslanishi lozim.

Kasbiy qaror qabul qilishga doir o'ziga samaradorlik o'smirning kasbiy faolligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biridir. O'zini kasbiy axborotni izlash, muqobil variantlarni baholash va mustaqil qaror qabul qilishga qodir deb hisoblagan o'smir kasbiy izlanishlarda faolroq ishtirok etadi. Biroq bunday ishonch faqat og'zaki rag'batlantirish orqali emas, balki kasbiy vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish, amaliy tajriba orttirish va erishilgan natijalarni baholash orqali shakllanadi.

Kasbiy motivatsiyani baholashda ham ichki va tashqi omillarni qat'iy qarama-qarshi qo'yish maqsadga muvofiq emas. Ota-onalar tavsiyasi, jamiyatdagi kasb nufuzi yoki iqtisodiy omillar kasbiy tanlovga tabiiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Muhimi, o'smir ushbu tashqi omillarni o'zining shaxsiy qiziqishlari, qadriyatlari va uzoq muddatli maqsadlari bilan qay darajada uyg'unlashtira olishidir. Agar tashqi tavsiyalar shaxs tomonidan ongli ravishda qabul qilinib, uning ichki motivatsiyasiga aylansa, bunday kasbiy tanlovni nomustaqil deb baholash ilmiy jihatdan asosli emas.

Shaxsning individual xususiyatlarini tahlil qilishda ham ehtiyotkor yondashuv talab etiladi. Temperament va xarakter kasbiy yo‘nalishni qat’iy belgilamaydi, balki shaxsning mehnat muhitiga moslashuvi, noaniqlikni qabul qilishi, muloqot uslubi va faoliyatni tashkil etish xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Shu sababli psixologik maslahat jarayonida shaxs xususiyatlari kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar, motivatsiya hamda mavjud ta’lim imkoniyatlari bilan uyg‘un holda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Mbanga va hammualliflari tomonidan o‘tkazilgan to‘rt yillik longityud tadqiqot natijalari kasbiy ikkilanish barcha o‘smirlarda bir xil rivojlanmasligini ko‘rsatadi [10]. Ayrim o‘smirlarda bu holat kasbiy rivojlanishning tabiiy bosqichi sifatida qisqa muddat davom etsa, boshqalarida uzoq muddat saqlanib qolishi yoki davriy ravishda kuchayishi mumkin. Mazkur natijalar barcha o‘smirlarga bir xil kasbga yo‘naltirish dasturini qo‘llash yetarli samara bermasligini, individual yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim o‘smirlar uchun kasblar va ta’lim yo‘nalishlari haqidagi ma’lumotlarni kengaytirishning o‘zi kifoya qilsa, boshqalarida o‘z qobiliyatlarini baholash, kasbiy o‘ziga samaradorlikni rivojlantirish yoki kasbiy xavotirni kamaytirishga qaratilgan psixologik yordam ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ba’zi hollarda esa asosiy muammo ota-onalar kutishlari, ijtimoiy bosim yoki noto‘g‘ri tanlov qilishdan qo‘rqish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois psixologik yordamning mazmuni o‘smirning individual ehtiyojlari va qiyinchiliklarining xususiyatidan kelib chiqib belgilanishi lozim.

O‘rganilgan ilmiy manbalar o‘smirlarda mustaqil kasb tanlash murakkab, ko‘p bosqichli va ko‘p omilli psixologik jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Kasbiy qaror qabul qilishga doir o‘ziga samaradorlik, motivatsiya, kasbiy qiziqishlar, individual shaxs xususiyatlari, kasbiy identifikatsiya, kasbiy xavotir hamda tashqi ta’sirlar sharoitida shaxsiy agentlik mazkur jarayonning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Psixologik nuqtai nazardan mustaqil kasbiy tanlov atrofdagilar fikrini inkor etish emas, balki kasblar va o‘z imkoniyatlari haqidagi axborotni mustaqil izlash, uni tanqidiy tahlil qilish, muqobil variantlarni shaxsiy mezonlar asosida baholash hamda qabul qilingan qaror uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirish amaliyotining asosiy vazifasi o‘smirga tayyor kasbni tavsiya etish emas, balki uning kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Shu bois psixologik diagnostika qat’iy hukm chiqarish vositasi sifatida emas, balki o‘smirning o‘zini anglashini chuqurlashtirish va ongli kasbiy tanlovni qo‘llab-quvvatlovchi ilmiy asoslangan vosita sifatida qo‘llanishi

zarur. Individual yondashuv, kasbiy o‘ziga samaradorlikni rivojlantirish, motivatsion omillarni mustahkamlash va kasbiy xavotirni kamaytirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yordam esa o‘smirlarning ongli va mustaqil kasbiy tanlovini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura A. Self-efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change // *Psychological Review*. – 1977. – Vol. 84, No. 2. – P. 191–215. https://doi.org/10.1037/0033-295X.84.2.191

2. Lent R. W., Brown S. D., Hackett G. Toward a Unifying Social Cognitive Theory of Career and Academic Interest, Choice, and Performance // *Journal of Vocational Behavior*. – 1994. – Vol. 45, No. 1. – P. 79–122. https://doi.org/10.1006/jvbe.1994.1027

3. Holland J. L. Exploring Careers with a Typology: What We Have Learned and Some New Directions // *American Psychologist*. – 1996. – Vol. 51, No. 4. – P. 397–406. https://doi.org/10.1037/0003-066X.51.4.397

4. Gianakos I. Patterns of Career Choice and Career Decision-Making Self-Efficacy // *Journal of Vocational Behavior*. – 1999. – Vol. 54, No. 2. – P. 244–258. https://doi.org/10.1006/jvbe.1998.1668

5. Creed P. A., Prideaux L.-A., Patton W. Antecedents and Consequences of Career Decisional States in Adolescence // *Journal of Vocational Behavior*. – 2005. – Vol. 67, No. 3. – P. 397–412. https://doi.org/10.1016/j.jvb.2004.08.008

6. Gushue G. V., Scanlan K. R. L., Pantzer K. M., Clarke C. P. The Relationship of Career Decision-Making Self-Efficacy, Vocational Identity, and Career Exploration Behavior in African American High School Students // *Journal of Career Development*. – 2006. – Vol. 33, No. 1. – P. 19–28. https://doi.org/10.1177/0894845305283004

7. Hartman R. O., Betz N. E. The Five-Factor Model and Career Self-Efficacy: General and Domain-Specific Relationships // *Journal of Career Assessment*. – 2007. – Vol. 15, No. 2. – P. 145–161. https://doi.org/10.1177/1069072706298011

8. Dietrich J., Kracke B. Career-Specific Parental Behaviors in Adolescents’ Development // *Journal of Vocational Behavior*. – 2009. – Vol. 75, No. 2. – P. 109–119. https://doi.org/10.1016/j.jvb.2009.03.005

9. Söner O., Yılmaz O. How Do Personality Traits Influence Adolescents’ Career Anxiety and Self-Efficacy in Making Career Decisions? // *Journal of Teacher Education and Lifelong Learning*. – 2022. – Vol. 4, No. 2. – P. 82–95.

10. Mbanga R., Ratelle C. F., Duchesne S. Predicting Trajectories of Vocational Indecision from Motivational Profiles in Early Adolescence // *BMC Psychology*. – 2024. – Vol. 12. – Art. 247. https://doi.org/10.1186/s40359-024-01747-0

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 159.922.8:159.947.5

Islamova Sayara Sodikovna,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

PROKRASTINATSIYA FENOMENINING TARIXI VA ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada prokrastinatsiya fenomenining tarixiy shakllanishi, zamonaviy psixologik talqinlari hamda o‘smirlik davridagi namoyon bo‘lish xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Prokrastinatsiya shaxsning vazifalarni ongli ravishda kechiktirishi, vaqtni samarasiz tashkil etishi va salbiy oqibatlarni bilgan holda harakatni ortga surishi sifatida izohlanadi. Maqolada xorijiy va mahalliy psixologik adabiyotlar asosida prokrastinatsiyaning kognitiv, emotsional, motivatsion va ijtimoiy omillari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Prokrastinatsiya, o‘smirlik davri, o‘zini boshqarish, motivatsiya, akademik kechiktirish, emotsional regulyatsiya, vaqtni boshqarish.

ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФЕНОМЕНА ПРОКРАСТИНАЦИИ

Аннотация. В данной статье теоретически анализируются история формирования феномена прокрастинации, его современные психологические трактовки, а также особенности проявления в подростковом возрасте. Прокрастинация рассматривается как сознательное откладывание выполнения задач, неэффективная организация времени и задержка действий несмотря на осознание возможных негативных последствий. На основе зарубежной и отечественной психологической литературы раскрываются когнитивные, эмоциональные, мотивационные и социальные факторы прокрастинации.

Ключевые слова: Прокрастинация, подростковый возраст, саморегуляция, мотивация, академическое откладывание, эмоциональная регуляция, управление временем.

THE HISTORY AND CONTEMPORARY INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF PROCRASTINATION

Abstract. This article theoretically analyzes the historical development of procrastination, its modern psychological interpretations, and its specific manifestations during adolescence. Procrastination is described as the conscious delay of tasks, ineffective time organization, and postponement of actions despite awareness of possible negative consequences. Based on foreign and local

psychological literature, the article discusses cognitive, emotional, motivational, and social factors of procrastination.

Keywords: Procrastination, adolescence, self-regulation, motivation, academic delay, emotional regulation, time management.

Prokrastinatsiya zamonaviy psixologiyada shaxsning o‘z faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish bilan bog‘liq eng dolzarb psixologik muammolardan biri sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi yillarda ushbu fenomen nafaqat psixologiya, balki pedagogika, ta’lim menejmenti va neyropsixologiya sohalarida ham keng tadqiq etilmoqda. Bunga prokrastinatsiyaning shaxsning akademik muvaffaqiyati, kasbiy rivojlanishi, ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sabab bo‘lmoqda. Vazifalarni muntazam ravishda kechiktirish o‘quv faoliyati samaradorligining pasayishi, stress darajasining ortishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning susayishi va emotsional zo‘riqishning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois prokrastinatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash hamda uning psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy psixologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur muammo ayniqsa o‘smirlik davrida alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki aynan ushbu yosh bosqichida shaxsning mustaqilligi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati, kasbiy va hayotiy maqsadlari, o‘quv motivatsiyasi hamda emotsional barqarorligi faol shakllanadi. O‘smirlar oldida akademik yuklamaning ortishi, mustaqil qaror qabul qilish zarurati, tengdoshlar ta’sirining kuchayishi va raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi vazifalarni kechiktirish holatlarining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, uy vazifalarini bajarishni ortga surish, imtihonlarga tayyorgarlikni so‘nggi muddatga qoldirish, vaqtni samarasiz taqsimlash, ijtimoiy tarmoqlar yoki kompyuter o‘yinlariga ortiqcha vaqt ajratish kabi holatlar o‘smirlar orasida keng uchraydi. Bunday vaziyatlar nafaqat ta’lim natijalariga, balki shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mas’uliyat hissi va psixologik farovonligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Prokrastinatsiyani oddiy dangasalik, intizomsizlik yoki mehnatdan qochish bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu fenomenning murakkab psixologik tabiatga ega ekanligini ko‘rsatadi. U shaxsning kognitiv jarayonlari, emotsional holati, motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati, vaqtni idrok etishi hamda individual xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘plab hollarda shaxs bajarilishi zarur bo‘lgan vazifaning muhimligini anglagan bo‘lsa-da, turli ichki psixologik to‘siqlar sababli uni kechiktiradi. Natijada aybdorlik hissi, xavotir, stress va o‘z faoliyatidan qoniqmaslik yuzaga keladi. Shu sababli prokrastinatsiyani shaxsning motivatsion va emotsional o‘zini boshqarish tizimidagi murakkab jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Prokrastinatsiya fenomenining tarixiy ildizlari qadimgi falsafiy qarashlargacha borib taqaladi. Antik davr mutafakkirlari insonning zarur ishni kechiktirishi, iroda

zaifligi hamda o‘z manfaatiga zid ravishda harakat qilishi masalalarini axloqiy va irodaviy nuqtayi nazardan tahlil qilganlar. Xususan, Aristotel va boshqa antik faylasuflar insonning oqilona qaror qabul qila turib, uni amalga oshirmasligi hodisasini akrasiya (iroda zaifligi) tushunchasi orqali izohlashga harakat qilganlar. Keyinchalik ushbu masala falsafa doirasidan chiqib, psixologiya fanining mustaqil tadqiqot obyektiga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab prokrastinatsiya shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishi, motivatsiyasi, vaqtni rejalashtirishi, qaror qabul qilishi va emotsional regulyatsiyasi bilan bog‘liq ko‘p qirrali psixologik hodisa sifatida izchil o‘rganila boshlandi. Zamonaviy talqinda esa prokrastinatsiya shaxsning vazifani bajarish zarurligini anglagan holda uni ongli ravishda kechiktirishi hamda buning salbiy oqibatlarini oldindan bilishiga qaramay, harakatni ortga surishi bilan tavsiflanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda prokrastinatsiya turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. Ferrari, Johnson va McCown ushbu fenomenni vazifadan qochish, qaror qabul qilishni kechiktirish hamda shaxsiy mas’uliyatni vaqtincha chetlab o‘tish bilan bog‘laydilar. P. Steel esa prokrastinatsiyani o‘zini o‘zi boshqarishdagi muvaffaqiyatsizlik sifatida talqin qilib, uning yuzaga kelishida impulsivlik, past motivatsiya, vazifaning yoqimsizligi va vaqtni noto‘g‘ri baholash kabi omillar muhim rol o‘ynashini ilmiy asoslaydi. S. Klingsieck prokrastinatsiyani faqat vaqtni boshqarishdagi nuqson emas, balki shaxsning kognitiv, emotsional, motivatsion va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali psixologik fenomen sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuvlar prokrastinatsiyani bir tomonlama emas, balki shaxsning ichki va tashqi omillarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik jarayon sifatida tushunish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, prokrastinatsiya fenomenining tarixiy rivojlanish bosqichlari, zamonaviy ilmiy talqinlari hamda o‘smirlik davridagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar o‘smirlarda o‘zini o‘zi boshqarish, vaqtni samarali rejalashtirish, o‘quv motivatsiyasini mustahkamlash hamda prokrastinatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sirois va Pychyl prokrastinatsiyani, avvalo, emotsional regulyatsiya muammosi sifatida talqin qiladilar. Ularning yondashuviga ko‘ra, shaxs murakkab, noxush yoki yuqori mas’uliyat talab qiladigan vazifaga duch kelganda salbiy hissiyotlardan vaqtincha xalos bo‘lish maqsadida uni bajarishni kechiktiradi. Bunday kechiktirish qisqa muddat davomida emotsional yengillik hissini yuzaga keltirsa-da, keyinchalik aybdorlik, xavotir, stress, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik va psixologik zo‘riqishning kuchayishiga olib keladi. Shu tariqa prokrastinatsiya salbiy emotsiyalarni kamaytirishga qaratilgan vaqtinchalik strategiya bo‘lsa-da, uzoq muddatda shaxsning psixologik holati va faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir

ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv o‘smirlik davri uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bu yosh bosqichida emotsional barqarorlik, o‘zini o‘zi boshqarish va stressga bardoshlilik mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Natijada o‘smirlar noxush yoki murakkab vazifalarni bajarish o‘rniga ularni ortga surishga ko‘proq moyillik bildiradilar.

Mahalliy psixologik adabiyotlarda prokrastinatsiya fenomeni mustaqil ilmiy muammo sifatida nisbatan kam tadqiq etilgan bo‘lsa-da, o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, o‘quv faoliyati motivatsiyasi, iroda sifatlari, mas’uliyat hissi hamda shaxs rivojlanishiga oid masalalar keng yoritilgan. E. G‘oziyevning ontogenez psixologiyasiga oid ilmiy qarashlarida o‘smirlik davri shaxs taraqqiyotining eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda mustaqillikka intilish, o‘zini o‘zi baholash, tengdoshlar fikriga yuqori darajada e’tibor qaratish, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish hamda o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Z. Nishanova va hammualliflarning rivojlanish hamda pedagogik psixologiyaga oid tadqiqotlarida esa o‘smirlarning bilish jarayonlari, o‘quv motivatsiyasi, ta’limga munosabati va tarbiyaviy omillarning shaxs rivojlanishiga ta’siri atroflicha tahlil qilingan. Ushbu ilmiy qarashlar prokrastinatsiyani o‘smir shaxsining motivatsion va o‘zini boshqarish xususiyatlari bilan bog‘liq holda izohlash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘smirlik davrida prokrastinatsiya, asosan, akademik faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Jumladan, uy vazifalarini bajarishni kechiktirish, nazorat ishlari va imtihonlarga tayyorgarlikni oxirgi muddatga qoldirish, dars mashg‘ulotlarida diqqatning tez chalg‘ishi, mobil telefon va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha vaqt ajratish akademik prokrastinatsiyaning eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishlari hisoblanadi. Bunday holatlar ko‘pincha dangasalik yoki intizomsizlik bilan emas, balki vazifaga nisbatan qiziqishning pastligi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, o‘z imkoniyatlariga ishonchsizlik, rejalashtirish va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarining yetarli rivojlanmaganligi, shuningdek, emotsional zo‘riqish va xavotir bilan izohlanadi. Shu sababli akademik prokrastinatsiyani baholashda uning psixologik sabablarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Prokrastinatsiya o‘smir shaxsining o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zini boshqarish ko‘nikmalari rivojlangan o‘smir aniq maqsad qo‘ya oladi, vaqtni oqilona rejalashtiradi, murakkab vazifalarni bosqichma-bosqich bajaradi hamda o‘z faoliyati natijalarini muntazam nazorat qiladi. Aksincha, o‘zini boshqarish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan o‘smirlarda vazifalarni kechiktirish odati asta-sekin barqaror xulq-atvor shakliga aylanishi mumkin. Natijada bu holat o‘quv faoliyati samaradorligining pasayishiga, motivatsiyaning susayishiga, psixologik farovonlikning yomonlashishiga va shaxsiy rivojlanish jarayonining sekinlashishiga sabab bo‘ladi. Shu bois prokrastinatsiyaning oldini olish va uni kamaytirish faqat tashqi nazorat yoki intizomiy choralarni kuchaytirish

orqali emas, balki o‘smirlarda ichki motivatsiyani rivojlantirish, mas’uliyat hissini mustahkamlash, vaqtni samarali rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda emotsional barqarorlik va o‘zini o‘zi boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Prokrastinatsiyani tushuntiruvchi nazariy yondashuvlar

№	Nazariy yondashuv	Asosiy mazmuni	O‘smirlik davridagi namoyon bo‘lishi
1	Irodaviy yondashuv	Prokrastinatsiya iroda va o‘zini nazorat qilish zaifligi bilan izohlanadi	O‘smir topshiriqni boshlashda sustkashlik qiladi, rejaga amal qilmaydi
2	Kognitiv yondashuv	Kechiktirish noto‘g‘ri fikrlar, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va past o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq	“Baribir uddalay olmayman” kabi fikrlar vazifadan qochishga olib keladi
3	Motivatsion yondashuv	Vazifaning qiziqarsizligi yoki maqsadning noaniqligi prokrastinatsiyani kuchaytiradi	O‘quv motivatsiyasi past bo‘lsa, uy vazifalari kechiktiriladi
4	Emotsional-regulyativ yondashuv	Inson noxush hislardan qochish uchun vazifani ortga suradi	O‘smir stress va xavotirdan qochish uchun telefon yoki o‘yinlarga chalg‘iydi
5	Ijtimoiy-pedagogik yondashuv	Oila, maktab muhiti va tengdoshlar ta’siri kechiktirish xulqiga ta’sir qiladi	Nazoratning haddan tashqari kuchli yoki sust bo‘lishi mas’uliyatni pasaytiradi
6	Raqamli muhit yondashuvi	Internet, ijtimoiy tarmoqlar va gadjetlar diqqatni bo‘lib, topshiriqni kechiktirishni kuchaytiradi	O‘smir o‘qish o‘rniga ijtimoiy tarmoqlarda vaqt sarflaydi

O‘smirlik davrida prokrastinatsiyaning shakllanish mexanizmi

1-rasm. Prokrastinatsion xatti-harakatning psixologik sikli

1 kitob	O‘quv vazifasi yoki majburiyat
↓	
2 savol	Vazifaning qiyin, zerikarli yoki xavotirli deb qabul qilinishi
↓	
3	Salbiy emotsiyalar: qo‘rquv, xavotir, zerikish, ishonchsizlik

his	
↓	
4 yengil	Qisqa muddatli yengillik izlash
↓	
5 chalg‘ish	Telefon, ijtimoiy tarmoq, o‘yin yoki boshqa chalg‘ituvchi faoliyat
↓	
6 vaqt	Vazifaning kechiktirilishi
↓	
7 stress	Stress, aybdorlik, past natija va o‘z-o‘zidan qoniqmaslik
↓	
8 sikl	Prokrastinatsion xatti-harakatning takrorlanishi

Mazkur sxema prokrastinatsiyaning o‘smirlik davrida qanday psixologik mexanizm asosida shakllanishini bosqichma-bosqich ko‘rsatadi. O‘smir dastlab o‘quv vazifasi yoki boshqa majburiyatga duch keladi. Agar ushbu vazifa murakkab, zerikarli, uzoq vaqt talab qiluvchi yoki muvaffaqiyatsizlik xavfi bilan bog‘liq deb qabul qilinsa, unda ichki zo‘riqish, xavotir, qo‘rquv va ishonchsizlik kabi salbiy emotsiyalar paydo bo‘ladi. Aynan shu emotsional noqulaylik prokrastinatsiyaning boshlang‘ich omillaridan biri hisoblanadi. O‘smir bunday holatda vazifani bajarishdan ko‘ra, qisqa muddatli ruhiy yengillik beruvchi faoliyatlarga murojaat qiladi. Masalan, telefon ishlatish, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish, o‘yin o‘ynash yoki boshqa chalg‘ituvchi mashg‘ulotlar vaqtinchalik yengillik hissini beradi. Biroq bu holat vazifaning yanada kechikishiga olib keladi. Vaqt o‘tishi bilan bajarilmagan topshiriq o‘smirda stress, aybdorlik hissi, o‘zidan norozi bo‘lish va past natijaga erishish ehtimolini kuchaytiradi. Natijada prokrastinatsion xatti-harakat takrorlanuvchi psixologik siklga aylanadi. Shu sababli o‘smirlik davrida prokrastinatsiyani kamaytirish uchun faqat nazorat yoki tanbeh yetarli emas; bunda o‘smirning vaqtni rejalashtirish, o‘zini boshqarish, emotsiyalarini nazorat qilish va o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Prokrastinatsiya fenomenining tarixiy va zamonaviy talqinlarini nazariy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur hodisa oddiy vazifani kechiktirish yoki iroda zaifligining namoyon bo‘lishi bilan cheklanmaydi. Zamonaviy psixologik yondashuvlarda prokrastinatsiya shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishi, emotsional regulyatsiyasi, motivatsiyasi, kognitiv baholashi va xulq-atvorini tashkil etish

mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik fenomen sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv prokrastinatsiyani faqat salbiy xulq-atvor emas, balki shaxsning ichki psixologik jarayonlari va tashqi muhit omillarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan ko‘p qirrali hodisa sifatida tushunish imkonini beradi.

Nazariy manbalar tahlili o‘smirlik davri prokrastinatsiyaning namoyon bo‘lishi uchun eng sezgir rivojlanish bosqichlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Chunki aynan ushbu davrda shaxsning mustaqilligi, o‘quv motivatsiyasi, mas’uliyat hissi, emotsional barqarorligi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va kelajak faoliyatiga nisbatan munosabati shakllanadi. Shu sababli o‘smirlarda kuzatiladigan akademik prokrastinatsiya ko‘pincha dangasalik yoki intizomsizlikning natijasi emas, balki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, past o‘z-o‘zini baholash, ichki motivatsiyaning yetarli rivojlanmaganligi, vaqtni rejalashtirish ko‘nikmalarining sustligi, emotsional zo‘riqish hamda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning chalg‘ituvchi ta’siri bilan izohlanadi.

Maqolada tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar prokrastinatsiyani tushuntirishda yagona omil bilan cheklanib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ushbu fenomenni to‘liq anglash uchun motivatsion, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarni kompleks ravishda hisobga olish zarur. Shuningdek, xorijiy va mahalliy psixologik tadqiqotlar natijalari prokrastinatsiyaning shaxsning akademik muvaffaqiyati, psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Shu munosabat bilan prokrastinatsiyani kamaytirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlar faqat nazoratni kuchaytirish yoki intizomiy talablarni oshirish bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, o‘smirlarda o‘zini o‘zi boshqarish, maqsad qo‘yish, vaqtni samarali rejalashtirish, emotsional barqarorlik, mas’uliyat hissi, refleksiya va ichki motivatsiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli pedagogik hamda psixologik yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularda mustaqil faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va samarali o‘quv strategiyalarini shakllantirish prokrastinatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, prokrastinatsiya fenomenining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy ilmiy talqinlarini chuqur o‘rganish ushbu hodisaning psixologik mohiyatini yanada to‘liqroq anglash, o‘smirlarda uning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda profilaktika va korreksiya bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirova D. B. Yosh davrlar pedagogik psixologiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.

2. Ferrari J. R., Johnson J. L., McCown W. G. Procrastination and Task Avoidance: Theory, Research, and Treatment. – New York: Plenum Press, 1995. https://doi.org/10.1007/978-1-4899-0227-6

3. G‘oziyev E. G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: NIF MSH, 2020.

4. Klingsieck K. B. Procrastination: When Good Things Don’t Come to Those Who Wait // European Psychologist. – 2013. – Vol. 18, No. 1. – P. 24–34. https://doi.org/10.1027/1016-9040/a000138

5. Nishanova Z. T., Kamilova N. G., Abdullayeva D. U., Xolnazarova M. X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.

6. Rozental A., Carlbring P. Understanding and Treating Procrastination: A Review of a Common Self-Regulatory Failure // Psychology. – 2014. – Vol. 5, No. 13. – P. 1488–1502. https://doi.org/10.4236/psych.2014.513160

7. Sirois F. M., Pychyl T. A. Procrastination and the Priority of Short-Term Mood Regulation: Consequences for Future Self // Social and Personality Psychology Compass. – 2013. – Vol. 7, No. 2. – P. 115–127. https://doi.org/10.1111/spc3.12011

8. Solomon L. J., Rothblum E. D. Academic Procrastination: Frequency and Cognitive-Behavioral Correlates // Journal of Counseling Psychology. – 1984. – Vol. 31, No. 4. – P. 503–509. https://doi.org/10.1037/0022-0167.31.4.503

Steel P. The Nature of Procrastination: A Meta-Analytic and Theoretical Review of Quintessential Self-Regulatory Failure // Psychological Bulletin. – 2007. – Vol. 133, No. 1. – P. 65–94. https://doi.org/10.1037/0033-2909.133.1.65UDK:

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 376.36:616.89-008.434.5

Akramov Dostonbek Ikromjon oglu,
Teacher of the department of inclusive education, faculty of pedagogy, psychology and art studies, Fergana State University

DEVELOPMENT OF INTERNAL AND EXTERNAL SPEECH IN INTELLECTUALLY DISABLED CHILDREN WITH DYSARTHRIA

Abstract. This article discusses the specific pedagogical and psycholinguistic features of the development of internal and external speech in children with intellectual disability and accompanying dysarthria speech defect. The combination of dysarthria and intellectual disability deeply disrupts the child's cognitive and communicative activity. The article analyzes defects in the processes of programming thought and expressing it through the system of sounds in this category of children. As part of the research, a methodology aimed at the development of correctional and pedagogical technologies, speech therapy massage, interactive articulatory exercises and cognitive structures was developed and its effectiveness was tested in practice. The results obtained showed positive dynamics in the vocabulary, grammatical construction and phonetic pronunciation of children.

Keywords: dysarthria, intellectual disability, internal speech, external speech, correctional and pedagogical approach, psycholinguistics, articulation, speech therapy.

AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN VA DIZARTRIYAGA EGA BOLALARDA ICHKI VA TASHQI NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalarda ichki va tashqi nutqni rivojlantirishning o‘ziga xos pedagogik va psixolingvistik xususiyatlari yoritilgan. Dizartiya va aqliy rivojlanish nuqsonining birgalikda namoyon bo‘lishi bolaning bilish hamda kommunikativ faoliyatini chuqur darajada buzadi. Maqolada ushbu toifadagi bolalarda fikrni rejalashtirish (dasturlash) va uni tovushlar tizimi orqali ifodalash jarayonlaridagi nuqsonlar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida korreksion-pedagogik texnologiyalar, logopedik massaj, interaktiv artikulyatsion mashqlar hamda kognitiv tuzilmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqilib, uning amaliy samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar bolalarning lug‘at boyligi, grammatik tuzilishi va fonetik talaffuzida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: dizartriya, aqliy rivojlanish nuqsoni, ichki nutq, tashqi nutq, korreksion-pedagogik yondashuv, psixolingvistika, artikulyatsiya, logopediya.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

РАЗВИТИЕ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ НАРУШЕНИЯМИ И ДИЗАРТРИЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические педагогические и психолингвистические особенности развития внутренней и внешней речи у детей с интеллектуальными нарушениями, сопровождающимися дизартрией. Сочетание дизартрии и интеллектуальных нарушений существенно нарушает познавательную и коммуникативную деятельность ребёнка. В статье анализируются нарушения процессов программирования мысли и её выражения посредством звуковой системы у данной категории детей. В рамках исследования была разработана методика, направленная на развитие коррекционно-педагогических технологий, применение логопедического массажа, интерактивных артикуляционных упражнений и развитие когнитивных структур, а также проведена её практическая апробация. Полученные результаты показали положительную динамику в развитии словарного запаса, грамматического строя речи и фонетического произношения детей.

Ключевые слова: дизартрия, интеллектуальные нарушения, внутренняя речь, внешняя речь, коррекционно-педагогический подход, психолингвистика, артикуляция, логопедия.

Development of internal and external speech in intellectually disabled children with dysarthria speech defect.

One of the most urgent and complex problems of modern special pedagogy, defectology and speech therapy is the study of complex structural defects in the development of children and the provision of systematic corrective and rehabilitation assistance to them. Dysarthria of various degrees, accompanied by intellectual disability, is one of such severe pathologies. While intellectual disability seriously affects the general cognitive system of the child, higher nervous activity, dysarthria limits the activity of his speech-motor apparatus, that is, the articulation and auditory expression of speech due to the disruption of innovation due to organic lesions of the central nervous system. Speech is not only a means of interpersonal communication (communicative function), but also a tool of human thinking, the highest system that controls and regulates higher mental processes and behavior. From a psycholinguistic point of view, speech activity exists in two main forms: inner speech and outer speech. Inner speech is the internal stage of the birth of a thought, rich in hidden, reduced, predicative and subjective meanings before its entry into the form of a word. At this stage, a person programs his thought and forms a logical chain. Outer speech is the manifestation of a ready-made internal program (thought) in acoustic, motor and kinematic form through sounds, words and sentences based on certain language laws. In normal ontogenesis (normal

development of a child), outer speech is first formed, then in preschool age it passes through the stage of egocentric speech, turns into inner speech (the process of interiorization) and serves as the basis of the thinking process.

In children with intellectual disability and dysarthria, both of these systems are deeply pathological from the very beginning. Due to intellectual disability (oligophrenia or intellectual decline of various nature), the child has difficulty forming concepts, and the ability to abstract, analyze and synthesize is extremely low. This disrupts the process of "semantic programming of thought", which is the fundamental basis of inner speech, from the very beginning. The child lacks internal motivation and need for communication, and the word forms in his mind are scattered and unsystematic. On the other hand, this intellectual disability is accompanied by dysarthria. In dysarthria, as a result of focal organic lesions of the cerebral cortex, subcortical nodes, cerebellum or brainstem, the tone of the speech muscles changes pathologically (spasticity, hypotonia or dystonia occurs), the movements of the tongue, lips and soft palate are limited, and the coordination of the respiratory and voice-producing systems is disrupted. This completely prevents the weak logical chain formed with its shortcomings and defects at the stage of internal speech from being expressed in the form of sounds through external speech. As a result, the child's external speech becomes inarticulate, hoarse, short, grammatically fragmented and completely devoid of communicative function. Although many studies in this area (L.S. Vygotsky, A.R. Luria, R.E. Levina, L.V. Lopatina, etc.) have separately studied the motor and cognitive aspects of speech, the issue of systematic rehabilitation of the connection of internal and external speech in children with dysarthria has not been sufficiently addressed.

Children in this category are often directed only to mechanically correct pronunciation, which leads to underdevelopment of their thinking and internal speech. The purpose of this study is to conduct a comprehensive neuropsycholinguistic study of the internal and external speech characteristics of children with dysarthria and to develop a special correctional and methodological system aimed at their systematic parallel development and to scientifically substantiate its practical effectiveness. Based on this goal, the following tasks were set:

1. To determine the patterns of interconnection of internal and external speech in children in this category.
2. Diagnosing the level of articulatory-motor and semantic-cognitive defects in children in groups.
3. Creating a system of corrective exercises aimed at visualizing internal programming and normalizing the pathotonus of speech muscles.
4. Developing practical recommendations for the special education and rehabilitation system based on the results of the experiment.

Methodology and Methods.

In order to organize the research work on a comprehensive and scientific basis, the base contingent of special boarding schools and children's rehabilitation centers was used. To participate in the experiment, 40 children aged 7 to 10 years old were recruited, diagnosed by a neuropathologist, psychiatrist and psychologist-pedagogical commission with "F70" (mild intellectual disability) and "F71" (moderate intellectual disability), as well as with various neurological complications (pseudobulbar, spastic-paretic, hyperkinetic) dysarthria. Participants were divided into two equal groups:

(1) Experimental group (20 people) — in this group, a cognitive-linguistic program developed for the study was used.

(2) Control group (20 people) — in this group, training was carried out on the basis of traditional speech therapy and educational programs.

When forming groups, the age of children, intellectual coefficient (IQ range around 50-69) and the severity of speech impairment were taken into account. The study was methodologically organized in three consecutive stages:

1. Exploratory experimental stage.

Diagnosis of the initial level of internal and external speech of children. For this purpose, a specially prepared neuropsycholinguistic diagnostic card adapted to the psychophysics of intellectually disabled children was developed. The diagnostic program consists of the following two main blocks:

(i) External speech block

Methodology for examining the external speech block: Articulatory motor status, such as testing the tongue, lips, and soft palate at rest and in motion (muscle tone, volume, amplitude, speed of transition from one movement to another, presence of synkinesias). Sound pronunciation system: The occurrence of vowels and consonants at the beginning, middle, and end of words, their phonetic distortions (distortion, mutations, substitutions). Prosodic and voice-voice properties of speech: Speech breathing (phonation breathing duration), voice strength, timbre (signs of nasalism), speech tempo and rhythmic structure. Expressive speech vocabulary: Active vocabulary, syllabic structure of words, ability to grammatically form simple and complex sentences.

(ii) Internal speech block

Methodology for checking the internal speech block (directly through psycholinguistic methods):

- Thought programming and semantic logic test: orderly placement of 3-4 consecutive logically interconnected plot pictures and identification of a hidden logical chain based on them.

- Hidden logical-semantic operations: grouping objects according to functional signs (classification), "fourth is superfluous" methodology, understanding and activation of generalizing words.

- Action based on an internal plan (regulatory function): memorizing 3-4-stage oral complex instructions given by a speech therapist and sequentially performing them based on an internal program.

The diagnostic results were evaluated on a 5-point scale, where 5 points — maximum closeness to the norm, 1 point — indicates a complete lack of formation or deep fragmentation of the function.

2. Formative experimental stage.

For 6 months (a total of 96 sessions), classes were held with the experimental group 4 times a week individually and in small groups (2-3 children) based on a special program. The uniqueness of this program is that it provided for the development of the motor skills of the speech apparatus (external speech) and the parallel conduct of sensory and cognitive exercises aimed at expanding the field of concepts in the child's mind (internal speech).

3. Control experimental stage.

Evaluation of the effectiveness of the corrective work carried out and a statistical and qualitative comparative analysis of the differences between groups.

The data obtained after 6 months of targeted and systematic correctional and pedagogical impact showed a significant growth dynamic in all studied indicators in the experimental group. In the control group, the changes were minimal, and a stable pathological state remained.

Changes in the external speech and articulatory system. In the experimental group, the accuracy of articulation motor skills and movements of the speech organs increased from an initial average of 1.8 points to 3.6 points. Regarding neurological symptomatology, in children with spastic-paretic dysarthria (9 out of 20 children in the experimental group), excessive tension of the tongue and lip muscles decreased, and the duration of holding the tongue in the oral cavity along the midline increased from the initial 2-3 seconds to 8-10 seconds. In children with signs of hypotonia, muscle tone increased, facilitating the pronunciation of labialized sounds (O, U, B, P), which require active movement of the lips. The dynamic coordination indicator also improved: children made less kinetic errors when switching from one type of movement to another. The accuracy of sound pronunciation and speech clarity (vnyatnost) improved in the experimental group from 1.5 to 3.2 points. Children showed an improved memorization of the syllables sequence in words. The rate of speech perseverations (repeated repetition of one sound or syllable in a word) and elisions (omission of sounds), characteristic of intellectually disabled children, decreased by 45 percent. In the control group, this indicator changed only from 1.9 to 2.1 points and from 1.6 to 1.8 points, respectively. Children in the control group continued to demonstrate articulatory apraxia (inability to find the necessary motor movement) when pronouncing multi-syllable words.

Changes in inner speech and cognitive-semantic areas. The difference between the groups in the development of inner speech and cognitive-semantic

structures became more distributive and obvious. In the experimental group, the ability to create a logical chain and make an internal plan based on a sequence of pictures increased from an average of 2.0 points to 3.9 points. Children now move from the stage of simply naming individual objects (fixation) to the stage of understanding and expressing predicative and logical connections between the objects ("the boy is walking", "the puppy is barking because he was scared"). This indicates activation of inner speech and verbal-logical operations in the children's brain. The use of generalizing words, the ability to classify words into categories, and the internal grammatical programming indicator also improved in the experimental group, increasing from 1.7 points to 3.5 points. Children showed high performance in matching nouns and verbs, and in the correct use of grammatical forms in response to questions such as "With whom?" or "about what?". The number of errors in answering the questions decreased significantly. In the control group, changes of the elements of internal speech were negligible (from the initial 1.9 points to only 2.2 points at the end of the experiment). Their speech consisted mainly of a chaotic and unsystematic collection of nominative words (noun) without predication (verb). The children were unable to internally analyze complex verbal instructions and could only perform the first or the last part of a given instruction.

The obtained practical results provide a deeper neuropsycholinguistic understanding of the complex, systematic and multi-component structure of speech dysontogenesis in intellectually disabled children. To understand the essence of the problem, it is worth referring to L.S. Vygotsky's teaching on "The Genetic Roots of Thought and Speech". In a child with normal development, speech and thinking develop in separate directions up to a certain stage, and then at a certain age they intersect, forming "intellectual speech" and "speech thinking". Among the children in our study, this point of convergence and the chain of functional systems are deeply pathologically damaged. In intellectually disabled children, diffuse damage to higher nervous activity primarily limits generalization, abstraction, and analysis-synthesis operations. According to A.A. Leontiev's psycholinguistic model, a speech statement (vyskazyvanie) goes through several stages: internal motive -> thought -> programming through internal speech -> external speech performance. An intellectually disabled child may have a motive and a partial desire to engage in communication, but due to intellectual deficiency and a lack of general concepts, a deep semantic gap arises at the stage of programming thought. That is, in the child's brain, a stable functional connection is not established between the external acoustic shell of the word (name) and its real subject and personal meaning (smysl). Therefore, their inner speech consists only of fragmented, unsystematic visual images and cannot be transformed into a logical code. Moreover, the addition of organic dysarthria factor further complicates the situation. In dysarthria, as a result of bulbar or pseudobulbar syndromes, the chain of kinesthetic and kinetic feedback (afferentation) is interrupted. That is, when the child moves the speech organs, the

sensory signal from the muscles to the cerebral cortex ("I raised my tongue up", "I closed my lips") goes incorrectly, vaguely or very weakly. Neuropsychological research has shown that external speech movements (in particular, micromotor movements) are a powerful stimulator of the formation of the inner speech shell. If the external speech apparatus is paralyzed, it cannot sufficiently stimulate the sensory and cognitive centers of the brain. As a result, inner speech is deprived of its source of development (external motor support) and enters a state of constant inactivity. When the child feels that his physical capabilities are limited, and his tongue and lips do not respond adequately during speech, speech passivity and speech negativism (refusal to speak) arise. That is, the defect in the speech-motor function leads to a further impoverishment of inner speech through a feedback loop (obratnaya svyaz): the child stops trying to speak, as a result of which his inner thinking operations also begin to fade. Therefore, the success of the correctional and pedagogical program developed by us lies in its two-way complex character based on the principle of "cognitive-linguistic integration". During the sessions, we did not work only on mechanical sounding or articulation. At each stage, we inextricably linked the external speech movement with the internal cognitive concept. In the first block of correctional work, special speech therapy massage (using probes, hands) and passive-active articulatory and breathing exercises were performed to normalize the tone of the speech organs. This was necessary to alleviate the organic complications of dysarthria, dampen reflexes, and facilitate the motor mechanisms required for speech production. In the second block, the "Modeling and Visualization of Internal Programming" methodology was used simultaneously to activate the child's internal speech. In this case, each word and concept was formed in the child's mind through a three-way connection (sound shell - visual image - practical-sensory movement). For example, when teaching the object name, the work was not only on its pronunciation, but also on continuously embedding its semantic meaning in the child's internal memory through various games, object cards, sensory perception (touching, smelling, identifying its shape). This expanded the internal semantic field (associative networks) of the word. As a result, when the child heard or said the word, a specific internal logical concept arose in his mind rather than an abstract sound.

At the next stage, the "base schemes and pictograms" method was used to successfully transfer internal speech to external speech (experiorization). Since an intellectually disabled child could not plan a sentence internally, they were taught to build an external syntactic chain using visual drawings (for example: Who? -> What is he doing? -> What/Where?). Over time, these external visual support mechanisms moved into the child's internal speech (the process of interiorization), and the child later began to independently construct simple sentences without drawings. High results achieved in the experimental group prove that inner and outer speech are an inextricably linked chain. Relying merely on motor skills or trying to develop only

intellect when working with intellectually disabled children with dysarthria will not give the expected effect. A rehabilitation of an external speech apparatus with the support of systematic cognitive-semantic exercises lead to a radical turn and positive changes in the inner psychic world of intellectually disabled children, specifically the system regulating their thinking and behavior.

The problem of developing inner and outer speech in intellectually disabled children with dysarthria speech disorders is an extremely complex process at the intersection of pedagogical, neurolinguistic and medical-psychological sciences, requiring a deep systematic and individual approach. Based on the conducted multi-stage scientific and practical research, the following fundamental conclusions were drawn.

In children with intellectual disability and dysarthria, internal and external speech disorders are systemic and interrelated. While internal speech defects are characterized by a lack of logical planning, word-logical operations, and semantic programming, problems in external speech are directly related to central organic lesions of the speech muscles and articulatory difficulties.

Traditional speech therapy methods (based only on mechanical sounding and speech therapy lessons) cannot fully cover all the needs of this category of children and cannot prepare them for social communication. In the rehabilitation process, it is necessary to combine the system of pictograms and basic schemes that develop the child's cognitive, sensory, visual, and intellectual spheres simultaneously along with the restoration of motor functions.

The experimental findings demonstrated that the "cognitive-linguistic integration" program significantly improved the intelligibility of external speech, articulation accuracy, active vocabulary, and the ability to construct internal chains of thought in children from the experimental group compared to the control group. This supports the scientific validity of the methodology used.

The proposed systematic methodology is recommended for broader implementation in special preschool and school institutions as well as in the work of speech therapists, defectologists, oligophrenopedagogues and special educators. In future studies, it is planned to explore the issues of further development of the socio-adaptive properties of speech in intellectually disabled children using digital and interactive technologies, and alternative communication tools (PECS, dactyl elements).

References:

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.

2. Лурия А. Р. Язык и сознание. – Москва: Издательство Московского университета, 1979. – 320 с.

3. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 2003. – 287 с.

4. Лопатина Л. В., Серебрякова Н. В. Логопедическая работа с детьми с дизартрией. – Санкт-Петербург: Союз, 2001. – 192 с.

5. Левина Р. Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 1968. – 367 с.

6. Волкова Л. С. (ред.). Логопедия. – 5-е изд. – Москва: Владос, 2009. – 703 с.

7. Жукова Н. С., Мастюкова Е. М., Филичева Т. Б. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. – Москва: Просвещение, 1990. – 239 с.

8. Мастюкова Е. М. Дизартрия у детей и методы её коррекции. – Москва: Просвещение, 1985. – 160 с.

9. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5-TR). 5th ed., Text Revision. – Washington, DC: APA Publishing, 2022.

10. World Health Organization. International Classification of Diseases 11th Revision (ICD-11). Geneva: WHO, 2022.

11. Pennington L., Miller N., Robson S., Steen N. Intensive speech and language therapy for children with dysarthria: A systematic review. Developmental Medicine & Child Neurology, 2019.

12. Kent R. D. Speech Motor Control in Typical and Disordered Speech. Journal of Communication Disorders, 2020.

13. American Speech-Language-Hearing Association (ASHA). Practice Portal: Dysarthria in Children. 2023.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 378.147:37.015.3

Axmedova Shaxzoda Axtamovna,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY IDENTIKLIK SHAKLLANISHINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning shakllanishini o‘rganishga doir zamonaviy metodologik yondashuvlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, ijtimoiy-psixologik va refleksiv-rivojlantiruvchi yondashuvlarning imkoniyatlari yoritiladi. Kasbiy identiklikni baholashda L.B. Shneyderning kasbiy identiklikni o‘rganish metodikasi, A.A. Azbel va A.G. Gretsovning kasbiy identiklik maqomlari so‘rovnomasi, B. Bassning shaxs yo‘nalganligini aniqlash metodikasi hamda sifat usullaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu usullarni birgalikda qo‘llash bo‘lajak pedagogning kasbiy o‘zini anglashi, kasbga munosabati, motivatsiyasi va pedagogik hamjamiyatga mansublik hissini yaxlit baholash imkonini berishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy identiklik, bo‘lajak pedagog, metodologik yondashuv, kasbiy o‘zini anglash, kasbiy identiklik maqomi, shaxs yo‘nalganligi, refleksiya, diagnostika.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В статье теоретически анализируются современные методологические подходы к изучению формирования профессиональной идентичности у будущих педагогов. Раскрываются возможности личностно-ориентированного, деятельностного, социально-психологического и рефлексивно-развивающего подходов. Рассматриваются вопросы использования методики изучения профессиональной идентичности Л. Б. Шнейдер, опросника статусов профессиональной идентичности А. А. Азбеля и А. Г. Грецова, методики определения направленности личности Б. Басса, а также качественных методов исследования при оценке профессиональной идентичности. Обосновывается, что комплексное применение данных методов позволяет всесторонне оценить профессиональное самосознание будущего педагога, его отношение к профессии, мотивацию и чувство принадлежности к педагогическому сообществу.

Ключевые слова: профессиональная идентичность, будущий педагог, методологический подход, профессиональное самосознание, статус профессиональной идентичности, направленность личности, рефлексия, диагностика.

MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO STUDYING THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY IN PRE-SERVICE TEACHERS

Abstract. This article provides a theoretical analysis of modern methodological approaches to studying the formation of professional identity in pre-service teachers. It examines the potential of learner-centered, activity-based, socio-psychological, and reflective-developmental approaches. The paper discusses the application of L. B. Schneider's Professional Identity Assessment Method, A. A. Azbel and A. G. Gretsov's Professional Identity Status Questionnaire, B. Bass's Personality Orientation Inventory, as well as qualitative research methods in assessing professional identity. It is argued that the integrated use of these methods enables a comprehensive assessment of pre-service teachers' professional self-awareness, attitudes toward the teaching profession, motivation, and sense of belonging to the professional pedagogical community.

Keywords: professional identity, pre-service teacher, methodological approach, professional self-awareness, professional identity status, personality orientation, reflection, assessment.

Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning shakllanishi zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘qituvchi kasbiga qo‘yilayotgan yangi kompetensiyaviy talablar hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar pedagog shaxsining kasbiy shakllanishini ilmiy asosda o‘rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Chunki ta’lim sifati nafaqat pedagogning kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki uning o‘z kasbiga munosabati, kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi, pedagogik faoliyat bilan o‘zini uyg‘unlashtira olishi va kasbiy identikligining qay darajada shakllanganligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan talaba odatda o‘qituvchilik kasbi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘ladi. Mazkur tasavvur maktab davridagi kuzatuvlari, oilaviy muhit, ommaviy axborot vositalari yoki shaxsiy qiziqishlari asosida shakllangan bo‘lishi mumkin. Biroq bunday dastlabki qarashlar hali barqaror kasbiy pozitsiya va kasbiy identiklik mavjudligini anglatmaydi. Pedagogik ta’lim jarayonida talaba kasbning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy ahamiyati, kasbiy mas’uliyati, axloqiy me’yorlari va pedagogik qadriyatlarini bosqichma-bosqich anglab boradi. Nazariy bilimlarni egallash, pedagogik amaliyotlarda ishtirok etish,

tajribali ustozlar faoliyatini kuzatish, kursdoshlar bilan kasbiy muloqot qilish hamda o‘z faoliyatini muntazam tahlil etish natijasida uning “Men bo‘lajak o‘qituvchiman” degan tasavvuri asta-sekin ichki e’tiqod va kasbiy o‘zini anglash darajasiga ko‘tariladi. Aynan shu jarayon kasbiy identiklikning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy identiklikni oddiy kasb tanlash yoki muayyan mutaxassislikni egallash bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Kasb tanlash shaxsning kelajakdagi faoliyat yo‘nalishini belgilasa, kasbiy identiklik tanlangan kasbni shaxsiy qadriyat va hayotiy maqsad sifatida qabul qilish, o‘zini mazkur kasb vakili sifatida anglashi, kasbiy rol, me’yor va qadriyatlarni ichki ehtiyoj hamda shaxsiy e’tiqodga aylantirish jarayonidir. Pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan bu bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini ta’lim va tarbiya jarayonining faol subyekti, o‘quvchilar rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan mutaxassis, jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi shaxs sifatida idrok etishida namoyon bo‘ladi. Bunday identiklik pedagogning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi, kasbiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatini rivojlantiradi hamda uzluksiz kasbiy o‘sishga intilishini kuchaytiradi.

Kasbiy identiklikning shakllanishi murakkab, ko‘p bosqichli va dinamik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon barcha talabalarda bir xil kechmaydi. Ayrim talabalar oliy ta’lim muassasasiga pedagogik faoliyatga nisbatan aniq qiziqish va ongli tanlov asosida kirib keladi. Bunday holatda kasbiy identiklikning shakllanishi nisbatan tezroq va izchil kechadi. Boshqa talabalarda esa kasb tanlovi ota-onalar tavsiyasi, ijtimoiy stereotiplar, hududiy sharoit, oliy ta’lim muassasasiga kirish imkoniyatlari yoki tasodifiy omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Natijada ularning kasbiy motivatsiyasi va identiklik darajasi turlicha shakllanadi.

Pedagogik amaliyot davrida talabalar real ta’lim muhiti bilan yuzma-yuz keladi. Aynan ushbu bosqichda ularning kasb haqidagi nazariy tasavvurlari amaliy tajriba bilan boyiydi yoki ayrim hollarda qayta ko‘rib chiqiladi. Ba’zi talabalar uchun amaliyot o‘qituvchilik kasbiga nisbatan qiziqish va ishonchni yanada kuchaytirsa, boshqalarda kasbiy faoliyatning murakkabligi, kommunikativ qiyinchiliklar yoki pedagogik vaziyatlarni boshqarishdagi muammolar o‘z imkoniyatlariga nisbatan shubha uyg‘otishi mumkin. Shu bois kasbiy identiklikni shakllantirish faqat nazariy tayyorgarlik bilan emas, balki refleksiya, amaliy faoliyat, kasbiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy hamkorlik bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaralishi zarur.

Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda kasbiy identiklik tayyor va o‘zgarmas shaxs xususiyati emas, balki ta’lim, kasbiy faoliyat, ijtimoiy tajriba va shaxsiy refleksiya ta’sirida uzluksiz rivojlanib boradigan murakkab psixologik tuzilma sifatida talqin etiladi. U shaxsning kasbiy motivatsiyasi, qadriyatlari, kompetensiyalari, kasbiy o‘zini baholashi, pedagogik hamjamiyatga mansublik hissi hamda kasbiy istiqbol haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli kasbiy identiklikni tadqiq etishda faqat yakuniy natijalarni baholash bilan cheklanib

qolmasdan, uning shakllanish bosqichlari, rivojlanish mexanizmlari, ichki va tashqi omillari, shuningdek, talabaning individual kasbiy tajribasi ham kompleks ravishda o‘rganilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning shakllanishini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasbiy rivojlanishni samarali qo‘llab-quvvatlash hamda pedagogik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy identiklikni tadqiq etishda faqat bitta nazariy yondashuv bilan cheklanib qolish uning murakkab psixologik va pedagogik mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Kasbiy identiklik shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional, qadriyatli va xulq-atvor komponentlarini o‘zida mujassamlashtirgan ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni o‘rganishda turli metodologik yondashuvlarning integratsiyasi zarur hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, ijtimoiy-psixologik hamda refleksiv-rivojlantiruvchi yondashuvlar kasbiy identiklikni o‘rganishning asosiy metodologik yo‘nalishlari sifatida e’tirof etiladi. Mazkur yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi bo‘lajak pedagog shaxsining kasbiy shakllanish jarayonini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Faoliyat nazariyasi vakillari A.N. Leontev va S.L. Rubinshteyn ta’kidlaganidek, shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi [3; 7]. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, insonning kasbiy sifatlari tayyor holda mavjud bo‘lmaydi, balki real faoliyat, ijtimoiy munosabatlar va amaliy tajriba orqali rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bo‘lajak pedagogning kasbiy identikligi faqat kasb haqidagi nazariy bilimlari bilan emas, balki pedagogik vazifalarni mustaqil bajarishi, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishi, o‘z faoliyati natijalarini baholashi hamda orttirgan tajribasini anglash jarayoni bilan belgilanadi. Demak, pedagogik faoliyatning o‘zi kasbiy identiklikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari, hayotiy maqsadlari va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini tadqiqot markaziga qo‘yadi. A.G. Asmolovning shaxs rivojlanishiga oid ilmiy qarashlarida kasbiy shakllanish tashqi talablarni mexanik bajarish emas, balki shaxsning ongli tanlovi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilishi va o‘z hayot yo‘lini mustaqil belgilashi sifatida talqin qilinadi [1]. Mazkur yondashuv bo‘lajak pedagogning kasbiy identikligini uning ichki motivlari va qadriyatlari orqali tushuntirish imkonini beradi. Jumladan, talabaning “Nima uchun aynan pedagogik kasbni tanladim?”, “Mazkur kasb mening hayotiy maqsadlarim va qadriyatlarimga qanchalik mos keladi?”, “Men o‘zimni kelajakda qanday pedagog sifatida tasavvur qilaman?” kabi savollarga bergan javoblari uning kasbiy identikligi darajasi va mazmunini aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda esa pedagogik amaliyot, kasbiy vazifalarni bajarish, o‘quv topshiriqlarini hal etish hamda o‘qituvchilik rolini bevosita bajarish asosiy tahlil birligi hisoblanadi. N.V. Kuzmina, V.D. Shadrikov va G.S. Nikiforov pedagogik faoliyat samaradorligini kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetensiyalar, individual qobiliyatlar hamda faoliyatning psixologik tuzilishi bilan uzviy bog‘laydilar [5; 6; 10]. Shu sababli bo‘lajak pedagogning kasbiy identikligini baholashda faqat diagnostik so‘rovnomalar natijalari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Talabaning pedagogik amaliyotdagi xatti-harakatlari, o‘quvchilar bilan ishlash uslubi, kasbiy mas’uliyatni qabul qilishi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati, kasbiy tashabbuskorligi hamda o‘z ustida muntazam ishlashga tayyorligi ham kompleks tahlil qilinishi lozim.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv kasbiy identiklikning ijtimoiy muhit va kasbiy hamjamiyat bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanishini asoslab beradi. Talabaning pedagoglar jamoasi bilan hamkorligi, kursdoshlar bilan kasbiy muloqoti, pedagogik amaliyot davomida maktab jamoasiga moslashuvi, shuningdek, jamiyatning o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan munosabati uning kasbiy "Men" konsepsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit yaratilgan bo‘lsa, pedagogik mehnat yuqori qadrlansa, tajribali ustozlar professional va axloqiy namuna bo‘la olsa hamda talaba o‘zini pedagogik hamjamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his qilsa, uning kasbiy identikligi ancha barqaror va izchil shakllanadi. Aksincha, salbiy psixologik muhit, kasbiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi yoki pedagog kasbining ijtimoiy nufuzining pasayishi identiklik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Refleksiv-rivojlantiruvchi yondashuv kasbiy identiklikning shakllanishida shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va kasbiy rivojlanishga ongli munosabatda bo‘lishini asosiy omil sifatida e’tirof etadi. L.M. Mitina kasbiy rivojlanishning muhim sharti sifatida refleksiya, o‘zini anglash, ichki faollik va o‘zgarishga tayyorlikni alohida ta’kidlaydi [4]. Talaba pedagogik amaliyotdan so‘ng o‘z darslarini tahlil qilishi, muvaffaqiyat va kamchiliklarning sabablarini aniqlashi, kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilashi orqali kasbiy o‘zini anglashni rivojlantiradi. Natijada kasbiy pozitsiya tashqi talab va majburiyatdan shaxsning ichki e’tiqodi hamda ongli kasbiy tanloviga aylanadi.

Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillar tarkibiga kasbiy motivatsiya, pedagogik faoliyatga qiziqish, o‘zining kasbiy imkoniyatlariga ishonch, adekvat o‘zini o‘zi baholash, shaxsiy qadriyatlar tizimi, mas’uliyat hissi, empatiya, kommunikativ qobiliyat va refleksiya kiradi. Aynan ushbu omillar shaxsning kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ichki ehtiyojini belgilaydi. Tashqi omillar esa pedagogik ta’lim dasturlarining mazmuni, o‘quv jarayonining sifati, pedagogik amaliyotning samaradorligi, ustozlarning shaxsiy namunasi, ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, oilaning qo‘llab-quvvatlashi, tengdoshlar ta’siri

hamda o‘qituvchi kasbining jamiyatdagi ijtimoiy mavqei bilan belgilanadi. Mazkur omillar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi kasbiy identiklikning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Kasbiy motivatsiya mazkur omillar tizimida alohida o‘rin egallaydi. E.A. Klimovning kasbiy o‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga ko‘ra, kasb tanlash shaxsning qiziqishlari, individual imkoniyatlari hamda mehnat bozori va jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashni talab etadi [2]. Agar talaba pedagogik faoliyatni faqat oliy ma’lumot olish yoki barqaror ish o‘rniga ega bo‘lish vositasi sifatida qabul qilsa, uning kasbiy identikligi yuzaki shakllanishi mumkin. Aksincha, pedagogik faoliyatni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, inson kamolotiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy ahamiyatga ega kasb sifatida anglagan, bolalar bilan ishlashdan ma’naviy qoniqish oladigan va o‘z kasbiy rivojlanishiga mas’uliyat bilan yondashadigan talabada kasbiy identiklik yanada barqaror rivojlanadi.

Kasbiy identiklikning shakllanishida pedagogik amaliyotning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan amaliyot jarayonida nazariy bilimlar real pedagogik faoliyat bilan integratsiyalashadi. Talaba darslarni kuzatadi, mustaqil mashg‘ulotlar tashkil etadi, o‘quvchilar bilan muloqot qiladi, ta’limiy vaziyatlarni boshqaradi, dars ishlanmalarini ishlab chiqadi va o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his qiladi. Mazkur tajriba orqali u o‘zining kasbiy imkoniyatlari, kuchli tomonlari hamda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalarini chuqurroq anglay boshlaydi. Shu bois pedagogik amaliyotni faqat hisobot topshirish bosqichi sifatida emas, balki bo‘lajak pedagogning kasbiy o‘zini anglashi, refleksiyasi va kasbiy identikligini rivojlantirishning muhim maydoni sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy identiklikning shakllanishida ustoz-shogird munosabatlari ham alohida o‘rin tutadi. Tajribali pedagoglarning kasbiy mahorati, pedagogik odobi, darsni tashkil etish uslubi, o‘quvchilar bilan muloqot madaniyati va murakkab vaziyatlarda qabul qiladigan qarorlari talaba uchun muhim kasbiy namuna vazifasini bajaradi. Ustozning konstruktiv tavsiyalari, xolis bahosi, muntazam metodik yordami va psixologik qo‘llab-quvvatlashi talabaning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshiradi, kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi hamda pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Natijada bo‘lajak pedagog o‘zini nafaqat pedagogik bilimlarni egallayotgan talaba, balki kelajakdagi professional pedagogik hamjamiyatning faol a’zosi sifatida anglay boshlaydi.

Kasbiy identiklikni ilmiy asosda va ishonchli o‘rganish uchun faqat bitta diagnostik metoddan foydalanish yetarli emas. Chunki kasbiy identiklik shaxsning kasbiy o‘zini anglashi, motivatsiyasi, qadriyatlari, emotsional munosabati, kasbiy tajribasi hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab psixologik tuzilma hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda miqdoriy va sifat tadqiqot usullarini integratsiyalashgan holda qo‘llash metodologik jihatdan eng maqbul yondashuv sifatida e’tirof etiladi.

Bunday kompleks yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish, turli metodlar orqali olingan ma'lumotlarni o‘zaro taqqoslash (triangulyatsiya) hamda kasbiy identiklikning tarkibiy qismlarini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Birgina test yoki so‘rovnoma talabaning kasbiy o‘zini anglashi, ichki motivatsiyasi, kasbiy tajribasi, pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati va ijtimoiy muhit ta'sirini to‘liq ochib bera olmaydi. Aksincha, diagnostik metodlar majmuasidan foydalanish tadqiqot obyektining turli jihatlarini kompleks o‘rganishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, metodik majmua kasbiy identiklik maqomini, shaxs yo‘nalganligini, kasbiy "Men" konsepsiyasini, kasbiy qadriyatlar tizimini hamda real pedagogik faoliyatdagi xulq-atvor va refleksiv jarayonlarni qamrab olishi lozim.

Kasbiy identiklikni baholashda keng qo‘llaniladigan metodikalardan biri L.B. Shneyder tomonidan ishlab chiqilgan "Kasbiy identiklikni o‘rganish metodikasi" hisoblanadi [9]. Ushbu metodika shaxsning kasbiy identiklik rivojlanish darajasini aniqlashga hamda uning kasbiy shakllanish bosqichlarini tavsiflashga imkon beradi. Metodika natijalariga ko‘ra kasbiy identiklik muddatidan oldin shakllangan identiklik, diffuz identiklik, moratoriy, erishilgan ijobiy identiklik va psevdoijobiy identiklik kabi maqomlar orqali baholanadi. Mazkur maqomlar talabaning kasbiy tanlovi qanchalik ongli amalga oshirilgani, kasbiy izlanish jarayonining faolligi, mustaqil qaror qabul qilish darajasi hamda tanlangan kasbni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilgan yoki qilmaganligini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, metodika bo‘lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning shakllanish bosqichlarini monitoring qilish va rivojlanish dinamikasini kuzatishda muhim diagnostik vosita hisoblanadi.

Kasbiy identiklikni o‘rganishda A.A. Azbel va A.G. Gretsov tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy identiklik maqomlarini aniqlash so‘rovnomasi ham alohida ahamiyatga ega [11]. Mazkur metodika shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi belgilash jarayonini noaniq identiklik, majburan qabul qilingan identiklik, kasbiy tanlov moratoriysi hamda shakllangan identiklik kabi ko‘rsatkichlar asosida baholaydi. Ushbu so‘rovnoma yordamida talabaning kasb tanlash bo‘yicha qarori mustaqil ravishda shakllanganmi yoki tashqi omillar ta'sirida qabul qilinganmi, u turli kasbiy imkoniyatlarni tahlil qilganmi hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatini qanchalik aniq tasavvur qilayotgani aniqlanadi. Shu bilan birga, metodika kasbiy identiklikning rivojlanishidagi muammoli bosqichlarni aniqlash va ularga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish imkoniyatini ham yaratadi.

Bo‘lajak pedagog shaxsining motivatsion yo‘nalishini baholashda B. Bassning shaxs yo‘nalganligini aniqlash so‘rovnomasi samarali diagnostik vositalardan biri hisoblanadi [12]. Mazkur metodika shaxsning o‘ziga yo‘nalganlik, muloqotga yo‘nalganlik hamda faoliyatga yo‘nalganlik darajalarini aniqlash imkonini beradi. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olganda, muloqotga va faoliyatga yo‘nalganlikning uyg‘un rivojlanganligi kasbiy muvaffaqiyatning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq metodika natijalarini mutlaq mezon sifatida

talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Masalan, o‘ziga yo‘nalganlik ayrim holatlarda shaxsning o‘z ustida ishlashga intilishi, kasbiy o‘sishga motivatsiyasi va yuqori natijalarga erishish istagini ifodalashi mumkin. Boshqa vaziyatlarda esa u individualizmning kuchayishi yoki kasbiy hamkorlikning sustlashishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli B. Bass metodikasi natijalari boshqa diagnostik usullar bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi va kompleks talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy identiklikning mazmuniy va subyektiv jihatlarini aniqlashda sifat tadqiqot usullaridan foydalanish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Men kimman?” metodikasi, refleksiv esse, erkin yozma ishlar hamda shaxsiy kundaliklarni tahlil qilish orqali talabaning o‘zini qanday tavsiflashi, javoblarida pedagogik rolning qanchalik muhim o‘rin egallashi, kasbiy qadriyatlar tizimi va kelajakdagi kasbiy obrazi qay darajada shakllangani aniqlanishi mumkin [8]. Ayniqsa, “Men qanday o‘qituvchi bo‘lishni istayman?”, “Pedagogik amaliyot menga nimani o‘rgatdi?”, “Kelajakdagi kasbiy faoliyatimni qanday tasavvur qilaman?” kabi mavzularda yozilgan refleksiv esselar talabaning kasbiy identikligining mazmuniy tomonlarini, ichki motivlarini, kasbiy maqsadlarini hamda shaxsiy rivojlanish istiqbollarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu usullar miqdoriy metodlarda aniqlanishi qiyin bo‘lgan individual psixologik xususiyatlarni ochib berishda ayniqsa samaralidir.

Kasbiy identiklikni baholashda kuzatish, yarim tuzilgan suhbat hamda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish metodlari ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur metodlar yordamida so‘rovnomalarda bildirilgan fikrlarning real pedagogik faoliyatdagi namoyon bo‘lish darajasi aniqlanadi. Xususan, talabaning dars ishlanmasini mustaqil ishlab chiqishi, mashg‘ulotni tashkil etish mahorati, o‘quvchilar bilan muloqot madaniyati, o‘quvchilarning savollariga munosabati, tanqidni qabul qilish darajasi, murakkab pedagogik vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, hamkorlikka tayyorligi va pedagogik amaliyot yakunidagi refleksiyasi uning kasbiy pozitsiyasi haqida muhim empirik ma’lumot beradi. Shu tariqa, kuzatish va suhbat natijalari diagnostik testlardan olingan ma’lumotlarni to‘ldiradi hamda ularning ishonchliligini oshiradi.

Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy identiklikni o‘rganishda L.B. Shneyderning kasbiy identiklik metodikasi, A.A. Azbel va A.G. Gretsovning kasbiy identiklik maqomlari so‘rovnomasi, B. Bassning shaxs yo‘nalganligini aniqlash metodikasi, sifat tadqiqot usullari hamda pedagogik kuzatish metodlarini kompleks qo‘llash eng maqbul metodologik yechim hisoblanadi. Mazkur metodlarning integratsiyalashgan qo‘llanilishi bo‘lajak pedagogning kasbiy o‘zini anglashi, kasbiy motivatsiyasi, qadriyatlari, pedagogik faoliyatga munosabati va kasbiy hamjamiyatga mansublik hissini har tomonlama baholash, shuningdek, kasbiy identiklikning shakllanish darajasi va rivojlanish dinamikasini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi.

1-jadval. Kasbiy identiklikni o‘rganishning metodik majmuasi

Tadqiqot yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkich	Tavsiya etiladigan metod	Olinadigan ma’lumot
Kasbiy identiklik maqomi	Tanlovning aniqligi va mustaqilligi	L.B. Shneyder; A.A. Azbel va A.G. Gretsov metodikalari	Diffuz, moratoriy, shakllangan va boshqa maqomlar
Shaxs yo‘nalganligi	O‘ziga, muloqotga va faoliyatga yo‘nalish	B. Bass so‘rovnomasi	Pedagogik faoliyat motivlarining ustuvor yo‘nalishi
Kasbiy “Men” mazmuni	Kasbiy rol, qadriyat va kelajak obrazi	“Men kimman?”, refleksiv esse, suhbat	Kasbning shaxsiy ma’no sifatida qabul qilinishi
Faoliyatdagi namoyon bo‘lish	Mas’uliyat, mustaqillik, muloqot, refleksiya	Kuzatish va pedagogik vaziyatlar tahlili	Kasbiy pozitsiyaning real xatti-harakatdagi ifodasi

Kasbiy identiklikni o‘rganishda diagnostik metodlarni izchil va kompleks qo‘llash tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida L.B. Shneyderning kasbiy identiklikni o‘rganish metodikasi hamda A.A. Azbel va A.G. Gretsovning kasbiy identiklik maqomlari so‘rovnomasi yordamida talabalarning kasbiy identiklik darajasi va kasbiy o‘zini o‘zi belgilash xususiyatlari aniqlanadi. Shundan so‘ng B. Bassning shaxs yo‘nalganligini aniqlash metodikasi orqali shaxsning motivatsion yo‘nalishi, ya’ni o‘ziga, muloqotga va faoliyatga yo‘nalganlik darajalari baholanadi. Mazkur miqdoriy diagnostika natijalari keyingi bosqichda sifat tadqiqot usullari, jumladan, refleksiv esse, “Men kimman?” metodikasi, yarim tuzilgan suhbat va kuzatish ma’lumotlari bilan boyitiladi. Natijada talabaning kasbiy identikligi nafaqat statistik ko‘rsatkichlar, balki uning shaxsiy qarashlari, kasbiy tajribasi va pedagogik faoliyatdagi real xulq-atvori asosida ham tahlil qilinadi.

Kuzatish va yarim tuzilgan suhbat metodlari diagnostik testlar orqali olingan natijalarni real pedagogik vaziyatlarda tekshirish va ularning ishonchliligini aniqlash imkonini beradi. Xususan, talabaning darsni rejalashtirish, mashg‘ulotni tashkil etish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, murakkab pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish, tanqidni qabul qilish va o‘z faoliyatini reflektiv tahlil qilish qobiliyati kasbiy identiklikning amaliy ifodasi sifatida baholanadi. Shu tariqa, turli metodlardan olingan ma’lumotlarning o‘zaro mosligi yoki tafovutlari aniqlanib, tadqiqotning empirik asoslari yanada mustahkamlanadi.

Agar tadqiqot turli bosqichdagi talabalar ishtirokida tashkil etilsa, birinchi, o‘rta va bitiruvchi kurs talabalari ko‘rsatkichlarini o‘zaro qiyoslash kasbiy identiklikning ta’lim jarayonidagi rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Bunday qiyosiy tahlil pedagogik ta’lim davomida kasbiy motivatsiya, kasbiy o‘zini anglash va kasbiy qadriyatlarning qanday o‘zgarishini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyot boshlanishidan oldingi va yakunlangandan keyingi diagnostika natijalarini taqqoslash real pedagogik faoliyat tajribasining kasbiy identiklik rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Bunday longitudinal yondashuv kasbiy identiklikning shakllanish jarayonini vaqt omili bilan bog‘liq holda o‘rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda kasbiy identiklik maqomlarini shaxsning o‘zgarmas xususiyati yoki doimiy tavsifi sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki kasbiy identiklik dinamik psixologik tuzilma bo‘lib, u shaxsning kasbiy tajribasi, refleksiyasi va ta’lim jarayonidagi rivojlanishi ta’sirida o‘zgarib boradi. Jumladan, moratoriy holati ayrim talabalar uchun salbiy ko‘rsatkich emas, balki kasbiy imkoniyatlarni faol o‘rganish, turli muqobil variantlarni tahlil qilish hamda mustaqil kasbiy qaror qabul qilish bosqichini ifodalashi mumkin. Xuddi shuningdek, diffuz yoki majburan qabul qilingan identiklik aniqlanishi ham talabaning pedagogik faoliyatga layoqatsizligini anglatmaydi. Aksincha, bunday natijalar talabaning kasbiy rivojlanishida qo‘shimcha psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, kasbiy maslahatlar, refleksiv mashg‘ulotlar va amaliy tajribani boyitishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Kasbiy identiklik diagnostikasi faqat mavjud holatni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, pedagogik ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi zarur. Diagnostika natijalari asosida talabalarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Jumladan, kasbiy tanlovi hali aniq shakllanmagan talabalar bilan pedagog kasbining mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglashga qaratilgan suhbatlar, maktab muhitiga erta moslashtirish tadbirlari, pedagogik kuzatuvlar hamda turli kasbiy rollarni sinab ko‘rishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Moratoriy bosqichidagi talabalar bilan esa kasbiy muqobillarni tahlil qilish, shaxsiy qadriyatlarni aniqlashtirish, kasbiy maqsadlarni belgilash va refleksiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan trening hamda seminarlar samarali natija beradi.

Shakllangan kasbiy identiklikka ega bo‘lgan talabalarda ham kasbiy rivojlanish jarayoni uzluksiz davom etadi. Shu sababli ular uchun murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, kichik ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, mentorlik faoliyatida ishtirok etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan faoliyatlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv kasbiy identiklikni yakunlangan natija emas, balki uzluksiz boyib va takomillashib boradigan rivojlanish jarayoni sifatida qo‘llab-quvvatlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy identiklikni rivojlantirish maqsadida refleksiv kundaliklar yuritish, pedagogik amaliyot portfelini shakllantirish, "ustoz-shogird" tizimini takomillashtirish, kasbiy munozaralar, keys-stadilar, muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda refleksiv seminarlarni muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur faoliyatlar talabaning pedagogik topshiriqlarni shunchaki bajarishi bilan cheklanib qolmay, ularning mazmuni va mohiyatini chuqur anglashiga, kasbiy tajribani tahlil qilishiga hamda shaxsiy kasbiy pozitsiyasini shakllantirishiga xizmat qiladi. Natijada nazariy bilimlar, amaliy faoliyat, kasbiy qadriyatlar, refleksiya va shaxsiy pedagogik pozitsiya o'rtasida mustahkam hamda uzviy bog'liqlik yuzaga keladi. Bu esa bo'lajak pedagoglarda barqaror kasbiy identiklikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklikning shakllanishi kasb tanlash, nazariy tayyorgarlik, pedagogik tajriba, ijtimoiy muhit, shaxsiy qadriyatlar va refleksiya o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida kechadigan murakkab va dinamik jarayondir. Uni o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, ijtimoiy-psixologik hamda refleksiv-rivojlantiruvchi yondashuvlarni kompleks qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday integrativ yondashuv kasbiy identiklikning nafaqat tashqi namoyon bo'lish shakllarini, balki uning ichki mazmuni, shakllanish bosqichlari va rivojlanish mexanizmlarini ham chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Kasbiy identiklikni diagnostika qilishda standart so'rovnomalarni sifat tadqiqot usullari hamda real pedagogik faoliyatni kuzatish metodlari bilan uyg'unlashtirib qo'llash ilmiy jihatdan yanada ishonchli natijalarni ta'minlaydi. Xususan, L.B. Shneyderning metodikasi hamda A.A. Azbel va A.G. Gretsovning so'rovnomasi kasbiy identiklik maqomini aniqlashga, B. Bassning shaxs yo'nalganligini aniqlash so'rovnomasi esa shaxsning motivatsion yo'nalishini baholashga xizmat qiladi. Refleksiv esse, suhbat va kuzatish metodlari esa talabaning kasbiy "Men" konsepsiyasi, kasbiy qadriyatlari hamda ularning real pedagogik faoliyatdagi namoyon bo'lishini aniqlash imkonini beradi. Diagnostika natijalaridan talabalarni baholash yoki ularni qat'iy guruhlarga ajratish vositasi sifatida emas, balki ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, pedagogik amaliyotni takomillashtirish va kasbiy refleksiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy asos sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асмолов А. Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. Москва: Смысл, 2001.

2. Климов Э. А. Психология профессионального самоопределения. Москва: Академия, 2004.

3. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Политиздат, 1975.

4. Митина Л. М. Психология профессионального развития учителя. Москва: Флинта, 1998.

5. Никифоров Г. С. Психология профессиональной деятельности. Санкт-Петербург: Речь, 2001.

6. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа, 1990.

7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер, 2002.

8. Kuhn M. H., McPartland T. S. An empirical investigation of self-attitudes // American Sociological Review. 1954. Vol. 19, No. 1. P. 68–76.

9. Шнейдер Л. Б. Личностная, гендерная и профессиональная идентичность: теория и методы диагностики. Москва: Московский психолого-социальный институт, 2007.

10. Шадриков В. Д. Психология деятельности и способности человека. Москва: Логос, 1996.

11. Грецов А. Г., Азбель А. А. Узнай себя: психологические тесты для подростков. Санкт-Петербург: Питер, 2006.

12. Bass B. M. The Orientation Inventory. Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1962.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

378.147:53:574

Sodiqov Murod Naimovich,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
"Informatsion texnologiyalar, biofizika va tibbiy fizika" kafedrasi assistenti

TABIIY RADIATSION FONNING BIOLOGIK TIZIMLARGA TA'SIRINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta'siri" mavzusini interfaol metodlar orqali ilmiy pedagogik asoslash natijalari keltirilgan. Tatbiq qilingan metodlarning yutuq va kamchiliklari o'rganilib, masala yechimlari bilan birga tahlil qilinib, darsning natijalariga erishish usullari o'rganilgan. Interfaol "Debat" metodi asosida o'tkazilgan dars jarayoni o'zining sezilarli 11,86% samarasini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: "Debat", bahs, muammoli ta'lim, radiatsiya, radiatsion fon, ionlashtiruvchi nurlanish.

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ЕСТЕСТВЕННОГО РАДИАЦИОННОГО ФОНА НА БИОЛОГИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Аннотация. В данной статье представлены результаты научно-педагогического обоснования темы "Анализ влияния естественного радиационного фона на биологические системы на основе инновационных методов". Изучены преимущества и недостатки применяемых методов, проанализированы пути решения проблем, изучены методы достижения результатов урока. Процесс урока, проведенный на основе интерактивного метода «Дебат», показал значительную эффективность 11,86%.

Ключевые слова: «Дебат», обсуждение, проблемно-ориентированное образование, радиация, радиационный фон, ионизирующее излучение.

ANALYSIS OF THE EFFECT OF NATURAL RADIATION BACKGROUND ON BIOLOGICAL SYSTEMS BASED ON INTERACTIVE METHODS

Abstract. This article presents the results of scientific and pedagogical substantiation of the topic "Analysis of the impact of natural radiation background on biological systems based on innovative methods". The advantages and disadvantages of the applied methods were studied, analyzed along with the problem solutions, and methods for achieving the results of the lesson were studied. The

lesson process, conducted based on the interactive "Debat" method, showed a significant 11.86% effectiveness.

Keywords: "Debate", discussion, problem-based education, radiation, radiation background, ionizing radiation.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida oliy ta'lim muassasalarida talabalarni tayyorlash samaradorligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy ta'lim modelida o'qituvchi asosan bilim beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va boshqaruvchi fasilitator vazifasini bajaradi. Talaba esa bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va amaliy faoliyatda qo'llash jarayonida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Interfaol o'qitish metodlari aynan ushbu tamoyillarga asoslanib, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday metodlardan foydalanish nafaqat o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi, balki talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillar asosida fikr yuritish va o'z nuqtayi nazarini asoslash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida samarali qo'llanilayotgan interfaol metodlardan biri sifatida «Debat» metodini alohida ta'kidlash mumkin. Mazkur metod talabalarning muayyan ilmiy yoki amaliy muammo yuzasidan turli nuqtayi nazarlarni ilgari surishi, ularni dalillar asosida himoya qilishi va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitishda, jumladan, "Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta'siri" kabi murakkab va ko'p qirrali mavzularni o'zlashtirishda debat texnologiyasidan foydalanish talabalarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va mavzuga tanqidiy yondashuvini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

"Debat" metodi muayyan yig'ilish, mashg'ulot yoki seminar jarayonida tanlangan muammo yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida bahs-munozarani tashkil etishga asoslanadi. Ushbu metod orqali talabalar muammoli vaziyatni mustaqil o'rganish, mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, o'z fikrlarini mantiqiy asoslash, jamoaviy ishlash hamda yakuniy xulosaga kelish ko'nikmalarini egallaydilar [3]. Shu jihatdan debat metodi nafaqat bilimlarni mustahkamlash vositasi, balki talabalarning kommunikativ, tahliliy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mashg'ulotlarda "Debat" metodidan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

o'rganilayotgan mavzu doirasida muhokama va bahs yuritishni talab qiluvchi muammoli masala tanlanadi;

tanlangan muammo bo‘yicha qarama-qarshi fikrlarni ifodalovchi ikki tomon shakllantiriladi;

talabalar muammo yuzasidan mustaqil izlanish olib borib, o‘z pozitsiyalarini ilmiy dalillar asosida tayyorlaydilar;

individual talabalar, guruhlar yoki juftliklar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi;

ekspertlar yoki o‘qituvchi tomonidan bildirilgan fikrlarning ilmiy asoslanganligi baholanadi;

debat jarayonida ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi;

mashg‘ulot natijalari tahlil qilinadi va talabalar faoliyati baholanadi.

“Debat” metodining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

talabalarning fanga va dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

ta’lim jarayonida talabalar faolligini ta’minlaydi;

mustaqil fikrlash, dalillar asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

ijodiy yondashuv va mas’uliyat hissini shakllantiradi;

jamoada ishlash, muloqot qilish va o‘z fikrini himoya qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, mazkur metodni qo‘llash jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham mavjud:


o‘qituvchidan bahs jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha yuqori pedagogik mahorat talab etiladi;

ayrim hollarda talabalar o‘rtasidagi faol munozara auditoriyada tartibni saqlash bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirishi mumkin;

muammoni yetarli darajada ilmiy asoslamasdan muhokama qilish yuzaki xulosalarga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Umuman olganda, interfaol “Debat” metodi talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, jamoaviy faoliyat olib borishga, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilishga hamda asoslangan qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Muammoli vaziyatlarni tashkil etishdan asosiy maqsad mavjud ilmiy va amaliy imkoniyatlardan foydalangan holda talabalar o‘rtasida muammoni hal etishga qaratilgan fikrlarni shakllantirish, ularni muhokama qilish va tahlil qilish orqali samarali yechimlarni ishlab chiqish uchun pedagogik muhit yaratishdan iborat.

Dars jarayonida bunday zamonaviy usulning qo‘llanilishi talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga, berilayotgan materiallarni eslab qolishlariga, dars davomida faol qatnashishlariga asos bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro hamkorlik o‘rnatilishiga va ko‘zlangan maqsadga erishilishiga olib keladi.



1-rasm. "Debat" metodining tuzilishi.

"Biofizika" va "Radiobiologiya" fanlarida "Debat" metodidan foydalanish imkoniyatlari

"Biofizika" va "Radiobiologiya" fanlarini o'qitishda murakkab, ko'p qirrali va turli ilmiy nuqtayi nazarlarni talab qiluvchi mavzularni interfaol metodlar asosida o'rganish samarali natijalar beradi. Xususan, "Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta'siri" mavzusini "Debat" metodi asosida tashkil etish talabalarni ilmiy manbalar bilan ishlashga, turli qarashlarni tahlil qilishga, dalillar asosida xulosa chiqarishga va muammoga tanqidiy yondashishga o'rgatadi.

Mavzu bayoni: "Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta'siri" mavzusining pedagogik tahlili

Tabiiy radiatsion fon — Yer atmosferasi va biosferasida doimo mavjud bo'lgan tabiiy ionlashtiruvchi nurlanishlar majmuasidir. U asosan koinotdan keluvchi nurlanishlar, yer po'stlog'idagi tabiiy radionuklidlar, qurilish materiallari, suv, oziq-ovqat mahsulotlari va atmosfera tarkibidagi radioaktiv elementlar hisobiga shakllanadi. Tabiiy radiatsiya manbalari inson organizmiga tashqi va ichki nurlanish yo'llari orqali ta'sir ko'rsatadi. Tashqi nurlanish manbalariga kosmik nurlanish hamda tuproq va qurilish materiallaridagi radionuklidlar kirsa, ichki nurlanish manbalari sifatida havo, suv va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi radioaktiv elementlar qaraladi [1].

Koinot radiatsiyasi asosan galaktik va quyosh radiatsiyalaridan tashkil topadi. Yer yuzasiga yetib keluvchi kosmik nurlar yuqori energiyali yadro zarralar oqimi bo'lib, birlamchi kosmik nurlanish deb ataladi. Galaktik kosmik nurlar Quyosh sistemasidan tashqaridagi manbalardan kelib chiqsa, quyosh radiatsiyasi Quyosh faolligi bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Kosmik zarralarning atmosfera tarkibidagi atom va molekulalar bilan o'zaro ta'siri natijasida ikkilamchi kosmik nurlanish hamda turli radionuklidlar hosil bo'ladi.

Tabiiy radionuklidlar yer qatlamlarida turlicha miqdorda uchraydi. Xususan, granit tog' jinslari tarkibida radioaktiv elementlar miqdori yuqori bo'lsa, ohaktosh va qum jinslarida ularning miqdori nisbatan kamroq bo'ladi. Tabiiy radioaktiv

gazlardan biri bo‘lgan radonning tuproqdan atmosferaga chiqish tezligi tuproqning tarkibi, namligi, harorati va boshqa ekologik omillarga bog‘liq. Masalan, qor qoplami radon ajralishini vaqtincha kamaytirishi mumkin, biroq keyingi davrlarda tabiiy nurlanish fonining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Radiatsion gigiyena nuqtayi nazaridan ionlashtiruvchi nurlanishning biologik ta’siri asosan “doza–effekt” munosabati orqali baholanadi. Ya’ni, nurlanish dozasi ortishi bilan biologik ta’sir ehtimoli ham ortib boradi [2]. Shu bilan birga, tabiiy radiatsion fon tirik organizmlar evolyutsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Tabiatdagi mavjud radiatsion muhit sharoitida barcha tirik organizmlar uzoq evolyutsion jarayon davomida moslashgan.

Radioaktivlikning biologik tizimlarga ta’siri masalasida ilmiy munozaralar mavjud bo‘lib, ulardan biri radiatsion gormezis nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, kichik dozadagi ionlashtiruvchi nurlanish ayrim biologik jarayonlarni rag‘batlantirishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda tabiiy radiatsion fonning juda past darajaga tushirilishi organizmlarning rivojlanish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan. Biroq ionlashtiruvchi nurlanishning yuqori dozalarining zararli ta’siri ilmiy jihatdan isbotlangan bo‘lib, radiatsiya xavfsizligi me’yorlariga qat’iy rioya qilish talab etiladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishning biologik ta’sirida ma’lum chegaraviy omillar mavjud bo‘lib, kichik dozalar ko‘pincha organizm tomonidan himoya mexanizmlari orqali kompensatsiya qilinadi. Aholi yashash hududlarida radiatsion xavfsizlikni ta’minlash maqsadida nurlanish dozalarining ruxsat etilgan me’yorlari belgilangan. Jumladan, ayrim me’yoriy hujjatlarda aholining qo‘shimcha nurlanish dozasi yiliga 5 millizivertdan oshmasligi kerakligi ko‘rsatilgan [3].

Mazkur mavzu “Debat” metodini qo‘llash uchun qulay pedagogik imkoniyat yaratadi. Chunki tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta’siri masalasida “radiatsiya faqat zararli omilmi?”, “kichik dozadagi nurlanish foydali bo‘lishi mumkinmi?”, “insoniyat tabiiy radiatsion muhitga qanday moslashgan?” kabi muammoli savollar asosida talabalar o‘rtasida ilmiy bahs tashkil etish mumkin. Bunday yondashuv talabalarning biologik jarayonlarni chuqur anglashiga, ilmiy dalillarni tahlil qilishiga va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Ionlashtiruvchi nurlanishning biologik ta’siri uchun xarakterli bo‘lgan umumiy qonunlari quyidagilardan iborat:

1. Nurlanishning yutilgan juda kichik miqdori ta’sirida sezilarli darajadagi biologik buzilishlar sodir bo‘ladi.

2. Ionlashtiruvchi nurlanish faqat nurlanayotgan biologik ob’ektga emas, hujayralarning irsiyat apparati orqali keyingi avlodiga ham ta’sir qiladi.

3. Ionlashtiruvchi nurlanishning biologik ta’siriga yashirin davr xosdir.

4. Nurlanishning bir fazasiga hujayra turli qismlarining sezgirligi o‘zaro farqlanib, hujayraning yadrosi nurlanish ta’siriga eng sezgir hisoblanadi.

5. Nurlanishda birinchi o‘suvchi to‘qimalar jarohatlanadi. Intensivligi juda oz bo‘lgan nurlanishlar hujayraga shikast yetkazishi va havfli nur kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. Nurlanish intensivligi katta bo‘lganda organizm nobud bo‘ladi[7].

Organizmning turli to‘qimalarining radiorezistentligi o‘rganil-ganda jinsiy hujayralar, qon hosil qiluvchi hujayralar va limfotsitlar kuchli ta’sirlanuvchan, muskul, tog’ay to‘qimalari nisbatan kam ta’sirlanuv-chanligi qayd qilingan. Radiatsion nurlanish organizmda nurlanish kassalligi ni keltirib chiqarib, bunda uchta faza - birlamchi o‘zgarish, inkubatsiya va nurlanish kasalligi fazalari ajratib o‘rganiladi[5].



1-rasm. Radiatsion fonni o‘lchaydigan DT- 1130 dozimetri, MKS-01SA1B dozimetr-radiometri


Biz taklif qilayotgan “Debat” interfaol metodi “Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta’siri” mavzusini o‘rganish va pedagogik tahlil qilish imkonini beradi. Bunda DT-1130 dozimetri va MKS-01SA1B dozimetr-radiometri asboblaridan foydalaniladi[4].

Mazkur jarayonlardanatijalarning ilmiy yangiligi shundan iboratki, biz professional ta’lim tizimi talabalarining mustaqil ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida, Buxoro tibbiyot instituti, “II-Pediatriya va tibbiy biologiya” fakulьteti, “Biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyalari” kafedrasi 60910200 - “Davolash ishi” ta’lim yo‘nalishining 1-bosqich DI-104, DI-107, DI-110, DI-112r guruhlari talabalariga, 60910300 -“Pediatriya ishi” ta’lim yo‘nalishining 1-bosqich PI-101P1, PI-106P2, PI-109P2, PI-112P2 guruhlari talabalariga, 60910600-“Tibbiy biologiya” ta’lim yo‘nalishining 1-bosqich TB-101, TB-102, TB-103, TT-401, TT-402, TT-403 guruhlari talabalari uchun“Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta’siri” mavzusini o‘qitishda talabalarning kompetentsiyalarini shakllantirish maqsadida, tashkil etilgan o‘quv mashg’uloti natijalarini aniqlash uchun empirik tadqiqotlarni o‘tkazdik.Tajriba olib boriladigan

auditoriyalar elektron ta'lim resurslaribilan jihozlangan bo'lib, guruh talabalari ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo'lindi: birinchi nazorat guruh talabalariga (8 nafar) an'anaviy metod tarzida, ikkinchi tajriba guruh talabalariga (8 nafar) esa interfaol metodlardan foydalangan holda dars mashg'ulotlari olib borildi.


Dastlabki guruhda 8 nafar talaba bor edi va ular quyidagicha baho olishdi:

1 ta talaba 5 baho = 34% (o'rtacha)
2 ta talaba 4 baho = 52% (o'rtacha)
4 ta talaba 3 baho = 76% (o'rtacha)
1 ta talaba 2 baho = 34% (o'rtacha)
O'zlashtirish darajasi = (34%+52%+76%+34%)/4=49%



Ikkinchi guruh talabalariga interfaol metod -"Debat"usulidan foydalanib, natijalar olindi.Bu guruhda jami 8 nafar talaba bor va ularning natijalari quyidagilardan iboratdir:

2 ta talaba 5 baho = 53% (o'rtacha)
4 ta talaba 4 baho = 76% (o'rtacha)
2 ta talaba 3 baho = 53% (o'rtacha)
O'zlashtirish darajasi = (53%+76%+53%)/3=60,66%



Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim jarayonida, xususan, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “Biofizika” va “Radiobiologiya” fanlarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “Debat” metodidan foydalanish talabalarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga, ilmiy dalillar asosida o‘z fikrini shakllantirish va himoya qilishga, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash hamda asoslangan xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi.

“Tabiiy radiatsion fonning biologik tizimlarga ta’siri” mavzusini mazkur metod asosida tashkil etish natijasida talabalar nafaqat mavzuga oid nazariy bilimlarni mustahkamladilar, balki radiatsiyaning biologik ta’siri, uning foydali va zararli jihatlari, radiatsion xavfsizlik masalalari bo‘yicha tanqidiy va ilmiy yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, debat jarayoni talabalarda muloqot madaniyati, jamoada ishlash, o‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, mustaqil izlanish olib borish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qildi [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Debat” metodidan foydalanib tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligi an’anaviy o‘qitish metodlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, pedagogik tajriba natijalarida 11,86 % ijobiy samaradorlik qayd etildi. Bu ko‘rsatkich interfaol metodlarning talabalarning dars jarayonidagi faolligi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

tabiiy fanlarni, xususan, biofizika va radiobiologiya fanlarini o‘qitishda muammoli ta’lim va interfaol metodlardan muntazam foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

“Debat” metodini murakkab, ko‘p qirrali va turli ilmiy qarashlarni talab qiluvchi mavzularni o‘zlashtirish jarayoniga keng tatbiq etish;

talabalarni ilmiy manbalar bilan mustaqil ishlashga, dalillar asosida fikr yuritishga va xulosalar chiqarishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

interfaol metodlarning samaradorligini baholash bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini takomillashtirish.

Umuman olganda, “Debat” metodi ta’lim jarayonini faollashtiruvchi, talabalarning intellektual va kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur metoddan foydalanish tibbiy ta’limda nafaqat fanlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish, balki kelajakdagi mutaxassislarning ilmiy dunyoqarashi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. – 590 b.
2. Bazarbayev M.I., Radjabova G.G‘., Bekmurodova G.A., Fayziyeva N.A., Norbutayeva M.Q. Umumiy va tibbiy radiobiologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019. – B. 107–120.
3. Umarov S.X., Bozorov E.X., Jabborova O.I. Tibbiy texnika va yangi tibbiy texnologiyalar. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 216 b.
4. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, O‘zPFITI.
5. Hoshimov X.P. Biofizika fanidan ma’ruzalar to‘plami. – Namangan, 2024. – B. 51–52.
6. Vladimirov Yu.A. va boshqalar. Biofizika. Darslik. – Moskva: Meditsina, 1983.
7. Qosimov M.M., Gagelgans A.I. Biofizika. Ma’ruzalar matni. – Toshkent, 2000.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.091.3:811.111:004.9

Shermatova Ra'no O'ktam qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Baxodirova Gulnoz Kamalovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti bo'lim boshlig'i

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA VEB-KVESTLAR VA RAQAMLI KEYSLARDAN FOYDALANISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida veb-kvestlar va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish metodikasining nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy raqamli ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari hamda raqamli savodxonligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Veb-kvest va raqamli keys texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari, ularning didaktik xususiyatlari hamda ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni samarali qo'llashning pedagogik va psixologik shartlari, jumladan, o'quv motivatsiyasi, metakognitiv strategiyalar, hamkorlikdagi ta'lim va o'qituvchining metodik tayyorgarligi masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: veb-kvest, raqamli keys, ingliz tilini o'qitish metodikasi, raqamli ta'lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВЕБ-КВЕСТОВ И ЦИФРОВЫХ КЕЙСОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы методики использования веб-квестов и цифровых кейсов в процессе обучения английскому языку. Исследованы вопросы развития коммуникативной компетенции, критического мышления, навыков самостоятельного обучения и цифровой грамотности учащихся в условиях современной цифровой образовательной среды. Раскрыты педагогические возможности веб-квестов и цифровых кейс-технологий, их дидактические особенности и роль в повышении эффективности обучения английскому языку. Особое внимание уделено педагогическим и психологическим условиям эффективного применения данных технологий, включая учебную мотивацию,

метакогнитивные стратегии, организацию совместного обучения и методическую подготовку преподавателя.

Ключевые слова: веб-квест, цифровой кейс, методика обучения английскому языку, цифровые образовательные технологии, коммуникативная компетенция, критическое мышление, самостоятельное обучение.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR USING WEBQUESTS AND DIGITAL CASES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the methodology for using WebQuests and digital cases in English language teaching. The study highlights the importance of developing students' communicative competence, critical thinking, independent learning skills, and digital literacy within a modern digital educational environment. The pedagogical potential, didactic characteristics, and role of WebQuest and digital case technologies in improving the effectiveness of English language instruction are theoretically examined. Particular attention is paid to the pedagogical and psychological conditions for the effective implementation of these technologies, including learning motivation, metacognitive strategies, collaborative learning, and teachers' methodological competence.

Keywords: WebQuest, digital case, English language teaching methodology, digital educational technologies, communicative competence, critical thinking, independent learning.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari xorijiy tillarni o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy jamiyatda chet tilini egallash nafaqat lingvistik bilimlarni o'zlashtirish, balki xalqaro muloqotda samarali ishtirok etish, turli madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilish, axborotni izlash, tahlil etish va undan maqsadli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda uzluksiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

XXI asr ta'lim konsepsiyalarida o'quvchi tayyor bilimlarni passiv o'zlashtiruvchi emas, balki bilimlarni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi, amaliyotda qo'llovchi va o'z ta'lim faoliyatini samarali boshqara oladigan faol subyekt sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini o'quvchi markazli tashkil etishni

hamda raqamli pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari ingliz tilini o‘qitishda ta’limning interaktivligi, amaliy yo‘naltirilganligi va kompetensiyaviy yondashuvni ta’minlovchi innovatsion vositalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Veb-kvest texnologiyasi o‘quvchilarning internet manbalari bilan maqsadli ishlashi, axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash va olingan ma’lumotlar asosida mustaqil xulosalar hamda amaliy mahsulot yaratish faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. Raqamli keys texnologiyasi esa real yoki modellashtirilgan kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va asoslangan qarorlar qabul qilish orqali o‘quvchilarning kommunikativ, analitik va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Mazkur texnologiyalarni birlashtiruvchi asosiy xususiyat ta’lim jarayonini faol, hamkorlikka asoslangan, muammoli va amaliy faoliyat shakliga aylantirishdan iborat.

Xalqaro pedagogik tadqiqotlarda veb-kvest va raqamli keyslardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil ta’lim strategiyalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash hamda kommunikativ faoliyatini faollashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ta’kidlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida axborot bilan ishlash, ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish va raqamli savodxonlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish hamda ilg‘or xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda raqamli texnologiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish, innovatsion o‘qitish metodlarini amaliyotga tatbiq etish hamda zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifalari belgilab berilgan.

Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari, ularning didaktik imkoniyatlari, pedagogik samaradorligi hamda qo‘llash mexanizmlarini kompleks tadqiq etishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish metodikasining nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, mustaqil ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika hamda chet tillarni o‘qitish metodikasining ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda raqamli ta’lim vositalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning

bilish faolligini oshirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi [1; 2].

Raqamli ta'limning nazariy asoslarini izohlashda R. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia ta'lim nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ta'lim samaradorligi axborotni vizual va verbal kanallar orqali uyg'un tarzda taqdim etish, kognitiv yuklamani maqbul darajada tashkil etish hamda o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv veb-kvest va raqamli keyslarni loyihalashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki multimedia vositalaridan maqsadli foydalanish o'quv materialining samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi [3].

Veb-kvest texnologiyasining ilmiy-metodik asoslari B. Dodge tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda internet resurslariga tayangan holda tadqiqot va muammoli faoliyatni tashkil etish modeli taklif etilgan. Ushbu texnologiya o'quvchilarni tayyor axborotni passiv qabul qilishdan ko'ra, ma'lumotlarni izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash va ular asosida yangi bilim hamda amaliy natija yaratishga yo'naltiradi. Shu jihatdan veb-kvestlar tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, ijodkorlik va mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida baholanadi [4].

Raqamli keys texnologiyasi muammoli ta'lim va case-study metodologiyasiga asoslanib, o'quvchilarni real yoki modellashtirilgan vaziyatlarni tahlil qilish, muammoning mohiyatini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda asoslangan qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Ingliz tilini o'qitish amaliyotida raqamli keyslardan foydalanish kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, nutqiy faoliyatni faollashtirish, muloqot strategiyalarini rivojlantirish va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish imkonini beradi [5].

O'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va mustaqil faoliyatini tushuntirishda E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash (Self-Determination) nazariyasi muhim nazariy asos hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, ta'lim faoliyatining samaradorligi avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarining qondirilishiga bog'liq. Veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari o'quvchilarga mustaqil tanlov qilish, hamkorlikda ishlash va o'z qarorlarini asoslash imkonini yaratishi orqali ichki motivatsiyani kuchaytiradi [6].

Metakognitiv yondashuvning nazariy asoslari J. Flavell va B. Zimmerman tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, samarali ta'lim o'quvchining o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, monitoring qilish va baholash qobiliyatiga bevosita bog'liq. Veb-kvest hamda raqamli keyslarni bajarish jarayonida o'quvchilar axborot izlash strategiyalarini tanlaydi, manbalarning ishonchliligini baholaydi, o'z faoliyati natijalarini tahlil qiladi va refleksiya olib boradi. Bu esa metakognitiv kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi [7; 8].

L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi ham raqamli hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyatini tushuntirishda muhim nazariy asoslardan biridir. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilimlar ijtimoiy hamkorlik va muloqot jarayonida shakllanadi hamda rivojlanadi. Veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari guruhli faoliyat, o'zaro fikr almashish, muhokama va hamkorlikda muammolarni hal etish orqali mazkur tamoyillarni amaliyotga tatbiq etadi [9].

Xalqaro ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan konseptual hujjatlarda ham XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli savodxonlikni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlari sifatida qayd etilgan [10; 11]. O'zbekistonda ham ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va ilg'or xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [12; 13].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'llashning metodik mexanizmlari, didaktik shart-sharoitlari va samaradorligini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz tilini o'qitish jarayonida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish metodikasining nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogik tadqiqotlarning umumilmiy tamoyillari hamda zamonaviy raqamli ta'lim konsepsiyalariga tayanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va axborot-kommunikatsion yondashuvlar tashkil etdi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida ingliz tilini o'qitish jarayoni o'quvchilarda nafaqat til bilimlari va nutqiy ko'nikmalarni, balki kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim olish, muammolarni hal etish hamda raqamli savodxonlikni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro ta'lim konsepsiyalari, jumladan, OECD tavsiyalariga mos keladi [10; 14].

Tizimli yondashuv asosida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari ingliz tilini o'qitishning alohida vositasi sifatida emas, balki ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalarini o'zaro bog'lovchi yaxlit pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida tahlil qilindi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining barcha komponentlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash va texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini kompleks baholash imkonini berdi [14].

Tadqiqotning nazariy qismida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, raqamli ta'lim texnologiyalari, veb-kvest, raqamli keys, multimedia asosida o'qitish, metakognitiv rivojlanish hamda mustaqil ta'limga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili asosida mazkur texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, didaktik xususiyatlari va ingliz tilini o'qitishda qo'llash shart-sharoitlari aniqlashtirildi [1; 4].

Qiyosiy tahlil metodi yordamida an'anaviy o'qitish usullari bilan raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim shakllarining o'ziga xos jihatlari taqqoslandi. Tahlil natijalari veb-kvestlarning, asosan, axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligini, raqamli keyslarning esa muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kommunikativ faoliyatni faollashtirish hamda asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi [5].

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv tadqiqotning muhim metodologik tamoyillaridan biri sifatida qaraldi. Mazkur yondashuvga ko'ra, o'quvchi tayyor bilimlarni passiv o'zlashtiruvchi emas, balki faol izlanish, hamkorlik va amaliy faoliyat orqali bilimlarni egallovchi subyekt hisoblanadi. Ushbu tamoyil L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi bilan uyg'un bo'lib, ta'lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik, muloqot va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitining ahamiyatini asoslaydi [9].

Tadqiqotda multimedia ta'lim nazariyasi, o'zini o'zi boshqarib o'rganish (self-regulated learning) hamda metakognitiv rivojlanish konsepsiyalaridan ham metodologik asos sifatida foydalanildi. Xususan, R. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasi raqamli ta'lim materiallarini loyihalash va taqdim etish tamoyillarini belgilashda, E. Deci va R. Ryanning o'zini o'zi belgilash nazariyasi esa o'quv motivatsiyasi hamda mustaqil ta'lim faoliyatining psixologik mexanizmlarini izohlashda nazariy asos bo'lib xizmat qildi [3; 6]. Shuningdek, J. Flavell va B. Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan metakognitiv yondashuv o'quvchilarning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini tahlil etishda qo'llanildi [7; 8].

Tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta'minlash maqsadida ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, nazariy qarashlarni qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan kompleks foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuvlar asosida ingliz tilini o'qitishda veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlari hamda ularni samarali qo'llashning metodik asoslari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilini o'qitish jarayonida veb-kvestlar va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyalarini, balki XXI asr uchun zarur bo'lgan kognitiv,

kommunikativ va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazariy manbalar tahlili asosida mazkur texnologiyalarning samaradorligi ularning o‘quvchini faol ta’lim subyekti sifatida shakllantirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Veb-kvestlar va raqamli keyslarning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish natijasida ularning umumiy jihati o‘quvchilarni mustaqil izlanish, axborot bilan ishlash va amaliy vazifalarni bajarishga yo‘naltirishdan iborat ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar o‘zining metodik maqsadi va ta’lim jarayonidagi funksiyalariga ko‘ra farqlanadi. Veb-kvestlar asosan axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va yangi ta’lim mahsulotini yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, raqamli keyslar muammoli vaziyatlarni hal etish, fikr almashish va asoslangan qaror qabul qilish jarayonlariga xizmat qiladi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

Veb-kvestlar va raqamli keyslarning pedagogik xususiyatlari

Mezoni	Veb-kvestlar	Raqamli keyslar
Asosiy yo‘nalishi	Axborotni izlash va tadqiqot faoliyati	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish
Ta’lim modeli	Izlanishga asoslangan ta’lim	Vaziyatli va muammoli ta’lim
O‘quvchi faoliyati	Ma’lumotlarni qidirish, saralash, umumlashtirish	Qaror qabul qilish, bahslashish, xulosa chiqarish
Rivojlantiruvchi kompetensiyalar	Raqamli savodxonlik, tadqiqotchilik, mustaqil o‘rganish	Kommunikativ kompetensiya, analitik fikrlash, argumentatsiya
Ingliz tilidagi amaliy ahamiyati	Til materiallarini mustaqil o‘zlashtirish va taqdimot qilish	Real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo‘llash
Yetakchi metodik tamoyil	Axborotga asoslangan izlanish	Muammoga asoslangan o‘rganish

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, veb-kvest va raqamli keys texnologiyalarini qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi metodik vositalar sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ingliz tili darslarida dastlab veb-kvest orqali o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha mustaqil axborot to‘plash vazifasi berilishi, keyingi bosqichda esa raqamli keys yordamida ushbu ma’lumotlarni amaliy kommunikativ vaziyatda qo‘llash imkoniyati yaratilishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim natija shundan iboratki, mazkur texnologiyalarning samaradorligi texnik vositalarning mavjudligi bilan emas, balki ularning pedagogik maqsadga muvofiq loyihalashtirilishi bilan belgilanadi. R. Mayerning multimedia ta’lim nazariyasiga ko‘ra, raqamli materiallardan

foydalanishda axborot hajmini me'yorlash, mazmun va shakl o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash o'quvchilarning kognitiv yuklamasini kamaytiradi [10]. Shu nuqtayi nazardan, veb-kvest va raqamli keyslarni ishlab chiqishda ortiqcha axborot yuklamasidan qochish hamda aniq o'quv maqsadlarini belgilash zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Deci va Ryan tomonidan ilgari surilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasiga ko'ra, o'quvchi faoliyatida mustaqillik, tanlov imkoniyati va hamkorlik mavjud bo'lsa, uning ichki motivatsiyasi oshadi [6]. Veb-kvestlar o'quvchilarga mustaqil izlanish imkoniyatini bersa, raqamli keyslar guruhli muhokama va hamkorlikdagi qaror qabul qilish jarayonlarini tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari veb-kvest va raqamli keyslarning metakognitiv rivojlanishga ta'sirini ko'rsatdi. O'quvchilar mazkur faoliyat jarayonida ma'lumot qidirish strategiyalarini tanlaydi, o'z faoliyatini nazorat qiladi va natijalarni baholaydi. Bu jarayon J. Flavell va B. Zimmerman tomonidan ilgari surilgan metakognitiv nazorat va o'zini o'zi boshqarib o'rganish tamoyillariga mos keladi [7; 8].

Ingliz tilini o'qitish amaliyotida raqamli keyslar ayniqsa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Chunki til o'rganish jarayonida o'quvchi faqat grammatik qoidalarni bilishi emas, balki turli vaziyatlarda fikrini ifodalash, muammoni muhokama qilish va muloqot strategiyalaridan foydalanishni ham o'rganishi lozim. Shu jihatdan raqamli keyslar real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish jarayonida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari hamda raqamli savodxonligini rivojlantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini o'quvchi markazli, interaktiv va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar natijasida veb-kvest texnologiyasi o'quvchilarning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga, raqamli keys texnologiyasi esa real yoki modellashtirilgan kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal etish, asoslangan qarorlar qabul qilish hamda samarali muloqotni tashkil etish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, mazkur texnologiyalarning pedagogik samaradorligi ularni oddiy raqamli vosita sifatida emas, balki aniq didaktik maqsadlar, kompetensiyaviy yondashuv va faol ta'lim tamoyillari asosida loyihalashtirilgan metodik tizim sifatida qo'llash bilan bevosita bog'liq. Bunda o'qituvchining metodik va raqamli kompetensiyasi, sifatli elektron ta'lim resurslarini tanlash hamda o'quvchilarning faol va hamkorlikdagi ishtirokini ta'minlash muhim omillar hisoblanadi. Umuman olganda, veb-kvest va raqamli keys

texnologiyalarini uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash ingliz tilini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan ta’lim yondashuvlarini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur texnologiyalardan tizimli foydalanish nafaqat o‘quvchilarning til va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki ularni zamonaviy raqamli ta’lim muhitida mustaqil o‘rganish, axborot bilan ishlash va kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim pedagogik shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda veb-kvest va raqamli keys texnologiyalarini umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda oliy ta’lim muassasalarida eksperimental-sinov asosida joriy etish, ularning ingliz tili bo‘yicha o‘quv natijalari va kompetensiyalar rivojiga ta’sirini empirik jihatdan baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chapelle C. A. Computer Applications in Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

2. Warschauer M., Healey D. Computers and Language Learning: An Overview // Language Teaching. 1998. Vol. 31(2). P. 57–71.

3. Mayer R. E. Multimedia Learning. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

4. Dodge B. Some Thoughts About WebQuests. San Diego State University, 1997.

5. Jonassen D. H. Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. New York: Routledge, 2011.

6. Deci E. L., Ryan R. M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. New York: Guilford Press, 2017.

7. Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. 1979. Vol. 34(10). P. 906–911.

8. Zimmerman B. J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective // Handbook of Self-Regulation. San Diego: Academic Press, 2000. P. 13–39.

9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

10. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. Paris: OECD Publishing, 2019.

11. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO Publishing, 2021.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 792.2:82-2

Ahmedova Mohlaroy,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San’atshunoslik instituti tayanch doktoranti

EPOSNING DRAMATIK EVRILISHI: “ALPOMISHNING QAYTISHI” PYESASINING SAHNAVIY TALQINLARI VA SSENOGRAFIK TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada "Alpomish" dostonining dramaturg Usmon Azim tomonidan pyesaga moslashtirilishi va o‘zbek teatrlarida sahnalashtirilishi tahlil etilgan. Andijon, Sirdaryo, Surxondaryo va Muqimiy teatrlarida sahnalashtirilgan "Alpomishning qaytishi" spektakllari qiyosiy o‘rganilib, ulardagi rejissura, ssenografiya, musiqiy bezak va aktyorlik mahorati tanqidiy baholangan. Tadqiqot teatrshunos va soha mutaxassislari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Alpomish, Usmon Azim, dramatik doston, teatr estetikasi, rejissura talqini, ssenografiya, ichki konflikt, katarsis, qiyosiy tahlil, sahna plastikasi, an’anaviy baxshichilik.

DRAMATIC TRANSFORMATION OF THE EPIC: STAGE INTERPRETATIONS AND SCENOGRAPHIC ANALYSIS OF THE PLAY "THE RETURN OF ALPOMISH"

Abstract. The article analyzes the stage adaptation of the epic "Alpomish" by playwright Usmon Azim and its production in Uzbek theaters. Through a comparative study of the performance "The Return of Alpomish" staged in the Andijan, Syrdarya, Surkhandarya, and Muqimi theaters, the study evaluates directing, scenography, music, and acting skills. The research holds practical value for theater critics and performing arts specialists.

Keywords: Alpomish, Usmon Azim, dramatic epic, theater aesthetics, directorial interpretation, scenography, internal conflict, catharsis, comparative analysis, stage movement, traditional bakhshi.

ДРАМАТИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭПОСА: СЦЕНИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ И СЦЕНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЬЕСЫ «ВОЗВРАЩЕНИЕ АЛПОМЫША»

Аннотация. В статье анализируется сценическая адаптация эпоса «Алпомыш» драматургом Усмоном Азимом и её постановка в узбекских театрах. На основе сравнительного анализа спектаклей «Возвращение Алпомыша» в театрах Андижана, Сырдарьи, Сурхандарьи и им. Мукими

оцениваются режиссура, сценография, музыкальное оформление и актерская игра. Исследование имеет практическое значение для театроведов и специалистов сферы.

Ключевые слова: Алпомыш, Усмон Азим, драматический дастан, театральная эстетика, режиссерская интерпретация, сценография, внутренний конфликт, катарсис, сравнительный анализ, сценическая пластика, традиционное искусство бахши.

Adabiyotshunoslik va teatrshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan, doston (epos) va drama tubdan farq qiluvchi ikki xil estetik tabiatga ega. Doston – voqea-hodisalarni keng ko‘lamda, asosan, tavsifiy-bayoniy vositalar hamda xronologik ketma-ketlikda aks ettiruvchi epik janrdir. Dramaturgiya esa, voqelikni harakat va keskin ziddiyatlar orqali namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan, Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” pyesasida qadimiy xalq eposi shunchaki sahnaga ko‘chirilmaydi, balki o‘ziga xos "dramatik doston" janriga evriladi. Folklor janrining sahnada talqin qilinishi va qadimiy eposning teatr qonuniyatlari asosida qayta tug‘ilishi o‘zbek teatrchiligida muhim estetik yangilik bo‘ldi.

Folklor janriga xos asarning dramaturgik jihatdan qayta ishlanishi jarayonida voqealar xronikasi qisqarib, ichki psixologik konfliktlar markazga chiqadi. Teatr estetikasi doston qahramonlarining epik ulug‘vorligini murakkab insoniy zaifliklar va iztiroblar bilan boyitadi; personajlarning tirik, biologik va psixologik mavjudot sifatidagi qiyofasini shakllantiradi. Dramaturg dostonning tashqi dinamikasidan ko‘ra, uning tagmatnidagi ma’naviy-axloqiy muammolarni ochishga va bugungi tomoshabinda “katarsis” ya’ni “ruhiy poklanish” tuyg‘usini uyg‘otishga intiladi.

Usmon Azim an’anaviy doston syujetini o‘zgartirib, uni psixologik va falsafiy drama shakliga soladi. Masalan, klassik dostonda asosiy konflikt qahramon yoki tashqi dushman o‘rtasida bo‘lsa, ushbu dramada konflikt ichki va ijtimoiy xarakterga ega. Alpomish shunchaki dushmanlar bilan olishmaydi, u unutulganlik hissi va "zamon zayliga qarab o‘zgarib qolgan odamlar" bilan kurashadi. Xususan, bosh qahramon Alpomishni eng ko‘p qayg‘uga solgan ham mana shular edi. U zindonda o’tirganida eng yaqin do’sti Qorajonning Alpomish dushmani Ultontoz xizmatiga o’tib yasovullik qilishi, avvallari o‘z qo‘l ostida xizmat qilib tuz yegan mulozimlarning endi boshqa hukmdor atrofida girdikapalak bo‘lib yurganidan og‘rinadi. Aynan mana shu ruhiy kechinmalari bosh qahramonning ichki kolliziyalarini harakatlantiruvchi asosiy kuchga aylanadi.

“Alpomishning qaytishi” pyesasi o‘zbek teatrlarida eposni dramatik asarga aylantirish yo‘lidagi etiborga Molik hodisa sifatida e’tirof etildi. Dramaturg eposning so‘nggi sahnalarini – Alpomishning qalmoqlar yurtidan qaytishini syujet o‘zagi – ekspozitsiya va tugun nuqtasi qilib oladi. Teatrshunos olim T. Bayandiyev yozganidek: “Bu syujet chizig‘i nafaqat tarixiy, balki chuqur falsafiy ma’noga ega

bo‘lib, tomoshabinlarni asar qahramonlari kechinmalari, ruhiyati va hayot falsafasi bilan yaqindan tanishtiradi” [1. B.4].

Folklor janriga oid asarning ko‘p variantli tabiati drama yaratishda dramaturg uchun ham, sahnalashtirish jarayonida rejissyorlar uchun ham keng ijodiy imkoniyatlar ochib beradi. Ma’lumki, ushbu dostonning qirqdan ortiq o‘zbekcha variantlari xalq baxshilaridan yozib olingan va o‘rganilgan. To‘ra Mirzayevning ta’kidlashicha, “Alpomish” dostoni xalqimizning milliy o‘zligini anglashida muhim o‘rin tutuvchi, millat birligi, el-yurt farovonligi va vatan ravnaqi g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan buyuk epik yodgorlikdir” [2.B.3-4]. Pyesa va uning sahnaviy talqinlari uchun esa dostonning eng qiziqarli, intrigaga boy hamda dramatik keskinlik yuqori bo‘lgan aynan so‘nggi – Alpomishning qalmoqlar asirligidan qaytishi va Qultoy bobo qiyofasida o‘z yurtiga kirib kelishi qismi asos qilib olingan.

Ushbu pyesa respublikamizning ko‘plab yetakchi teatrlari hamda rejissyorlarini o‘ziga jalb eta oldi. Har bir ijodiy jamoa asarga o‘z imkoniyatlari, estetik prinsiplari va hududiy teatr maktabi an’analaridan kelib chiqqan holda turlicha yondashdi. Pyesa turli yillarda Bobur nomidagi Andijon viloyat musiqali drama teatri, Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri, Sirdaryo viloyat musiqali drama teatri hamda Muqimiy nomidagi O’zbekiston davlat musiqali akademik drama teatri sahnalarida o‘ziga xos talqinlarda tomoshabinlarga taqdim etildi.

Bobur nomidagi Andijon viloyat musiqali drama teatrida spektakl rejissyor Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, sahnalashtiruvchi rassom Shuhrat Abdumalikov, liboslar rassomi Lola Sattoriy va bastakor Anvar Ergashev ijodiy guruh tarkibidan o‘rin olgan. Spektaklda Alpomish obrazini Habibulla Soliyev, Oybarchin rolini Zarifa Haydarova, Boybo‘ri rolini Abdushukur Abdug‘afurov, Kuntug‘mish obrazini Mavluda Boymatova hamda Qaldirg‘och rolini Gulbahor Toshmirzayeva ijro etgan.

Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan “Alpomishning qaytishi”ni O‘zbekiston san’at arbobi Mansur Ravshanov sahnalashtirdi. Spektaklning sahnaviy bezagi rassom Baxtiyor To‘rayev tomonidan yaratilgan. Ushbu talqin dostonning etnografik va folklor qatlamlarini sahnaviy vositalar orqali ifodalashga intilgani bilan e’tiborga loyiq.

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu spektakllarning muvaffaqiyati dramaturg matnidagi ruhiy qatlamlarning rejissura va aktyorlik ijrosida qanchalik vizuallashgani bilan o‘lchanadi. Har bir teatr jamoasi o‘ziga xos topilmalari bilan ajralib turadi: Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali akademik drama teatri asarni lirik va qahramonlik ohanglari uyg‘unlashgan klassik musiqali drama janrida, musiqiy-vokal imkoniyatlarga tayanib talqin etdi. Bobur nomidagi Andijon viloyat musiqali drama teatri talqinida rejissyor Valijon Umarov an’anaviy baxshichilik maktabiga yaqin, folklor muhiti saqlangan sahnaviy yechimga tayandi. Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri esa haqiqiy Boysun-Qo‘ng‘irot etnografik an’analari, qadimiy marosim unsurlari va ehtirosga boy spektakl yaratdi.

Sirdaryo viloyat musiqali drama teatri talqini esa zamonaviy texnologiyalar, dinamik musiqa, ramziy ssenografiya va yorqin pafosli, ta'sirchan ruhi bilan ajralib turadi.

Teatr san'atida asar g'oyasini tomoshabinga yetkazishda faqatgina rejissyor talqini emas, balki ssenografiya, musiqiy bezak, sahna plastikasi va liboslar dizayni kabi barcha komponentlar yaxlit simvolik tizimni tashkil etishi lozim. Sirdaryo va Andijon teatrlarida rejissyor Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirilgan talqinlarni qiyosiy tahlil qilish orqali sahna komponentlarining funksionalligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Sirdaryo teatri spektaklining ssenografik yechimi sahnalashtiruvchi rassom Shuhrat Abdumalikov zamonaviylikka yo'g'rilgan ramziy elementlari bilan diqqatni tortadi. Spektaklning muqaddima qismida sahna markazida osilgan aylanuvchi yirik doira – charxi-dunyo (vaqt, taqdir va falak aylanmasi) ramzi markaziy kompozitsion element vazifasini o'taydi. Dekoratsiyalar va otlarning sahna maydonidagi vizual harakatini jonlantirishda qadimiy petrogliflar va tarixiy tasvirlardan unumli foydalanilgani spektaklga mifopoetik teranlik baxsh etgan. Ushbu spektakl muvaffaqiyatini aynan zamon va sahna texnologiyalari rivojlanishi bilan ham bog'lash o'rinlidir, chunki sahna bezaklarining dinamik o'zgarishi va chiroq effektlari asar ruhini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Surxondaryo teatri talqinida esa sahnalashtiruvchi rassom Baxtiyor To'rayev butunlay boshqacha ssenografik prinsipni qo'llagan. Bu yerda sahna markazidagi universal transformativ dekoratsiya (asosiy sahna bezagi) spektakl davomida ham taxt, ham quduq, ham tancha vazifasini o'tab, asarning ramziy-metaforik ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ushbu ko'p funksiyali o'zgaruvchan element voqealar dinamikasini va makon almashinuvini ta'minlashda muhim rejissyorlik ishi bo'lgan. Asarning dramatik kompozitsion tuzilishida epilog qismlari har ikki teatrda turlicha kompozitsion yechimga ega. Andijon teatri talqinida muqaddima an'anaviy xalq teatri tamoyillariga yaqin. Baxshi el-ulusni o'z atrofiga yig'ib olib, o'rtaga o'zi tushib doston aytishidan boshlanadi. Qahramonlar dunyoqarashi va harakatlari ancha bosiq, vazmin va mulohazakor uslubda taqdim etiladi. Sirdaryo teatri talqinida esa kompozitsiya ancha pafosli va monumental tus oladi. Parda ochilishi bilan el-ulus ulug'vor simfonik musiqa ostida sahnaga chiqib keladi va "Alpo-o-mi-i-ish!", deya Hakimbekni chorlab, sahna ortiga chiqib ketadi. Sahnada faqat do'mbirasi bilan charxi-dunyo bezagi ostida turgan Haqqul baxshining metafizik va sirli ovozi eshitilib turadi. Baxshi dostonni Boybo'ri va Boysarining befarzandlikdan qiynalib, Allohdan farzand so'rashi hamda Shohimardon pirdan madad so'rab turgan joyigacha kuylaydi. Shu lahzada Alpomish sahnaga chiqadi va Oybarchin bilan xayrlashuv muloqoti – uning qalmoqlar yurtiga ketishi haqidagi xabarni aytadi. Rejissyor pyesadagi "Bahorga ko'milgan dasht" remarkasini qahramonlarning liboslaridagi bahoriy ramzlar orqali vizuallashtirgan.

Alpomishning qalmoqlar qo‘liga tushishi, zindondagi og‘ir iztiroblari va olishuv sahnalari Sirdaryo teatrida zamonaviy chiroq va dinamik musiqiy bezaklar yordamida kuchli hissiy ta’sir bilan taqdim etilgan. Ta’kidlash joizki, ushbu zindon sahnasi va Alpomishning dramatik monologi pyesaning ilk versiyasida ham, Andijon teatridagi spektaklda ham mavjud emas edi; bu Sirdaryo spektakli uchun rejissyorning o‘ziga xos va muvaffaqiyatli topilmasidir.

Sirdaryo teatri atmosferasi shiddatkorligi va dinamikasi bilan tomoshabinni hayajonga sola oladi, bu holat qahramonlarning xarakteri va musiqada yaqqol aks etadi. Spektakldagi Boysun va surxoncha qadimiy kuylar hamda olovli raqslar asarga kuchli milliy ruh bag‘ishlab, tomoshabinni o‘sha mifologik davr iqlimiga chuqurroq olib kiradi. Ultontoz va uning shotirlarining g‘ayrioddiy raqslari ham Sirdaryo teatrida o‘ziga xos tus olib, zamonaviylik elementlari bilan uyg‘unlashgan.

Biroq, Surxondaryo teatri talqinida sahna plastikasida baletmeyster Shoira Jo‘rayevaning xoreografik chizgilari asar dinamikasini yanada tizimli oshirgan. Xususan, Ultontoz va uning kallari-shotirlari bilan Alpomishning Qultoy qiyofasidagi to‘qnashuvi, ya’ni olishuv sahnasi o‘zining plastik harakatlari va kompozitsion izchilligi bilan mukammal rejissyorlik va xoreografik simbioz sifatida baholanishga loyiq.

Sirdaryo va Andijon teatrlari spektakllarida aktyorlar ansamblining shakllanishi hamda obrazlarning psixologik talqinida jiddiy yutuqlar bilan bir qatorda muayyan nomutanosibliklar ham ko‘zga tashlanadi.

Andijon teatrining Alpomishi mulohazakor, biroz sovuqqon, o‘rta yoshlardagi vazmin qahramon sifatida gavdalantirilgan edi. Sirdaryo teatrining Alpomishi (Shuhrat Abdurahmonov) esa qiziqqon va yosh yigit sifatida talqin etilgan. Mantiqiy nuqtayi nazardan, Sirdaryo teatrining Alpomish va Barchini Andijon teatridagiga qaraganda ancha yosh ko‘rinadi va bu doston poetikasiga mos keladi. Biroq, Shuhrat Abdurahmonovning tashqi qiyofasi Alpomishga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, aktyor ijrosida xarizma, alpga xos salobatlilik va ichki quvvat yetishmagandek tuyuladi.

Sirdaryo teatrida Mehridilbonu Ergasheva ijro etgan obrazni xalq tasavvuridagi dovyurak, matonatli Oybarchin timsoli bilan uyg‘unlashtirish ancha qiyin. Uning ijrosida qat’iyatsizlik va o‘z qahramoni xarakteriga nisbatan ishonchsizlik seziladi. Andijon teatrining Oybarchini aktrisa Zarifa Haydarova esa sirdaryolik hamkasbiga qaraganda obrazning ruhiyatiga chuqurroq kiradi.

Liboslar bo‘yicha rassom Mirjalol Xoliqovning yondashuvida jiddiy yutuqlar va muayyan kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Sirdaryo Alpomishida qahramonning Qultoy qiyofasiga kirgandagi kiyimi, ayniqsa boshidagi tumog‘i nihoyatda to‘g‘ri va mantiqiy tanlangan. Bu tumoq aktyorning yuzini to‘liq to‘sib turishi tufayli, sahnadagi boshqa personajlar uni taniy olmayotganiga tomoshabin chin dildan ishonadi. Andijon teatridagi spektaklda esa buning aksi edi: Qultoyning tumog‘i shunchalik jo‘n va ochiq ediki, uni kiyib olgan odamning Qultoy emas, balki

Alpomish ekanligi kundek ravshan bo‘lib qolar va bu holat sahna asaridagi badiiy shartlilik tamoyiliga putur yetkazardi. Shuningdek, Sirdaryo spektaklida Qaldirg‘ochning libosi ramziy ma’noda qaldirg‘och qushining qiyofasini eslatishi tahsinga loyiq. Albatta yuqoridagi muvaffaqiyatlar yonida kamchiliklar ham seziladi. Ultontoz va uning shotirlarining kostyumlari liboslar dizayni bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlangan bo‘lsa-da, Boybo‘ri (Sherzod Kattaboboyev)ning bosh kiyimi o‘sha tarixiy davr va makon xususiyatlariga to‘liq mos kelmaydi. Oybarchinning liboslari ham ma’lum sahnalarda uning ruhiy holati va dramatik vaziyatiga hamohang emasdek taassurot uyg‘otadi.

Sirdaryo teatri spektaklida Ultontoz (Ulug‘bek Ahmedov) xarakterida komediya va satira elementlari yaqqol seziladi. Biroq, rejissura va aktyor ijrosida Ultontoz hamda uning shotirlari obrazi haddan tashqari bo‘rttirib yuborilgan bo‘lib, bu holat asarning tragik va epik pafosiga nisbatan biroz erish tuyuladi, tomoshabinning asar dramatizmiga sho‘ng‘ishiga xalaqit beradi. Bodombikach ham spektaklda sof komik obraz sifatida namoyon bo‘ladi, biroq uning va unga hamroh qahramonlarning satirik chizgilari me’yordan oshib ketgan. Avvalgi spektakllarida voqealarga va qahramonlar fojiasiga biroz lirik uslubda yondashgan rejissyor Valijon Umarov bu safar Sirdaryo sahnasida voqelikka ancha sovuqqonlik va keskinlik bilan yondashganini kuzatish mumkin.

Spektakl davomida dinamik musiqiy bezaklarning va ovoz effektlarining haddan tashqari balandligi sahna nutqi madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan – musiqa aktyorlarning diksiyasini (so‘zlarini) bosib ketadi. Ba’zi muhim dramatik sahnalarda esa aktyorlar nutqida emotsional joziba yetishmasligi ko‘zga tashlanadi.

Bodombikach va Qultoy o‘rtasidagi o‘lan aytishuv sahnasi sahna dinamikasini ma’lum ma’noda ko‘targan bo‘lsa-da, uning haddan tashqari cho‘zib yuborilgani va Bodombikach rolini ijro etgan aktrisaning nutqidagi verbal noaniqliklar umumiy estetik taassurotni biroz pasaytirgan.

Alpomish va qalmoqlar o‘rtasidagi jangovar to‘qnashuv sahnalarida aktyorlarning plastik yechimlari, ya’ni sahna jangi harakatlarining professional ishlanmasi yetishmaydi.

Alpomishning uzoq yillik ayriliq va azoblardan so‘ng dushman qo‘lida azob chekayotgan onasi Kuntug‘mishbeka (Ra’no Hayitova), sodiq quli Qultoy (Ibrohim Qosimov) va rafiqasi bilan uchrashish sahnalarida (peripetiya bosqichlarida) rejissura va aktyorlar tomonidan kutilgan hissiy chuqurlik va ruhiy keskinlik yetarlicha ta’minlanmagan.

Dramatik kolliziya – Usmon Azim pyesasining ham, Valijon Umarov spektaklining ham markaziy badiiy mexanizmi bo‘lib, u bir necha qatlamda namoyon bo‘ladi. Asardagi tugun Alpomishning uzoq yillik ayriliqdan so‘ng o‘z yurtiga qaytishi va o‘zi tark etgan ijtimoiy-axloqiy muhitning tubdan salbiy tomonga o‘zgarganini anglashidan boshlanadi. Qahramonning yuksak ideallari bilan mavjud

buzuq ijtimoiy muhit o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosiy konfliktni keltirib chiqaradi va syujet harakatini jadallashtiradi.

Peripetiya ya’ni vaziyatning kutilmagan tomonga o‘zgarishi qahramonning o‘z yurtida begona va g‘arib holatga tushishi, eng yaqin insonlarining ruhiy evrilishlari orqali murakkablashadi. Sirdaryo teatridagi spektaklda Haqqul baxshining fojiali o‘limi va undan keyingi Alpomish bilan dialogi shunchalik yuksak pafosda ishlanganki, tomoshabinlar sahna tugashi bilan larzaga kelib, uzoq vaqt qarsak chalib yuborishadi. Alpomishning Ultontozni adolat yuzasidan jazolashi (o‘ldirishi) sahnasi ham rejissura tomonidan vizual jihatdan nihoyatda aniq va muvaffaqiyatli topilgan.

Aristotel ta’riflagan katarsis (ruhiy poklanish**)** hodisasi asarda faqat finalda emas, balki kulminatsiyaga yaqin sahnalarda ham bir necha bosqichda yuzaga keladi. Buning eng yorqin misoli – Qultoy Alpomishning yelkasidagi alpga xos belgini ko‘rib, uning o‘z beki ekanligini tanigan lahzadir. Shu lahzada Alpomish va Qultoy quchoqlashishadi; Alpomish o‘z quliga qarata insoniylik, cheksiz mehr-muhabbat va sadoqat bilan yo‘g‘rilgan monologini aytadi. Bir qulning o‘z begiga bo‘lgan sadoqati va bekning o‘z qulini kamsitmay, uni bobo deb e’tirof etishi tomoshabinlar qalbini to‘lqinlantirib, zalda kuchli hissiy poklanish – katarsisni paydo qiladi:
Alpomish: “Bobo! Elim bo‘lgan bobom! Yurtim bo‘lib, yo‘limga peshvoz chiqqan bobom!..”

Asarning kulminatsiyasi Alpomish va unga qarshi turgan Ultontoz kuchlari o‘rtasidagi ochiq to‘qnashuvda, adolat tantanasi arafasida yuz beradi. Biroq, spektaklning final yechimida jiddiy rejissyorlik xatosiga yo‘l qo‘yilgan. Sahnada dastlab yosh Yodgorning raqiblar qo‘lida azoblanishi ko‘rsatiladi, so‘ng Alpomishning qo‘lida kamon (yoy) ko‘tarib chiqib kelishidagi mizansahnalar ketma-ketligi keraksiz darajada cho‘zib yuborilgan. Bu holat Alpomishning o‘z farzandini qutqarish uchun yetib kelish lahzasining dramatik ta’sirini va keskinligini susaytiradi, natijada qahramonning alp timsoliga va uning chaqqonligiga nisbatan tomoshabinda muayyan instinktiv shubhalarni keltirib chiqaradi. Yechim qismida konflikt batamom bartaraf etilib, ma’naviy muvozanat tiklansa-da, final ssenografik va plastik jihatdan yanada mukammalroq bo‘lishini davr talab etadi.

Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” dramasi o‘zbek teatr san’atida xalq og‘zaki ijodi namunalarini zamonaviy tafakkur prizmasidan o‘tkazishning go‘zal namunasi bo‘lib qoladi. Sirdaryo viloyat musiqali drama teatri jamoasi va rejissyor Valijon Umarov taqdim etgan sahna asari o‘zining zamonaviy texnologik va ssenografik yechimlari, shiddatkor rejissura konsepsiyasi hamda betakror sahnaviy kompozitsiyasi bilan tomoshabinlar va mutaxassislar diqqat markazida turishga loyiq.

Spektaklda aktyorlar tanlovi, obrazlarning satirik bo‘rttirilishi hamda musiqiy sintezlashtirish bilan bog‘liq ayrim akustik-plastik kamchiliklar ko‘zga tashlansa-da, asarning umumiy g‘oyaviy-tarbiyaviy qimmati nihoyatda zalvorlidir.

Globallashuv, ma'naviy tahdidlar va raqamli texnologiyalar girdobida qolayotgan bugungi yosh avlod dunyoqarashini boyitishda, ularning qalbidan mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va adolatparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarning chuqur joy olishida ushbu spektakl muhim ijtimoiy-estetik vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayandiyev T. "Alpomish sahnada" // "Xalq so'zi" gazetasi, 2001-yil, 10-avgust. – B. 4.
2. Mirzayev T. Alpomish dostoni haqida // Alpomish dostoni. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 3–4.
3. Aristotel. Poetika (Poeziya san'ati haqida) // Rus tilidan M. Mahmudov va U. To'ychiyevlar tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B. 16.
4. Abdusamatov H. "Drama nazariyasi" // – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
5. www.ziyo.com kutubxonasi

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.091.3:372.882

Normahamatova Inoyatxon Maxmudovna,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

SHARQ MADRASALARIDA JAMOAVIY O‘RGANISHNING TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya. Maqolada Sharq renessansi davri pedagogik tafakkurining mahsuli bo‘lgan madarasalar ta’lim tizimida jamoaviy o‘rganish va hamkorlikda bilim olish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi.. Tadqiqotda tarixiypedagogik metodlar hamda mutafakkirlarning asarlari asosida madrasalardagi iyerarxik va gorizontal mentorlik (muidlik instituti), shuningdek, interaktiv disput shakllari (munozara, mubohasa, muzokara) o‘rganildi. Maqolada ushbu tarixiy metodlarning zamonaviy kollaborativ ta’lim texnologiyalari (tengdoshlar baholashi, ijtimoiy konstruktivizm) bilan uzviyligi va hamohangligi asoslab berildi. Natijada, madrasa ta’lim ekotizimi nafaqat individual, balki jamoaviy mas’uliyat va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi samarali metod ekani isbotlandi.

Kalit so‘zlar: Sharq madrasalari, halqa (davra) shakli, intellektual hamkorlik, birgalikda yodlash, mujodala (bahs), jamoaviy o‘rganish, mutolaa, fikr almashish.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ КОЛЛЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВОСТОЧНЫХ МЕДРЕСЕ

Аннотация. В статье представлен научно-педагогический анализ вопросов коллективного обучения и совместного освоения знаний в системе образования медресе, являющейся продуктом педагогической мысли эпохи Восточного Ренессанса. На основе историко-педагогических методов и трудов мыслителей в исследовании изучены иерархическое и горизонтальное наставничество (институт муидов), а также интерактивные формы диспутов (мунозара, мубохаса, музокара) в медресе. В статье обоснованы преемственность и гармония этих исторических методов с современными технологиями коллаборативного обучения (взаимное оценивание, социальный конструктивизм). В результате доказано, что образовательная экосистема медресе являлась эффективным методом, формирующим не только индивидуальную, но и коллективную ответственность, а также критическое мышление.

Ключевые слова: Восточные медресе, формат халка (круг), интеллектуальное сотрудничество, совместное заучивание, муджодала (дебаты), коллективное обучение, мутолаа (чтение), обмен мнениями.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

HISTORICAL ROOTS OF COLLECTIVE LEARNING IN EASTERN MADRASAS

Abstract. The article provides a scientific and pedagogical analysis of collective learning and collaborative knowledge acquisition within the educational system of madrasas—a product of pedagogical thought during the Eastern Renaissance. Based on historical-pedagogical methods and the works of medieval thinkers, the research examines hierarchical and horizontal mentorship (the institution of muidship), as well as interactive forms of disputation (munozara, mubohasa, muzokara) within madrasas. The paper substantiates the continuity and harmony between these historical methods and modern collaborative learning technologies (peer assessment, social constructivism). Consequently, it is demonstrated that the madrasa educational ecosystem was an effective methodology that fostered not only individual but also collective responsibility and critical thinking.

Keywords: Eastern madrasas, halqa (circle) format, intellectual collaboration, collaborative memorization, mujodala (debate), collective learning, mutolaa (reading), exchange of ideas.

Sharq madrasalari o‘rta asrlardan boshlab nafaqat diniy, balki ilmiy-ma’rifiy markaz sifatida shakllangan. An’anaviy qarashlarga ko‘ra, madrasa ta’limi ko‘proq individual o‘qishga asoslangan deb talqin qilinsa-da, tarixiy-pedagogik tahlillar uning ijtimoiy hamkorlikka asoslangan jihatlari ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda adabiy ta’limdagi zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida baholanayotgan hamkorlik pedagogikasining tarixiy ildizlari Sharq madrasalarining o‘qitish jarayoni bilan bevosita bog’liq. Madrasalarda ta’lim ko‘proq an’anaviy shaklda bo‘lgan deb qaralsa-da, tarixiy-pedagogik tahlillar aslida unda jamoaviy o‘rganishning muhim elementlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu elementlar zamonaviy “guruhda ishlash” shaklida bo‘lmasa ham mazmunan hamkorlikka asoslangan. Sharq madrasalarida ta’lim jarayoni “halqa” shaklida tashkil etilgan bo‘lib, bunda talabalar ustoz atrofida yig’ilib, birgalikda bilim olganlar. Bu usul o‘zaro tinglash, fikr almashish va muhokama qilish imkonini yaratgan. Shu jihatdan uni zamonaviy kollaborativ yondashuvning dastlabki ko‘rinishlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ilm olish jarayonida talabalar o‘rtasida fiqh, mantiq, falsafa va boshqa fanlar bo‘yicha ilmiy bahslar keng qo‘llanilgan, mujodala davomida dalil keltirish va fikrni himoya qilish kabi ko‘nikmalar rivojlangan. Talabalar darsdan tashqari vaqtda birgalikda kitob mutolaa qilishgan, bir-biriga mavzuni tushuntirishgan. Bu “peer-learning “ (tengdoshlar orqali o‘rganish) ning an’anaviy ko‘rinishi hisoblanadi. Murakkab matnlarni sharhlash va savollarga javob berishda “Mudarris-shogird-shogird” tizimi asosida kuchli bilimga ega talabalar kichiklarga yordam bergan. Darslar, asosan, jamoa bo‘lib matnni baland ovozda o‘qish,

birgalikda yodlash va takrorlash orqali olib borilgan. Bu umumiy ritm va intellektual hamkorlikni kuchaytirgan. Madrasalarda darsdan tashqari ilmiy suhbat va majlislar ham keng tarqalgan bo‘lib, bu ham jamoaviy fikrlashni rivojlantirgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Sharq madrasalarida qo‘llangan jamoaviy o‘rganish usullarini, xususan, munozara, mubohasa, mujodala hamda muidlik (tyutorlik) institutini tizimli tahlil qilish va ularning zamonaviy pedagogik shartsharoitlar bilan uzviyligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berishdan iborat.

Sharq madrasalarida zamonaviy ma’nodagi “guruhli loyiha” mavjud bo‘lmasa-da, ta’lim jarayonida hamkorlik, fikr almashish va o‘zaro o‘qitish tamoyillariga tayanilgan. Shu sababli ularni kollaborativ yondashuvning tarixiy ildizlari sifatida baholash o‘rinlidir.

Sharq madrasalarida jamoaviy o‘rganish elementlari mavjudligi haqidagi qarashlar bir qator o‘zbek olimlari va ma’rifatprvarlarining ilmiy va pedagogik merosida uchraydi. Ular tomonidan madrasalarda ta’lim-tarbiya jarayoni, jumladan, jamoaviy o‘rganish (o‘zaro bahs, mudarris va shogirdlar suhbati, tengdoshlar bilan muhokama) elementlari keng yoritilgan. Bu jarayon to‘g’ridan to‘g’ri kollaborativ yondashuv deb atalmagan bo‘lsa-da, u mazmunan hamkorlikka asoslangan ta’lim sifatida qo‘llab-quvvatlangan. Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Burhoniddin az-Zarnujiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkir va olimlar o‘z asarlarida ushbu yondashuvga ijobiy munosabat bildirganlar.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” va pedagogik qarashlariga oid asarlarida ta’limni tarbiya bilan uzviylikda olib borishni tavsiya etadi. U shogirdlarning o‘zaro suhbatlari, donishmandlar bilan muloqotlari va bilimni jamoaviy bahs orqali shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi. Yusuf Xos Hojib ‘Qutadg’u bilig” asarida bilim olishni jamoa, do‘stlar va olimlar davrasida rivojlantirish g’oyalarini ilgari suradi. U o‘zaro bahs va fikr almashish orqali aql va axloqni komillikka yetkazishni ta’kidlasa, Abdurahmon Jomiy qarashlarida tarbiya uslublari, ustoz va shogirdlarning birgalikda o‘rganish shakllari (o‘qish, mulohaza yuritish) tahlil qilinadi. Alisher Navoiy asarlarida ustoz-shogird munosabatlari va jamoaviy o‘rganish usullari ko‘p uchraydi. U “Mahbub ul-qulub” asarida ilm olishda tirishqoqlk, mudarrislar suhbati va madrasalardagi o‘quv muhitini alohida ta’kidlaydi. Navoiy ilm olishda jamoaviy ishlash, o‘zaro tajriba almashishni komil inson tarbiyasining muhim omili deb hisoblaydi. Abdulla Avloniy “ Turkiy guliston yoxud axloq” asarida an’anaviy madrasa ta’limi va jamoaviy tarbiya elementlarini o‘z davri talablari asosida tahlil qilib, o‘quvchilarning birgalikda bilim olish usullarini targ’ib qiladi.

Umuman olganda, sharq madrasalarida jamoaviy o‘rganishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. Dars majlislari (Olimlar va talabalarning umumiy davra suhbatlari).
2. Bahs-munozaralar (Ilmiy muammolarni jamoaviy muhokama qilish).
3. Ustoz-shogird tizimi (Tajribali mudarrislar bilan birgalikda mutolaa qilish).

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Sharq madrasalaridagi jamoaviy o‘rganish elementlarini zamonaviy adabiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va uning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

-pedagogik kuzatuv;

-tajriba-sinov ishlari;

-qiyosiy tahlil;

-anketa va so‘rovnomalar;

-statistik tahlil.

Tajriba ishlari umumta’lim maktablarining 7-sinflarida tashkil etildi. O‘quvchilar ikki guruhga ajratildi: 1.Nazorat guruhi (An’anaviy metodlar asosida). 2.Tajriba guruhi (Kollaborativ yondashuv asosida).

Tadqiqot jarayonida tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy-geraldik metod hamda germenevtik (matnshunoslik) tahlil usullaridan foydalanildi. Manbaviy asos sifatida Abu Nasr Forobiy, Y.X.Hojib, Burhoniddin az-Zarnujiy, A.Navoiy kabi mutafakkirlarning risolalari hamda O‘rta Osiyo madrasalari (Buxoro, Samarqand, Xiva) tarixiga oid manbalar, talabalarning kundalik faoliyatini aks ettiruvchi tarixiy hujjatlar o‘rganildi. To‘plangan ma’lumotlar zamonaviy ta’lim paradigmalari prizmasi orqali qiyosiy tahlil qilindi.

Sharq madrasalarida shakllangan jamoaviy o‘rganish elementlari zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan qiyoslanganda ularning nazariy asoslari va amaliy jihatlari o‘rtasida muayyan o‘xshashlik va farqlar mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, G’arb pedagogikasida shakllangan ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvlar bu borada muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Lev Vigotskiy ta’kidlaganidek, bilim ijtimoiy muhitda shakllanadi va o‘quvchining rivojlanishi boshqalar bilan hamkorlik jarayonida tezlashadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi quyidagi fikrni ilgari suradi: “Bola bugun kattalar yoki tengdoshlari yordamida bajara olgan ishni ertaga mustaqil bajaradi”. Mazkur qarash madrasalardagi katta shogirdlarning kichiklarga yordam berishi va birgalikda mutolaa qilish an’analari bilan to‘la mos keladi.

Jon Devey ta’limni ijtimoiy tajriba sifatida talqin qilib, quyidagicha yozadi: “Ta’lim bu – hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zidir”. Bu g’oya madrsalardagi ilmiy suhbatlar va bahslar orqali bilimni real ijtimoiy muhitda egallash tajribasiga yaqin turadi. Biroq farqli jihati shundaki, Devey amaliy faoliyatga urg’u beradi, madrasa tizimida esa nazariy bilim ustuvor bo‘lgan.

Jon Piaje fikricha, bilim shaxsning ichki kognitiv faoliyati orqali shakllanadi. U shunday deydi: “Bilim tayyor holda berilmaydi, u shaxs tomonidan quriladi”. Bu jihat madrasalarda mavjud savol-javob va tafakkurga undovchi metodlar bilan mos tushadi.

Paulo Freire o‘zining dialogik pedagogikasida haqiqiy ta’lim muloqot va hamkorlik orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv Sharq madrasalaridagi

mujodala, muzokara va ilmiy suhbatlar an'anasi bilan uyg'unlashadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, madrasalardagi jamoaviy o'rganish shakllari zamonaviy pedagogik nazariyalar, xususan, Lev Vigotskiyning ijtimoiy o'rganish va Paulo Freirening dialogik ta'lim konsepsiyalariga yaqin turadi.

Sharq madrasalarida jamoaviy ta'lim darsdan tashqari faoliyat emas, balki ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Ushbu model, avvalo, muidlik tizimi orqali amalga oshirilgan. Muidlar mudarris tomonidan bayon etilgan murakkab mavzularni talabalarga qayta tushuntirib, kichik guruhlardagi o'zaro savol-javob va muhokamalarni tashkil etgan. Bu jarayon zamonaviy mentorlik va tyutorlik tizimining tarixiy ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin.

Jamoaviy o'rganishning yana bir muhim shakli muzokara va mubohasa bo'lgan. Muzokara orqali talabalar o'tilgan mavzularni birgalikda takrorlab, fikr va dalillar almashgan bo'lsa, mubohasa jarayonida muayyan ilmiy masalalar yuzasidan turli qarashlar asosida bahs yuritilgan. Bunday faoliyat talabalarning mustaqil fikrlashi, dalillash va ilmiy munozara olib borish ko'nikmalarini rivojlantirgan.

Madrasalarning me'moriy va ijtimoiy muhiti ham jamoaviy ta'limni qo'llab-quvvatlagan. Hujralarning umumiy hovli atrofida joylashishi, umumiy darsxonalar va hujradoshlik tizimi talabalarning doimiy ilmiy muloqoti hamda o'zaro hamkorligiga imkon yaratgan.

Tajriba-sinov va tahlil natijalari Sharq madrasalarida ta'lim individual va jamoaviy o'rganishning uyg'unligiga asoslanganini ko'rsatdi. Halqa, munozara, mutolaa va o'zaro o'qitish kabi shakllar zamonaviy kollaborativ ta'limning tarixiy ildizlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvni zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarning faolligi va darsga qiziqishini oshirib, mustaqil fikrlash, chuqur tahlil qilish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Sharq madrasalaridagi o'qitish tizimi bugungi kunda G'arb pedagogikasida innovatsiya sifatida ko'rilayotgan ko'plab konsepsiyalarni bir necha asrlar oldin amalda qo'llagan. Buyuk musulmon huquqshunosi va pedagogi Burhoniddin az-Zarnujiy o'zining "Ta'lim al-muta'allim fi tariq at-ta'allum" ("Ilm olish sirlari") asarida jamoaviy o'rganishning psixologik afzalliklarini quyidagicha ta'riflaydi: "Muzokara va munozara qilish birgalikda fikrlashdir. Birgalikda fikrlash esa yolg'iz mutolaa qilishdan ko'ra kuchliroq ta'sirga ega. Chunki unda kishi o'z sherigidan andoza oladi, uning fikridagi xatolarni tuzatadi va o'z bilimini boyitadi". Bu fikr L.Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga to'liq mos keladi. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, bola yoki talaba o'zi hal qila olmagan muammoni tengdoshlari yordamida ozonroq o'zlashtiradi. Madrasadagi muid va uning atrofidagi talabalar jamoasi aynan shu ijtimoiy-madaniy ta'lim modelini ifodalaydi.

Shuningdek, madrasalardagi jamoaviy bahs-mubohasalarda axloqiy va pedagogik etika mavjud bo'lgan. Zarnujiy ta'kidlaganidek, "Munozara insof va

xotirjamlik bilan bo‘lishi lozim. G’azab va g’araz aralashgan bahs ilm keltirmaydi”. Bu zamonaviy kollaborativ ta’limda kognitiv konfliktlarni konstruktiv hal qilish tamoyili bilan hamohangdir.

Sharq madrasalarida ta’lim jarayoni an’anaviy ravishda individual xarakterga ega deb qaralgan bo‘lsa-da, amalda unda jamoaviy o‘rganishning muhim shakllarihalqa, munozara, jamoaviy mutolaa hamda o‘zaro o‘qitish kabi metodlar keng qo‘llangan. Ushbu shakllar o‘quvchilarning bilimni o‘zaro muloqot, fikr almashish va hamkorlik asosida egallashiga xizmat qilgan. Tadqiqot davomida mazkur an’anaviy ta’lim shakllarining zamonaviy ta’lim nazariyalari bilan uzviy bog’liqligi aniqlandi. Xususan, Lev Vigotskiyning “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”, John Deveyning tajribaviy ta’lim g’oyalari hamda Paulo Freirening dialogik yondashuvi bilan mazmunan uyg’unligi kuzatildi. Bu esa kollaborativ ta’limning tarixiy ildizlari Sharq ta’lim tizimiga borib taqalishini asoslaydi. Bugungi umumta’lim va oliy ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarning mustaqil va jamoaviy ishlarini tashkil etishda ushbu tarixiy ildizlarga tayanish milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning sintezini yaratishga xizmat qiladi.

Sharq madrasalaridagi jamoaviy o‘rganish an’analari shunchaki mexanik takrorlash emas, balki chuqur tahlil, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan mukammal pedagogik tizim bo‘lgan. Muidlik instituti, munozara va mujodala kabi metodlar talabalarda kompetensiyaviy yondashuvni, ya’ni bilimni amaliyotda argumentlash ko‘nikmasini shakllantirgan.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy pedagogik tajribani zamonaviy ta’lim tizimi bilan uyg’unlashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir. Sharq madrasalaridagi jamoaviy o‘rganish an’analari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.- T. : Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig.-T. :Yulduzcha nashriyoti, 1990.

3. Burhoniddin az-Zarnujiy. Ilm olish sirlari.-T. : Munir nashriyoti, 2022.

4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.- T.: G‘afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi nashriyoti, 1992.

6. Выгоцкий Л. Воображение и творчество в детском возрасте .-Москва.: Просвещение, 1991.

7. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – СПБ. : Питер, 2004.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 811.512.133'373:81'42



Mamatova Dilafro'z Murodilla qizi,
PhD student of Namangan state institute of foreign languages

FLORONYMS AS LINGUOCULTURAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE: A LEXICAL-SEMANTIC APPROACH

Abstract. This study explores the linguocultural and lexical-semantic properties of floronyms (plant names) in the Uzbek language. It focuses on their position within the lexical system, semantic organization, cultural associations, and their contribution to expressing the national worldview. The research further examines the lexical-semantic categories, nominative functions, and symbolic significance of floronyms through a comparative analysis of Uzbek and English, employing contemporary linguistic methodologies. The findings reveal that floronyms extend beyond their primary function of naming plants, serving as important linguocultural units that preserve and convey the historical heritage, cultural traditions, and national consciousness of the Uzbek people.

Keywords: floronym, linguoculturology, lexical-semantic analysis, semantics, Uzbek language, English language, cultural connotation, nomination, plant names, comparative linguistics.

O'ZBEK TILIDA FLORONIMLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA: LEKSIK-SEMANTIK YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi floronimlarning lingvokulturologik va leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda floronimlarning til tizimidagi o'rni, ularning semantik tuzilishi, madaniy konnotatsiyalari hamda milliy dunyoqarashni aks ettirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, floronimlarning leksik-semantik guruhlari, ularning nominativ va ramziy xususiyatlari hamda ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy jihatlari zamonaviy lingvistik metodlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari floronimlarning nafaqat o'simlik nomlarini ifodalovchi birliklar, balki xalqning tarixiy tajribasi,

madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik vositalar ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: floronim, lingvokulturologiya, leksik-semantik tahlil, semantika, o‘zbek tili, ingliz tili, madaniy konnotatsiya, nominatsiya, o‘simlik nomlari, qiyosiy tilshunoslik.

ФЛОРОНИМЫ КАК ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ЕДИНИЦЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокультурологические и лексико-семантические особенности флоронимов узбекского языка. Исследование раскрывает место флоронимов в языковой системе, их семантическую структуру, культурные коннотации, а также их роль в отражении национального мировоззрения. Особое внимание уделяется лексико-семантическим группам флоронимов, их номинативным и символическим характеристикам, а также сопоставительному анализу флоронимов узбекского и английского языков на основе современных лингвистических методов. Результаты исследования показывают, что флоронимы являются не только лексическими единицами, обозначающими названия растений, но и важными лингвокультурологическими средствами, отражающими исторический опыт, культурные ценности и национальное мышление народа.

Ключевые слова: флороним, лингвокультурология, лексико-семантический анализ, семантика, узбекский язык, английский язык, культурная коннотация, номинация, названия растений, сопоставительное языкознание.

Introduction. Since gaining independence, Uzbekistan has undergone profound transformations in its socio-political, cultural, and spiritual life. The restoration of national values, preservation of historical and cultural heritage, and enhancement of the status and prestige of the Uzbek language have become among the important priorities of state policy. These developments have significantly contributed to strengthening the nation's spiritual identity, enriching its cultural consciousness, and promoting comprehensive linguistic research aimed at revealing the internal potential, historical development, and expressive possibilities of the national language. As emphasized by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, serving the interests of the people, preserving national values, and ensuring the development and prestige of the mother tongue are among the fundamental responsibilities of every citizen. From this perspective, the scientific investigation of linguistic units that embody the nation's customs, traditions,

mentality, cultural heritage, historical experience, and worldview has become an important area of contemporary linguistic research.

Language is closely interconnected with the cultural and historical development of society. Every language contains a system of lexical units that reflects the material and spiritual experiences of its speakers. Words associated with nature, traditional occupations, everyday life, customs, food, clothing, family relations, and religious and cultural concepts often carry meanings that go beyond their direct nominative function. Therefore, the study of lexical units from a linguocultural perspective makes it possible to identify the relationship between language, culture, and national consciousness. Such an approach is particularly relevant to the analysis of words denoting natural phenomena and objects, including the names of plants, flowers, trees, and herbs.

In recent years, Uzbek linguistics has witnessed remarkable progress in several modern linguistic disciplines, particularly cognitive linguistics, pragmatics, ethnolinguistics, and linguoculturology. These approaches regard language not merely as a means of communication but as a complex social phenomenon that reflects the historical experience, cultural identity, worldview, and value system of a particular nation. Within this framework, lexical units acquire significance not only through their dictionary meanings but also through the cultural associations, symbolic meanings, emotional evaluations, and national concepts attached to them.

Floronyms, as lexical units denoting plants, constitute an important component of the Uzbek lexical system. Their semantic structure may include information related to traditional medicine, agriculture, folklore, literature, customs, aesthetics, and people's perceptions of nature. Certain plant names may also function as cultural symbols and occur in proverbs, phraseological expressions, poetic texts, personal names, place names, and various forms of traditional discourse. Consequently, the study of floronyms provides an opportunity to examine how the Uzbek people have historically perceived the natural environment and how these perceptions have been linguistically encoded and transmitted from one generation to another.

The linguocultural analysis of floronyms is therefore significant for identifying the interaction between nominative meaning and cultural connotation. While the primary function of a floronym is to identify and distinguish a particular plant species, its contextual and cultural meanings may reveal ideas concerning beauty, purity, fertility, prosperity, hospitality, love, youth, healing, and other socially significant concepts. A comparative analysis of Uzbek and English floronyms can further demonstrate both universal and culture-specific patterns of conceptualizing the natural world.

Thus, the investigation of floronyms from a lexical-semantic and linguocultural perspective represents a relevant direction of modern linguistic research. It contributes to a deeper understanding of the semantic organization of the Uzbek

lexicon, the mechanisms of cultural meaning formation, and the ways in which national worldview and cultural memory are preserved within language.

Literature review. The exploration of floronyms has garnered significant interest in contemporary linguistics, particularly in the domains of lexical semantics, cognitive linguistics, ethnolinguistics, and linguoculturology. Scholars assert that plant names not only serve as lexical items that denote botanical entities but also act as cultural symbols that encapsulate the worldview, customs, and historical context of a speech community. As a result, floronyms are viewed as a vital element of the linguistic framework that depicts the world.The conceptual groundwork of linguoculturology was laid out in the research of V. A. Maslova (2001), V. N. Telia (1996), V. G. Kostomarov, and Ye. M. Vereshchagin (2005), who investigated the relationship between language and culture and illustrated that lexical items function as vessels of cultural insight. Their research revealed that language plays a crucial role in preserving and conveying cultural values and stereotypes.

Methodology. Linguoculturology is an interdisciplinary field situated at the intersection of linguistics and cultural studies. It examines the interaction between language and culture, the reflection of national consciousness in linguistic units, and the mechanisms through which cultural codes are linguistically represented. This discipline analyzes language in close connection with the customs, traditions, beliefs, values, and mentality of a speech community. Consequently, linguoculturological research maintains close relationships with lexicology, phraseology, paremiology, semasiology, and onomastics.As an independent branch of linguistic science, linguoculturology emerged in the late twentieth century and developed through the scholarly works of V. A. Maslova, V. N. Telia, Ye. M. Vereshchagin, V. G. Kostomarov, and G. Lakoff. Within Uzbek linguistics, this field has been extensively explored by N. Mahmudov, A. G‘ulomov, M. Yo‘ldoshev, Sh. Safarov, D. Xudoyberganova, and other prominent scholars, who have demonstrated the inseparable relationship between language, national mentality, and cultural values.The present study investigates the linguocultural characteristics of floronyms and zoonyms in Uzbek and English by employing a comprehensive methodological framework. The research is based on comparative-typological, componential, cognitive-linguistic, ethnolinguistic, and contextual-pragmatic methods.The comparative-typological method was used to compare plant and animal names in Uzbek and English, focusing on their semantic structures, symbolic meanings, figurative representations, and cultural connotations. The comparison was conducted on three levels. The first stage involved structural comparison, examining the internal organization of lexical units and the position and function of floronyms and zoonyms within proverbs and phraseological expressions. The second stage focused on semantic comparison, analyzing denotative meaning, symbolic interpretation, connotative value, and moral or social implications. The third stage involved linguocultural comparison, where ethnic stereotypes, cultural concepts, and

national perceptions associated with plants and animals were systematically examined.Componential analysis was employed to identify the semantic structure of floronyms and zoonyms by distinguishing their biological, cultural, connotative, and pragmatic semantic features. This method made it possible to determine both the semantic core and the additional layers of meaning embedded in each lexical unit.The cognitive-linguistic approach was based on George Lakoff's theory of conceptual metaphor. Through this framework, plant and animal images were interpreted as conceptual models reflecting human cognition. Expressions such as a wolf in sheep's clothing in English and metaphorical representations involving the fox, wolf, and horse in Uzbek were analyzed as manifestations of culturally conditioned conceptualization.The ethnolinguistic method was applied to reveal the relationship between floronyms and zoonyms and the historical lifestyle, traditional occupations, religious beliefs, and cultural values of the Uzbek people. Furthermore, the contextual-pragmatic approach was used to investigate the communicative functions and pragmatic potential of these lexical units in various discourse contexts.

Results. The findings demonstrate that floronyms and zoonyms function not only as nominative lexical units but also as important linguocultural markers preserving the historical memory, national worldview, cultural experience, and value system of a speech community.Within the lexical system of language, lexical units denoting plants occupy a distinct position. In linguistics, such units are referred to as floronyms. Floronyms do not merely serve to designate plants; they also embody a nation's perception of nature, historical experience, aesthetic ideals, and cultural identity.

Therefore, they have become an important subject of investigation in lexicology, semasiology, etymology, onomastics, and linguoculturology.The Uzbek language possesses a rich and diverse inventory of floronyms, reflecting the close relationship that the Uzbek people have maintained with nature throughout history. Plant names are generally motivated by the external appearance, biological characteristics, habitat, practical function, or beneficial properties of the plants they denote. Consequently, floronyms constitute an independent lexical-semantic layer within the vocabulary of the Uzbek language.A significant contribution to the theory of nomination was made by the Russian linguist A. V. Superanskaya, whose research on the naming of natural objects provided a systematic explanation of nominative processes. Her theoretical approach facilitates a deeper understanding of the mechanisms governing the formation, motivation, and linguistic functions of floronyms.

Discussion. According to their biological and functional characteristics, Uzbek floronyms may be classified into several major lexical-semantic groups.The first group comprises the names of flowers, including lola (tulip), atirgul (rose), binafsha (violet), chinnigul (carnation), and qizilgul (red rose). Besides referring to ornamental plants, these lexical units are widely employed in poetry, folklore, and

literary discourse as symbols of beauty, elegance, love, youth, and spring. For instance, the rose traditionally symbolizes love and beauty, whereas the tulip represents youth, renewal, and the arrival of spring.The second group consists of tree names such as chinor (plane tree), eman (oak), terak (poplar), tol (willow), and qarag‘ay (pine). Trees play an essential ecological, economic, and cultural role in human life and frequently symbolize longevity, stability, endurance, continuity, and family heritage.

Moreover, many tree names have become integrated into geographical names and personal names, demonstrating their extensive nominative potential.Fruit-bearing plants form another important category of Uzbek floronyms. Lexical items such as o‘rik (apricot), olma (apple), nok (pear), anor (pomegranate), and shaftoli (peach) are deeply connected with traditional agriculture, everyday life, and the culinary culture of the Uzbek people. In addition to their literal meanings, these floronyms often symbolize abundance, prosperity, fertility, and well-being.Medicinal plants include such names as rayhon (basil), yalpiz (mint), romashka (chamomile), and zanjabil (ginger). These floronyms reflect traditional medical knowledge, healthy lifestyles, and the long-established practices of folk medicine that have been preserved across generations.Wild-growing plants also constitute a separate lexical group. Floronyms such as shuvoq (wormwood), qamish (reed), and qiyoq (wild grass) represent elements of the natural landscape and illustrate the close observation of the environment characteristic of the Uzbek people.

Conclusion. The analysis demonstrates that floronyms in the Uzbek language perform functions that extend far beyond the simple designation of plants. They constitute an important and multifaceted layer of the Uzbek lexical system, reflecting the historical memory, national worldview, cultural values, aesthetic ideals, traditional knowledge, and collective experience of the Uzbek people. Their semantic structure is closely associated with the ways in which people perceive and conceptualize nature, as well as with historically established customs, traditions, beliefs, and cultural practices.

From a lexical-semantic perspective, floronyms are characterized by a variety of nominative and connotative meanings. In addition to their primary botanical meanings, many plant names acquire metaphorical, symbolic, emotional, and evaluative meanings in different contexts. These additional meanings are particularly evident in folklore, literary works, phraseological expressions, proverbs, and everyday communication. As a result, floronyms can function as carriers of culturally significant information and contribute to the preservation and transmission of national cultural memory.

The linguocultural analysis of floronyms also demonstrates that the relationship between language and culture is especially evident in the ways natural objects are named, described, and symbolically interpreted. Some floronyms reflect concepts of

beauty, purity, love, fertility, prosperity, healing, and hospitality, while others are connected with traditional medicine, agriculture, religious beliefs, and local cultural practices. This indicates that plant names may encode significant fragments of the national worldview and serve as linguistic representations of culturally established values.

The comparative consideration of Uzbek and English floronyms further reveals both universal and culture-specific features of plant nomination and semantic development. While certain associations with plants may be common across cultures, their symbolic interpretations, emotional connotations, and contextual uses often differ according to the historical and cultural experience of each linguistic community.

Therefore, the study of floronyms as linguocultural units contributes to a deeper understanding of the lexical-semantic organization of the Uzbek language and provides important evidence of the interaction between language, culture, and national identity. Further research in this field may focus on the cognitive, ethnolinguistic, and pragmatic dimensions of floronyms, as well as their representation in Uzbek and English phraseology, folklore, literary discourse, and contemporary media.

References:

1. Маслова, В. А. (2001). Лингвокультурология. Москва: Академия.
2. Телия, В. Н. (1996). Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Школа «Языки русской культуры».
3. Верещагин, Е. М., & Костомаров, В. Г. (2005). *Язык и культура*. Москва: Индрик.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
5. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. Toshkent: Mumtoz so‘z.
6. Khudoyberganova, D. (2015). Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent.
7. Суперанская, А. В. (1973). Общая теория имени собственного. Москва: Наука.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 7-son

UDK: 372.881.512.133

O‘rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi,
“Profi University” o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Sintaksisning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati hamda sintaktik bilimlarni o‘zlashtirishga ta’sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, sintaktik tushunchalarni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sintaksis, sintaktik tushuncha, boshlang‘ich ta’lim, ona tili ta’limi, nutqiy kompetensiya, innovatsion metodlar, interfaol ta’lim, pedagogik texnologiyalar.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СИНТАКСИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методические основы развития синтаксических понятий у учащихся начальных классов. Освещается роль синтаксиса в начальном образовании, его значение в формировании речевой компетенции учащихся, а также факторы, влияющие на усвоение синтаксических знаний. Также анализируются дидактические возможности компетентностного подхода, интерактивных методов и инновационных педагогических технологий в развитии синтаксических понятий.

Ключевые слова: синтаксис, синтаксическое понятие, начальное образование, обучение родному языку, речевая компетенция, инновационные методы, интерактивное обучение, педагогические технологии.

EFFECTIVE METHODS FOR DEVELOPING SYNTACTIC CONCEPTS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological basis for developing syntactic concepts in primary school students. The role of syntax in primary education, its importance in forming students' speech competence, and the factors influencing the acquisition of syntactic knowledge are highlighted. The

didactic possibilities of the competency-based approach, interactive methods, and innovative pedagogical technologies in the development of syntactic concepts are also analyzed.

Keywords: syntax, syntactic concept, primary education, native language education, speech competence, innovative methods, interactive education, pedagogical technologies.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda ravon, izchil ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning kommunikativ salohiyatini oshirish va til birliklaridan ongli hamda maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta'limi yetakchi o'rin egallaydi. Chunki til shaxsning nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurini rivojlantiruvchi, dunyoqarashini shakllantiruvchi va ijtimoiy tajribani egallashiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi [1].

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning til haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlari shakllanadigan, nutqiy faoliyatining asoslari tarkib topadigan muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda fonetika, leksika, grammatika va sintaksis bo'yicha elementar bilimlar izchil o'zlashtiriladi hamda ularning keyingi bosqichlardagi til ta'limi uchun mustahkam poydevori yaratiladi. Xususan, sintaktik tushunchalarni puxta egallash o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, fikrni mantiqiy va izchil bayon qilish, gaplarni mazmunan hamda grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sintaktik bilimlar o'quvchilarning o'qilgan matnni chuqur anglash, tahlil qilish va mustaqil fikr bildirish kompetensiyalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi [2].

Maktab amaliyotini kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini aniqlash, so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'lanishni tushunish, gapning grammatik asosini belgilash hamda sodda va murakkab gaplarning tuzilish xususiyatlarini anglashda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday holat, avvalo, sintaktik tushunchalarning nisbatan mavhum xarakterga egaligi, ularni amaliy nutq bilan yetarli darajada bog'lab o'qitilmasligi hamda darslarda reproduktiv metodlarning ustunligi bilan izohlanadi. Natijada o'quvchilar grammatik qoidalarni yod olsalar-da, ularni real nutqiy vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatiladi. Shu sababli sintaktik bilimlarni o'quvchilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'lash, ularning mustaqil

fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodlardan foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [3].

Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni rivojlantirishning samarali metodlarini aniqlash, ularning didaktik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bugungi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning sintaktik bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga va o‘quv motivatsiyasini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida sintaksis masalalari ko‘plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, A. G‘ulomov, A. Nurmonov, N. Mahmudov, M. Mirtojiyev va boshqa tilshunos olimlarning ilmiy ishlari sintaktik birliklarning nazariy asoslarini ishlab chiqish, gap qurilishi va sintaktik munosabatlarning mohiyatini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid tadqiqotlarda sintaktik tushunchalarni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali shakllantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni boyitish hamda boshlang‘ich sinflarda sintaksisni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasi masalalari K. Qosimova, S. Fuzailov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva va boshqa metodist olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida grammatik tushunchalarni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich shakllantirish, til hodisalarini ongli ravishda o‘zlashtirishni ta’minlash, lingvistik tafakkurni rivojlantirish hamda og‘zaki va yozma nutqni takomillashtirish metodlari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Mazkur tadqiqotlarda grammatik bilimlarning amaliy nutq faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [2].

Sintaksis tilshunoslikning so‘z birikmasi, gap va matnning grammatik qurilishi hamda ular o‘rtasidagi sintaktik munosabatlarni o‘rganuvchi muhim bo‘limi hisoblanadi [4]. Boshlang‘ich ta’limda sintaktik tushunchalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish imkoniyatlari va nutqiy rivojlanish darajasiga mos ravishda sodda hamda izchil tarzda o‘rgatiladi. Dastlab o‘quvchilar gap va uning asosiy belgilari, gapning tugallangan fikrni ifodalashi, so‘zlarning gap tarkibidagi o‘zaro bog‘lanishi haqida elementar bilimlarga ega bo‘ladilar. Keyingi bosqichlarda esa gapning maqsadga ko‘ra turlari, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar, gap bo‘laklari

o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar hamda matn tarkibidagi gaplarning mazmuniy va mantiqiy bog‘liqligi haqidagi tushunchalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Bunday izchillik o‘quvchilarda grammatik bilimlarning tizimli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi va ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur sintaktik tushunchalar o‘quvchilarda grammatik tafakkurning shakllanishi va lingvistik kompetensiyaning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Chunki sintaktik bilimlar o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini anglash, so‘z va gaplar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tushunish, fikrni grammatik jihatdan to‘g‘ri, mantiqiy izchil va uslubiy jihatdan ravon ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, sintaktik tushunchalarning puxta o‘zlashtirilishi matnni ongli o‘qish, mazmunini tahlil qilish, mustaqil matn yaratish hamda samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda sintaksisni o‘qitish nafaqat grammatik bilimlarni egallash, balki o‘quvchilarning kommunikativ va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi [2].

Boshlang‘ich ta’limda sintaktik tushunchalarni rivojlantirish samaradorligi ko‘p jihatdan dars jarayonining ilmiy-metodik asosda tashkil etilishi, ta’lim mazmunining o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi hamda qo‘llanilayotgan o‘qitish metodlarining samaradorligiga bog‘liq. Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchi tayyor bilimlarni qabul qiluvchi obyekt emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi, ularni tahlil qiluvchi va amaliy faoliyatda qo‘llovchi faol subyekt sifatida qaraladi. Shu bois sintaktik tushunchalarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faolligini oshiruvchi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi, ijodkorligini rag‘batlantiruvchi hamda mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar nafaqat grammatik bilimlarning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi, balki o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, kommunikativ faolligini oshirish va ona tiliga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga ham xizmat qiladi [5].

Muammoli ta’lim texnologiyasi sintaktik tushunchalarni rivojlantirishning eng samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning asosiy mohiyati o‘quvchini tayyor qoida yoki ta’rifni yod olishga emas, balki muammoli vaziyatni tahlil qilish, izlanish olib borish va mustaqil xulosa chiqarish orqali yangi bilimni egallashga yo‘naltirishdan iboratdir [6]. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi, ularni kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalaridan faol foydalanishga undaydi.

Masalan, o‘qituvchi doskaga «O‘quvchilar kutubxonaga bordilar» hamda «Kutubxonaga» birliklarini yozib, qaysi biri gap ekanligini aniqlashni so‘raydi. O‘quvchilar ushbu birliklarni taqqoslash jarayonida birinchi birlik tugallangan fikrni ifodalashi, grammatik asosga ega ekanligi, ikkinchi birlik esa faqat bitta so‘zdan iborat bo‘lib, mustaqil fikrni anglatmasligini kuzatadilar. Natijada ular gapning eng

muhim belgisi tugallangan fikrni ifodalashi va grammatik jihatdan shakllangan bo‘lishi kerakligini o‘zlari xulosa qilib oladilar. O‘qituvchi esa bu jarayonda tayyor javobni bermaydi, balki savollar va yo‘naltiruvchi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini boshqaradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasining asosiy afzalligi shundaki, bunda o‘quvchilar bilimni tayyor holda qabul qilmaydilar, balki uni izlanish va mantiqiy mushohada orqali egallaydilar. Bunday sharoitda o‘zlashtirilgan sintaktik tushunchalar yanada puxta bo‘lib, uzoq muddat xotirada saqlanadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muammolarni hal etish kompetensiyasi rivojlanadi [8].

Sintaktik tushunchalarni rivojlantirishda interfaol metodlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur metodlar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ular o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro fikr almashish va muloqotni kuchaytiradi. Interfaol metodlardan foydalanish natijasida o‘quvchilar grammatik hodisalarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat davomida ham o‘zlashtiradilar. Bu esa sintaktik tushunchalarning ongli va tizimli shakllanishiga xizmat qiladi.

Klaster metodi sintaktik tushunchalarni tizimlashtirish va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Dars jarayonida doska yoki elektron taqdimot markaziga «Gap» tushunchasi joylashtiriladi va uning atrofida gapning maqsadga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, grammatik asos, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar hamda so‘zlarning o‘zaro sintaktik bog‘lanishi kabi tushunchalar ketma-ket joylashtiriladi. Bunday grafik tashkil etish usuli o‘quvchilarga sintaktik hodisalar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni yaxlit tizim sifatida anglash imkonini beradi hamda mavzuni umumlashtirish va takrorlashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi [2].

Venn diagrammasi esa sintaktik birliklarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, darak, so‘roq va undov gaplarning umumiy hamda farqli jihatlarini diagramma asosida taqqoslash orqali o‘quvchilar gap turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglaydilar. Taqqoslash jarayoni ularda tahliliy tafakkurni, mantiqiy fikrlashni va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada grammatik tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni mustaqil aniqlash malakasi shakllanadi [6].

Sinkveyn metodi sintaktik tushunchalarni umumlashtirish, mustahkamlash hamda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodda o‘quvchilar o‘rganilgan mavzuni besh qatorli she’riy yoki mantiqiy tuzilma orqali ifodalaydilar. Masalan, «Gap» mavzusi yuzasidan «Gap. Mazmunli, grammatik. Ifodalaydi, bog‘laydi, tushuntiradi. Fikrni to‘liq bayon qiladi. Nutq.» shaklidagi sinkveyn tuziladi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning asosiy tushunchalarni qisqa, aniq va mazmunli ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiradi, shu bilan birga mavzuning muhim jihatlarini umumlashtirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik va yosh xususiyatlari o‘yin faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli sintaktik tushunchalarni o‘rgatishda didaktik o‘yinlardan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi [7]. O‘yin elementlari darsni qiziqarli tashkil etishga, o‘quvchilarning emotsional faolligini oshirishga, bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirishga hamda ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Masalan, «Gapni tikla» o‘yini davomida o‘quvchilarga aralashtirib berilgan so‘zlardan grammatik jihatdan to‘g‘ri va mazmunli gap tuzish vazifasi topshiriladi. «Muharrir» o‘yinida esa ataylab grammatik xatolar bilan tuzilgan gaplar berilib, o‘quvchilar ularni tahrir qiladilar va xatolar sababini izohlaydilar. «So‘z ovchisi» o‘yini orqali gap tarkibidagi ega, kesim va boshqa gap bo‘laklari aniqlansa, «Kim tez topadi?» musobaqasi davomida o‘quvchilar gap bo‘laklarini imkon qadar tez va to‘g‘ri topish bo‘yicha o‘zaro bellashadilar. Mazkur o‘yinlar nafaqat sintaktik bilimlarni mustahkamlaydi, balki o‘quvchilarning diqqatini jamlash, tezkor fikrlash, muloqot qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Umuman olganda, muammoli ta’lim, interfaol metodlar va didaktik o‘yinlar bir-biri bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda sintaktik tushunchalarni o‘zlashtirish sifati sezilarli darajada ortadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning grammatik bilimlarni ongli ravishda egallashini, ularni amaliy nutq faoliyatida qo‘llashini hamda mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyalarining shakllanishini ta’minlaydi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik kompetensiya bilan bir qatorda umumiy kommunikativ kompetensiya ham izchil rivojlanadi [9].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Sintaktik tushunchalarni rivojlantirishda elektron taqdimotlar, animatsion materiallar, interaktiv topshiriqlar va raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.[11].

Masalan, interaktiv doska orqali gap bo‘laklarini turli ranglarda ajratish, gap tuzilishini sxemalar yordamida ko‘rsatish yoki elektron testlar tashkil etish mumkin.Har xil ta’lim ilovalaridan foydalanib, darsni yanada qiziqarli qilish mumkin. Bu esa sintaktik hodisalarni ko‘rgazmali va tushunarli tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Loyiha metodi boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy innovatsion pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur metodning asosiy mohiyati o‘quvchilarni muayyan muammoni mustaqil o‘rganishga, axborotni izlash va tahlil qilishga, olingan natijalarni umumlashtirish hamda amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirishdan iborat. Loyiha faoliyati davomida o‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni egallaydilar, balki o‘zaro hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini baholash kabi muhim kompetensiyalarni ham rivojlantiradilar. Shu jihatdan loyiha metodi sintaktik

tushunchalarni o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy nutq faoliyati bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda loyiha metodini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda sodda shaklda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Mening maktabim», «Tabiat va inson», «Kitob – bilim manbai», «Mening oilam» yoki «Ona tabiatni asraymiz» kabi mavzularda kichik loyihalar tashkil etilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar berilgan mavzu yuzasidan qisqa matn tuzadilar, matndagi gaplarning grammatik tuzilishini tahlil qiladilar, gap bo‘laklarini aniqlaydilar, gaplarning maqsadga ko‘ra turlarini belgilaydilar hamda so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanishlarni izohlaydilar. Ayrim hollarda o‘quvchilar o‘z ishlari natijalarini sinf oldida taqdim etishlari, savol-javoblarda ishtirok etishlari va o‘zaro fikr almashishlari ham mumkin. Bunday faoliyat sintaktik bilimlarning amaliy qo‘llanilishiga xizmat qilish bilan birga o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni samarali shakllantirish maqsadida metodik ishlarni ma’lum bosqichlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dastlab motivatsion bosqichda o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otiladi va ularning avvalgi bilimlari faollashtiriladi. Keyingi kuzatish bosqichida turli til birliklari ustida amaliy kuzatish ishlari olib borilib, o‘quvchilar gaplarning tuzilishi va grammatik xususiyatlarini tahlil qiladilar. Shundan so‘ng muammoli vaziyat yaratilib, o‘quvchilar mustaqil izlanish orqali yangi bilimlarni kashf etishga yo‘naltiriladi. Tahlil va umumlashtirish bosqichida olingan natijalar tizimlashtirilib, sintaktik tushunchalarning muhim belgilari umumlashtiriladi. Mustahkamlash bosqichida turli mashq va topshiriqlar orqali o‘zlashtirilgan bilimlar takrorlanadi, amaliy qo‘llash bosqichida esa ular real nutqiy vaziyatlar va matnlar ustida ishlash jarayonida qo‘llaniladi. Yakuniy nazorat va refleksiya bosqichida o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladilar, erishilgan natijalarni baholaydilar hamda kelgusidagi faoliyat uchun xulosalar chiqaradilar. Bunday izchil metodik model sintaktik tushunchalarning bosqichma-bosqich va ongli ravishda shakllanishini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy va innovatsion metodlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. An’anaviy ta’limda o‘quvchilar asosan tayyor grammatik qoidalarni o‘zlashtirish va ularni takrorlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, dalillar asosida xulosa chiqarishga va egallagan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Shuningdek, interfaol hamkorlik jarayonida ularda jamoada ishlash, o‘zaro hurmat, do‘stona munosabatlarni shakllantirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash, o‘z nuqtayi nazarini asoslab himoya qilish, tinglash madaniyati hamda

ijodkorlik kabi muhim shaxsiy sifatlar ham rivojlanadi. Shu sababli innovatsion metodlar nafaqat sintaktik bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga, balki o‘quvchilarning umumiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Sintaktik tushunchalarni rivojlantirish masalasi bugungi ta’lim tizimida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllangan grammatik bilim va ko‘nikmalar keyingi sinflarda tilshunoslik fanlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning mustahkam poydevorini yaratadi. Ayniqsa, gap tuzilishini anglash, so‘zlarning sintaktik munosabatlarini tushunish hamda fikrni grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalarining erta shakllanishi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [4].

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida sintaktik tushunchalar alohida grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki o‘quvchilarning amaliy nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida o‘rgatiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning grammatik bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash, fikrni aniq va mantiqiy ifodalash, matn yaratish hamda nutqiy vaziyatga mos til birliklarini tanlay olish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar o‘rgangan sintaktik bilimlarni kundalik hayotda va o‘quv faoliyatida samarali qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar [13].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar sintaktik tushunchalarni ko‘rgazmali, tushunarli va qiziqarli tarzda o‘qitish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron taqdimotlar, interaktiv mashqlar, animatsiyalar, multimediya vositalari, raqamli ta’lim platformalari hamda elektron didaktik resurslardan foydalanish orqali murakkab grammatik hodisalarni sodda va obrazli tarzda tushuntirish mumkin. Bunday vositalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi hamda sintaktik tushunchalarni uzoq muddat xotirada saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [10].

Yuqorida tahlil qilingan metodik yondashuv va tavsiyalar boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining samaradorligini oshirish, sintaktik tushunchalarni shakllantirish sifatini yaxshilash hamda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli ta’lim, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, loyiha metodi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash o‘quvchilarning sintaktik bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishiga, grammatik hodisalarni chuqur anglashiga hamda ularni amaliy nutq faoliyatida samarali qo‘llashiga imkon yaratadi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligi va ijodiy fikrlashini rivojlantirish bilan birga, darslarning qiziqarli va mazmunli tashkil etilishini ham ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida sintaktik tushunchalarni rivojlantirish ona tili ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu bosqichda o‘quvchilarning grammatik tafakkuri, nutqiy faoliyati va kommunikativ kompetensiyalarining dastlabki asoslari shakllanadi. Sintaktik bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi o‘quvchilarning grammatik savodxonligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini mantiqiy, izchil hamda uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, matn yaratish va o‘qilgan matnni chuqur anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sintaktik tushunchalarning ongli o‘zlashtirilishi keyingi ta’lim bosqichlarida tilshunoslik fanlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun mustahkam nazariy va amaliy poydevor yaratadi [1].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sintaktik tushunchalarni rivojlantirish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy integratsiyalash, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga yo‘naltirish, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda kompetensiyaviy yondashuvni izchil qo‘llash yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va o‘z fikrini asoslab ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada sintaktik tushunchalar o‘quvchilar tomonidan nafaqat nazariy bilim sifatida, balki kundalik nutq faoliyatida qo‘llaniladigan amaliy kompetensiya sifatida o‘zlashtiriladi.

Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda sintaksisni o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari va multimediya vositalaridan samarali foydalanish ta’lim sifatini yanada oshirish imkonini beradi. Raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish, ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv jarayonini differensial tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli sintaktik tushunchalarni o‘qitish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda sintaktik tushunchalarni rivojlantirishning raqamli ta’lim texnologiyalari, sun’iy intellekt vositalari, adaptiv (moslashuvchan) ta’lim platformalari hamda interaktiv elektron resurslar bilan integratsiyalash imkoniyatlarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mazkur yo‘nalishda ishlab chiqiladigan metodik tavsiyalar va didaktik modellar boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2016.
5. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018.
6. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
7. Roziqov O., Matjonov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
8. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
9. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
10. Yo‘ldoshev M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlariga oid qarorlari. – Toshkent, 2023.
12. Xudoyberganova M. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitishning dolzarb masalalari. – Toshkent: Tafakkur, 2021.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 378.147:004:37.02

Musayeva Ma'muraxon Maxamadsodiq qizi,
Renessans universiteti "Axborot texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi

CLIL TEXNOLOGIYASI VA RAQAMLI TA'LIM MUHITI INTEGRATSIYASI ASOSIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot oliy ta'limda axborot texnologiyalarini o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari CLIL yondashuvi talabalarning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish, xalqaro axborot resurslaridan foydalanish, tanqidiy fikrlash hamda kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. CLIL texnologiyasi axborot texnologiyalari ta'limi sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashning samarali vositasi ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: CLIL, axborot texnologiyalari, oliy ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, didaktik imkoniyatlar, kasbiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, ingliz tili, ta'lim texnologiyalari, STEM ta'limi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИН ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ТЕХНОЛОГИИ CLIL И ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу дидактических возможностей технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning) при обучении информационным технологиям в высшем образовании. Результаты исследования показали, что подход CLIL способствует развитию профессиональных и языковых компетенций студентов, навыков использования международных информационных ресурсов, критического мышления и профессиональной коммуникации. Установлено, что технология CLIL является эффективным средством повышения качества обучения информационным технологиям и подготовки конкурентоспособных специалистов.

Ключевые слова: CLIL, информационные технологии, высшее образование, интегрированное обучение, дидактические возможности, профессиональная компетентность, языковая компетентность, английский язык, образовательные технологии, STEM-образование.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING INFORMATION TECHNOLOGY DISCIPLINES BASED ON THE INTEGRATION OF CLIL TECHNOLOGY AND THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Abstract. This study is devoted to the analysis of the didactic potential of CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology in teaching Information Technologies in higher education. The findings indicate that the CLIL approach contributes to the development of students' professional and linguistic competencies, the ability to use international information resources, critical thinking, and professional communication skills. The study concludes that CLIL technology is an effective tool for improving the quality of Information Technology education and preparing competitive specialists.

Keywords: CLIL, information technology, higher education, integrated learning, didactic potential, professional competence, linguistic competence, english language, educational technologies, STEM education.

Jahon ta'lim makonida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi oliy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki zamonaviy raqamli muhitda mustaqil faoliyat yurita oladigan, axborot oqimlarini tahlil qilish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish va xalqaro mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashi zarur. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasining jadal rivojlanishi ta'lim mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, kasbiy tayyorgarlik jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish hamda mutaxassislarning kasbiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini uyg'un rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Axborot texnologiyalari yo'nalishidagi ilmiy adabiyotlar, texnik hujjatlar, dasturiy ta'minot vositalari, xalqaro standartlar va zamonaviy raqamli resurslarning aksariyati ingliz tilida yaratilganligi sababli, bo'lajak IT mutaxassislaridan faqatgina maxsus kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalar talab qilinmaydi. Ulardan, shuningdek, xorijiy tilda professional axborotni izlash, texnik matnlarni tushunish, xalqaro hamjamiyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, kasbiy muammolarni muhokama etish va o'z g'oyalarini taqdim eta olish kompetensiyasi ham talab etiladi. Shu sababli oliy ta'limda kasbiy fanlar va xorijiy til ta'limini integratsiyalash masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, fan mazmuni va tilni uyg'un holda o'qitishga asoslangan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi talabalarning kasbiy hamda lingvistik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi istiqbolli pedagogik yondashuvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda [9].

CLIL yondashuvining asosiy mohiyati ma'lum bir fan yoki kasbiy yo‘nalishga oid bilimlarni xorijiy til vositasida o‘zlashtirish hamda shu jarayonda til kompetensiyasini tabiiy ravishda rivojlantirishdan iborat. Mazkur texnologiya an'anaviy til o‘qitishdan farqli ravishda tilni alohida o‘quv obyekti sifatida emas, balki kasbiy bilimlarni egallash vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. CLIL yondashuvi 4C modeli — Content (mazmun), Communication (muloqot), Cognition (tafakkur) va Culture (madaniyat) tamoyillariga asoslanadi. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida talabalar nafaqat fan mazmunini chuqur o‘zlashtiradilar, balki kasbiy muloqot olib borish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish hamda turli madaniy muhitlarda samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Shu jihatdan CLIL texnologiyasi zamonaviy oliy ta'limda kasbiy va lingvistik tayyorgarlikni integratsiyalashning samarali vositasi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari yo‘nalishida ushbu yondashuv talabalarga dasturlash tillari, texnik atamalar, xalqaro ilmiy manbalar va professional kommunikatsiya vositalarini ingliz tili bilan bog‘liq holda o‘zlashtirish imkonini beradi. Natijada talabalar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha nafaqat mahalliy, balki xalqaro axborot va ilmiy-ta'lim makonida faol ishtirok etish uchun zarur kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi esa CLIL texnologiyasini samarali amalga oshirish uchun yangi didaktik imkoniyatlarni yaratmoqda. Zamonaviy ta'limni boshqarish tizimlari (LMS), virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, onlayn kurslar, elektron kutubxonalar va interaktiv raqamli resurslardan foydalanish fan mazmuni hamda xorijiy tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday raqamli vositalar talabalarni real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi, ularning mustaqil ta'lim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda amaliy muammolarni hal etishga yo‘naltiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan CLIL mashg‘ulotlari talabalar faolligini oshirish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish va o‘quv jarayonini moslashuvchan tashkil etish imkonini beradi. Bunda talabalar nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki raqamli resurslardan foydalanish, hamkorlikda ishlash, kasbiy axborotni xorijiy tilda tahlil qilish va o‘z bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Natijada ta'lim jarayoni an'anaviy bilim berish modelidan kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy modelga o‘tadi [9].

O‘zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kasbiy yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori [1] hamda Vazirlar Mahkamasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash

to‘g‘risidagi qarori [2] mamlakatimizda ta’lim muhitini transformatsiya qilish va xorijiy tillarni ommalashtirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tizimli joriy etish masalalari mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan [3]. O‘zbekistonda oliy ta’limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kasbiy yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda CLIL texnologiyasi va raqamli ta’lim muhiti integratsiyasining didaktik imkoniyatlari hamda pedagogik samaradorligi yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan. Mazkur holat CLIL texnologiyasi va raqamli ta’lim vositalarining o‘zaro integratsiyasini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning ta’lim sifatiga ta’sirini aniqlash hamda axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada CLIL texnologiyasi va raqamli ta’lim muhiti integratsiyasi asosida axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishning nazariy va metodik jihatlari yoritiladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining nazariy-metodologik asoslari D. Coyle, D. Marsh, P. Hood, P. Mehisto, K. Kelly va boshqa olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan[4,5,6]. Ularning ilmiy ishlarida mazmun va til integratsiyasining ta’lim sifati, akademik natijadorlik hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi umumiy ta’lim yoki xorijiy tillarni o‘qitish kontekstida olib borilgan bo‘lib, axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda CLIL yondashuvining didaktik imkoniyatlari va metodik xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan[8].

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ham ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari ta’limida CLIL texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar asosan xorijiy tajribalarga tayanadi [4,5,6,7,8]. Milliy oliy ta’lim tizimi sharoitida, ayniqsa raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashgan holda CLIL yondashuvining pedagogik samaradorligi va amaliy imkoniyatlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas [1,2,3]. Bu esa mazkur muammoni chuqur o‘rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda CLIL texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, uning raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashgan holdagi pedagogik salohiyatini aniqlash hamda talabalarning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat [3,4].

CLIL texnologiyasi zamonaviy ta’limning innovatsion yondashuvlaridan biri bo‘lib, fan mazmuni va xorijiy tilni parallel o‘qitish tamoyiliga asoslanadi. D. Coyle, D. Marsh va P. Mehisto tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko‘ra, CLIL o‘quvchilarning bilimlarni egallash jarayoni bilan bir qatorda til ko‘nikmalarini ham

tabiiy pedagogik muhitda rivojlantirishga xizmat qiladi[4,5,6]. Ushbu yondashuvning metodologik negizini tashkil etuvchi 4C modeli — Content (mazmun), Communication (muloqot), Cognition (tafakkur) va Culture (madaniyat) komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda talabalarning kasbiy tayyorgarligi, tanqidiy fikrlashi, kommunikativ faolligi hamda madaniyatlararo kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu jihatdan CLIL texnologiyasi axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda zamonaviy raqamli pedagogikaning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi [9].

O‘zbekistonda CLIL texnologiyasini ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayoni so‘nggi yillarda izchil rivojlanib bormoqda [1,2,3]. Oliy ta’lim muassasalarida ayrim mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish, shuningdek, kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP – English for Specific Purposes) dasturlarini kengaytirish mazmun va til integratsiyasiga asoslangan yondashuvlarning amaliy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalari yo‘nalishida esa dasturlash tillari, texnik hujjatlar, dasturiy ta’minot vositalari hamda xalqaro raqamli platformalarning asosan ingliz tilida faoliyat yuritishi CLIL texnologiyasini qo‘llash uchun qulay didaktik muhit yaratadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda CLIL texnologiyasining ilmiy-metodik asosda tizimli joriy etilishi va uning raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashgan modeli hali yetarli darajada shakllanmagan [2]. Bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni kengaytirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni talab etadi.

Jahon, MDH mamlakatlari hamda O‘zbekiston ta’lim tajribalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining asosiy maqsadi fan mazmuni va xorijiy tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali talabalarda kasbiy, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir [5]. Mazkur yondashuv zamonaviy oliy ta’limda talabalarning nafaqat muayyan fan bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, balki o‘zlashtirilgan bilimlarni xorijiy tilda amaliy qo‘llash, kasbiy axborotlarni tahlil qilish va xalqaro ilmiy-professional muhitda samarali muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi pedagogik texnologiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Yevropa davlatlari, Kanada va boshqa ilg‘or ta’lim tizimlarida CLIL texnologiyasi uzoq yillik tajriba, ilmiy-metodik asoslar va maxsus ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari asosida tizimli ravishda qo‘llanilmoqda. Ushbu mamlakatlarda CLIL yondashuvi fan o‘qituvchilari va til mutaxassislarining hamkorligi, maxsus metodik qo‘llanmalar, raqamli ta’lim resurslari hamda kompetensiyaga asoslangan baholash mezonlari bilan ta’minlangan. Natijada talabalar fan mazmunini o‘rganish jarayonida xorijiy tilni tabiiy kommunikativ vosita sifatida egallash imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Biroq MDH mamlakatlari va O‘zbekiston ta’lim amaliyotida CLIL texnologiyasidan foydalanish jarayoni hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, ko‘proq alohida tajriba-sinov loyihalari, oliy ta’lim muassasalarining tashabbuslari va ayrim fan yo‘nalishlari doirasidagi metodik izlanishlar shaklida namoyon bo‘lmoqda. Mavjud tajribalar shuni ko‘rsatadiki, CLIL texnologiyasini samarali joriy etish uchun fan o‘qituvchilarining xorijiy til kompetensiyasi, til o‘qituvchilarining esa maxsus fan mazmunini tushunishi, shuningdek, integratsiyalashgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish masalalari alohida metodik yondashuvni talab etadi. Shu sababli axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda CLIL texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, uning raqamli pedagogika vositalari bilan integratsiyalashuv mexanizmlarini aniqlash hamda amaliyotga mos samarali metodik modelini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish jarayonida CLIL texnologiyasining pedagogik salohiyati, didaktik imkoniyatlari va uni amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlashga qaratildi [6]. Tadqiqot metodologiyasi sifatli (qualitative) yondashuv asosida tashkil etilib, unda CLIL nazariyasi, kasbiy ta’lim metodikasi, raqamli pedagogika va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali muammoning nazariy asoslari, amaliy holati va rivojlanish istiqbollari ochib berildi [4].

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi [3]. Ilmiy manbalarni o‘rganish jarayonida CLIL texnologiyasining shakllanish tarixi, uning asosiy tamoyillari, 4C modeli (Content, Communication, Cognition, Culture), shuningdek, fan va til integratsiyasini ta’minlovchi metodik mexanizmlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari ta’limi, raqamli ta’lim muhiti va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga oid xalqaro hamda mahalliy ilmiy manbalar o‘rganilib, mavjud yondashuvlarning afzallik va cheklovlari aniqlandi [2].

Tadqiqotning qiyosiy tahlil bosqichida O‘zbekiston va MDH mamlakatlarining CLIL tajribasi rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti bilan taqqoslandi. Bunda CLIL texnologiyasini joriy etishning tashkiliy-pedagogik shartlari, o‘quv dasturlarining mazmuni, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, raqamli vositalardan foydalanish darajasi hamda baholash tizimlari tahlil qilindi. Natijalar asosida axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda CLIL yondashuvining imkoniyatlari, mavjud muammolar va uni rivojlantirish istiqbollari aniqlashtirildi [4].

Tadqiqot doirasida CLIL texnologiyasining axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlari to‘rtta asosiy komponent asosida tahlil qilindi: fan mazmuni (Content), til komponenti (Language), pedagogik vositalar (Pedagogical Tools) va kutilayotgan o‘quv natijalari (Learning Outcomes) [6]. Fan

mazmuni komponenti orqali talabalar IT sohasiga oid fundamental tushunchalar, texnik atamalar va amaliy bilimlarni o‘zlashtiradilar. Til komponenti esa ushbu bilimlarni xorijiy tilda ifodalash, texnik matnlarni tushunish va professional kommunikatsiyani amalga oshirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik vositalar komponenti doirasida raqamli platformalar, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar, onlayn resurslar va hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. O‘quv natijalari komponenti esa talabalarning kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ qobiliyati, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari va muammolarni hal qilish kompetensiyalaridagi o‘zgarishlarni baholashga yo‘naltirildi.

Mazkur kompleks yondashuv CLIL texnologiyasining axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishdagi funksional imkoniyatlarini har tomonlama baholash, uning an’anaviy ta’lim modelidan farqli jihatlarini aniqlash hamda raqamli ta’lim muhiti sharoitida samarali qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, CLIL texnologiyasi nafaqat til va fan integratsiyasini ta’minlovchi metodik vosita, balki zamonaviy IT mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik strategiya sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, kontent tahlili, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi [3]. Mazkur metodlar orqali CLIL texnologiyasining axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishdagi nazariy va amaliy imkoniyatlari kompleks ravishda o‘rganildi. Xususan, an’anaviy o‘qitish modeli hamda CLIL asosida tashkil etilgan integratsiyalashgan ta’lim jarayonining didaktik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil jarayonida an’anaviy yondashuvda fan bilimlari va xorijiy til ko‘nikmalarining ko‘pincha alohida shakllantirilishi, natijada talabalar o‘zlashtirgan bilimlarini real kasbiy kommunikatsiya jarayonida qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishi aniqlandi. CLIL yondashuvida esa fan mazmuni va til kompetensiyasi yagona o‘quv faoliyati doirasida rivojlantirilishi sababli, talabalar bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, CLIL texnologiyasining konseptual imkoniyatlarini aniqlash, uning axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish jarayonidagi didaktik rolini asoslash va raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashuv mexanizmlarini ochib berishga qaratildi. O‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, CLIL texnologiyasi zamonaviy oliy ta’limda nafaqat xorijiy tilni o‘rgatish vositasi, balki talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik strategiya sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv ayniqsa axborot texnologiyalari yo‘nalishida yuqori pedagogik imkoniyatlarga ega, chunki mazkur sohadagi ilmiy-texnik axborotlarning katta qismi ingliz tilida shakllangan.

Tahlil natijalari CLIL texnologiyasi axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda talabalarning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini parallel ravishda rivojlantirish imkonini berishini ko‘rsatdi [4]. Dasturlash, algoritmlash, ma’lumotlar bazalari, kompyuter tarmoqlari, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va veb-texnologiyalar kabi fanlarda asosiy tushunchalar, texnik atamalar va metodik materiallarning aksariyati ingliz tilida qo‘llanilishi CLIL yondashuvini tabiiy ravishda tatbiq etish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi [7]. Bunday fanlarda ingliz tilidan foydalanish sun’iy lingvistik mashq sifatida emas, balki real kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

CLIL asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar texnik terminologiyani o‘zlashtirish bilan bir qatorda, uni turli professional vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Masalan, dasturlash fanlarida kod izohlarini ingliz tilida tushuntirish, texnik hujjatlarni tahlil qilish, dasturiy xatolarni izlash bo‘yicha xalqaro manbalardan foydalanish yoki loyiha natijalarini taqdim etish jarayonlari til va kasbiy kompetensiyaning birgalikda rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada talabalarda nafaqat axborot texnologiyalariga oid bilimlar, balki professional muloqot, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari ham shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, CLIL texnologiyasi talabalarning xalqaro ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar, dasturiy ta’minot platformalari, GitHub repozitoriylari, ochiq kodli loyihalar, onlayn kurslar va professional forumlar bilan ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi [3]. Bu esa o‘quv materiallarining autentikligini ta’minlash, talabalarning mustaqil axborot izlash faoliyatini rivojlantirish hamda ta’lim mazmunini real kasbiy muhitga yaqinlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, IT sohasida tezkor yangilanib borayotgan bilimlar sharoitida talabaning xorijiy manbalar bilan mustaqil ishlay olish qobiliyati uning kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida CLIL texnologiyasining raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyasi uning didaktik samaradorligini yanada oshirishi aniqlandi. Zamonaviy LMS platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar, videodarslar, elektron kutubxonalar, simulyatsion dasturlar va bulutli texnologiyalardan foydalanish integratsiyalashgan ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan tashkil etish imkonini beradi [4]. Raqamli vositalar yordamida talabalar o‘quv materiallarini individual sur’atda o‘zlashtirish, qo‘shimcha ingliz tilidagi resurslardan foydalanish, amaliy loyihalarni bajarish va o‘z bilimlarini mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, CLIL va raqamli pedagogikaning uyg‘unlashuvi talabalar faoliyatini faollashtiruvchi yangi ta’lim shakllarini yaratishga imkon beradi. Masalan, virtual loyihalar, xalqaro onlayn hamkorlik faoliyati, dasturlash bo‘yicha amaliy topshiriqlar va raqamli portfoliolar orqali talabalar o‘z bilimlarini real

vazifalar asosida namoyon etishlari mumkin. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini reproduktiv bilim olish modelidan ijodiy va faoliyatga asoslangan kompetensiyaviy modelga o‘tkazadi.

Bundan tashqari, CLIL asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarni xorijiy tildagi axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, taqqoslash va amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada talabalarda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar, jumladan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, tahliliy yondashuv va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi [8]. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida mutaxassisning yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtira olishi, xalqaro axborot makonida faol ishlashi va o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, olingan natijalar CLIL texnologiyasining axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda bir qator muhim didaktik afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Birinchidan, mazkur yondashuv fan mazmuni va til kompetensiyasini integratsiyalash orqali talabalarning kasbiy hamda kommunikativ tayyorgarligini kompleks rivojlantiradi. Ikkinchidan, talabalarni real professional faoliyatga yaqin sharoitda tayyorlash imkonini beradi. Uchinchidan, raqamli ta’lim vositalari bilan uyg‘unlashgan holda mustaqil ta’lim, axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish uchun samarali pedagogik asos yaratadi. Shu jihatdan CLIL texnologiyasi zamonaviy oliy ta’limda axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin [4].

Biroq CLIL texnologiyasini samarali joriy etish bir qator tashkiliy, metodik va resurs omillariga bevosita bog‘liq. Jumladan, o‘qituvchilarning xorijiy til bo‘yicha tayyorgarligi, CLIL metodikasini egallaganlik darajasi, fan va til integratsiyasiga mos o‘quv materiallarining mavjudligi, raqamli didaktik resurslarning sifati, ta’lim muassasasining texnik infratuzilmasi hamda talabalarning boshlang‘ich til kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Ushbu omillardan biri yetarli darajada shakllanmagan holatlarda CLIL yondashuvining kutilgan samaradorligi pasayishi mumkin.

Shu sababli CLIL texnologiyasini oliy ta’lim tizimiga joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich, ilmiy-metodik asoslangan va raqamli ta’lim muhiti bilan uzviy integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir [2]. Bunda o‘qituvchilar malakasini oshirish, integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, raqamli resurslar bazasini kengaytirish va talabalarning individual til tayyorgarligini hisobga olish CLIL texnologiyasining samarali qo‘llanishini ta’minlovchi asosiy shartlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda yuqori didaktik salohiyatga ega bo‘lgan zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi [7]. Mazkur texnologiya fan mazmuni va xorijiy til ta’limini yagona o‘quv jarayonida

uyg‘unlashtirish orqali talabalarning kasbiy, kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Bunda xorijiy til nafaqat o‘rganish obyekti, balki professional bilimlarni egallash, axborotni tahlil qilish va kasbiy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot texnologiyalari fanlari CLIL yondashuvini qo‘llash uchun eng qulay didaktik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur sohada qo‘llaniladigan dasturlash tillari, texnik atamalar, ilmiy maqolalar, dasturiy ta’minot hujjatlari, xalqaro standartlar va raqamli platformalarning aksariyati ingliz tilida shakllangan. Shu sababli IT fanlarini ingliz tili bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki real kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan autentik axborot manbalari bilan ishlash imkoniyatini ham yaratadi. Natijada ta’lim jarayoni xalqaro akademik va professional muhitga yaqinlashadi, talabalarning global axborot makonida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayadi [8].

CLIL texnologiyasining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rag‘batlantiradi hamda yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar xorijiy tildagi texnik axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, taqqoslash va amaliy vaziyatlarda qo‘llash jarayonida tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv, muammolarni hal qilish va ijodiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Ayniqsa, axborot texnologiyalari kabi tezkor yangilanib boruvchi sohada bunday kompetensiyalar mutaxassisning kasbiy raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuningdek, CLIL texnologiyasining raqamli ta’lim vositalari bilan integratsiyasi uning pedagogik samaradorligini yanada oshirishini ko‘rsatdi. Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar, elektron resurslar, onlayn kurslar va simulyatsion dasturlardan foydalanish fan mazmuni hamda til komponentini samarali uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bunday raqamli muhit talabalarga individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, o‘zlashtirish sur’atini boshqarish, qo‘shimcha xalqaro manbalardan foydalanish va amaliy loyihalar orqali bilimlarini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, CLIL texnologiyasini oliy ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun bir qator pedagogik va tashkiliy shartlarga rioya qilish zarur. Jumladan, fan o‘qituvchilarining xorijiy til va CLIL metodikasiga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, integratsiyalashgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish, raqamli ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish hamda talabalarning til tayyorgarligi darajasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar ta’minlangan taqdirda CLIL texnologiyasi axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning xalqaro mehnat bozoriga mos kompetensiyalarini shakllantirish va zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, CLIL texnologiyasi axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda fanlararo integratsiyani ta’minlovchi, kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni birgalikda rivojlantiruvchi hamda raqamli ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishga asoslangan istiqbolli metodik yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda CLIL texnologiyasini turli IT yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy tajriba asosida sinovdan o‘tkazish, uning samaradorligini empirik mezonlar asosida baholash va raqamli pedagogik vositalar bilan integratsiyalashning yangi modellarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2020. – 103 b.

2. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p. https://www.cambridge.org/9780521130219.

3. Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL): A Development Trajectory. – Córdoba: University of Córdoba Press, 2012. – 558 p.

4. Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.

5. Ball P., Kelly K., Clegg J. Putting CLIL into Practice. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 336 p.

6. Cenoz J., Genesee F., Gorter D. Critical Analysis of CLIL: Taking Stock and Looking Forward // *Applied Linguistics*. – **2014**. – Vol. 35(3). – P. 243–262. https://doi.org/10.1093/applin/amt011

7. Gulmira Kussaiynkyzy. ICT-supported CLIL in Computer Science within a Trilingual Context: Perceptions and Reported Practices: Budapest, 2025 – 305 https://ppk.elte.hu/dstore/document/326444/Kussaiynkyzy%20Gulmira_dissertation.pdf

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 372.881.111.1

Inogamova Nafisa Abdugaparovna,
PhD student, Department of English Language Theory and Methodology,
National Pedagogical University of Uzbekistan

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING PREDICTION SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Abstract. This study examines the methods, outcomes, and obstacles in developing prediction skills within modern English Language Teaching (ELT). A qualitative analysis was conducted on 26 scholarly sources published between 1975 and 2025. The findings reveal three main categories of practice: technology-driven training, explicit strategy instruction (such as DRTA and THIEVES), and communicative task designs. The study concludes that explicit and open practice of prediction significantly improves comprehension; however, teacher readiness and resource limitations remain the primary constraints.

Keywords: prediction skills, English language teaching, reading comprehension, listening comprehension, learning strategies, technology-enhanced learning, DRTA, interactive approach, metacognition, task-based learning.

INGLIZ TILI O‘QITISHDA MATNNI OLDINDAN TAXMIN QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot zamonaviy ingliz tili o‘qitishda (ELT) matn mazmunini oldindan taxmin qilish (prediction) ko‘nikmasini rivojlantirish usullari, ularning natijalari va to‘siqlarini o‘rganadi. 1975–2025-yillarga oid 26 ta ilmiy manba sifat tahlilidan o‘tkazildi. Natijalar ushbu ko‘nikmani rivojlantirishning uchta asosiy yo‘nalishini ko‘rsatdi: texnologik treninglar, maxsus strategiyalar (DRTA, THIEVES va b.) va kommunikativ topshiriqlar. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, taxmin qilish ko‘nikmasi ochiq va maqsadli o‘rgatilganda tushunish darajasi sezilarli darajada oshadi; biroq o‘qituvchilarning tayyorgarligi va resurslar yetishmovchiligi asosiy cheklovchi omillar bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: bashorat ko‘nikmalari, ingliz tilini o‘qitish, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, ta’lim strategiyalari, texnologiya bilan boyitilgan ta’lim, DRTA, interaktiv yondashuv, metakognitsiya, topshiriqqa asoslangan ta’lim.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ НАВЫКОВ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются методы, результаты и препятствия в развитии навыка предвосхищения (прогнозирования) текста в современном преподавании английского языка (ELT). Был проведен качественный анализ 26 научных источников, опубликованных в период с 1975 по 2025 год. Результаты выявили три основных направления практики: технологическое обучение, эксплицитное (явное) преподавание стратегий (DRTA, THIEVES и др.) и коммуникативные задания. Автор приходит к выводу, что открытая и целенаправленная практика прогнозирования значительно повышает уровень понимания речи, однако готовность учителей и нехватка ресурсов остаются главными сдерживающими факторами.

Ключевые слова: навыки прогнозирования, обучение английскому языку, понимание при чтении, понимание на слух, стратегии обучения, технологии в обучении, DRTA, интерактивный подход, метапознание, задачное обучение.

To predict, in reading or listening, is to run slightly ahead of the text - to form an expectation about the next word, sentence or turn and then check it. Smith made the point half a century ago: reading works because the reader keeps guessing, and prediction lets the mind spend its limited resources on testing hypotheses instead of decoding every symbol from zero [1]. A learner who predicts is doing something, not merely receiving; that is why the skill is tied so closely to engagement and to comprehension that goes beyond the surface.

The teaching of English has moved a long way from the days when such guessing was left to chance. Classrooms are now more learner-centred, more willing to make strategies explicit, and increasingly built around digital tools - artificial intelligence, adaptive platforms, and frameworks that expect an evidence base [2], [3], [4], [24], [25]. Prediction has resurfaced inside this shift, valued less as a reading trick than as a metacognitive habit that supports independent learning.

This article looks at how that habit is being cultivated. It follows three threads: the technologies that personalise prediction training, the strategies that teach it directly, and the wider methodologies - communicative and task-based - that make room for it inside real language use. The studies drawn on come from very different places, among them Kenya, Jordan, China, Vietnam and Uzbekistan, and they concern learners from primary school to university, so the picture that emerges is deliberately broad.

Why should guessing ahead help at all? Schema theory offers one answer: comprehension is a meeting between what a text says and what a reader already carries in memory, and prediction is the point of contact - the reader reaches into stored knowledge to anticipate what a text will say [5]. The interactive model of reading sharpens this. Reading, on that account, runs in two directions at once,

upward from letters and words and downward from expectation, and prediction is the downward movement that keeps the whole process efficient when a learner's language is still thin [5]. Cognitive-load theory explains the mechanism in plainer terms. Working memory is small; if a reader has already formed an expectation, attention can go to checking it rather than to grinding through every word, and for an EFL learner, whose decoding is costly, that saving matters a great deal [1].

There is also a metacognitive side. A learner who predicts on purpose tends to notice when understanding slips, and noticing is the first step to repair [5]. This is the same territory as learner autonomy and self-regulation, which is partly why prediction has drawn fresh interest. More recent work adds a technological layer: by mining data on how learners behave and perform, systems can shape prediction practice around the individual [6], [7]. Such tools do not overturn the older theories - they give them measurement, a way to see and tune what schema and cognitiveload accounts describe.

The intervention literature backs the claim that this is teachable. In Kenyan and Jordanian classrooms, prediction taught through structured, teacher-led routines produced real gains in reading comprehension [5], [11]. Other studies, in universities and in technology-heavy settings, look at how AI, immersive media and blended courses can support the guessing-checking-revising loop at the heart of prediction [8], [9], [10]. The consensus is fairly settled - prediction can be trained and it is worth training. What remains open is the balance: how much explicit teaching, how much technological personalisation, and how that mix should shift from one context to the next.

This is a qualitative review built on thematic synthesis, not a meta-analysis. The choice follows from the material. Approaches to teaching prediction sit inside studies that differ in almost every respect - the method used, the country, the age of the learners, whether the skill in question is reading or listening - and pooling their numbers would compare things that are not really alike. Reading the studies against one another, and drawing out patterns, tells us more.

The search ran through academic databases and open repositories, combining terms such as prediction, predicting, anticipation, reading comprehension, listening comprehension, English language teaching, reading strategy and technologyenhanced learning. A source was kept if it bore on the teaching, development or assessment of prediction (or a close anticipatory strategy) in English, if it appeared between 1975 and 2025, and if a full English text was available. Older theoretical writing was retained alongside the recent empirical work, precisely so that the shift over time would show. Twenty-six sources survived this filter - intervention studies, systematic reviews, and conceptual or methodological papers from several national settings.

Reading then proceeded in three passes. The first tagged each source by its main focus (technology, strategy or framework), by the skill it addressed, and by what it reported.

The second collapsed these tags into the three themes used below. The third weighed the findings within each theme against one another, looking for where they agreed, where they pulled apart, and where the evidence simply ran out. The corpus is uneven in rigour, so stronger and weaker claims are marked as such, and any figures are given as their original authors reported them.

The newest tools in this area come from data mining. Zhu's work on English listening shows what analytics can do: by combing through records of how students perform, it surfaces the behaviours that go with successful comprehension and lets a teacher build training around them [6]. The point is not the forecast itself but what it reveals - that certain moves, activating background knowledge, catching discourse markers such as however or in conclusion, reading contextual cues, tend to accompany good listening, and can therefore be taught on purpose [6].

Luo pushes the idea into deep learning. His model feeds learners' forgetting curves and study behaviour into a Bayesian knowledge-tracing framework, predicts how listening will develop, and then uses clustering and regression trees to find which behaviours matter most [7]. What makes the study worth citing is the classroom result: learners given personalised listening paths, drawn from the model's predictions, ended up ahead of a control group and reported being more satisfied with the course [7]. An adaptive system, in other words, can carry some of the scaffolding a teacher would otherwise supply - feedback at the right moment, practice in the right order. AI stretches this still further, since chatbots can react instantly to a learner's guess and rehearse something like real conversation [8]; virtual and augmented reality promise the same for spoken interaction, letting learners anticipate turns and cultural expectations inside a scene, though here the evidence is still thin [9], [10].

For all the promise of technology, the firmest evidence still comes from teaching the strategy outright. The strongest single study is Anyiendah et al.'s work in Vihiga County, Kenya, which used a Solomon four-group design with 279 primary pupils and found that structured, teacher-led prediction training lifted reading achievement - while noting, less comfortably, that teachers leaned heavily on the pictures in the textbook and rarely used titles or headings to prompt a guess [5]. The Directed Reading–Thinking Activity keeps prediction honest by making it a loop: predict, read, confirm or reject the prediction, then justify the verdict. In an eight-week trial with Jordanian tenth-graders, that loop produced significant gains in comprehension [11]. Other pre-reading routines work along similar lines. THIEVES walks learners through title, headings, introduction, the first sentence of each paragraph, visuals and vocabulary, end-of-chapter questions and the summary before they read in earnest [12], while the envelope-picture technique hands learners

a partial image and asks them to imagine the whole, turning prediction into a lowrisk, rather enjoyable act of guesswork that also lifts motivation [13]. Prediction is not confined to meaning, either - teaching English rhythm by having learners anticipate stress and intonation shows the same skill at work down at the level of sound [14].

The skill does not behave the same way everywhere. Listening is unforgiving - the words are gone as soon as they are spoken - so it rewards fast work: reaching for background knowledge, catching a discourse marker, reading the rise and fall of the voice, and it is here that analytics-driven personalisation has posted its clearest gains [6], [7]. Reading gives the learner time, and it carries the longest research record; training with titles, visuals, prior knowledge and inference improves comprehension across settings and levels with fair consistency [5], [11], [12]. Increasingly, though, teachers stop treating prediction as a reading sub-skill sealed off from the rest and let it run through everything learners do [15]. Communicative teaching supplies the openings almost automatically - an information-gap task or a role-play cannot proceed unless learners second-guess what a partner means and how the exchange is meant to go [15], [16]. Task-based teaching does much the same, hanging the work on a goal that can only be reached by guessing, checking and adjusting along the way; Yan et al.'s review found that such tasks, and especially those built around digital storytelling, drew learners in and pushed their language further [17], [18], [19]. Content-based and blended courses add their own version, letting learners predict the concepts and vocabulary of a subject while working through varied materials at their own pace - an emphasis now often justified by talk of graduate employability [20], [21], [22], [23].

None of these developments comes without challenges, and similar obstacles recur consistently throughout the wider literature [26]. One of the most significant factors affecting the successful implementation of prediction-based instruction is the teacher. Anyiendah et al. found that prediction training often becomes limited or ineffective when teachers have not been adequately introduced to interactive teaching methods or when their instructional practice is largely restricted to the prescribed textbook [5]. In such circumstances, prediction may be reduced to occasional questioning rather than being developed as a systematic cognitive and metacognitive strategy. Teachers therefore need not only a theoretical understanding of prediction but also practical knowledge of how to model the process, guide learners in generating hypotheses, provide appropriate feedback, and encourage learners to revise their predictions when new information becomes available.

Classroom conditions can further complicate the implementation of effective prediction instruction. Large class sizes, limited instructional time, insufficient teaching materials, and restricted access to authentic resources often reduce opportunities for individual guidance and meaningful interaction. These difficulties tend to be particularly acute in educational contexts with limited financial and technological resources [5]. In overcrowded classrooms, for example, teachers may

find it difficult to monitor how individual learners form predictions, identify misconceptions, or provide immediate feedback. As a result, the effectiveness of prediction-based instruction depends not only on the quality of the strategy itself but also on the institutional and material conditions within which it is implemented.

Technological approaches offer additional opportunities, particularly in relation to adaptive and personalised learning, but they also introduce new requirements. Digital platforms, artificial intelligence, interactive applications, and multimedia resources can provide learners with differentiated tasks and immediate feedback. However, their effectiveness depends on stable internet access, functional devices, appropriate software, and teachers who possess sufficient digital and pedagogical competence to integrate these tools meaningfully into instruction [6], [7], [8]. In many educational settings, these conditions cannot be assumed. Technology should therefore be regarded as a supportive instrument rather than an independent solution. Its educational value depends largely on the teacher's ability to select appropriate tools and connect them with clear pedagogical objectives.

Another important consideration is the diversity of learners themselves. Prediction is not a culturally or linguistically neutral process. Learners rely on previous linguistic experience, background knowledge, cultural assumptions, and personal experience when anticipating the content of a text or spoken message. Habits transferred from a first language may influence how learners interpret linguistic signals, while differences in cultural knowledge may affect their ability to recognise contextual clues and make accurate predictions [5], [11]. Consequently, prediction instruction cannot follow a completely uniform model. Effective teaching should begin with an understanding of what learners already know and should provide sufficient scaffolding for those whose linguistic or cultural background gives them less access to the contextual information required for successful prediction.

Despite these challenges, prediction has earned its place as a fundamental strategy in language learning because it changes the learner's role in the process of comprehension. Rather than remaining a passive receiver of information, the learner becomes an active participant who anticipates possible meanings, tests hypotheses against incoming information, confirms or rejects earlier assumptions, and revises understanding when necessary. Across the twenty-six sources and five decades considered in this review, the teaching of prediction has gradually developed from relatively simple strategy instruction toward more adaptive, personalised, communicative, and technology-supported approaches. Three major currents are particularly visible in this development: technological personalisation, explicit strategy instruction, and the integration of prediction into communicative and task-based learning.

Across these different approaches, however, one central finding remains consistent: direct and systematic instruction in prediction can improve learners'

comprehension, particularly when teachers are adequately prepared, instructional materials provide diverse contextual cues, and activities are adapted to learners' needs and backgrounds [5], [6], [7], [11]. The effectiveness of prediction does not lie simply in asking learners to guess what comes next. Rather, it depends on teaching them how to use available linguistic, visual, contextual, and background information to form reasonable hypotheses and how to evaluate those hypotheses as comprehension develops.

Several practical implications follow from these findings. First, prediction should be taught explicitly. Teachers should make the normally invisible cognitive process of anticipating meaning observable by modelling it through think-aloud activities, guided questioning, and demonstrations of how experienced readers and listeners use contextual clues [5], [11]. Learners should then be given repeated opportunities to practise the strategy with feedback before gradually assuming responsibility for using it independently. Such scaffolding is particularly important because unsuccessful predictions should not be treated merely as errors but as opportunities for learners to reconsider the evidence available to them and refine their understanding.

Second, prediction instruction should draw on a wider range of materials than the traditional textbook alone. Authentic written texts, images, videos, audio recordings, headlines, visual prompts, and other multimodal resources provide learners with the variety of clues necessary for developing effective prediction skills [5], [13], [14]. The use of diverse materials can also increase learner motivation and demonstrate that prediction is not simply a classroom technique but a natural component of real-world communication.

Third, prediction is likely to be most effective when it serves a meaningful communicative purpose. Instead of being presented as an isolated exercise, it can be integrated into communicative and task-based activities in which learners need to anticipate information in order to solve a problem, complete a task, participate in a discussion, or understand a text [15], [17], [18]. Such integration helps learners recognise the practical value of prediction and encourages the transfer of the strategy beyond individual classroom activities.

Technology can further support these processes by providing adaptive tasks, personalised feedback, and opportunities for repeated practice. Where infrastructure permits, digital systems may help identify patterns in learners' responses and provide materials at different levels of difficulty [6], [7], [8]. Nevertheless, technological personalisation should remain under the guidance of professional teacher judgement. Automated systems may assist with practice and feedback, but they cannot fully replace the teacher's understanding of learners' motivations, cultural backgrounds, difficulties, and educational needs.

Teacher preparation therefore remains a central condition for sustainable implementation. Professional development should address the theoretical

foundations of prediction, practical instructional techniques, appropriate assessment procedures, and the integration of digital tools where relevant [5]. Teachers also need opportunities to experience prediction strategies as learners themselves and to adapt these strategies to the specific conditions of their classrooms.

Learners, meanwhile, can benefit from developing greater awareness of their own predictive processes. Reflective activities such as prediction logs, think-aloud protocols, self-assessment, and discussions of successful and unsuccessful predictions can strengthen metacognitive awareness [5], [11]. By reflecting on why a particular prediction was made and what evidence supported or contradicted it, learners gradually become more strategic and independent readers and listeners. At the same time, instruction should remain responsive to the linguistic and cultural resources learners already possess rather than treating differences in background knowledge as deficits.

Considerable research opportunities remain. Future studies could investigate the potential of artificial intelligence and more sophisticated adaptive learning systems to support prediction training while maintaining pedagogical transparency and teacher control. Immersive technologies, including virtual and augmented learning environments, also offer possibilities for providing rich contextual information, although their educational value requires more systematic empirical investigation. Further comparative research across languages and cultures would help clarify how linguistic structure, cultural knowledge, and first-language experience influence predictive processes.

Longitudinal and large-scale research designs are also needed to determine whether improvements in prediction skills are sustained over time and transferred to different forms of reading and listening. Much remains unclear about how prediction interacts with related strategies such as summarising, inferencing, self-monitoring, and questioning. Another important limitation is the absence of a universally accepted and sufficiently reliable instrument for measuring prediction ability. The development of valid assessment tools would allow researchers to compare findings more consistently across studies and educational contexts.

In conclusion, prediction represents more than a preliminary guessing activity. It is a dynamic cognitive and metacognitive process through which language learners actively construct, test, revise, and regulate meaning. Its effective development requires explicit instruction, meaningful practice, varied materials, appropriate technological support, culturally responsive teaching, and well-prepared teachers. Future progress will depend on combining advances in technology and adaptive learning with sound pedagogical principles and rigorous empirical research. When implemented within such a balanced framework, prediction can make a substantial contribution to the development of autonomous learners who are able not only to understand what they read and hear but also to anticipate, evaluate, and independently manage their own comprehension processes.

References:

1. Smith F. The Role of Prediction in Reading. Elementary English. 1975;52(3):305–311.

2. Madina M. Modern Approaches in Teaching English as a Foreign Language. https://doi.org/10.5281/zenodo.17208856. 2025.

3. Bakhtiyorovich B. Modern Methods of Teaching English. https://doi.org/10.5281/zenodo.8369044. 2023.

4. Kizlargul K. Advances in Modern Methods of Teaching English. https://doi.org/10.5281/zenodo.15665680. 2025.

5. Anyiendah M.O., Odongo J.M., Inyega M.M. Prediction Skills, Reading Comprehension and Learning Achievement in Vihiga County, Kenya: Addressing Constraints and Prospects. English Language Teaching. 13(10):139–150. https://doi.org/10.5539/elt.v13n10p139

6. Zhu Y. Data Mining Technology-Based English Listening Prediction Strategy and Its Training Approach. Security and Communication Networks. 2022;2022:4852792. https://doi.org/10.1155/2022/4852792

7. Luo Y. English Listening Prediction Strategies Based on Deep Learning and Ways to Cultivate Them. Applied Mathematics and Nonlinear Sciences. https://doi.org/10.2478/amns-2024-3345. 2024.

8. Khan S., Khan A., Khan M. Empowering English Language Learners: Harnessing AI for Enhanced ESL Education. Journal of Advances and Scholarly Research in Allied Education. https://doi.org/10.29070/2vrwf279. 2024.

9. Neelu N. Navigating the Future of English Language Teaching: Trends, Insights and Innovations. Journal on English Language Teaching. 2025;15(3). https://doi.org/10.26634/jelt.15.3.21288

10. Aybek A. Revolutionizing Language Learning: The Crucial Role of Modern Technologies and Methods in Teaching Students English. https://doi.org/10.5281/zenodo.8340526. 2023.

11. Al-Janaydeh M.K., Bani Younes M.F., Al-Kharabsheh A.M. The Effectiveness of the Directed Reading Thinking Activity (DRTA) Strategy in Jordanian EFL Tenth-Grade Students' Reading Comprehension. Dirāsāt: Human and Social Sciences. 2024;51(6). https://doi.org/10.35516/hum.v51i6.2961

12. AbdelHaq E.M., Salem M.A., Ahmed N.A. Utilizing the THIEVES Strategy to Develop EFL Reading. 2020.

13. Almekhlafy S.S.A., Almeqdadi A.A., Alsobhi T. The Visual Memory Development Technique: A Remedial and Pre-Reading Activity to Enhance EFL Learner's Motivation. Heliyon. 2020;6(4):e03627. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e03627

14. Kaiser L. Practical Approaches to Teaching English Rhythm: Easy as ABC and 123. 2021.

15. Triyogo A., Sulistyowati S., Damayanti D. English Learning Strategies for EFL Students: Interactive and Effective Approaches to Enhancing Language Skills. Linguistic, Literature and English Education. 2024;4(1). https://doi.org/10.55526/lied.v4i1.652

16. Peng S.S. English Language Teaching Methods: Exploring the Impact of Various Approaches on Students' Language Learning Outcomes. SHS Web of Conferences. 2024;187:01008. https://doi.org/10.1051/shsconf/202418701008

17. Yan Y., Yunus S.S., Zainal H. Speak Beyond Borders: A Systematic Review of Task-Based Language Teaching for EFL Speaking Proficiency. English Language Teaching. 2024;17(7):15–30. https://doi.org/10.5539/elt.v17n7p15

18. Improving Methodology for Teaching English in Higher Education Institutions Based on Innovative Approaches. 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.15101137

19. Modern Methods of Teaching English Language. 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.15284285

20. Dhar D. Teacher Perceptions and Pedagogical Approaches in Fostering English Language Proficiency. 2023. https://doi.org/10.5281/zenodo.8304775

21. Vaishnav M. Current Trends and Future Prospects in English Language Teaching (ELT). Asian Journal of Education and Social Studies. 2024;50(7):143–148. https://doi.org/10.9734/ajess/2024/v50i71438

22. Azimov A. Innovations in Teaching English: A Comparative Study of Modern Pedagogical Approaches. 2024. https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.teach.foreign.lang.2024.8.5/cvlu3177

23. Nghia T.L.H., Phuong T.T.T., Huyen T.T. Repositioning and Modifying the Contemporary Approach to English Language Education for Vietnamese Graduate Employability Enhancement. 2023. https://doi.org/10.1007/978-981- 99-4338-8_16

24. Dilfuza D. Modern Pedagogical Methods of Teaching English. 2023. https://doi.org/10.5281/zenodo.8428651

25. Modern Methods of Teaching English. 2024. https://doi.org/10.5281/zenodo.11657309 26. S. S., M. M., R. R. Enhancing English Language Teaching: Strategies, Challenges, and Opportunities. Jurnal Ilmiah Mandala Education. 2024;10(2). https://doi.org/10.58258/jime.v10i2.6834

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 7-son

UDK 343.81/.84 : 343.140.02

Axmedov Abrorjon Anvarjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

PROBATSIYA XIZMATINING OZODLIKNI CHEKLASH JAZOSI TAYINLANGAN SHAXSLARNING UY-JOYINI TARK ETMASLIGINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN HUJJATLARI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyini tark etmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari tahlil qilingan, shuningdek, ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyini tark etmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Probatsiya, ozodlikdan cheklash, masofaviy nazorat, qonunchilik hujjatlari, Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi.

АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА, РЕГУЛИРУЮЩЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СЛУЖБЫ ПРОБАЦИИ ПО ДИСТАНЦИОННОМУ КОНТРОЛЮ ЗА НЕВЫЕЗДОМ ИЗ ЖИЛИЩА ЛИЦ, ОСУЖДЕННЫХ К НАКАЗАНИЮ В ВИДЕ ОГРАНИЧЕНИЯ СВОБОДЫ

Аннотация. В данной статье проанализировано законодательство, регулирующее деятельность службы пробации по дистанционному контролю за невыездом из жилища лиц, осужденных к наказанию в виде ограничения свободы, а также обсуждены вопросы дальнейшего совершенствования правовых основ деятельности по дистанционному контролю за соблюдением запрета на оставление жилища лицами, осужденными к ограничению свободы.

Ключевые слова: Пробация, ограничение свободы, дистанционный контроль, законодательные акты, Конституция, Уголовный кодекс.

ANALYSIS OF THE LEGISLATION REGULATING THE PROBATION SERVICE'S ACTIVITIES ON REMOTE MONITORING OF HOME CONFINEMENT COMPLIANCE BY INDIVIDUALS SENTENCED TO RESTRICTION OF LIBERTY

Abstract. This article analyzes the legislation regulating the probation service's activities on remote monitoring of home confinement compliance by individuals sentenced to restriction of liberty. It also discusses issues concerning the further

improvement of the legal framework for the remote monitoring of adherence to home confinement restrictions by persons sentenced to restriction of liberty.

Keywords: Probation, restriction of liberty, remote monitoring, legislative acts, Constitution, Criminal Code.

Keyingi yillarda mamlakatimizning ichki ishlar organlari tizimida ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'naviy va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda respublikamizda ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar o'rtasida profilaktika chora-tadbirlari amalga oshirilayotganligiga qaramay, probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni ortib borayotganligi kuzatilmoqda, bu mazkur yo'nalishdagi huquqiy ta'sir choralarining qayta ko'rib chiqilishini talab etmoqda.

Bundan tashqari sud tomonidan belgilangan cheklovlar va majburiyatlarga rioya etmayotgan probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish bo'yicha tezkor hamda ta'sirchan choralar ko'rilishini ta'minlash uchun Probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyini tark etmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Shu sababli mazkur maqolada, probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyini tark etmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini chuqur tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" 2021-yil 20-apreldagi O'RQ-682-son Qonuni 7-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlari sirasiga kiradi[1]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 20-moddasi 2-qismiga asosan, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas[2].

Shuningdek, Konstitutsiyaning 21-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin[3].

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 27-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas[4].

ChatGPT сказал:

Quyidagi variantda matnni **yaxlit ilmiy-huquqiy uslubda**, takrorlarni kamaytirgan holda va probatsiya xizmatining **masofaviy nazorati, konstitutsiyaviy prinsiplar hamda sud nazorati** masalalarini kengaytirgan holda bayon qildim. Amaldagi qonunchilikni tekshirishda Jinoyat kodeksining 48¹-moddasi va Oliy sud Plenumining tegishli tushuntirishlari ham hisobga olindi.

Ozodlikni cheklash jazosini ijro etishda uy-joydan chiqmaslik cheklovini masofaviy nazorat qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazo choralarini qo‘llash va ularni ijro etish jarayonida ham shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etishda mahkumning harakatlanish erkinligi, uy-joy daxlsizligi, shaxsiy hayoti va boshqa huquqlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatilishi sababli mazkur huquqlarni cheklashning huquqiy asoslari, chegaralari va nazorat mexanizmlarini aniq belgilash talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi va uy-joy daxlsizligi bilan bog‘liq muhim kafolatlar mustahkamlangan. Unga ko‘ra, hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kira olmaydi. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yish va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Uy-joyda tintuv o‘tkazishga esa faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida uy-joy daxlsizligini mutlaq va hech qanday sharoitda cheklanmaydigan huquq sifatida emas, balki uni cheklashning qat’iy huquqiy shartlari mavjud bo‘lgan fundamental huquq sifatida belgilaydi. Ya’ni, davlat organlarining shaxs uy-joyiga kirishi yoki u yerda muayyan nazorat tadbirlarini amalga oshirishi faqat qonunda belgilangan asos va tartibga rioya etilgan taqdirdagina qonuniy hisoblanadi. Bu qoida probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan mahkumlar ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatiga ham bevosita taalluqlidir.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 32-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har kimning mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqi e’tirof etilgan bo‘lib, ushbu huquq qonunda belgilangan hollarda cheklanishi mumkin. Demak, shaxsning erkin harakatlanish huquqini cheklashga yo‘l qo‘yilishi uchun, eng avvalo, bunday cheklovning qonuniy asosi mavjud bo‘lishi lozim.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar ozodlikni cheklash jazosining huquqiy tabiatini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur jazo mahkumni jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yishni nazarda tutmaydi, biroq uning erkin harakatlanish

imkoniyatlarini qonunda va sud hukmida belgilangan doirada cheklaydi. Shuning uchun ozodlikni cheklash jazosini ijro etishda probatsiya xizmatining asosiy vazifalaridan biri mahkumga nisbatan belgilangan cheklovlarning bajarilishini ta'minlash bilan bir qatorda, nazorat jarayonida uning qonun bilan kafolatlangan huquq va erkinliklariga ortiqcha aralashuvga yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasiga muvofiq, ozodlikni cheklash asosiy jazo turlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur jazoning mazmuni Jinoyat kodeksining 48^1-moddasida ochib berilgan. Amaldagi tartibga ko'ra, ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan uy-joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoxud ishlash yoki o'qish vaqtidan, shuningdek ish yoki o'qish joyigacha borish va uy-joyiga qaytib kelish uchun zarur bo'lgan vaqtdan tashqari qolgan vaqtda uy-joyidan chiqishni cheklashdan iborat. Mazkur jazo bir oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi hamda sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida o'taladi.

Shu nuqtayi nazardan, ozodlikni cheklash jazosining o'ziga xos xususiyati shundaki, u shaxsni jamiyatdan butunlay ajratib qo'yishni emas, balki uning muayyan xatti-harakatlarini huquqiy jihatdan cheklashni nazarda tutadi. Bunday cheklovning darajasi sud tomonidan individual tarzda belgilanadi. Xususan, sud mahkumga muayyan joylarga bormaslik, ommaviy va boshqa tadbirlarda ishtirok etmaslik, muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik, muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni saqlamaslik, transport vositasini boshqarmaslik, nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash, ish yoki o'qish joyini o'zgartirmaslik, tegishli ma'muriy hududdan tashqariga chiqmaslik, muayyan shaxslar bilan aloqa qilmaslik, aloqa vositalari, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik va alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik kabi qo'shimcha taqiq va cheklovlarni yuklashi mumkin.

Oliy sud Plenumining tushuntirishlariga ko'ra, sud hukmining qaror qismida ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning mazmuni, xususan, uy-joyni tark etishni butunlay taqiqlash yoki muayyan vaqtlarda uy-joydan chiqishni cheklashning aniq mazmuni ko'rsatilishi lozim. Bu holat ozodlikni cheklash jazosini ijro etishda sud qarorining individual va aniq bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Demak, probatsiya xizmatining masofaviy nazorat faoliyati sud tomonidan belgilangan cheklovlarni amalga oshirish vositasi sifatida qaralishi lozim. Boshqacha aytganda, masofaviy nazoratning o'zi mahkumga yangi yoki sud tomonidan nazarda tutilmagan cheklovni belgilash vositasiga aylantirilmasligi kerak. Uning vazifasi mavjud sud qarorida belgilangan cheklovga rioya etilishini tekshirish, buzilish holatlarini aniqlash va tegishli huquqiy choralarni ko'rishdan iborat bo'lishi lozim.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va jinoyat qonunchiligi qoidalarini tizimli tahlil qilish natijasida ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan

shaxslarning uy-joydan chiqmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatiga nisbatan bir qator fundamental huquqiy talablarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, **uy-joydan chiqmaslik cheklovi faqat sud qarori asosida qo‘llanilishi lozim**. Chunki shaxsning uy-joyidan erkin chiqish imkoniyatini cheklash uning harakatlanish erkinligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli probatsiya xizmati yoki boshqa ijro etuvchi organ mustaqil ravishda shaxsga sud hukmida nazarda tutilmagan yangi taqiqni yuklay olmaydi. Nazorat qiluvchi organning vakolati sud tomonidan belgilangan jazo va uning shartlarini ijro etish doirasida amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchidan, **cheklov qonuniylik prinsipiga asoslanishi shart**. Ya’ni mahkumning harakatlanish erkinligini cheklash uchun nafaqat sud qarori, balki ushbu qarorning qonunda nazarda tutilgan moddiy-huquqiy asoslarga ega bo‘lishi talab etiladi. Mazkur talab davlat organlari faoliyatining qonuniyligi va inson huquqlarining ustuvorligi prinsiplaridan kelib chiqadi.

Uchinchidan, **cheklov individual va mutanosib bo‘lishi lozim**. Ozodlikni cheklash jazosini tayinlashda sud sodir etilgan jinoyatning xususiyati, mahkumning shaxsi, uning xulq-atvori va jazo ijrosidan bo‘yin tovlashining oldini olish zaruratini hisobga oladi. Shuning uchun masofaviy nazorat ham barcha mahkumlarga bir xil va avtomatik tarzda qo‘llanadigan mexanizm sifatida emas, balki sud tomonidan belgilangan individual cheklovlarning ijrosini ta’minlash vositasi sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, **masofaviy nazorat shaxsning huquq va erkinliklariga minimal darajada aralashish prinsipi asosida amalga oshirilishi kerak**. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nazorat samaradorligini oshirishi mumkin. Biroq texnik vositalarning mavjudligi davlat organiga shaxsning shaxsiy hayotiga cheklanmagan darajada aralashish huquqini bermaydi. Masofaviy monitoring faqat jazoning ijrosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan maqsadlarda va qonunchilikda nazarda tutilgan doirada amalga oshirilishi lozim.

Beshinchidan, **masofaviy nazorat uy-joy daxlsizligini avtomatik ravishda bekor qilmaydi**. Mahkumning uy-joydan chiqmaslik majburiyati uning yashash joyi davlat organlari uchun erkin kirish mumkin bo‘lgan hududga aylanadi, degan ma’noni anglatmaydi. Konstitutsiyaning 31-moddasida uy-joy daxlsizligi alohida kafolatlanganligi sababli, probatsiya xodimining uy-joyga kirishi ham tegishli qonuniy asos va belgilangan protsessual tartibga ega bo‘lishi kerak.

Bu jihatdan masofaviy nazoratning afzalligi shundaki, u nazoratni amalga oshirish uchun mahkumning uy-joyiga bevosita kirish zaruratini kamaytirishi mumkin. Masalan, elektron monitoring vositalari, geolokatsiya, elektron qaydlar va boshqa texnologik vositalardan qonuniy asosda foydalanish orqali mahkumning belgilangan hududda yoki belgilangan vaqtda bo‘lishi tekshirilishi mumkin. Natijada nazorat samaradorligi oshishi bilan birga uy-joy daxlsizligiga aralashuv ehtimoli ham kamayadi.

Oltinchidan, **masofaviy nazorat natijasida olingan ma'lumotlardan foydalanish ham qonuniylik, maqsadga muvofiqlik va maxfiylik talablariga javob berishi lozim**. Nazorat vositasi orqali mahkumning joylashuvi yoki boshqa ma'lumotlari qayd etilgan taqdirda, ushbu ma'lumotlardan faqat qonunda nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanish, ularning saqlanishi va ulardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektlar doirasini aniq belgilash zarur. Aks holda, jazo ijrosini nazorat qilish maqsadida yaratilgan mexanizm shaxsning xususiy hayotiga asossiz aralashish vositasiga aylanishi mumkin.

Yettinchidan, **masofaviy nazorat texnik nosozlik yoki aloqa uzilishi holatini avtomatik ravishda mahkumning jazo shartlarini buzishi sifatida baholamasligi kerak**. Elektron qurilmaning ishlamay qolishi, aloqa tarmog'idagi uzilish, energiya ta'minotidagi muammo yoki boshqa texnik sabablar mahkumning aybli xatti-harakatidan farqlanishi zarur. Shu sababli bunday holatlarni tekshirish, mahkumning tushuntirishlarini olish va boshqa dalillar bilan taqqoslash mexanizmi nazarda tutilishi lozim.

Sakkizinchidan, **mahkumning huquqiy maqomi bilan birga u bilan birga yashayotgan boshqa shaxslarning huquqlari ham hisobga olinishi kerak**. Uy-joydan chiqmaslik cheklovi, odatda, jazo tayinlangan shaxsga nisbatan qo'llanadi. Shu sababli bir uyda yashayotgan boshqa oila a'zolari, voyaga yetmaganlar yoki boshqa shaxslarning huquqlari mazkur cheklov tufayli asossiz ravishda cheklanmasligi lozim. Ayniqsa, masofaviy nazorat vositasi butun xonadonning harakatlarini kuzatishga olib keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Shuningdek, ozodlikni cheklash jazosining maqsadi faqat mahkumni jazolash bilan cheklanmasligini ham ta'kidlash lozim. Mazkur jazo mahkumning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, uni ijtimoiy hayotdan butunlay ajratmagan holda tuzalishiga ko'maklashish va jamiyat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Shu bois masofaviy nazorat jazoni ijro etishning repressiv vositasi sifatida emas, balki mahkumning xulq-atvorini nazorat qilish, uning jazo shartlariga rioya etishini ta'minlash va qayta ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi huquqiy mexanizm sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, probatsiya xizmatining masofaviy nazorat faoliyatida **"nazorat qilish — aniqlash — baholash — individual ta'sir chorasi ko'rish"** ketma-ketligi ta'minlanishi lozim. Avvalo texnik vosita orqali ma'lumot olinadi, keyin aniqlangan holatning haqiqiyligi tekshiriladi, shundan so'ng uning sud hukmida belgilangan cheklovni buzish-buzmasligi huquqiy jihatdan baholanadi. Faqat shundan keyingina qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo'llanishi mumkin. Bu tartib texnologik signalni bevosita huquqbuzarlik fakti sifatida qabul qilishning oldini oladi.

Shu o'rinda sud hukmining aniqligi ham alohida ahamiyatga ega. Agar hukmda mahkumning qaysi vaqtlarda uy-joyda bo'lishi, qaysi holatlarda uy-joyni tark etishi mumkinligi yoki ish va o'qish bilan bog'liq harakatlanish chegaralari noaniq

ko‘rsatilgan bo‘lsa, keyinchalik masofaviy nazorat jarayonida turli xil talqinlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli sud tomonidan ozodlikni cheklash tayinlanayotganda cheklovlarning mazmuni, davomiyligi va qo‘llanish chegaralarining imkon qadar aniq ifodalanishi huquqiy aniqlik prinsipining muhim talabi hisoblanadi. Oliy sud Plenumi ham sud hukmining qaror qismida mazkur cheklovlarning mazmuni aniq ko‘rsatilishi lozimligini ta’kidlagan.

Bundan tashqari, ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan shaxsning sud tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etishi bilan uning boshqa konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishi o‘rtasida muvozanat ta’minlanishi zarur. Masalan, mahkumning uy-joydan chiqishi cheklangan bo‘lsa-da, bu uning insoniy qadr-qimmati, shaxsiy hayoti, tibbiy yordam olish, mehnat qilish yoki o‘qish kabi qonun bilan kafolatlangan huquqlarini butunlay yo‘qqa chiqarishi mumkinligini anglatmaydi. Aksincha, sud hukmida nazarda tutilgan cheklovlar doirasida mazkur huquqlardan foydalanish imkoniyati ta’minlanishi jazoning insonparvarlik va individuallashtirish prinsiplariga mos keladi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy normalar va jinoyat qonunchiligi qoidalarining o‘zaro tahlili ozodlikni cheklash jazosini masofaviy nazorat qilishda quyidagi asosiy huquqiy qoidalarni shakllantirish imkonini beradi:

— ozodlikni cheklash doirasida uy-joydan chiqmaslik cheklovi faqat sud tomonidan va qonunda nazarda tutilgan asoslar asosida belgilanishi kerak;

— probatsiya xizmati sud hukmida belgilanmagan yangi cheklovlarni mustaqil ravishda joriy eta olmaydi;

— masofaviy nazorat sud tomonidan belgilangan jazo shartlarining ijrosini ta’minlash vositasi bo‘lib, mustaqil jazo yoki qo‘shimcha cheklov sifatida talqin qilinmasligi lozim;

— nazorat jarayonida uy-joy daxlsizligi kafolati saqlanib qoladi va uy-joyga kirish faqat qonunda nazarda tutilgan asos va tartibda amalga oshirilishi mumkin;

— elektron monitoring va boshqa texnik vositalardan foydalanish shaxsning xususiy hayotiga ortiqcha aralashuvga olib kelmasligi kerak;

— masofaviy nazorat natijasida olingan ma’lumotlardan foydalanishning maqsadi, muddati, tartibi va vakolatli subyektlari aniq belgilanishi lozim;

— texnik nosozlik yoki aloqa uzilishi mahkumning aybli ravishda jazo shartlarini buzishidan farqlanishi va har bir holat individual tekshirilishi kerak;

— nazorat bir uyda yashovchi boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini asossiz ravishda cheklamasligi lozim;

— sud hukmida ozodlikni cheklashning mazmuni, vaqti, hududi va mahkumning majburiyatlari imkon qadar aniq ko‘rsatilishi zarur;

— masofaviy nazoratning qo‘llanishi qonuniylik, zaruriyat, mutanosiblik, individual yondashuv va inson huquqlariga hurmat prinsiplariga asoslanishi lozim.

Umuman olganda, ozodlikni cheklash jazosini ijro etishda uy-joydan chiqmaslik cheklovini masofaviy nazorat qilish zamonaviy axborot

texnologiyalaridan foydalanish orqali jazoni ijro etish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi istiqbolli mexanizm hisoblanadi. Biroq uning samaradorligi faqat texnik vositalarning rivojlanganligi bilan emas, balki ushbu vositalardan foydalanishning aniq huquqiy chegaralari mavjudligi bilan belgilanadi. Shuning uchun masofaviy nazorat tizimi bir tomondan mahkumning sud tomonidan belgilangan jazo shartlariga rioya etishini samarali ta'minlashi, ikkinchi tomondan esa uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini asossiz ravishda cheklashga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Binobarin, probatsiya xizmatining masofaviy nazorat faoliyatida asosiy mezon "nazoratning maksimal darajasi" emas, balki **"qonuniy, zarur va mutanosib nazorat"** bo‘lishi lozim. Aynan shunday yondashuv Konstitutsiyada mustahkamlangan uy-joy daxlsizligi va erkin harakatlanish huquqi kafolatlari bilan ozodlikni cheklash jazosining ijrosini ta'minlash zarurati o‘rtasida oqilona muvozanatni shakllantiradi. Natijada masofaviy nazorat jazo ijrosining samaradorligini oshiruvchi, shu bilan birga inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy probatsiya mexanizmiga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 81-moddasi (jazo tizimi)da ozodlikni cheklash jazosi o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy jazo turi sifatida belgilangan[10].

Ushbu Kodeksning 841 -moddasi (ozodlikni cheklash)ga muvofiq, ozodlikni cheklash voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida bir oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi[11].

‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ozodlikni cheklash jazosiga oid normalarini tahlil qilish asosida, ularni probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joydan chiqmasligini nazorat qilish faoliyatida qo‘llash bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– uy-joydan chiqmasligi cheklovi ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarga jazoning asosiy sharti sifatida sud tomonidan qo‘llaniladi;

– uy-joydan chiqmasligi cheklovi ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsning uy-joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoxud ishlash yoki o‘qish vaqtidan, shuningdek ish yoki o‘qish joyigacha borishi va uyjoyiga qaytib kelishi uchun zarur bo‘lgan vaqtdan tashqari qolgan vaqtda uy-joyidan chiqishini cheklashdan iborat bo‘ladi;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarga ushbu jazo muddati, shu jumladan, uy-joyidan chiqmasligi cheklovi voyaga yetgan shaxslarga bir oydan besh yilgacha muddatga, voyaga yetmagan shaxslarga bir oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarga o‘rnatilgan uy-joydan chiqmasligi cheklovi sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida o‘taladi;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslar zimmasiga ushbu jazoning zaruriy sharti sifatida qo‘llaniladigan uy-joydan chiqmasligi cheklovidan farqli ravishda, ushbu jazoning zaruriy sharti bo‘lmagan, biroq ushbu jazo bilan birga qo‘llaniladigan quyidagi cheklovlar (taqiq, cheklov, majburiyat) mahkumga sud tomonidan tayinlanishi mumkin: muayyan joylarga bormaslik; ommaviy va boshqa tadbirlar o‘tkazishda ishtirok etmaslik; muayyan faoliyat bilan shug‘ullanmaslik; muayyan buyumlarga ega bo‘lmaslik yoki ularni o‘zida saqlamaslik; transport vositasini boshqarmaslik; mahkumlarni nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini, ish va (yoki) o‘qish joyini o‘zgartirmaslik, tegishli ma’muriy hududdan tashqariga chiqmaslik; muayyan shaxslar bilan aloqa o‘rnatmaslik; aloqa vositalaridan, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik; alkogolli ichimliklar iste’mol qilmaslik; o‘zi yetkazgan moddiy va ma’naviy zararning o‘rnini qoplash; ishga yoki o‘qishga joylashish; mahkumning tuzalishiga ko‘maklashuvchi boshqa majburiyatlar;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxs uy-joydan chiqmaslik chekloviga rioya qilishdan qasddan bo‘yin tovlasa, sud ozodlikni cheklash jazosining o‘talmay qolgan muddatini boshqa turdagi jazo bilan almashtirishi mumkin;

– ozodlikni cheklash jazosi, shu jumladan ushbu jazo doirasida uy-joydan chiqmasligi cheklovi harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 468-moddasi (ayblov hukmining qaror qismi)ga muvofiq, ayblov hukmining qaror qismida ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoga hukm etilgan shaxs uchun belgilanadigan taqiqlar (cheklashlar) ko‘rsatiladi[12].

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi 14-moddasi (jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar) ikkinchi qismiga muvofiq, ozodlikni cheklash jazosi ichki ishlar organlari tomonidan yoki sud belgilaydigan boshqa organ tomonidan ijro etiladi[13].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining ozodlikni cheklash jazosini ijro etish tartibi va shartlariga oid normalarini tahlil qilish asosida, ularni probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uyjoydan chiqmasligini nazorat qilish faoliyatida qo‘llash bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyidan chiqmasligi chekloviga rioya etishini nazorat qilish mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlari probatsiya bo‘linmasi tomonidan yoki sud belgilaydigan boshqa organ tomonidan amalga oshiriladi;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning jazoni o‘tash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar berish uchun chaqiruv

bo‘yicha probatsiya bo‘linmasiga kelishi (shu maqsadda uy-joyidan chiqishi) uy-joyidan chiqmasligi cheklovini buzish hisoblanmaydi;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyidan chiqmasligi chekloviga rioya etishini nazorat qilish uchun ularga nisbatan elektron kuzatuv vositalari qo‘llanilishi mumkin;

– ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxsga nisbatan uy-joyidan chiqmasligi chekloviga rioya etishini nazorat qilish uchun elektron kuzatuv vositalari qo‘llanilgan hollarda, mahkum ushbu texnik nazorat vositalaridan foydalanish qoidalarini buzsa, ozodlikni cheklash jazosini o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlovchi deb e’tirof etiladi hamda unga nisbatan probatsiya bo‘linmasi tomonidan sudga jazoning o‘talmagan muddatini jazoning boshqa turiga almashtirish haqida taqdimnoma kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son Qonunining 16-moddasiga (ichki ishlar organlarining majburiyatlari) ko‘ra, ichki ishlar organlari zimmasiga ozodlikni cheklash jazosini qonunga muvofiq ijro etish majburiyati yuklatilgan[15].

O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 2019-yil 14-yanvardagi O‘RQ-515-son Qonunining 6, 14-moddalariga muvofiq:

– ozodlikni cheklash jazosini o‘tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsning xavfsizligi unga nisbatan himoya qilinuvchi shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash, himoya qilinuvchi shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanilishini cheklash xavfsizlik choralarini qo‘llash orqali ta’minlanadi;

– ozodlikni cheklash jazosini o‘tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxslarning xavfsizligi choralarini ta’minlash maqsadida quyidagilar ham qo‘llanilishi mumkin: 1) himoya qilinuvchi shaxsni va zo‘ravonlik tahdidini keltirib chiqaruvchi shaxsni ular ushlab turilganda, qamoqqa olinganda va ularga nisbatan jinoiy jazolar tayinlanganda boshqa-boshqa qamoqda saqlash va jazoni o‘tash joylariga yuborish; 2) himoya qilinuvchi shaxsni yoki zo‘ravonlik tahdidini keltirib chiqaruvchi shaxsni bir qamoqda saqlash joyidan va jazoni o‘tash joyidan boshqasiga o‘tkazish; 3) himoya qilinuvchi shaxsni va zo‘ravonlik tahdidini keltirib chiqaruvchi shaxsni alohida-alohida saqlash; 4) himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan ehtiyot chorasini o‘zgartirish[16].

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Probatsiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-938-son Qonunida ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish, jumladan, ularning sud tomonidan belgilangan uy-joydan chiqmaslik chekloviga rioya etishini masofadan turib kuzatishning huquqiy mexanizmlari belgilangan [17].

Qonunga ko‘ra, elektron kuzatuv vositasi — elektron braslet ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxsni masofadan turib nazorat qilish

uchun qo‘l yoki oyoqqa taqiladigan elektron qurilma hisoblanadi. Probatsiya sohasidagi vakolatli organ sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya xizmati ozodlikni cheklash jazosining ijro etilishini ta’minlaydi hamda sud tomonidan belgilangan taqiq va majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Probatsiya xizmati nazoratdagi shaxslarning yashash joyini qonunda belgilangan tartibda tekshirish, sud tomonidan belgilangan cheklov va majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qilish, tegishli ma’lumotlarni probatsiyaga oid axborot tizimiga kiritish hamda zarur hollarda sudga tegishli taqdimnomalar kiritish huquqiga ega. Shuningdek, nazorat maqsadida shaxsning uyiga yoki kvartirasiga kirilgan barcha holatlar to‘g‘risida yigirma to‘rt soat ichida prokurorni yozma yoki elektron shaklda xabardor qilish majburiyati yuklatilgan.

Qonunda elektron brasletni qo‘llash mumkin bo‘lmagan ayrim toifalar ham belgilangan. Jumladan, u o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga hamda tibbiy ko‘rsatmalarga ko‘ra ushbu vositani taqish tavsiya etilmaydigan boshqa shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Elektron braslet probatsiya nazoratidan chiqarish vaqtida yechiladi, shuningdek shaxs jazoni o‘tash tartibiga rioya etib, jamoat tartibini buzmagan taqdirda, u qo‘llanilgan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach ham olib tashlanishi mumkin.

Sud tomonidan belgilangan cheklov va majburiyatlarga rioya etilishi probatsiya xizmati tomonidan tekshiruvlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Bunda zaruratga ko‘ra ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, vakolatli organlar mutaxassislari va jamoat tarbiyachilari ham jalb qilinishi mumkin. Shaxsning yashash joyi, ish yoki o‘qish joyini ruxsatsiz o‘zgartirmasligi hamda belgilangan hududdan chiqmasligi ustidan nazorat tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda olib boriladi.

Probatsiya nazoratidagi shaxs tomonidan sud belgilagan taqiqlar va majburiyatlarga rioya qilinmagan, jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlangan yoki intizomiy choralardan keyin takroran qoidabuzarlikka yo‘l qo‘yilgan hollarda unga nisbatan huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin. Jumladan, qo‘shimcha taqiq va majburiyatlar belgilash yoki ozodlikni cheklash tarzidagi jazoning o‘talmagan qismini boshqa turdagi jazo bilan almashtirish masalasini hal qilish uchun sudga taqdimnoma kiritiladi [18].

Shunday qilib, “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun normalari ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning, xususan, uy-joydan chiqmaslik bo‘yicha belgilangan cheklovlarga rioya etishini nazorat qilishning huquqiy asoslarini yaratadi. Elektron kuzatuv vositasidan foydalanish probatsiya xizmatiga nazoratni masofaviy va tizimli tarzda amalga oshirish imkonini bersa, tekshiruvlar, huquqiy ta’sir choralari hamda tegishli davlat organlari bilan hamkorlik ushbu nazorat mexanizmining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi [19].

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda malakatimizda probatsiya xizmatining ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarning uy-joyini tark etmasligini masofaviy nazorat qilish faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan, biroq soha raqamli texnologiyalarni, sun’iy intellektni joriy qilish, shuningdek, sohada yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelgan. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti davomida bir-qator huquqiy takliflar ishlab chiqilib, norma ijodkorligi faoliyatida foydalanish uchun taqdim etib boriladi.

Faoydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” 2021-yil 20-apreldagi O‘RQ-682-son Qonuni //https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi //https://lex.uz.// Qonunchilik

4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi //https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi //https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son Qonuni // https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida” 2019-yil 14-yanvardagi O‘RQ-515-son Qonuni //https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida” 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-938-son Qonuni //https://lex.uz.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 316.6-057.875

Begjanova Aydana Nuratdinovna,
QDU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

POLIGLOT TALABALARDA MADANIYATLARARO KOMPETENTLIK RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi empatiya, kommunikativ tolerantlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, refleksiv tafakkur, muloqot motivatsiyasi va yangi tajribaga ochiqlik kabi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniy stereotiplar, ijtimoiy masofa va muloqotdagi xavotirning kompetentlik shakllanishiga salbiy ta'siri yoritilib, oliy ta'lim muhitida ushbu xususiyatlarni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: poliglot talaba, madaniyatlararo kompetentlik, madaniy intellekt, empatiya, kommunikativ tolerantlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, refleksiv tafakkur, muloqot motivatsiyasi, madaniy stereotip, muloqotdagi xavotir.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВПОЛИГЛОТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются социальнопсихологические факторы, влияющие на развитие межкультурной компетентности у студентов-полиглотов, включая эмпатию, коммуникативную толерантность, социальную адаптивность, рефлексивное мышление, мотивацию к общению и открытость новому опыту. Также раскрывается негативное влияние культурных стереотипов, социальной дистанции и тревожности в общении на формирование данной компетентности, а также обосновываются практические рекомендации по развитию указанных качеств в условиях высшего образования.

Ключевые слова: студент-полиглот, межкультурная компетентность, культурный интеллект, эмпатия, коммуникативная толерантность, социальная адаптивность, рефлексивное мышление, мотивация к общению, культурный стереотип, тревожность в общении.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMPETENCE AMONG POLYGLOT STUDENTS

Abstract. This article analyzes the socio-psychological factors that influence the development of intercultural competence among polyglot students, including

empathy, communicative tolerance, social adaptability, reflective thinking, communication motivation, and openness to new experiences. It also examines the negative effects of cultural stereotypes, social distance, and communication anxiety on the formation of this competence and substantiates practical recommendations for developing these qualities within the higher education environment.

Keywords: polyglot student, intercultural competence, cultural intelligence, empathy, communicative tolerance, social adaptability, reflective thinking, communication motivation, cultural stereotype, communication anxiety.

Bugungi globallashuv sharoitida turli tillarda erkin muloqot qila oladigan talabalarning madaniyatlararo muhitga moslashuvi, o‘zga xalqlarning qadriyatlarini anglash va ular bilan samarali hamkorlik o‘rnatish qobiliyati oliy ta’limning muhim ijtimoiy-psixologik vazifalaridan biriga aylanmoqda. Poliglot talaba til birliklarini bilish bilan cheklanmay, muayyan madaniyatga xos xulq me’yorlari, muloqot usullari, hissiy ifoda shakllari va ijtimoiy munosabatlarni ham to‘g‘ri talqin eta olishi lozim. Bunday kompetentlikning rivojlanishi shaxsning empatiyasi, bag‘rikengligi, kommunikativ moslashuvchanligi, ijtimoiy idroki, refleksiv tafakkuri va yangicha tajribaga ochiqligi bilan bevosita bog‘liqdir. Talabalar jamoasidagi psixologik muhit, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabat, o‘qituvchilarning qo‘llab-quvvatlashi hamda ta’lim muassasasida madaniy xilma-xillikka nisbatan shakllangan munosabat ushbu jarayonning yo‘nalishi va mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatlararo muloqot davomida uchraydigan stereotiplar, noto‘g‘ri talqinlar, ijtimoiy masofa va begonalik hissi poliglot talabaning kommunikativ faolligini susaytirishi mumkinligi sababli ularning psixologik ildizlarini ilmiy o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ko‘p tillilik tajribasi talabaning turli nuqtayi nazarlarni qabul qilish, vaziyatga mos xulq strategiyasini tanlash va madaniy farqlarni ziddiyat manbai emas, balki hamkorlik imkoniyati sifatida baholash salohiyatini kengaytiradi. Madaniyatlararo kompetentlikning shakllanishida shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy faollik, xorijiy madaniyat vakillari bilan muloqot tajribasi, o‘z madaniy mansubligini anglash va psixologik moslashuv mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi alohida o‘rin tutadi. Mazkur muammoni ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish poliglot talabalarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki murakkab madaniy vaziyatlarda o‘zini boshqarish, suhbatdoshning pozitsiyasini tushunish va konstruktiv munosabat qurish imkoniyatlarini ham aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta’lim muhitida madaniy jihatdan sezgir, ijtimoiy mas’uliyatli va turli jamiyat vakillari bilan teng huquqli muloqot olib bora oladigan shaxsni tarbiyalashning psixologik asoslarini takomillashtirishga imkon beradi.

Kristofer Earley va Sun Ang [1] madaniy intellekt tushunchasini turli madaniy sharoitlarda samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi ko‘p tarkibli psixologik qobiliyat sifatida ilmiy muomalaga kiritgan. Ularning konsepsiyasida insonning

madaniyatlar haqidagi bilimlari, o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishi, begona muhitda faol bo‘lish istagi va vaziyatga mos xulq ko‘rsatishi o‘zaro bog‘liq jihatlar sifatida talqin etiladi. Soon Ang, Linn Van Dyne va Kristin Koh [2; 3] tomonidan olib borilgan izlanishlarda mazkur tarkibiy xususiyatlarni baholashga xizmat qiluvchi madaniy intellekt shkalasi ishlab chiqilib, uning psixologik o‘lchov imkoniyatlari asoslangan. Ushbu ilmiy yondashuv poliglot talabalarning til bilish darajasi bilan madaniy vaziyatlarni to‘g‘ri anglash qobiliyati doimo bir xil rivojlanmasligini tushuntirishga yordam beradi. Metakognitiv imkoniyati shakllangan talaba suhbat jarayonida o‘zining madaniy taxminlarini qayta ko‘rib chiqadi, muloqotdagi noaniqliklarni sezadi va fikrlash usulini yangi sharoitga moslashtiradi. Kognitiv salohiyat esa turli xalqlarning qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari, diniy qarashlari, oilaviy munosabatlari va kundalik muomala qoidalarini anglash orqali namoyon bo‘ladi. Motivatsion hamda xulqiy imkoniyatlarning uyg‘unligi poliglot talabaga notanish madaniyat vakillari bilan muloqot boshlash, hissiy zo‘riqishni boshqarish va nutq uslubini suhbatdoshning madaniy xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi. Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari ko‘p tillilikni faqat lingvistik ustunlik emas, balki shaxsning idroki, motivatsiyasi va ijtimoiy xatti-harakatlari bilan bog‘langan murakkab psixologik resurs sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu asosda poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlikning rivojlanishi til tajribasi, refleksiv nazorat va turli madaniy vaziyatlarda orttirilgan amaliy ko‘nikmalarning birikishi orqali izohlanadi.

Darla Deardorff [4] madaniyatlararo kompetentlikni shaxsning zarur munosabatlari, bilimlari va amaliy ko‘nikmalari asosida shakllanib, ichki psixologik o‘zgarishlar hamda tashqi kommunikativ xulqda namoyon bo‘ladigan uzluksiz jarayon sifatida tavsiflagan. Uning modelida hurmat, ochiqlik, qiziquvchanlik va noaniqlikka bardoshlilik boshqa madaniyat vakillari bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishning boshlang‘ich psixologik shartlari hisoblanadi. Deardorffning fikricha, madaniyatlar haqidagi bilimning o‘zi yetarli bo‘lmay, shaxs tinglash, kuzatish, talqin qilish, tahlil etish va o‘z xatti-harakatlarini vaziyatga muvofiq baholash ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak. Maykl Bayram [5] xorijiy tillarni o‘qitish doirasida madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik modelini ishlab chiqib, unda munosabat, bilim, hodisalarni izohlash, yangi madaniy tajribani o‘rganish va tanqidiy madaniy anglash jihatlarini bir-biriga bog‘lagan. Bayramning tadqiqotlarida til o‘rganuvchi shaxs boshqa madaniyatni shunchaki kuzatuvchi emas, balki turli qarashlar o‘rtasida ma’no vositachiligini amalga oshiruvchi faol muloqot subyekti sifatida talqin qilinadi. Mazkur model poliglot talabaning turli tillarda so‘zlashi bilan birga, suhbatdoshning qadriyatlarini kamsitmasdan tushunishi, madaniy hodisalarni qiyosiy izohlashi va o‘z qarashlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishini ham talab qiladi. Deardorff va Bayram qarashlari madaniyatlararo kompetentlikni tayyor bilimlar yig‘indisi emas, balki muloqot tajribasi davomida muntazam rivojlanadigan shaxsiy va ijtimoiy sifat sifatida

tushunishga imkon beradi. Ularning tadqiqotlari ta'lim jarayonida nazariy ma'lumotlardan tashqari refleksiv topshiriqlar, madaniy vaziyatlar tahlili, bahs-munozara va turli madaniyat vakillari bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etish zarurligini asoslaydi. Bu qarashlar poliglot talabaning o‘z madaniy mavqeyini anglagan holda boshqa madaniy pozitsiyalarni ham xolis qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim metodologik tayanch yaratadi.

Jon Berri [6] tomonidan ishlab chiqilgan akkulturatsiya nazariyasida shaxsning o‘z madaniy mansubligini saqlashi va boshqa madaniy guruhlar bilan munosabat o‘rnatishga intilishi yangi ijtimoiy muhitga moslashuvning muhim mezonlari sifatida ko‘rsatilgan. Uning modelida integratsiya, assimilyatsiya, ajralib qolish va madaniy chetlashish kabi yo‘nalishlar shaxsning o‘z hamda begona madaniyatga bo‘lgan munosabatiga qarab shakllanishi tushuntiriladi. Poliglot talaba uchun o‘z milliy qadriyatlarini saqlagan holda boshqa madaniy tajribalarni qabul qilish imkonini beruvchi integrativ yo‘nalish psixologik jihatdan maqbul holat sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Kollin Uord va Antoni Kennedi [7] olib borgan tadqiqotlarda madaniy moslashuv yangi muhitdagi kundalik vazifalarni bajarish, ijtimoiy qoidalarni tushunish, munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va odatiy bo‘lmagan vaziyatlarda munosib xulq ko‘rsatish qobiliyati bilan bog‘langan. Olimlar tomonidan ishlab chiqilgan sotsiomadaniy moslashuv yondashuvi shaxsning yangi madaniyatda o‘zini hissiy jihatdan qulay his etishi bilan uning amaliy muomala ko‘nikmalari o‘rtasida farq mavjudligini ko‘rsatadi. Jin Finni [8] etnik identiklikni shaxsning o‘z madaniy guruhiga mansubligini izlash, anglash va qadrlash jarayoni orqali rivojlanadigan psixologik tuzilma sifatida o‘rgangan. Uning izlanishlari barqaror madaniy identiklik boshqa guruhlarga nisbatan yopiq munosabatni anglatmasligini, aksincha, shaxsga madaniyatlararo aloqalarda o‘zini ishonchliroq namoyon etish imkonini berishini tushuntirishga xizmat qiladi. Berri, Uord va Finni qarashlarining o‘zaro uyg‘unligi poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlik rivojlanishiga moslashuv strategiyasi, guruhiy mansublik, ijtimoiy qo‘llabquvvatlash va yangi muhitdagi amaliy tajriba birgalikda ta'sir etishini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar ko‘p tilli talabalar bilan ishlashda ularning faqat xorijiy madaniyatga moslashishini emas, balki o‘z madaniy identikligini sog‘lom tarzda saqlashi va turli guruhlar bilan teng munosabat o‘rnatishini ham e'tiborga olish zarurligini asoslaydi.

Milton Bennett [9] madaniyatlararo sezgirlikning rivojlanish modelida insonning madaniy farqlarni inkor etish yoki ulardan himoyalanish holatidan ularni qabul qilish, vaziyatga moslashish va turli madaniy qarashlarni shaxsiy tajribasiga uyg‘unlashtirish bosqichlariga o‘tishini tavsiflagan. Mazkur model shaxsning madaniy tafovutlarga munosabati oddiy bilim orttirish bilan emas, balki idrok va dunyoqarashning asta-sekin o‘zgarishi orqali rivojlanishini ko‘rsatadi. Poliglot talabalarning bir necha tilni egallashi turli madaniy ma'nolarni sezish imkoniyatini kengaytirsa-da, stereotiplar va etnosentrik qarashlar maxsus refleksiv tajribasiz

saqlanib qolishi mumkin. Uilyam Gudykunst [10] madaniyatlararo muloqotdagi xavotir va noaniqlikni boshqarish nazariyasida notanish guruh vakili bilan uchrashuv paytida yuzaga keladigan hissiy zo‘riqish hamda suhbatdosh xulqini oldindan tushunolmaslik samarali aloqa o‘rnatishga to‘sqinlik qilishini ta’kidlagan. Uning nazariyasida ongli kuzatuvchanlik, shaxsiy va guruhiy stereotiplarni nazorat qilish, suhbatdosh haqida ishonchli axborot olish hamda xavotirni maqbul darajada boshqarish muvaffaqiyatli muloqotning asosiy psixologik shartlari sifatida izohlanadi. Rut Fielding [11] ko‘p tilli identiklikka doir tadqiqotlarida shaxsning turli tillardan foydalanish tajribasi uning madaniyatlararo pozitsiyasi, o‘zini namoyon etish usuli va boshqa guruhlarga munosabati bilan uzviy bog‘lanishini nazariy jihatdan asoslagan. Aralash madaniy tarkibga ega talabalar guruhlarida olib borilgan izlanishlar oldingi madaniyatlararo tajriba, shaxsiy munosabatlar va bevosita hamkorlikka asoslangan topshiriqlar kompetentlik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Talabalar mobilligi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda empatiya, murakkab vaziyatlarga turli nuqtayi nazardan yondashish, metakognitiv nazorat va madaniy ziddiyatlardan konstruktiv tajriba chiqarish madaniyatlararo rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatlar sifatida qayd etilgan. Ushbu ilmiy qarashlar poliglot talabalarning madaniyatlararo kompetentligini rivojlantirishda til amaliyotini empatiya, ijtimoiy hamkorlik, hissiy o‘zini boshqarish, stereotiplarni qayta anglash va refleksiv tahlil bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ochib beradi. Tadqiqot poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlik rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash maqsadida tashkil etildi.

Tadqiqotda ikki va undan ortiq tilni biladigan jami o‘ttiz besh nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlarning madaniyatlararo empatiyasi, kommunikativ tolerantligi, ijtimoiy moslashuvchanligi, madaniyatlararo muloqot motivatsiyasi, refleksiv tafakkuri, yangi tajribaga ochiqligi, madaniy stereotiplarga moyilligi va muloqotdagi xavotiri besh darajali baholash shkalasi yordamida o‘rganildi. Olingan javoblar asosida o‘rtacha arifmetik qiymat va standart og‘ish ko‘rsatkichlari hisoblandi. Tanlanma hajmi hamda ma’lumotlarning tartibli shkala asosida olingani hisobga olinib, ijtimoiy-psixologik omillar bilan madaniyatlararo kompetentlik o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashda Spirmenning ranglar korrelyatsiyasi mezonidan foydalanildi.

1-jadval

Poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlik va ijtimoiy-psixologik omillar o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlar (Spirmen mezoni, N=35)

Ijtimoiy-psixologik omillar	M	SD	rs	Ahamiyatlilik darajasi	Bog‘lanish tavsifi

Madaniyatlararo empatiya	4,18	0,63	0,62	p<0,001	Kuchli ijobiy
Madaniyatlararo muloqot motivatsiyasi	4,11	0,66	0,60	p<0,001	Kuchli ijobiy
Kommunikativ tolerantlik	4,06	0,68	0,58	p<0,001	O‘rtadan yuqori ijobiy
Ijtimoiy moslashuvchanlik	3,94	0,71	0,55	p<0,001	O‘rtadan yuqori ijobiy
Yangi tajribaga ochiqlik	4,02	0,69	0,52	p<0,01	O‘rtadan yuqori ijobiy
Refleksiv tafakkur	3,88	0,74	0,49	p<0,01	O‘rtacha ijobiy
Madaniy stereotiplarga moyillik	2,46	0,81	–0,47	p<0,01	O‘rtacha salbiy
Muloqotdagi xavotir	2,58	0,84	–0,42	p<0,05	O‘rtacha salbiy

Izoh: M — o‘rtacha arifmetik qiymat; SD — standart og‘ish; rs — Spirmen korrelyatsiya koeffitsienti. Musbat qiymat omil kuchayishi bilan madaniyatlararo kompetentlikning ham ortishini, manfiy qiymat esa omil kuchaygan sari kompetentlik ko‘rsatkichining pasayishini ifodalaydi.

1-jadval natijalariga ko‘ra, madaniyatlararo kompetentlik bilan eng yuqori ijobiy munosabat madaniyatlararo empatiya ko‘rsatkichida aniqlangan. Bu boshqa madaniyat vakillarining hissiy holati va qarashlarini tushuna oladigan poliglot talabalar turli madaniy vaziyatlarda samaraliroq muloqot qilishini ko‘rsatadi. Madaniyatlararo muloqot motivatsiyasi va kommunikativ tolerantlikning yuqori koeffitsientlari talabaning boshqa madaniyat vakillari bilan aloqa o‘rnatishga qiziqishi hamda o‘zgacha qarashlarni hurmat bilan qabul qilishi kompetentlik rivojida muhim o‘rin tutishini bildiradi. Ijtimoiy moslashuvchanlik, yangi tajribaga ochiqlik va refleksiv tafakkur bilan aniqlangan ijobiy aloqalar poliglot talabaning vaziyatga mos xulq tanlashi, o‘z qarashlarini qayta baholashi va yangi madaniy tajribani qabul qilishi bilan bog‘liqdir. Madaniy stereotiplarga moyillik va muloqotdagi xavotirning salbiy koeffitsientlari esa oldindan shakllangan bir tomonlama tasavvurlar hamda hissiy zo‘riqish madaniyatlararo aloqalarning samaradorligini kamaytirishini anglatadi.

Olingan ma'lumotlar poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlikning rivojlanishi faqat bir necha tilni bilish bilan chegaralanmasligini ko‘rsatadi. Mazkur kompetentlikning shakllanishida empatiya, tolerantlik, muloqot motivatsiyasi, moslashuvchanlik va refleksiv tafakkur asosiy psixologik resurslar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida madaniyatlararo vaziyatlarni tahlil qilish, guruhiy hamkorlik, rolli mashqlar, refleksiv topshiriqlar va muloqot xavotirini kamaytiruvchi psixologik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘tkazilgan tadqiqot poliglot talabalarda madaniyatlararo kompetentlikning rivojlanishi bir necha o‘zaro bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida yuz berishini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘ttiz besh nafar talabaning natijalari madaniyatlararo empatiya kompetentlik bilan eng kuchli ijobiy bog‘lanishga ega ekanini namoyon etdi. Bu holat boshqa madaniyat vakillarining hissiy kechinmalari, qadriyatlari va nuqtayi nazarini tushunish samarali muloqotning muhim sharti ekanini tasdiqlaydi. Madaniyatlararo muloqot motivatsiyasining yuqori ko‘rsatkichi talabaning xorijiy tillarni bilishi bilan birga, turli madaniyat vakillari bilan aloqa o‘rnatishga ichki intilishi ham zarurligini anglatadi. Kommunikativ tolerantlik va ijtimoiy moslashuvchanlikning ijobiy bog‘lanishi o‘zgacha qarashlar hamda xulq me'yorlarini hurmat bilan qabul qilish madaniyatlararo munosabatlarni mustahkamlashini ko‘rsatdi. Yangi tajribaga ochiqlik va refleksiv tafakkur poliglot talabalarning notanish vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z stereotiplarini qayta baholash va muloqot strategiyasini o‘zgartirish imkoniyatini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida poliglot talabalar uchun madaniyatlararo empatiya va kommunikativ tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlarni tashkil etish tavsiya qilinadi. Darslarda turli xalqlarning qadriyatlari, muloqot usullari va ijtimoiy xulq me'yorlarini qiyosiy tahlil qilishga asoslangan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning madaniyatlararo muloqot motivatsiyasini kuchaytirish uchun xalqaro loyihalar, til klublari, uchrashuvlar va madaniy tadbirlardagi ishtirokini kengaytirish lozim. Madaniy stereotiplarni kamaytirish maqsadida muammoli vaziyatlar tahlili, bahsmunozaralar va refleksiv suhbatlarni muntazam o‘tkazish zarur. Muloqotdagi xavotirni pasaytirish uchun rolli o‘yinlar, kichik guruhlardagi hamkorlik mashqlari va psixologik treninglardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Earley P. C., Ang S. Cultural Intelligence: Individual Interactions Across Cultures. — Stanford: Stanford University Press, 2003.

2. Ang S., Van Dyne L., Koh C. Personality Correlates of the Four-Factor Model of Cultural Intelligence // Group & Organization Management. — 2006. — Vol. 31, № 1. — P. 100–123.

3. Ang S., Van Dyne L., Koh C., Ng K. Y., Templer K. J., Tay C., Chandrasekar N. A. Cultural Intelligence: Its Measurement and Effects on Cultural Judgment and

Decision Making, Cultural Adaptation and Task Performance // Management and Organization Review. — 2007. — Vol. 3, № 3. — P. 335–371.

4. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. — 2006. — Vol. 10, № 3. — P. 241–266.

5. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. 6. Berry J. W. Immigration, Acculturation, and Adaptation // Applied Psychology: An International Review. — 1997. — Vol. 46, № 1. — P. 5–34.

7. Ward C., Kennedy A. The Measurement of Sociocultural Adaptation // International Journal of Intercultural Relations. — 1999. — Vol. 23, № 4. — P. 659–677.

8. Phinney J. S. The Multigroup Ethnic Identity Measure: A New Scale for Use with Diverse Groups // Journal of Adolescent Research. — 1992. — Vol. 7, № 2. — P. 156–176.

9. Bennett M. J. Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity // Education for the Intercultural Experience / Ed. by R. M. Paige. — Yarmouth: Intercultural Press, 1993. — P. 21–71.

10. Gudykunst W. B. An Anxiety/Uncertainty Management Theory of Strangers' Intercultural Adjustment // Theorizing About Intercultural Communication / Ed. by W. B. Gudykunst. — Thousand Oaks: SAGE Publications, 2005. — P. 419–457.

11. Fielding R. Multilingualism in the Australian Suburbs: A Framework for Exploring Bilingual Identity. — Singapore: Springer, 2015. — 230 p.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

378.011.3-051:376.36

Mirkamilova Noilaxon Mirsardarovna,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
Talabalar amaliyoti bosh mutaxassisi

BO‘LAJAK LOGOPEDLARNING DUDUQLANUVCHI BOLALAR BILAN ISHLASH BO‘YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak logopedlarning duduqlanuvchi bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib borish bo‘yicha kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy va tarixiy asoslari tahlil qilingan. Duduqlanish nuqsonini o‘rganish va bartaraf etishning ilmgacha bo‘lgan davrdan tortib zamonaviy bosqichgacha bo‘lgan evolyutsiyasi, shuningdek pedagogika fanida “kasbiy kompetentlik” tushunchasining nazariy talqinlari yoritilgan. Tadqiqot asosida bo‘lajak logopedning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligining beshta tarkibiy komponentidan iborat original tuzilmaviy modeli diagnostik-gnostik, korreksion-texnologik, kommunikativ-psixologik, konstruktiv-loyihaviy va reflektiv-baholovchi komponentlar - taklif etilgan. Tarixiy tajriba bilan zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuv o‘rtasidagi uzviylik asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: duduqlanish, logopediya tarixi, kasbiy kompetentlik, bo‘lajak logoped, kompetentsiyaviy yondashuv, korreksion-pedagogik faoliyat, kompetentlik tarkibi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ К РАБОТЕ С ЗАИКАЮЩИМИСЯ ДЕТЬМИ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. в статье анализируются теоретические и исторические основы формирования профессиональной компетентности будущих логопедов в области коррекционно-педагогической работы с заикающимися детьми. Освещена эволюция изучения и преодоления заикания от донаучного периода до современного этапа, а также теоретические трактовки понятия «профессиональная компетентность» в педагогической науке. На основе исследования предложена авторская структурная модель профессиональной компетентности будущего логопеда, включающая пять компонентов: диагностико-гностический, коррекционно-технологический, коммуникативно-психологический, конструктивно-проектировочный и рефлексивно-оценочный. историческим опытом и современным компетентностным подходом.

Ключевые слова: заикание, Обоснована преемственность между история логопедии, профессиональная компетентность, будущий логопед, компетентностный подход, коррекционно-педагогическая деятельность, структура компетентности.

THE USE OF DIGITAL TOOLS IN PREPARING FUTURE SPEECH THERAPISTS TO WORK WITH STUTTERING CHILDREN THROUGH INDEPENDENT STUDY

Abstract. the article analyzes the theoretical and historical foundations of forming the professional competence of future speech therapists in correctional-pedagogical work with stuttering children. The evolution of studying and overcoming stuttering, from the pre-scientific period to the modern stage, is examined, along with theoretical interpretations of the concept of "professional competence" in pedagogical science. Based on the research, an original structural model of a future speech therapist's professional competence is proposed, comprising five components: diagnostic-gnostic, correctional-technological, communicative-psychological, constructive-design, and reflective-evaluative. The continuity between historical experience and the modern competency-based approach is substantiated.

Key words: stuttering, history of speech therapy, professional competence, future speech therapist, competency-based approach, correctional-pedagogical activity, structure of competence.

Bo‘lajak logopedlarni duduqlanuvchi bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyat yuritishga tayyorlash masalasi zamonaviy maxsus pedagogika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq bu tayyorgarlikning amaliy-metodik jihatlarini (mustaqil ta’lim, o‘quv dasturlari, aniq texnologiyalar) samarali tashkil etish uchun, avvalo, ikkita fundamental masalaga aniqlik kiritish zarur: birinchidan, duduqlanish nuqsonini o‘rganish va bartaraf etish tarixi qanday bosqichlarni bosib o‘tgan va bu tarixiy tajriba bugungi kunda qanday ahamiyat kasb etadi; ikkinchidan, “kasbiy kompetentlik” tushunchasi pedagogika fanida qanday talqin etiladi va u aynan logoped mutaxassisligi kontekstida qanday mazmun-mohiyat kasb etadi. Ushbu ikki masalaga nazariy-tarixiy jihatdan aniqlik kiritmasdan turib, bo‘lajak logopedlarni tayyorlashning amaliy modelini ishlab chiqish yetarlicha asoslangan bo‘lmaydi.

Shu bois mazkur maqolaning maqsadi - duduqlanish nuqsonini o‘rganish va bartaraf etishning tarixiy evolyutsiyasini, shuningdek pedagogika fanida kasbiy kompetentlik tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ularga tayangan holda bo‘lajak logopedning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligining tarkibiy-mazmuniy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, duduqlanishni o‘rganish va bartaraf etish tarixining asosiy davrlarini tizimlashtirish; ikkinchidan, pedagogika fanida “kasbiy kompetentlik” tushunchasining nazariy talqinlarini tahlil qilish; uchinchidan, bo‘lajak logopedning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligi tarkibiy qismlarini aniqlash; to‘rtinchidan, tarixiy tajriba bilan zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslash.

Duduqlanish tarixi va uni bartaraf etish metodikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda XX asrning ikkinchi yarmida N.A.Vlasova, Ye.F.Rau, N.A.Cheveleva, S.A.Mironova, G.A.Volkova kabi mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan klassik yondashuvlar keng yoritilgan. Bu yondashuvlar nutqning bosqichma-bosqich murakkablashuvi, qo‘l mehnati faoliyati orqali nutqni tartibga solish, logopedik ritmika kabi g‘oyalarga asoslangan. Biroq ushbu ishlarning aksariyati amaliy-metodik xarakterga ega bo‘lib, tarixiy-genetik tahlilga nisbatan kamroq e’tibor qaratilgan.

Pedagogika fanida kasbiy kompetentlik muammosi ham keng tadqiq etilgan yo‘nalish hisoblanadi. Mavjud tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflanadi, bunda alohida bilim va malakalarning emas, balki har bir yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilim va harakatlarning o‘zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, umumpedagogik tadqiqotlarda ishlab chiqilgan kasbiy kompetentlik modellarining maxsus pedagogika, xususan, logopediya yo‘nalishi bo‘yicha tor ixtisoslashtirilgan ko‘rinishi hozirgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil metodi (duduqlanishni o‘rganish tarixining davrlarga bo‘linishi va har bir davr xususiyatlarini aniqlash uchun), tushunchaviy kategorial tahlil metodi (“kasbiy kompetentlik” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochish uchun), modellashtirish metodi (bo‘lajak logopedning kasbiy kompetentligi tarkibiy modelini ishlab chiqish uchun) hamda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni sintez qilish metodlaridan foydalanildi.

Duduqlanishni o‘rganish va bartaraf etish tarixining asosiy davrlari, duduqlanish nuqsonini o‘rganish tarixi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Ilmgacha bo‘lgan davrda (qadimgi Sharq, qadimgi Misr va Hindiston sivilizatsiyalarida) nutq buzilishlari asosan jismoniy nuqsonlar bilan bog‘lab tushuntirilgan. Qadimgi Yunonistonda Gerodot va Gippokrat duduqlanish muammosini birinchi bo‘lib ilmiy kuzatish ob'ektiga aylantirgan, Gippokrat esa bu holatni miya faoliyati bilan bog‘lagan. Qadimgi Rimda nutq nuqsonlari ko‘proq jismoniy kasalliklar oqibati sifatida talqin etilgan. O‘rta asrlarda buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘zining mashhur “Tib qonunlari” asarida duduqlanishni davolash

masalalariga alohida to‘xtalgan, bu esa Sharq tibbiyoti va pedagogikasining nutq nuqsonlarini bartaraf etishga qo‘shgan ilk hissasi sifatida katta ahamiyatga ega. Uyg‘onish davrida Fransua Rable nutqning rivojlanishini bolaning psixik va jismoniy tarbiyasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqqan bo‘lsa, XVII-XVIII asrlarda Ya.A.Komenskiy bola nutqini erta yoshdan tarbiyalashning ahamiyatini asoslab bergan.

XVIII asr oxiridan boshlab ilmiy bosqich boshlanadi: XIX asrning ikkinchi yarmida logopediya mustaqil fan sifatida shakllana boshlaydi, XX asr boshida esa nemis olimi A.Kussmaul duduqlanishning ilk ilmiy klassifikatsiyasini ishlab chiqadi. Rossiyada va keyinchalik butun ittifoq hududida, jumladan O‘zbekistonda, logopedlar mutaxassisligi maxsus ta’lim muassasalarida rasman joriy etiladi. XX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmida N.A.Vlasova va Ye.F.Rau tomonidan nutqning besh bosqichli shakli (uyg‘unlashgan, aks ettirilgan, savol-javob, hikoya qilish, mustaqil nutq) asosidagi tizimli metodika, N.A.Cheveleva tomonidan qo‘l mehnati faoliyati jarayonida nutqni tartibga solish metodikasi, S.A.Mironova tomonidan umumiy nutqni rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog‘liq korreksion mashg‘ulotlar tizimi, G.A.Volkova tomonidan esa logopedik ritmika - nutq, harakat va musiqani sinxronlashtirishga asoslangan metodika ishlab chiqiladi. Bu davr duduqlanishni bartaraf etishning ilmiy-metodik negizini shakllantirgan klassik bosqich sifatida baholanishi mumkin.

Zamonaviy bosqich (XX asr oxiri - XXI asr) kompleks, individuallashtirilgan va kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan yangi metodikalar, raqamli texnologiyalar hamda oilaviy-hamkorlik modellarining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda logoped mutaxassisidan nafaqat klassik metodikalarni bilish, balki ularni har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashtirish, zamonaviy diagnostika vositalaridan foydalanish va uzluksiz kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lish talab etiladi.

Pedagogika fanida “kasbiy kompetentlik” tushunchasining nazariy talqinlari, “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi zamonaviy pedagogika fanida mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amaliyotda yuqori samara bilan qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Bunda muhim jihat shundaki, kasbiy kompetentlik alohida bilim yoki ko‘nikmalarning yig‘indisi emas, balki har bir mustaqil faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning integrativ, o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishidir.

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetentlikning beshta asosiy turi ajratiladi: maxsus kompetentlik - kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallash va uni yanada rivojlantirishni rejalashtirish qobiliyati; ijtimoiy kompetentlik - hamkorlikda ishlash va faoliyat natijalari uchun javobgarlikni his qilish qobiliyati; shaxsiy kompetentlik - o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish (refleksiya) va kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish qobiliyati; individual kompetentlik - kasbiy-shaxsiy o‘sish va o‘z-o‘zini

takomillashtirishga intilish; asosiy (bazaviy) kompetentsiyalar - o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va samarali faoliyat yuritish uchun zarur umumiy bilim va ko‘nikmalar. Kasbiy kompetentlikning shakllanishi, o‘z navbatida, bir necha bosqichni bosib o‘tadi: qobiliyatni aniqlash, uni tarbiyalash, amaliyotda chiniqtirish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va nihoyat, yuqori kasbiy mahorat (“rahbarlik”) darajasiga erishish.

Ushbu umumpedagogik model bo‘lajak logoped faoliyatiga tatbiq etilganda, bir qator o‘ziga xosliklarni hisobga olishni taqozo etadi: logopedning kasbiy faoliyati nafaqat pedagogik, balki tibbiy-psixologik bilimlarni ham o‘zida mujassam etadi, uning ob'ekti esa nozik va individual xarakterga ega bo‘lgan bola shaxsi hisoblanadi. Shu sababli umumpedagogik kompetentlik tuzilmasini logopediya sohasi, xususan, duduqlanish nuqsoni bilan ishlash kontekstida ixtisoslashtirish zarurati yuzaga keladi. Bo‘lajak logopedning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligi: tarkibiy model

Yuqorida keltirilgan tarixiy-nazariy tahlil asosida bo‘lajak logopedning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligining beshta o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentdan iborat modelini taklif etish mumkin.

Diagnostik-gnostik komponent duduqlanish nuqsonining shakli (klonik, tonik yoki aralash), darajasi va kelib chiqish sabablarini aniqlash, bolaning nutqiy, harakat-motor va psixologik holatini har tomonlama baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent bo‘lajak logopedning kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va diagnostik xulosalar chiqara olish qobiliyatiga asoslanadi, chunki noto‘g‘ri yoki yuzaki diagnostika keyingi barcha korreksion ishning samarasizligiga olib kelishi mumkin.

Korreksion-texnologik komponent tayyorlov, mashq qiluvchi va mustahkamlash davrlariga mos klassik va zamonaviy metodikalarni - nutqning besh bosqichli shakli, logopedik ritmika, nafas va relaksatsiya mashqlari, qo‘l mehnati faoliyati orqali nutqni tartibga solish usullarini - amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Bu komponent nazariy bilimning bevosita amaliy mahoratga aylanishini ta'minlaydi va shu bois bo‘lajak logopedning kasbiy tayyorgarligida markaziy o‘rin tutadi.

Kommunikativ-psixologik komponent bola va uning oilasi bilan ishonchli pedagogik muloqot o‘rnatish, bolaning logofobiya kabi psixologik to‘siqlarini yumshatish, tarbiyachilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Duduqlanuvchi bola ko‘pincha nutqiy muloqotdan qochishga moyil bo‘lgani sababli, logopedning empatik, sabr-toqatli va ishonch uyg‘otuvchi muloqot uslubi korreksion ishning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Konstruktiv-loyihaviy komponent har bir bola uchun uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksion dastur va mashg‘ulot ssenariysini mustaqil loyihalashtirish qobiliyatini bildiradi. Bu komponent bo‘lajak logopedning ijodiy fikrlashi, tayyor metodikalarni mexanik tarzda emas, balki ijodiy moslashtirib

qo‘llay olish layoqatini nazarda tutadi. Reflektiv-baholovchi komponent esa o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish, erishilgan va erishilmagan natijalar sabablarini aniqlash, xatolar ustida ishlash va kasbiy mahoratni uzluksiz oshirib borish qobiliyatini ifodalaydi. Aynan shu komponent orqali bo‘lajak mutaxassis o‘zining kasbiy faoliyatini doimiy takomillashtirish, ya’ni “o‘quvchi mutaxassis” (lifelong learner) sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ushbu beshta komponent bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllanishi lozim. Masalan, diagnostik-gnostik komponentsiz to‘g‘ri tuzilgan korreksion dastur bo‘lishi mumkin emas, kommunikativ-psixologik komponentsiz esa eng mukammal texnologiya ham amalda samara bermaydi. Mazkur komponentlarning mazmuni va asosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Bo‘lajak logopedning duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligi tarkibiy modeli

Komponent	Mazmuni	Asosiy ko‘rsatkichlari
Diagnostik-gnostik	Duduqlanish shakli, darajasi va sabablarini aniqlash, bolaning nutqiy-psixologik holatini baholash	Nutqiy karta tuzish, differensial diagnostika ko‘nikmasi, kuzatuvchanlik
Korreksion-texnologik	Klassik va zamonaviy metodikalarni (besh bosqichli nutq shakli, logopedik ritmika, nafas mashqlari) amaliyotda qo‘llash	Mashg‘ulot ssenariysini tuzish va o‘tkazish mahorati, texnika va usullarni tanlay olish
Kommunikativ-psixologik	Bola va oila bilan ishonchli muloqot, logofobiyani yumshatish, hamkorlik	Empatiya, nutqiy muloqot madaniyati, ota-onalar bilan ishlash ko‘nikmasi
Konstruktiv-loyihaviy	Individual korreksion dastur va mashg‘ulot rejasini loyihalashtirish	Maqsadga muvofiq reja tuzish, ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik
Reflektiv-baholovchi	O‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish va kasbiy mahoratni oshirish	O‘z-o‘zini baholash, xatolar ustida ishlash, uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning umumpedagogik shart-sharoitlari, yuqorida tavsiflangan tarkibiy komponentlarning samarali shakllanishi bir qator

umumpedagogik shart-sharoitlarga rioya qilinishini talab etadi. Birinchi shart - nazariy bilim bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash, ya’ni har qanday nazariy mavzu talabaga zudlik bilan amaliy vaziyotga tatbiq etish imkoniyati bilan birga taqdim etilishi. Ikkinchi shart - kasbga bo‘lgan ichki motivatsiyani shakllantirish, chunki duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash sabr-toqat va chuqur ichki mas’uliyatni talab qiladigan faoliyat turi hisoblanadi. Uchinchi shart - bilimlarning fanlararo integratsiyasi, xususan, logopediya, pedagogik psixologiya, fiziologiya va tibbiyot sohalaridagi bilimlarning o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda o‘zlashtirilishi. To‘rtinchi shart - tajribali mutaxassislar (nazoratchi-mentor) bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatining yaratilishi, bu esa talabaga real kasbiy muhitni kuzatish va undan o‘rganish imkonini beradi. Beshinchi shart - talabaning o‘z kasbiy o‘sishini muntazam ravishda kuzatib borishi va baholashi uchun shaffof mezonlar tizimining mavjudligi.

Ushbu shart-sharoitlarning majmuiy tarzda ta'minlanishi, birinchi navbatda, oliy ta’lim muassasasining o‘quv-uslubiy tizimiga, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga va ta’lim muhitining umumiy sifatiga bog‘liq bo‘lib, bu masala alohida, chuqurroq tadqiqot mavzusini tashkil etadi.

Tarixiy tajriba va zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuv o‘rtasidagi uzviylik

Duduqlanishni bartaraf etish tarixini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuvning asosiy g‘oyalari - individuallashtirish, bosqichma-bosqichlik, kompleks ta’sir - allaqachon klassik metodikalarda mavjud bo‘lgan. N.A.Vlasova va Ye.F.Rau tomonidan taklif etilgan nutqning besh bosqichli shakli aslida zamonaviy ma'noda “korreksion-texnologik kompetentlik”ning ilk ilmiy ko‘rinishi, G.A.Volkova metodikasidagi kompleks (nutq-harakat-musiqa) yondashuv esa bugungi integrativ kompetentlik g‘oyasining tarixiy asosi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy bosqich bu tarixiy tajribani sifat jihatidan yangi darajaga - kasbiy kompetentlikning barcha komponentlarini uyg‘un va ongli tarzda shakllantirish darajasiga ko‘taradi, bunda bo‘lajak mutaxassisning nafaqat tayyor metodikalarni bilishi, balki ularni mustaqil tahlil qilishi, moslashtirishi va refleksiv baholashi talab etiladi.

Shunday qilib, tarixiy tajriba bilan zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuv o‘rtasida uzilish emas, balki mantiqiy davomiylik mavjud: klassik metodikalar zamonaviy kompetentlik modelining mazmuniy “negizi” bo‘lib xizmat qiladi, kompetentsiyaviy yondashuv esa bu negizni tizimli, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda qayta ishlab chiqishga imkon beradi.

O‘tkazilgan tarixiy-nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak logopedlarni duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashga tayyorlashning samarali modelini ishlab chiqish uchun, avvalo, ushbu sohaning tarixiy evolyutsiyasini va kasbiy kompetentlik tushunchasining nazariy mazmunini chuqur anglash zarur. Duduqlanishni o‘rganish tarixi ilmgacha bo‘lgan, klassik ilmiy va zamonaviy bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos g‘oyaviy meros

qoldirgan. Kasbiy kompetentlik esa integrativ tushuncha sifatida bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning yaxlit birligini ifodalaydi.

Tadqiqot natijasida taklif etilgan bo‘lajak logopedning kasbiy kompetentligi tarkibiy modeli (diagnostik-gnostik, korreksion-texnologik, kommunikativ-psixologik, konstruktiv-loyihaviy va reflektiv-baholovchi komponentlar) oliy ta’lim muassasalarida logopediya yo‘nalishi o‘quv dasturlarini takomillashtirish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini loyihalashtirish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modelning har bir komponentini amaliy diagnostika vositalari orqali chuqurroq o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Sino (Avitsenna). Tib qonunlari (Канон врачебной науки). – Toshkent: Fan.

2. Куссмауль А. Классификация расстройств речи. – Germaniya, XIX asr oxiri.

3. Власова Н.А., Рау Е.Ф. Логопедическая работа с заикающимися дошкольниками. – М.: Просвещение (va keyingi nashrlari).

4. Чевелева Н.А. Исправление заикания у школьников в процессе обучения: Пособие для логопедов. – М.: Просвещение, 1978. – 112 с.

5. Миронова С.А. Развитие речи дошкольников на логопедических занятиях: Книга для логопеда. – М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС.

6. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика: Учебник для студентов вузов. – М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС.

7. История логопедии [Elektron resurs] // Spravochnick.ru ilmiy-uslubiy portali.

8. Заикание: история и обзор современного состояния проблемы [Elektron resurs] // CyberLeninka ilmiy elektron kutubxonasi.

9. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari [Elektron resurs] // Universal Publishings ilmiy jurnali.

10. Pedagogning kasbiy kompotentligini shakllantirishning pedagogik asoslari [Elektron resurs] // CyberLeninka ilmiy elektron kutubxonasi.

11. Логопедия: Учебник для студентов дефектологических факультетов / Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. – М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 796.422.12:796.015.132

Ruzmetov Furqat Ikramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xorazm akademik litseyi o‘qituvchisi, Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TAJRIBA MASHG‘ULOT DASTURINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqola qisqa masofaga yuguruvchilarning tezkorlik, tezkor-kuch va maxsus tezkor chidamlilik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba mashg‘ulot dasturining pedagogik samaradorligini aniqlashga bag‘ishlangan. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ishtirokchilar tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratilib, ularning jismoniy tayyorgarligi 30 metrga past startdan yugurish, 30 metrga kelib yugurish, 60 metrga past startdan yugurish, 150 va 300 metrga yugurish hamda turgan joydan uzunlikka sakrash testlari yordamida baholandi. Natijalar maxsus sprint mashqlari va tezkor-kuch vositalarini maqsadli uyg‘unlashtirish qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: qisqa masofaga yugurish, sprinter, jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, maksimal tezlik, tezkor-kuch tayyorgarligi, portlovchi kuch, tezkor chidamlilik, pedagogik tajriba, tajriba guruhi, nazorat guruhi, statistik ishonchlilik.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ ТРЕНИРОВОК В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БЕГУНОВ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ

Аннотация. В статье исследована педагогическая эффективность экспериментальной тренировочной программы, направленной на развитие показателей быстроты, скоростно-силовой подготовленности и специальной скоростной выносливости бегунов на короткие дистанции. В процессе исследования применялись методы педагогического наблюдения, педагогического тестирования, педагогического эксперимента и математико-статистического анализа. Участники исследования были распределены на экспериментальную и контрольную группы. Уровень их физической подготовленности оценивался с помощью тестов: бег на 30 м с низкого старта, бег на 30 м с хода, бег на 60 м с низкого старта, бег на 150 и 300 м, а также прыжок в длину с места. Полученные результаты показали, что целенаправленное сочетание специальных спринтерских упражнений,

скоростно-силовых средств и нагрузок, направленных на развитие специальной скоростной выносливости, способствует эффективному совершенствованию физической подготовленности бегунов на короткие дистанции. В экспериментальной группе были зафиксированы более высокие темпы прироста по сравнению с контрольной группой, а педагогическая эффективность разработанной тренировочной программы подтверждена методами математической статистики.

Ключевые слова: бег на короткие дистанции, спринтер, физическая подготовленность, быстрота, максимальная скорость, скоростно-силовая подготовка, взрывная сила, специальная скоростная выносливость, педагогический эксперимент, экспериментальная группа, контрольная группа, статистическая достоверность.

THE EFFECTIVENESS OF AN EXPERIMENTAL TRAINING PROGRAM IN DEVELOPING THE PHYSICAL PREPAREDNESS OF SHORT-DISTANCE RUNNERS

Abstract. This article examines the pedagogical effectiveness of an experimental training program aimed at developing speed, speed-strength preparedness, and special speed endurance in short-distance runners. The study employed pedagogical observation, pedagogical testing, a pedagogical experiment, and mathematical-statistical analysis. The participants were divided into experimental and control groups. Their level of physical preparedness was assessed using the following tests: 30 m sprint from a crouch start, flying 30 m sprint, 60 m sprint from a crouch start, 150 m and 300 m runs, and the standing long jump. The findings showed that a purposeful combination of specialized sprint exercises, speed-strength training means, and workloads aimed at developing special speed endurance contributes to the effective improvement of the physical preparedness of short-distance runners. Higher rates of improvement were recorded in the experimental group compared with the control group, while the pedagogical effectiveness of the developed training program was confirmed by mathematical-statistical analysis.

Keywords: short-distance running, sprinter, physical preparedness, speed, maximum velocity, speed-strength training, explosive strength, special speed endurance, pedagogical experiment, experimental group, control group, statistical significance.

Qisqa masofaga yugurish natijasi sportchining start holatidan tez chiqishi, dastlabki qadamlarda katta tezlanish hosil qilishi, maksimal yugurish tezligiga erishishi hamda shakllangan tezlikni masofaning yakuniy qismigacha saqlab qolish imkoniyatlariga bog‘liq. Mazkur komponentlarning har biri o‘ziga xos biomekanik, fiziologik va asab-mushak mexanizmlari orqali ta’minlanadi. Shu sababli

sprinterlarni tayyorlash jarayoni faqat qisqa masofalarni maksimal tezlikda takroriy yugurish bilan cheklanmaydi. Unda start tayyorgarligi, tezlanish, maksimal tezlik, tezkor-kuch, portlovchi kuch va tezkor chidamlilikni rivojlantiruvchi vositalar o‘zaro muvofiqlashtirilishi lozim.

Sprint natijasini shakllantiruvchi muhim omillardan biri maksimal yugurish tezligi hisoblanadi. Yuqori malakali sprinterlarning natijalarini tahlil qilgan tadqiqotlarda maksimal tezlik bilan 100 metrga yugurish natijasi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Yuqori maksimal tezlikka ega sportchilar, odatda, tezlanish bosqichida ham kattaroq tezlik qiymatlariga erishadi.

Sprint tayyorgarligi bo‘yicha ilmiy va amaliy tajribalarni umumlashtirgan tadqiqotlarda maksimal tezlikni rivojlantirish, keyinchalik esa ushbu tezlikni saqlash davomiyligini oshirish sprint mashg‘ulotlarini tuzishning muhim tamoyili sifatida ko‘rsatilgan [4; 8; 9]. Mazkur yondashuv “qisqa masofadan uzun masofaga” tamoyiliga asoslanib, avvalo yuqori sifatli tezlik qobiliyatlarini shakllantirish, so‘ngra maxsus tezkor chidamlilikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Sprinterlarning start va tezlanish imkoniyatlari oyoq mushaklarining kuchi, kuch impulsi, tayanch reaksiyasi kuchining yo‘nalishi, qadam chastotasi hamda qadam uzunligi bilan bog‘liq. Sprint startining biomekanik tahlili start tirgaklaridan chiqish, birinchi parvoz va tayanch fazalaridagi texnik harakatlar qisqa masofadagi umumiy natijaga sezilarli ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot amaliyotida standart dasturlar barcha sportchilarga bir xil hajm, shiddat va dam olish oralig‘ini belgilashi mumkin. Bunday yondashuv sportchilarning tayyorgarlik darajasi, tiklanish sur’ati, tezlik-kuch profili va charchashga chidamliligidagi individual farqlarni to‘liq hisobga olmaydi. Shuning uchun mashg‘ulot yuklamalarining masofasi, takrorlanish soni, bajarilish shiddati va dam olish oraliqlarini sportchilarning joriy funksional holatiga moslashtirish dolzarb pedagogik masala hisoblanadi.

Pliometrik mashqlar, qarshilik bilan yugurish, maksimal tezlikdagi qisqa yugurishlar va kuch tayyorgarligini uyg‘unlashtirish sprint natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Zamonaviy tizimli sharh va metatahlillarda pliometrik, kuch hamda sprint mashg‘ulotlarining tezlanish, takroriy sprint qobiliyati va portlovchi kuch ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’siri qayd etilgan [2; 3].

Biroq ayrim mashg‘ulot vositalarining samarasi sportchilarning malakasi, yuklama miqdori, qarshilik darajasi va tiklanish oralig‘iga bog‘liq. Jumladan, qarshilik bilan sprint mashqlari tezlanish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin, ammo ularning erkin maksimal tezlikdagi yugurishlardan mutlaq ustunligi barcha holatlarda tasdiqlanmagan [2]. Bu alohida vositaga tayanishdan ko‘ra turli yo‘nalishdagi mashqlarni pedagogik jihatdan asoslangan kompleksda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot muammosi qisqa masofaga yuguruvchilarning tezkorlik, tezkor-kuch va tezkor chidamlilik ko‘rsatkichlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini

beruvchi tajriba mashg‘ulot dasturining samaradorligini pedagogik tajriba asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqot maqsadi – qisqa masofaga yuguruvchilarning tezkorlik, tezkor-kuch va tezkor chidamlilik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba mashg‘ulot dasturining pedagogik samaradorligini aniqlash.

Maxsus yugurish mashqlari, tezkor-kuch vositalari, yugurish masofalari va dam olish oraliqlarini maqsadli uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar qisqa masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan samaraliroq rivojlantiradi.

Pedagogik tadqiqotda qisqa masofaga yuguruvchilardan tashkil topgan tajriba guruhi va nazorat guruhi ishtirok etdi. Guruhlardagi ishtirokchilar tajriba guruhida 24 nafar, nazorat guruhida 23 nafar bo‘lib, ularning 15-16 yoshli, I va II razryadli sportchilardan tashkil topdi. Pedagogik tajriba 2024-yil sentabr oyidan 2026-yil may oyiga qadar o‘tkazildi.

Tadqiqot dastlabki diagnostika, shakllantiruvchi pedagogik tajriba va yakuniy nazorat bosqichlarida olib borildi. Dastlabki bosqichda TG va NG sportchilarining boshlang‘ich jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlandi. Shakllantiruvchi bosqichda TG mashg‘ulotlariga maxsus tezlik, tezkor-kuch va tezkor chidamlilik vositalarini uyg‘unlashtiruvchi tajriba dasturi tatbiq etildi. NG esa amaldagi an’anaviy mashg‘ulot dasturi asosida shug‘ullandi.

Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, qiyosiy tahlil, matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Sportchilarning jismoniy tayyorgarligi oltita nazorat mashqi asosida baholandi.

30 metrga past startdan yugurish sportchining start holatidan chiqish tezligi, dastlabki qadamlar dinamikasi va boshlang‘ich tezlanish imkoniyatlarini tavsifladi.

30 metrga kelib yugurish start ta’sirini nisbatan kamaytirgan holda sportchining maksimal yoki maksimalga yaqin yugurish tezligini baholash imkonini berdi.

60 metrga past startdan yugurish start reaksiyasi, boshlang‘ich tezlanish va maksimal tezlikning integrallashgan ko‘rsatkichi sifatida qo‘llanildi.

150 metrga yugurish yuqori tezlikni davomli saqlash, maxsus tezkor chidamlilik va charchash boshlanganda yugurish texnikasining barqarorligini baholashga xizmat qildi.

300 metrga yugurish sportchilarning anaerob-glikolitik ish qobiliyati, tezlik chidamliligi va yuqori shiddatli yuklama sharoitida charchashga qarshi turish imkoniyatlarini tavsifladi.

Turgan joydan uzunlikka sakrash oyoq mushaklarining portlovchi kuchi, gorizontal yo‘nalishda kuch hosil qilish qobiliyati hamda tezkor-kuch tayyorgarligini baholash uchun qo‘llanildi.

Natijalarga matematik-statistik ishlov berishda o‘rta arifmetik qiymat, standart og‘ish, mutlaq o‘zgarish, foizdagi o‘zgarish va Student t-mezonidan foydalanildi.

Statistik ishonchlilik P<0,05, P<0,01 va P<0,001 darajalari bo‘yicha baholandi. P<0,05 natijaning kamida 95%, P<0,01 kamida 99% va P<0,001 kamida 99,9% statistik ishonchlilik darajasiga mos kelishini anglatadi.

Vaqt bilan o‘lchangan testlarda natijaning kamayishi ijobiy o‘zgarish sifatida, uzunlikka sakrashda esa masofaning ortishi tayyorgarlik darajasining yaxshilanishi sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot boshidagi natijalar tahlili TG va NG ko‘rsatkichlarining bir-biriga yaqin bo‘lganini ko‘rsatdi. Barcha testlarda boshlang‘ich guruhlararo farq P>0,05 darajasida bo‘lib, statistik jihatdan ishonchli emas edi. Bu holat pedagogik tajribadan oldin guruhlarning jismoniy tayyorgarligi nisbatan teng bo‘lganini va yakuniy farqlarni tajriba mashg‘ulot dasturining pedagogik ta’siri bilan bog‘liq holda tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

Nazorat testi	TG tajriba boshida	TG tajriba yakunida	TG o‘zgarishi, %	NG tajriba boshida	NG tajriba yakunida	NG o‘zgarishi, %	t	P	Pedagogik talqin
30 m past startdan, s	4,59±0,6	4,33±0,1	5,6%	4,61±0,7	4,58±0,6	0,65 %	2,43	P<0,05	Start va boshlang‘ich tezlanish yaxshilangan
30 m kelib yugurish, s	3,39±0,6	3,09±0,3	8,8%	3,61±0,4	3,57±0,9	1,1%	2,99	P<0,01	Maksimal tezlik imkoniyati rivojlangan
60 m past startdan, s	8,25±1,1	7,24±0,2	12,2 %	8,26±1,4	7,85±1,3	4,9%	2,74	P<0,01	Start, tezlanish va maksimal tezlik kompleks rivojlangan
150 m yugurish, s	19,58±2,9	17,83±0,15	8,9%	19,60±3,4	19,08±1,9	2,6%	3,88	P<0,001	Maxsus tezkor chidamlilik yaxshilangan
300 m yugurish, s	39,50±5,05	37,34±0,9	5,3%	39,48±4,4	38,60±1,7	2,2%	3,87	P<0,001	Anaerob-glikolitik chidamlilik oshgan
Joyidan uzunlikka sakrash, sm	234,35 ±41,9	277,6±10,5	18,4 %	233,46 ±38,1	248,3±28,1	6,3%	5,76	P<0,001	Portlovchi va gorizontal kuch sezilarli rivojlangan

30 metrga past startdan yugurishda TGda o‘rtacha natija 4,59 soniyadan 4,33 soniyaga yaxshilandi. Mutlaq o‘zgarish 0,26 soniyani, nisbiy o‘sish esa 5,6% ni tashkil etdi. NGda natija 4,61 soniyadan 4,58 soniyaga o‘zgardi. Bunda mutlaq yaxshilanish atigi 0,03 soniya yoki 0,65% bo‘ldi.

Tadqiqot yakunida guruhlar o‘rtasidagi farq t=2,43 va P<0,05 darajasida ishonchli bo‘ldi. Mazkur natija tajriba dasturida past start texnikasi, dastlabki qadamlar tezligi va gorizontal yo‘nalishda kuch hosil qilishga qaratilgan mashqlarning mavjud bo‘lganidan dalolat berishi mumkin.

30 metrga kelib yugurishda TG natijasi 3,39 soniyadan 3,09 soniyaga yaxshilanib, mutlaq farq 0,30 soniyani tashkil etdi. Nisbiy o‘sish 8,8% ga teng bo‘ldi. NGda esa natija 3,61 soniyadan 3,57 soniyaga o‘zgarib, 0,04 soniya yoki 1,1% yaxshilanish qayd etildi.

Yakuniy testda t=2,99 va P<0,01 darajasidagi ishonchli farq aniqlandi. 30 metrga kelib yugurishda start fazasining ta’siri kamaygani sababli olingan natija, asosan, maksimal yugurish tezligining rivojlanganini tavsiflaydi. TGdagi yuqori o‘sish qadam chastotasi, qadam uzunligi, tayanch vaqtining qisqarishi va asab-mushak koordinatsiyasining takomillashishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

60 metrga past startdan yugurishda TG natijasi 8,25 soniyadan 7,24 soniyaga yaxshilandi. Mutlaq o‘zgarish 1,01 soniya, nisbiy o‘sish 12,2% ni tashkil etdi. NG natijasi 8,26 soniyadan 7,85 soniyaga yaxshilanib, 0,41 soniya yoki 4,9% o‘sish qayd etildi.

Tadqiqot yakunida t=2,74 va P<0,01 darajasidagi ishonchli farq aniqlandi. 60 metrga yugurish natijasi startdan chiqish, tezlanish va maksimal tezlik fazalarini umumlashtirganligi sababli TGda qayd etilgan 12,2% o‘sish tajriba dasturining kompleks ta’sirini ko‘rsatadi.

150 metrga yugurishda TGda natija 19,58 soniyadan 17,83 soniyaga yaxshilandi. Mutlaq farq 1,75 soniya, o‘sish 8,9% ni tashkil etdi. NGda natija 19,60 soniyadan 19,08 soniyaga yaxshilanib, mutlaq o‘zgarish 0,52 soniya yoki 2,6% bo‘ldi.

Yakuniy guruhlararo t-mezon 3,88 va P<0,001 darajasida ishonchli bo‘ldi. Mutlaq va nisbiy o‘zgarishlarning TG foydasiga bo‘lishi tajriba dasturining maxsus tezkor chidamlilikka ijobiy pedagogik ta’sirini ko‘rsatadi.

300 metrga yugurishda TGda natija 39,50 soniyadan 37,34 soniyaga yaxshilanib, mutlaq farq 2,16 soniya va nisbiy o‘sish 5,3% ni tashkil etdi. NGda natija 39,48 soniyadan 38,60 soniyaga o‘zgardi. Mutlaq yaxshilanish 0,88 soniya, nisbiy o‘sish 2,2% ga teng bo‘ldi.

Yakuniy guruhlararo farq t=3,87 va P<0,001 darajasida ishonchli bo‘ldi. Natijalar TG sportchilarida anaerob-glikolitik energiya ta’minoti, yuqori shiddatli ishni davom ettirish va charchash sharoitida tezlikni saqlash imkoniyatlari samaraliroq rivojlanganini ko‘rsatadi.

Turgan joydan uzunlikka sakrashda TGda natija 234,35 sm dan 277,6 sm gacha oshdi. Mutlaq o‘sish 43,25 sm, nisbiy o‘sish esa 18,4% ni tashkil etdi. Bu barcha nazorat mashqlari orasidagi eng yuqori nisbiy o‘sishdir. NGda natija 233,46 sm dan 248,3 sm gacha oshib, mutlaq o‘sish 14,84 sm yoki 6,3% bo‘ldi.

Tadqiqot yakunida $t=5,76$ va $P<0,001$ darajasidagi yuqori statistik ishonchlilik aniqlandi. Natija TGda oyoq mushaklarining portlovchi kuchi, qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilish qobiliyati va gorizontal yo‘nalishdagi itarilish samaradorligi sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari tajriba mashg‘ulot dasturi qisqa masofaga yuguruvchilarning barcha nazorat qilingan jismoniy tayyorgarlik komponentlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. TGdagi o‘sish ko‘rsatkichlari quyidagi tartibda joylashdi:

1. turgan joydan uzunlikka sakrash - 18,4%;
2. 60 metrga past startdan yugurish - 12,2%;
3. 150 metrga yugurish - 8,9%;
4. 30 metrga kelib yugurish - 8,8%;
5. 30 metrga past startdan yugurish - 5,6%;
6. 300 metrga yugurish - 5,3%.

Eng katta o‘sishning uzunlikka sakrash testida kuzatilishi tajriba dasturida portlovchi kuch va gorizontal kuch impulsini rivojlantiruvchi mashqlarning katta ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Pliometrik tayyorgarlik mushaklarning cho‘zilish-qisqarish siklidan samarali foydalanish, motor birliklarini tez safarbar qilish va oyoq mushaklarining qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilish imkoniyatini rivojlantiradi. Pliometrik mashg‘ulotlar bo‘yicha metatahlil natijalari ularning sprint tezligini yaxshilashga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Tajriba guruhidagi natijalarning nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lishi quyidagi pedagogik omillar bilan izohlanishi mumkin:

- mashg‘ulot vositalarining tezlik, tezkor-kuch va tezkor chidamlilik yo‘nalishlari bo‘yicha kompleks tashkil etilishi;
- qisqa va o‘rta sprint masofalarining maqsadli uyg‘unlashtirilishi;
- maksimal va maksimalga yaqin shiddatdagi yugurishlarning qo‘llanilishi;
- takrorlanishlar orasida zarur tiklanish vaqtining ta’minlanishi;
- sakrash va pliometrik mashqlarning sprint vositalari bilan birlashtirilishi;
- mashg‘ulot yuklamalarining bosqichma-bosqich oshirilishi;
- texnik harakatlar sifatiga muntazam pedagogik nazorat o‘rnatilishi.

Shunday qilib, tajriba dasturi, avvalo, portlovchi kuch, start tezligi, boshlang‘ich tezlanish va maksimal tezlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirgan. Shu bilan

birga, 150 va 300 metr natijalaridagi o‘zgarishlar dastur maxsus tezkor chidamlilikka ham samarali ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot boshida TG va NGning barcha nazorat testlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmagan (P>0,05). Bu guruhlarning dastlabki tayyorgarlik darajasi nisbatan teng bo‘lganini ko‘rsatdi.

30 metrga past startdan yugurishda TG natijasi 4,59 soniyadan 4,33 soniyaga yaxshilanib, o‘sish 5,6% ni tashkil etdi. NGdagi o‘sish 0,65% bilan cheklangan va yakuniy guruhlararo farq P<0,05 darajasida ishonchli bo‘lgan.

30 metrga kelib yugurishda TG natijasi 0,30 soniyaga yoki 8,8% ga yaxshilandi. NGdagi o‘sish 1,1% ni tashkil etdi. P<0,01 darajasidagi farq tajriba dasturining maksimal yugurish tezligini rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatdi.

60 metrga past startdan yugurishda TG natijasi 8,25 soniyadan 7,24 soniyaga yaxshilanib, 12,2% o‘sish qayd etildi. NGda o‘sish 4,9% ni tashkil etdi. Guruhlararo farqning P<0,01 darajasida ishonchli bo‘lishi start, tezlanish va maksimal tezlik komponentlarining kompleks rivojlanganini ko‘rsatadi.

150 metrga yugurishda TG natijasi 1,75 soniya yoki 8,9% ga, NG natijasi esa 0,52 soniya yoki 2,6% ga yaxshilandi. Yakuniy guruhlararo farq P<0,001 darajasida ishonchli bo‘lib, tajriba dasturining maxsus tezkor chidamlilikka ijobiy ta’sirini tasdiqladi.

300 metrga yugurishda TG natijasi 2,16 soniya yoki 5,3% ga yaxshilandi. Yakuniy farq P<0,001 darajasida ishonchli bo‘lib, tajriba dasturi anaerob-glikolitik chidamlilik va charchash sharoitida tezlikni saqlash qobiliyatiga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Turgan joydan uzunlikka sakrashda TG natijasi 43,25 sm yoki 18,4% ga oshdi. Mazkur o‘sish barcha testlar orasida eng yuqori bo‘lib, P<0,001 darajasidagi ishonchli farq tajriba dasturining portlovchi va tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, M.J., Olimov, M.S., To‘xtaboyev, N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: Barkamol Fayz Media, 2017. – 620 b.

2. Aldrich, E.K., et al. The effect of resisted sprint training on acceleration: A systematic review and meta-analysis. *Sports*, 2024.

3. Liu, H., et al. The effect of combined strength, plyometric and sprint training on repeated-sprint ability: A systematic review and meta-analysis. *Sports Medicine – Open*, 2024.

4. Loturco, I., Pereira, L.A., Freitas, T.T., et al. Speed training practices of Brazilian Olympic sprint and jump coaches. *Sports Medicine - Open*, 2023.

5. Olimov, M.S., Shakirjanova, K.T., Rafiyev, H.T., Smurigina, L.V., To‘xtaboyev, N.T. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari: yengil atletika: darslik. – Toshkent, 2018. – 376 b.

6. Olimov, M.S., Shakirjanova, K.T., Rafiyev, H.T., To‘xtaboyev, N.T., Smurigina, L.V. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati: darslik. – Toshkent, 2018. – 872 b.

7. Rafiyev, H.T., Olimov, M.S., To‘xtaboyev, N.T. Yosh yengil atletikachilarni tayyorlash nazariyasi va uslubiyati: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2016.

8. Soliyev, I.R. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorlash jarayonini tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti.

9. To‘xtaboyev, N.T., Shakirjanova, K.T., Soliyev, I.R. Qisqa masofalarga yugurish uslubiyati: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2016. – 186 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 81'255.4:811.161.1'373.421

Abdullayeva Shodiyona Nizamaddinovna,
Urganch davlat pedagogika instituti
O‘zga tilli guruhlarda rus tili yo‘nalishi talabasi

RUS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMADA SINONIMIK BIRLIKLARNING IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada rus tilidan o‘zbek tiliga tarjimada sinonimik birliklarning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tarjima jarayonida sinonimlarning ma’no, uslubiy va pragmatik jihatlarini saqlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, sinonimik birliklarni tarjima qilishda qo‘llaniladigan asosiy usullar, jumladan, to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalent va kontekstual moslashtirish usullari misollar asosida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari sinonimik birliklarning adekvat tarjimasi matn mazmuni va uslubiy xususiyatlarini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sinonim, sinonimik birlik, tarjima, tarjimashunoslik, ekvivalentlik, kontekstual moslashtirish, leksik birlik, rus tili, o‘zbek tili, tarjima usullari.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА СИНОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С РУССКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности передачи синонимических единиц при переводе с русского языка на узбекский язык. Освещаются вопросы сохранения смысловых, стилистических и прагматических особенностей синонимов в процессе перевода. На основе примеров анализируются основные способы перевода синонимических единиц, в том числе использование полных эквивалентов, частичных эквивалентов и контекстуальных соответствий. Результаты исследования показывают, что адекватная передача синонимических единиц способствует сохранению содержания и стилистических особенностей исходного текста.

Ключевые слова: синоним, синонимическая единица, перевод, переводоведение, эквивалентность, контекстуальное соответствие, лексическая единица, русский язык, узбекский язык, способы перевода.

THE PECULIARITIES OF TRANSLATING SYNONYMOUS UNITS FROM RUSSIAN INTO UZBEK

Abstract. This article examines the peculiarities of rendering synonymous units in translation from Russian into Uzbek. The study focuses on preserving the semantic, stylistic, and pragmatic features of synonyms during the translation process. Based on illustrative examples, the main methods of translating synonymous units, including full equivalence, partial equivalence, and contextual adaptation, are analyzed. The findings show that the adequate rendering of synonymous units plays an important role in preserving the content and stylistic characteristics of the source text.

Keywords: synonym, synonymous unit, translation, translation studies, equivalence, contextual adaptation, lexical unit, Russian language, Uzbek language, translation methods.

Til xalqlar o‘rtasidagi madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalarni ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Tillararo munosabatlarning rivojlanishida tarjima muhim o‘rin tutadi. Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan badiiy, publitsistik va ilmiy matnlar hajmining ortib borishi tarjima sifati masalasiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirmoqda. Tarjima jarayonida asliyat mazmunini to‘liq yetkazish bilan bir qatorda uning uslubiy va emotsional xususiyatlarini saqlab qolish ham muhim vazifalardan biri sanaladi [1]. Sinonimik birliklar tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim leksik vositalardir. Ular nutqning aniqligi, ta’sirchanligi hamda uslubiy rang-barangligini ta’minlaydi. Biroq bir tildagi sinonimik birliklarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ularning ma’no nozikliklari va uslubiy xususiyatlarini to‘liq saqlab qolish har doim ham oson emas. Shu sababli sinonimlarning tarjimada ifodalanish xususiyatlarini o‘rganish tarjima nazariyasi va amaliyotining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [2; 3]. Tarjima jarayonida sinonimik birliklarni tanlash masalasi ekvivalentlik, adekvatlik va leksik transformatsiyalar bilan bevosita bog‘liqdir. Tarjimon matn mazmunini saqlagan holda maqsadli til imkoniyatlaridan samarali foydalanishi lozim. Ayniqsa, rus va o‘zbek tillarining leksik-semantik tizimidagi farqlar sinonimik birliklarni tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi [4]. O‘zbek tilshunosligida sinonimlarning leksik-semantik tabiati, tasnifi va funksional xususiyatlari yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, rus tilidagi sinonimik birliklarning o‘zbek tiliga tarjima qilinish xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan [5; 6]. Shu bois mazkur masalani tadqiq etish tarjima sifatini oshirish, sinonimik birliklarning tarjimadagi o‘rnini aniqlash hamda tarjimashunoslikning nazariy masalalarini boyitish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot rus tilidan o‘zbek tiliga tarjimada sinonimik birliklarning ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Sinonimlar tilning leksik tizimida muhim o‘rin egallovchi birliklar bo‘lib, ular bir-biriga yaqin ma’noni ifodalashi bilan birga uslubiy, emotsional-ekspressiv va qo‘llanish doirasi jihatidan farqlanadi. Tilning boyligi va ifoda imkoniyatlari ko‘p

jihatdan sinonimik qatlamning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli sinonimik birliklar nafaqat tilshunoslikda, balki tarjimashunoslikda ham muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi [7]. Tarjima jarayonida sinonimik birliklarni ifodalash masalasi ekvivalentlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Har qanday tarjimaning asosiy vazifasi asliyat matnining mazmunini, uslubini va kommunikativ maqsadini boshqa til vositalari yordamida qayta yaratishdan iborat. Biroq turli tillarning leksik tizimi bir xil bo'lmaganligi sababli ayrim sinonimik birliklarning to'liq muqobilini topish qiyinchilik tug'diradi. Bunday holatlarda tarjimon matn mazmunini saqlab qolish maqsadida turli leksik vositalardan foydalanadi [1]. Rus tilida sinonimik qatorlar keng rivojlangan bo'lib, ular nutqning aniqligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, «говорить», «сказать», «произнести», «высказать» fe'llari umumiy ma'noda nutq faoliyatini bildirsa-da, ularning har biri ma'lum uslubiy va semantik farqlarga ega. Ushbu birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim holatlarda ularning barchasi «aytmoq» fe'li orqali berilishi mumkin bo'lsa, ba'zi vaziyatlarda «ta'kidlamoq», «bildirmoq», «bayon qilmoq» kabi variantlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu esa tarjimada sinonimik moslashuvning zarurligini ko'rsatadi [2].

Sinonimik birliklarni tarjima qilishda eng ko'p uchraydigan usullardan biri kontekstual almashtirish hisoblanadi. Mazkur usulda tarjimon lug'aviy muqobildan emas, balki matn mazmuniga mos keladigan variantdan foydalanadi. Chunki sinonimlarning ma'nosi ko'pincha kontekst orqali aniqlanadi. Tarjimada kontekst talablariga mos kelmaydigan sinonimning tanlanishi mazmunning buzilishiga yoki uslubiy ranglarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin [3]. Tarjima amaliyotida sinonimik birliklarning uslubiy xususiyatlarini saqlash ham muhim masalalardan biridir. Rus tilidagi ayrim sinonimlar kitobiy, rasmiy yoki so'zlashuv uslubiga xos bo'lishi mumkin. Tarjimon ushbu xususiyatlarni hisobga olmagan taqdirda matnning umumiy uslubiy yaxlitligi buziladi. Masalan, rasmiy uslubda qo'llanilgan «заявить» fe'lining oddiy «aytmoq» shaklida berilishi matnning uslubiy ta'sirini pasaytirishi mumkin. Shu sababli tarjimada «ma'lum qilmoq», «bayon etmoq» kabi uslubiy jihatdan mos variantlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [4]. Sinonimik birliklarni tarjima qilishda milliy-madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Har bir tilning o'ziga xos dunyoqarashi va madaniy tajribasi mavjud bo'lib, bu holat leksik birliklarda ham aks etadi. Ayrim ruscha sinonimlar o'zbek tilida bir nechta vositalar yordamida ifodalanishi yoki aksincha, bir necha sinonim bitta birlik orqali tarjima qilinishi mumkin. Natijada tarjimon mazmun va uslubning adekvat uzatilishini ta'minlash uchun mos variantni tanlashga majbur bo'ladi [8]. Rus tilidan o'zbek tiliga tarjimalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinonimik birliklar ko'pincha to'liq ekvivalent, qisman ekvivalent yoki kontekstual muqobil vositasida tarjima qilinadi. To'liq ekvivalentlar ikki tilning leksik tizimida mavjud bo'lgan hollarda qo'llanadi. Qisman ekvivalentlarda esa ma'no saqlanadi, biroq uslubiy yoki emotsional

bo‘yoqlarda ayrim tafovutlar kuzatiladi. Kontekstual muqobillar esa tarjimonning ijodiy yondashuvini talab qiluvchi holatlarda qo‘llaniladi. Tarjimashunoslikda sinonimik birliklarni tarjima qilish masalasi faqat lingvistik emas, balki pragmatik muammo sifatida ham qaraladi. Chunki tarjima qilingan matn maqsadli auditoriyaga tushunarli va tabiiy bo‘lishi lozim. Shu bois tarjimon sinonim tanlashda nafaqat lug‘aviy ma’noga, balki matnning kommunikativ vazifasi va o‘quvchining qabul qilish xususiyatlariga ham e’tibor qaratishi kerak. Badiiy asarlarda sinonimik birliklar qahramonning ruhiy holatini, muallifning munosabatini hamda matnning uslubiy ta'sirchanligini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. F.M. Dostoyevskiyning «Jinoyat va Jazo» romanida ham sinonimik birliklar qahramon xarakterini ochishda faol qo‘llanilgan. Ushbu birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ularning nafaqat lug‘aviy ma'nosi, balki uslubiy va emotsional bo‘yoqlarini ham saqlash muhim hisoblanadi.

Masalan, asarning bosh qismida quyidagi jumla uchraydi:

«Но столько злобного презрения уже накопилось в душе молодого человека...»

«Ammo yigitning qalbida shu qadar achchiq nafrat va jirkanish to‘planib qolgan ediki...»

Bu yerda «злобного» va «презрения» so‘zlari salbiy emotsional ma'noni kuchaytiruvchi sinonimik birliklar sifatida qo‘llangan. «Презрение» so‘zini oddiy «mensimaslik» tarzida tarjima qilish mumkin bo‘lsa-da, badiiy matnda «jirkanish» yoki «nafrat» variantlari qahramonning ichki kechinmalarini yanada tabiiyroq ifodalaydi. Yana bir misolda: «...волнение его возрастало всё сильнее и сильнее.» «Uning hayajoni tobora kuchayib borardi.»

Bu yerda «волнение» so‘zi kontekstga qarab «hayajon», «bezovtalik», «ichki iztirob» kabi sinonimik birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Tarjimon voqea rivojiga qarab ulardan eng mosini tanlashi lozim. Aks holda qahramonning psixologik holati to‘liq ochilmaydi .

Shuningdek, romanda «лохмотья» so‘zi bir necha marotaba uchraydi. Ushbu birlikni oddiy «eski kiyim» deb tarjima qilish mumkin bo‘lsa-da, «uvada kiyim», «yirtiq-yamoq kiyim» yoki «juldur kiyim» variantlari asliyatdagi salbiy bo‘yoqni aniqroq ifodalaydi. Bu holat sinonimik birliklarni tanlashda uslubiy moslashtirish muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Asarda quyidagi jumla uchraydi: «Я так и знал!... Это уж всего сквернее!» «Men shunday bo‘lishini bilgandim! Bu esa eng yomoni ekan!» Bu yerda «скверный» sifatining asosiy ma'nosi «yomon» bo‘lsa-da, matn mazmuniga qarab «jirkanch», «mudhish», «qabih», «o‘ta yomon» kabi sinonimik birliklardan ham foydalanish mumkin. Tarjimon voqeaning emotsional yukiga qarab eng mos variantni tanlaydi. Ushbu holatda «eng yomoni» varianti qahramonning ruhiy zo‘riqishini tabiiy ifodalagan.

Masalan, rus tilidagi “смотреть, глядеть, взглянуть, посмотреть, всматриваться” fe’llari umumiy ma’noda “qaramoq” harakatini bildiradi. Biroq ularning har biri nutqda alohida uslubiy va semantik yuklamaga ega. Shu sababli tarjimada ular qaramoq, boqmoq, tikilmoq, nazar tashlamoq, sinchiklab qaramoq kabi turli birliklar bilan ifodalanadi. Bunday tanlov matnning tabiiyligini saqlashga hamda muallif ko‘zlagan badiiy ta’sirni o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sifat turkumiga mansub sinonimik birliklarni tarjima qilishda ham kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rus tilidagi “грустный, печальный, унылый, тоскливый” sifatlari bir-biriga yaqin ma’noga ega bo‘lsa-da, ularning emotsional darajasi bir xil emas. Tarjimada ular “g‘amgin, ma’yus, dilxira, ko‘ngli cho‘kkan, mahzun” kabi turli vositalar bilan ifodalanadi. Tarjimon aynan qaysi sinonimni tanlashi matn mazmuniga va qahramonning ruhiy holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Fe’llar bilan bir qatorda ravishlar va otlar tarkibidagi sinonimlar ham tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi. Rus tilidagi “быстро, стремительно, мгновенно, поспешно” ravishlari o‘zbek tilida “tez, shiddat bilan, bir zumda, shoshilib” kabi turli shakllarda ifodalanadi. Har bir variant voqeaning sur’ati va emotsional bo‘yoqni turlicha aks ettiradi. Agar tarjimon ularning barchasini bir xil so‘z bilan bersa, matnning uslubiy rang-barangligi kamayadi.

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, sinonimik birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimon lug‘aviy ma'nodan tashqari matnning emotsional ta'siri, uslubi va pragmatik vazifasini ham hisobga olishi zarur. Aynan shu omillar tarjimaning tabiiyligi va badiiy qimmatini belgilaydi.

Masalan, rus tilidagi “смеяться, хохотать, улыбаться, умыкаться, хихикать” fe’llari umumiy ma’noda “kulmoq” harakatini bildiradi. Biroq ularning har biri nutqda alohida uslubiy va semantik yuklamaga ega. Shu sababli tarjimada ular kulmoq, qah-qah urmoq, tabassum qilmoq, miyig‘ida kulmoq, kıkırlamoq/pispislamoq kabi turli birliklar bilan ifodalanadi. Bunday tanlov matnning tabiiyligini saqlashga hamda muallif ko‘zlagan badiiy ta’sirni va qahramonning fe’l-atvorini o‘quvchiga ancha aniq yetkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sifat turkumiga mansub sinonimik birliklarni tarjima qilishda ham kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rus tilidagi “красивый, прекрасный, живописный, прекраснейший, великолепный” sifatlari bir-biriga yaqin ma’noga ega bo‘lsa-da, ularning emotsional darajasi va tasvir ob’ekti bir xil emas. Tarjimada ular “chiroyli, go‘zal, manzarali, tengsiz, shukuhli, hushro‘y” kabi turli vositalar bilan ifodalanadi. Tarjimon aynan qaysi sinonimni tanlashi matn mazmuniga va tasvirlanayotgan narsa yoki insonning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Fe’llar va sifatlar bilan bir qatorda ravishlar hamda otlar tarkibidagi sinonimlar ham tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi. Rus tilidagi “очень, крайне, чрезвычайно, весьма” ravishlari o‘zbek tilida “juda, nihoyatda, g‘oyat, g‘oyatda, poyonsiz” kabi turli shakllarda ifodalanadi. Har bir variant belgi yoki harakatning

darajasini hamda uslubiy bo‘yog‘ini turlicha aks ettiradi. Agar tarjimon ularning barchasini bir xil so‘z bilan bersa, matnning uslubiy rang-barangligi va ta’sirchanligi kamayadi.

Xuddi shunday holatni ot turkumiga mansub sinonimlar misolida ham ko‘rish mumkin. Rus tilidagi “ошибка, промах, оплошность, заблуждение” otlari o‘zbek tilida “xato, yanglishish, beparvolik, g‘afillik, adashish” kabi variantlarda namoyon bo‘ladi. Badiiy kontekstda oddiy xato bilan kutilmagan g‘afillik o‘rtasidagi masofani to‘g‘ri his qilish va mos sinonimni qo‘llash tarjimaning sifatini belgilaydigan asosiy omillardandir.

Insonning jismoniy holati va harakat usulini ifodalovchi fe’llarni tarjima qilishda ham sinonimik qatorning to‘g‘ri tanlanishi katta ahamiyatga ega. Masalan, rus tilidagi “бежать, мчаться, нестись, удирать, лететь” fe’llari umumiy ma’noda “yugurmoq” harakatini bildiradi. Biroq ularning har biri harakatning tezligi, sababi va sub’yektning kayfiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Tarjimada ular “yugurmoq, chopmoq, uchmoq, qochib qolmoq, juftakni, rostlamoq, yelday uchmoq” kabi turli birliklar bilan ifodalanadi. Harakatning oddiy yugurish yoki sarosimada qochish ekanligini his qilib, mos sinonimni qo‘llash matnning tasviriy kuchi va dinamikasini oshiradi.

Shuningdek, inson xarakteri, fe’l-atvori va xulq-atvorini ifodalovchi sifat sinonimlarini tarjima qilishda ham kontekst birinchi o‘ringa chiqadi. Masalan, rus tilidagi “смелый, храбрый, отважный, бесстрашный, дерзкий” sifatlari bir-biriga yaqin ma’noni anglatgani bilan, ularning emotsional bo‘yog‘i va ijobiy-salbiy darajasi turlicha. Tarjimada ular “korkmas, jasur, dovyurak, botir, haddidan oshgan, o‘zboshimcha” kabi vositalar orqali aks ettiriladi. Agar tarjimon kontekstni e’tiborga olmay, дерзкий so‘zini ijobiy ma’nodagi jasur deb o‘zbekchalashtirsa, muallif ko‘zlagan salbiy xarakter tasviri buzilishi va kitobxonda noto‘g‘ri taassurot uyg‘onishi mumkin.

Inson ruhiy kechinmalari va his-tuyg‘ularini ifodalovchi ot sinonimlari ham tarjimonda alohida e’tibor va nozik didni talab qiladi. Rus tilidagi “страх, ужас, испуг, боязнь, трепет” otlari umumiy ma’noda “qo‘rqinch” tushunchasini bersa-da, ularning har biri qo‘quvning darajasini turlicha namoyon etadi. O‘zbekcha tarjimada ular “qo‘rquv, vahima, daxshat, cho‘chish, xavfsirash, hayajon, titroq” kabi ko‘rinishlarda beriladi. Qahramonning yengil cho‘chib tushgani bilan ruhiyatini qoplab olgan vahima o‘rtasidagi farqni aniq sinonim orqali ajratib berish tarjimaning tabiiyligini ta’minlaydi.

Ravishlar va holat so‘zlari ham badiiy tasvirga o‘zgacha jilo va rang beruvchi vositalardandir. Masalan, rus tilidagi “тихо, бесшумно, шепотом, тайком, едва слышно” ravishlari o‘zbek tilida “sekin, shovqinsiz, shivirlab, bildirmay, yashirincha, arang eshitilib kabi turli shakllarda ifodalanadi. Har bir variant harakatning bajarilish tarzi va vaziyatdagi sirli muhitni turlicha gavdalantiradi.

Tarjimon ularning barchasini bir xil sekin so‘zi bilan cheklasa, badiiy matnning jozibasi va uslubiy rang-barangligi pasayadi.

Mazkur tadqiqot davomida rus tilidan o‘zbek tiliga tarjimada sinonimik birliklarning ifodalanish xususiyatlari o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sinonimlar tarjima jarayonida matn mazmuni va uslubini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Rus tilidagi sinonimik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ularning ma’nosi, qo‘llanish o‘rni hamda uslubiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tadqiqot natijasida sinonimik birliklarni tarjima qilishda to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalent va kontekstual moslashtirish usullaridan foydalanilishi aniqlandi.

Tarjimon tomonidan sinonimlarning to‘g‘ri tanlanishi asliyat mazmunining aniq va tabiiy ifodalanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim ruscha sinonimlarning o‘zbek tilida bir xil vosita orqali, ayrim hollarda esa turli leksik birliklar yordamida ifodalanishi kuzatildi. Bu holat ikki tilning leksik-semantik xususiyatlari bilan izohlanadi. Xulosa qilib aytganda, sinonimik birliklarning tarjimadagi o‘rnini o‘rganish tarjima sifatini oshirishga yordam beradi hamda rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi leksik munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.

2. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2002. – 424 с.

3. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.

4. Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – 215 с.

5. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 384 б.

6. Abjalilova M.A. O‘zbek tilidagi sinonimlar tasnifi. Zamonaviy filologiyaning dolzarb masalalari. – 2024.

7. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 216 с.

8. Hauer B., Kondrak G. Synonymy = Translational Equivalence. – 2020.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 004.77:378.147

Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o‘g‘li,
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KOMPYUTER TARMOQLARI FANINI O‘QITISHDA DASTURIY-DIDAKTIK TA’MINOTNI JORIY ETISH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada raqamlashtirish sharoitida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda dasturiy-didaktik ta’minotni joriy etish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinib, nazariy materiallar, virtual laboratoriyalar, amaliy topshiriqlar va avtomatlashtirilgan baholash vositalarini yagona raqamli ta’lim muhitida integratsiyalashga asoslangan metodika taklif etilgan. Natijalar metodikaning talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kompyuter tarmoqlari, raqamlashtirish, dasturiy-didaktik ta’minot, raqamli ta’lim muhiti, virtual laboratoriya, kasbiy kompetensiya.

МЕТОДИКА ВНЕДРЕНИЯ ПРОГРАММНО-ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «КОМПЬЮТЕРНЫЕ СЕТИ» В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация. В статье рассматривается методика внедрения программно-дидактического обеспечения в процесс преподавания дисциплины «Компьютерные сети» в условиях цифровизации. Проведен анализ современных подходов к организации образовательного процесса и предложена методика, основанная на интеграции теоретических материалов, виртуальных лабораторий, практических заданий и средств автоматизированного оценивания в единую цифровую образовательную среду. Полученные результаты свидетельствуют о том, что предложенная методика способствует развитию профессиональных компетенций студентов и повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: компьютерные сети, цифровизация, программно-дидактическое обеспечение, цифровая образовательная среда, виртуальная лаборатория, профессиональная компетентность.

METHODOLOGY FOR IMPLEMENTING SOFTWARE-BASED DIDACTIC SUPPORT IN TEACHING THE "COMPUTER NETWORKS" COURSE UNDER DIGITALIZATION CONDITIONS

Abstract. This article presents a methodology for implementing software-based didactic support in teaching the *Computer Networks* course under digitalization conditions. The study analyzes modern approaches to organizing the educational process and proposes a methodology based on integrating theoretical materials, virtual laboratories, practical tasks, and automated assessment tools into a unified digital learning environment. The findings indicate that the proposed methodology enhances students' professional competencies and improves the effectiveness of the teaching process.
Keywords: Computer Networks, digitalization, software-based didactic support, digital learning environment, virtual laboratory, professional competence.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonlari jadallashib, oliy ta'lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash texnologiyalari, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (Big Data), Internet of Things (IoT) hamda virtual va kengaytirilgan reallik kabi zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi o‘qitishning mazmuni, shakli va metodlarini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Natijada o‘quv resurslarini raqamli shaklda yaratish, ta'lim jarayonini individuallashtirish, masofaviy va gibrid ta'limni samarali tashkil etish hamda talabalar bilimini avtomatlashtirilgan baholash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda [3].

Raqamlashtirish sharoitida ta'lim sifati nafaqat elektron resurslardan foydalanish, balki ularni yagona didaktik tizim asosida loyihalash va ta'lim jarayoniga integratsiya qilish darajasiga ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan dasturiy-didaktik ta'minot o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. U elektron darsliklar, multimedia o‘quv materiallari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, test tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari, o‘quv analitikasi vositalari hamda avtomatlashtirilgan nazorat va baholash tizimlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur vositalarning kompleks qo‘llanilishi o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish, o‘quv materiallarini vizuallashtirish hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi asosiy fanlardan biri hisoblangan Kompyuter tarmoqlari fani zamonaviy raqamli infratuzilmalarni loyihalash, boshqarish va ulardan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Mazkur fan doirasida kompyuter tarmoqlarining arxitekturasi, tarmoq topologiyalari, OSI va TCP/IP modellari, ma'lumotlarni uzatish protokollari, marshrutlash va kommutatsiya texnologiyalari, IPv4 va IPv6 adreslash tizimlari, simsiz tarmoqlar, tarmoq

xavfsizligi, server xizmatlari hamda zamonaviy korporativ tarmoqlarni loyihalash va boshqarish masalalari o‘rganiladi. Ushbu mavzularni samarali o‘zlashtirish talabalardan nazariy bilim bilan bir qatorda real tarmoq qurilmalarini sozlash, tarmoqni modellashtirish va yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish bo‘yicha amaliy kompetensiyalarni ham talab etadi [4].

Biroq amaliy mashg'ulotlarni an'anaviy laboratoriya bazasida tashkil etish moddiy-texnik ta'minot, zamonaviy tarmoq uskunalarining yuqori narxi, laboratoriya resurslarining cheklanganligi hamda auditoriya vaqtining yetishmasligi kabi qator muammolar bilan bog'liq. Shu sababli Cisco Packet Tracer, GNS3, EVE-NG, VMware, VirtualBox kabi tarmoq simulyatorlari va virtual laboratoriyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday dasturiy vositalar yordamida talabalar murakkab tarmoq infratuzilmalarini virtual muhitda loyihalash, sozlash, sinovdan o‘tkazish va yuzaga keladigan nosozliklarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada o‘quv jarayonining amaliy yo‘naltirilganligi kuchayadi, o‘zlashtirish sifati oshadi hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi.

Shuningdek, dasturiy-didaktik ta'minotni ta'limning boshqaruv tizimlari (Learning Management System – LMS), elektron ta'lim platformalari, avtomatlashtirilgan test tizimlari va raqamli monitoring vositalari bilan integratsiyalash o‘quv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Bunday integratsiya o‘qituvchiga o‘quv materiallarini tizimli joylashtirish, amaliy topshiriqlarni masofadan tashkil etish, talabalar faoliyatini monitoring qilish hamda o‘quv natijalarini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Talabalar esa istalgan vaqt va joyda o‘quv resurslaridan foydalanish, mustaqil ta'limni tashkil etish va o‘z bilim darajasini muntazam nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish sharoitida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda dasturiy-didaktik ta'minotni joriy etish metodikasini ishlab chiqish hamda uning pedagogik samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida dasturiy-didaktik ta'minotning tarkibiy elementlari, ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bosqichlari, o‘qitish metodlari bilan o‘zaro bog'liqligi hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, taklif etilayotgan metodikaning nazariy asoslari, amaliy qo‘llash mexanizmlari va ta'lim sifatiga ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish hamda axborot texnologiyalari sohasida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi [5].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida raqamlashtirish sharoitida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda dasturiy-didaktik ta'minotni joriy etish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini asoslashga qaratilgan ilmiy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ta'limni

raqamlashtirish tamoyillari, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv va faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish konsepsiyalariga tayangan holda shakllantirildi. Mazkur yondashuvlar o‘quv jarayonining mazmuni, metodlari va raqamli vositalari o‘rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash imkonini berdi **[5].**

Tadqiqotning nazariy bosqichida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari hamda kompyuter tarmoqlarini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy dasturiy vositalar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida dasturiy-didaktik ta'minotning tarkibiy qismlari aniqlashtirildi hamda ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning metodik asoslari ishlab chiqildi **[3].**

Tadqiqotning amaliy bosqichida Kompyuter tarmoqlari fanining o‘quv dasturi, mavzular ketma-ketligi va o‘quv natijalari tahlil qilinib, har bir mavzu uchun mos raqamli o‘quv resurslari tanlandi. Dasturiy-didaktik ta'minot tarkibiga elektron o‘quv materiallari, multimedia vositalari, virtual laboratoriya ishlari, tarmoq simulyatorlari, amaliy topshiriqlar hamda bilimlarni avtomatlashtirilgan baholash elementlari kiritildi. Ushbu komponentlar yagona metodik tizim sifatida o‘zaro bog'liq holda tashkil etildi.

Metodikani joriy etish jarayonida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o‘zaro uyg'unlashtirildi. Talabalar nazariy bilimlarni elektron o‘quv resurslari orqali o‘zlashtirgan bo‘lsa, amaliy mashg'ulotlarda virtual laboratoriyalar va tarmoq simulyatorlari yordamida tarmoq topologiyalarini yaratish, qurilmalarni sozlash, marshrutlash protokollarini konfiguratsiya qilish hamda tarmoqdagi nosozliklarni aniqlash bo‘yicha topshiriqlarni bajardilar. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lash imkonini berdi.


Tadqiqot natijalarini baholashda pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so‘rovi, ekspert baholash hamda o‘quv natijalarini qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, dasturiy-didaktik ta'minotni qo‘llashning ta'lim sifati va talabalarning kasbiy kompetensiyalariga ta'siri tahlil qilindi. Natijalar metodikaning amaliy samaradorligini baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qildi [8].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitish jarayonini raqamli ta'lim muhitiga moslashtirishga xizmat qiluvchi dasturiy-didaktik ta'minotni joriy etish metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini yagona tizim asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda nazariy ta'lim, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, mustaqil ta'lim hamda bilimlarni nazorat qilish jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘langan.

Ishlab chiqilgan metodikada dasturiy-didaktik ta'minot o‘quv jarayonining mazmuni va maqsadlariga mos ravishda shakllantirildi. Unda fan bo‘yicha elektron o‘quv materiallari, multimedia resurslari, virtual laboratoriyalar, tarmoq simulyatorlari, amaliy topshiriqlar va test modullari yagona raqamli muhitga

integratsiya qilindi. Bunday yondashuv talabalarga nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini ham yaratdi [6].

Metodikani joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etildi. Dastlab fan mavzulari mazmuni tahlil qilinib, har bir mavzu uchun mos raqamli o‘quv resurslari tanlandi. Keyingi bosqichda nazariy materiallar virtual laboratoriya ishlari va amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirildi. Yakuniy bosqichda esa talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash avtomatlashtirilgan nazorat vositalari orqali amalga oshirildi. Bunday ketma-ketlik o‘quv jarayonining izchilligini ta'minlash bilan birga nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Metodikaning asosiy komponentlari va ularning o‘zaro bog'liqligi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Dasturiy-didaktik ta'minotning tarkibiy sxemasi

Metodikaning muhim jihatlaridan biritalabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilganidir. Raqamli ta'lim muhiti orqali o‘quv materiallaridan istalgan vaqtda foydalanish, amaliy topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish hamda o‘zlashtirish natijalarini tezkor baholash imkoniyati yaratildi. Natijada talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi oshdi, amaliy vazifalarni bajarishda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlandi va o‘zlashtirilgan bilimlarni real tarmoq muhitida qo‘llash malakalari shakllandi [8].

Pedagogik tajriba-sinov natijalari dasturiy-didaktik ta'minot asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning fan bo‘yicha nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar va tarmoq simulyatorlaridan foydalanish tarmoq qurilmalarini sozlash, marshrutlash va kommutatsiya jarayonlarini tushunish hamda

yuzaga keladigan nosozliklarni tahlil qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qildi.

Olingan natijalar ishlab chiqilgan metodikaning oliy ta'lim muassasalarida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Dasturiy-didaktik ta'minotdan tizimli foydalanish o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, ta'lim resurslaridan oqilona foydalanish va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishda dasturiy-didaktik ta'minotni tizimli ravishda joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. An'anaviy o‘qitish usullarida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lash imkoniyatlari cheklangan bo‘lsa, ishlab chiqilgan metodikada mazkur jarayon yagona raqamli ta'lim muhiti orqali tashkil etildi. Bu esa talabalarning o‘quv faoliyatida izchillikni ta'minlash bilan birga, nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni bajarish jarayonida mustahkamlash imkonini yaratdi [4].

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan virtual laboratoriyalar va tarmoq simulyatorlari o‘quv mashg'ulotlarini tashkil etishda muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur vositalar yordamida talabalar turli tarmoq topologiyalarini yaratish, qurilmalarni sozlash, ma'lumotlar almashinuvi jarayonlarini kuzatish hamda yuzaga keladigan nosozliklarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada amaliy mashg'ulotlarning mazmuni boyidi va talabalar real ishlab chiqarish muhitiga yaqin sharoitda ishlash tajribasini egalladilar **[7].**

Dasturiy-didaktik ta'minot tarkibiga kiritilgan elektron o‘quv resurslari va avtomatlashtirilgan baholash vositalari o‘quv jarayonini individuallashtirishga imkon berdi. Talabalar o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sur'atidan kelib chiqib mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar, o‘qituvchi esa ularning o‘zlashtirish darajasini tezkor monitoring qilish va zarur metodik yordam ko‘rsatish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Bu holat ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi.

Ishlab chiqilgan metodika kompetensiyaviy yondashuv talablariga ham mos keladi. Chunki unda talabalarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Nazariy mashg'ulotlar, virtual laboratoriyalar, amaliy topshiriqlar va mustaqil ta'limning o‘zaro uyg'unligi kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini berdi **[5].**

Shu bilan birga, metodikani joriy etish jarayonida ayrim tashkiliy omillarni ham inobatga olish zarur. Jumladan, ta'lim muassasasining texnik infratuzilmasi, internet tarmog'ining barqarorligi, zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari hamda professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari metodikaning amaliy samaradorligiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Mazkur omillar

yetarli darajada ta'minlanganda dasturiy-didaktik ta'minotning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar ishlab chiqilgan metodikaning oliy ta'lim muassasalarida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitishni takomillashtirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda samarali pedagogik yechim bo‘la olishini ko‘rsatdi. Mazkur metodika boshqa axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish jarayoniga ham moslashtirilishi mumkin.

Xulosa. Raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim tizimida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dasturiy-didaktik ta'minotni o‘quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar o‘rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlaydi, ta'lim jarayonini raqamli muhit asosida samarali tashkil etish imkonini yaratadi hamda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada o‘qitish jarayoni yanada moslashuvchan, interaktiv va kompetensiyaga yo‘naltirilgan tus oladi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodika elektron o‘quv resurslari, virtual laboratoriyalar, tarmoq simulyatorlari, multimedia materiallari, amaliy topshiriqlar, masofaviy ta'lim platformalari hamda avtomatlashtirilgan nazorat va baholash vositalarini yagona pedagogik tizimga integratsiyalashga asoslanadi. Mazkur integratsiya talabalarga nazariy bilimlarni amaliy muhitda sinab ko‘rish, murakkab tarmoq infratuzilmalarini modellashtirish, tarmoq qurilmalarini sozlash va yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal etish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun ta'lim jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish, o‘quv natijalarini tezkor tahlil etish va individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Taklif etilgan metodika talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mantiqiy va tahliliy fikrlashini shakllantirish, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda zamonaviy tarmoq texnologiyalaridan samarali foydalanish malakasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quv jarayonining interfaolligi va vizualligi ortishi natijasida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi, amaliy mashg'ulotlar samaradorligi va ta'lim natijalarining barqarorligi sezilarli ravishda yaxshilanadi. Bu esa bo‘lajak axborot texnologiyalari mutaxassislarini mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash uchun muhim pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Olingan ilmiy natijalar ishlab chiqilgan metodikaning oliy ta'lim muassasalarida Kompyuter tarmoqlari fanini o‘qitish sifatini oshirish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va ta'lim jarayonini boshqarish samaradorligini yuksaltirishda amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur metodika nafaqat ushbu fan,

balki axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi boshqa amaliy fanlarni o‘qitishda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal pedagogik yondashuv sifatida xizmat qiladi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda mazkur metodikani sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o‘qitish tizimlari, o‘quv analitikasi (Learning Analytics), ta'lim ma'lumotlarini intellektual tahlil qilish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari hamda bulutli laboratoriya platformalari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini yanada individuallashtirish, talabalarning o‘quv faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan o‘qitish strategiyalarini shakllantirish hamda raqamli ta'lim muhitining funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim tizimida zamonaviy, innovatsion va samaradorligi yuqori bo‘lgan o‘qitish metodikasini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-uslubiy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muqimov Sh. I. Ta’lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish // Tadqiqotlar.uz. – 2023. – №26. – B. 219–221.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni.
3. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. – Brussels: European Commission, 2021.
4. Prvan M., Ožegović J. Methods in Teaching Computer Networks // *ACM* Transactions on Computing Education. – 2020.
5. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
6. Cisco Networking Academy. Introduction to Packet Tracer. – Cisco Networking Academy, 2023.
7. Allison J. Simulation-Based Learning via Cisco Packet Tracer to Enhance the Teaching of Computer Networks // Proceedings of the ACM. – 2022.
8. Santyadiputra G., et al. Vilanets: An Advanced Virtual Learning Environment to Improve Higher Education Students' Learning Achievement in Computer Network Course // Cogent Education. – 2024. – Vol. 11.
9. Enhancing Practical Skills in Computer Networking: Evaluating the Unique Impact of Simulation Tools, Particularly Cisco Packet Tracer, on Student Learning Outcomes // Education Sciences. – 2024. – Vol. 14.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 378.147:37.091.3:004

Kushbakova Barno Batirkulovna,
Jizzax politexnika instituti
"Umumtexnika fanlari" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARDA TEXNOLOGIK FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion, raqamli va interfaol texnologiyalarni integratsiya qilish orqali talabalarning texnologik jarayonlarni tizimli tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga samarali yechim topish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil va kreativ fikrlash hamda innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, texnologik fikrlash, texnologik fikrlash kompetensiyasi, didaktik imkoniyatlar, raqamli texnologiyalar, smart texnologiyalar.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы дидактические возможности развития компетенций технологического мышления студентов на основе инновационных технологий. Освещены возможности формирования у студентов способности к системному анализу технологических процессов, эффективному решению проблемных ситуаций, применению теоретических знаний в практической деятельности, развитию самостоятельного и креативного мышления, а также принятию инновационных решений посредством интеграции современных инновационных, цифровых и интерактивных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: инновационные технологии, технологическое мышление, компетенция технологического мышления, дидактические возможности, цифровые технологии, смарт-технологии.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNOLOGICAL THINKING COMPETENCIES BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Abstract. This article presents a scientific and pedagogical analysis of the didactic opportunities for developing students' technological thinking competencies through innovative technologies. It highlights the potential of integrating modern innovative, digital, and interactive technologies into the educational process to foster students' ability to systematically analyze technological processes, effectively solve problem-based situations, apply theoretical knowledge in practical activities, develop independent and creative thinking, and make innovative decisions.

Keywords: innovative technologies, technological thinking, technological thinking competency, didactic opportunities, digital technologies, smart technologies.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning raqamli transformatsiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda innovatsion iqtisodiyotning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy mehnat bozori nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega, balki texnologik jarayonlarni tahlil qila oladigan, innovatsion yechimlar ishlab chiqadigan, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadigan hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalariga ega mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Shu bois ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo‘llash, talabalarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [1, 2].

Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning uslubiy asoslarini yoritishdan avval mazkur tadqiqotning asosiy kategoriyalarini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion texnologiyalar deganda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, bulutli xizmatlar, simulyatsion muhitlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta'lim hamda interfaol metodlarning uyg‘unlashgan tizimi tushuniladi. Mazkur texnologiyalar talabalarning bilimlarni faol o‘zlashtirishini, mustaqil izlanishini, ijodiy yondashuvini va amaliy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Texnologik fikrlash esa shaxsning texnik va texnologik jarayonlarni tizimli tahlil qilish, muammolarni ilmiy asosda hal etish, loyihalash, modellashtirish, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish hamda zamonaviy texnologiyalarni real amaliyotda qo‘llashga tayyorligini ifodalovchi integrallashgan kompetensiya hisoblanadi. Mazkur kompetensiya tanqidiy fikrlash, algoritmik tafakkur, tizimli yondashuv, muhandislik tafakkuri, raqamli savodxonlik va kreativlik kabi tarkibiy

komponentlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun texnologik fikrlashni rivojlantirish nafaqat texnik yo‘nalishdagi, balki barcha oliy ta'lim yo‘nalishlari uchun ham dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi ta'lim mazmunini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zaruratini kuchaytirdi. Bunda innovatsion texnologiyalar talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish, nazariy bilimlarni real muammolarni hal etishga yo‘naltirish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), muammoli o‘qitish (Problem-Based Learning), "flipped classroom", gamifikatsiya, virtual laboratoriyalar hamda sun'iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori didaktik salohiyatga ega.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi. O‘qituvchi endilikda bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, maslahat beruvchi va talabaning mustaqil o‘rganish faoliyatini boshqaruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Bunday yondashuv talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, ularning ijodiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, mazkur jarayonning metodik asoslarini aniqlash hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari, ularning texnologik fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga ta'siri hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarni rivojlantirishda foydalaniladigan materiallar va metodlar innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, talabalarning ijodiy salohiyatini ochishga va ularni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashga qaratilgan. Quyida bu jarayonda qo‘llaniladigan materiallar va metodlar haqida batafsil ma’lumot beriladi.

- elektron kitoblar va maqolalar: texnologik fikrlash kompetensiyasi va ijodiy muammolarni hal qilish haqida turli elektron manbalar.

- ta'lim platformalari: Coursera, Udemy, edX kabi platformalar, bu yerda talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kurslar mavjud.

- interaktiv ta'lim dasturlari: Duolingo, Khan Academy va boshqa interaktiv o‘quv platformalari.

Yuqorida keltirilgan materiallar va metodlar innovatsion texnologiyalar asosida talabalar texnologik fikrlash kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usullar talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini oshirish, murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga qaratilgan.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Interaktiv va muammoli ta'lim metodlari, guruhiy ishlash va rol o‘yinlari orqali talabalar darslarga faolroq jalb qilinadi. Bu, o‘z navbatida, ularning o‘rganish jarayonida ishtirok etish darajasini ko‘taradi. Innovatsion texnologiyalar va muammoli ta'lim metodlari talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi [5, 7].

Innovatsion texnologiyalar asosida talabalar texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotlar natijasida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari, akademik natijalari va zamonaviy muammolarni hal qilish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu innovatsion texnologiyalar talabalarning kelajakdagi professional faoliyatlariga tayyorgarlik ko‘rish va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga katta hissa qo‘shdi [3, 6].

Zamonaviy jamiyatning tezkor rivojlanishi va texnologik yangilanishlar, ta'lim sohasida ham katta o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Xususan, talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu kompetensiyalar zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni zamonaviy talim muhitiga moslashtirish va talabalarning o‘rganish jarayonini yaxshilash uchun zarur shartlarni yaratish muhimdir. Zamonaviy talim tizimida talabalarni texnologik fikrlashga o‘rgatish muhim vazifa hisoblanadi.

Texnologik fikrlash kompetensiyasi – bu shaxsning real muammolarni texnologik yondashuv asosida tahlil qilish, algoritmik va tizimli fikrlash orqali yechimlar ishlab chiqish, mavjud texnologiyalarni moslashtirish yoki yangisini yaratish layoqatidir.

Bundan tashqari texnologik fikrlash kompetensiyasi – bu talabaning zamonaviy texnologiyalarni anglash, ulardan ijodiy foydalanish, muammoni texnik jihatdan hal qilishga tayyorligini ifodalovchi murakkab, ko‘p komponentli kompetensiyadir [4]. Uni shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan o‘quv muhiti,

amaliy va tadqiqotga yo‘naltirilgan metodlar, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi, muhokama yurituvchi sifatida faol ishtiroki talab etiladi.

Jamiyatning yangilanishi ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgarishini, unga yangicha yondashuv hamda yangicha munosabatni talab qiladi. Talabalarga sifatli ta’lim va tarbiya berish, bilim, ko‘nikmalarini har tomonlama egallashlariga, kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxasisi bo‘lishlarida hamda o‘quv fanlarini o‘zlashtirib borishlariga yengillik yaratish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar o‘rganildi. Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning uslubiy asoslari - bu pedagogik jarayonlarni yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirish orqali talabalarni texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdir.

Natija. Zamonaviy jamiyatda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sanoatning innovatsion rivojlanishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha sohalarga keng joriy etilishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlaridan biri talabalarda zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash, texnologik jarayonlarni tahlil qilish, muammolarni innovatsion yondashuv asosida hal etish hamda raqamli muhitda mustaqil faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shu sababli texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Xususan, STEAM ta'limi, loyiha asosida o‘qitish, robototexnika, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), 3D modellashtirish, raqamli laboratoriyalar, sun'iy intellekt vositalari hamda zamonaviy ta'lim platformalaridan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga, ularning tahliliy, algoritmik va kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalar yordamida talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, texnologik jarayonlarni modellashtirish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish tajribasiga ega bo‘ladilar.


Shu nuqtai nazardan, didaktik imkoniyat tushunchasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Didaktik imkoniyat deganda ma'lum bir pedagogik vosita, metod yoki texnologiyaning ta'lim maqsadlariga erishish, o‘quv mazmunini samarali o‘zlashtirish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda zarur kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik salohiyati tushuniladi. Innovatsion texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari ularning interfaolligi, vizualligi, moslashuvchanligi, individuallashtirilgan ta'limni qo‘llab-

quvvatlashi, o‘quv natijalarini tezkor baholash imkoniyati hamda nazariya va amaliyotni integratsiyalash xususiyatlari bilan belgilanadi.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan didaktik shart-sharoitlarni ham yaratadi. Bu esa oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Didaktik imkoniyat – bu o‘quv jarayonida ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlaydigan sharoitlar, vositalar, metodlar va texnologiyalar yig‘indisidir.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayoniga tatbiq qilinganda, ular quyidagi didaktik imkoniyatlarni yaratadi (1-rasm).



1-rasm.

Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi asosiy didaktik imkoniyatlar

Innovatsion texnologiyalar asosida talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi asosiy didaktik imkoniyatlari

Vizual ko‘rgazmalilikni kuchaytirish – 3D modellar, AR/VR (kengaytirilgan va virtual reallik) vositalari orqali murakkab texnologik jarayonlar, mexanizmlar,

tizimlar real va vizual shaklda tasvirlanadi. Bu ko‘rgazmalilik prinsipi asosida talabaning tasavvur darajasi va tushunish qobiliyati ortadi.

Interaktivlikni oshirish – Innovatsion platformalar (simulyatorlar, raqamli labaratoriyalar, mashqlar generatori) yordamida talaba o‘z bilimini amalda sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Faollik, qiziqish va shaxsiy ishtirok ta’minlanadi – bu esa faol o‘quv faoliyatini rag‘batlantiradi.

Amaliyotga yaqinlashtirish – Real texnologik muhit virtual tarzda modellashtiriladi. Laboratoriya sinovlari, ishlab chiqarish texnologiyalari, dizayn va konstruktorlik tajribalari simulyatsiya qilinadi. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy qo‘llashni kuchaytiradi.

Muammoli fikrlashni faollashtirish – Loyiha va topshiriq asosida ta’lim metodikasi orqali talabalar murakkab muammoli vaziyatlarni tahlil qiladi. Bu ularda tanqidiy va algoritmik fikrlash, yechim ishlab chiqish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Fanlararo integratsiya (STEAM modeli) – STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Math) yondashuvi asosida bir necha fanlar uyg‘unlashtiriladi. Texnologik fikrlash kompetensiyasi fanlararo bog‘liqlikni anglash, tizimli va keng qamrovli yondashuvni shakllantirish orqali rivojlanadi.

Ijodiy va innovatsion yondashuvni shakllantirish – Talabalar o‘z texnologik g‘oyalari asosida yangi mahsulot, xizmat, dastur yoki uslub yaratishga yo‘naltiriladi. Bu esa ijodkorlik, eksperimentallik va innovatsion tafakkurni rivojlantiradi.

Individual va differensial yondashuv imkoniyati – Platformalar har bir talabaga mos tempda topshiriq, mashq yoki loyiha beradi. Bu moslashtirilgan o‘quv muhitini yaratish orqali shaxsiy o‘zlashtirish darajasiga qarab rivojlanishni ta’minlaydi.

Hamkorlikni kuchaytirish – Onlayn hamda oflayn jamoaviy ishlarda talabalar o‘z texnologik g‘oya va bilimlarini o‘rtoqlashadilar, rolli o‘yinlar, loyiha jamoalari va guruhli muammolar yechimi orqali kommunikativ, ijtimoiy va texnologik fikrlash kompetensiyasi birgalikda rivojlanadi.

Muhokama. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Bunday yondashuv, avvalo, ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalarni tizimli qo‘llash quyidagi natijalarga erishish imkonini berishini ko‘rsatadi:

murakkab muammolarni tizimli tahlil qilish va algoritmik yechimlarni ishlab chiqish;

zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini amaliy faoliyat orqali shakllantirish;

kreativ va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish;

jamoaviy hamkorlik, loyiha faoliyati va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish;

mas'uliyatli, xavfsiz va ongli texnologik yondashuvni shakllantirish;

raqamli muhitda mustaqil ta'lim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish.

Mazkur kompetensiyalarning shakllanishi zamonaviy ishlab chiqarish va raqamli iqtisodiyot talablariga mos, raqobatbardosh hamda innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi xorijiy olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy ishlarda innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari va amaliy mexanizmlari yoritilgan.

Xususan, Educating the Net Generation nomli ilmiy to‘plamda zamonaviy raqamli avlodning o‘ziga xos xususiyatlari, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri hamda talabalarda texnologik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan [7]. Ushbu tadqiqot ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Faithe Wempenning Digital Literacy for Dummies asarida raqamli savodxonlikning asosiy komponentlari, jumladan, axborot xavfsizligi, raqamli vositalardan samarali foydalanish, dasturiy ta'minot bilan ishlash hamda zamonaviy texnologik kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan [8].

Susan Manning va Kevin E. Johnsonning The Technology Toolbelt for Teaching qo‘llanmasida pedagoglarning innovatsion ta'lim vositalaridan samarali foydalanish usullari, interfaol metodlarni dars jarayoniga integratsiya qilish hamda raqamli ta'lim resurslarini yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan [9].

Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu) o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro e'tirof etilgan metodik asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalar modeli pedagoglarning raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali qo‘llashi, innovatsion o‘qitish metodlarini joriy etishi hamda talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni tavsiflaydi [9].

Leo Tan Wee Hin va R. Subramaniam tahriri ostida nashr etilgan Handbook of Research on New Media Literacy at the K–12 Level: Issues and Challenges to‘plamida yangi media savodxonligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati hamda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llashning ilmiy asoslari bayon etilgan [10].

Shuningdek, A. Balasubramanianning Integrating Technology in Higher Education asarida oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish

strategiyalari, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Katherine Blashki va Pedro Isaías tahriri ostidagi Emerging Research and Trends in Interactivity and the Human-Computer Interface ilmiy to‘plamida esa inson-kompyuter o‘zaro ta'siri, interfaol ta'lim texnologiyalari va zamonaviy pedagogik vositalarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar innovatsion texnologiyalar asosida texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini belgilashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarning tanqidiy, algoritmik va kreativ fikrlashini rivojlantirish, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirish hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularda innovatsion va texnologik tafakkurni shakllantirish hamda xalqaro mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogning kasbiy mahorati, raqamli kompetensiyasi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarning mustaqil izlanishi, ijodiy fikrlashi va texnologik muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim muhitini tashkil etuvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi zarur. Aynan shunday yondashuv innovatsion texnologiyalar asosida texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik samaradorligini ta'minlaydi va oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar asosida talabalarda texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Interaktiv ta'lim metodlari, loyihaviy ta'lim, raqamli va innovatsion texnologiyalar, kreativ ta'lim muhiti, murabbiylik tizimi, muammoga yo‘naltirilgan hamda kooperativ ta'lim yondashuvlari talabalarning texnologik fikrlashini, muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish hamda talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

3 Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

4 Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

5 Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2016.

6 Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.

7. Radianti J., Majchrzak T.A., Fromm J., Wohlgenannt I. A Systematic Review of Immersive Virtual Reality Applications for Higher Education: Design Elements, Lessons Learned, and Research Agenda // Computers & Education. – 2020. – Vol. 147. – Article 103778.

8 Perignat E., Katz-Buonincontro J. STEAM in Practice and Research: An Integrative Literature Review // Thinking Skills and Creativity. – 2019. – Vol. 31. – P. 31–43.

9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

10. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 373.3.016:811.111:37.091.3

Saparbayeva Sulıwxan Ken'esbay qızı,
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINIG NUTQIY KOMPETENSIYALARINI MULTIMODAL YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarinig nutqiy kompetensiyalarini multimodal yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni vizual, audial, kinestetik hamda raqamli vositalarning integratsiyasi orqali o'quvchilarning ingliz tilini o'zlashtirish samaradorligini oshirish muammolari, bilish faolligini kuchaytirish va motivatsiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqola multimodal vositalardan foydalanish tinglab tushunish, og'zaki nutq, o'qish va yozish ko'nikmalarining uzviy rivojlanishini ta'minlab, o'quvchilarning ingliz tilida erkin va samarali muloqot qilish malakasini mustahkamlash muommalarini o'rganishga xizmat qiladi.

Kalit sozlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutqiy kompetensiya, ingliz tilini o'zlashtirish, multimodal vositalar, erkin va samarali muloqot qilish.

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МУЛЬТИМОДАЛЬНОГО ПОДХОДА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы повышения эффективности усвоения английского языка учащимися начальных классов. Учебный процесс, организованный на основе мультимодального подхода к развитию речевых компетенций, посредством интеграции визуальных, аудиальных, кинестетических и цифровых средств, выступает важным педагогическим фактором для усиления познавательной активности и развития мотивации. В статье также исследуются вопросы укрепления у учащихся навыков свободного и эффективного общения на английском языке, поскольку использование мультимодальных средств обеспечивает органичное развитие навыков аудирования, устной речи, чтения и письма.

Ключевые слова: учащиеся начальных классов, речевая компетенция, усвоение английского языка, мультимодальные средства, свободное и эффективное общение.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

DEVELOPING THE SPEECH COMPETENCIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH A MULTIMODAL APPROACH AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. This article examines the development of speech competencies in primary school students through an educational process organized on a multimodal approach. The integration of visual, auditory, kinesthetic, and digital tools emerges as an important pedagogical factor in increasing the effectiveness of students' English language acquisition, enhancing cognitive activity, and developing motivation. The article serves to study how the use of multimodal tools ensures the integrated development of listening, speaking, reading, and writing skills, thereby strengthening students' ability to communicate freely and effectively in English.

Keywords: primary school students, speech competence, English language acquisition, multimodal tools, free and effective communication.

Hozirgi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini egallash zamonaviy shaxsning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro muloqot, ilm-fan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, biznes, iqtisodiyot va diplomatiya sohalarida yetakchi aloqa vositasi hisoblanadi. Jahon miqyosida ilmiy maqolalar, innovatsion ishlanmalar va raqamli axborot resurslarining asosiy qismi ingliz tilida yaratilayotgani mazkur tilni puxta egallash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ingliz tilidan 1,5 milliarddan ortiq kishi turli darajada foydalanadi, shundan qariyb 400 million nafari uni ona tili sifatida so'zlashadi (Ethnologue, 2023; British Council, 2022). Bu esa ingliz tilining global kommunikativ makondagi ustuvor mavqeini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini isloh qilish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashtirish jarayonida xorijiy tillarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda chet tillarini o'qitishni takomillashtirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, **"2030-yilgacha bo'lgan davrda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"**da umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, ularni boshlang'ich sinflardan boshlab samarali tashkil etish hamda xalqaro baholash mezonlariga mos kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifalar qatoriga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-son Farmoni, 2019). Mazkur vazifalar boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi chet tilini o‘rganishning eng muhim va mas’uliyatli davri hisoblanadi. Psixologik va psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalarda fonematik eshitish, taqlid qilish, eslab qolish va talaffuz ko‘nikmalari yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ular yangi til birliklarini tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega. Ushbu yosh davrida shakllangan til ko‘nikmalari keyingi bosqichlarda kommunikativ kompetensiyaning mustahkam rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish jarayonini ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Biroq amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish va tezkor o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Dars jarayonida ko‘pincha grammatik bilimlarni o‘zlashtirishga ustuvor e’tibor qaratilib, reproduktiv mashqlar asosiy o‘rin egallaydi. Natijada o‘quvchilarning tinglab tushunish, erkin muloqot qilish, fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalash hamda real kommunikativ vaziyatlarda tildan foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmay qolmoqda. Shuningdek, interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, raqamli ta’lim vositalari va multimodal yondashuv elementlaridan foydalanish imkoniyatlari amaliyotda to‘liq ro‘yobga chiqarilmayapti.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda multimodal yondashuv chet tilini o‘qitish samaradorligini oshiruvchi innovatsion metodlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yondashuv vizual, audial, kinestetik va raqamli vositalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning turli sezgi organlarini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi, natijada o‘quv materiali yanada chuqurroq o‘zlashtiriladi. Multimodal ta’lim o‘quvchilarning nutqiy faolligini, kommunikativ kompetensiyasini, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning darsga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini ham sezilarli darajada oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi nutqiy kompetensiyalarini multimodal yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish, mazkur yondashuvning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish hamda uni ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish bugungi pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimodal yondashuvning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning afzalliklarini asoslash hamda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv (competency-based approach) XX asrning ikkinchi yarmida kasbiy psixologiyadan pedagogika faniga ko’chib keldi. D. McClelland 1973-yilda e’lon qilgan mashhur maqolasida aql o’lchovi (IQ) o’rniga real hayotiy kompetensiyalarni baholashni taklif etdi. J. Raven esa

kompetensiyani “bilim, ko’nikma va motivatsiyaning yaxlit birligi” sifatida ta’rifladi va uni mavhum bilimdan keskin farqladi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli ta’lim zamonaviy pedagogikaning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. UNESCOning Global Education Monitoring Report (2023) hisobotida qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llanilgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari hamda akademik natijalari sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, hisobotda texnologiyaning o‘zi ta’lim sifatini avtomatik ravishda oshirmasligi, uning samaradorligi avvalo pedagogning kasbiy kompetensiyasi, metodik mahorati va raqamli vositalarni maqsadli integratsiya qila olishiga bog‘liqligi alohida ta’kidlangan.

Boshlang‘ich maktab yoshi (7–10 yosh) til o‘rganish nuqtai nazaridan inson rivojlanishining eng qulay bosqichlaridan biri hisoblanadi. Neyrolingvist olim Eric Lenneberg tomonidan ilgari surilgan **"Kritik davr gipotezasi"**ga ko‘ra, aynan shu davrda miyada tilni egallash bilan bog‘liq neyron tarmoqlari faol rivojlanadi va neyroplastiklik eng yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Natijada bolalar yangi fonemalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligini tez o‘zlashtirish, grammatik tuzilmalarni intuitiv ravishda anglash hamda chet tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini nisbatan oson egallaydilar. Yosh ulg‘aygani sari bu imkoniyatlar asta-sekin kamayib boradi. Shu sababli xorijiy tillarni aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichida ilmiy asoslangan metodikalar asosida o‘qitish yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar, jumladan Nargiza Mahkamova va Dilfuza Yusupovalarning ilmiy ishlarida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, didaktik o‘yinlar, vizual materiallar, rolli o‘yinlar va muloqot simulyatsiyalarining samaradorligi asoslab berilgan. Olimalar o‘quvchilarni faol muloqot muhitiga jalb etish ularning tinglab tushunish, og‘zaki nutq va lug‘at boyligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar. Biroq umumta’lim maktablari amaliyoti tahlili ayrim pedagoglarning hanuzgacha grammatika-tarjima metodiga ustuvor ahamiyat berayotganini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari esa yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatmoqda. Bu holat o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqot qilish kompetensiyasining to‘liq rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ilmiy-nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda nutqiy kompetensiyani shakllantirish faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni o‘rgatish bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Zamonaviy didaktika o‘quvchini

real yoki sun'iy yaratilgan kommunikativ vaziyatlarga jalb etish, uning barcha sezgi organlarini o‘quv jarayoniga faol safarbar qilish va o‘quv materialini turli axborot kanallari orqali taqdim etishni talab etadi. Aynan shu ehtiyoj multimodal yondashuvning ta'lim amaliyotidagi dolzarbligini belgilaydi.

Multimodal yondashuv — bu o‘quv materialini faqat matn orqali emas, balki tasvir, audio, video, animatsiya, imo-ishoralar, harakatlar va raqamli interaktiv vositalarning o‘zaro uyg‘unligi asosida taqdim etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik strategiyadir. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari Gunther Kress va Theo van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan multimodal semiotika konsepsiyasiga tayanadi. Olimlarning fikricha, zamonaviy kommunikatsiyada ma'no faqat yozma yoki og‘zaki matn orqali emas, balki turli semiotik resurslarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida vizual, verbal, audial va kinestetik vositalarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Multimodal yondashuvning psixologik-kognitiv asoslari Richard Mayer tomonidan ishlab chiqilgan "Multimedia Learning" nazariyasida yanada rivojlantirilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson miyasi axborotni asosan ikki mustaqil kanal — vizual va verbal kanallar orqali qabul qiladi hamda qayta ishlaydi. Agar ushbu kanallar pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyg‘unlashtirilsa, axborotni idrok etish, uzoq muddatli xotirada saqlash va amaliy faoliyatda qo‘llash samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Mayerning ko‘plab eksperimental tadqiqotlari multimedia vositalaridan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning bilimni tushunish, tahlil qilish va eslab qolish ko‘rsatkichlari an'anaviy ta'limga nisbatan yuqori ekanligini isbotlagan.

Boshlang‘ich ta'lim uchun Mayer tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi didaktik tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi:

multimedia prinsipi – matn, tasvir, audio va animatsiyaning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quv materialining chuqurroq o‘zlashtirilishini ta'minlaydi;

vaqt yaqinligi (temporal contiguity) prinsipi – mazmunan bog‘liq audio va vizual axborotning bir vaqtning o‘zida taqdim etilishi idrok jarayonining samaradorligini oshiradi;

fazoviy yaqinlik (spatial contiguity) prinsipi – matn va tasvirning bir-biriga yaqin joylashtirilishi kognitiv yuklamani kamaytiradi;

modallik prinsipi – grafik materiallarni yozma matndan ko‘ra og‘zaki izoh bilan birgalikda berish o‘quvchilarning tushunishini yaxshilaydi;

individual farqlar prinsipi – boshlang‘ich tayyorgarligi past bo‘lgan yoki yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchilar multimodal ta'lim vositalaridan ko‘proq foyda oladilar.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, multimodal yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Vizual, audial va kinestetik

faoliyatning uyg‘unligi o‘quvchilarning tinglab tushunish, og‘zaki nutq, lug‘at boyligi, talaffuz hamda kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois multimodal yondashuvni boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish metodikasiga keng tatbiq etish bugungi kun pedagogikasining dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Til ta’limida multimodal yondashuv o‘quv materialini turli axborot kanallari orqali yaxlit pedagogik tizim asosida taqdim etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilimni qabul qilish, qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo‘llash jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Multimodal ta’limda verbal, vizual, audial, kinestetik va raqamli vositalarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublarini hisobga olish, ularning bilish faolligini oshirish hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday yondashuv katta pedagogik ahamiyatga ega, chunki ushbu yosh davrida bolalar axborotni bir nechta sezgi organlari orqali qabul qilganda uni tezroq o‘zlashtiradilar va uzoq muddat xotirada saqlaydilar.

Multimodal yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri audio resurslar hisoblanadi. Qo‘shiqlar, she’rlar, ertaklar, dialoglar, podkastlar va audiokitoblar o‘quvchilarning tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, to‘g‘ri talaffuz, intonatsiya, urg‘u va ritmni tabiiy ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, autentik audio materiallardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilidagi tabiiy nutqni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Video resurslar multimodal ta’limning yana bir samarali komponenti hisoblanadi. Animatsion filmlar, ta’limiy videolar, videodialoglar, multfilmlar, virtual ekskursiyalar va simulyatsion lavhalar o‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida eshitish va ko‘rish analizatorlarini faollashtiradi. Natijada yangi leksik birliklar, grammatik konstruktsiyalar va nutqiy vaziyatlar kontekst asosida o‘zlashtiriladi. Vizual tasvirlar o‘quvchilarga so‘zlarning ma’nosini tarjimasiz anglash imkonini beradi, bu esa chet tilini tabiiy usulda egallash jarayonini tezlashtiradi.

Multimodal yondashuvda vizual vositalar ham alohida o‘rin egallaydi. Rasmlar, flashcard-kartochkalar, infografikalar, konseptual xaritalar, piktogrammalar, diagrammalar va illustratsiyalar yangi tushunchalarni obrazli qabul qilishga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar vizual xotiraning boshlang‘ich yoshdagi bolalarda nisbatan kuchli rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shu sababli tasviriy materiallardan samarali foydalanish yangi lug‘at boyligini shakllantirish, semantik bog‘lanishlarni hosil qilish va o‘quvchilarning uzoq muddatli xotirasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Matnli resurslar esa o‘qish savodxonligi va yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Qisqa hikoyalar, dialoglar, ertaklar, komikslar, elektron kitoblar va interaktiv matnlar o‘quvchilarning o‘qib tushunish, asosiy

g‘oyani aniqlash, yangi leksik birliklarni kontekst asosida o‘zlashtirish hamda yozma nutq malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Matnli materiallar vizual va audio vositalar bilan uyg‘unlashtirilganda o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi va nutqiy faolligi yanada ortadi.

Zamonaviy ta’limda interaktiv raqamli vositalar multimodal yondashuvning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Raqamli o‘yinlar, mobil ilovalar, onlayn platformalar, virtual sinflar, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalari, rolli o‘yinlar va kommunikativ simulyatsiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Gamifikatsiya elementlari, tezkor teskari aloqa (feedback), adaptiv topshiriqlar va raqamli baholash tizimlari o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ingliz tilida erkin muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini tahlil qilib, ularga mos topshiriqlarni taklif etishi bilan multimodal ta’lim imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Biroq multimodal vositalarning ta’limdagi samaradorligi ularning soni yoki texnik imkoniyatlari bilan emas, balki pedagogik jihatdan asoslangan holda tanlanishi va maqsadli qo‘llanilishi bilan belgilanadi. O‘quv maqsadiga mos kelmaydigan yoki ortiqcha vizual va audio effektlar bilan boyitilgan multimedia vositalari o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini oshirib, diqqatning asosiy o‘quv mazmunidan chalg‘ishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli multimedia resurslarini tanlashda Richard Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia ta’limi tamoyillariga amal qilish, axborotni bosqichma-bosqich taqdim etish hamda ortiqcha kognitiv yuklamaning oldini olish muhim metodik talab hisoblanadi.

Multimodal ta’lim samaradorligini belgilovchi yana bir muhim omil — o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasidir. Pedagog nafaqat zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishni bilishi, balki ularni didaktik maqsadlar bilan uyg‘unlashtira olishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi, ta’lim mazmunini moslashtirishi hamda multimedia materiallarining ilmiy ishonchliligini baholay olishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchi ta’lim jarayonida axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi va akademik halollik tamoyillariga rioya etishni ham ta’minlashi lozim. Demak, multimodal yondashuvning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogning metodik, raqamli va kommunikativ kompetensiyalariga bog‘liq.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda multimodal yondashuv asosida ingliz tilini o‘qitish va o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish murakkab, ko‘p omilli va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Birinchidan, ushbu jarayon biologik, psixologik, lingvistik, didaktik va ijtimoiy omillarning uzviy o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ikkinchidan, chet tilini samarali o‘qitishni ta’minlaydigan yagona

universal metod mavjud emas; yuqori natijaga kommunikativ, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan hamda multimodal yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi orqali erishiladi. Uchinchidan, boshlang‘ich maktab yoshi til o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan eng qulay davr bo‘lsa-da, ushbu imkoniyat faqat ilmiy asoslangan, metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan ta’lim jarayoni orqali to‘liq ro‘yobga chiqadi. To‘rtinchidan, o‘qituvchining metodik mahorati, raqamli kompetensiyasi va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga tayyorligi multimodal ta’limning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Beshinchidan, O‘zbekistonning ijtimoiy-lingvistik muhiti, milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud moddiy-texnik imkoniyatlari xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishni emas, balki uni mahalliy sharoitga moslashtirish, milliy ta’lim ehtiyojlariga javob beradigan ilmiy-metodik model va texnologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi. Shu bois multimodal yondashuvni boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish amaliyotiga izchil tatbiq etish, uning didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish hamda pedagoglarni ushbu yo‘nalishda tayyorlash zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ–637-son. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: PF–60-son Farmon. 2022-yil 28-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PF–5712-son Farmon. 2019-yil 29-aprel.
4. Mahkamova N., Yusupova D. Boshlang‘ich sinflarda xorijiy til ta’limi: muammolar va yechimlar // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – №3. – B. 45–52.
5. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
6. Kress G., Van Leeuwen T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. – London: Arnold Publishers, 2001. – 152 p.
7. Mayer R. E. Multimedia Learning. 2nd ed. – New York: Cambridge University Press, 2009. – 304 p.
8. British Council. The Future of English: Global Perspectives. – London: British Council, 2022.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
10. Ethnologue. Languages of the World. 26th ed. – Dallas, Texas: SIL International, 2023.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 373.3.015.31:37.017

Saidova D.Sh.,
ISFT instituti
pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari qadriyatga yo‘naltirilgan, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va o‘zini anglashga yo‘naltirilgan yondashuvlar uyg‘unligida tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va tarbiya sohasida olib borayotgan siyosati, Sharq mutafakkirlari merosi hamda zamonaviy yoshlar tarbiyasi, axloqiy rivojlanish va ijtimoiy-hissiy ta’lim g‘oyalari asosida yoritildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, kontekst tahlil, pedagogik modellashtirish va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullarining imkoniyatlari asoslandi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida halollik, hurmat, mas’uliyat, adolat va mehr-oqibat kabi qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi uslubiy namuna taklif etildi.

Kalit so‘zlar: axloqiy qadriyatlar, boshlang‘ich ta’lim, qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv, zamonaviy yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-hissiy ta’lim, oila-maktab hamkorligi, pedagogik modellashtirish.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье проанализированы теоретико-методические основы развития нравственных ценностей в начальном образовании в единстве ценностно-ориентированного, системного, личностно-ориентированного и рефлексивного подходов. Проблема освещена на основе государственной политики Республики Узбекистан в сфере образования и воспитания, наследия восточных мыслителей, а также современных идей воспитания молодёжи, нравственного развития и социально-эмоционального обучения. Обоснованы возможности анализа научной литературы, сравнительного анализа, контекстного анализа, педагогического моделирования и самоанализа. В результате предложена методическая модель, направленная на развитие у учащихся начальных классов таких ценностей, как честность, уважение, ответственность, справедливость и милосердие.

Ключевые слова: нравственные ценности, начальное образование, ценностно-ориентированный подход, современное воспитание молодёжи,

социально-эмоциональное обучение, сотрудничество семьи и школы, педагогическое моделирование.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF MORAL VALUES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing moral values in primary education through the integration of value-oriented, systemic, learner-centered, and reflective approaches. The issue is examined on the basis of the educational and upbringing policy of the Republic of Uzbekistan, the heritage of Eastern thinkers, and contemporary ideas of youth upbringing, moral development, and social-emotional learning. The study substantiates the potential of scholarly literature analysis, comparative analysis, contextual analysis, pedagogical modeling, and self-analysis. As a result, a methodological model aimed at developing such values as honesty, respect, responsibility, justice, and compassion among primary school pupils is proposed.

Keywords: moral values, primary education, value-oriented approach, contemporary youth upbringing, social-emotional learning, family-school cooperation, pedagogical modeling.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim shaxsning intellektual, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda ezgulik va yovuzlikni farqlash, me’yor va qoidalarga amal qilish, burch, adolat, halollik, hurmat, do‘stlik, mas’uliyat, vijdon hamda mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Mazkur qadriyatlar bolaning kelajakdagi shaxsiy fazilatlari, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy xulq-atvorining asosini tashkil etadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim bosqichida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish nafaqat tarbiyaviy, balki pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi.

Bolaning axloqiy rivojlanishi faqat nasihat yoki alohida tarbiyaviy tadbirlar orqali emas, balki o‘quv jarayonining mazmuni, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, sinfdagi psixologik muhit, tengdoshlari bilan muloqoti, oiladagi tarbiya hamda jamiyatda mavjud ijtimoiy-madaniy qadriyatlar ta’sirida amalga oshadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kuzatish, taqlid qilish va hissiy idrok etish orqali axloqiy me’yorlarni o‘zlashtiradilar. Shuning uchun axloqiy tarbiya barcha fanlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va maktabning umumiy tarbiyaviy muhiti bilan uzviy bog‘langan, ilmiy asoslangan hamda tizimli pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning asosiy

maqsadlaridan biri sifatida har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash belgilangan. Shuningdek, **"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"**da ma'naviy-axloqiy tarbiya uzluksiz jarayon sifatida oilada, maktabda, mahallada va keng jamoatchilik hamkorligida amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa boshlang'ich ta'limda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitining kengayishi bilan yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda bolalar axloqiy me'yorlar va xulq-atvor namunalarini nafaqat oila va maktabdan, balki internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, ommaviy axborot vositalari hamda virtual muloqot muhiti orqali ham o'zlashtirmoqda. Mazkur axborot oqimi ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, axloqiy qadriyatlarning noto'g'ri talqin qilinishi, tajovuzkorlik, individualizm va iste'molchilik kayfiyatining kuchayishi kabi salbiy ta'sirlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axloqiy tanlovni ongli amalga oshirish, hamdardlik, bag'rikenglik, mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar ham boshlang'ich ta'lim davrida ijtimoiy-hissiy ta'lim (Social and Emotional Learning – SEL) dasturlarini joriy etish o'quvchilarning axloqiy xulq-atvori, hissiy barqarorligi, muloqot madaniyati va ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarda o'zini boshqarish, hamkorlik qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish hamda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa axloqiy tarbiyaning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi ekanligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, qadriyatga yo'naltirilgan, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy-hissiy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligini asoslash, shuningdek, ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich ta'limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish hamda pedagogik amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Axloqiy qadriyat tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan axloqiy qadriyatlar insonning xulq-atvori va faoliyatini baholashga xizmat qiluvchi ma'naviy mezonlar tizimini ifodalaydi. Ular ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, burch va mas'uliyat kabi umuminsoniy tushunchalar orqali

namoyon bo‘ladi. Pedagogik jihatdan esa axloqiy qadriyatlar shaxsning jamiyatda o‘zini tutishi, ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishi hamda o‘z xatti-harakatlarini axloqiy me’yorlar asosida boshqarish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarda halollik, adolat, hurmat, vijdon, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, mas’uliyat va insonparvarlik kabi qadriyatlar alohida tushunchalar sifatida emas, balki kundalik hayotiy tajribalar, muloqot va amaliy faoliyat jarayonida o‘zaro uyg‘un holda shakllanadi.

Sharq mutafakkirlari asarlarida axloqiy tarbiya inson kamolotining ajralmas qismi sifatida talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida komil insonni tarbiyalashning asosini ezgulik, adolat, ilm-ma’rifat va yuksak axloq tashkil etishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti avvalo axloqan barkamol shaxslarni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq [3]. Abdulla Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani inson hayotidagi eng muhim omil sifatida baholab, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir", deya ta’kidlaydi [4]. Ushbu qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, axloqiy qadriyatlarni bolaga tayyor qoida sifatida singdirish emas, balki oila, maktab, jamiyat va shaxsiy tajriba uyg‘unligida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogika va rivojlanish psixologiyasida axloqiy rivojlanishning ilmiy asoslari keng tadqiq etilgan. J. Piaget bolalarda axloqiy tafakkurning shakllanishini ularning intellektual rivojlanishi, o‘yin faoliyati hamda tengdoshlari bilan hamkorligi orqali izohlaydi. Olimning fikricha, kichik yoshdagi bolalar dastlab qoidalarga tashqi talab sifatida qarasalar, keyinchalik ularning mazmunini anglab, mustaqil axloqiy baho bera boshlaydilar [8]. L. Kohlberg esa axloqiy rivojlanish nazariyasida axloqiy fikrlash evolyutsiyasini uch daraja va olti bosqich orqali izohlab, bolaning axloqiy qaror qabul qilish jarayoni yosh, ijtimoiy tajriba va ta’lim ta’sirida takomillashib borishini asoslaydi [6]. Ushbu nazariyalar boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning psixologik asoslarini belgilashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida esa bolaning shaxs sifatida shakllanishi ijtimoiy muloqot va hamkorlik faoliyati bilan uzviy bog‘liq ekanligi asoslab berilgan. Olim tomonidan ilgari surilgan **"yaqin rivojlanish zonasi"** konsepsiyasi axloqiy qadriyatlarning ham kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, birgalikdagi faoliyat hamda madaniy vositalar orqali shakllanishini tushuntiradi [7]. Bu yondashuv boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki axloqiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, muammoli vaziyatlarni tashkil etuvchi va o‘quvchini mustaqil axloqiy xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi shaxs sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy tadqiqotlarda T. Lickona axloqiy tarbiyaning asosini hurmat va mas’uliyat qadriyatlari tashkil etishini ta’kidlaydi. U axloqiy tarbiya bilim, hissiyot va xulq-atvorning uzviy

birligiga asoslanishi kerakligini qayd etadi [5]. M. Berkowitz va M. Bier tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa axloqiy tarbiya samaradorligi maktabning umumiy madaniy muhiti, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, ota-onalar bilan hamkorlik va o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatdagi ishtiroki bilan bevosita bog‘liqligi ilmiy asoslangan [11]. Ularning fikricha, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish faqat alohida fan yoki tarbiyaviy mashg‘ulotlar doirasida emas, balki butun ta’lim muhiti orqali amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy-hissiy ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) konsepsiyasi axloqiy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. CASEL va UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarga nisbatan hamdardlik bildirish, samarali muloqot qilish hamda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi ekanligi ta’kidlanadi [9; 10]. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda nafaqat axloqiy bilimlarni, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish murakkab va ko‘p omilli pedagogik jarayon bo‘lib, u falsafiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasini talab etadi. Milliy ma’naviy meros yosh avlodda vatanparvarlik, kattalarga hurmat, oila va jamiyat oldidagi mas’uliyat, mehr-oqibat va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilsa, zamonaviy xalqaro pedagogik konsepsiyalar axloqiy qadriyatlarni o‘quvchining mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalari hamda ongli axloqiy tanlov qilish qobiliyati bilan bog‘laydi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning samarali modeli milliy pedagogik an’analar va zamonaviy ilmiy yondashuvlarning uyg‘unligiga asoslanishi zarur. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat axloqiy bilimlarni, balki ularni kundalik hayotda ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, kontekst tahlil, pedagogik modellashtirish va o‘z-o‘zini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish tajriba-sinov natijalarini avvalo nazariy yondashuvlar va uslubiy imkoniyatlarni tizimlashtirish orqali asoslandi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili axloqiy tarbiya, axloqiy rivojlanish, xarakter tarbiyasi, ijtimoiy-hissiy ta’lim va oila-maktab hamkorligi bo‘yicha manbalarni umumlashtirishga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil milliy pedagogik meros bilan zamonaviy xalqaro yondashuvlar o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Kontekst tahlil darsliklar, sinf soati ishlanmalari va tarbiyaviy materiallarda qadriyatlarning qanday ifodalanishini o‘rganishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan usul sifatida asoslandi. Pedagogik modellashtirish esa boshlang‘ich ta’limda

axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini tarkibiy qismlar, bosqichlar va pedagogik shartlar bilan ifodalashga yordam berdi. Har bir usulning qo‘llanish chegarasi mavjud. Masalan, adabiyotlar tahlili nazariy xulosalarni beradi, biroq o‘quvchi xulqining real dinamikasini to‘liq ko‘rsatmaydi. Kontekst tahlil o‘quv materiallaridagi qadriyat mazmunini aniqlaydi, ammo bola bu mazmunni qanday qabul qilayotganini alohida kuzatuv yoki suhbat talab qiladi. Kuzatuv metodi tabiiy xulqni qayd etishga qulay, lekin kuzatuvchining subyektiv talqini ta’sirini kamaytirish uchun aniq mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Shuning uchun ham axloqiy qadriyatlarni o‘rganishda bir qancha o‘zaro to‘ldiruvchi metodlarni tizim sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Natijalar tahlili. Tahlil natijasida boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning uslubiy namunasi nazariy ishlab chiqildi. Namunaviy modelning markazida o‘quvchining axloqiy tanlovi turadi. Chunki qadriyat shunchaki eslab qolingan qoida emas; u real vaziyatda tanlov qilish, tanlov oqibatini anglash va o‘z xatti-harakatini baholash jarayonida ichki e’tiqodga aylanadi. Namunaviy model maqsad, mazmun, usul, faoliyat, hamkorlik va o‘zini tahlil qilish tarkibiy qismlaridan iborat.

Maqsad tarkibiy qismi o‘quvchida halollik, hurmat, adolat, mas’uliyat, mehr-oqibat va hamkorlik qadriyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazmun tarkibiy qismi dars mavzulari, bolalar adabiyoti, hayotiy voqealar, sinf qoidalari, milliy an’analar va ijtimoiy-hissiy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Usul tarkibiy qismida suhbat, muammoli vaziyat, rolli o‘yin, guruhli vazifalar, hikoya tahlili, murakkab axloqiy tanlov va amaliy topshiriqlardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Namunaviy modelning muhim sharti - oila va maktab hamkorligidir. Boshlang‘ich sinfda bu hamkorlik ota-onalar yig‘ilishi bilangina cheklanmasligi kerak. “Haftaning qadriyati”, uyda bajariladigan kichik tarbiyaviy topshiriqlar, ota-onalar uchun qisqa tavsiyalar, birgalikda kitob o‘qish va oilaviy suhbatlar axloqiy mazmunni maktabdan oilaga, oiladan maktabga uzatadi.

1-jadval. Boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish namunasining tarkibiy qismlari

Tarkibiy qism	Mazmuni	Metodlar	Kutiladigan natija
Maqsad	Axloqiy tanlov, mas’uliyat va hamdardlikni rivojlantirish	Maqsadli tarbiyaviy vazifa, sinf qoidalari	Qadriyatli yo‘nalish
Mazmun	Halollik, hurmat, adolat, mehr-oqibat, hamkorlik	Matn tahlili, hayotiy voqea, bolalar adabiyoti	Qadriyat tasavvurlari

Faoliyat	O‘quvchining amaliy ishtiroki va ijtimoiy tajribasi	Rolli o‘yin, guruhli vazifa, murakkab axloqiy tanlov	Xulqiy ko‘nikma
Hamkorlik	Oila, maktab va mahalla talablarining uyg‘unligi	Ota-onalar bilan topshiriq, haftalik vazifa	Barqaror tarbiyaviy muhit
O‘zini tahlil qilish	Xatti-harakat oqibatini anglash va baholash	O‘zini tahlil qilish savollari, kuzatuv kundaligi	O‘zini tahlil qilish

Namunani amaliyotga joriy etishda o‘qituvchi shaxsiy namunasi alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich yoshdagi bola o‘qituvchining gapidan ko‘ra uning munosabatini, adolatli baholashini, va’dasiga sodiqligini va sinfdagi nizolarni qanday hal qilishini tezroq o‘zlashtiradi. Shu sababli axloqiy tarbiya darsdan tashqari “qo‘shimcha” ish emas, balki har bir pedagogik vaziyatning ichki mazmuni sifatida qaralishi kerak.

Baholash masalasida ham ehtiyotkor yondashuv zarur. Axloqiy tarbiyada baholash bolaning shaxsini “yaxshi” yoki “yomon” deb tamg‘alashga emas, ijobiy o‘zgarishni ko‘rish, xatoni anglash, kechirim so‘rash, yordam berish va mas’uliyatni qabul qilish kabi kichik siljishlarni qayd etishga xizmat qilishi kerak. Shu ma’noda kuzatuv mezonlari xulqiy namoyon, muloqot madaniyati, hamkorlikka tayyorlik va o‘zini tahlil qilish fikrlari asosida ishlab chiqilishi mumkin.

Muhokama. Olingan nazariy xulosalar boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish ko‘p bosqichli va murakkab jarayonligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, milliy tarbiya an’analari bolaning oila, mahalla, kattalar va Vatan oldidagi mas’uliyatini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, zamonaviy yosh tarbiyasi va ijtimoiy-hissiy ta’lim yondashuvlari qadriyatlarni faqat tashqi intizom talabi sifatida emas, balki ichki anglash, hamdardlik va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasi sifatida talqin qiladi. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi.

Durlak va hammualliflarining olib borgan tadqiqotlarida ijtimoiy-hissiy ta’lim dasturlarining o‘quvchilarda ijtimoiy xulq va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi [9]. Taylor va hammualliflarining tadqiqotlarida esa maktablardagi ijtimoiy-hissiy ta’lim dasturlari uzoq muddatli ijobiy rivojlanish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [10]. Bu natijalar boshlang‘ich ta’limdagi axloqiy tarbiyani alohida “tarbiyaviy soat”ga qisqartirish emas, balki dars mazmuni, muloqot, guruhli vazifalar va o‘zini tahlil qilish bilan uyg‘unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Kohlberg, Piaget va Vygotskiy qarashlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining axloqiy fikrlashi hali rivojlanish jarayonida ekanini ko‘rsatadi [6; 7; 8]. Demak, o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan yetuk axloqiy hukm kutmasligi, balki uni savol berish, vaziyatni tahlil qilish, tengdoshining hissiyotini tushunish va o‘z xatti-harakatini qayta ko‘rib chiqish kabi yo‘naltiruvchi faoliyatni tizimli olib borishi

kerak. Bunda rolli o‘yin, murakkab axloqiy tanlov, guruhli muhokama va o‘zini tahlil qilish savollari samarali uslubiy vosita bo‘la oladi.

Maqola asosan nazariy-uslubiy taxlilga asoslangan bo‘lib unda taklif etilgan metodik model samaradorligini real sinf sharoitida tashxislash, kuzatuv, suhbat, ota-onalar fikri va o‘quvchining o‘zini tahlil qilishi orqali tekshirish keyingi tadqiqotlar vazifasi bo‘lib qoladi. Shuningdek, kelgusida darsliklardagi axloqiy qadriyatlar ifodasini mazmuniy tahlil qilish, kuzatuv mezonlarini ishlab chiqish va boshlang‘ich sinflarda amaliy sinovdan o‘tkazish zarur.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi hamda mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Aynan boshlang‘ich maktab yoshida bolalarda halollik, adolat, hurmat, mas’uliyat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, hamkorlik va vatanparvarlik kabi umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarning dastlabki asoslari shakllanadi. Shu bois ushbu davrda olib boriladigan tarbiyaviy faoliyat bolaning keyingi shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni qadriyatga yo‘naltirilgan, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda o‘zini anglashga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi asosida samarali tashkil etilishini ko‘rsatdi. Axloqiy qadriyatlar o‘quvchiga tayyor qoida yoki talab sifatida emas, balki hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, shaxsiy tajriba, o‘qituvchi namunasi hamda refleksiya jarayonlari orqali singdirilgandagina barqaror xulq-atvor mezoniga aylanadi. Shu jihatdan zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazariy manbalar tahlili milliy pedagogik meros va zamonaviy xalqaro ilmiy yondashuvlar o‘rtasida uzviy uyg‘unlik mavjudligini tasdiqladi. Abu Nasr Forobiy va Abdulla Avloniy ta’limotlari axloqiy tarbiyaning ma’naviy-falsafiy asoslarini belgilab bersa, J. Piaget, L. S. Vygotskiy, L. Kohlberg, T. Lickona, M. Berkowitz, J. Durlak, R. Taylor hamda J. Epsteinlarning ilmiy ishlari axloqiy rivojlanish, ijtimoiy-hissiy ta’lim, shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash va oila–maktab hamkorligining ilmiy-metodik asoslarini yoritib beradi. Mazkur nazariy qarashlarning integratsiyasi boshlang‘ich ta’limda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning samarali modelini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan uslubiy model maqsad, mazmun, pedagogik metodlar, o‘quv faoliyati, oila va maktab hamkorligi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi tahlil qilishi va baholashini qamrab oluvchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizim sifatida tavsiya etildi. Mazkur model axloqiy qadriyatlarni alohida tarbiyaviy tadbirlar doirasida emas, balki barcha fanlar mazmuni, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyat hamda ijtimoiy muhit bilan

integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafaqat axloqiy bilimlarni, balki ularni kundalik hayotda amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy tarbiya mazmunini raqamli madaniyat, media savodxonlik, internet makonida mas’uliyatli xulq-atvor, kiberxavfsizlik va raqamli etikaga oid kompetensiyalar bilan boyitish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa boshlang‘ich ta’lim tizimida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda taklif etilgan nazariy-uslubiy modelning eksperimental samaradorligini sinovdan o‘tkazish, axloqiy qadriyatlarning shakllanish darajasini baholash mezonlari va diagnostik indikatorlarini ishlab chiqish, shuningdek, raqamli pedagogik vositalardan foydalangan holda axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni**.** O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr. – Toshkent. – URL: https://lex.uz/docs/5013007 (murojaat qilingan sana: 10.05.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 1059-son, 2019-yil 31-dekabr. – Toshkent. – URL: https://lex.uz/docs/4676839 (murojaat qilingan sana: 10.05.2026).
3. Forobiy, A. N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 320 b.
4. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – 160 b.
5. Lickona, T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991. – 496 p.
6. Kohlberg, L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 441 p.
7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge (MA): Harvard University Press, 1978. – 159 p.
8. Piaget, J. The Moral Judgment of the Child. – London: Kegan Paul, Trench, Trubner & Co., 1932. – 416 p.
9. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // *Child Development*. – 2011. – Vol. 82, No. 1. – P. 405–432.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 37.02:004.8

Eldorbekova Sojidaxon Iskandarbek qizi,
International school of finance technology and science instituti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Sun’iy intellekt vositalarining o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilish faolligi va o‘quv motivatsiyasini oshirish, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini ona tili, o‘qish, matematika va boshqa fanlarni o‘qitishda qo‘llashning didaktik imkoniyatlari hamda ularni joriy etish bilan boG‘liq pedagogik va axloqiy jihatlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, sun’iy intellekt, generativ sun’iy intellekt, pedagogik texnologiyalar, adaptiv o‘qitish, raqamli transformatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli kompetensiya, ta’lim samaradorligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические возможности использования технологий искусственного интеллекта в процессе начального образования. Освещена роль инструментов искусственного интеллекта в индивидуализации образовательного процесса, повышении познавательной активности и учебной мотивации учащихся, а также в поддержке профессиональной деятельности учителя. Кроме того, рассмотрены дидактические возможности применения технологий искусственного интеллекта при преподавании родного языка, чтения, математики и других учебных предметов, а также педагогические и этические аспекты их внедрения. Результаты исследования показывают, что целенаправленное и педагогически обоснованное использование технологий

искусственного интеллекта способствует повышению качества начального образования, развитию компетенций учащихся и обеспечению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: начальное образование, искусственный интеллект, генеративный искусственный интеллект, педагогические технологии, адаптивное обучение, цифровая трансформация, личностно-ориентированное обучение, компетентностный подход, цифровая компетентность, эффективность образования.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE EFFECTIVE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE PRIMARY EDUCATION PROCESS

Abstract. This article analyzes the pedagogical opportunities for using artificial intelligence technologies in primary education. It highlights the role of artificial intelligence tools in personalizing the educational process, enhancing pupils' cognitive activity and learning motivation, and supporting teachers' professional practice. In addition, the study examines the didactic potential of applying artificial intelligence technologies in teaching language and literacy, mathematics, and other primary school subjects, as well as the pedagogical and ethical aspects of their implementation. The findings indicate that the purposeful and pedagogically grounded use of artificial intelligence technologies contributes to improving the quality of primary education, developing learners' competencies, and increasing the effectiveness of the educational process.

Keywords: primary education, artificial intelligence, generative artificial intelligence, pedagogical technologies, adaptive learning, digital transformation, learner-centered education, competency-based approach, digital competence, educational effectiveness.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) tizimlarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari qatori ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ta'limni raqamlashtirish jarayoni o'qitish mazmuni, metodlari va vositalarini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Adaptiv ta'lim platformalari, aqlli o'quv tizimlari, virtual yordamchilar, avtomatlashtirilgan baholash vositalari hamda generativ sun'iy intellekt

platformalari o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati va qiziqishlarini tahlil qilish asosida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini bermoqda. Natijada ta’lim jarayoni yanada moslashuvchan, interaktiv va samarali tus olmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarda savodxonlik, mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur, ijodkorlik, muloqot madaniyati va muammolarni hal etish kompetensiyalari shakllanadi. Mazkur bosqichda sun’iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ta’lim motivatsiyasini kuchaytirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda o‘zlashtirish darajasini muntazam monitoring qilish imkonini yaratadi. Ayniqsa, o‘quv materiallarini har bir o‘quvchining bilim darajasi va psixologik xususiyatlariga moslashtirish ta’limning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Sun’iy intellekt vositalari o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular yordamida dars ishlanmalari, taqdimotlar, test va topshiriqlarni qisqa vaqt ichida tayyorlash, differensial o‘quv materiallarini ishlab chiqish, baholash jarayonini avtomatlashtirish, o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish hamda individual tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu esa o‘qituvchining ijodiy va metodik faoliyatiga ko‘proq vaqt ajratishiga, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, axborotlarning ishonchliligi, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamda sun’iy intellektdan me’yorida foydalanish masalalari ilmiy va metodik jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi. Sun’iy intellekt o‘qituvchi faoliyatini to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki pedagogik jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi va uning samaradorligini oshiruvchi innovatsion texnologiya sifatida qaralishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rnini aniqlash, shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishdagi ahamiyatini yoritish hamda sun’iy intellekt vositalarini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda raqamli pedagogikani rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ularning ta’lim tizimiga keng tatbiq etilishiga zamin yaratdi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda o‘qituvchining kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. UNESCO, OECD

hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida sun'iy intellektdan foydalanishda pedagogik maqsadga muvofiqlik, inklyuzivlik, axborot xavfsizligi va akademik halollik tamoyillariga rioya qilish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt inson tafakkuriga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish kabi intellektual jarayonlarni kompyuter tizimlari yordamida amalga oshirishga qodir texnologiyalar majmui sifatida tavsiflanadi. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt vositalarining rivojlanishi matn, tasvir, audio va video kontentlarni avtomatik yaratish imkonini berib, ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ko'plab tadqiqotchilar sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik afzalliklarini shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish imkoniyatlari bilan izohlaydilar. Adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari va individual xususiyatlarini tahlil qilib, ularga mos o'quv materiallari hamda topshiriqlarni tavsiya etadi. Natijada ta'lim jarayoni moslashuvchan tus olib, har bir o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'limga oid ilmiy manbalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Interaktiv o'quv platformalari, virtual yordamchilar, aqlli repetitorlar hamda generativ sun'iy intellekt vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda qiziqarli va vizual o'quv muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirishning samarali vositasi sifatida baholanadi. U dars ishlanmalarini tayyorlash, didaktik materiallar yaratish, test va baholash topshiriqlarini ishlab chiqish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish hamda ta'lim sifatini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, aksariyat olimlar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda pedagogning nazorati saqlanib qolishi, axborotlarning ishonchliligi tekshirilishi hamda texnologiyalardan foydalanish pedagogik maqsadlarga xizmat qilishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Biroq ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, metodik jihatdan asoslangan hamda pedagogik nazorat ostida qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy

yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va qiyosiy tahlil yondashuvlari asos qilib olindi.

Tadqiqotning nazariy asosini sun’iy intellekt, raqamli pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Amaliy tahlilda sun’iy intellekt vositalarining boshlang‘ich ta’limdagi didaktik imkoniyatlari o‘rganildi. Jumladan, adaptiv ta’lim platformalari, generativ sun’iy intellekt, virtual yordamchilar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘quv motivatsiyasi va bilish faolligiga ta’siri pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining dars ishlanmalari, taqdimotlar, testlar va differensial topshiriqlarni tayyorlashdagi samaradorligi baholandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda mantiqiy tahlil, taqqoslash, sintez va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish o‘qituvchining metodik faoliyatini takomillashtirish, darslarni samarali tashkil etish hamda o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning ayrim amaliy yo‘nalishlari keltirilgan.

Sun’iy intellekt vositasi	**Boshlang‘ich ta’limdagi qo‘llanilishi**	**Boshlang‘ich ta’limdagi qo‘llanilishi**
ChatGPT	Dars ishlanmalari, testlar, matnlar, hikoyalar va ijodiy topshiriqlar tayyorlash	O‘qituvchining vaqtini tejaydi, ta’lim mazmunini boyitadi
Microsoft Copilot	Taqdimotlar, dars ishlanmalari va o‘quv materiallarini yaratish	Darslarni vizual va tizimli tashkil etishga yordam beradi
Google Gemini	Mavzularni sodda tilda tushuntirish, mashq va savollar tuzish	O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos materiallar yaratadi
Canva AI	Rasmlar, infografikalar va didaktik ko‘rgazmalar tayyorlash	Darslarning ko‘rgazmaliligini va qiziqarliligini oshiradi
Quizizz AI	Testlar va interaktiv viktorinalar yaratish	Bilimlarni nazorat qilish va o‘quv motivatsiyasini oshiradi

Jadvalda keltirilgan vositalar boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning faqat ayrim yo‘nalishlarini aks ettiradi. Ularning samarali qo‘llanilishi o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi, pedagogik mahorati hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanishiga boG‘liq. Shu sababli mazkur texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga joriy etishda metodik tavsiyalar ishlab chiqish, pedagoglarni qayta tayyorlash va raqamli savodxonlikni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt vositalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilish faolligi va o‘quv motivatsiyasini oshirish, o‘qitish sifatini yaxshilash hamda o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining dars ishlanmalarini tayyorlash, interaktiv taqdimotlar va didaktik materiallar yaratish, differensial topshiriqlar ishlab chiqish, o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish hamda baholash jarayonini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish o‘qituvchilarning vaqtini tejash, ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim resurslarini qisqa muddatda sifatli tayyorlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga joriy etishda ularning pedagogik, psixologik va axloqiy jihatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan axborotlar doimo tanqidiy tahlil qilinishi, ularning ilmiy ishonchliligi tekshirilishi hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilishi lozim. Texnologiyalardan foydalanish jarayonida shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, akademik halollik tamoyillariga rioya qilish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi texnologiya emas, balki uning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshiruvchi innovatsion pedagogik vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot davomida olingan natijalar boshlang‘ich ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim platformalari, aqlli baholash tizimlari va virtual o‘quv yordamchilarining samaradorligini eksperimental tadqiqotlar asosida baholash hamda ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar va maxsus o‘quv dasturlarini muntazam tashkil etish.

2. Boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.

3. Dars jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish, ularning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tafakkuri va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlarga ustuvor ahamiyat berish.

4. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan o‘quv materiallari va baholash vositalarini pedagogik ekspertizadan o‘tkazish, ularning ilmiy asoslanganligi, metodik to‘g‘riligi va davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash.

5. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy-me’yoriy asoslarini mustahkamlash, akademik halollik tamoyillariga rioya etish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Boshlang‘ich ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini muntazam monitoring qilish, olingan natijalar asosida ularning pedagogik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ilmiy asoslangan, oqilona va maqsadli foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish, ularning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois sun’iy intellektni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga metodik jihatdan puxta o‘ylangan va pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda integratsiya qilish zamonaviy ta’limni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2023.

3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 120 b.

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 208 b.

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 176 b.

6. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 242 p.

7. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL Institute of Education Press, 2018. – 184 p.

8. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16. – No. 39.

9. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.

10. OECD. Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023.

11. EI P. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligi va integratsiyalashgan ta’lim jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati // Problems and Solutions at the Stage of Innovative Development of Science, Education and Technology. – 2024. – Vol. 1. – No. 2. – P. 225–228.

12. Ergasheva D.N. Ommaviy axborot vositalari bolalar tarbiyasi va ma’naviy rivojlanishiga ta’siri // Problems and Solutions at the Stage of Innovative Development of Science, Education and Technology. – 2024. – Vol. 1. – No. 2. – P. 222–224.

13. Akromova F.A. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati // Problems and Solutions at the Stage of Innovative Development of Science, Education and Technology. – 2024. – Vol. 1. – No. 2. – P. 235–237.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 616.379-008.64:616.9:577.1

Hazratqulov Sayxun Hamroqul o‘g‘li,
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
davolash fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Djalilov Mustafo Uzakovich,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti

INFEKSION SURUNKALI KECHUVCHI KASALLIKLAR TUFAYLI QANDLI DIABETNING KELIB CHIQISHI VA KECHISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada infeksion surunkali kechuvchi kasalliklarning qandli diabet rivojlanishi va kechishiga ta'siri biokimyoviy hamda patofiziologik jihatdan tahlil qilingan. Surunkali yallig‘lanish, immun tizimidagi o‘zgarishlar, insulin rezistentligi, β-hujayralar shikastlanishi va oksidlovchi stressning diabet rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, kasallikni erta tashxislash, davolash va profilaktikaning ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: qandli diabet, surunkali infeksiya, insulin rezistentligi, β-hujayralar, surunkali yallig‘lanish, oksidlovchi stress, giperglikemiya, sitokinlar, immun tizimi, glyukoza almashinuvi.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ТЕЧЕНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА ПРИ ХРОНИЧЕСКИХ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

Аннотация. В статье рассмотрено влияние хронических инфекционных заболеваний на развитие и течение сахарного диабета с биохимической и патофизиологической точек зрения. Проанализированы роль хронического воспаления, иммунных нарушений, инсулинорезистентности, повреждения β-клеток и окислительного стресса. Также освещено значение ранней диагностики, лечения и профилактики заболевания.

Ключевые слова: сахарный диабет, хроническая инфекция, инсулинорезистентность, β-клетки, хроническое воспаление, окислительный стресс, гипергликемия, цитокины, иммунная система, обмен глюкозы.

THE DEVELOPMENT AND PROGRESSION OF DIABETES MELLITUS ASSOCIATED WITH CHRONIC INFECTIOUS DISEASES

Abstract. This article analyzes the impact of chronic infectious diseases on the development and progression of diabetes mellitus from biochemical and pathophysiological perspectives. The roles of chronic inflammation, immune dysfunction, insulin resistance, pancreatic β-cell damage, and oxidative stress are

discussed. The importance of early diagnosis, treatment, and preventive measures is also highlighted.

Keywords: diabetes mellitus, chronic infection, insulin resistance, β-cells, chronic inflammation, oxidative stress, hyperglycemia, cytokines, immune system, glucose metabolism.

Bugungi kunda qandli diabet dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan surunkali metabolik kasalliklardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu kasallikning rivojlanishi nafaqat irsiy moyillik, noto‘g‘ri ovqatlanish va kamharakat turmush tarzi, balki uzoq davom etuvchi surunkali infeksion kasalliklar bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Surunkali infeksiyalar organizmda doimiy yallig‘lanish jarayonlarini yuzaga keltirib, uglevod almashinuvining buzilishi, insulin rezistentligining rivojlanishi hamda oshqozon osti bezining β-hujayralari faoliyatining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Surunkali infeksion kasalliklarga sil (tuberkulyoz), virusli gepatit B va C, OIV infeksiyasi, surunkali periodontit, COVID-19 hamda boshqa uzoq davom etuvchi infeksiyalar kiradi. Ushbu kasalliklar organizmda immun tizimining uzluksiz faollashuviga olib keladi. Natijada yallig‘lanish sitokinlari va erkin radikallar miqdori ortib, oksidlovchi stress rivojlanadi. Bunday biokimyoviy o‘zgarishlar insulin signal uzatilishining buzilishiga, glyukozaning hujayralarga kirishining kamayishiga hamda qonda glyukoza miqdorining oshishiga sabab bo‘ladi.

Qandli diabet va surunkali infeksiyalar o‘rtasida ikki tomonlama bog‘liqlik mavjud. Bir tomondan, surunkali infeksiyalar qandli diabet rivojlanish xavfini oshirsa, ikkinchi tomondan, qandli diabet immun tizimi faoliyatini susaytirib, infeksiyalarning og‘irroq kechishi va turli asoratlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois ushbu ikki patologik holatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish zamonaviy tibbiyot, biokimyo va endokrinologiyaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Infeksion surunkali kechuvchi kasalliklar haqida umumiy ma'lumot

Infeksion surunkali kechuvchi kasalliklar — bakteriyalar, viruslar, zamburug‘lar yoki parazitlar ta'sirida rivojlanadigan, uzoq muddat davom etib, organizmda surunkali yallig‘lanish jarayonlarini yuzaga keltiradigan kasalliklardir. O‘tkir infeksiyalardan farqli ravishda, bunday kasalliklar bir necha oy yoki hatto yillar davom etishi mumkin. Natijada organizmda immun tizimining uzluksiz faollashuvi kuzatiladi hamda turli metabolik, biokimyoviy va immunologik o‘zgarishlar rivojlanadi.

Surunkali infeksiyalarning eng ko‘p uchraydigan turlariga sil (tuberkulyoz), virusli gepatit B va C, OIV infeksiyasi, surunkali periodontit, COVID-19 hamda Helicobacter pylori bakteriyasi bilan bog‘liq oshqozon kasalliklari kiradi. Ushbu kasalliklarning umumiy xususiyati organizmda uzoq davom etuvchi yallig‘lanish jarayonini yuzaga keltirib, immun tizimining doimiy faollashuviga sabab bo‘lishidir.

Infeksion surunkali kechuvchi kasalliklar tufayli qandli diabetning rivojlanish mexanizmlari

Infeksion surunkali kechuvchi kasalliklar qandli diabet rivojlanishining muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi. Uzoq davom etuvchi infeksiyalar surunkali yallig‘lanish jarayonini yuzaga keltirib, endokrin tizim faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Natijada uglevod almashinuvi buziladi, insulin gormonining biologik ta'siri susayadi va insulin rezistentligi rivojlanadi. Bu esa qonda glyukoza miqdorining ortishiga, ya'ni giperglikemiyaga olib keladi.

Giperglikemiya fiziologik holatlarda (uglevodlarga boy ovqat iste'mol qilinganda yoki kuchli emotsional zo‘riqish vaqtida) vaqtinchalik kuzatilishi mumkin. Biroq surunkali infeksiyalar va boshqa patologik omillar ta'sirida giperglikemiya uzoq muddat saqlanib qoladi. Bunday holatlarda qondagi glyukoza miqdori buyrakning glyukoza bo‘sag‘asidan (taxminan 160–180 mg/dl) oshganda glyukoza siydik orqali ajrala boshlaydi va glukozuriya rivojlanadi.

Surunkali infeksiya vaqtida makrofaglar va limfotsitlar tomonidan interleykin-1 (IL-1), interleykin-6 (IL-6) hamda o‘sma nekrozi omili alfa (TNF-α) kabi yallig‘lanish sitokinlari ko‘p miqdorda ishlab chiqariladi. Ushbu sitokinlar infeksiyaga qarshi himoyada muhim rol o‘ynasa-da, ularning uzoq muddat yuqori darajada saqlanishi insulin retseptorlarining sezgirligini pasaytiradi. Natijada hujayralarga glyukozaning kirishi qiyinlashib, insulin rezistentligi rivojlanadi.

Yallig‘lanish jarayonida erkin radikallar miqdori ham ortadi. Antioksidant himoya tizimi fermentativ (katalaza, glutation peroksidaza) va fermentsiz (A, C va E vitaminlari, melatonin, bilirubin va boshqalar) antioksidantlardan tashkil topgan. Ushbu tizim faoliyatining pasayishi natijasida erkin radikallar to‘liq zararsizlantirilmaydi va oksidlovchi stress rivojlanadi. Oksidlovchi stress hujayra membranalari, oqsillar, fermentlar hamda DNKni shikastlaydi. Ayniqsa, oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqaruvchi β-hujayralari erkin radikallarga juda sezgir bo‘lib, ularning zararlanishi insulin sintezining kamayishiga va glikirlangan gemoglobin (HbA1c) miqdorining oshishiga olib keladi.

Surunkali infeksiyalar jigar faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Yallig‘lanish mediatorlari ta'sirida jigarda glyukoneogenez, ya'ni uglevod bo‘lmagan moddalardan glyukoza sintezi kuchayadi. Shu bilan birga, mushak va yog‘ to‘qimalariga glyukozaning kirishi kamayadi. Buning asosiy sababi insulin signal uzatilishining buzilishi va glyukozani hujayra ichiga olib kiruvchi GLUT-4 tashuvchilarining hujayra membranasiga yetarli darajada chiqmasligidir. Natijada hujayralarda energiya tanqisligi yuzaga keladi, jigarda glyukoneogenez yanada kuchayadi va qonda glyukoza miqdori yuqori darajada saqlanib qoladi.

Ba'zi virusli infeksiyalar, xususan virusli gepatit B va C, shuningdek ayrim boshqa viruslar oshqozon osti bezining β-hujayralariga bevosita zarar yetkazishi mumkin. Natijada β-hujayralarning soni va funksiyasi kamayib, insulin ishlab

chiqarilishi izdan chiqadi. Bu holat qandli diabet rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar COVID-19 infeksiyasi ham ayrim bemorlarda qandli diabet rivojlanishi yoki mavjud diabetning og‘irlashishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

COVID-19 infeksiyasining qandli diabet rivojlanishidagi o‘rni

COVID-19 kasalligining qo‘zg‘atuvchisi — SARS-CoV-2 virusi hujayralarga ACE2 retseptorlari orqali kiradi. Ushbu retseptorlar nafaqat o‘pkada, balki oshqozon osti bezidagi Langergans orolchalarining β-hujayralarida ham mavjud. Shu sababli virus β-hujayralarni bevosita zararlashi mumkin.

Virus β-hujayralarga kirgach quyidagi jarayonlar kuzatiladi:

β-hujayralarda virusning ko‘payishi boshlanadi.

Kuchli immun javob shakllanadi.

IL-1, IL-6 va TNF-α kabi yallig‘lanish sitokinlari miqdori ortadi.

Oksidlovchi stress rivojlanadi.

Mitoxondriyalar faoliyati izdan chiqadi.

β-hujayralar apoptoz yoki ayrim hollarda nekrozga uchraydi.

Natijada insulin ishlab chiqarilishi kamayadi, glyukozaning hujayralarga kirishi buziladi va qonda glyukoza miqdori ortadi. Shu bois COVID-19 infeksiyasidan keyin ayrim bemorlarda yangi boshlangan qandli diabet aniqlansa, mavjud diabet bilan og‘rigan bemorlarda kasallikning kechishi yanada og‘irlashishi kuzatiladi.

Qandli diabetning kechishi va surunkali infeksiyalarning ta'siri

Qandli diabetning kechishi surunkali infeksion kasalliklar mavjud bo‘lganda yanada murakkablashadi. Uzoq davom etuvchi infeksiyalar organizmda surunkali yallig‘lanish jarayonini yuzaga keltirib, immun tizimining uzluksiz faollashuviga, yallig‘lanish mediatorlari va stress gormonlari sekretsiyasining ortishiga sabab bo‘ladi. Natijada insulin rezistentligi kuchayadi, jigarda glyukoneogenez faollashadi va qondagi glyukoza miqdorini nazorat qilish qiyinlashadi.

Surunkali infeksiyalar vaqtida kortizol, adrenalin va glukagon kabi kontrinsulyar gormonlar miqdori ortadi. Ushbu gormonlar insulinning biologik ta'sirini susaytiradi hamda jigarda glyukoneogenezni kuchaytiradi. Natijada qondagi glyukoza miqdori uzoq vaqt yuqori darajada saqlanib, giperglikemiya rivojlanadi. Doimiy giperglikemiya oqsillarning nofermentativ glikatsiyasini kuchaytirib, qon tomirlari va to‘qimalarning shikastlanishiga olib keladi.

Qandli diabetda immun tizimining himoya funksiyasi ham buziladi. Neytrofillar va makrofaglarning fagotsitar faolligi pasayadi, mikroorganizmlarga qarshi himoya sustlashadi. Natijada infeksiyalar og‘irroq kechadi, yaralarning bitishi sekinlashadi hamda bakterial va zamburug‘li infeksiyalar tez-tez takrorlanadi.

Surunkali infeksiyalar va qandli diabetning birgalikda kechishi diabetik nefropatiya, retinopatiya, neyropatiya hamda yurak-qon tomir kasalliklari

rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, surunkali yallig‘lanish va oksidlovchi stress β-hujayralar faoliyatini yanada susaytirib, insulin sekretsiyasining kamayishiga olib keladi.

Shunday qilib, surunkali infeksiyalar va qandli diabet bir-birini kuchaytiruvchi patologik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Infeksiya qandli diabetning kechishini og‘irlashtirsa, qandli diabet esa organizmning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini pasaytiradi. Shu sababli diabet bilan og‘rigan bemorlarda surunkali infeksiyalarni erta aniqlash, o‘z vaqtida davolash hamda qondagi glyukoza miqdorini muntazam nazorat qilish kasallik asoratlarini kamaytirishning muhim shartlaridan biridir.

Qandli diabetning asoratlari

Qandli diabet uzoq vaqt davomida yetarli darajada nazorat qilinmasa, organizmning deyarli barcha a'zo va tizimlarida jiddiy asoratlar rivojlanadi. Ushbu asoratlarning yuzaga kelishida uzoq davom etuvchi giperglikemiya, oqsillarning nofermentativ glikatsiyasi, oksidlovchi stress, surunkali yallig‘lanish hamda qon tomirlari endoteliyining shikastlanishi muhim o‘rin tutadi. Diabet asoratlari mikroangiopatik va makroangiopatik o‘zgarishlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mikroangiopatik asoratlarning asosiy turlaridan biri diabetik retinopatiya bo‘lib, u ko‘z to‘r pardasi tomirlarining shikastlanishi natijasida rivojlanadi. Kasallikning zo‘rayishi ko‘rish qobiliyatining pasayishi, og‘ir holatlarda esa ko‘rlikka olib kelishi mumkin. Diabetik nefropatiyada buyrak glomerulalari zararlanib, mikroalbuminuriya yoki proteinuriya kuzatiladi hamda vaqt o‘tishi bilan surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanadi. Diabetik neyropatiyada periferik nerv tolalari shikastlanishi natijasida qo‘l va oyoqlarda uvishish, og‘riq, achishish va sezuvchanlikning pasayishi kuzatiladi.

Makroangiopatik asoratlarga ateroskleroz, yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti va insult kiradi. Qondagi glyukoza miqdorining uzoq muddat yuqori bo‘lishi qon tomirlari devorining shikastlanishiga va aterosklerotik blyashkalar hosil bo‘lishiga olib keladi. Natijada yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortadi.

Qandli diabetning yana bir muhim asorati diabetik oyoq sindromidir. Ushbu holat periferik qon aylanishining buzilishi va nerv tolalarining zararlanishi natijasida yuzaga keladi. Oyoqlarda trofik yaralar hosil bo‘ladi, ularning bitishi sekinlashadi va infeksiya qo‘shilganda gangrena rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, qandli diabetning asoratlari uzoq davom etuvchi giperglikemiya natijasida yuzaga keladigan murakkab biokimyoviy va patofiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Ularni erta aniqlash, muntazam nazorat qilish va samarali davolash bemorlarning hayot sifati hamda umr davomiyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Qandli diabet va surunkali infeksiyalar diagnostikasi

Qandli diabet hamda surunkali infeksion kasalliklarni erta aniqlash og‘ir asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Diagnostika klinik belgilar, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalari asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, surunkali infeksiyalari mavjud bemorlarda uglevod almashinuvini muntazam nazorat qilish tavsiya etiladi.

Qandli diabetni tashxislashda asosiy laborator ko‘rsatkichlardan biri och qoringa qondagi glyukoza miqdorini aniqlashdir. Sog‘lom odamlarda ushbu ko‘rsatkich 3,9–5,5 mmol/L ni tashkil etadi. Och qoringa qondagi glyukoza miqdorining 7,0 mmol/L va undan yuqori bo‘lishi qandli diabet tashxisini tasdiqlovchi mezonlardan biri hisoblanadi.

Glikatsiyalangan gemoglobin (HbA1c) qondagi glyukozaning so‘nggi 2–3 oy davomidagi o‘rtacha darajasini aks ettiruvchi muhim diagnostik ko‘rsatkichdir. HbA1c ning 6,5 % va undan yuqori bo‘lishi qandli diabet mavjudligini ko‘rsatadi.

Insulin va C-peptid miqdorini aniqlash oshqozon osti bezining β-hujayralari sekretor faoliyatini baholash imkonini beradi. C-peptid insulin bilan bir vaqtda ajralgani sababli, u endogen insulin ishlab chiqarilishining ishonchli ko‘rsatkichidir. 1-tip qandli diabetda β-hujayralarning shikastlanishi tufayli C-peptid miqdori keskin kamayadi. 2-tip diabetning dastlabki bosqichlarida esa u normal yoki yuqori bo‘lishi mumkin. Ekzogen insulin preparatlari tarkibida C-peptid bo‘lmaganligi sababli, ushbu ko‘rsatkich organizmning o‘z insulinini ishlab chiqarish darajasini baholash imkonini beradi.

Surunkali infeksiyalarni aniqlashda umumiy qon tahlili, C-reaktiv oqsil (CRP), eritrotsitlar cho‘kish tezligi (ESR), prokalsitonin, mikrobiologik va serologik tekshiruvlardan foydalaniladi. Virusli gepatitlarda HBsAg va Anti-HCV, OIV infeksiyasida anti-OIV antitanalari, sil kasalligida esa mikrobiologik hamda molekulyar-genetik tekshiruv usullari qo‘llaniladi.

Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda buyrak va jigar faoliyatini baholash ham muhim hisoblanadi. Shu maqsadda kreatinin, siydikdagi mikroalbumin, ALT, AST hamda lipid spektri tekshiriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar diabet asoratlarini erta aniqlash va davolash samaradorligini baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, qandli diabet va surunkali infeksiyalar diagnostikasida klinik, biokimyoviy, immunologik hamda mikrobiologik tekshiruv usullaridan kompleks foydalanish kasallikni erta aniqlash, to‘g‘ri davolash taktikasini tanlash va og‘ir asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Qandli diabet va surunkali infeksiyalarni davolash

Qandli diabet va surunkali infeksion kasalliklarni davolash kompleks va individual yondashuvni talab etadi. Davolashning asosiy maqsadi qondagi glyukoza miqdorini me'yorida ushlab turish, surunkali yallig‘lanishni kamaytirish, infeksiyani bartaraf etish hamda kasallik asoratlarining oldini olishdan iborat.

Davolashning muhim tarkibiy qismi sog‘lom turmush tarziga rioya qilishdir. Bemor ratsionida sabzavot, mevalar, butun donli mahsulotlar va oqsilga boy oziq-

ovqatlar yetarli bo‘lishi, oddiy uglevodlar hamda to‘yingan yog‘lar esa cheklanishi tavsiya etiladi. Muntazam jismoniy faollik insulin sezgirligini oshirib, glyukozaning mushak hujayralari tomonidan o‘zlashtirilishini yaxshilaydi.

Dori vositalari bilan davolash diabet turiga qarab belgilanadi. 1-tip qandli diabetda insulin terapiyasi asosiy davolash usuli hisoblanadi. 2-tip qandli diabetda esa metformin birinchi tanlov preparati bo‘lib, zaruratga ko‘ra SGLT-2 ingibitorlari, GLP-1 retseptor agonistlari, DPP-4 ingibitorlari yoki insulin preparatlari qo‘llaniladi.

Surunkali infeksiyalarni samarali davolash diabetni nazorat qilishning muhim shartlaridan biridir. Kasallik qo‘zg‘atuvchisiga qarab antibiotiklar, virusga qarshi yoki zamburug‘larga qarshi preparatlar buyuriladi. Infeksiya bartaraf etilgach, yallig‘lanish mediatorlari va kontrinsulyar gormonlar miqdori kamayadi, insulin sezgirligi yaxshilanadi hamda qondagi glyukoza darajasini nazorat qilish osonlashadi.

Oksidlovchi stressni kamaytirish ham davolashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Antioksidantlarga boy oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, shuningdek C va E vitaminlari, selen hamda rux kabi antioksidant moddalarni shifokor tavsiyasiga muvofiq qabul qilish hujayralarni erkin radikallar ta'siridan himoya qiladi va β-hujayralar faoliyatini saqlashga yordam beradi.

Davolash jarayonida qondagi glyukoza, HbA1c, C-peptid, CRP va boshqa biokimyoviy ko‘rsatkichlarni muntazam nazorat qilish zarur. Shifokor tavsiyalariga qat'iy rioya qilish, sog‘lom turmush tarzini olib borish hamda surunkali infeksiyalarni o‘z vaqtida davolash kasallikning barqaror kechishini ta'minlaydi va og‘ir asoratlar rivojlanishining oldini oladi.

Qandli diabet va surunkali infeksiyalarning oldini olish

Qandli diabet hamda surunkali infeksion kasalliklarning oldini olish sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, infeksiyalarni erta aniqlash va o‘z vaqtida davolashga asoslanadi. Profilaktik chora-tadbirlar nafaqat kasallik rivojlanish xavfini kamaytiradi, balki qandli diabetning og‘ir asoratlari yuzaga kelishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Sog‘lom va muvozanatli ovqatlanish qandli diabet profilaktikasining eng muhim omillaridan biridir. Kundalik ratsionda sabzavotlar, mevalar, butun donli mahsulotlar, dukkaklilar hamda oqsilga boy oziq-ovqatlar yetarli miqdorda bo‘lishi tavsiya etiladi. Shakar, tez hazm bo‘ladigan uglevodlar, gazlangan shirin ichimliklar va to‘yingan yog‘larga boy mahsulotlarni cheklash qondagi glyukoza miqdorini me'yorida saqlash hamda insulin rezistentligi rivojlanish xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Muntazam jismoniy faollik insulin sezgirligini oshiradi, tana vaznini me'yorida ushlab turadi va uglevod almashinuvini yaxshilaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, haftasiga kamida 150 daqiqa o‘rtacha intensivlikdagi

jismoniy faollik bilan shug‘ullanish 2-tip qandli diabet rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Surunkali infeksiyalarni erta aniqlash va samarali davolash ham muhim profilaktik chora hisoblanadi. Sil, virusli gepatit B va C, OIV infeksiyasi, surunkali periodontit hamda boshqa surunkali infeksiyalarni o‘z vaqtida davolash organizmda surunkali yallig‘lanish, oksidlovchi stress va insulin rezistentligining rivojlanish xavfini kamaytiradi. Shuningdek, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, profilaktik tibbiy ko‘riklardan muntazam o‘tish hamda milliy emlash taqvimiga muvofiq tavsiya etilgan vaksinalarni qabul qilish ko‘plab infeksion kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Tana vaznini me'yorida saqlash, chekish va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishdan voz kechish, yetarli uyqu va psixoemotsional zo‘riqishni kamaytirish organizmda metabolik jarayonlarning me'yoriy kechishiga yordam beradi. Bundan tashqari, xavf guruhiga kiruvchi shaxslarda qondagi glyukoza, glikatsiyalangan gemoglobin (HbA1c) hamda boshqa biokimyoviy ko‘rsatkichlarni muntazam nazorat qilish kasallikni erta bosqichda aniqlash va uning asoratlarini oldini olish imkonini beradi.

Shunday qilib, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, tana vaznini nazorat qilish, muntazam jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, surunkali infeksiyalarni o‘z vaqtida aniqlash va davolash hamda muntazam tibbiy nazorat qandli diabet rivojlanish xavfini kamaytirish va kasallikning og‘ir kechishi hamda asoratlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Infeksion surunkali kechuvchi kasalliklar qandli diabetning rivojlanishi, kechishi va asoratlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatuvchi muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi. Uzoq davom etuvchi infeksiyalar organizmda surunkali yallig‘lanish jarayonining saqlanib qolishiga, oksidlovchi stressning kuchayishiga hamda immun tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladi. Natijada insulin signal uzatilishi izdan chiqadi, insulin rezistentligi rivojlanadi, oshqozon osti bezining β-hujayralari funksiyasi susayadi va qondagi glyukoza miqdori ortib, giperglikemiya yuzaga keladi. Ushbu patofiziologik o‘zgarishlar qandli diabet rivojlanish xavfini oshiradi yoki mavjud diabetning kechishini yanada murakkablashtiradi.

Maqolada tahlil qilingan ilmiy ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, surunkali infeksiyalar va qandli diabet o‘rtasida o‘zaro bog‘liq patologik jarayon mavjud. Bir tomondan, surunkali infeksiyalar metabolik buzilishlarni kuchaytirib, diabet rivojlanishiga zamin yaratadi, ikkinchi tomondan esa qandli diabet immun tizimining himoya funksiyasini pasaytirib, infeksiyalarning og‘irroq kechishiga va qayta-qayta takrorlanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, sil, virusli gepatit B va C, OIV infeksiyasi, surunkali periodontit hamda COVID-19 kabi kasalliklar diabetning rivojlanishi va kechishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Biokimyoviy nuqtai nazardan, IL-1, IL-6 va TNF-α kabi yallig‘lanish sitokinlari, erkin radikallar hamda kontrinsulyar gormonlarning ortishi uglevod

almashinuvining buzilishi, glyukoneogenezning kuchayishi va glyukozaning hujayralarga o‘tishining kamayishiga olib keladi. Oksidlovchi stress β-hujayralarning shikastlanishini kuchaytirib, insulin sekretsiyasining kamayishiga sabab bo‘ladi. Natijada giperglikemiya uzoq muddat saqlanib, mikroangiopatik va makroangiopatik asoratlar rivojlanish xavfi ortadi.

Qandli diabet va surunkali infeksiyalarni samarali nazorat qilish kompleks yondashuvni talab etadi. Kasalliklarni erta tashxislash, laborator ko‘rsatkichlarni muntazam nazorat qilish, infeksiyalarni o‘z vaqtida davolash, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, muvozanatli ovqatlanish hamda muntazam jismoniy faollik diabet rivojlanish xavfini kamaytirish va uning og‘ir asoratlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy diagnostika va davolash usullaridan oqilona foydalanish bemorlarning hayot sifati va umr davomiyligini oshirish bilan bir qatorda, kasallikning uzoq muddatli prognozini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kelgusida surunkali infeksiyalar va qandli diabet o‘rtasidagi molekulyar-biokimyoviy mexanizmlarni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi diagnostik biomarkerlarni aniqlash hamda samarali profilaktik va terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djalilov M.U. Vitamin Reserve in Composition in Nutrient**.** Лучшие интеллектуальные исследования. 2024. ISSN 3030-3680. B. 35–39.

2. Емельянова Т.П**.** Витамины и минеральные вещества. Санкт-Петербург: Весь, 2001. 566 с.

3. Djalilov M.U. Vitamin B6 (Pyridoxine, Pyridoxinum). *Лучшие интеллектуальные исследования*. 2024. ISSN 3030-3680. B. 30–34.

4. Джалилов М.У. Сахарный диабет и витамин D. Лучшие интеллектуальные исследования. 2025. Т. 39. № 2.

5. Djalilov M.U. Cobamide Coenzymes (Cobalamins, Vitamin B12). Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 2025. № 57(1). B. 220–222.

6. Djalilov M.U., Tashanov O.S. Lipoic Acid Has Its Unique Structure. Лучшие интеллектуальные исследования. 2025. Т. 38. № 1.

7. Джалилов М.У. Vitamin Preparations Used in Medicine. Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 2025. № 57(1).

8. Джалилов М.У., Узоков Т.А. Сахарный диабет и витамин B₉. *Лучшие интеллектуальные исследования*. 2025. Т. 40. № 2.

9. World Health Organization. Global report on diabetes. Geneva: WHO, 2016.

10. American Diabetes Association. Standards of Care in Diabetes—2025. *Diabetes* Care. 2025.

11. International Diabetes Federation. IDF Diabetes Atlas. 11th ed. Brussels: IDF, 2025.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 378.147:61:811.111

Isroilova E'zoza Akmal qizi,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

TIBBIY TA'LIMDA «TIL–FAN–AMALIYOT» KONSEPSIYASI: FANLARARO KOGNITIV-INTEGRAL YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning fanlararo aloqadorlikka asoslangan «til–fan–amaliyot» (TFA) konsepsiyasi asoslab berilgan. Konsepsiya til, mutaxassislik bilimi va klinik amaliyotni yaxlit tizimda birlashtiruvchi kognitiv-integral mexanizmga tayanadi. ESP, CLIL va EMI yondashuvlarining fanlararo integratsion salohiyati qiyosiy tahlil qilingan, R.M. Harden integratsiya zinapoyasi asosida konsepsiyaning nazariy mavqei belgilangan hamda tibbiy terminologiyaning morfologik generativligi empirik tahlil orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: til–fan–amaliyot konsepsiyasi, fanlararo aloqadorlik, kognitiv-integral yondashuv, ESP, CLIL, integratsiya zinapoyasi, tibbiy terminologiya.

КОНЦЕПЦИЯ «ЯЗЫК–НАУКА–ПРАКТИКА» В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО КОГНИТИВНО-ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье обоснована концепция «язык–наука–практика» (ЯНП) обучения английскому языку в медицинских вузах на основе междисциплинарной связи. Концепция опирается на когнитивно-интегральный механизм, объединяющий язык, специальное знание и клиническую практику в целостной системе. Сравнительно проанализирован междисциплинарный интеграционный потенциал ESP, CLIL и EMI, определена теоретическая позиция концепции по лестнице интеграции Р. М. Хардена, а морфологическая генеративность медицинской терминологии показана эмпирическим анализом.

Ключевые слова: концепция язык–наука–практика, междисциплинарная связь, когнитивно-интегральный подход, ESP, CLIL, лестница интеграции, медицинская терминология.

THE "LANGUAGE–SCIENCE–PRACTICE" CONCEPT IN MEDICAL EDUCATION: THEORETICAL FOUNDATIONS OF AN INTERDISCIPLINARY COGNITIVE-INTEGRATIVE APPROACH

Abstract. The article substantiates the "Language–Science–Practice" (LSP) concept of teaching English at medical higher education institutions on the basis of interdisciplinary connection. The concept relies on a cognitive-integral mechanism that unites language, specialist knowledge and clinical practice in a holistic system. The interdisciplinary integration potential of ESP, CLIL and EMI is comparatively analysed, the theoretical position of the concept is defined using R. M. Harden's integration ladder, and the morphological generativity of medical terminology is demonstrated through empirical analysis.

Key words: Language–Science–Practice concept, interdisciplinary connection, cognitive-integral approach, ESP, CLIL, integration ladder, medical terminology.

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish nafaqat lingvistik kompetensiyani shakllantirish, balki bo'lajak shifokorning kasbiy, kommunikativ va klinik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Tibbiyot fanining globallashuvi, xalqaro ilmiy axborot almashinuvi, dalillarga asoslangan tibbiyot (Evidence-Based Medicine), xalqaro klinik protokollar hamda akademik mobillikning kengayishi tibbiyot mutaxassislaridan ingliz tilini kasbiy faoliyat vositasi sifatida egallashni talab etmoqda. Shu sababli tibbiy oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish mazmuni va metodologiyasini qayta ko'rib chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Biroq amaldagi ta'lim amaliyoti tibbiy ingliz tilini o'qitishda muhim metodologik muammoni namoyon etadi. Ko'pgina hollarda til, mutaxassislik fanlari va klinik amaliyot o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida emas, balki mustaqil va parallel yo'nalishlarda tashkil etiladi. Til o'qituvchisi ko'pincha klinik fanlarning mazmuni, terminologik tizimi va kasbiy kommunikatsiya xususiyatlarini yetarli darajada egallamagan bo'lsa, mutaxassislik kafedralari esa chet tili kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida faol metodik hamkorlik qilmaydi. Natijada talabalar til birliklarini grammatik yoki leksik darajada o'zlashtirgan holda, ularni real klinik vaziyatlarda qo'llash, tibbiy hujjatlar bilan ishlash, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va professional muloqotni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa til kompetensiyasi bilan kasbiy kompetensiya o'rtasidagi uzilishning saqlanib qolishiga olib keladi.

Mazkur muammo mavjud metodik yondashuvlarni qayta konseptuallashtirishni talab etadi. So'nggi yillarda English for Specific Purposes (ESP), Content and Language Integrated Learning (CLIL) hamda English as a Medium of Instruction (EMI) kabi yondashuvlar fan va til integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ularning aksariyati til va predmet mazmunining o'zaro uyg'unlashuviga e'tibor qaratadi. Tibbiy ta'limning o'ziga xos xususiyati esa nazariy bilim bilan bir qatorda klinik fikrlash, diagnostik qaror qabul qilish va amaliy faoliyatni ham integratsiyalash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois

tibbiy ingliz tilini o‘qitishda integratsiya faqat "til–fan" darajasida emas, balki "til–fan–amaliyot" uchligi asosida tashkil etilishi metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada taklif etilayotgan «til–fan–amaliyot» (TFA) konsepsiyasi til, mutaxassislik bilimlari va klinik amaliyotni yagona kognitiv tizim sifatida talqin qiluvchi fanlararo kognitiv-integral modelni ifodalaydi. Mazkur konsepsiya bilimlarni izchil o‘zlashtirish, tibbiy terminologiyani semantik va morfologik asosda anglash, klinik kommunikatsiyani rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga transfer qilish mexanizmlarini yagona metodologik platformada birlashtirishni nazarda tutadi.

Maqolaning maqsadi – til, fan va klinik amaliyotni kognitiv-integral mexanizm asosida birlashtiruvchi «til–fan–amaliyot» (TFA) konsepsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, uning ESP, CLIL va EMI yondashuvlari bilan metodologik aloqadorligi hamda farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek R.M. Hardenning fanlararo integratsiya modeli doirasidagi ilmiy mavqeini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Chet tilini kasbiy maqsadlarda o‘qitish nazariyasida English for Specific Purposes (ESP) yondashuvi muhim metodologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. T. Hutchinson va A. Waters, shuningdek T. Dudley-Evans hamda M.J. St John tomonidan ishlab chiqilgan ESP konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quv mazmuni talabalarning kasbiy ehtiyojlari, kommunikativ vazifalari va maqsadli faoliyat tahliliga asoslanishi lozim. Ushbu yondashuv o‘quv materiallarini autentik kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirish imkonini bersa-da, uning amaliyotda keng qo‘llanilayotgan «tilga yo‘naltirilgan» modeli ko‘pincha mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarining metodik ishtirokini cheklaydi. Natijada til kompetensiyasi kasbiy bilimlar bilan yetarli darajada integratsiyalashmaydi.

Content and Language Integrated Learning (CLIL) konsepsiyasi (D. Coyle, P. Hood, D. Marsh) mazmun va tilni bir vaqtning o‘zida o‘qitishga asoslangan bo‘lib, fan va tilning ikki yoqlama integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan. CLIL modeli o‘quvchilarning predmet bilimlari bilan bir qatorda akademik va kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay metodologik asos yaratadi. Biroq ushbu yondashuvning samarali amalga oshirilishi fan mazmunini ham, chet tilini ham yuqori darajada egallagan pedagoglarni talab etadi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida bunday universal kompetensiyaga ega mutaxassislar sonining cheklanganligi CLILning keng ko‘lamda joriy etilishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biridir.


So‘nggi yillarda keng rivojlanayotgan English as a Medium of Instruction (EMI) yondashuvi (E. Macaro va boshqalar) mutaxassislik fanlarini bevosita ingliz tilida o‘qitish orqali talabalarning til muhitiga maksimal darajada jalb etilishini ta’minlaydi. Mazkur model akademik va kasbiy kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirishi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, tilni o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlovchi metodik vositalar (scaffolding) yetarli darajada tashkil etilmagan sharoitda ta’lim

jarayoni mazmunni yetkazishga yo‘naltirilib, til kompetensiyasining rivojlanishi ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin.

Tibbiy ingliz tili (English for Medical Purposes – EMP) sohasidagi tadqiqotlarda G. Ferguson va H. Basturkmen tibbiy diskursning lingvistik, terminologik va kommunikativ xususiyatlarini, shuningdek kasbiy kommunikatsiya uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni batafsil yoritganlar. Ularning ishlari tibbiy ingliz tilining umumiy ESP doirasidagi o‘ziga xos metodik xususiyatlarini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunga qaramay, mavjud yondashuvlarning har biri til va mutaxassislik mazmunining muayyan jihatlarini integratsiyalashga xizmat qilsa-da, ularning hech biri til, fan va klinik amaliyotni yagona kognitiv tizim sifatida birlashtiruvchi mexanizmni to‘liq izohlamaydi. Xususan, tibbiy terminologiyaning shakllanishi, klinik tafakkurning rivojlanishi hamda til vositasida kasbiy bilimlarni amaliy faoliyatga transfer qilish jarayonlari yagona konseptual model doirasida yetarlicha yoritilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ushbu maqolada «til–fan–amaliyot» (TFA) konsepsiyasi taklif etilib, u til, mutaxassislik bilimlari va klinik amaliyotning fanlararo kognitiv-integral birligini ta’minlovchi nazariy model sifatida asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mazmun tahlili (96 manba), qiyosiy tahlil (ESP/CLIL/EMI) hamda terminologik-komponent tahlil (480 ta yuqori chastotali tibbiy termin) qo‘llanildi. Konsepsiyaning integratsiya darajasini belgilash uchun R.M. Harden integratsiya zinapoyasi analitik ramka sifatida foydalanildi. TFA konsepsiyasining tuzilmasi va uning umumiy metodika ichidagi o‘rni strukturaviy-funksional model orqali ifodalandi (1-rasm).



1-rasm: *Fanlararo aloqadorlik asosidagi metodikaning strukturaviy-funksional modeli*

Tahlil va natijalar. Qiyosiy tahlil ESP, CLIL va EMI yondashuvlari bir-birini to‘ldiruvchi, biroq o‘zaro almashtirib bo‘lmaydigan mavqelarni egallashini ko‘rsatdi. ESP mazmunni tanlashning ehtiyojga asoslangan mantiqini beradi; CLIL — mazmun-til ikki yoqlama fokusini; EMI — maksimal til ta’sirini. Ammo ularning hech biri ayrim til va klinik kafedralar o‘rtasidagi hamkorlikni institutsionallashtirmaydi. Ushbu qiyoslash 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. ESP, CLIL va EMI yondashuvlarining fanlararo integratsion salohiyati

Me’zon	ESP	CLIL	EMI
Integratsiya o‘rni	Til kursi	Fan darsi	Butun dastur
Mutaxassisning roli	Periferik	Markaziy (ikki malakali)	Markaziy (faqat mazmun)
Terminologiyaga munosabat	Aniq, leksik	Mazmunga singdirilgan	Tasodifiy
Institutsional hamkorlik	Belgilanmagan	Bitta o‘qituvchi ichida	Belgilanmagan
Milliy tibbiy tizimga moslik	Yuqori	O‘rta	Past–o‘rta

Bu salohiyatlar taqsimoti gibrid yechimni asoslaydi: ESP ehtiyojga asoslangan yadro, CLIL uslubidagi mazmun-til fokusi va tanlab olingan EMI elementlari — hammasi aniq kafedralararo mexanizm bilan bog‘lanadi. Aynan shu gibrid TFA konsepsiyasida amalga oshiriladi.

TFA konsepsiyasining o‘ziga xos da’vosi — kognitiv-integral xarakterda. Terminni izolyatsiyalangan leksik birlik sifatida o‘rgatish o‘rniga, konsepsiya mutaxassislik mavzusining leksik-semantik maydonlarini o‘sha mavzuga oid ingliz tili mazmuni bilan uyg‘unlashtiradi, shunda termin o‘zining konseptual va klinik aloqalari bilan birga o‘zlashtiriladi. Terminologik-komponent tahlil bu uyg‘unlashuvning bajarilishini tasdiqlaydi: tahlil qilingan 480 ta terminning 88 foizi yunon-lotin morfemalariga ajratildi, ularning qayta birikishi tizimli va shu sababli generativ tizim sifatida o‘rganiladi (2-jadval).

2-jadval. Tibbiy terminlarning morfologik tarkibi (n = 480)

Morfologik tur	Ulush (%)	Misol
Yunon-lotin ildizlaridan tuzilgan	88	cardi-o-logy, gastr-itis
Affiksatsiya (prefiks/suffiks)	74	hyper-, -osis, -ectomy
Kompozitsiya (murakkab so‘z)	41	electro-cardio-graph-y
Eponim / o‘zlashma	12	Parkinson, stent

Harden integratsiya zinapoyasida joylashtirilganda, TFA konsepsiyasi yuqoriroq — «ko‘p fanli–transdisiplinar» pog‘onalariga to‘g‘ri keladi, chunki u parallel kurslarni shunchaki korrelyatsiyalamaydi, balki til mazmunini klinik fanlar konseptual tuzilmasi atrofida qayta tashkil etadi. Bu esa konsepsiyaning ESP va CLIL an’analaridan sifat jihatidan yuqori integratsiya darajasini egallashini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish mavjud metodik yondashuvlarni alohida qo‘llash bilan emas, balki til, mutaxassislik bilimlari va klinik amaliyotni yagona didaktik tizimga birlashtirish orqali ta’minlanadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada nazariy jihatdan asoslangan «til–fan–amaliyot» (TFA) konsepsiyasi tibbiy ta’limda fanlararo integratsiyaning yangi modeli sifatida taklif etildi. Mazkur konsepsiya tilni o‘rganish jarayonini mustaqil lingvistik faoliyat emas, balki kasbiy bilimlarni egallash, klinik tafakkurni rivojlantirish va amaliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qiladi.

Tadqiqot davomida ESP, CLIL va EMI yondashuvlarining nazariy asoslari qiyosiy tahlil qilinib, ularning har biri tibbiy ingliz tilini o‘qitishda muhim metodologik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning har biri asosan til va predmet mazmunining o‘zaro integratsiyasiga e'tibor qaratishi, biroq klinik amaliyotning mazkur integratsiyadagi

o‘rni va kognitiv mexanizmlarini yetarli darajada izohlamasligi kuzatildi. TFA konsepsiyasi aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirib, til, fan va amaliyotni o‘zaro bog‘liq hamda bir-birini to‘ldiruvchi yagona tizim sifatida asoslaydi.

Maqolada R.M. Hardenning fanlararo integratsiya modeli asosida TFA konsepsiyasining nazariy mavqei belgilandi hamda uning multidisiplinar, interdisciplinar va transdisiplinar integratsiya elementlarini o‘zida mujassamlashtirishi ko‘rsatildi. Shuningdek, tibbiy terminologiyaning morfologik-generativ xususiyatlari tahlili terminlarni alohida birliklar sifatida emas, balki umumiy semantik va so‘z yasash tizimining tarkibiy qismi sifatida o‘qitish samaraliroq ekanligini tasdiqladi. Bunday yondashuv talabalarda terminologik tafakkurni rivojlantiradi, yangi atamalarning ma’nosini mustaqil anglash imkoniyatini kengaytiradi hamda kasbiy kommunikativ kompetensiyaning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan konsepsiyaning ilmiy yangiligi shundaki, unda ingliz tili kommunikatsiya vositasi sifatidagina emas, balki tibbiy bilimlarni shakllantirish, klinik fikrlashni rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga transfer qilishning integrallashgan kognitiv instrumenti sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan TFA konsepsiyasi tibbiy ta’limda chet tillarini o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish, fanlararo hamkorlikni kuchaytirish hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modelini rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Tibbiy ingliz tili o‘quv dasturlarini mutaxassislik fanlarining konseptual va mantiqiy tuzilmasi bilan uyg‘unlashtirish hamda ularni klinik modullar asosida loyihalash.

Til o‘qituvchilari va klinik fanlar professor-o‘qituvchilari o‘rtasida fanlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, integratsiyalashgan o‘quv materiallari va qo‘shma metodik resurslarni ishlab chiqish.

Tibbiy terminologiyani morfologik-generativ va semantik tizim sifatida o‘qitishga asoslangan metodik modelni joriy etish.

O‘quv jarayoniga klinik vaziyatlar (case-based learning), muammoli ta’lim (problem-based learning), simulyatsiya va kasbiy kommunikatsiya mashqlarini tizimli integratsiya qilish.

Talabalarning til kompetensiyasini faqat lingvistik mezonlar asosida emas, balki kasbiy kommunikativ, terminologik va klinik kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liq holda baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot asosan TFA konsepsiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, uning amaliy samaradorligini eksperimental tekshirish keyingi izlanishlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Xususan, konsepsiya asosida integratsiyalashgan o‘quv modeli, metodik ta’minot, raqamli ta’lim resurslari va kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini ishlab

chiqish hamda ularning tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi samaradorligini pedagogik tajriba-sinovlar orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, TFA konsepsiyasini farmatsiya, stomatologiya, hamshiralik ishi va boshqa nofilologik oliy ta'lim yo'nalishlariga moslashtirish uning qo'llanish doirasini kengaytirish va fanlararo ta'limning metodologik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes. – Cambridge: CUP, 1998. – 301 p.
2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: CUP, 1987. – 183 p.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: CUP, 2010. – 184 p.
4. Harden R.M. The integration ladder: a tool for curriculum planning and evaluation // Medical Education. – 2000. – Vol. 34, No. 7. – P. 551–557.
5. Ferguson G. English for medical purposes // The Handbook of English for Specific Purposes. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013. – P. 243–261.
6. Basturkmen H. Developing Courses in English for Specific Purposes. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010. – 179 p.
7. Macaro E. et al. A systematic review of English medium instruction in higher education // Language Teaching. – 2018. – Vol. 51, No. 1. – P. 36–76.
8. Chabner D.E. The Language of Medicine. 12th ed. – St. Louis: Elsevier, 2020. – 1056 p.
9. Belcher D. English for specific purposes // TESOL Quarterly. – 2006. – Vol. 40, No. 1. – P. 133–156.
10. Tuxtasinov I.M. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2019.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 94(574.5):726.71:929

Shadimetova Munavvara Sabirovna,
tarix va jamiyatshunoslik fanlari magistri,
Qozog‘iston, Chimkent shahri

AMIR TEMURNING JANUBIY QOZOG‘ISTONDA QURDIRGAN DINIY ME’MORCHILIK YODGORLIKLARI (ZIYORATGOHLAR)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur tomonidan Janubiy Qozog‘iston hududida barpo ettirilgan diniy me’morchilik yodgorliklari va ziyoratgohlarning tarixiy, madaniy hamda ma’naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, Turkiston shahrida joylashgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining qurilish tarixi, arxitekturasi va turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davridagi me’morchilik an’analari, diniy-ma’rifiy markazlarning rivojlanishi hamda mazkur yodgorliklarning bugungi kundagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqola Amir Temurning madaniy merosIni saqlash va diniy-ma’rifiy hayotni rivojlantirishdagi xizmatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Janubiy Qozog‘iston, Xoja Ahmad Yassaviy, maqbara, ziyoratgoh, me’morchilik, Temuriylar, madaniy meros, Turkiston, tarix.

РЕЛИГИОЗНЫЕ АРХИТЕКТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ (СВЯТЫНИ), ПОСТРОЕННЫЕ АМИРОМ ТЕМУРОМ НА ТЕРРИТОРИИ ЮЖНОГО КАЗАХСТАНА

Аннотация. В данной статье рассматриваются религиозные архитектурные памятники и святыни, построенные Амиром Темуром на территории Южного Казахстана, их историческое, культурное и духовное значение. Особое внимание уделяется мавзолею Ходжи Ахмеда Яссави в городе Туркестан, истории его строительства, архитектурным особенностям и роли в культуре тюркских народов. Также анализируются архитектурные традиции эпохи Темуридов, развитие религиозно-просветительских центров и современное значение данных памятников. В ходе исследования использованы исторические источники, научная литература и современные методы анализа. Статья направлена на раскрытие вклада Амира Темура в сохранение культурного наследия и развитие духовной жизни региона.

Ключевые слова: Амир Темур, Южный Казахстан, Ходжа Ахмед Яссави, мавзолей, святыня, архитектура, Темуриды, культурное наследие, Туркестан, история.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

RELIGIOUS ARCHITECTURAL MONUMENTS (PILGRIMAGE SITES) BUILT BY AMIR TEMUR IN SOUTHERN KAZAKHSTAN

Abstract. This article examines the religious architectural monuments and pilgrimage sites built by Amir Temur in Southern Kazakhstan, focusing on their historical, cultural, and spiritual significance. Particular attention is paid to the Mausoleum of Khoja Ahmed Yassawi in Turkistan, its construction history, architectural features, and role in the culture of Turkic peoples. The study also analyzes the architectural traditions of the Timurid era, the development of religious and educational centers, and the contemporary importance of these monuments. Historical sources, scholarly literature, and modern analytical methods were employed in the research. The article highlights Amir Temur's contribution to preserving cultural heritage and promoting the spiritual and educational development of the region.

Keywords: Amir Temur, Southern Kazakhstan, Khoja Ahmed Yassawi, mausoleum, pilgrimage site, architecture, Timurids, cultural heritage, Turkistan, history.

Amir Temur (1336–1405) nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki o‘z davrining yirik bunyodkori va me’morchilik homiysi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning hukmronligi davrida bunyod etilgan me’moriy inshootlar Samarqand, Buxoro va Shahrisabz kabi markaziy shaharlargina emas, balki saltanatning strategik va ma’naviy jihatdan muhim bo‘lgan chekka hududlarida ham qad rostlagan. Ana shunday hududlardan biri Janubiy Qozog‘iston bo‘lib, undagi qadimgi Yassi shahri (hozirgi Turkiston) hamda O‘tror vohasi Temur saltanatining muhim tayanch nuqtalaridan biri hisoblangan [1].

Dashti Qipchoq va Movarounnahr oralig‘idagi geosiyosiy chorrahada joylashgan ushbu hudud Amir Temur uchun nafaqat harbiy-strategik, balki diniy-ma’naviy ahamiyatga ham ega edi. Aynan shu yerda XII asrning buyuk mutasavvifi va shoiri, yassaviylik tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning qabri joylashgan bo‘lib, uning ta’limoti turkiy xalqlar orasida islom dinining keng yoyilishi va mustahkam qaror topishida muhim o‘rin tutgan. Xoja Ahmad Yassaviy merosi Dashti Qipchoq aholisi ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan va keyingi asrlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan [5].

Amir Temur 1397-yilda Yassi shahriga tashrif buyurib, Xoja Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat qilganidan so‘ng bu yerda ulkan me’moriy majmua barpo etishni buyuradi. Natijada nafaqat Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi, balki unga yaqin joylashgan Ariston Bob maqbarasi hamda keyinchalik Amir Temurning nabirasi Robiya Sultonbegim maqbarasi bunyod etilib, Turkiston yirik diniy-ma’rifiy markazga aylangan. Ushbu yodgorliklar Temuriylar davri me’morchilik

maktabining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lib, ularning qurilishida davrning ilg‘or muhandislik va badiiy yechimlari mujassam etilgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Amir Temur tomonidan Janubiy Qozog‘iston hududida bunyod ettirilgan diniy me’morchilik yodgorliklari va ziyoratgohlarning qurilish tarixi, me’moriy xususiyatlari, diniy-ma’naviy ahamiyati hamda Temur davlatining siyosiy va mafkuraviy hayotidagi o‘rnini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ushbu me’moriy obidalar nafaqat O‘zbekiston va Qozog‘iston, balki butun turkiy-islom sivilizatsiyasining bebaho madaniy merosi hisoblanadi. Ayniqsa, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining 2003-yilda YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi uning jahon madaniy merosidagi yuksak o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Amir Temurning Janubiy Qozog‘istondagi diniy me’morchilik faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy izlanishlarga tayanadi. Bu borada, avvalo, Temuriylar davriga oid yozma manbalar alohida ahamiyatga ega. Xususan, Sharafiddin Ali Yazdiyning **«Zafarnoma»** asarida Amir Temurning Turkiston hududiga qilgan safarlari, diniy-ma’rifiy markazlarga ko‘rsatgan e’tibori hamda Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini bunyod etish tashabbusi haqida muhim tarixiy ma’lumotlar keltirilgan (Yazdiy, 1997). Asarda Amir Temurning davlat boshqaruvi bilan bir qatorda islom madaniyati va diniy-ma’rifiy markazlarni rivojlantirishga qaratilgan bunyodkorlik siyosati ham keng yoritilgan.

Nizomiddin Shomiyning **«Zafarnoma»** asari ham mazkur mavzuni o‘rganishda muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Amir Temurning Turkiston va unga tutash hududlarda olib borgan bunyodkorlik ishlari, diniy-ma’rifiy markazlarga ko‘rsatgan e’tibori hamda me’moriy obidalar qurilishiga homiylik qilgani haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan (Shomiy, 1996). Ushbu manba Temuriylar davridagi siyosiy, madaniy va diniy jarayonlarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining tarixiy va me’moriy xususiyatlari Qozog‘iston olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, K. Baypaqovning **«Istoriko-kulturnoye naslediye Turkestana»** nomli monografiyasida Turkiston shahrining tarixiy taraqqiyoti, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining qurilish bosqichlari hamda uning Markaziy Osiyo me’morchilik san’ati rivojidagi o‘rni atroflicha yoritilgan (Baypaqov, 2011). Muallif mazkur yodgorlikni nafaqat diniy ziyoratgoh, balki turkiy xalqlarning umumiy tarixiy-madaniy merosini o‘zida mujassam etgan noyob me’moriy majmua sifatida baholaydi [6].

O‘zbekistonlik tarixchi olim B. Ahmedovning **«Amir Temur»** nomli ilmiy asarida Sohibqironning bunyodkorlik siyosati, diniy-ma’rifiy markazlarni rivojlantirish borasidagi faoliyati hamda Turkiston shahrida amalga oshirilgan

qurilish ishlari ilmiy asosda tahlil qilingan (Ahmedov, 1996). Muallif Amir Temurning me'morchilik siyosatini davlat qudratini mustahkamlash, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va jamiyatning ma'naviy birligini qaror toptirishga xizmat qilgan muhim omil sifatida talqin etadi [2].

T. Fayziyevning **«Temuriylar shajarasi»** asarida esa Temuriylar davrining siyosiy tarixi bilan bir qatorda madaniy hayoti va me'morchilik an'analari ham yoritilgan. Muallif Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining bunyod etilish tarixiy sharoitlari, uning diniy-ma'rifiy hamda siyosiy ahamiyati haqida muhim ma'lumotlarni keltirib, ushbu majmuaning Temuriylar davridagi mafkuraviy siyosatda tutgan o'rnini alohida ta'kidlaydi (Fayziyev, 1995) [3].

Shuningdek, YUNESKOning rasmiy hujjatlari va ilmiy materiallarida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi jahon madaniy merosining nodir namunalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur hujjatlarda yodgorlikning me'moriy yechimi, qurilish texnologiyasi, tarixiy-badiiy qiymati hamda butun insoniyat madaniy merosidagi o'rni xalqaro mezonlar asosida baholangan (UNESCO, 2024).

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, Amir Temur tomonidan Janubiy Qozog'istonda bunyod ettirilgan diniy me'morchilik yodgorliklari nafaqat me'moriy san'atning yuksak namunasi, balki Temuriylar davlatining diniy, siyosiy va madaniy siyosatini aks ettiruvchi muhim tarixiy manbalar hisoblanadi. Shu bois ularni kompleks tarixiy va me'moriy jihatdan o'rganish bugungi kunda ham ilmiy dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi – Temuriylar davrining markaziy ziyoratgohi

Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Temur 1397-yil oxirlarida Yassi shahriga tashrif buyurib, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ziyorat qilgan. O'sha davrga kelib, maqbara ancha eskirib, vayron bo'la boshlagan edi. Sohibqiron ushbu muqaddas maskan o'rnida ulkan va mahobatli me'moriy majmua barpo etishni buyuradi. Mazkur tashabbus buyuk mutasavvifga bo'lgan yuksak ehtirom ifodasi bo'lishi bilan birga, Dashti Qipchoq hududidagi siyosiy barqarorlikni mustahkamlash va turkiy qabilalar orasida Temuriylar hokimiyatining nufuzini oshirishga xizmat qilgan muhim siyosiy qaror ham edi.

Maqbara qurilishi 1398–1405-yillarda amalga oshirilgan. Biroq Amir Temurning 1405-yilda vafot etishi sababli qurilish ishlari to'liq yakunlanmay qolgan. Bu holat, ayniqsa, bosh peshtoqning tugallanmagan qismida yaqqol namoyon bo'ladi. Inshootning uzunligi 65,5 metr, eni 45,5 metr, balandligi esa 38,7 metrni tashkil etib, u o'z davrining eng yirik gumbazli me'moriy obidalaridan biri hisoblanadi. Majmua tarkibiga jome masjidi, xonaqoh, kutubxona, oshxona, mehmonxona va boshqa maqsadlarga xizmat qiluvchi 30 dan ortiq xona kirgan bo'lib, bu uning nafaqat ziyoratgoh, balki diniy, ilmiy va ijtimoiy-ma'rifiy markaz vazifasini ham bajarganini ko'rsatadi [4].

Me'moriy jihatdan maqbara Eron va Movarounnahr me'morchilik maktablari an'analarining uyg'unlashuvi mahsuli hisoblanadi. Keyinchalik Samarqand, Hirot

va Temuriylar davrining boshqa shaharlarida bunyod etilgan me'moriy inshootlarda qo'llanilgan ko'plab konstruktiv va badiiy yechimlar ilk bor aynan ushbu majmuada sinovdan o'tkazilgan. Bosh peshtoqdagi nafis koshinkor bezaklar, murakkab geometrik va islimiy naqshlar hamda epigrafik yozuvlar Temuriylar me'morchilik uslubining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etadi.

Arslon Bob maqbarasi – ziyorat an'anasining muhim bo'g'ini

Xalq rivoyatlariga ko'ra, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi qurilishi boshlanganda bino devorlari bir necha bor qulab tushgan. Shundan so'ng Amir Temur tushida bir nuroniy zotni ko'rib, u avvalo Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy ustozi Arslon Bob qabri ustida maqbara barpo etishni tavsiya qilgan. Rivoyatga ko'ra, ushbu maslahat bajarilgach, Yassaviy maqbarasi qurilishi muvaffaqiyatli davom etgan.

Mazkur rivoyat Arslon Bob va Xoja Ahmad Yassaviy ziyoratgohlari o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ifodalaydi. Asrlar davomida shakllangan ziyorat an'anasiga ko'ra, ziyoratchilar avvalo O'tror yaqinidagi Arslon Bob maqbarasini, undan so'ng esa Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ziyorat qilganlar. Ushbu tartib Amir Temur davrida shakllangan ziyorat yo'nalishining izchil tizimini aks ettirib, mintaqaning diniy geografiyasini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Robiya Sultonbegim maqbarasi

Xoja Ahmad Yassaviy majmuasi yaqinida joylashgan Robiya Sultonbegim maqbarasi Amir Temurning nabirasi xotirasiga bag'ishlangan me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Mazkur maqbaraning muqaddas majmua hududida bunyod etilishi Temuriylar sulolasining Xoja Ahmad Yassaviy ziyoratgohi bilan uzviy bog'liqligini yaqqol namoyon etadi.

Sulola vakillarining aynan Turkiston hududiga dafn etilishi ushbu shahar Temuriylar davrida nafaqat yirik diniy markaz, balki sulolaviy xotira va siyosiy ramziylikni mujassam etgan muqaddas maskan sifatida ham e'tirof etilganini ko'rsatadi. Shu tariqa, Yassaviy majmuasi diniy, siyosiy va madaniy hayot uyg'unlashgan noyob tarixiy majmua sifatida Temuriylar davlatining ma'naviy siyosatida alohida o'rin egallagan [3].

Yuqorida tavsiflangan yodgorliklarning asosiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Amir Temur davri Janubiy Qozog'istondagi diniy me'morchilik yodgorliklari

Yodgorlik nomi	Joylashuvi	Qurilish davri	Vazifasi
Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi	Yassi (hoz. Turkiston)	1389–1405	Sulton Xoja Ahmad Yassaviyning qabri ustiga qurilgan markaziy ziyoratgoh, jome masjidi, xonaqoh va madrasa vazifalarini bajaruvchi kompleks
Ariston Bob (Arslonbob) maqbarasi	O‘tror vohasi	XIV asr oxiri (rivoyatga ko‘ra Yassaviy maqbarasidan oldin)	Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy ustozi qabri ustidagi ziyoratgoh; ziyoratchilar odatda avval shu yerga, so‘ng Yassaviy maqbarasiga tashrif buyurishgan
Robiya Sultonbegim maqbarasi	Yassi (Turkiston), Yassaviy majmuasi yaqinida	XV asr boshi	Amir Temurning nabirasi xotirasiga bag‘ishlangan kichik maqbara-ziyoratgoh, majmuaning tarkibiy qismi

Amir Temurning Janubiy Qozog‘istondagi bunyodkorlik faoliyati tasodifiy emas, balki puxta o‘ylangan diniy-siyosiy strategiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Avvalo, Xoja Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar, ayniqsa Dashti Qipchoq ko‘chmanchi qabilalari orasida yuksak ma’naviy nufuzga ega bo‘lgan mutasavvif sifatida e’tirof etilgan. Shu bois uning qabri ustiga ulkan maqbara barpo etilishi Amir Temurning islom dini va tasavvuf qadriyatlariga bo‘lgan hurmatini namoyon etish bilan birga, Temuriylar hokimiyatining siyosiy legitimligini mustahkamlashga ham xizmat qilgan.

Ikkinchidan, Arslon Bob va Xoja Ahmad Yassaviy ziyoratgohlari negizida shakllangan ziyorat yo‘nalishi mintaqada yagona diniy-marosim tizimini vujudga keltirgan. Mazkur tizim ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi diniy-madaniy aloqalarni mustahkamlashga, umumiy ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qilgan. Bu holat Amir Temurning hokimiyatni nafaqat harbiy qudrat, balki mafkuraviy va ma’naviy omillar orqali ham mustahkamlashga intilganini ko‘rsatadi.

Me'moriy-texnik jihatdan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi Temuriylar me'morchiligining muhim tajriba maydoni bo'lgan. Unda qo'llanilgan yirik gumbaz konstruksiyalari, ulkan peshtoq kompozitsiyasi, koshinkorlik va bezak san'ati usullari keyinchalik Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi hamda boshqa Temuriylar davri inshootlarida yanada takomillashtirilgan holda qo'llanilgan. Shu jihatdan mazkur majmua Temuriylar me'morchilik maktabining shakllanishida muhim bosqich sifatida baholanadi.

Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining 2003-yilda YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgani ushbu yodgorlikning nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon madaniy merosidagi alohida o'rnini tasdiqlaydi. Bu esa Amir Temur davri me'moriy merosini alohida yodgorliklar kesimida emas, balki yagona tarixiy-madaniy tizim sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi [7].

Shunday qilib, Amir Temur tomonidan Janubiy Qozog'iston hududida bunyod ettirilgan diniy me'morchilik yodgorliklari o'z davrining yuksak muhandislik va me'moriy tafakkuri mahsuli bo'lishi bilan birga, turkiy-islom sivilizatsiyasining ma'naviy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi, Arslon Bob ziyoratgohi hamda Robiya Sultonbegim maqbarasi Sohibqironning diniy-ma'rifiy qadriyatlarga e'tibori, bunyodkorlik siyosati va davlat boshqaruvida ma'naviy omillarga alohida ahamiyat berganini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur yodgorliklarning me'moriy qiyofasida Temuriylar davriga xos badiiy yechimlar, ilg'or muhandislik tajribasi va milliy me'moriy an'analar uyg'unlashgan. Ayniqsa, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasining mahobatli gumbazi, nafis koshinkorligi va epigrafik bezaklari o'rta asrlar Markaziy Osiyo me'morchilik san'atining yuksak taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Bu jihatlar Amir Temurning nafaqat zabardast sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan, madaniyat va me'morchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan bunyodkor hukmdor bo'lganini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda Janubiy Qozog'istondagi ushbu ziyoratgohlar diniy, tarixiy va turistik ahamiyatini saqlab qolgan bo'lib, har yili ko'plab ziyoratchilar va sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. Ular mintaqaning madaniy turizm salohiyatini yuksaltirish, turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasini asrash va madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning Janubiy Qozog'istondagi bunyodkorlik siyosati uning davlatchilik g'oyalari, diniy-ma'rifiy qarashlari va madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan faoliyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Sohibqiron bunyod ettirgan diniy me'morchilik yodgorliklari bugungi kunda ham turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasi va madaniy birdamligining muhim ramzlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois mazkur obidalarni tarixiy, me'moriy va madaniy nuqtai nazardan yanada chuqur o'rganish, ularni muhofaza

qilish hamda kelajak avlodlarga yetkazish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadjonov, A. R. Amir Temur va Temuriylar saltanati tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. – 192 b.
2. Hayitov, Sh. A., Ravshanov, F. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati. – Toshkent: Fan, 2006. – 240 b.
3. Bunyodov, Z. M. Temuriylar davri me’morchiligi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 286 b.
4. Rahimov, Q. Markaziy Osiyo me’morchilik yodgorliklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 320 b.
5. Rajabov, Q. Temuriylar davri tarixi va manbashunosligi. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 280 b.
6. Hasanov, S. Amir Temur davrida madaniy hayot va me’morchilik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 256 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 7-son

UDK: 343.72:004.056

Aripov Shuxrat Tohir o‘g‘li,
mustaqil izlanuvchi

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy ilmiy-nazariy konsepsiyalari tahlil qilinadi. Kiberjinoyatchilikning transmilliy, tarmoqli va tez o‘zgaruvchan xususiyati asoslanib, unga qarshi kurashishda huquqiy, kriminologik, texnologik, viktimologik va institutsional yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurati yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt, raqamli kriminalistika, xavfni prognozlash hamda raqamli savodxonlikning kiberjinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot yakunida kiberjinoyatchilikka qarshi kurash tizimi inson huquqlari, qonuniylik va shaxsga doir ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlash tamoyillari bilan muvozanatda rivojlantirilishi lozimligi to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, kiberxavfsizlik, raqamli kriminalistika, sun’iy intellekt, kiberhujum, raqamli dalil, viktimologik profilaktika, axborot xavfsizligi, transmilliy jinoyatchilik, huquqiy tartibga solish.

СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ И ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируются современные концепции противодействия киберпреступности. Обосновывается необходимость сочетания правового, криминологического, технологического, виктимологического и институционального подходов. Особое внимание уделяется искусственному интеллекту, цифровой криминалистике, прогнозированию рисков и цифровой грамотности. Делается вывод о необходимости баланса между эффективностью, законностью, правами человека и защитой персональных данных.

Ключевые слова: киберпреступность, кибербезопасность, цифровая криминалистика, искусственный интеллект, кибератака, цифровые доказательства, виктимологическая профилактика, информационная безопасность, транснациональная преступность, правовое регулирование.

MODERN CONCEPTS OF CYBERCRIME COUNTERACTION AND THEIR DEVELOPMENT TRENDS

Abstract. The article analyses modern concepts of combating cybercrime. It highlights the need to combine legal, criminological, technological, victimological and institutional approaches. Particular attention is paid to artificial intelligence, digital forensics, risk forecasting and digital literacy. The author concludes that cybercrime prevention should balance efficiency, legality, human rights and personal data protection.

Keywords: cybercrime, cybersecurity, digital forensics, artificial intelligence, cyberattack, digital evidence, victimological prevention, information security, transnational crime, legal regulation.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, moliya, sog'liqni saqlash hamda kundalik ijtimoiy munosabatlar sohalariga jadal kirib borishi jamiyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, jinoyatchilikning yangi shakllari va usullarining yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ma'lumot almashish tezligi oshdi, elektron xizmatlardan foydalanish ko'lami kengaydi va raqamli infratuzilma zamonaviy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Shu bilan birga, mazkur jarayon kiberjinoyatchilar uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratib, jinoyat sodir etishning masofaviy, anonim va avtomatlashtirilgan usullarining keng tarqalishiga olib kelmoqda.

Ilgari muayyan hudud, moddiy obyekt yoki bevosita jismoniy ta'sir bilan bog'liq bo'lgan ko'plab jinoyatlar bugungi kunda geografik chegaralardan tashqarida, qisqa vaqt ichida va ko'p sonli shaxslar yoki tashkilotlarga nisbatan sodir etilishi mumkin. Masalan, zararli dasturlarni tarqatish, elektron to'lov tizimlariga noqonuniy aralashish, shaxsga doir ma'lumotlarni o'g'irlash, fishing hujumlari, kiberfiribgarlik va axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish kabi harakatlar raqamli muhitning o'ziga xos xususiyatlari tufayli murakkab tus olmoqda. Bunday jinoyatlarning aniqlanishi, tergov qilinishi va oldini olinishi an'anaviy jinoyatlarga nisbatan o'ziga xos huquqiy, texnik va tashkiliy yondashuvlarni talab etadi.

Shu sababli kiberjinoyatchilikni faqat kompyuter tizimiga noqonuniy kirish yoki texnik buzilish sifatida tushunish yetarli emas. U raqamli muhitdan jinoyat quroli, jinoyat obyekti, jinoyat izlarini yashirish yoki jinoyat oqibatlarini kengaytirish vositasi sifatida foydalaniladigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. Kiberjinoyatchilikning o'ziga xos jihati shundaki, unda texnologik imkoniyatlar, inson omili, iqtisodiy manfaatlar, huquqiy bo'shliqlar va xalqaro munosabatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash nazariyasi va amaliyoti zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan birgalikda doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Dastlab mazkur yo'nalishda asosiy e'tibor axborot tizimlarini texnik himoya qilish va ruxsatsiz kirishlarning oldini olishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda yondashuvlar ancha kengaygan. Hozirgi sharoitda kiberxavfsizlikni ta'minlash faqat

texnik vositalar bilan cheklanmay, balki inson omili, jinoyatchilik motivatsiyasi, raqamli dalillarni yig‘ish va tahlil qilish, xalqaro hamkorlik, huquqiy tartibga solish hamda profilaktik choralarni kompleks ravishda qo‘llashni talab etmoqda.

Ayniqsa, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va raqamli kriminalistika vositalarining rivojlanishi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalardan foydalanishda shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish, qonuniylik va inson huquqlarini ta’minlash masalalari ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashni ta’minlash uchun huquqiy, kriminologik, texnologik, kriminalistik va institutsional yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan kompleks tizimni shakllantirish zarur. Mazkur tizim nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va javobgarlik masalasini hal etishga, balki kiberxavflarni oldindan aniqlash, ularning oldini olish va xavfsiz raqamli muhitni shakllantirishga qaratilishi lozim.

Asosiy qism. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy ilmiy-nazariy asoslari raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, elektron munosabatlar ko‘lamining kengayishi hamda jinoiy faoliyatning transmilliy xususiyat kasb etishi ta’sirida shakllanmoqda. Kibermakonda sodir etiladigan qilmishlarning muayyan hudud bilan cheklanmasligi, elektron ma’lumotlarning qisqa vaqt ichida o‘zgartirilishi yoki yo‘q qilinishi mumkinligi, shuningdek, jinoyat sodir etish usullarining muntazam ravishda takomillashib borishi mazkur hodisaga nisbatan faqat an’anaviy jinoyat-huquqiy vositalardan foydalanish yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Shu bois xorijiy davlatlar tajribasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurash huquqiy tartibga solish, texnik himoya, kriminologik profilaktika, raqamli kriminalistika hamda institutsional hamkorlikni o‘zaro uyg‘unlashtirgan kompleks tizim sifatida rivojlanmoqda.

Xorijiy amaliyotda asosiy e’tibor nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishga, balki kiberxavflarni erta aniqlash, axborot infratuzilmasining barqarorligini ta’minlash, elektron dalillarni tezkor ravishda saqlab qolish hamda ehtimoliy zararlarning oldini olishga qaratilmoqda. Bunda davlat organlari bilan bir qatorda banklar, to‘lov tashkilotlari, internet-provayderlar, telekommunikatsiya kompaniyalari, raqamli platformalar va ta’lim muassasalarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan choralar shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish va inson huquqlarini ta’minlash tamoyillari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozimligi e’tirof etiladi.

O‘zbekistonda ham davlat xizmatlari, bank operatsiyalari, to‘lov tizimlari va ijtimoiy munosabatlarning raqamlashtirilishi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Milliy tajribada axborot tizimlarini texnik jihatdan himoya qilish, elektron dalillar bilan ishlash, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish kabi yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq holda rivojlanmoqda. Bu esa xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni milliy huquqiy tizim, institutsional imkoniyatlar va jamiyatning raqamli rivojlanish darajasiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur masalalar o‘zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham turli jihatlardan tahlil qilingan. Jumladan, R.R. Shakurov va M.M. Vohidov raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy tizim mazmunini ochib berib, «Kiber huquq – axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga hamda himoya qilishga qaratilgan huquq sohasidir», deb ta'kidlaydilar [1].

Mazkur fikr kiberjinoyatchilikka qarshi kurashni faqat jinoyat huquqi doirasidagi masala sifatida emas, balki axborot resurslaridan foydalanish, elektron munosabatlarni tartibga solish va ularning ishtirokchilari huquqlarini ta'minlash bilan bog‘liq kompleks huquqiy tizim sifatida baholash imkonini beradi. Bizningcha, kiberhuquqning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi turli huquq tarmoqlariga mansub normalarni oddiy tarzda birlashtirish emas, balki raqamli muhitda yuzaga kelayotgan munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlash va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishni anglatadi.

Raqamli munosabatlarni huquqiy tartibga solish ularni amalga oshirish va himoya qilishning samarali protsessual mexanizmlari bilan ta'minlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, B.O. Primov «bizning amaldagi milliy jinoyat protsessimiz fan va texnika taraqqiyotining hozirgi darajasiga to‘liq javob bermaydi», degan xulosaga keladi [2].

Olimning mazkur fikri elektron ma'lumotlarni olish, nusxalash, saqlash va tekshirishga oid protsessual qoidalarni zamonaviy texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Elektron dalil moddiy dalildan farqli ravishda oson o‘zgartirilishi, ko‘paytirilishi yoki masofadan turib yo‘q qilinishi mumkin. Shu sababli raqamli dalilning ishonchliligi nafaqat uning mazmuni, balki olingan manbasi, vaqti, usuli, yaxlitligi hamda unga kirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi ma'lumotlar bilan ham belgilanadi.

Kiberjinoyatlarni tergov qilish amaliyotida an'anaviy usullarning imkoniyatlari cheklanganligi yangi kriminalistik metodikalarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. B.B. Murodov va N.A. Xushvaqtova bu borada «yangi jinoyat turi yangicha tergov metodikasi va tergov harakatlarini o‘tkazishning yangi taktikasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda» [3], deb ta'kidlaydilar.

Mazkur yondashuv kiberjinoyatlarni tergov qilish jarayonida raqamli izlarni aniqlash, elektron qurilmalarni ko‘zdan kechirish, tarmoq ma'lumotlarini tahlil qilish hamda tegishli tashkilotlar bilan tezkor hamkorlikni ta'minlashga

moslashtirilgan maxsus metodikalarni ishlab chiqish zarurligini anglatadi. Bunda tergovchi, mutaxassis va ekspertning vazifalari, ular tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning protsessual chegaralari, shuningdek, olingan natijalardan dalil sifatida foydalanish tartibi aniq belgilanishi lozim.

Raqamli muhitda jinoiy tajovuz obyektining mazmuni ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Axborot, shaxsga doir ma’lumotlar hamda foydalanuvchining raqamli faoliyatiga oid ma’lumotlar iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan muhim resursga aylanmoqda. X.R. Nurmanov ushbu masala yuzasidan «Shaxsiy ma’lumot allaqachon tovarga aylandi, chunki foydalanuvchilar odatda boshqa xizmatlar evaziga o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini taqdim etishga rozi bo‘ladilar» [4], deb qayd etadi.

Mazkur fikr shaxsga doir ma’lumotlarni oddiy axborot sifatida emas, balki huquqiy himoyani talab qiladigan hamda muayyan iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan resurs sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Foydalanuvchilar haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlarning to‘planishi xizmatlar sifatini oshirish imkonini berishi bilan birga, ularning sizib chiqishi, noqonuniy ravishda sotilishi, firibgarlik yoki kiberjosuslik maqsadlarida foydalanilishi xavfini ham kuchaytiradi. Shu sababli shaxsning ma’lumotlarni qayta ishlashga bergan roziligi shunchaki rasmiy harakat bo‘lib qolmasdan, ushbu ma’lumotlar qanday maqsadda, qancha muddat davomida va qanday himoya vositalari asosida qayta ishlanishini anglash imkoniyatini ta’minlashi kerak. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarining joriy etilishi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi huquqiy masalalarni ham yuzaga keltirmoqda. M.M. Maxamatovning fikricha, «bunday tizimlarning shaffofligi, adolatliligi va hisobdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda» [5]. Mazkur yondashuv sun’iy intellektga asoslangan tizimlarni kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda qo‘llashda faqat ularning texnik samaradorligi bilan cheklanib qolmaslik zarurligini ko‘rsatadi. Algoritmlar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, shubhali operatsiyalarni aniqlash hamda xavf belgilaridagi o‘xshashliklarni baholash imkoniyatiga ega. Biroq avtomatlashtirilgan tizim tomonidan chiqarilgan xulosa inson huquqlarini cheklash, shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilish yoki protsessual qaror qabul qilish uchun yagona asos bo‘lib xizmat qilmasligi lozim. Bunday xulosalar mutaxassis tomonidan qayta tekshirilishi, algoritm ishlashining asosiy mezonlari tushunarli bo‘lishi va manfaatdor shaxsga qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyati berilishi zarur. Yuqoridagi ilmiy qarashlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning turli yo‘nalishlarini yaxlit holda namoyon etadi. R.R. Shakurov va M.M. Vohidov raqamli munosabatlarni huquqiy tartibga solishning umumiy doirasini belgilagan bo‘lsalar, B.O. Primov mazkur munosabatlarni jinoyat-protsessual vositalar bilan ta’minlash zaruratiga e’tibor qaratadi. B.B. Murodov va N.A. Xushvaqtova kiberjinoyatlarni tergov qilish metodikasini takomillashtirish masalasini ilgari sursa, X.R. Nurmanov jinoiy tajovuz obyekti sifatida shaxsga doir

ma'lumotlarning ahamiyati ortib borayotganini asoslaydi. M.M. Maxamatov esa yangi texnologiyalarni joriy etishda shaffoflik, adolatlilik va hisobdorlik tamoyillariga rioya etish zarurligini ko‘rsatadi.

Bizningcha, mazkur yondashuvlarni birlashtiruvchi asosiy jihat shundaki, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faqat texnik yoki jinoyat-huquqiy masala bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon huquqiy tartibga solish, protsessual kafolatlar, kriminalistik metodika, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish hamda texnologik vositalardan mas'uliyatli foydalanishni qamrab oluvchi kompleks tizimni talab etadi. Mazkur yo‘nalishlardan birining yetarli darajada rivojlanmaganligi boshqa choralarning samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, zamonaviy texnik vositalar mavjud bo‘lsa-da, raqamli dalillarni olishning protsessual tartibi aniq belgilanmagan taqdirda, ulardan odil sudlov jarayonida foydalanish imkoniyati cheklanadi. Aksincha, mukammal huquqiy normalar zamonaviy texnik va institutsional mexanizmlar bilan ta'minlanmasa, amaliyotda kutilgan samarani bermaydi.

Xorijiy va milliy tajriba, shuningdek, o‘zbek olimlarining ilmiy qarashlarini umumlashtirish kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi zamonaviy konsepsiyalarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Birinchidan, huquqiy-normativ konsepsiya kibermakonda sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarning huquqiy belgilarini, javobgarlik asoslarini hamda raqamli munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilashga qaratilgan. Mazkur konsepsiya doirasida qonunchilik faqat muayyan texnik vositalarni sanab o‘tish bilan cheklanib qolmasdan, balki qilmishning maqsadi, sodir etish usuli, yuzaga kelgan oqibatlari va tajovuz obyektini hisobga oluvchi moslashuvchan huquqiy normalarga asoslanishi lozim.

Ikkinchidan, kriminologik konsepsiya kiberjinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi sabablar, uning sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar hamda jinoyatchi shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratiladi. Raqamli muhitdagi nisbiy anonimlik, masofadan turib harakat qilish imkoniyati, qisqa vaqt ichida ko‘plab shaxslarga ta'sir ko‘rsatish imkoniyati va tayyor zararli vositalardan foydalanish imkoniyati kiberjinoyiy xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Uchinchidan, texnologik-proaktiv konsepsiya sodir etilgan kiberhodisalarga javob berishdan xavflarni oldindan aniqlash va ularning oldini olishga o‘tishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv doirasida sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar tahlili, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash hamda noodatiy tarmoq harakatlarini kuzatish vositalaridan foydalaniladi. Biroq bunday tizimlar inson nazorati, qonuniylik, shaffoflik va algoritmik hisobdorlik tamoyillari asosida ishlashi lozim.

To‘rtinchidan, raqamli-kriminalistik konsepsiya elektron dalillarni aniqlash, qayd etish, olish, nusxalash, saqlash va tadqiq qilishning ilmiy hamda protsessual

asoslarini o‘zida mujassam etadi. Raqamli dalilning ishonchliligi faqat uning mazmuni bilan emas, balki kelib chiqish manbasi, olish usuli va yaxlitligining qay tartibda tasdiqlangani bilan ham belgilanadi.

Beshinchidan, viktimologik konsepsiya fuqarolar va tashkilotlarning kiberjinoyatlardan jabrlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan. Raqamli savodxonlikni oshirish, ikki bosqichli autentifikatsiyani joriy etish, shubhali operatsiyalar to‘g‘risida tezkor ogohlantirish, xavfli havolalardan himoyalanish hamda foydalanuvchilarning ehtimoliy xatolarini hisobga oluvchi himoya mexanizmlarini yaratish ushbu konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Oltinchidan, institutsional hamkorlik konsepsiyasi davlat organlari, banklar, to‘lov tashkilotlari, aloqa operatorlari, internet-provayderlar va raqamli platformalarning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatini nazarda tutadi. Kiberhodisalar to‘g‘risidagi muhim ma’lumotlar turli subyektlar tasarrufida bo‘lishi mumkinligi sababli, axborot almashishning tezkor, aniq va qonuniy mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yettinchidan, transmilliy hamkorlik konsepsiyasi kiberjinoyatlarning davlat chegaralari bilan cheklanmasligi xususiyatidan kelib chiqadi. Jinoyatchi, server, axborot tizimi va jabrlanuvchi turli davlat hududlarida joylashishi mumkin. Shu bois yurisdiksiyani belgilash, elektron ma’lumotlarni tezkor saqlash, xalqaro huquqiy yordam so‘rovlarini amalga oshirish hamda dalillarni olish jarayonlarini soddalashtirish zarur.

Sakkizinchidan, inson huquqlariga asoslangan konsepsiya kiberjinoyatchilikka qarshi kurash choralarining qonuniyligi, zarurligi va mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan. Shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, elektron yozishmalarga kirish, qurilmalarni tekshirish yoki avtomatlashtirilgan nazorat vositalaridan foydalanish aniq huquqiy asoslarga ega bo‘lishi hamda mustaqil nazorat mexanizmlari bilan kafolatlanishi lozim.

To‘qqizinchidan, kiberxavfsizlik madaniyati va ta’lim konsepsiyasi aholining raqamli muhitda o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda aholining turli qatlamlari uchun mavjud xavflarga moslashtirilgan ta’lim va ogohlantirish dasturlari ishlab chiqilishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari esa huquqiy bilimlar bilan bir qatorda axborot texnologiyalari va raqamli kriminalistika sohasida ham zarur tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim.

O‘ninchidan, integrativ konsepsiya yuqorida qayd etilgan barcha yondashuvlarni yagona tizimga birlashtiradi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy choralar texnologik imkoniyatlardan, kriminologik profilaktika raqamli tahlildan, raqamli kriminalistika esa protsessual kafolatlardan ajratilgan holda amalga oshirilsa, kutilgan samaraga erishish qiyinlashadi.

Shunday qilib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash konsepsiyalarining rivojlanish tendensiyalari reaktiv choralarni qo‘llashdan proaktiv profilaktikaga, tor idoraviy yondashuvdan institutsional hamkorlikka, faqat texnik himoya

vositalaridan esa inson huquqlari va raqamli ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlovchi kompleks tizimga o'tish jarayonida namoyon bo'lmoqda. Milliy amaliyotda xorijiy tajribaning ilg'or jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega, biroq ularni mexanik tarzda qabul qilish emas, balki O'zbekistonning huquqiy tizimi, institutsional imkoniyatlari va raqamli taraqqiyot xususiyatlariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashni faqat jazo choralarini qo'llash, texnik vositalardan foydalanish yoki tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish bilangina ta'minlab bo'lmaydi. Mazkur yo'nalish huquqiy aniqlik, kriminologik tahlil, zamonaviy texnologik imkoniyatlar, raqamli kriminalistika, viktimologik profilaktika hamda institutsional hamkorlikni o'zida mujassam etgan o'zaro bog'liq kompleks tizimga tayanishi lozim. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy rivojlanish tendensiyasi jinoyat sodir etilgandan keyingi choralarni qo'llashdan xavflarni oldindan aniqlash, ularning oldini olish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni imkon qadar erta cheklashga o'tish bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, kurash choralarining tezkorligi va samaradorligi inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish hamda protsessual kafolatlar hisobiga ta'minlanmasligi lozim. Milliy tizimning barqaror rivojlanishi ilmiy tadqiqotlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash, aholining raqamli savodxonligini oshirish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirishga bevosita bog'liqdir. Ana shunday yondashuv asosidagina kiberjinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat mavjud tahdidlarga javob berish vositasi, balki xavfsiz va barqaror raqamli jamiyatni shakllantirishga qaratilgan kompleks siyosatga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shakurov R.R., Vohidov M.M. Kiber huquq – huquq sohasi sifatida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – B. 3.

2. Primov B.O. Dastlabki tergovda qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi va umumiy tavsifi // Yurisprudensiya. 2021. №6. – B. 186.

3. Murodov B.B., Xushvaqtova N.A. Axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda jamoatchilik bilan hamkorlik // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2022. №3. – B. 65–75; iqtibos olingan bet: 67.

4. Nurmanov X.R. Kiberjosuslik tushunchasi va uning obyektiga oid ayrim mulohazalar // Kriminologiya va jinoiy odil sudlov. 2025. №4. – B. 18–27; iqtibos olingan bet: 25.

5. Maxamatov M.M. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning zamonaviy tendensiyalari va O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2026. №1. – B. 118.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 37.091.3:811.111:004.8



Mengturayeva Feruza Abdig'afforovna,
Mustaqil tadqiqotchi

GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING SHAXSIYLASHTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada generativ sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan yirik til modellariga asoslangan vositalarning ingliz tilini o'qitish jarayonini shaxsiylashtirishdagi imkoniyatlari tadqiq etiladi. Muallif tomonidan diagnostika, adaptiv kontent generatsiyasi, real vaqt fikr-mulohazasi va monitoring bosqichlaridan iborat to'rt komponentli model taklif etilgan. Pedagogik eksperiment davomida ushbu model qo'llanilgan tajriba guruhi natijalari an'anaviy uslubda o'qitilgan nazorat guruhi natijalari bilan qiyoslangan. Natijalar shaxsiylashtirilgan sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan o'quvchilarda lug'at boyligi, grammatik kompetensiya, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarining sezilarli darajada o'sganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt, ChatGPT, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ingliz tili o'qitish metodikasi, adaptiv o'qitish, raqamli ta'lim texnologiyalari, tabiiy tilni qayta ishlash, CEFR.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОЙ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. В данной статье исследуются возможности технологий генеративного искусственного интеллекта, в частности инструментов на основе больших языковых моделей, для персонализации процесса обучения английскому языку. Автором предложена четырёхкомпонентная модель, включающая диагностику, генерацию адаптивного контента, обратную связь в реальном времени и мониторинг. В ходе педагогического эксперимента результаты экспериментальной группы, обучавшейся с применением данной модели, сопоставлялись с результатами контрольной группы, обучавшейся традиционными методами. Результаты показали существенный рост

словарного запаса, грамматической компетенции, а также навыков письменной и устной речи у учащихся, использовавших персонализированные инструменты ИИ.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, ChatGPT, персонализированное обучение, методика преподавания английского языка, адаптивное обучение, цифровые образовательные технологии, обработка естественного языка, CEFR.

IMPROVING A PERSONALIZED METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Annotation. This article examines the potential of generative artificial intelligence technologies, particularly large language model-based tools, for personalizing English language teaching. The author proposes a four-component model comprising diagnostics, adaptive content generation, real-time feedback and monitoring stages. In the pedagogical experiment, the results of an experimental group taught using this model were compared with those of a control group taught through conventional methods. The findings demonstrate a significant improvement in vocabulary, grammatical competence, and written and oral communication skills among learners who used personalized AI-based tools.

Key words: generative artificial intelligence, ChatGPT, personalized learning, English language teaching methodology, adaptive learning, digital educational technologies, natural language processing, CEFR.

Kirish. So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt (GenAI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga, ayniqsa chet tillarini o‘qitish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. 2022-yilda ChatGPT chatbotining ommaviy foydalanishga taqdim etilishi bilan til o‘qituvchilari va tadqiqotchilar ushbu texnologiyani ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalalariga alohida e’tibor qarata boshladilar [1]. Yirik til modellariga (Large Language Models – LLM) asoslangan vositalar matn yaratish, o‘quvchilar bilan tabiiy muloqot qilish, til xatolarini aniqlash, individual tavsiyalar berish hamda o‘quv jarayonini moslashtirish imkoniyatiga ega. Shu sababli ular an’anaviy “barcha uchun bir xil” yondashuvdan farqli ravishda shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etishning samarali vositasi sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, ingliz tilini mukammal egallash bugungi kunda akademik, kasbiy va xalqaro muloqotning muhim sharti hisoblanadi, biroq an’anaviy o‘qitish metodlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini har doim ham hisobga olmaydi. Ikkinchidan, generativ sun’iy intellekt o‘quv materiallarini moslashtirish, uzluksiz individual fikr-mulohaza (feedback) taqdim etish va o‘quv

jarayonini shaxsiylashtirish imkonini bermoqda. Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda ham sun’iy intellektni ta’limga integratsiya qilish dolzarb masala bo‘lib, UNESCO tavsiyalarida undan foydalanish pedagogik maqsadlarga mos, inklyuziv, etik me’yorlarga asoslangan va barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlovchi yondashuv asosida tashkil etilishi lozimligi ta’kidlangan [17]. Bu generativ sun’iy intellektni joriy etishda texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda pedagogik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili generativ sun’iy intellekt vositalarining ingliz tilini o‘qitishdagi imkoniyatlari keng o‘rganilganini ko‘rsatsa-da, ularni CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) darajalari asosida shaxsiylashtirilgan metodik model sifatida ishlab chiqish va mahalliy ta’lim sharoitiga moslashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi generativ sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilini o‘qitishning shaxsiylashtirilgan metodikasini ishlab chiqish, uning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

shaxsiylashtirilgan ta’lim va generativ sun’iy intellektning nazariy asoslarini aniqlash;

CEFR talablari asosida shaxsiylashtirilgan metodik modelni ishlab chiqish;

modelni pedagogik eksperiment orqali sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini statistik usullar bilan baholash;

tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqola quyidagi tuzilishda bayon etilgan: dastlab mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinadi, keyin tadqiqot metodologiyasi va taklif etilgan metodik model tavsiflanadi. Shundan so‘ng eksperiment natijalari statistik jihatdan tahlil qilinadi hamda yakunda xulosa va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Generativ sun’iy intellekt (Generative Artificial Intelligence, GenAI) texnologiyalari va ularning chet tillarini o‘qitishdagi qo‘llanilishi so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, ChatGPT kabi yirik til modellariga (Large Language Models – LLM) asoslangan vositalarning ommalashuvi til ta’limining mazmuni va metodlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Mavjud tadqiqotlar generativ sun’iy intellektning shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etish, til

kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘qituvchining pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashdagi salohiyatini tasdiqlaydi.

Kohnke, Moorhouse va Zou [1] ChatGPT yordamida dars materiallarini tayyorlash, individual mashqlar yaratish va interaktiv muloqotni tashkil etish imkoniyatlarini asoslaganlar. Xiao, Zhu va Xin [2] esa ingliz tilida yozma nutqni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib, ChatGPT o‘quvchilarga tezkor fikr-mulohaza berish, matn tuzilishini takomillashtirish va lug‘at boyligini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatganlar.

Pedagoglarning sun’iy intellektga munosabatini o‘rgangan Al-Khresheh [3] texnologiyaning pedagogik salohiyati yuqori bo‘lsa-da, undan samarali foydalanish uchun metodik tayyorgarlik yetarli emasligini qayd etgan. Baidoo-Anu va Ansah [4] esa generativ sun’iy intellektning adaptiv o‘quv materiallari yaratish, individual fikr-mulohaza taqdim etish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklarini ta’kidlaganlar.

Shaxsiylashtirilgan ta’limning nazariy asoslari ham ushbu yo‘nalishda muhim o‘rin tutadi. Li, Bonk, Wang va Kou [5] sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarga o‘z ta’lim trayektoriyasini mustaqil boshqarish imkonini berishini ko‘rsatgan bo‘lsa, Rahman va Vatanobe [6] generativ sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, axborot ishonchliligi va etik me’yorlarga rioya qilish zarurligini asoslaganlar. Darvin va Norton [7]ning investitsiya modeli esa shaxsiylashtirilgan ta’limni loyihalashda motivatsion va ijtimoiy omillarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi. Chen, Zou, Cheng va Xie [8] mavjud tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, ularning aksariyati qisqa muddatli eksperimentlar bilan cheklanayotganini hamda uzoq muddatli metodik modellar yetishmasligini qayd etganlar.

Mahalliy tadqiqotlarda ham sun’iy intellektning til ta’limidagi imkoniyatlari keng o‘rganilmoqda. Kasimova [9] sun’iy intellekt vositalari o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va o‘quv faolligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan. Eshbayev, Maxmudov va Rozikov [10] yumshoq hisoblash texnologiyalariga asoslangan til ta’limi tizimlarini ishlab chiqish masalalarini tadqiq qilgan bo‘lsa, Musayeva [11] va Tkacheva [12] axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda neyron tarmoqlarning shaxsiylashtirilgan ta’limdagi imkoniyatlarini asoslaganlar.

Shu bilan birga, generativ sun’iy intellektga asoslangan metodikalar chet tillarini o‘qitishning klassik didaktik tamoyillariga tayanadi. Jalolov [13] ishlab chiqqan onglilik, faollik, kommunikativlik va individual yondashuv tamoyillari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Vaynberg [14] esa raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar orasida Ummatov va Navruzov [15]ning ishlari alohida e’tiborga loyiq. Mualliflar sun’iy intellekt vositalaridan foydalangan talabalar lug‘at boyligi, grammatika hamda

yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalari bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishganini aniqlaganlar. Shu bilan birga, texnologik infratuzilmaning cheklanganligi va sun’iy intellektga ortiqcha tayanish ehtimoli ham qayd etilgan. Soliyev [16] esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda adaptiv platformalar va intellektual lug‘at tizimlarining samaradorligini asoslagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda generativ sun’iy intellektning nazariy va metodik asoslari keng yoritilgan bo‘lsa [1–8], mahalliy tadqiqotlarda asosan amaliy qo‘llash masalalari tahlil qilingan [9–16]. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida generativ sun’iy intellekt CEFR darajalari, o‘quv dasturi talablari va milliy ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirilgan yaxlit metodik model sifatida ko‘rib chiqilmagan. Shuningdek, ko‘pchilik ishlar alohida til ko‘nikmalarini o‘rganish bilan cheklanadi, holbuki chet tilini egallash tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish kompetensiyalarining kompleks rivojlanishini talab qiladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar generativ sun’iy intellektning adaptiv kontent yaratish, individual fikr-mulohaza berish va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishdagi imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Biroq diagnostika, adaptiv kontent generatsiyasi, real vaqt rejimidagi fikr-mulohaza va monitoringni yagona metodik tizimga birlashtiruvchi, CEFR talablari asosida ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston ta’lim sharoitiga moslashtirilgan model hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda aralash usul (mixed-methods) yondashuvi qo‘llanilib, sifat va miqdoriy tahlil usullari kvazi-eksperimental (quasi-experimental) dizayn asosida uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shaxsiylashtirilgan metodik model ishlab chiqildi; ikkinchi bosqichda ushbu model asosida 16 haftalik pedagogik eksperiment o‘tkazildi; uchinchi bosqichda pre-test, post-test hamda so‘rovnoma natijalari statistik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotda oliy ta’lim muassasasining ikkinchi bosqichida tahsil olayotgan, ingliz tilini bilish darajasi CEFR bo‘yicha A2–B1 oralig‘idagi 84 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash usuli asosida tajriba (n = 42) va nazorat (n = 42) guruhlariga ajratildi. Har ikkala guruh bir xil o‘quv dasturi, mavzular ketma-ketligi va dars yuklamasi asosida o‘qitildi. Farq faqat o‘qitish metodikasida bo‘lib, tajriba guruhida generativ sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan yondashuv qo‘llanildi.

Ishtirokchilarni tanlash mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oldi: ingliz tilini kamida CEFR A2 darajasida bilish, internetga ulangan shaxsiy qurilmaga ega bo‘lish hamda tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga rozilik bildirish. Ushbu mezonlarga javob bermagan talabalar tadqiqotga jalb etilmadi.

Pedagogik eksperiment to‘rt bosqichda tashkil etildi. Birinchi haftada diagnostika ishlari olib borilib, barcha ishtirokchilarning boshlang‘ich til kompetensiyasi baholandi hamda tajriba guruhi uchun individual kompetensiya profili shakllantirildi. Ikkinchi–o‘n uchinchi haftalarda asosiy o‘quv jarayoni amalga oshirildi. Tajriba guruhi auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda haftasiga uch marta sun’iy intellekt vositalari yordamida individual topshiriqlarni bajardi. O‘n to‘rtinchi va o‘n beshinchi haftalarda oraliq monitoring o‘tkazilib, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasiga qarab kompetensiya profillari va topshiriqlar moslashtirildi. O‘n oltinchi haftada yakuniy test hamda so‘rovnoma o‘tkazildi.

Eksperiment davomida sun’iy intellekt tizimi o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha tahliliy hisobotlarni shakllantirib bordi. O‘qituvchi ushbu hisobotlar asosida zarur metodik tuzatishlar kiritdi. Natijada model to‘liq avtomatlashtirilgan emas, balki human-in-the-loop tamoyiliga asoslangan, ya’ni o‘qituvchi va sun’iy intellekt hamkorligida ishlovchi tizim sifatida tashkil etildi.

Tadqiqot doirasida generativ sun’iy intellekt asosida to‘rt komponentli shaxsiylashtirilgan metodik model ishlab chiqildi. Model quyidagi bosqichlardan iborat:

Diagnostika – o‘quvchilarning lug‘at boyligi, grammatika, tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalari CEFR mezonlari asosida baholanib, individual kompetensiya profili yaratildi.

Adaptiv kontent generatsiyasi – kompetensiya profiliga muvofiq ChatGPT asosidagi tizim individual mashqlar, matnlar, dialoglar va lug‘at topshiriqlarini avtomatik yaratdi. Mashqlar murakkabligi Vygotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» tamoyiliga muvofiq belgilandi.

Real vaqt rejimidagi fikr-mulohaza – sun’iy intellekt yozma va og‘zaki topshiriqlarni tahlil qilib, grammatik xatolar, muqobil ifodalar hamda talaffuz bo‘yicha tezkor tavsiyalar berdi.

Monitoring va moslashtirish – o‘quvchilar rivojlanishi muntazam kuzatilib, kompetensiya profili va keyingi topshiriqlar avtomatik ravishda yangilanib bordi. O‘qituvchi esa analitik hisobotlar asosida umumiy ta’lim jarayonini boshqardi.

Taklif etilgan model sun’iy intellekt yordamida o‘qituvchini almashtirishni emas, balki uning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Sun’iy intellekt individual mashqlarni yaratish, dastlabki baholash va tezkor fikr-mulohaza berish kabi takrorlanuvchi vazifalarni bajaradi, o‘qituvchi esa strategik boshqaruv va kommunikativ faoliyatni tashkil etishga e’tibor qaratadi.

Tadqiqotda standartlashtirilgan til testi (pre-test va post-test), yozma ishlar tahlili, og‘zaki nutqni baholash uchun intervyu protokoli hamda 18 savoldan iborat, 5 ballik Likert shkalasi asosidagi so‘rovnomadan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar tavsifiy statistika, mustaqil tanlanmalar uchun Student t-testi hamda Cohen d ta’sir kattaligi koeffitsienti yordamida tahlil qilindi.

Taklif etilgan metodik modelni amalga oshirishda bir nechta generativ sun'iy intellekt vositalaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ularning funksional vazifalari va model bosqichlaridagi o'rni 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Modelda qo'llanilgan sun'iy intellekt vositalarining funksional taqsimoti

Vosita	Asosiy funksiyasi	Model bosqichi
ChatGPT asosidagi yordamchi	Individual mashq va matn generatsiyasi, tuzatuvchi fikr-mulohaza	Kontent generatsiyasi, fikr-mulohaza
Grammatika tekshiruvchi tizim	Yozma ishlardagi grammatik va uslubiy xatolarni aniqlash	Fikr-mulohaza
Nutqni matnga aylantiruvchi tizim	Talaffuzni baholash va og'zaki mashqlar	Fikr-mulohaza, monitoring
Adaptiv lug'at platformasi	So'z boyligini takrorlash jadvali asosida mustahkamlash	Monitoring, moslashtirish

Taklif etilgan metodik model doirasida barcha generativ sun'iy intellekt vositalari o'qituvchi tomonidan oldindan ishlab chiqilgan prompt shablonlari asosida yagona metodik ssenariy bo'yicha qo'llanildi. Bu generatsiya qilinadigan o'quv materiallarining pedagogik maqsadlarga muvofiqligini ta'minladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish maqsadida bir qator choralar ko'rildi. Baholash testlari 12 nafar talaba ishtirokidagi pilot tadqiqotda sinovdan o'tkazilib, ichki ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsienti orqali tasdiqlandi ($\alpha = 0{,}84$). Yozma ishlar ikki mustaqil ekspert tomonidan baholandi va ekspertlararo kelishuv yuqori darajada bo'ldi ($r = 0{,}89$). Bundan tashqari, ikkala guruh ham bir xil o'qituvchi tomonidan, bir xil o'quv dasturi asosida o'qitildi, bu esa tashqi omillar ta'sirini minimallashtirdi. Tadqiqot barcha ishtirokchilarning ixtiyoriy roziligi asosida, anonimlik va tadqiqot etikasi tamoyillariga rioya qilingan holda amalga oshirildi.

Modelni amaliyotga joriy etish uchun generativ sun'iy intellekt vositasidan foydalanish imkoniyati, o'quvchilarning kompetensiya profillarini saqlovchi ma'lumotlar bazasi, o'qituvchi uchun monitoring paneli hamda ma'lumotlarni himoya qilish vositalari zarur hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ushbu infratuzilma elektron jadvallar va onlayn hujjatlar asosida tashkil etildi, biroq modelni keng miqyosda joriy etish uchun maxsus dasturiy platformani ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot davomida barcha ma'lumotlar anonimlashtirilgan holda saqlandi va faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. Modelni ta'lim muassasalarida keng qo'llashda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha amaldagi milliy va xalqaro me'yorlarga qat'iy rioya etilishi zarur.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligi nafaqat texnologik, balki pedagogik omillarga ham bog'liq. Bunda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari,

o‘qituvchining fasilitator sifatidagi roli hamda individual va jamoaviy ta’lim faoliyatlari o‘rtasidagi muvozanat muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Eksperimentda ishtirok etgan 84 nafar talabaning demografik ko‘rsatkichlari va boshlang‘ich til darajasi 2-jadvalda keltirilgan. Tahlillar tajriba va nazorat guruhlari jins, yosh hamda boshlang‘ich til kompetensiyasi bo‘yicha statistik jihatdan o‘zaro taqqoslanadigan darajada bir xil ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa keyingi natijalarni ishonchli qiyoslash uchun zarur metodologik asosni yaratdi.

2-jadval

Ishtirokchilarning umumiy tavsifi

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (n=42)	Nazorat guruhi (n=42)
O‘rtacha yosh	19,4 yosh	19,6 yosh
Qizlar / o‘g‘illar nisbati	24 / 18	23 / 19
Boshlang‘ich daraja A2	17 nafar (40%)	18 nafar (43%)
Boshlang‘ich daraja B1	25 nafar (60%)	24 nafar (57%)
Haftalik SI vositasidan foydalanish	o‘rtacha 4,2 soat	0 soat (qo‘llanilmagan)

O‘n olti haftalik eksperiment yakunida ikkala guruhda ham til ko‘nikmalarini baholash uchun keyingi test o‘tkazildi. 3-jadvalda har bir ko‘nikma bo‘yicha oldindan va keyingi test o‘rtacha ballari (100 balllik shkalada), ularning o‘sishi hamda statistik ahamiyatlilik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval

Til ko‘nikmalari bo‘yicha test natijalarining qiyosiy tahlili

Ko‘nikma	Tajriba: oldin → keyin	Nazorat: oldin → keyin	p-qiymati
Lug‘at boyligi	58,3 → 79,6	57,9 → 66,4	$p < 0,01$
Grammatika	56,1 → 75,8	55,8 → 63,2	$p < 0,01$
Yozma nutq	54,7 → 77,2	55,0 → 62,5	$p < 0,01$
Og‘zaki nutq	52,9 → 73,4	53,3 → 60,1	$p < 0,05$
Tinglab tushunish	60,2 → 76,0	59,8 → 65,7	$p < 0,05$

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha besh ko‘nikma bo‘yicha o‘sish nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Eng katta farq yozma nutq (22,5 ball o‘sish, nazorat guruhida esa 7,5 ball) va lug‘at boyligi (21,3 ball o‘sish, nazorat guruhida 8,5 ball) ko‘rsatkichlarida qayd etildi. Bu natija generativ sun’iy intellekt vositasining har bir o‘quvchi uchun individual mashqlar va tezkor tuzatuvchi fikr-mulohaza taqdim etish imkoniyati bilan izohlanadi — bu jarayon an’anaviy sinf sharoitida bir o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarga bir xil chuqurlikda amalga oshirilishi qiyin bo‘lgan ishdir.

Og‘zaki nutq va tinglab tushunish ko‘nikmalaridagi o‘sish nisbatan kamroq, ammo baribir statistik ahamiyatga ega bo‘lib chiqdi ($p < 0,05$). Bunga sabab sifatida og‘zaki muloqot ko‘nikmalarining shakllanishi ko‘proq vaqt va real muloqot amaliyotini talab qilishini keltirish mumkin; shunga qaramay, sun’iy intellekt bilan matn ko‘rinishidagi "suhbat" mashqlari orqali og‘zaki nutqqa tayyorgarlik darajasi ham sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi.

Ta’sir kattaligini (effect size) baholash uchun hisoblangan Koen d koeffitsienti barcha ko‘nikmalar bo‘yicha 0,7 dan yuqori qiymatni tashkil etib, bu pedagogik tadqiqotlar metodologiyasida "katta ta’sir" darajasi sifatida talqin etiladi. Xususan, yozma nutq ko‘nikmasi bo‘yicha $d = 1,12$, lug‘at boyligi bo‘yicha $d = 0,98$ qiymatlarga erishildi, bu esa taklif etilgan modelning statistik ahamiyatliligi bilan bir qatorda amaliy-pedagogik ahamiyatga ham ega ekanligini tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, aniqlangan farqlar tasodifiy emas, balki qo‘llanilgan metodikaning bevosita natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Tajriba guruhi ichida boshlang‘ich til darajasi (A2 va B1) bo‘yicha natijalarning qanday farqlanishini aniqlash maqsadida qo‘shimcha tahlil o‘tkazildi. 4-jadvalda ikkala kichik guruhning umumiy o‘rtacha ball o‘sishi keltirilgan.

4-jadval

Boshlang‘ich CEFR darajasi bo‘yicha o‘rtacha ball o‘sishining taqqoslanishi (tajriba guruhi)

Boshlang‘ich daraja	Ishtirokchilar soni	O‘rtacha umumiy ball o‘sishi
A2	17 nafar	24,8 ball
B1	25 nafar	18,3 ball

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich A2 darajasidagi o‘quvchilarda o‘sish nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Bu holatni ikki xil izohlash mumkin: birinchidan, past boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarda o‘sish salohiyati (potentsial) tabiiy ravishda kattaroq bo‘ladi; ikkinchidan, shaxsiylashtirilgan yondashuv ayniqsa boshlang‘ich bosqichdagi o‘quvchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko‘proq asosiy tushunchalar va tuzatishlarga muhtoj bo‘ladi. Shu bilan birga, B1 darajasidagi o‘quvchilarda ham barqaror va sezilarli o‘sish kuzatilgani modelning turli til darajalarida ham samarali ekanligini tasdiqlaydi.

So‘rovnoma natijalari tajriba guruhi o‘quvchilarining shaxsiylashtirilgan sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga nisbatan yuqori qoniqish darajasini namoyon etdi. 5-jadvalda so‘rovnomaning asosiy ko‘rsatkichlari (5 ballli shkalada o‘rtacha ball) keltirilgan.

5-jadval

O‘quvchilarning motivatsiya va qoniqish ko‘rsatkichlari (5 ballli shkala)

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi

Darsga qiziqish darajasi	4,5	3,4
Fikr-mulohazaning foydaliligi	4,6	3,6
O‘z-o‘zini nazorat qilish hissi	4,3	3,2
Mustaqil o‘rganishga tayyorlik	4,4	3,3
Umumiy qoniqish darajasi	4,5	3,5

Ushbu natijalar Vaynberg [14] tomonidan ilgari surilgan g‘oyani tasdiqlaydi: texnologiya yordamida o‘qitish o‘quvchining o‘z-o‘zini nazorat qilish hissini va mustaqilligini oshiradi. Shu bilan birga, natijalar Darvin va Norton [7] taklif etgan investitsiya modeli nuqtai nazaridan ham izohlanishi mumkin — o‘quvchi o‘ziga moslashtirilgan, shaxsiy ehtiyojlariga javob beruvchi ta’lim resursi bilan ishlaganda, tilga nisbatan “investitsiyasi” ortadi, bu esa o‘z navbatida o‘rganish natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Olimgan intervyu natijalari.

Miqdoriy natijalarni chuqurroq tushunish maqsadida tajriba guruhidan 15 nafar talaba bilan yarim tuzilgan intervyu o‘tkazildi. Intervyu materiallari tematik tahlil (thematic analysis) usulida qayta ishlanib, quyidagi to‘rtta asosiy mavzu (tema) aniqlandi:

1) individual e'tibor hissi — talabalarning aksariyati sun’iy intellekt vositasi ularning shaxsiy xatolariga alohida e'tibor qaratganini va bu holat an’anaviy darsda kamdan-kam uchrashini ta’kidlashdi;

2) xato qilishdan qo‘rqmaslik — bir qator talabalar sun’iy intellekt bilan mashq qilishda xato qilishdan tortinmasliklarini, chunki bu "baholanmasligini" bildirishdi;

3) vaqt va joy erkinligi — talabalar istalgan vaqtda, uy sharoitida ham mashq qilish imkoniyatini alohida qadrlashdi;

4) haddan tashqari ishonish xavfi — bir necha talaba o‘zlarining ba’zan sun’iy intellekt javobini tekshirmasdan qabul qilib qo‘yganliklarini tan olishdi, bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

6-jadvalda ushbu to‘rt mavzu bo‘yicha intervyu ishtirokchilarining fikr-mulohazalaridan olingan umumlashtirilgan xulosalar keltirilgan.

6-jadval

Intervyu natijalari asosida aniqlangan asosiy mavzular

Mavzu	Ishtirokchilar ulushi	Umumiy xarakteristika
Individual e'tibor hissi	13/15	Shaxsiy xatolarga alohida yondashuv qadrlanadi
Xato qilishdan qo‘rqmaslik	11/15	Psixologik to‘siq pasayishi qayd etilgan
Vaqt va joy erkinligi	14/15	Mustaqil mashq qilish imkoniyati yuqori baholangan

Haddan tashqari ishonish xavfi	6/15	Tanqidiy tekshiruv zarurligi anglashilgan

Sifat tahlili natijalari miqdoriy ma'lumotlarni to'ldiruvchi muhim kontekst beradi: sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan model nafaqat o'lchanadigan til ko'nikmalariga, balki o'quvchining psixologik holati — xatodan qo'rqmaslik, o'ziga ishonch va mustaqillik hissi — ga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aniqlangan "haddan tashqari ishonish" muammosi keyingi bo'limda muhokama qilinadigan amaliy tavsiyalar uchun asos bo'ladi.

Natijalarning boshqa tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlili.

Mazkur tadqiqot natijalarini o'xshash yo'nalishdagi so'nggi tadqiqotlar bilan qiyoslash ularning ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

7-jadvalda mazkur tadqiqot natijalari Ummatov va Navruzov [15] hamda Kasimova [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslangan.

7-jadval

Natijalarning o'xshash tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlili

Tadqiqot	Namuna hajmi	Asosiy natija	Aniqlangan muammolar
Mazkur tadqiqot (2026)	84 nafar	Barcha ko'nikmalarda sezilarli o'sish, ayniqsa yozma nutq va lug'atda	Haddan tashqari ishonish, texnik tenglik
Ummatov va Navruzov [15]	120 nafar	Yozish va gapirishda eng yuqori o'sish	Kirish imkoniyati, o'qituvchi tayyorgarligi
Kasimova [9]	Nazariy-tahliliy	Motivatsiya va faollikning oshishi	Axloqiy nazorat zarurati

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tadqiqot metodologiyasi va namunalaridagi farqlarga qaramay, barcha tadqiqotlar generativ sun'iy intellektning til o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi umumiy muammolar sifatida qayd etilgan. Bu esa mazkur masalalar generativ sun'iy intellektni ta'limga integratsiya qilishning tizimli jihatlari ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. Xiao, Zhu va Xin [2] ChatGPT asosidagi yozma nutqni o'qitish samaradorligini qayd etgan bo'lsa, mazkur tadqiqot ushbu xulosalarni mahalliy ta'lim sharoitida statistik jihatdan tasdiqladi. Shu bilan birga, Ummatov va Navruzov [15] ta'kidlagan texnologiyaga ortiqcha bog'liqlik xavfi tajriba davomida ham kuzatildi. Ayrim talabalar mustaqil topshiriqlarni bajarishda sun'iy intellektdan tayyor javob olishga intildilar. Bu holat sun'iy intellektdan foydalanish aniq pedagogik topshiriqlar va o'qituvchi nazorati asosida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Al-Khresheh [3] qayd etgan o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi masalasi ham tadqiqot davomida o‘z tasdig‘ini topdi. Eksperiment jarayonida o‘qituvchilar uchun qisqa muddatli treninglar tashkil etishga ehtiyoj yuzaga keldi. Umuman olganda, natijalar generativ sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan metodika ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishini, biroq uning samarasi o‘qituvchi ishtiroki va pedagogik nazorat bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Modelni keng joriy etishda UNESCO tavsiyalarida qayd etilgan ma’lumotlar xavfsizligi, raqamli tenglik va ta’limning inklyuzivligi masalalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim [17]. Mazkur tadqiqotda barcha ishtirokchilar internetga barqaror kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, amaliyotda bunday sharoit hamma ta’lim muassasalarida mavjud emas. Shu sababli modelni joriy etishda texnik infratuzilmani rivojlantirish va muqobil (oflayn) o‘quv resurslarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari generativ sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan to‘rt komponentli shaxsiylashtirilgan metodik model (diagnostika, adaptiv kontent generatsiyasi, real vaqt rejimidagi fikr-mulohaza va monitoring) ingliz tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tajriba guruhi lug‘at boyligi, grammatika, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalari bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqori natijalarga erishdi. Shuningdek, o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari ham yaxshilandi.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi: sun’iy intellekt vositalariga ortiqcha tayanish xavfi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi hamda texnik imkoniyatlarning notengligi. Ushbu omillar modelni keng joriy etishda alohida e’tibor talab qiladi.

Tadqiqotning cheklovlari quyidagilardan iborat: tajriba faqat bitta oliy ta’lim muassasasida va 84 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi; eksperiment 16 hafta davom etdi; faqat bitta generativ sun’iy intellekt vositalari majmuasi qo‘llanildi hamda ayrim ma’lumotlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashiga asoslandi. Shu sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

ingliz tili o‘qituvchilari uchun generativ sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni aniq pedagogik vazifalar va o‘qituvchi nazorati asosida yo‘lga qo‘yish;

barcha o‘quvchilar uchun zarur texnik infratuzilma va internetdan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

taklif etilgan modelni turli CEFR darajalari, yosh guruhlari va ta’lim bosqichlarida sinovdan o‘tkazish.

Xulosa qilib aytganda, generativ sun’iy intellekt ingliz tilini o‘qitishni shaxsiylashtirishda katta pedagogik salohiyatga ega. Biroq uning samaradorligi

texnologiyaning o‘ziga emas, balki ilmiy asoslangan metodika, o‘qituvchi rahbarligi va puxta tashkil etilgan pedagogik jarayonga bog‘liq.

Kelgusi tadqiqot yo‘nalishlari. Kelgusida taklif etilgan modelni boshqa xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llash, uning uzoq muddatli samaradorligini baholash, sun’iy intellektga qaramlikning oldini olishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish hamda modelni turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ega ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar generativ sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan til ta’limi metodikasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kohnke L., Moorhouse B. L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. — 2023. — Vol. 54, № 2. — P. 537–550.

2. Xiao F., Zhu S., Xin W. Exploring the landscape of generative AI (ChatGPT)-powered writing instruction in English as a foreign language education: A scoping review // RELC Journal. — 2025.

3. Al-khresheh M. Bridging technology and pedagogy from a global lens: Teachers' perspectives on integrating ChatGPT in English language teaching // Computers and Education: Artificial Intelligence. — 2024. — Vol. 6. — Art. 100218.

4. Baidoo-Anu D., Ansah L. O. Education in the era of generative artificial intelligence (AI): Understanding the potential benefits of ChatGPT in promoting teaching and learning // Journal of AI. — 2023. — Vol. 7, № 1. — P. 52–62.

5. Li B., Bonk C. J., Wang C., Kou X. Reconceptualizing self-directed learning in the era of generative AI: An exploratory analysis of language learning // IEEE Transactions on Learning Technologies. — 2024. — Vol. 17. — P. 1515–1529.

6. Rahman M. M., Watanobe Y. ChatGPT for education and research: Opportunities, threats, and strategies // Applied Sciences. — 2023. — Vol. 13, № 9. — Art. 5783.

7. Darvin R., Norton B. Identity and a model of investment in applied linguistics // Annual Review of Applied Linguistics. — 2015. — Vol. 35. — P. 36–56.

8. Chen X., Zou D., Cheng G., Xie H. Artificial intelligence-assisted personalized language learning: Systematic review and co-citation analysis // 2021 International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). — IEEE, 2021. — P. 241–245.

9. Kasimova M. A. Sun’iy intellekt orqali xorijiy til o‘rganuvchilarining faolligini oshirish va ta’lim jarayoniga jalb qilish // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 1. — B. 142–156. https://doi.org/10.36078/1710747133

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 378.147:811.111:004.8:376

Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi,
Second year student at University of Tashkent for Applied Sciences

THE DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE WITHIN INCLUSIVE EDUCATION

Abstract. This article examines the growing role of artificial intelligence in teaching English as a second language within the framework of inclusive education, a field devoted to ensuring equitable access to instruction for learners of differing abilities, backgrounds and support needs. It analyzes how adaptive learning systems, assistive technologies and natural language processing tools may be aligned with the principles of Universal Design for Learning in order to accommodate learners with visual, hearing, cognitive and language related differences. Particular attention is given to the tension between the efficiency promised by automated systems and the individualized, relationship centered approach that inclusive pedagogy has traditionally required of the classroom teacher. The article also considers ethical questions surrounding data privacy, algorithmic bias and unequal access to technology among learners with special educational needs. It concludes by proposing a framework in which artificial intelligence functions as a complement to, rather than a substitute for, the professional judgment of teachers working in inclusive classrooms, and by outlining directions for future research grounded in applied linguistics, special education and educational technology.

Keywords: Artificial Intelligence, English as a Second Language, Inclusive Education, Universal Design for Learning, Assistive Technology, Special Educational Needs, Adaptive Learning, Accessibility, Language Pedagogy, Digital Equity.

INKLYUZIV TA'LIMDA INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim doirasida ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda sun'iy intellektning ortib borayotgan o'rni ko'rib chiqiladi, bu soha turli qobiliyat, kelib chiqish va yordamga muhtojlik darajasiga ega o'quvchilar uchun ta'limga teng huquqli kirishni ta'minlashga qaratilgan. Maqolada moslashuvchan o'quv tizimlari, yordamchi texnologiyalar va tabiiy tilni qayta ishlash vositalari qanday qilib ko'rish, eshitish, kognitiv va nutq rivojlanishida farqlari bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun o'quvni loyihalashning umumiy tamoyillariga moslashtirilishi mumkinligi tahlil qilinadi. Alohida e'tibor

avtomatlashtirilgan tizimlar va'da qiladigan samaradorlik bilan inklyuziv pedagogika tomonidan an'anaviy ravishda talab qilinadigan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxsiylashtirilgan, munosabatga asoslangan yondashuv o'rtasidagi ziddiyatga qaratiladi. Maqolada shuningdek, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar orasida ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik noxolislik va texnologiyalarga notekis kirish bilan bog'liq axloqiy masalalar ham ko'rib chiqiladi. Yakunda sun'iy intellekt inklyuziv sinflarda ishlaydigan o'qituvchilarning kasbiy mulohazasi o'rnini egallamaydigan, balki uni to'ldiruvchi vosita sifatida xizmat qiladigan model taklif qilinadi hamda amaliy tilshunoslik, maxsus pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasida kelgusi ilmiy izlanishlar uchun yo'nalishlar belgilab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ikkinchi til sifatida ingliz tili, inklyuziv ta'lim, o'quvni umumiy loyihalash, yordamchi texnologiyalar, maxsus ta'lim ehtiyojlari, moslashuvchan o'qitish, qulaylik, til pedagogikasi, raqamli tenglik.

РАЗВИТИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается возрастающая роль искусственного интеллекта в обучении английскому языку как второму в рамках инклюзивного образования, области, направленной на обеспечение равного доступа к обучению для учащихся с разными способностями, происхождением и потребностями в поддержке. Анализируется, каким образом адаптивные обучающие системы, вспомогательные технологии и инструменты обработки естественного языка могут быть согласованы с принципами универсального дизайна обучения для удовлетворения потребностей учащихся с особенностями зрения, слуха, когнитивной сферы и речевого развития. Особое внимание уделяется противоречию между эффективностью, которую обещают автоматизированные системы, и индивидуализированным, ориентированным на отношения подходом, традиционно требуемым инклюзивной педагогикой от учителя. В статье также рассматриваются этические вопросы, связанные с конфиденциальностью данных, алгоритмической предвзятостью и неравным доступом к технологиям среди учащихся с особыми образовательными потребностями. В заключение предлагается модель, в которой искусственный интеллект выступает дополнением, а не заменой профессионального суждения педагогов, работающих в инклюзивных классах, и определяются направления дальнейших научных исследований в области прикладной лингвистики, специальной педагогики и образовательных технологий.

Ключевые слова: искусственный интеллект, английский язык как второй, инклюзивное образование, универсальный дизайн обучения, вспомогательные технологии, особые образовательные потребности, адаптивное обучение, доступность, языковая педагогика, цифровое равенство.

Introduction. Inclusive education emerged over the past several decades as a response to the recognition that learners with disabilities, learning differences and other forms of diversity had too often been placed in separate settings or denied access to a curriculum designed for their peers. Within language teaching, and especially within the teaching of English as a second language, this movement carries particular weight, since acquiring a new language already places considerable cognitive and emotional demands on any learner, and these demands can be intensified for learners who also experience sensory, cognitive or communicative differences. The arrival of artificial intelligence as a widely available instructional resource has therefore entered a field that was already engaged in a long standing effort to remove barriers and to design instruction flexible enough to serve a genuinely diverse population of learners. Understanding how these two developments intersect requires more than a simple inventory of available software, since the deeper question concerns whether machine mediated instruction can genuinely support the individualized, dignity affirming approach that inclusive pedagogy demands, or whether it risks imposing a new form of uniformity under the appearance of personalization. This question forms the point of departure for the analysis presented in this article, which treats the intersection of artificial intelligence, second language teaching and inclusive education as a subject worthy of sustained scientific attention rather than a matter to be resolved through commercial enthusiasm alone.

Inclusive education is generally understood as an approach that seeks to guarantee meaningful participation and achievement for every learner within a shared learning environment, regardless of disability, linguistic background, socioeconomic circumstance or other individual characteristic. This commitment implies more than physical placement within a mainstream classroom, since genuine inclusion requires that curriculum, instructional method and assessment be designed from the outset with variability in mind, rather than adapted afterward as an exception for a small number of learners. When such an approach is applied to English as a second language teaching, it becomes necessary to consider learners who may already face a double challenge, namely the ordinary difficulty of acquiring a new linguistic system together with an additional difference such as a hearing impairment, a specific learning difficulty like dyslexia, a condition on the autism spectrum, or limited prior schooling. These learners frequently receive less attention in mainstream applied linguistics research than their peers without additional needs, despite representing a substantial proportion of language

classrooms worldwide. Situating artificial intelligence within this population therefore requires a shift in emphasis away from questions of efficiency alone and toward questions of equity, dignity and genuine access, since a tool that accelerates learning for the majority while leaving a minority further behind cannot be considered successful from the standpoint of inclusive pedagogy, however impressive its aggregate performance figures may appear.

Artificial intelligence contributes to this landscape through an expanding set of applications that hold direct relevance for inclusive English as a second language classrooms. Automatic speech recognition and text to speech engines allow learners with visual or reading related difficulties to access written material through listening, while simultaneously allowing learners with hearing related difficulties to access spoken material through generated captions or transcripts. Predictive text and grammar assistance tools reduce the mechanical burden of writing for learners whose motor coordination or working memory makes conventional composition especially demanding, and adaptive platforms capable of adjusting the pace and difficulty of tasks in response to individual performance offer a plausible technological answer to the long recognized difficulty of differentiating instruction within a single classroom containing widely varying levels of readiness. Conversational agents further extend opportunities for low pressure spoken practice to learners who experience heightened anxiety in traditional classroom interaction, a group that frequently includes learners with social communication differences. Taken together, these applications suggest that artificial intelligence possesses genuine potential to operationalize several of the core commitments of inclusive pedagogy at a scale that individual teachers, however skilled, would find difficult to achieve unaided, provided that such tools are selected and implemented with sufficient attention to the specific needs of the learners for whom they are intended.

The central research problem addressed in this article may be formulated as follows, namely how artificial intelligence can be integrated into English as a second language teaching in a manner that genuinely advances the goals of inclusive education rather than merely extending existing patterns of access to those learners who already possess the resources, literacy and confidence needed to benefit from digital tools. Addressing this problem requires attention to technical capability, to pedagogical design and to the ethical and institutional conditions under which such tools are deployed in real classrooms containing learners of markedly different needs. The present article therefore aims to examine current evidence regarding artificial intelligence applications relevant to inclusive English as a second language instruction, to analyze how these applications relate to established principles of Universal Design for Learning and special education, and to propose a balanced conceptual framework that neither overstates the transformative capacity of automated tools nor dismisses their genuine contribution to accessible language teaching. In pursuing these aims, the article adopts a cautious and evidence oriented

stance, treating claims of inclusion or personalization made by commercial technology providers as hypotheses to be examined rather than conclusions to be accepted without scrutiny, since the population most directly affected by these tools, namely learners with additional support needs, has historically been vulnerable to well intentioned but poorly evaluated educational innovation.

Methodology. The methodology adopted in this study is qualitative and analytical, drawing on a systematic review of recent scholarly literature concerning artificial intelligence applications in English as a second language teaching together with descriptive analysis of the special education and inclusive education literature relevant to accessibility and individualized instruction. Sources were selected according to their relevance to three interconnected themes, namely assistive and adaptive technology, the principles of Universal Design for Learning, and the sociolinguistic and psychological dimensions of second language acquisition among learners with additional support needs. Particular attention was given to publications that combine empirical observation with theoretical discussion, since the purpose of the present study is not merely to catalogue available technologies but to interpret their pedagogical significance for a population whose needs are frequently underrepresented within mainstream applied linguistics research. The analysis also considered documentary sources describing international frameworks for inclusive education, which provide a stable normative reference point against which claims made about artificial intelligence assisted instruction can be evaluated. Sources were screened for methodological transparency and for explicit attention to learners with disabilities or additional needs, since much of the available literature on artificial intelligence in language teaching addresses general learner populations without disaggregating findings for learners who experience sensory, cognitive or communicative differences, a gap that the present analysis attempts to acknowledge explicitly rather than to obscure through generalized claims.

In addition to literature review, the study employs comparative analysis to examine the relationship between the three core principles of Universal Design for Learning, namely multiple means of representation, multiple means of action and expression, and multiple means of engagement, and the specific artificial intelligence tools currently available to English as a second language teachers. This comparison allows the study to identify which categories of tool most directly support which principle, and to highlight areas in which current technology remains insufficiently developed to meet the full range of learner variability found in an inclusive classroom. Attention was also paid to how such tools interact with individualized education plans and with the collaborative practice of co teaching between language specialists and special education professionals, since inclusive instruction rarely depends on a single teacher acting alone. By combining literature based analysis with a comparative framework grounded in an established educational model, the study seeks to produce conclusions that remain sensitive to

the practical realities of classrooms serving learners with markedly different needs, rather than treating inclusive education as a peripheral application of technology designed primarily for general learner populations.

Results. The analysis indicates that artificial intelligence tools make their most consistent contribution to inclusive English as a second language teaching through the principle of multiple means of representation, meaning the presentation of information through more than one sensory or cognitive channel. Automatic captioning and transcription allow spoken input to be simultaneously available in written form, benefiting learners with hearing related difficulties as well as learners who process written text more reliably than spoken language. Text to speech engines perform a complementary function for learners with visual impairment or with reading difficulties such as dyslexia, converting written material into spoken form without requiring a human reader to be present at every moment of instruction. Machine translation, when used judiciously rather than as a substitute for genuine language learning, provides a scaffold that allows learners with limited prior exposure to English to access grade level content in other subjects while their linguistic proficiency continues to develop. These findings confirm that artificial intelligence can operationalize the representational flexibility called for by Universal Design for Learning in a manner that would be difficult to sustain manually across an entire school day, provided that teachers retain responsibility for judging when a given representational format serves a particular learner and when it does not.

A second significant finding concerns the capacity of adaptive learning platforms to support differentiation for learners with cognitive or attentional differences within the same English as a second language classroom. Systems capable of adjusting task difficulty, pacing and the amount of repetition offered allow a learner who requires additional practice with a given grammatical structure to receive it without disrupting the progress of classmates who have already mastered the same material, addressing a long standing practical difficulty faced by teachers responsible for groups of considerable internal diversity. Conversational agents further extend low pressure opportunities for spoken practice to learners who experience heightened anxiety, including some learners with social communication differences associated with autism spectrum conditions, since interaction with a patient, non judgmental artificial system can serve as rehearsal before a learner attempts a more demanding exchange with a human interlocutor. However, the analysis also reveals an important limitation, namely that automatic speech recognition systems, which underlie much of this functionality, are frequently trained on data drawn primarily from typical speech patterns, and therefore perform less reliably for learners whose pronunciation is affected by a speech or language impairment, a hearing loss, or a strong influence from a first language phonological system. This limitation indicates that the benefits of adaptive and conversational

technology are not distributed evenly across the full range of learners found in an inclusive classroom.

The results additionally point to a significant redefinition of the teacher role within technology enriched inclusive classrooms, a redefinition that closely parallels developments observed in mainstream English as a second language teaching but carries added weight given the vulnerability of some learners served by inclusive settings. Rather than functioning as the sole source of accommodation, teachers increasingly assume responsibility for selecting appropriate tools, monitoring their effectiveness for individual learners, and interpreting the outputs of artificial systems in light of information contained within a learner's individualized education plan, information that no current artificial intelligence system possesses independently. The analysis further suggests that classrooms in which teachers, special education professionals and language specialists collaborate to evaluate and adjust technology use tend to produce more consistent outcomes than classrooms in which learners are provided with tools but left largely without structured guidance regarding their appropriate use. This finding reinforces the broader conclusion that artificial intelligence functions most effectively within inclusive English as a second language teaching as an extension of coordinated professional judgment rather than as an autonomous solution, since the interpretive, relational and advocacy functions performed by teachers and specialists remain difficult to replicate through automated systems alone, however sophisticated those systems may become in the near future.

Discussion. These findings, considered together, support the interpretation that artificial intelligence and the framework of Universal Design for Learning share a genuine and productive affinity, since both are concerned with offering multiple pathways to the same instructional goal rather than expecting every learner to progress through an identical sequence of activities. The discussion therefore emphasizes a principle of complementarity similar to that observed in mainstream applications of artificial intelligence to language teaching, according to which technology broadens the range of representational and expressive options available to a learner, while the deeper responsibility for interpreting individual need, maintaining relational trust and advocating for appropriate accommodation remains anchored in human professionals who understand the particular learner in front of them. This principle offers a constructive response to a concern voiced by some special education researchers, namely that increasing reliance on automated systems might reduce the perceived necessity of specialist staff within inclusive classrooms. The discussion presented here suggests instead that the value of specialist judgment is likely to increase rather than diminish as available tools multiply, since someone with appropriate training must determine which tool serves which learner under which circumstance, a determination that requires understanding of disability, language development and classroom context simultaneously, an understanding that current artificial systems do not possess in any integrated form

The topic examined in this article is inherently interdisciplinary, and its scientific significance can only be fully appreciated when perspectives from several fields are brought into dialogue. From the standpoint of computational linguistics, understanding why automatic speech recognition performs unevenly across different speakers requires familiarity with how such systems are trained on large datasets that may underrepresent atypical speech patterns, a technical limitation with direct educational consequences for learners with speech or hearing related differences. From the standpoint of special education, the same technology must be evaluated against the principle of individualization enshrined in legal and professional frameworks governing education for learners with disabilities, a principle that resists any tool promising uniform benefit across an entire population. From the standpoint of educational psychology, questions of motivation, self efficacy and anxiety must be considered alongside technical accuracy, since a tool that is technically precise but delivered without sensitivity to a learner's emotional state may discourage further engagement rather than encourage it. Bringing these disciplinary perspectives together clarifies that terms such as accommodation, personalization and accessibility carry meanings that differ somewhat between educational law, computer science and applied linguistics, and this article has attempted throughout to use such terms with explicit attention to their disciplinary context rather than treating them as interchangeable.

The discussion also acknowledges important ethical considerations that carry particular weight when artificial intelligence is applied to learners who already occupy a vulnerable position within educational systems. Data collected through adaptive platforms and conversational agents often includes highly sensitive information regarding a child's disability status, communication patterns and academic performance, and questions concerning who may access this information, for what purpose and for how long remain insufficiently regulated in many national contexts. Algorithmic bias represents a further concern, since systems trained predominantly on data from learners without additional needs may perform reliably for the majority while systematically underserving the very learners that inclusive education is designed to protect, a pattern that risks reproducing existing inequities under the appearance of neutral, data driven decision making. Unequal access to reliable devices, internet connectivity and trained support staff compounds this risk, meaning that schools serving economically disadvantaged communities may be least able to provide the human oversight required to use artificial intelligence responsibly within inclusive settings, even though such communities often contain a disproportionate number of learners with unmet support needs. These considerations do not diminish the genuine pedagogical value documented throughout this analysis, but they do require that institutions adopting such tools accompany implementation with clear data governance policies, ongoing bias monitoring and sustained

investment in the professional development of both language teachers and special education specialists.

Conclusion. In conclusion, the integration of artificial intelligence into English as a second language teaching within inclusive education represents a development of genuine scientific and practical significance, one that this article has sought to examine through an analytical and evidence based approach grounded in applied linguistics, special education and educational technology. The findings suggest that artificial intelligence can meaningfully advance the representational, expressive and engagement related goals articulated within Universal Design for Learning, offering learners with disabilities and other additional needs forms of access that would be difficult to sustain through unaided human instruction alone, while simultaneously introducing new risks connected to algorithmic bias, data privacy and unequal access that require careful institutional attention. A balanced pedagogical model, in which artificial intelligence functions as an extension of coordinated professional judgment involving language teachers, special education specialists and families rather than as an independent decision maker, appears best suited to preserving the individualized, dignity affirming character that inclusive education requires. Future research would benefit from studies that disaggregate outcomes by disability category and language background rather than treating learners with additional needs as a single undifferentiated group, as well as from longitudinal investigation of how sustained artificial intelligence assisted instruction influences communicative competence, confidence and social participation among these learners over time. Such research would contribute not only to English as a second language pedagogy but to the broader scientific understanding of how emerging technology can be made to serve the goals of educational equity rather than to undermine them.

References:

1. Rose D. H., Meyer A. Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. — Alexandria, VA : ASCD, 2002. — 220 p.

2. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. — Paris : UNESCO Publishing, 2020. — 45 p.

3. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. — London : Pearson, 2016. — 52 p.

4. Godwin-Jones R. Partnering with AI: Intelligent Writing Assistance for EFL Writing Development // Language Learning & Technology. — 2022. — Vol. 26, No. 1. — P. 1–17.

5. Florian L. Reimagining Special Education: Why New Approaches Are Needed // The SAGE Handbook of Special Education / ed. by L. Florian. — 2nd ed. — London : SAGE Publications, 2014. — P. 9–22.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 373.5.016:514:37.091.26

No‘monova Kamolaxon Abdug‘opir qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
matematika yo‘nalishi talabasi

XALQARO PISA DASTURI ASOSIDA GEOMETRIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro OECD tomonidan tashkil etilgan PISA dasturi asosida o‘quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda geometrik savodxonlik tushunchasi, PISA topshiriqlarining kompetensiyaviy yo‘nalishi, fazoviy tafakkurni rivojlantirish metodlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan geometrik masalalar orqali o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, geometrik savodxonlik, matematik kompetensiya, fazoviy tafakkur, geometriya, innovatsion ta’lim, matematik modellashtirish, funksional savodxonlik.

РАЗВИТИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ PISA

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и методические основы развития геометрической грамотности учащихся на основе международной программы PISA, организуемой Организацией экономического сотрудничества и развития (OECD). В исследовании рассматриваются сущность понятия геометрической грамотности, компетентностная направленность заданий PISA, методы развития пространственного мышления, а также роль современных педагогических технологий в процессе обучения геометрии. Кроме того, анализируются вопросы развития математического мышления учащихся посредством решения геометрических задач, основанных на реальных жизненных ситуациях.

Ключевые слова: PISA, геометрическая грамотность, математическая компетентность, пространственное мышление, геометрия, инновационное обучение, математическое моделирование, функциональная грамотность.

DEVELOPING GEOMETRIC LITERACY BASED ON THE INTERNATIONAL PISA PROGRAMME

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations for developing students' geometric literacy based on the international PISA Programme organized by the Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). The study examines the concept of geometric literacy, the competency-based orientation of PISA tasks, methods for developing spatial thinking, and the role of modern pedagogical technologies in geometry education. In addition, it discusses the development of students' mathematical thinking through solving geometry problems based on real-life situations.

Keywords: PISA, geometric literacy, mathematical competence, spatial thinking, geometry, innovative education, mathematical modeling, functional literacy.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni o'rgatish emas, balki ularda real hayotiy vaziyatlarda uchraydigan muammolarni tahlil qilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda o'z bilimlarini amaliy faoliyatda samarali qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, funksional savodxonlikni rivojlantirish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Matematik savodxonlik funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning ajralmas elementi geometrik savodxonlik hisoblanadi. Geometrik savodxonlik o'quvchilarning geometrik tushunchalar va qonuniyatlarni bilishi bilan cheklanmay, balki fazoviy tafakkurni rivojlantirish, geometrik shakl va obyektlarning xossalarini tahlil qilish, matematik modellashtirishni amalga oshirish, grafik va chizmalarni talqin etish hamda kundalik hayotda uchraydigan geometrik vaziyatlarni matematik nuqtai nazardan izohlash va ularga yechim topish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Mazkur kompetensiyalar muhandislik, arxitektura, axborot texnologiyalari, dizayn va boshqa ko'plab sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA (Programme for International Student Assessment), o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha egallagan bilimlarini emas, balki ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasini baholashga alohida e'tibor qaratmoqda. PISA tadqiqotlarida matematik savodxonlikning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida geometriyaga oid topshiriqlar keng qo'llanilib, ular o'quvchilardan chizma, diagramma, xarita, sxema va boshqa vizual axborotlarni tahlil qilish, fazoviy tasavvur asosida xulosa chiqarish hamda matematik modellarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etishni talab qiladi. Shu bois geometriya ta'limini PISA konsepsiyasi asosida tashkil etish o'quvchilarning

nafaqat matematik bilimlarini, balki tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash, o'quvchilarning xalqaro tadqiqotlardagi natijalarini yaxshilash hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitish metodlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa geometriya fanini o'qitish mazmunini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish, PISA tipidagi topshiriqlardan samarali foydalanish va o'quvchilarning geometrik savodxonligini tizimli rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, geometriya darslarida ko'proq nazariy bilimlarni o'zlashtirish va standart masalalarni yechishga e'tibor qaratilib, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan, modellashtirish va muammoli fikrlashni talab etuvchi topshiriqlardan foydalanish darajasi yetarli emas. Natijada o'quvchilar geometrik bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etishda, fazoviy tafakkur asosida xulosa chiqarishda hamda PISA formatidagi topshiriqlarni bajarishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi xalqaro PISA dasturi talablari asosida o'quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini takomillashtirish, geometriya darslarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan samarali o'qitish metodlarini aniqlash hamda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni o'quv jarayoniga integratsiyalash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarning matematik bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasi ta'lim sifatini baholashning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, geometrik savodxonlik o'quvchilarning fazoviy tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, geometrik obyektlarni tahlil qilishi, matematik modellashtirishni amalga oshirishi hamda amaliy muammolarga ilmiy asoslangan yechim topish qobiliyatini namoyon etuvchi muhim kompetensiyalardan biridir. Shu sababli geometriya ta'limini xalqaro talablar asosida takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning nazariy bilimlarini emas, balki ularni kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal etishda qo'llash kompetensiyasini baholashga yo'naltirilgan. Mazkur dasturdagi geometrik mazmundagi topshiriqlar o'quvchilardan chizma, diagramma, xarita va boshqa vizual axborotlarni tahlil qilish, fazoviy tasavvurdan foydalanish, matematik modellashtirishni amalga oshirish hamda asosli xulosalar chiqarishni talab etadi. Shu jihatdan PISA topshiriqlari geometriya fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish uchun muhim metodik manba hisoblanadi.

Respublikamizda ham ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash, o'quvchilarning PISA tadqiqotlaridagi natijalarini yaxshilash, matematika ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish hamda funksional savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa geometriya fanini o'qitish mazmuni, metodlari va baholash tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirishni, dars jarayoniga real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni keng tatbiq etishni taqozo etadi.

Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim o'quvchilar geometrik tushunchalar, teorema va formulalarni yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lsalar-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash, geometrik modellarni qurish, fazoviy munosabatlarni tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarga matematik yechim topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ayniqsa, fazoviy tasavvur, geometrik modellashtirish, mantiqiy xulosa chiqarish va dalillash ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi PISA formatidagi topshiriqlarni bajarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan geometriya darslarida xalqaro PISA dasturi talablariga mos metodlar, interaktiv pedagogik texnologiyalar hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan topshiriqlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi. Mazkur masalaning yechimi o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini yaxshilash hamda matematika ta'limi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarida xalqaro PISA dasturi talablari asosida geometriya fanini o'qitishning samarali metod va texnologiyalarini aniqlash hamda ular yordamida o'quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Umumta'lim maktablarida geometriya fanini o'qitish jarayonida PISA dasturi talablariga mos topshiriqlar, metodlar va o'quv faoliyatlarini qo'llash orqali o'quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirishning mazmuni, shakllari va pedagogik shart-sharoitlari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi:

1. Ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
2. PISA hujjatlari va topshiriqlarini o'rganish hamda qiyosiy tahlil qilish;
3. Pedagogik kuzatish;
4. Suhbat va so'rovnoma o'tkazish;
5. Tajriba-sinov mashg'ulotlarini tashkil etish;
6. O'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish;

7. Olingan ma'lumotlarni matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash va umumlashtirish.

Asosiy qism. Bugungi kunda ta'lim sifatini baholashda xalqaro mezonlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan xalqaro baholash dasturlari ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladigan PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning matematik, o'qish va tabiiy-ilmiy savodxonligini aniqlashga qaratilgan yirik tadqiqotlardan biridir.

PISA dasturida matematika yo'nalishi bo'yicha topshiriqlar o'quvchilarning faqat matematik bilimlarini emas, balki ushbu bilimlardan amaliy faoliyatda foydalanish kompetensiyasini baholaydi. Xususan, mazkur topshiriqlar quyidagi asosiy kompetensiyalarni aniqlashga yo'naltiriladi:

mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati;

matematik modellashtirish ko'nikmasi;

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyati;

geometrik obyektlar, shakllar va fazoviy munosabatlarni tushunish kompetensiyasi.

PISA topshiriqlarining asosiy xususiyati shundaki, ular odatiy matematik misol va masalalardan farqli ravishda real hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. O'quvchi topshiriq shartini tahlil qilishi, muammoni matematik modelga aylantirishi, tegishli usulni tanlashi va olingan natijani hayotiy nuqtai nazardan baholashi talab etiladi.

Geometrik savodxonlik tushunchasi va uning PISA dasturidagi o'rni

Geometrik savodxonlik matematik savodxonlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning geometrik tushunchalar, fazoviy munosabatlar va o'lchovlarni anglash hamda ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur tushuncha nafaqat geometrik shakllarning xossalarini bilishni, balki real obyektlarni geometrik nuqtai nazardan tahlil qilish, fazoviy tasavvur qilish, modellashtirish va matematik xulosalar chiqarish ko'nikmalarini ham qamrab oladi.

Geometrik savodxonlik quyidagi asosiy ko'nikmalardan tarkib topadi:

geometrik figuralarning xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish;

fazoviy tasavvur va obyektlarning joylashuvini anglash;

uzunlik, yuza, hajm kabi geometrik kattaliklarni o'lchash va taqqoslash;

real obyektlarning geometrik modellarini yaratish;

geometrik munosabatlar asosida mantiqiy xulosalar chiqarish.

PISA dasturining matematik savodxonlik yo'nalishida "Fazo va shakl" (Space and Shape) sohasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalish doirasida o'quvchilarning geometrik obyektlarni tushunishi, grafik tasvirlar va

diagrammalarni talqin qilishi, real obyektlarni matematik modellashtirishi hamda fazoviy fikrlash qobiliyatlari baholanadi.

Masalan, PISA formatidagi topshiriqlarda o‘quvchilarga bino balandligini uning soyasi uzunligi orqali aniqlash, xarita masshtabi yordamida haqiqiy masofani hisoblash, geometrik shakldagi maydonlarni aniqlash yoki kundalik hayotdagi obyektlarning o‘lchamlarini modellashtirish kabi vazifalar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchidan tayyor formulani qo‘llashdan tashqari, vaziyatni tahlil qilish va matematik yechim ishlab chiqishni talab qiladi.

Fazoviy tafakkurni rivojlantirish metodlari

Geometrik savodxonlikni shakllantirishda fazoviy tafakkurni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Fazoviy tafakkur — bu obyektlarning fazodagi shakli, o‘lchami, joylashuvi va o‘zaro munosabatlarini tasavvur qilish hamda tahlil qilish qobiliyatidir. Mazkur qobiliyat geometriyani o‘rganish jarayonida asta-sekin rivojlanadi va o‘quvchilarning muhandislik, texnik hamda ijodiy faoliyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fazoviy tafakkurni rivojlantirishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

1. Vizual modellashtirish metodi. Zamonaviy raqamli vositalar, xususan, GeoGebra kabi interaktiv platformalar yordamida geometrik obyektlarni dinamik shaklda yaratish, o‘lchash, o‘zgartirish va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Ushbu platforma yordamida:

geometrik shakllarni dinamik qurish;

burchak va masofalarni o‘lchash;

funksiyalar grafiklarini yaratish;

uch o‘lchamli (3D) jismlarni modellashtirish mumkin.

Bu esa o‘quvchilarning mavzuni faqat nazariy emas, balki vizual va amaliy jihatdan tushunishiga yordam beradi.

2. Amaliy va muammoli topshiriqlar asosida o‘qitish. Geometrik bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi. Masalan:

Masala. Aylana shaklidagi bog‘ning radiusi 14 metrga teng. Bog‘ning yuzasini aniqlang.

Yechish:

$S = \pi r^2$

$S = 3{,}14 \times 14^2$

$S = 3{,}14 \times 196$

$S = 615{,}44\ m^2$

Mazkur topshiriq orqali o‘quvchilar:

geometrik formuladan foydalanish;

real vaziyatni matematik modelga aylantirish;

amaliy hisob-kitoblarni bajarish kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Innovatsion texnologiyalarning geometriya ta’limidagi o‘rni

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar geometriya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biriga aylanmoqda. Interaktiv platformalar, virtual modellar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Xususan: Khan Academy — individual topshiriqlar va videodarslar orqali geometriya mavzularini mustahkamlash imkonini beradi;

GeoGebra — interaktiv geometrik modellar yaratish va tajriba asosida o‘rganishni ta’minlaydi;

virtual laboratoriyalar va 3D animatsiyalar — murakkab fazoviy obyektlarni tasavvur qilishni osonlashtiradi;

kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari — geometrik obyektlarni real muhit bilan bog‘lash imkonini beradi;

sun’iy intellekt asosidagi platformalar — individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Geometrik savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati

Geometrik savodxonlikni rivojlantirish nafaqat matematika fanini o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning umumiy intellektual rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Geometriyani o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda:

matematik tafakkur, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, fazoviy tasavvur, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, real hayotiy masalalarni matematik usullar orqali hal etish kompetensiyalari shakllanadi.

Shuningdek, geometrik savodxonlik arxitektura, muhandislik, dizayn, qurilish, axborot texnologiyalari va boshqa ko‘plab zamonaviy sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu sababli geometriya ta’limini PISA talablari asosida takomillashtirish va o‘quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirish zamonaviy matematika ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa. Xalqaro PISA dasturi talablari asosida geometrik savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy matematika ta’limining muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. PISA yondashuvi o‘quvchilarning geometrik bilimlarini faqat nazariy darajada egallashini emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammolarni matematik usullar yordamida hal etish, modellashtirish va asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, geometrik savodxonlikni rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, vizual tahlil qilish qobiliyati va matematik modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Geometriya darslarida real hayotiy mazmundagi PISA tipidagi topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning matematik bilimlarini amaliy faoliyat

bilan bog‘lash, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga samarali yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish geometrik tushunchalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Xususan, dinamik geometrik modellashtirish vositalari, virtual muhitlar va interaktiv platformalar o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish, murakkab geometrik jarayonlarni vizual anglash hamda o‘quv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Geometrik savodxonlikni shakllantirish nafaqat matematika fanini o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki o‘quvchilarda kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, arxitektura, muhandislik, texnologiya, dizayn va tabiiy fanlar yo‘nalishlarida geometrik tafakkur muhim tayanch kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois umumta’lim maktablarida geometriya fanini o‘qitish jarayonini PISA xalqaro baholash mezonlari asosida takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan topshiriqlardan foydalanishni kengaytirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarning geometrik savodxonligini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017. – 256 b.

2. Jo‘rayev R. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 240 b.

3. Erkinova O.K. Elektron pochta va undan foydalanish yo‘llari // Journal of New Century Innovations. – 2023. – №(soni ko‘rsatilmagan).

4. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 180 b.

5. OECD. PISA 2022 Mathematics Framework. – Paris: OECD Publishing, 2022.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK 13.00.02

Юлдашев Бектош Алишерович,
Стажёр ассистент Самаркандского государственного медицинского университета

ИНТЕРАКТИВНЫЕ И ПРОЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ФАРМАЦЕВТОВ

Аннотация. Статья посвящена методике формирования профессиональных компетенций студентов фармацевтических факультетов средствами кейс-технологии, проектного обучения и проблемноориентированных заданий. В отличие от исследований, делающих акцент на аппаратно-программных симуляторах, в данной работе рассматривается организационно-педагогическая сторона вопроса: как выстроить кейсы, распределить роли в учебном проекте и оценить результат силами экспертной комиссии. Представлены результаты смешанного исследования с участием 76 студентов III-IV курса и 2 экспертов-практиков. Показано, что проектноориентированное обучение в наибольшей степени влияет на формирование организационно-управленческих и аналитических компетенций Обоснованы методические условия эффективного применения кейс-метода и проектного обучения в фармацевтическом вузе.

Ключевые слова: фармацевтическое образование, кейс-метод, проектное обучение, проблемно-ориентированное обучение, профессиональные компетенции, экспертная оценка, провизор.

BO‘LAJAK FARMATSEVTLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA INTERAKTIV VA LOYIHAGA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya. Maqola farmatsiya fakulteti talabalarining kasbiy kompetensiyalarini keys-texnologiyalar, loyihaviy o‘qitish va muammoli topshiriqlar vositasida shakllantirish metodikasiga bag‘ishlangan. Uskuna-dasturiy simulyatorlarga urg‘u beruvchi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, ushbu ishda masalaning tashkiliy-pedagogik jihati ko‘rib chiqiladi: keyslarni qanday shakllantirish, o‘quv loyihasida rollarni qanday taqsimlash va natijani ekspert komissiyasi yordamida qanday baholash masalalari yoritilgan. 76 nafar III-IV bosqich talabalari hamda 2 nafar amaliyotchi-ekspert ishtirokidagi aralash tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Loyihaviy o‘qitish tashkiliy-boshqaruv va tahliliy

kompetensiyalarni shakllantirishga eng katta ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Farmatsevtika oliy o'quv yurtlarida keys-metod va loyihaviy o'qitishni samarali qo'llashning metodik shartlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: farmatsevtik ta'lim, keys-metod, loyihaviy o'qitish, muammoli ta'lim, kasbiy kompetensiyalar, ekspert baholash, provizor.

INTERACTIVE AND PROJECT-BASED TECHNOLOGIES AS A MEANS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE PHARMACISTS

Abstract. The article is devoted to the methodology of developing professional competencies among pharmacy students using case studies, projectbased learning, and problem-oriented tasks. Unlike studies focusing on hardware and software simulators, this paper examines the organizational and pedagogical aspects of the issue: how to construct cases, distribute roles in a learning project, and evaluate results through an expert committee. The paper presents the results of a mixed-methods study involving 76 third-to-fourth-year students and 2 expert practitioners. It is demonstrated that project-based learning has the most significant impact on the development of organizational, managerial, and analytical competencies. The methodological conditions for the effective application of the case method and project-based learning in a pharmaceutical university are substantiated.

Keywords: pharmaceutical education, case method, project-based learning, problem-based learning, professional competencies, expert assessment, pharmacist.

Если симуляционные технологии в фармацевтическом образовании нацелены прежде всего на воспроизведение конкретной профессиональной операции - консультирования, отпуска препарата, проверки взаимодействий, - то интерактивные и проектно-ориентированные технологии решают иную задачу: они формируют у студента способность работать с неопределённостью, самостоятельно ставить и решать профессиональные задачи, для которых нет готового алгоритма. Именно эта способность всё чаще называется работодателями фармацевтической отрасли в числе дефицитных: выпускник может уверенно выполнить стандартную процедуру, но теряется, когда ситуация выходит за рамки инструкции - например, при организации закупки в условиях дефицита препарата, при выстраивании логистики хранения термолабильных лекарственных средств или при подготовке информационного материала для пациентов с хроническими заболеваниями.

Кейс-метод как технология активного проблемно-ситуационного анализа основан на обучении через решение конкретных задач-ситуаций и ориентирован не на передачу готовых знаний, а на их выработку в совместной работе преподавателя и студента [1]. В классических описаниях

кейстехнологии выделяется устойчивая последовательность этапов работы с ситуацией: знакомство с описанием случая, анализ ситуации с целью определения проблемы, подведение теоретических оснований под конкретный случай, разработка плана решения, обоснование конкретных способов и средств воздействия и, наконец, рефлексивный прогноз возможных последствий принятого решения [2]. Эта структура почти буквально совпадает с тем, что должен уметь делать провизор при разборе нестандартного обращения посетителя аптеки или сложного случая межлекарственного взаимодействия - что и делает кейс-метод органичным инструментом фармацевтического образования, а не просто данью моде на «интерактивность».

Актуальность обращения к проектным и интерактивным формам обучения в фармацевтическом вузе усиливается и внешними факторами: реформы высшего образования Узбекистана последних лет последовательно смещают акцент в сторону практико-ориентированной и проектной подготовки кадров, способных работать в условиях быстро меняющейся нормативной и рыночной среды [3]. Однако, несмотря на декларируемую значимость таких форм обучения, в методической литературе по фармацевтическому образованию они разработаны заметно слабее, чем лабораторный практикум или те же симуляционные технологии: остаётся открытым вопрос о том, как именно строить кейсы фармацевтического содержания, как распределять роли в учебном проекте и, что особенно важно, как оценивать результат без сведения его к формальному тестовому баллу.

Цель исследования - разработать и апробировать методику формирования профессиональных компетенций будущих фармацевтов средствами кейс-технологии и проектного обучения, а также определить, на какие именно группы компетенций эта методика влияет сильнее всего в сопоставлении с симуляционно-цифровыми подходами.

Задачи исследования: 1. систематизировать теоретические основания кейс-метода и проектного обучения применительно к подготовке провизора; 2. разработать структуру учебных кейсов и проектных заданий фармацевтического содержания и модель экспертной оценки результатов; 3. апробировать методику в учебном процессе и оценить её влияние на отдельные группы профессиональных компетенций; 4. сопоставить полученные эффекты с данными об эффективности иных инновационных технологий в фармацевтическом образовании.

Гипотеза исследования: применение кейс-технологии и проектного обучения в наибольшей степени способствует развитию организационноуправленческих, аналитических и коммуникативных компетенций будущих фармацевтов, тогда как прирост в области узкопрофессиональных (клиникофармацевтических) знаний оказывается

менее выраженным, чем при использовании технологий, прицельно направленных на отработку конкретных профессиональных операций.

Компетенция как категория педагогики высшей школы традиционно противопоставляется «знаниям и умениям» именно по признаку деятельностного, интегративного характера: компетентный специалист не просто владеет информацией, а способен применить её для решения задачи в конкретных, зачастую заранее неизвестных условиях. Применительно к структуре высшего образования отмечается, что образовательные программы должны разрабатываться в соответствии с образовательными стандартами и одновременно учитывать вводимые индивидуальные образовательные траектории, формирующие уникальные для рынка труда профили компетенций выпускника [4]. Это принципиально: единой, «одной на всех» модели компетенций провизора не существует, и потому методика их формирования должна быть достаточно гибкой, чтобы допускать индивидуализацию - что технологически проще реализовать именно через проектные и кейсовые формы, чем через единый для всех симулятор.

В работах по общей теории компетентностного подхода в профессиональном образовании подчёркивается, что переход к компетентностной парадигме требует замещения самого стиля педагогической работы: вместо «преподавания» как трансляции содержания - «обучение» как организация деятельности, при которой поисковая активность обучающегося становится ведущим механизмом усвоения [5]. Такой взгляд на компетентностный подход методологически ближе к интерактивным и проектным технологиям, чем к чисто тренажёрным моделям: кейс и проект по определению не имеют единственно верного решения, что вынуждает студента к поисковой, а не воспроизводящей деятельности.

В педагогической литературе кейс-метод, проблемно-ориентированное обучение (PBL) и проектное обучение нередко используются как близкие, но не тождественные понятия, и для методики фармацевтического образования это разграничение существенно. Проблемно-ориентированное обучение предполагает решение реальной или максимально приближенной к реальной практической проблемы и допускает разные модели организации: обучение через действие, когда нужно решить конкретную практическую задачу; обучение на месте, когда работа над проблемой происходит непосредственно в профессиональной среде; обучение на кейсах, когда разбираются готовые описанные ситуации; обучение через вызов, когда в основу задания кладётся не гипотетическая, а актуальная, ещё не решённая проблема организации [6].

Кейс-метод в этой типологии - лишь одна из моделей PBL, но исторически наиболее методически проработанная и наиболее адаптированная к аудиторным условиям высшей школы. Как показывают исследования, посвящённые применению кейс-технологии в подготовке

специалистов помогающих профессий, метод готовит обучающихся к решению профессиональных задач, способствует становлению субъектной позиции и повышению креативности мышления, а его теоретикопрактическими основаниями выступают проблемно-поисковый анализ, прагматическое обучение и ориентация на создание ситуаций выбора [7]. Проектное обучение, в свою очередь, отличается от кейс-метода тем, что предполагает не разбор уже случившейся ситуации, а самостоятельное создание студентом или командой студентов завершённого продукта - например, информационного буклета для пациентов диабетического профиля, модели логистики аптечного склада или плана фармаконадзора для конкретной группы препаратов, - что требует не только анализа, но и планирования, распределения ролей в команде и защиты результата перед аудиторией.

Фармацевтическое образование в Узбекистане имеет давнюю институциональную историю: старейшее профильное учебное заведение страны было создано ещё в 1937 году и на протяжении десятилетий оставалось базой подготовки специалистов не только для республики, но и для ряда государств Центральной Азии [8]. Эта институциональная зрелость, однако, не всегда сопровождалась методическим обновлением: значительная часть методических комплексов по фармацевтическим дисциплинам долгое время строилась вокруг лекционно-лабораторной модели, а элементы кейстехнологии и проектного обучения носили скорее эпизодический характер, чаще встречаясь в дисциплинах гуманитарного и управленческого блока, чем в собственно фармацевтических курсах.

Показательно, что в публикациях, посвящённых организации фармацевтической практики и повышению квалификации провизоров, отдельное внимание уделяется вопросам организации фармацевтической деятельности, включая аспекты информационных технологий и электронной коммерции на фармацевтическом рынке, - то есть тем самым темам, которые по своей природе плохо поддаются отработке через лабораторный практикум и хорошо ложатся на проектные задания [9]. Одновременно нормативные документы последних лет прямо ориентируют систему высшего образования на усиление практико-ориентированной и проектной составляющей подготовки кадров и на расширение полномочий образовательных и научных организаций в самостоятельной организации исследовательской и проектной работы обучающихся [3], что создаёт институциональную рамку для более широкого внедрения кейсовых и проектных технологий в фармацевтических вузах, а не только в дисциплинах общегуманитарного цикла.

Вместе с тем в доступной методической литературе практически отсутствуют работы, которые бы количественно сопоставляли эффективность кейс-технологии и проектного обучения с иными инновационными

технологиями применительно именно к разным группам компетенций провизора. Большинство публикаций либо описывают опыт внедрения кейс-метода в целом (нередко на материале педагогического или психологического, а не фармацевтического образования) [1], [7], либо ограничиваются общими рассуждениями о пользе интерактивности без эмпирической проверки. Это определило необходимость собственного эмпирического исследования, дизайн которого описан ниже.

Использован смешанный дизайн, сочетающий количественную оценку динамики компетенций (квазиэкспериментальная схема с экспериментальной и контрольной группами) и качественный анализ результатов через экспертную оценку проектных работ и рефлексивных отчётов студентов.

В исследовании приняли участие 76 студентов IV курса фармацевтического факультета, изучающих дисциплины «Организация и экономика фармации» и «Управление и экономика фармации: практикум». Студенты были разделены на экспериментальную группу (ЭГ, n = 38), обучение в которой строилось на кейс-технологии и проектных заданиях, и контрольную группу (КГ, n = 38), где те же темы изучались по традиционной семинарской модели (доклад - обсуждение - конспект). Дополнительно к оценке результатов была привлечена экспертная комиссия из 9 практикующих специалистов - руководителей аптечных организаций и сотрудников территориальных органов управления фармацевтической деятельностью со стажем работы не менее 7 лет.

Работа строилась вокруг трёх учебных кейсов и одного итогового группового проекта: - кейс «Дефицит препарата» - анализ ситуации нехватки жизненно важного лекарственного средства в аптечной сети и разработка плана действий (альтернативные поставщики, информирование пациентов, взаимодействие с врачами); - кейс «Жалоба посетителя» - разбор конфликтной ситуации, связанной с отказом в безрецептурном отпуске препарата, и обоснование правомерности решения фармацевта; - кейс «Некорректное хранение» - анализ нарушения температурного режима хранения термолабильных лекарственных средств и разработка корректирующих мероприятий; - итоговый групповой проект - разработка студенческими командами (по 4–5 человек) полноценного плана информационноконсультационного сопровождения пациентов с одним из хронических заболеваний (сахарный диабет, артериальная гипертензия, бронхиальная астма) с последующей публичной защитой перед экспертной комиссией.

Каждый кейс разбирался по единой схеме: индивидуальное знакомство с описанием ситуации - самостоятельный анализ - работа в малой группе - общее обсуждение - рефлексивное заключение с прогнозом последствий

принятого решения, что соответствует классической логике этапов работы с учебной ситуацией [2].

Использовались три группы показателей: 1. индивидуальный балл по итогам письменного анализа кейсов (шкала 0–100, оценивались преподавателем по формализованным критериям: точность выявления проблемы, обоснованность решения, учёт нормативных требований); 2. экспертная оценка итогового группового проекта членами комиссии (шкала 0–10 по каждому из пяти критериев: клиническая обоснованность, организационная реализуемость, коммуникативная ясность материала, командная слаженность защиты, оригинальность подхода) с последующим усреднением оценок девяти экспертов; 3. качественный анализ рефлексивных отчётов студентов (открытые ответы на вопросы о том, что изменилось в их понимании профессии), обработанный методом контент-анализа с выделением смысловых категорий.

Для сопоставимости с результатами более ранних исследований по симуляционному обучению компетенции студентов также оценивались по трём укрупнённым блокам - клинико-фармацевтическому, коммуникативному и организационно-управленческому (аналитическому), - но с использованием иного инструментария: не структурированного наблюдения за выполнением операции, а экспертной оценки продукта деятельности студента (текста кейса, проектного документа, устной защиты).

Различия между ЭГ и КГ оценивались с помощью независимого tкритерия Стьюдента и, для порядковых экспертных шкал, критерия Манна - Уитни; внутригрупповая динамика - парным t-критерием Стьюдента. Надёжность согласования экспертных оценок проверялась через коэффициент внутриклассовой корреляции (ICC), составивший 0,77, что признаётся приемлемым уровнем согласованности для комиссии из девяти экспертов.

Стартовые показатели по трём блокам компетенций в ЭГ и КГ значимо не различались ($p > 0,05$ по всем блокам). После завершения модуля обучения зафиксированы следующие изменения.

Таблица 1

Средние показатели компетенций по итогам модуля обучения (баллы из 100 возможных, приведены к единой шкале)

Блок компетенций	ЭГ, до	ЭГ, после	КГ, до	КГ, после	p (ЭГ после vs КГ после)
Клинико-фармацевтический	55,7 ± 7,9	68,4 ± 7,2	56,1 ± 8,1	62,0 ± 7,8	0,012

Коммуникативный	51,3 ± 8,4	74,9 ± 7,0	50,9 ± 8,6	58,3 ± 8,2	< 0,001
Блок компетенций	ЭГ, до	ЭГ, после	КГ, до	КГ, после	p (ЭГ после vs КГ после)
Организационноуправленческий (аналитический)	48,6 ± 9,0	79,7 ± 6,4	49,1 ± 8,8	55,4 ± 8,0	< 0,001
Суммарный балл	51,9 ± 6,8	74,3 ± 5,9	52,0 ± 6,5	58,6 ± 6,7	< 0,001

В отличие от результатов, характерных для симуляционно-цифровых методик, где наибольший прирост фиксируется в клинико-фармацевтическом и информационно-технологическом блоках, в данном исследовании максимальный прирост в ЭГ получен по организационно-управленческому (аналитическому) блоку - 31,1 балла против 6,3 балла в КГ (d Коэна = 3,6). Прирост по клинико-фармацевтическому блоку в ЭГ оказался статистически значимым, но заметно более скромным по абсолютной величине (12,7 балла), чем прирост по тому же блоку, зафиксированный в предыдущем исследовании эффективности симуляционных технологий, что подтверждает выдвинутую гипотезу: кейс-метод и проектное обучение сильнее влияют на организационно-аналитические и коммуникативные компетенции, чем на узкоспециальные клинико-фармацевтические знания, для отработки которых, по всей видимости, более эффективны технологии, прицельно моделирующие конкретную профессиональную операцию.

Экспертная оценка итоговых проектов дала средний балл 7,8 из 10 (SD = 0,9) с наиболее высокими оценками по критерию «командная слаженность защиты» (8,3) и наиболее сдержанными - по критерию «клиническая обоснованность» (7,1), что содержательно согласуется с количественными данными по блокам компетенций: студенты увереннее справлялись с организационной и коммуникативной частью задания, чем с глубиной клинико-фармацевтической аргументации.

Контент-анализ 38 рефлексивных отчётов студентов ЭГ позволил выделить три устойчивые смысловые категории. Наиболее частотной (упоминается в 29 из 38 отчётов) стала категория «понимание множественности решений» - студенты отмечали, что до участия в кейсах воспринимали профессиональные задачи как имеющие единственно верный ответ, тогда как разбор реальных ситуаций показал им возможность нескольких обоснованных решений. Второй по частоте (24 из 38) стала категория «ценность командной работы», третьей (19 из 38) - «осознание ответственности фармацевта за последствия решения», что напрямую

перекликается с этапом рефлексивного прогноза последствий, заложенным в структуру кейс-метода [2].

Центральный результат исследования - неоднородность эффекта кейстехнологии и проектного обучения по разным группам компетенций - представляется методически важным выводом, который редко формулируется явно в литературе, посвящённой инновационным технологиям в фармацевтическом образовании. Работы, описывающие кейс-метод в подготовке специалистов помогающих профессий, в целом фиксируют его позитивное влияние на становление субъектной позиции и креативность мышления [7], но не разграничивают эффект по содержательным блокам компетенций - тогда как для фармацевтического образования такое разграничение принципиально: провизор должен одновременно обладать точным клиническим знанием и гибким организационным мышлением, а данные настоящего исследования показывают, что эти два типа компетенций формируются, по-видимому, разными педагогическими средствами.

Показательно и то, что относительно скромный, хотя и статистически значимый, прирост по клинико-фармацевтическому блоку в ЭГ (12,7 балла) заметно уступает приросту, который даёт применение симуляционных и цифровых инструментов, прицельно отрабатывающих конкретные профессиональные операции проверки рецепта и выявления взаимодействий. Отсюда следует практический вывод: кейс-метод и проектное обучение не заменяют, а дополняют симуляционно-тренажёрные технологии, и оптимальной представляется методика, сочетающая оба подхода - с распределением по этапам обучения таким образом, чтобы кейсы и проекты преобладали в дисциплинах организационно-управленческого профиля, а симуляционные инструменты - в дисциплинах клинико-фармацевтического цикла.

Результаты контент-анализа рефлексивных отчётов дополняют количественную картину и указывают на эффект, который трудно уловить формализованными шкалами, - изменение самого отношения студента к профессиональной задаче: переход от установки на поиск «правильного ответа» к пониманию профессиональной деятельности как области обоснованного выбора между альтернативами. Это согласуется с идеей о том, что компетентностная парадигма образования предполагает замещение стиля «преподавание» стилем «обучение», основанным на поисковой активности студента [5], и, по-видимому, именно этот сдвиг установки, а не только прирост измеряемых баллов, представляет наиболее долгосрочную педагогическую ценность кейс-технологии.

Ограничения исследования связаны с относительно небольшой и локальной выборкой, ограниченной одним факультетом и одним учебным модулем, а также с тем, что экспертная оценка проектных работ, несмотря на

приемлемый уровень согласованности экспертов, сохраняет элемент субъективности, присущий любой качественной оценке продукта творческой деятельности. Дальнейшие исследования целесообразно направить на разработку комбинированной методики, объединяющей кейс-технологию, проектное обучение и симуляционные инструменты в единую систему практических занятий, а также на изучение того, сохраняется ли зафиксированный в настоящем исследовании эффект смены установки студента в долгосрочной перспективе, после начала самостоятельной профессиональной деятельности.

Исследование показало, что кейс-технология и проектное обучение являются действенным средством формирования профессиональных компетенций будущих фармацевтов, однако их эффект неравномерен: наибольший прирост достигается в организационно-управленческих и коммуникативных компетенциях, тогда как влияние на узкопрофессиональные клинико-фармацевтические знания оказывается более умеренным по сравнению с технологиями, прицельно моделирующими конкретные профессиональные операции. Этот вывод позволяет сформулировать практическую рекомендацию: методику подготовки фармацевтов целесообразно выстраивать не вокруг одной «универсальной» инновационной технологии, а как систему, в которой кейс-метод и проектное обучение отвечают за развитие организационно-аналитического и коммуникативного мышления, а симуляционные и цифровые инструменты - за отработку конкретных профессиональных операций.

Отдельного внимания заслуживает зафиксированный качественный эффект - изменение отношения студентов к профессиональной задаче как области обоснованного выбора, а не поиска единственно верного ответа. Формирование такой установки представляется не менее значимым результатом обучения, чем прирост измеряемых показателей, и должно учитываться при проектировании итоговой аттестации выпускников фармацевтических программ, которая сегодня чаще ориентирована на проверку знаний, чем на оценку способности к обоснованному профессиональному суждению.

Список литературы:

1. Кейс-метод в практике школьного образования: методические материалы. URL: https://www.surwiki.admsurgut.ru/wiki/images/f/fb/Кейс_технология.pdf

2. Кейс-метод в обучении педагогов-психологов: научно-методический аспект // КиберЛенинка. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/keys-metodv-obuchenii-pedagogov-psihologov-nauchno-metodicheskiy-aspekt

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 10.04.2026 г. № ПФ-58 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций». URL: https://nrm.uz

4. Подготовка фармацевтических кадров: фундаментальные основы и современные тренды // Panor.ru. URL: https://panor.ru/articles/podgotovkafarmatsevticheskikh-kadrov-fundamentalnye-osnovy-i-sovremennyetrendy/52756.html

5. Кейс-технология как средство реализации компетентностного подхода в подготовке будущих специалистов дошкольного образования в условиях педагогического колледжа / А.С. Уйман // Педагогический опыт: сборник публикаций. URL: https://www.pedm.ru/categories/3/articles/948

6. Проблемно-ориентированное обучение: что это и чем лучше традиционного // Блог SkillFactory. URL: https://blog.skillfactory.ru/chtotakoe-problemno-orientirovannoe-obuchenie/

7. Кейс-технология как средство реализации компетентностного подхода в подготовке будущих специалистов дошкольного образования в условиях педагогического колледжа. URL: https://www.pedm.ru/categories/3/articles/948

8. Тошкент фармацевтика институти: историческая справка. URL: https://talimtelekanali.uz/uzc/toshkent-farmatsevtika-instituti-10-01-2025/

9. Ташкентский фармацевтический институт. Организация фармацевтической деятельности: учебно-методическое пособие / Умарова Ш. и др. URL: https://www.researchgate.net/profile/ShakhnozUmarova

10. Зеер Э.Ф., Романцев Г.М. Личностно ориентированное профессиональное образование // Педагогика. 2002. № 3. С. 16–21.

11. Компетентностный подход в педагогическом образовании: коллективная монография / под ред. В.А. Козырева, Н.Ф. Радионовой, А.П. Тряпицыной. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2008.

12. Ломакина Т.Ю., Сергеева М.Г. Современные технологии профессионального обучения в условиях перехода на компетентностноориентированное образование. М., 2008.

13. International Pharmaceutical Federation (FIP). FIP Global Competency Framework. The Hague: International Pharmaceutical Federation.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
7-son

UDK: 376.1-056.26:37.016

Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi,
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Namangan filiali magistranti

FANLARARO INTEGRATSIYA VA UNING INKLYUZIV TA'LIMDAGI DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fanlararo integratsiyaning nazariy asoslari, uning inklyuziv ta'lim tizimidagi o'rni hamda didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari, differensial va individual yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik metodlarning inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy-pedagogik manbalar asosida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiya inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, ta'lim mazmunini boyitish va barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishda muhim didaktik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: fanlararo integratsiya, inklyuziv ta'lim, didaktik imkoniyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim, differensial ta'lim, individual yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, maxsus ta'lim ehtiyojlari.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ И ЕЁ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы межпредметной интеграции, её роль в системе инклюзивного образования и дидактические возможности. Освещается значение организации образовательного процесса на основе межпредметной интеграции для развития знаний, умений и компетенций обучающихся с особыми образовательными потребностями. Также анализируются интегрированные образовательные технологии, дифференцированный и индивидуальный подходы, а также современные педагогические методы, способствующие повышению эффективности инклюзивного образования. На основе анализа научно-педагогической литературы сделан вывод о том, что межпредметная интеграция является важным дидактическим средством повышения качества инклюзивного образования, обогащения содержания обучения и обеспечения равных образовательных возможностей для всех обучающихся.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, инклюзивное образование, дидактические возможности, компетентностный подход, интегрированное обучение, дифференцированное обучение, индивидуальный подход, педагогические технологии, качество образования, особые образовательные потребности.

INTERDISCIPLINARY INTEGRATION AND ITS DIDACTIC OPPORTUNITIES IN INCLUSIVE EDUCATION

Abstract. This article examines the theoretical foundations of interdisciplinary integration, its role in inclusive education, and its didactic potential. It highlights the importance of interdisciplinary teaching in developing the knowledge, skills, and competencies of learners with diverse educational needs. The study also discusses integrated educational technologies, differentiated and individualized instruction, and modern pedagogical approaches that contribute to improving the effectiveness of inclusive education. Based on the analysis of scientific and pedagogical literature, the article concludes that interdisciplinary integration serves as an effective didactic tool for improving the quality of inclusive education, enriching educational content, and ensuring equal learning opportunities for all students.

Keywords: interdisciplinary integration, inclusive education, didactic opportunities, competency-based approach, integrated learning, differentiated instruction, individualized learning, educational technologies, quality of education, special educational needs.

Jahon ta’lim tizimining bugungi taraqqiyot bosqichida ta’lim sifatini oshirish, barcha o‘quvchilar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim modelini rivojlantirish pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda faqatgina zarur texnik va moddiy shart-sharoitlarni yaratish bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish, o‘quv jarayonini o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim mazmunini fanlararo integratsiya asosida loyihalash inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning muhim metodik yo‘nalishlaridan biridir.

Fanlararo integratsiya turli fanlarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish orqali o‘quvchining borliq haqidagi tasavvurlarini yaxlit tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda fanlar alohida va bir-biridan ajratilgan bilimlar majmui sifatida emas, balki yagona ta’limiy maqsadni amalga oshiruvchi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar sifatida qaraladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida fanlararo integratsiyaning ahamiyati yanada ortadi. Chunki integrativ

yondashuv o‘quv materialini o‘quvchilarning individual kognitiv imkoniyatlari va ta’limiy ehtiyojlaridan kelib chiqib soddalashtirish, vizuallashtirish va amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Natijada nazariy bilimlarning abstraktligi kamayib, ularning o‘quvchining hayotiy tajribasi va kundalik faoliyati bilan bog‘liqligi kuchayadi.

Fanlararo integratsiyaning didaktik imkoniyatlari, avvalo, bilimlarni yaxlit holda o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi alohida fanlar doirasidagi ma’lumotlarni parcha-parcha axborot sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yagona bilimlar tizimi sifatida qabul qiladi. Bu jarayon axborotni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish kabi kognitiv ko‘nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, turli fanlar mazmunining o‘zaro uyg‘unlashtirilishi o‘quvchilarning muayyan hodisa yoki muammoni bir nechta nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishiga imkon beradi.

Integrativ ta’lim o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Masalan, matematika va san’at, tarix va tabiatshunoslik kabi fanlarning mazmuniy jihatdan uyg‘unlashtirilishi o‘quvchidan muammoli vaziyatni turli fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishni talab etadi. Bunday topshiriqlar tayyor bilimni o‘zlashtirishdan ko‘ra, mavjud bilimlardan yangi vaziyatlarda foydalanishga undaydi. Natijada o‘quvchilarda muammoni mustaqil tahlil qilish, turli yechimlarni izlash va o‘z qarashlarini asoslash ko‘nikmalari shakllanadi.

Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim jihati uning kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘liqligidir. Bunda ta’limning asosiy e’tibori faqat “nima o‘qitish” masalasiga emas, balki olingan bilimlarni “qanday qo‘llash”ga qaratiladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida bunday yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki o‘quvchilarning qobiliyati, o‘zlashtirish sur’ati va ta’limiy ehtiyojlari bir xil emas. Fanlararo topshiriqlar esa o‘quvchiga o‘zining kuchli tomonlarini namoyon etish, bilim va ko‘nikmalarini turli faoliyat turlarida qo‘llash uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Fanlararo integratsiya ta’lim jarayonini “ta’limda universal dizayn” (Universal Design for Learning — UDL) tamoyillariga moslashtirish uchun ham qulay metodik asos bo‘la oladi. Mazkur yondashuv ta’lim mazmunini barcha o‘quvchilar, shu jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun tushunarli va qulay shakllarda taqdim etishni nazarda tutadi. Integrativ darslarda matn, tasvir, jadval, amaliy topshiriq, tajriba, modellashtirish kabi turli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning axborotni qabul qilish va qayta ishlashdagi individual farqlarini hisobga olish imkonini kengaytiradi.

Inklyuziv ta’lim muhiti o‘quvchilarning psixofiziologik rivojlanish darajasi, kognitiv imkoniyatlari, o‘zlashtirish sur’atlari va shaxsiy ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda barcha o‘quvchilarga bir xil metod va vositalar asosida ta’lim berishga yo‘naltirilgan an’anaviy yondashuv har doim ham

kutilgan natijani bermaydi. Shu bois ta'lim mazmunini turli fanlar kesimida uyg'unlashtirish, differensial va individual yondashuvlarni integrativ asosda qo'llash, shuningdek, zamonaviy didaktik texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Fanlararo integratsiya o'quv materialini alohida qismlarga ajratib o'rganish o'rniga, uni o'zaro bog'liq holda tashkil etish orqali bir qator pedagogik vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Jumladan, u bilimlarning kognitiv chuqurligini ta'minlab, o'quvchilarga mavzuni tizimli ravishda anglash imkonini beradi. Nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash esa amaliy kompetensiyalarning shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, o'quv jarayonining qiziqarli, moslashuvchan va faoliyatga yo'naltirilgan tarzda tashkil etilishi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi hamda o'quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, sifatli ta'lim muhitini shakllantirish va ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy baholash mexanizmlarining kirib kelishi o'quv jarayonini yangicha tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonda fanlararo integratsiya ta'lim mazmunini boyituvchi va o'quvchilarning turli kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida muhim o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim maktablarining inklyuziv sinflarida fanlararo integratsiyani amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, integrativ yondashuvni inklyuziv sinflarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtiruvchi metodik qo'llanmalar va dars ishlanmalarining yetarli emasligi, o'qituvchilarning fanlararo bog'liqlikdan tizimli foydalanish bo'yicha amaliy tajribasining cheklanganligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta'limdagi didaktik imkoniyatlarini nazariy va empirik jihatdan chuqur tadqiq etish, uning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash ham dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur holatlar fanlararo integratsiyani inklyuziv ta'limning o'ziga xos ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, uni amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va pedagoglar uchun metodik ta'minotni takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shu jihatdan, tadqiqotning dolzarbligi inklyuziv ta'lim sharoitida fanlararo integratsiyani samarali tashkil etishning didaktik asoslarini aniqlash va uning pedagogik amaliyotdagi imkoniyatlarini asoslash bilan belgilanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi fanlararo integratsiyaning nazariy-pedagogik asoslarini tahlil qilish, uning inklyuziv ta'limdagi didaktik imkoniyatlarini ochib berish hamda integratsiyalashgan ta'limni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida fanlararo integratsiyaning

inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini boyitish va individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishdagi o'rni ilmiy manbalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta'limdagi didaktik imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga yo'naltirildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, didaktika va inklyuziv ta'lim sohasidagi ilmiy qarashlarga tayangan holda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Uning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan hamda inklyuziv ta'lim tamoyillari tashkil etdi. Bunday yondashuv fanlararo integratsiyani faqat turli fanlar mazmunining mexanik birlashuvi sifatida emas, balki o'quvchining yaxlit bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, fanlararo integratsiya va inklyuziv ta'lim masalalariga oid milliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va metodik manbalar qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganildi. Nazariy tahlil, sintez, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida fanlararo integratsiyaning mazmuni, asosiy tamoyillari va didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Mazkur metodlar turli ilmiy yondashuvlarni o'zaro qiyoslash, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda tadqiqot mavzusiga bevosita daxldor nazariy qarashlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, inklyuziv ta'lim amaliyotida fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida kuzatish, pedagogik tajribalarni tahlil qilish va mavjud ilmiy-amaliy natijalarni qiyoslash usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy tahlil qilinib, fanlararo integratsiyaning o'quvchilarning bilish faoliyati, amaliy kompetensiyalari, o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi fanlararo integratsiyani alohida fanlarning oddiy birlashtirilishi emas, balki o'quvchilarda yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, turli fanlarga oid bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash va individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida talqin etishga asoslandi. Shu nuqtayi nazardan, Universal Design for Learning (UDL), differensial ta'lim va individual yondashuv tamoyillarining fanlararo integratsiya bilan uyg'unligi inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik omil sifatida qaraldi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy manbalarni tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish, turli nazariy yondashuvlarni o'zaro solishtirish, pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda olingan xulosalarni zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan taqqoslash orqali ta'minlandi. Mazkur metodologik asos fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta'limdagi o'rnini turli jihatlardan baholash, uning

didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ta’lim amaliyotida foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni baholashning asosiy mezonlari belgilandi. Tahlillar fanlararo integratsiyaga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit idrok etishi, fanlar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikni anglash va o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatdi. Bunda ta’lim mazmunining turli fanlar bilan bog‘lanishi o‘quvchiga biror hodisa yoki muammoni faqat bitta fan doirasida emas, balki bir nechta bilim sohasi nuqtayi nazaridan tushunish imkonini beradi.

Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun integratsiyalashgan darslarning ahamiyati yuqori bo‘lib, bunday mashg‘ulotlarda o‘quv materiali turli shakl va vositalar orqali taqdim etilishi uning o‘zlashtirilishini yengillashtiradi. Vizual materiallar, amaliy topshiriqlar, modellashtirish, tajriba va kundalik hayotga oid vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirishi, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishi va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Shu asosda fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’limdagi didaktik imkoniyatlarini baholash uchun bir qator mezonlar taklif etildi. Mazkur mezonlar integratsiyalashgan ta’limning nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy faoliyati, kommunikativ imkoniyatlari va individual ta’lim ehtiyojlarini qondirishga ta’sirini aniqlashga yo‘naltirildi.

1-jadval

Fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta'limdagi didaktik imkoniyatlarini baholash mezonlari

Mezoni	Tavsifi	Kutilayotgan natija
Bilimlarning yaxlitligi	Fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash	Tizimli tafakkur shakllanadi
O‘quv motivatsiyasi	Integratsiyalashgan topshiriqlarga qiziqish	Darsdagi faollik ortadi
Kompetensiyalar rivoji	Muammoli vaziyatlarni hal qilish	Amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi
Individual yondashuv	Turli ehtiyojlarni hisobga olish	Ta'lim sifati oshadi
Hamkorlik	Guruhli faoliyatni tashkil etish	Ijtimoiy moslashuv rivojlanadi

Jadvalda keltirilgan mezonlar fanlararo integratsiyaning mazmunan turli fanlarni o‘zaro bog‘lash bilangina cheklanmasligini, balki inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillarini amaliy jihatdan ta’minlashga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida o‘quv materiali o‘zaro bog‘liq holda taqdim etilgani sababli o‘quvchilarda mavzuni yaxlit anglash, turli bilimlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash va o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyati kengayadi.

Nazariy tahlillar natijasida fanlararo integratsiyaning inklyuziv ta’limdagi didaktik imkoniyatlari bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Avvalo, integratsiya o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Turli fanlarga oid bilimlarning yagona mazmuniy kontekstda berilishi o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga va bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra olishiga sharoit yaratadi.

Shuningdek, fanlararo yondashuv individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bir mavzuni turli faoliyat turlari, ko‘rgazmali vositalar va amaliy topshiriqlar orqali o‘rganish o‘quvchilarning individual qobiliyati, o‘zlashtirish sur’ati va axborotni qabul qilish xususiyatlariga mos ta’lim sharoitlarini yaratishga yordam beradi. Bu esa differensial ta’limni tashkil etish uchun qulay pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda juftlik va guruhli ishlar, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish, fikr almashish hamda o‘z faoliyati natijasini taqdim etish kabi usullardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, inklyuziv sinflarda bunday faoliyat o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirib, ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga imkon beradi.

Fanlararo integratsiya o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun ham muhim didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Turli fanlarga oid bilimlardan foydalanishni talab qiladigan topshiriqlar o‘quvchini tayyor javobni qabul qilishdan ko‘ra, muammoni tahlil qilish, mavjud ma’lumotlarni taqqoslash, xulosa chiqarish va mustaqil yechim izlashga yo‘naltiradi. Shu jihatdan, fanlararo integratsiya inklyuziv ta’limda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish vositasi, balki o‘quvchining individual imkoniyatlarini namoyon etish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

2-jadval

Fanlararo integratsiyaning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Baholash usuli	Izoh
O‘quv motivatsiyasi	Kuzatish, anketa	Darsga qiziqish darajasi
O‘zlashtirish sifati	Nazorat ishlari	Bilim va ko‘nikmalar sifati
Faollik	Pedagogik kuzatish	Guruh ishlari va muhokamalarda ishtirok
Hamkorlik	Ekspert bahosi	Jamoada ishlash ko‘nikmalari

Moslashuv	Psixologik kuzatish	Inklyuziv muhitga moslashish

Olingan nazariy natijalar fanlararo integratsiya inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning muhim didaktik omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Fanlararo yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o‘quvchilarning bilimlarni tizimli va yaxlit o‘zlashtirishi, fanlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglash hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim mazmunining hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lanishi o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlardan real sharoitlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Integratsiyalashgan yondashuv, ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini faollashtirish va individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. O‘quv materialini turli usullar, faoliyat shakllari va murakkablik darajalari orqali taqdim etish differensial va individual yondashuvlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga mos faoliyatda ishtirok etib, umumiy ta'lim jarayonidan chetda qolmasdan, o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday ta'lim muhiti ularning o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va moslashuv jarayonlarini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, fanlararo integratsiyaning samaradorligi uni qanday metod va vositalar asosida tashkil etishga ham bevosita bog‘liq. Integratsiyalashgan darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati va hamkorlikka asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli va vizual resurslardan foydalanish turli ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun o‘quv materialini yanada tushunarli va qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar asosida inklyuziv ta'limda fanlararo integratsiyani takomillashtirish bo‘yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, umumiy o‘rta ta'lim maktablarida fanlararo integratsiyaga asoslangan dars ishlanmalarini ishlab chiqish va ularni fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda inklyuziv sinflarning ehtiyojlaridan kelib chiqib amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Buning uchun pedagoglarning fanlararo integratsiya, differensial ta'lim va inklyuziv pedagogika bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga yo‘naltirilgan seminar, trening va metodik mashg‘ulotlarni kuchaytirish zarur.

Shuningdek, o‘quv dasturlari va metodik ta'minotni inklyuziv ta'lim tamoyillari asosida takomillashtirish, turli ta'lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun differensial topshiriqlar va Universal Design for Learning tamoyillariga mos o‘quv resurslarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bunday resurslarda o‘quv materialining turli shakllarda taqdim etilishi, o‘quvchilarga topshiriqni bajarishning

bir nechta usullarini tanlash imkoniyatining berilishi hamda o‘zlashtirish natijalarini namoyon etishning muqobil shakllaridan foydalanish nazarda tutilishi lozim.

Fanlararo integratsiyaning amaliy samaradorligini aniqlash uchun uning natijalarini baholash mezonlari va muntazam monitoring tizimini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir. Bunda faqat o‘quvchilarning akademik natijalarini emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, kommunikativ faolligi, muammoli vaziyatlarda bilimlardan foydalanishi, hamkorlikda ishlashi va ta’lim jarayonidagi ishtiroki kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, fanlararo integratsiya inklyuziv ta’lim sifatini oshirish, ta’lim mazmunini boyitish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish va XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vositalardan biridir. Uning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish uchun fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lashning o‘zi yetarli bo‘lmay, ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda loyihalash talab etiladi. Shu jihatdan, fanlararo integratsiyani inklyuziv ta’limning metodik asoslari bilan uyg‘unlashtirish ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlash va uning sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kelgusida mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amaliy-eksperimental jihatdan kengaytirish, fanlararo integratsiyaning turli ta’lim bosqichlaridagi samaradorligini aniq mezonlar asosida baholash, o‘quvchilarning individual rivojlanish ko‘rsatkichlarini qiyosiy o‘rganish hamda inklyuziv ta’lim uchun innovatsion integrativ metodik modellarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. (2020). Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. Paris: UNESCO.

2. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO.

3. United Nations Children's Fund. (2021). Seen, Counted, Included: Using Data to Shed Light on the Well-Being of Children with Disabilities. New York: UNICEF.

4. Ainscow, Mel. (2020). Promoting Inclusion and Equity in Education: Lessons from International Experiences. London: Routledge.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-4860-son qaror).

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
7-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694